ISSN 2091-5446

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2019-yil, 6-son (118) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Filologiya, Pedagogika, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV	- O‘zFA akademigi	**A. A. ABULQOSIMOV**	- geogr.f.d., professor
T. M. MO‘MINOV	- O‘zFA akademigi	**J. D. ELTAZAROV**	- fil.f.d., professor
SH.A.ALIMOV	- O‘zFA akademigi	**D. I. SALOHIY**	- fil.f.d., professor
S.N. LAKAYEV	- O‘zFA akademigi	**S. A. KARIMOV**	- fil.f.d., professor
T.RASHIDOV	- O‘zFA akademigi	**T. SH. SHIRINOV**	- tar.f.d., professor
S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi	**M.D.DJURAKULOV**	- tar.f.d., professor
N. N. NIZAMOV	- f.-m.f.d., professor	**I. M. SAIDOV**	- tar.f.d., professor
A. S. SOLEYEV	- f.-m.f.d., professor	**B. O. TO‘RAYEV**	- fals.f.d., professor
I. A. IKROMOV	- f.-m.f.d., professor	**O.M. G‘AYBULLAYEV**	- fals.f.d., professor
B. X. XO‘JAYAROV	- f.-m.f.d., professor	**J.YA.YAXSHILIKOV**	- fals.f.d., professor
I. I. JUMANOV	- f.-m.f .d., professor	**M. Q. QURONOV**	- ped.f.d., professor
E. A. ABDURAXMONOV	- k.f.d., professor	**X. I. IBRAGIMOV**	- ped.f.d., professor
N. K. MUXAMADIYEV	- k.f.d., professor	**N. SH. SHODIYEV**	- ped.f.d., professor
J. X. XO‘JAYEV	- b.f.d., professor	**E. G‘. G‘OZIYEV**	- psixol.f.d., professor
Z. I. IZZATULLAYEV	- b.f.d., professor	**SH. R. BARATOV**	- psixol.f.d., professor
Z. F. ISMAILOV	- b.f.d., professor	**B. Q. QODIROV**	- psixol.f.d., professor
L. A. ALIBEKOV	- geogr.f.d., professor	**B. X. TO‘RAYEV**	- i.f.d., professor

Obuna indeksi – yakka tartbidagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENTS

FILOLOGIYA / PHILOLOGY

M. Q. Muhiddinov
Xusrav Dehlaviy ijodida inson talqini (“Matla’ ul-anvor” misolida) 5

T. Valiyev
Yo‘l-kommunikasiya terminologiyasining shakliy strukturasiga ko‘ra turlari 8

B. X. Mardiyev
O‘zbek tilshunosligida izhorli qurilmalar talqiniga doir 13

M. J. Hasanova
Lutfiyning Boysunqur mirzoga bag’ishlangan qasidalari 15

B. X. Daniyarov
O‘zbek tilida leksik o‘zlashmalar va ularning o‘zbekcha sinonimlari 18

N. M. Muxitdinova
Nodirabegim she'riyatida tasavvufiy qarashlar talqini 21

I. T. Saymuratova
Oydin Hojieva she’riyatida vatan manzaralari 24

A. Q. Sobirov
She’riyatda noodatiy so‘z tartibi – inversiyaning o‘ziga xos xususiyatlari 27

N. A. Isakova
Borrowing is the main way of updating the lexis of the uzbek language 31

Н. А. Вохидова, Д. Д. Марупова
Методика обучения произношению при изучении русского языка как иностранного 35

R. R. Sayfullayeva, N. A. Sadullayeva
Turli tizimli tillarda yig‘iq gaplar 38

N. Ashurova
About English methodical terms 40

S. U. Tagayeva
Maqollarda «Ona» konseptining ifodalanishi 43

D. Mo‘minova
Lirik kechinmalar badiiyati 46

L. A. Abdusalamova
National character of english people through the prism of concepts 49

PEDAGOGIKA / PEDAGOGICS

M. X. Abduraxmonov
Talabalarni axborot xavfsizligiga o‘rgatishda tarmoq o‘quv-axborot resurslaridan foydalanish 54

A. A. Raximov
Bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlash prinsiplari 57

X. A. Akramova
Ta'lim muassasalarida innovatsion va ilmiy-tadqiqot faoliyatining me'yoriy va metodologik asoslari 61

K. Maxkamova
The importance of intercultural communicative competence in English as a foreign language lessons 64

G. M. Davronova, Sh. Sh. Shaykulov
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishning pedagogik va psixologik jihatlari 67

K. A. Tuxtabekov
Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan huquqiy tadbirlar 71

I. B. Aminov, A. I. Inatov
O'quv jarayonini tashkil etishda modellashtirish vositalaridan foydalanish 74

O. E. Toshmurodov
O'zbek kurashining dunyoda ommaviylashuvi tahlili 78

V. Q. Begimqulova
Innovatsion texnologiyalar va usullardan foydalanish orqali o'qitish sifatini oshirish shartlari 82

Н. С. Тойчиева
Проблемы обучения русскому языку в национальной аудитории 84

S. To'ychiyeva
Oilada yoshlarning internet tarmog'idan foydalanish madaniyatini shakllantirish 87

N. Shodiyev, D. Sulaymanova, R. Tuxtasheva
O'rta Osiyo mutafakkirlari merosi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vositasi sifatida 90

T. Sh. Karshiyeva
Yevropada xorijiy til o'rgatishning ilk tajribalari 94

M. Rahimqulova, Sh. Usanov
Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy tamoyillari 98

Т. Османова, Р Уразова
Воспитательный процесс в развитии патриотизма у студентов, посредством культурно-досуговой работы на педагогическом факультете САМГУ 103

D. I. Tosheva
O'quvchilarni ekologik qadriyatlar vositasida tarbiyalashning ayrim yo'llari 105

О. Ж. Дадабаев
Повышение физической подготовленности юношей учебно-тренировочных групп по борьбе дзюдо 109

I. U. Izbosarov, Z. B. Sultonova
O'quvchilar texnik ijodkorligining loyihalashga o'rgatishdagi o'rni 112

Yu. A. Ahrorov, N. Sh. Mirzoeva
Talabalarda konfliktologik kompitentlikni shakllantirishning nazariy asoslari 117

I. R. Turakulov
Talaba qizlarning jismoniy rivojlanish koʻrsatgich uzgarishini oʻrganish 120

E. A. Tursunqulov
Jismoniy tarbiya va sport sohasini boshqarishning bugungi kundagi holati 124

Ch. Tursunova, G. S. Abduraxmanova, F. R. Fayzullayeva
Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini kasblar olami bilan tanishtirish mavzusining ilmiy pedagogik asoslari 127

Sh. B. Oydinov
Rangtasvir san'atining ta'lim va tarbiyada tutgan oʻrni 130

R. T. Sultonov
Sport mashgʻulotlarida jismoniy yuklamalar tavsifi 134

D. A. Shayzakova
Kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirishda metodik tizimni ishlab chiqish 136

G. Ibroimova
Maktabgacha yoshdagi bolalar harakat faolligini oshirishda dastlabki gimnastika mashgʻulotlarini takomillashtirish mexanizmlari 140

S. Usmonov
Boshlang'ich ta'limda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning ijtimoiy-pedagogik mohiyati 145

PSIXOLOGIYA / PSYCHOLOGY

N. M. Majidov, S. X. Nasimov
Taʻlim jarayoniga psixologik yondashuv 148

K. F. Murodov
Psixologiyada ijtimoiy va shaxsiy identifikatsiyalashtirish nazariy tahlili 151

Oʻ. B. Shamsiyev
Dastlabki muloqot va mehrli munosabat sogʻlom bola shakllanish mexanizmi sifatida 154

Ф. Б. Нарзикулова
Формирование профессионального имиджа и принципы его построения 157

Gʻ. X. Yaxshiboyev, G. A. Ergasheva
Orfografiyani adaptiv oʻrgatishning psixologik-pedagogik asoslari 162

M. B. Yuldasheva
Talaba-yoshlarda ijtimoiy-psixologik yolgʻizlik hissi namoyon boʻlishining empirik tahlili 167

D. F. Joʻraqulova, F. X. Kuchkarova
Aybdorlik hissini boshdan kechirishdagi yosh va gender farqlar 171

M. I. Salaxutdinova
Iste'molchini idrok etishda psixologik komponentlar 176

M. Zakirova, N. Djuxonova
Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari 181

Mualliflarga

UDK: 891.709

XUSRAV DEHLAVIY IJODIDA INSON TALQINI (“MATLA’ UL-ANVOR” MISOLIDA)

M. Q. Muhiddinov
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yirik xamsanavis shoir Xusrav Dehlaviyning “Matla’ ul-anvor” dostonida butun adabiyot tarixini tashkil etuvchi inson talqini masalasi yoritilgan. Unda muallif shoirning inson xilqati, uning buyukligi, ilohiyligi, siyrati va surati, axloqi, faoliyati, niyat-orzulari masalasi ustida ko‘tarinki bir pafosda ijod etganiligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: xamsanavis, doston, inson talqini, inson xilqati, siyrat va surati, pafos, shayx, oshiq, so‘fiy, shariat, tariqat, haqiqat, qiyoslash.

Интерпретация человеческой судьбы в творчестве Хусрава Дехлави (На примере “Матлаъ ул-анвор”)

Аннотация. Это статья посвещена изучению портрета человека, который составляет всю историю литературы в произведении выдающего поэта поэта-хамсаписца Хусрева Дехлеви “Матлаъ ул-анвор. Автор говорит об исскустве поэта, который освещает с высоким пафосом сушность человека, его величество, божественность, изящность и портрет, этикет, в целом, его дела, чаяния и мечты.

Ключевые слова: произведение, портрет человека, сущность человека, изящность и портрет, пафос, шейх, влюбленный, суфист, шариат, тарикат, истина, сопоставление.

Person's image in the works of Husrav Dehlavi

Abstract. This article is about person's image as history of whole literature in dastan "Matla ul-anvor" by great hamsa writer-poet Husrav Dehlavi. The author emphasizes the poet's narration about person, his greatness, creation, image and spirit, morality, activity and dreams.

Keywords: hamsa writer, dastan, person's image, person's creation, image and spirit, sheikh, sufi, sheriat, tarikhat, truth, comparing.

Inson hamma zamonlarda ham adabiyotning bosh mavzusi bo‘lib kelgan. «Adabiyot insonshunoslik fani» ekan, demak, butun adabiyot tarixini inson haqidagi fikriy-g‘oyaviy qarash, insonni tasvirlash, inson mohiyatini kashf eta borish tarixi deb atasa bo‘ladi. Chunki har bir yozuvchi, har bir shoir jamiyat hodisalari, o‘zini qiziqtirgan, to‘lqinlantirgan g‘oyalarni qalamga olar ekan, albatta, inson siyrati va surati, axloqi, faoliyati, niyat-orzulariga qadalib o‘tadi. Insonning o‘zi nima, u qayerdan kelib chiqqan, hayotda o‘zini qanday tutishi kerak, insoniyat jamiyati, odamlar fikrining bir-biriga munosabati nimalar asosida qurilishi lozim? Bu savollar faqat faylasuflar, siyosatdonlarnigina emas, adiblarni ham band etgan. Ko‘p asrlik Sharq adabiyotida inson problemasi doimiy ravishda bahs-munozaraga sabab bo‘lib, turli qarashlarni vujudga keltirgan. Sharqning gumanist shoirlari diniy hurofot va feodal zulm-istibdodning kuchaygan davrlarida kam insonni ulug‘lash, uning ajib fazilatlarini vasf etish, nomaqbul, tuban holatlarini tanqid qilishni kanda etmaganlar.

Buni buyuk shoirlar – Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodida, xususan, ularning so‘fiyona-falsafiy dostonlari «Maxzan ul-asror», «Matla’ ul-anvor», «To‘hfat ul-ahror» va «Hayrat ul-abror»da ko‘rsa bo‘ladi.

Amir Xusrav dostoni garchi Nizomiy ta’sirida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, ammo ularda har bir shoir yashagan zamonning talablari, muallifning shaxsiy qarashlari, o‘y-fikri aks etganini unutmasligimiz lozim. Ular shunchaki, inson haqida fikr yuritish, uning falsafiy mohiyatini anglash uchun intilgan emaslar. Buyuk shoirlarni, avvalo yaxshi inson fazilatlari nimadan iborat, qanday qilib yaxshi odam bo‘lishi kerak, degan masalalar qiziqtirgan va har biri o‘z kuzatishlarining natijasini ifodalagan.

Xusrav Dehlaviyda umumiy kirishdan keyin uchta munojot va na’t keladi. So‘ngra shoir o‘z piri Nizomiddin avliyo, sulton Aloiddin, yana bir hukmdor madhiga o‘tadi. So‘ngra asarning tartib va tarkibi xususida gapiradi-da, orqasidan uchta xilvat (uchta falsafiy-tasavvufiy boblar)ni yozadi. SHundan keyin yigirmata maqolat keladiki, har biri maqolat bitta hikoyat bilan yakunlanadi. Asarning oxirgi bobi «Guftori ixtimomi kitob» (Kitob tugallangani haqida so‘z) deb nomlangan. Xusrav Dehlaviy asari, shunday qilib, hammasi bo‘lib, 55 bobdan iborat.

Maqolatlar va ularning hikoyalari soni 20 ta. Amir Xusrav dostonining birinchi bayti:

Bismilohir-rahmonir-rahim
Xutbai quds ast ba mulki qadim. [1; 83]

Ulug‘ shoir so‘z ibtidosini «Bismillo» bilan boshlab, ilohiyot olamining azal va abadligi, cheksizligi, vahdatga shak keltirish kufr ekanligi haqida yozadi. Amir Xusravning «Matla’ ul-anvor» 20-maqolatida o‘z qizi va barcha qizlarga nasihat so‘zlari keltiriladi. Bu borada xiyla ibratli o‘gitlar bayon etilgan.

Endi asosiy mavzuimiz – inson talqini masalasiga kelganda aytish kerakki, Amir Xusrav Dehlaviyning odamning yaratilishi, xilqati va axloqiy-ijtimoiy vazifalari haqidagi qarashlari islom aqidalari asosida shakllangan. To‘g‘ri, inson haqidagi fikr-tushunchalar dunyodagi barcha xalqlarning og‘zaki va yozma adabiyotlarida mavjud. Shuningdek, bashariyat mutafakkirlari qadim-qadimdan odam haqida o‘yga tolib, uni o‘rganib, muhim xulosalarni bayon etganlar. Qadimgi Misr, Bobil, yahudiy, fors, yunon donishmandlari, faylasuflari inson xilqatini o‘rganib chiqib, o‘z davrlari uchun ham, keyingi avlodlar uchun ham ibrat bo‘ladigan gaplarni bayon etgani ma’lum. Umuman, insonga bo‘lgan qarashning o‘z tarixi bor, chunki har bir davr mafkurasi inson talqinida o‘zgacha yo‘l tutgan. Inson odobi, vazifalari ham zamonlar o‘tishi bilan o‘zgarib turgan. SHunga o‘xshash islom dinining ham inson haqidagi o‘z qarashlari bor. Bu qarashlar musulmonlarning muqaddas, ilohiy kitobi bo‘lmish Qur’oni karimda va hadisi sharifda ifodalangan. SHuni maxsus ta’kidlamoqchimizki, O‘rta asrlar SHarq adabiyotiga Qur’onning ta’siri shubhasiz bor haqiqat. Musulmon SHarqi adabiyotini shuning uchun islom dinidan xoli holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Faqat sof islomiy yoki sufiyona adabiyotgina emas, umuman adabiy-badiiy hayot, estetik qarashlar, tushuncha-tasavvurlar, asotir va timsollar islom g‘oyalari ta’sirida shakllangan edi. Hatto islomgacha bo‘lgan yodgorliklar, asotirlar ham islomiy ruhda qayta ishlab chiqilgan edi.

«Matla’ ul-anvor» dostonida ham birinchi maqolat odam haqidadir. Biroq, Amir Xusrav Nizomiy singari odamning yaratilishi xususida emas, balki inson xilqatining buyukligi, ilohiyligi masalasi ustida to‘xtaydi, odam haqida ko‘tarinki nafas bilan so‘z boshlaydi:

Эй зи азал гавҳари пок омада,
Гавҳари ту зевари хок омада,
Чанбари нўҳ чарх басе бехт хок,
То ту бурун омадӣ эй дурри пок.
Он халафе ту, ки зи рўзи нахуст
Кавн ба меҳмонии шаш рўзи туст,
Ҳуд зи падар гарчи кунун омадӣ,
Бо падар аз ҷумла бурун омадӣ.
Дафтари маънӣ ту зи бар хондаӣ,
Тахтаи асмо зи падар хондаӣ,
Арсаи олам ба масофат турост,
Давлати одам ба хилофат турост.[1; 83]

(Ey azaldan gavhari pok bo‘lgan inson, sening gavharing tuproq— Erning ziynati bo‘ldi. Sen pok dur yuzaga chiqshi uchun falakning to‘qqiz elagi qancha tuproqni eladi. Sen shunday xalifasanki, dunyo birinchi kundan boshlab sening olti kunlik mehmoning bo‘ldi. Agarchi otadan endi dunyoga kelgan bo‘lsang-da, lekin otang bilan barchadan oldin dunyoga kelgansan. Ma’no – Ilohiyot daftarini sen o‘qib olgansan, ismlar taxtasi – lavhi mahfuzni otangdan o‘rgangansan. Dunyo maydoni bugun kengliklari bilan senikidir, xudoning xalifasi bo‘lganing uchun Odam Ato davlati ham senikidir).

Amir Xusrav vahdati vujud xususida so‘z ochmaydi, ammo Odamning zoti sharafli ekani, azaldan gavhari pokligini qayd etadi. Odam – olamlarning xulosasi, uning sharafi yana shuning uchun ham balandki, garchi uning yaratilishi Odam Ato bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ammo inson bundan ilgari mavjud edi, deydi hind shoiri, bunda u hazrati Muhammad nurining hali dunyo yaratilmasdan avval yaratilganligi haqidagi rivoyatni nazarda tutadi (bu hakda yanato‘xtaymiz).

Odam – koinot xo‘jayini, Allohning xalifasi, uning qalbida g‘ayb asrori joylashgan.

Ҳабли варийди ту фиканда баланд.
Дар шарифи кўнгири Аллоҳ каманд.
Нури ту ҳангомаи анҷум шикаст,
Дасти ту тасбеҳи малоик гусаст[1; 83].

(Bo‘yin tomirlaring balandga shunday cho‘zilganki, ya’ni qadding shunday baland ko‘tarilganki, Alloh arshi ayvoni kungurasi sharafiga arqon tashlagansan. Sening nuring yulduzlar salobatini barham etdi. Qo‘ling farishtalar tasbehini tortib oldi).

Inson ham jonu jahon va ham barcha olam ifodasi, jahonga sig‘maydigan narsa, ya’ni qamrovu hududsiz ruhi mutlaq ham insonning o‘zi. Ikki dunyoning shohi, Parvardigor ganjinasining kalidi:

Ганҷи худоро ту калид омадӣ,
На-з пайи бозича падид омадӣ.
Чарх, ки аз гавҳари эҳсон-т сохт,
Оинаи сурати раҳмон-т сохт.[1; 84]

(Xudo xazinasining kalidi sen, ham o‘yinchoq uchun ham yara- tilgansan. Ehson gavharidin seni yaratgan charx rahmat suratining oinasi qilib tuzdi seni.) Demak, inson – ko‘zgu tezisi Amir Xusravda ham bor.

Amir Xusravning o‘zga shoirlardan asosiy farqi shundaki, ayni shu bobning o‘zida u insonning riyozat orqali kamolotga erishishi haqida fikr yuritadi. Insonda ziddiyatli asoslar bor – u ulug‘ va nuqsonli, ham «xalifa» va ham «qo‘g‘irchoq». Shu sabab u o‘zini anglashi, o‘yinchoqlik holatidan chiqishi kerak, buning uchun pishishi lozim. Xumdonda solingan g‘ishtday:

В-ар ту ҳамон обу гиле дарсиришт,
Пухта шав аз мояи гулхан чу хишт.[1; 85]

(Senda suv va loyning qorishmasi bor, g‘ishtkabi gulxan haroratida pishgin.) Bu yo‘l – so‘fiylar yo‘li, tariqatning ranjli yo‘lidir. SHu yo‘l manzilga olib boradi, deb yozadi shoir.

Мартабаеҷӯ, ки бароӣ ба моҳ,
Кас нахӯрад шарбати борон зи чоҳ.
Баски маҳӣ ту раҳи боло гузид,
Аввал Зуннун шуд ва пас Боязид. [1; 85]

(Shunday bir martabani izlakim, oyga yo‘l olgan kishi yomg‘ir lazzatini quduqda totishi mumkin emas. Baski, sening oying yuqoriga yo‘l olgan ekan, avval Zunnun bo‘ldiyu, keyin Boyazid.) Zunnun Misriy va Boyazid Bistomiy – tasavvufning ikki buyuk shayxi, ular valiyulloh insonlar bo‘lib, komillik darajasini egallagan edilar. Demak, Amir Xusrav umuman inson sharafi, xilqati haqida gapirishdan tashqari, inson kamoloti haqida ham fikrlar bayon etgan va yo‘lni tariqat yo‘li deb taqdim etgan. Tariqat kamolot yo‘li. «Maqolat»da shundan keyin insoniy kamchiliklar ustida to‘xtalib, ulardan qutulish borasida nasihatlar qilinadi.

Iymon-e’tiqod va islom ahkomi haqida Xusrav Dehlaviy o‘z dostonida maxsus bob ajratadi («To‘rtinchi maqolat»), ma’lum bo‘ladiki, Amir Xusrav inson kamoloti, jumladan so‘fiy kishining ma’naviy tarbiyasi uchun tariqat bilan birga shariatni ham muhim deb hisoblagan. Voqean, agar tasavvuf tarixiga nazar tashlasak, shariat va tariqat orasidagi masala ustida ancha bahs-munozara bo‘lganligini ko‘ramiz. Chunki bir qism shayxlar oshiq so‘fiy uchun shariatga rioya qilish zarurati yo‘q. Bu shariat zohidni ko‘ruvchi odamlarga mo‘ljallangan, tariqat ahli – tariqat odobiga rioya qilsa kifoya deb chikqan bo‘lsalar, boshqa guruh so‘fiylar tasavvufda shariat muhim ahamiyatga ega, shariat – omma rioya qiladigan qoida- qonunlar majmui, shu bois u «xos» kishilarga ham taalluqli deb chiqdilar. «Shariat – tanadir, tariqat – jondur, haqiqat – ruhdir». Tana ruh va jonsiz bo‘lmaganiday, jon ham tanasiz bo‘lmaydi.

Amir Xusrav ana shu e’tiqodga qattiq ishonar va shariat ahkomini bajarishni hamma uchun zaruriy hisoblardi. Uning piri Nizomiddin Avliyo ta’limoti ham shunga muvofiq edi.

Amir Xusrav shariatning besh talabi – namoz, ro‘za, haj, zakot va «Kalimai shahodat»ni zikr etishni «musulmonlikning besh asosi» deb aytadi. Voqean, Qur’on va boshqa diniy kitoblarda ham bu ko‘rsatma bor. Amir Xusrav ushbu besh «asos»ni birma-bir ta’riflab chiqdi. «Shahodat» kalimasi – iymonning nishonasi bo‘lsa, namoz va ro‘za Parvardigorga bandalik toati va sadoqatini bildirish vositasidir. Hindistonlik shoir o‘z tangrisiga niyoz bilan toat qilmagan odam Tangrining gapini qaytarib, rad bo‘lgan iblisga o‘xshashdir, deydi. Vahshiy hayvonlar, qushlar, o‘simliklar bo‘y cho‘zib, o‘z xoliqiga shukrona aytadi, nega inson toatga o‘tirib, o‘z shukrini bildirmasligi kerak? Namoz – bu tavallo, poklanish, jumla mavjudotning egasiga qulligin izhor etishdir:

Шарм надорӣ, ки туро Ҳаййу пок,
Хонда ба меъроҷу ту хуфта ба хок.
Ҳарчи ба даҳр одамӣ асту парӣ,
Нест магар баҳри парастишгарӣ.
Эй ба батолат чу фурӯмоягон,
Чанд хӯрӣ неъмати Ҳақ ройгон.
Ваҳшу туюре, ки чарохор кард,
Сар ба гаҳе хӯрду нагунсор кард.
Қатраи обе нахӯрад мокиён,
То накунад рӯ басӯйи осмон.
Ҷисму ҷамоде, ки ба кӯю раҳанд.
Ҳам ба забоне “батаъалаллаҳ”анд.[1; 127-128]

(Haq taolo seni me'roj – ko'tarilishga chorladi, lekin sen tuproqda, uyquda, uyalmaysanmi? Dunyoda odamzod va pari bor ekan, Allohga sig'inadilar... sahroda kezuvchi vahshiy hayvonlar, quar o'tlash uchun egiladi – sajda qiladi.

Tovuq to osmonga qaramasa, bir qultum suv icholmaydi. Yo'l va ko'chalardagi, tog'u dashtlardagi jism va moddalar bari o'ziga xos til bilan Allohga zikr aytadilar. Xonish va nag'malar, o't-o'lan, suv va shamol harakati, shovullashi, pariyu malaklar – hammasi ibodat ovozidir.)

Amir Xusrav namoz o'qish qoidalari, tahorat tartibi va boshqalar haqida ham shoirona sayrlar bilan ta'sirchan qilib qoidalarni bayon etgan. Tahorat – poklikdir, tashqi poklik botinning pokligiga sabab bo'ladi. Maxluqqa sajda qilish yaramaydi, ammo, xoliqqa sajda qilish sharaf keltiradi, oxiratni obod qiladi:

Нақши илоҳист ба лавҳи ҷабин,
Бар дари махлуқ манеҳ барзамин. [1; 131]

(Manglay ilohiy lavh naqshi – suratidir, uni maxluq bandasi eshigida ostonaga surtma.) Shu zaylda, shoir namoz haqidagi fikrlardan ham ijtimoiy ma'notopadi. Xudoga sig'inish bandaga sig'inishdan xalos etishi kerak. Muhimi shundaki, Amir Xusrav islom ahkomi bo'lgan «farzi ayn» qarzlari haqida gapirganda, ularni umumiy tarzda bayon qilib o'tirmasdan, balki inson axloqi, hayot talablari bilan bog'lab tushuntiradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, xamsanavis shoirlar ijodida inson talqini masalasi qiyoslanganda Jomiy va Navoiyda inson o'z-o'zini tanish va qalbdagi ilohiy xazinani kashf etishga da'vat asosiy o'rinni egallagan bo'lsa, Xusravda insonning ulug'ligi ta'kidlanib, shunga munosib raftor qilish uqtirilgan.

Adabiyotlar

1. Амир Хусрав Деҳлавий. «Матлаъул анвор». Составление критического текста и предисловие Тахира Ахмед оглы Магеррамова. Вступительная статья Г. Ю. Алиева. – М.: Наука, 1975. – 83-б.
2. Алишер Навоий. «Хамса», танқидий матн. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Тошкент: ФАН, 1960. – 56-б.
3. Брагинский И.С. Из истории таджикской и персидской литератур. -М.: Наука, 1972.
4. Бақоев М. Ҳаёт ва эжодиёти Хусрави Деҳлавий. - Д.: Дониш, 1975.
5. Ворожейкина З.Н. Исфаханская школа поэтов и литературная жизнь Ирана в предмонгольское время (XII-начало XIII в.). -М.: Наука, 1984.
6. Шомуҳамедов Ш., Форс-тожик адабиёти ва классиклари ижодида гуманизм, Т.: Фан, 1968 г.
7. Шомуҳамедов Ш. Форс-тожик адабиёти тарихидан қисқача курс. Ўқув қўлланма. -Т. 1987.

UDK: 494.3

YO'L-KOMMUNIKATSIYA TERMINOLOGIYASINING SHAKLIY STRUKTURASIGA KO'RA TURLARI

T. Valiyev
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Avtoyo'lsozlik terminlarining tuzilishi boshqa sohaviy terminlarning tuzilishiga monand. Dastlab terminlar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab turlarga bo'linadi. Murakkab terminlar qo'shma, juft shakllarda bo'lishi mumkin. Leksik lakunalar o'rnida birikmali terminlar qo'llanadi. Qo'shma terminlar so'z birikmasidan o'sib chiqqan bo'lib, ikki, uch, to'rt, besh uzvli bo'ladi. Avtoyo'lsozlik terminlari tizimida olti uzvli birikmali terminlar uchramadi.

Kalit so'zlar: avtoyo'lsozlik, leksik lakuna, terminosistema, terminoelement, terminologiya turlari.

Виды терминологии дорожной коммуникации по форменной структуре

Аннотация. Структура дорожной терминологии является сходным с терминологией других отраслей. Терминология изначально делится на простые и сложные типы. Сложные термины могут иметь двойные формы. Вместо лексических лакун используются термины. Составные термины получены из словосочетания и имеют два, три, четыре, пять составляющих. В терминах автомобилестроения нет терминов, состоящих из шести составляющих.

Ключевые слова: дорожное строительство, лексическая лакуна, терминология, терминоэлемент, виды терминология.

Types of road communication terminology according to the shaped structure

Abstract. The structure of road terminology is similar to the terminology of other industries. Terminology is initially divided into simple and complex types. Complex terms can have dual forms. Instead of lexical lacunae, terms are used. Compound terms are derived from phrases and have two, three, four, five components. In terms of the automotive industry there are no terms consisting of six components.

Keywords: road construction, lexical gap, terminology, term element, types of terminology.

Terminlar boshqa til birliklaridan tarkibiy tuzilmasining murakkabligi bilan xarakterlanadi. Masalan, umumnutqda so‘z birikmasi shaklidagi birliklarning mustaqil atov birliklari sifatida qo‘llanilishi kamdan-kam kuzatiladi. Ayrim hollardagina leksik lakunalar bilan bog‘liq ravishdagi bunday qo‘llanishlarga duch kelishimiz mumkin [6, 258; 1, 215; 18, B.49; 2; 5, 136-146; 9, 129; 10, 40-45; 11; 12, 77-83; 13, 3]. Lekin sohaviy nutqda bunday holatlar ko‘plab uchrashiga lug‘atlar asosida amin bo‘lish mumkin: *davlat bankining qimmatli qog‘ozlarning bahosini e’lon qilishi*; *minimal chastotaviy siljishli Gauss manipulyatsiyasi, vaqt bo‘yicha ajratilgan dupleks uzatish, ruxsat etilgan foydalana olish kanali, sohaning e’lon qilinmagan qayta tanlanishi, axborotni (signalni) qo‘lga kiritishning kam-kam ehtimolligi*. Bu holat tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, biroq terminlar jamiyatning tor qatlami uchun xosligi va, aksariyat hollarda, mavjud til vositalari, birikmalar asosida ijod qilinishi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, terminlarning faqat sohaviy nutqda uchrashi, o‘z-o‘zidan, ularning kam qo‘llanishini keltirib chiqarib, lisoniy birliklar sifatida umumiste’mol til birliklari kabi “silliqlanmasligiga” sabab bo‘ladi va bu terminosistemada mavjud terminlarning aksariyatida formal-semantik nomuvofiqlikka sabab bo‘ladi. Zero, aytilganidek, bunday terminlarda shaklan erkin birikmalik, ma’noviy jihatdan esa yaxlitlanish, muayyan bir tushunchani ifodalash tendensiyasi ustuvor bo‘ladi. Avtoyo‘lsozlik terminosistemasida ham bunday holat yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ko‘p hollarda so‘zlarni, ayniqsa, terminlarni shakliy jihatdan turlarga ajratganda, birdan ortiq o‘zakdan tashkil topgan birliklarga nisbatan *qo‘shma, juft, murakkab, tarkibli, birikmali, birikma* terminlari ishlatilaveradi.

O‘zbek texnik terminologiyasida barakali xizmat qilgan tilshunos R.Doniyorov terminlarni tuzilishiga ko‘ra o‘ziga xos tarzda tasniflaydi. U birdan ortiq leksik uzvdan tashkil topgan terminlarni sintaktik yo‘l bilan hosil bo‘lgan terminlar sifatida qaraydi. “O‘zbek tilining texnik terminologiyasida yakka so‘zli terminoarga nisbatan sintaktik usul bilan hosil bo‘lgan terminlar ancha salmoqli o‘rinni egallaydi. Buning boisi nimda? Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar barcha tillarda bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi. Bunda olim tilshunos A.N.Kojinning ularda ifodalanyotgan narsaning belgisi shundoqqina ifodalanib turadi, ular bilishsizlikdan bilish sari harakat jarayonida ijtimoiy ma’lumotlarni mustahkamlashda “so‘zdan iborat to‘siqni oshib o‘tishga yordam beradi” degan fikriga metodologik asos sifatida tayanadi [2, 97]. Olim sintaktik usul bilan hosil bo‘lgan texnik terminlarni ot+ot, nisbiy sifat+ot, sifatdosh+ot, jarayon nomi+ot tipidagi ko‘rinishlarga bo‘ladi. Ot+ot tipidagi terminlarni I tip izofali, II tip izofali, III tip izofali turlarga ajratadi. Tilshunos bu terminlarni yasalish jihatidan sintaktik usul bilan yasalgan va tuzilish jihatdan qo‘shma terminlar nomi bilan ataydi [2, 148].

R.Doniyorovning yuqoridagi tasniflarida ayrim e’tiborga molik jihatlar ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, u sintaktik usul bilan yasalgan terminlar sirasida fe’l turkumiga mansublarini ajratmaydi. Ikkinchidan, olim ayrim sintaktik usul bilan hosil bo‘lgan terminlarning qoliplarini morfologik (masalan, ot+ot tipidagi), ba’zilarini semantik (jarayon nomi+ot) asosda belgilaydi.

Umuman olganda, tilshunos R.Doniyorov terminlarni tuzilish jihatidan sodda va qo‘shma turlarga ajratadi.

Tilshunos N.Qosimov “O‘zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasi masalalari” (So‘z o‘zlashtirish va affiksatsiya masalalari) asarida birdan ortiq komponentli terminlarni qo‘shma, juft va gibrid turlariga ajratadi. “O‘zbek tili leksikasida ilmiy-texnikaviy tushunchalarni ifodalovchi qo‘shma terminlar salmoqli o‘rin egallaydi... Umumtilshunoslikdagi “qo‘shma so‘zlar” (sobstvenno-slojnыe slova) terminiga qiyosan terminologik sistemalardagi xuddi shu tipdagi, ya’ni ikki va undan ortiq mustaqil termin yoki terminoelementlarning o‘zaro qo‘shilib hosil qilingan yangi leksik birlik – yangi yaxlit terminga “qo‘shma termin” birikmasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir”[14, 47]. Olim bunda V.V.Vinogradovning “so‘z yasash sohasida tilning ichki rivojlanish qonunlari, ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. Yangi so‘zlarning yasalishi tilda allaqachon barqarorlashgan yoki yangi o‘zaklarning ajralishi va yangi affiksal unsurlarning qo‘llanilishi bilan, shuningdek, so‘z yasash sistemasining rivojlanishi va takomillashuvi bilan bog‘liq holda yangidan vujudga kelayotgan modellar hamda so‘z yasash tiplari bo‘yicha amalga oshadi” [3, 155] degan metodologik tabiatli fikriga tayangan holda ish tutadi. Shu bilan birgalikda, olim qo‘shma terminlarning qo‘shma so‘zlardan ayrim jihatlari bilan farqlanishini ham ta’kidlaydi. “Masalan, qo‘shma so‘zlar barcha mustaqil so‘z turkumlari doirasida amal qilishi mumkin. Qo‘shma terminlar esa asosan ot turkumi doirasida amal qiladi, qo‘shma sifatlar faqat terminelement, ya’ni birikma terminning aniqlovchi komponenti sifatidagina qaraladi. Bu yerda shuni qayd etish kerakki, otdan boshqa so‘z turkumlarining termin bo‘la olishi, potensial bo‘lib, ular ayrim olingan holda, termin bo‘la olmaydi. Ularning terminologik xarakteri kontekstda aniqlanadi, masalan, fe’llar birikmalar

tarkibida ham termin bo‘la olmaydi [14, 48]. Bunda olim qator olimlarning fikrlariga metodologik asos sifatida tayanib, tadqiqotchilarning mulohazalarini “ular faqat terminlarning nutqiy substitutlaridir, fikrni ifodalash vositalaridir, biroq voqea-hodisalarning nomi bo‘la olmaydi” tarzida umumlashtiradi va ularning ishlariga havola beradi [7; 8; 17]. Kitobda *temir yo‘l, muzyorar, ustqurma, besh yillik, uchburchak, gidroliz, antioksidlovchi, antikosinus, avtobaza, avtobenzin, kinokomediya, karbonvodorod, elektrostansiya* kabilar qo‘shma terminlar sifatida qayd etiladi. Olim fikrlariga qo‘shilgan holda, e’tiroz sifatida fe’l terminlar ham terminosistemalarda ko‘plab uchrashini aytib o‘tish lozim. Masalan, avtoyo‘lsozlik terinologiyasida *burg‘ilash, tekislash, shibbalash, payvandlash* so‘zlari terminologik mohiyatga egaligini ko‘rishimiz mumkin.

Olim qo‘shma terminlarning bir ko‘rinishi sifatida gibrid terminlarni ajratadi. “Gibrid terminlar o‘zbek ilmiy-texnikaviy terminologiyasida keyingi yillarda paydo bo‘lgan yangi tipdagi qo‘shma terminlardir. Gibrid so‘zi keng ma’noda “turli til elementlaridan tuzilgan “duragay” so‘zlardir [1, 98]. Masalan, fizikadagi kvazizarralar termini gibrid so‘z bo‘lib, u lotincha *quasi* (soxta, yolg‘on) so‘z formasi hamda o‘zbek tilidagi *zarra* so‘zining qo‘shilishidan yasalgan. Demak, o‘zbek terminologiyasidagi gibrid qo‘shma terminlar asosan internatsional terminelementlar sifatida grekcha va lotincha prefiksal xarakterdagi bog‘liq morfemalar ishtirok etadi. Masalan, aviasanoat, aerofotosurat, gidrotuzlar, ultratovush singari gibrid qo‘shma terminlarning birinchi komponentlari (*avia-*, *aero-*, *gidro-*, *ultra-*) ana shunday internatsional terminelementlar, ikkinchi komponentlari esa o‘zbekcha so‘zlardir” [14, 56]. Olimning fikrlariga qo‘shilgan holda, undagi ayrim e’tirozli nuqtalarni ham qayd etib o‘tish lozim deb o‘ylaymiz. Chunki mazkur gibrid terminlar ikkinchi komponentlarining barchasi ham, albatta, o‘zbekcha so‘zlar emas. Masalan, *sanoat, surat, zarra* kabi so‘zlar o‘zlashma qatlam birliklaridir. Keyingi uzvlari o‘zbekcha so‘zlar bo‘lgan gibrid terminlar avtoyo‘lsozlik terminosistemasida ham ko‘plab uchraydi, albatta. Masalan, *avtoyo‘l,avtoyo‘lsozlik, avtoharakat, avtohalokat* kabi.

Olim juft terminlarni ham ajratadi. “Ikki mustaqil leksik ma’nolo komponentlarning teng bog‘lanishi asosida tashkil topib, umumlashtirish, jamlik kabi ma’nolarni ifodalovchi so‘z – juft termindir. Juftlashuvchi qismlar orasidagi tenglik munosabati yozuvda defis bilan ko‘rsatiladi. Talaffuzda bu qismlar teng fonetik cho‘qqiga ega bo‘ladi, ayni vaqtda, ikkichi yagona leksik urg‘u yordamida leksema bo‘lib birlashadi” [14, 68]. Tilshunos *elektron-optik, zichlagich-planka, to‘qima-trikotaj, universal-chopiq* kabilarni bunga misol sifatida keltiradi. Bunday misollar avtoyo‘lsozlik terminologiyasi tizimida ham uchrab turadi. Masalan, *bitumli-gruntli, sement-tuproqli, shlak-tuproqli, qatron-betonli, qum- asfalt-betonli qoplama* kabi.

Biz ulardan terminlarga nisbatan *birikma* atamasini qo‘llashni ma’qul ko‘ramiz.

Murakkab terminini qo‘llash ma’qul emasligini bir necha sabablar bilan asoslash mumkin.

Birinchidan, so‘zlar kabi terminlar ham shakl va ma’no birligidan iborat. Shu boisdan *murakkab* atamasi qo‘llanganda terminning shaklining ham, ma’nosining ham murakkabligi tushunilishi mumkin. Bu esa masala mohiyatining yaqqol ifodalanmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, *murakkab*atamasi so‘zlarga nisbatan qo‘llanganda, ularning o‘zaklari miqdoriga asosiy e’tibor qaratiladi. Bu holda birdan ortiq o‘zakdan tashkil topgan, qo‘shma so‘z holidagi terminlar ham, so‘z birikmasi shaklidagi terminlar ham anglashilishi mumkin. Holbuki, ko‘p hollarda *murakkab* atamasi ostida birikma shaklidagi terminlar nazarda tutiladi.

Shuningdek, *birikmali termin* atamasida ham ma’lum darajada mantiqiy xatolik bordek tuyuladi. Ma’lumki, *-li* qo‘shimchasida “biror narsaga ega” ma’nosi ham mavjud bo‘lib, *birikmali termin* deganda, o‘z-o‘zidan, termin biror-bir birikmaga ega degan ma’no uqiladi.Shuning uchun *birikma termin* atamasini qo‘llash har jihatdan qulay.

Aytilganlar asosida biz avtoyo‘lsozlik terminlarini shakliy strukturasiga ko‘ra dastlab to‘rt yirik guruhga ajratishni ma’qul ko‘ramiz:

a) sodda terminlar;
b) qo‘shma terminlar;
v) juft terminlar;
v) birikma terminlar.

Sodda terminlar. Sodda terminlar bir o‘zakli bo‘lib, ularda shakliy-ma’noviy yaxlitlik ko‘zga tashlanadi. Misollar: *burg‘ilash, shibbalash, sachratmoq, qirqish, chopish, planirovka, planirovkalash, rejalash, bo‘lish, maydalash,shosse, shtir,aktivator* (kimyoviy reaksiyani tezlashtiruvchi va fermentlarning ta’sirini kuchaytiruvchi modda), *prisadki* (qo‘shimchalar),*pushonka* (so‘ndirilgan ohak kukuni), *kipelka* (so‘ndirilmagan ohak (qaynatma), *portlandsement, sement, antiseptik, armatura, chuviq, gidroizol, izol, mastika* kabilar fikrimizning dalilidir.Sodda terminlarning ot turkumiga mansublarining aksariyati o‘zlashma qatlamga mansub bo‘lib, asosan fe’l turkumiga mansublarigina o‘z qatlam birliklaridir. Biroq fe’l termin-leksemalarning asos qismlari (o‘zaklari) aksar hollarda o‘zlashma qatlamga oid. Demak, shu asosda sodda terminlarni derivativ xususiyatlari asosida ikki guruhga bo‘lish mumkin:

a) sodda tub terminlar: *sachratmoq, qirqish, chopish, planirovka, bo‘lish, shosse, shtir, aktivator, prisadki, pushonka, kipelka, portlandsement, sement, antiseptik, armatura, chuviq, gidroizol, izol, mastika* kabi.

b) sodda yasama terminlar: *asfaltlash, betonlash, betonli, chuviqli, shibbalash* kabi.

Qo‘shma terminlar. Qo‘shma terminlar birdan ortiq o‘zakning to‘la-to‘kis qo‘shma so‘zga aylanishidan hosil bo‘ladi. Avtoyo‘lsozlik terminlari tizimida qo‘shma terminlar ko‘plab uchraydi. Ulardan ayri misollar keltiramiz: *qalamto‘sin, suvto‘siq, pardadevor, ravoqqulf, chokto‘ldirma, qoziqoyoq, muzkesar, usto‘rnatma, tagtiralma, devustun, avtotransport, avtoyo‘l, avtoyo‘lsozlik, yo‘lso*zkabi.

Juft terminlar. Juft terminlar avtoyo‘lsozlik atamalari tizimida kam uqrashi ma’lum bo‘ldi. Ulardan ayrim misollar keltiramiz: *bitumli-gruntli, sement-tuproqli, shlak-tuproqli, qatron-betonli, qum- asfalt-betonli* kabi.

Birikma terminlar. Aytilganidek, barcha terminosistemalarda birikmali terminlar miqdorining ustuvorligini kuzatish mumkin. Bu holat avtoyo‘lsozlik terminosistemasiga ham birday daxldor deyish mumkin.

Birikma terminlar, boshqa murakkab leksemalar kabi birdan ortiq leksik birlik (o‘zak) lardan tashkil topadi va ko‘p hollardabirikma holatida bo‘ladi. Misollar: *yoy bissektrisasi, yoylar orasidagi to‘g‘ri chiziq, yo‘l qoplamasi, yo‘l poyi, yo‘l chetidagi ariq* (kyuvet), *klotoid yoy, plandagi egrilik chizig‘i, yordamchi yoy, vertikal bo‘ylama kesim yuzidagi yoy* (chiziq krivaya v prodolnom profile (vertikalnaya)), *bir qator aylanma egri chiziqdan iborat bo‘lgan yoy* (krivaya korobovaya), aylanma egri chiziq (krivaya krugovaya), *asosiy egri chiziq, o‘tuvchi egri chiziq* (krivaya perexodnaya), *bir-biriga teskari yo‘nalgan yoylar* (krivыe obratnыe), *bir tomonlama yoylar* (krivыe odnostoronnыe), *qatnov qismi qirg‘og‘i* (kromka proyejey chasti), *yo‘l yoqasi* (obochina), *qatnov qismi* (proyezjaya chast), *yo‘lning ko‘ndalang kesim yuzasi* (profil dorogi poperechnыy), *yo‘lning bo‘ylama kesim yuzasi* (profil dorogi prodolnыy) kabilar.

Birikmali terminlar struktur jihatdan o‘z o‘rnida ikki uzvli, uch uzvli, to‘rt uzvli, besh uzvli va h. turlarga ega.

Ikki uzvli murakkab terminlar. Ikki uzvli birikma terminlar sodda so‘z birikmasi shaklida bo‘lib, ularda ma’noviy yaxlitlanish kuzatilsa-da, shaklan hokim-tobelik munosabati sezilib turadi: *ta’mir brigadasi, yo‘l axborotnomasi, ko‘priklarga oid axborotnoma, o‘rkachsimon o‘nqir-cho‘nqir, qoplamaning nurashi, mustahkamlik zahirasi (qo‘ri), sirpanish koeffitsenti, to‘shamalarning o‘pirilishi, toshtaxtalarning liqillashi, joriy ta’mir, yemirilish reperi, qoplamadagi siljish, qirra sinishi, yo‘l xizmati, yo‘lni saqlash, bordyurni tiklamoq, yedirilish qatlami, qor bo‘roni (qor uyumlari), qor to‘siq, qorli mash’al, qoplamani tozalash, muzlarning tirbandligi, yuklovchi, g‘ildirakli ekskavator, ishlab chiqarishni avtomatizatsiyalashtirish, burg‘ilab kovlamoq, tebratib zichlash, suvni pasaytirish, trassani tiklash, to‘nka ko‘chirish, suvli ekish, trassani mahkamlash (bog‘lash, mustahkamlab qo‘ymoq), chokni to‘ldirish, tuproqni maydalash, industriatsiyalashtirish, tosh yotqizish, sachratib sepmoq, tuproqni surmoq, siljitib bekitmoq, chokni qirqish, ustki ishlov berish, shlam bilan ishlov berish, kromkani kesmoq, aylanib o‘tish, chetlab o‘tish, qurilishni tashkil qilish, tuproqni ag‘darmoq, chim bosmoq, chim yotqizmoq, tuproqni taqsimlash, materiallarni bo‘lish, tuproqni qirqish, bog‘lovchi sepish, tuproqni silikatlash, yo‘lda aralashtirish, qurilmada aralashtirish, qatlamni qirqish, tuproqni mustahkamlash, qiyalikni mustahkamlash (yonbag‘ir), tuproqlarni yaxshilamoq, tuzatmoq, to‘siq o‘rnatish, qurishni uyushtirmoq, betonga qarash, qoplamani frezerlash* kabi.

Uch uzvli murakkab terminlar. Bunday murakkab terminlar erkin so‘z birikmasiga qiyoslaganda, uch mustaqil lug‘aviy ma’noli birlikdan tashkil topgan bo‘ladi. Boshqacha aytganda, uch uzvli so‘z birikmasi zanjiri termin sifatida ma’no ifodalaydi va bir tushunchani anglatadi. Ulardan ayrim misollar keltirish bilan cheklanamiz: *kuchning ta’sir vaqti, qatlamlarning deformatsiyalanish xususiyatlari, ruxsat etilgan nisbiy deformatsiya,avtomobilning dinamik omili, kuchning dinamiklik koeffitsiyenti, ortiqcha yuk koeffitsiyenti, kuchlanishni kamaytirish koeffitsiyenti, elastiklikning cho‘ziqlik moduli, statik elastiklik moduli, ekvivalent elastikli moduli, g‘ildirakka tushayotgan og‘irlik, doimiy ta’sir qiluvchi og‘irlik, ruxsat etilgan cho‘kish chegarasi, yo‘l to‘shamasi o‘lchamlari, ruxsat etilgan chegaradagi egilish, yo‘l to‘shamasi mustahkamligi, yo‘lning ish davri, plitaning hisoblangan qalinligi, qoplamaning yorilish chidamliligi, yo‘l to‘shamasi elastikligi, konstruktiv qoplamaning chidamliligi, tekislangan tuproq yo‘l, tuzatilgan tuproq yo‘l, klinker qoplamali yo‘l, serg‘ovak asfaltbetonli poydevor, dag‘al toshli poydevor, qatnov qismi toshtaxtasi, betonli yo‘l qoplamasi, qatron-betonli yo‘l qoplamasi, qum-asfaltbetonli yo‘l qoplamasi, qattiq yo‘l qoplamasi, sement-betonli yo‘l qoplamasi, shlakbetonli yo‘l qoplamasi, shebenli yo‘l qoplamasi, loyqaga qarshi qatlam, zax qochiruvchi qatlam, yo‘l poyi kengligi, qatnov qismi kengligi, joydagi nuqtaning balandligi (belgisi), yo‘l yonbag‘ri qiyaligi, tog‘ yonbag‘ri arig‘i, yo‘l qiyaligi koeffitsiyenti, yo‘l qirg‘og‘i novi, sizib o‘tkazuvchi ko‘tarma* kabi.

To‘rt uzvli murakkab terminlar. Bunday terminlar avtoyo‘lsozlik terminlari tizimida nisbatan kamligi bilan xarakterlanadi. Misollar:*emulsiya mineralli quyma qorishma, namlik va issiqlikning o‘zgarishi, muzlagan qatlamning qabarish koeffitsiyenti, mayda shag‘alli yo‘l qoplamasi, yo‘l qoplamasining kapital tipi, quyma materialli yo‘l qoplamasi, sodda tipli yo‘l qoplamasi, bir qatlamli yo‘l qoplamasi, o‘tish tipidagi yo‘l qoplamasi, aralashtirish usulli yo‘l qoplamasi, g‘ildirak o‘qiga tushayotgan og‘irlik, qattiq bo‘lmagan yo‘l to‘shamasi hisobi, keltirilgan og‘irlik kuchi sxemasi, ishlov berish bilan ma’lum shaklga kiritmoq, yo‘lga ajratilgan joyni tozalash, yo‘l qismini taram-taram qilish, qorishmani bosib tekislab qo‘yish, yo‘l to‘shamasini mustahkamlash koeffitsiyenti, yo‘l to‘shamasining ish koeffitsiyenti,ko‘prikning ro‘yxatga olinganligi haqidagi hujjat, yo‘l to‘shamalarining ishlash qobiliyati* kabi.

Besh uzvli murakkab terminlar. Avtoyo‘lsozlik terminlari tizimida sanoqli miqdorda bo‘lsa-da, besh uzvli birikma terminlar ham uchrab turadi. Misollar: *singdirish (shimdirish) usulida qurilgan yo‘l qoplamasi, qattiq jismli yo‘l to‘shamasi hisobi, tuproqni uzunasi bo‘yicha boshqa joyga ko‘chirish (bo‘ylama), yo‘lning qatnov qismi chetini mustahkamlamoq.*

Kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek tili avtoyo‘lsozlik terminologiyasi tizimida olti va undan ortiq uzvli terminlar uchramaydi.

Avtoyo‘lsozlik terminlari tizimida uchraydigan ko‘p uzvli terminlarning aksariyati umumnutqda so‘z birikmasi sifatida ham ishlatiladi va ularning tarkibidagi har bir mustaqil lug‘aviy ma’noli birlik o‘z avtosemantikligini to‘la saqlab qoladi. Terminologik tizimda ular, garchi erkin birikma shaklida bo‘lsa-da, boshqa aytganda, erkin birikmalik xususiyatini ma’lum darajada saqlab qolgan bo‘lsa-da (ya’ni birikma tarkibidagi birliklarning mustaqil urg‘uga ega ekanliklari, bog‘lanishning sintaktik qonuniyatlarga to‘la mosligi, tarkibidagi birliklarning o‘rni bilan o‘z morfologik shakllarini o‘zgartirib turishlari kabi belgilarga egaligi), faqat asosiy omillar, ya’ni bir ilmiy-texnikaviy tushunchani anglatishi, boshqa tillarga ba’zilarining bir so‘z bilan tarjima qilinishi kabilar ularni termin-birikmalar sifatida qarash imkonini beradi. Shuningdek, terminologik tushunchalarni ifodalovchi formal vositalar mavjud bo‘lmaganda, ularning o‘rnini to‘ldiruvchi lakunalarning ish ko‘rishi, bu lakunalarning vaqt o‘tishi, ijtimoiy taraqqiyot natijasida yaxlitlanib, tarkibiy qismlarining shakliy jihatdan ham jipslashib borishi oqibatida yangi murakkab tarkibli terminlar vujudga keladi yoki lakunalar mustaqil til birliklari bilan almashtirilib, boshqacha aytganda, to‘ldirilib boraveradi.

Adabiyotlar

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2-е. – М.: Изд-во «Советская энциклопедия», 1969.
2. Быкова Г. В. Лакунарность как категория лексической системологии. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003.
3. Виноградов В.В. Вопросы современного русского словообразования // Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М., 1975. – С. 155
4. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б.97.
5. Жельвис В. И. К вопросу о характере русских и английских лакун // Национально-культурная специфика речевого поведения. – М.: Наука, 1977. – С. 136-146.
6. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н.Ярцева. – М.: Сов. Энциклопедия, 1990.
7. Мадалиев Б. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма сўзлар. – Тошкент, 1966.
8. Маматов Н. Ўзбек тилида қўшма сўзлар. – Тошкент, 1982.
9. Марковина И. Ю., Васильченко Т. А. Интеркультурные лакуны в тексте с невербальным компонентами // Лакуны в языке и речи: Сб. науч. Трудов / Под ред. проф. Ю.А.Сорокина, проф. Г.В. Быковой. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. – С. 129.
10. Махонина А.А. К вопросу о классификации межъязыковых лакун //Язык и национальное сознание. Выпуск 4. – Воронеж, 2003. – С. 40-45.
11. Муравьев В. Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). – Владимир, 1975.
12. Огурцова О. А. К проблеме лакунарности//Функциональные особенности лингвистических единиц: Сб.трудов Кубанского ун-та, 1979. – С. 77– 83.
13. Сорокин Ю. А. Лакуны: еще один ракурсрассмотрения //Лакуны в языке и речи: Сб. науч. трудов / Под ред. проф. Ю.А. Сорокина, проф. Г.В. Быковой. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. – С. 3.
14. Қосимов Н. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологияси масалалари (Сўз ўзлаштириш ва аффиксация масалалари). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 47.
15. Мадалиев Б. Сложные слова в современном узбекском языке: Автореф.... дисс.канд. филол.наук. – Ташкент, 1956.
16. Раҳматуллаев Ш., Ҳожиев А. Қўшма сўзларнинг имло қоидалари ва луғати. – Тошкент, 1966.
17. Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент, 1963.
18. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати: Филолог студентлар, тил ва адабиёт ўқитувчилари ҳамда ўрта мактаб ўқувчилари учун. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 144 б.

UDK: 494.3

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IZHORLI QURILMALAR TALQINIGA DOIR

B.X.Mardiyev
Samarqand davlat universiteti
mardiyevb@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilida sintaktik hodisalarni tadqiq etishda struktur-semantik metodni qo‘llashning afzalligi haqida fikr bildirilgan. Struktur semantik metod qo‘shma gapni o‘rganish bo‘yicha ilgari qo‘llanilgan metodlarga nisbatan yaxshi natija bermoqda. Maqolada o‘zbek tilida izhorli gap sinonimlarini struktur-semantik tahliliga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: predikat, struktur-semantik metod, izhorli gap, model, formal-funksional.

Об интерпретации изъяснительных конструкций в узбекской лингвистике

Аннотация. В статье рассматриваются преимущества использования структурно-семантического метода для изучения синтаксических событий на узбекском языке. Структурный семантический метод дает гораздо лучшие результаты, чем ранее использовавшиеся методы для изучения сложных предложений. Обращается внимание на структурно-семантический анализ синонимов изъяснительной конструкции в узбекском языке.

Ключевые слова: предикат, структурно-семантический метод, изъяснительный модель, формально-функциональный.

About interpretation of explanatory constructions in Uzbek linguistics

Abstract. The article discusses the advantages of using the structural-semantic method for studying syntactic events in the Uzbek language. The structural semantic method gives much better results than previously used methods for studying complex sentences. The article draws attention to the structural-semantic analysis of synonyms of explanatory constructions in the Uzbek language.

Keywords: predicate, structural semantic, explanatory, model**,** formal-functional.

O‘tgan asr o‘rtalaridan boshlab tilshunoslikda sintaktik hodisalarni tadqiq etishda struktur-semantik metodni qo‘llashga ko‘p e’tibor qaratila boshlandi. Ular uchun sintaktik strukturalarning o‘z shakli va o‘z mazmuniga egaligi sintaktik munosabatlarning o‘ziga xos tomonlarini tushunishda umumiy tamoyilga aylandi. Aniq tipdagi sintaktik ma’noni etkazuvchi, ma’lum konstruktiv sxema (model) bo‘yicha sodda yoki murakkab gap qurilishi sintaktik shakl hisoblanadi. Sintaktik shakl modul komponentlarining o‘zaro semantik-grammatik aloqasi asosida hosil bo‘ladi. Har bir komponentning semantik belgisi ma’lum bir tilda sintaktik komponentning u yoki bu vazifada keluvchi so‘z leksik va grammatik ma’nosining tiplarga ajralishi natijasida vujudga keladi. Sodda gapdan farqli ravishda qo‘shma gaplarning modul komponenlarini qo‘shma gapning bir qismini ifodalovchi predikativ komplekslar tashkil qiladi.

Gapning konstruktiv sxemasi garchi sintaktik shaklga ta’luqli bo‘lsa-da, shakliy emas, balki ma’nolilik tushunchasi mavjud, modomiki gap komponentlarning sematik roli, sxemada shakli yoki boshqacha aytganda ularning texnikasi bir biriga ulashgan va mujassam bo‘lgan leksika va morflogiya haqida ketmoqda. Nutq sintaktik tuzilishining bunday namoyon bo‘lishi, struktur-kompozitsion belgilari yoki konstruksiyalar mezonlari ularning semantik mazmunidan yaxlit, har bir elementigacha ajratib bo‘lmaydi, shuning uchun bu xildagi tushuncha struktur-semantik metod nomini oldi.

Struktur-semantik metod qo‘shma gapni o‘rganish bo‘yicha ilgari qo‘llangan metodlarga nisbatan sezilarli natijalar beradi. Tarixan ilgarigi metodning mohiyati formal-funksional yondashuv bo‘lib, qo‘shma gapning tobe bo‘lagi gap bo‘lagining analogi sifatida qaralgan va shuning o‘zi yetarlicha tavsif bo‘lgan. Shuning uchun qo‘shma gaplar dastlab bog‘langan-bog‘lovchisiz gaplarga ajratildi, keyin bog‘langan qo‘shma gaplar to‘ldiruvchi ergash gap, aniqlovchi ergash gap, ega ergash gap, kesim ergash gap, ravish ergash gap kabi turlarga ajratilib tasniflandi.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar bog‘lovchili qo‘shma gaplarning analogi sifatida qaraldi.

Barcha asosiy grammatikalar (sintaksis qismlari nazarda tutilmoqda) va o‘zbek tili sintaksisi bo‘yicha muhim ishlar yaxlit struktur-funksional yondashuv nuqtai nazaridan yozilgan. Ammo barcha tadqiqotlar qatorida, avvalo akademik “O‘zbek tili grammatikasi” (Toshkent, 1976, 2 tom) struktur-semantik tahlilni va shunga muvofiq murakkab gap qismlarini tasniflash metodlarini aniq qo‘llash va nazariy asoslash bo‘yicha ma’lum qadamlar qo‘yildi. Ammo to‘lasincha struktur-semantik yondashuv yoki metod (ishda, barcha joyda tor- maxsus termin ma’nosida) o‘zbek tilshunosligida, umuman keng ma’noda

turkiyshunoslikda endigina o‘z yo‘lini topmoqda. Bunga misol tariqasida M.A.Abdurazakov (1978), I.X.Axmatov (l983), K. M. Abdullaev (l983; 1984), R.G. Sibagatov (1984)larning kitoblari va dissertatsiyalarini, ular orasida A.Nurmonov (1982; 1983), D.M.Nasilov (l983), N.M. Mahmudov (1984), A.B. Abdullaev (1979; 1984), A.N.Nurmonov va N.Mahmudov (1995)larning dissertatsiyalari va turkiyshunoslik bo‘yicha jurnallar va to‘plamlarda e’lon qilingan o‘zbek tili sintaksisiga bag‘ishlangan maqolalarini keltirish mumkin. Bu yerda A.Z.Abdullaevning K.X. Axmatovning kitobiga yozgan taqrizidagi quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli bo‘ladi: “Hammaga ma’lum leksik-semantik yo‘nalishda erishilgan yutuqlardan farqli ravishda sintaktik-semantik tahlil haqida nazariy va uslubiy ishlanmalar endi shakllanmoqda”.

Izhorli qurilmalar (keyinchalik qisqartirib IQ) o‘zbek yoki boshqa turkiy tillar uchun maxsus tadqiqot obyekti bo‘lgan emas. “O‘zbek tili grammatikasi”da IQ asosiy semantik tip sifatida ajratilmaydi, struktur-funksional yondashuv va qo‘shma gaplar tasnifiga muvofiq quyidagicha izohlanadi: ergashgan qo‘shma gaplar orasida ega, kesim va to‘ldiruvchi ergash gap, bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibida izohlash munosabatini ifodalovchi sifatida ajratiladi.

A.N.Kononovning "Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika" kitobida izhorli munosabati bog‘lovchili va pauzali (bog‘lovchisiz) gaplar tarkibida asosiy semantik-sintaktik ma’no sifatida ajratiladi.

IQ tobe komponentga sinetik ifodalangan aloqasi bilan bu yerda struktur-funktsional yondashuvga muvofiq ularning semantik tasnifisiz sodda gap doirasida qaraladi.

Umuman, keltirilgan havolalar (nisbatan ishonchliroqlari)ga va ko‘plab boshqa ishlarga tayangan holda aytish mumkinki, IQlarning struktur tiplari va ko‘rinishlari adabiyotlarda aniqlangan, savollar yetarlicha ko‘p, ammo ular semantik-grammatik (asosan bu yo‘nalishning rus, nemis tilshunosligi va boshqalarda chuqur taraqqiy etayotganligini hisobga olganda) jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan va bu o‘zbek tili materiallari asosida mazkur tadqiqotni amalga oshirishni dolzarb qilib qo‘yadi.

Funksional-struktur yondashuv nuqtai nazaridan sintaktik strukturalar uchun tashkiliy boshlanish ularning gap tarkibidagi shakliy vazifasi va gap strukturasiga bu funksional tuzilmaning shaklan qo‘shilish usulidir. Struktur-semantik nuqtai nazaridan gap uning mazmuniy (semantik-grammatik) komponentlarining o‘zaro semantik munosabatidan hosil bo‘ladi, aniq formal-grammatik usullar va ularning gapda mujassam bo‘lishi va qo‘shilishi, birinchidan, yetkazilayotgan mazmunga nisbatan mustaqil ma’noga ega emasligi va ikkinchidan, o‘zining bor holicha harakatda bo‘lishi bilan xarakterlanadi, shunday ekan, bosh usullarni hisobga olish va chetdagilarini hisobga olmaslik ishning mohiyatini tushunish uchun to‘g‘ri deb hisoblash mumkin emas. Sintaktik strukturalarning shakliy va mazmuniy jihatdan o‘zaro ta’siri qurilmaning har bir aniq tipi uchun nihoyatda har xildir.

Bu yerda ifoda planining nima va qanday o‘zgarishiga bog‘liq holda tipik strukturalar qatori ko‘plab miqdorda ko‘chuvchi va aralash sintaktik tuzilmalar - modifikatsiyalar, transformatsiyalar, perifrazalar hosil bo‘ladi. Gap strukturasida bu variyatsiyalarning barchasi turli daraja yoki bosqichdagi sintaktik birliklar, o‘ramlar bilan murakkablashgan gap, ergash gapli va bog‘lovchisiz qo‘shma gap sifatida chiqadi. Turli sathdagi IQlarni bu tarzda qamrab olish o‘zida semantik bir planlilikni tavsiflovchi, sintaksisning ma’lum qismini “vertikal” qirqib olishni ifodalab, bir tomondan qurilma tashkiliy tuzilishining ularning komponentlari grammatik mujassamligi xususiyatlariga bog‘liqligini va ular o‘rtasidagi aloqa turlarini chuqur o‘rganishga imkon beradi. Boshqa tomondan, turli sathdagi IQlarni struktur-semantik tadqiq etish ularning sinonimlariga murojaat etishni taqozo qiladi.

Sintaktik sinonimiya turkiyshunoslik uchun yangi mavzu bo‘lib, bu borada Sayfullaeva va boshqalarning ayrim ishlarigina amalga oshirilgan xolos. Ammo nazariy jihatdan erishilgan natijalar qoniqarli deb bo‘lmaydi. Sintaksisning bu qismining ko‘plab qoidalari aniqlanmay qolmoqda, nimalarni sinonimik qurilmalar deb hisoblash mumkin, sinonimlik va sinonimiya chegarasidan tashqariga chiquvchi tuzilmalar va shu kabilar.

IQ struktur- semantik tiplarini va ularning sinonimik munosabatlarini va bunda erishilgan ma’nili natijalarni o‘rganish o‘zbek tili sintaksisining dolzarb masalalaridan biri ekanligi oydinlashadi. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”da izoh so‘zi shunday sharhlangan: “Izoh - 1) so‘z, ibora, voqea hodisa va b.ga beriladigan tushuntirish, sharh, tavsif (mas. so‘z ma’nosining izohi, qonun moddasining izohi, sharhi); 2) matnning ayrim joyiga kiritilgan yoki ayrim masalaga berilgan qo‘shimcha ma’lumot, tushuntirish, eslatma, uqtirish”.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da izoh so‘zi va u vositasida hosil qilingan so‘zlarga berilgan sharhlarda ham o‘zaro uyg‘unlik mavjud:

Izoh (a.)– tushuntirish, sharh 1. So‘z, ibora yoki voqea-hodisa va sh.k.ga berilgan sharh; tushuntirish. *Kitob izoh va sharhlar bilan ta’minlangan. Zaynab keyingi so‘zlarga tushuna olmagan…*

Kumushdan izohlar olmoqchi edi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar. *Meningcha, savol ravshan, izohga ehtiyoj yo‘q! A.* Qahhor, Munofiq .

2 Matnning ayrim yeriga kiritilgan yoki ayrim masalaga berilgan qo‘shimcha ma’lumot, tushuntirish, eslatma, uqtirish.

I z o h bermoq 1) so‘z, ibora va sh. k. ma’nosini (mazmunini) tushuntirmoq, sharhlamoq, izohlamoq. *So‘zga izoh bermoq;* 2) tushuntirish , izoh tarzidagi gap aytmoq. - *Bizning teatr hali yangi-da. Usta o‘ynovchilar yo‘q, - deb izoh bera boshladi Abdushukur.* Oybek, Tanlangan asarlar. *-Albatta, albatta, - dedi Sunnat va Elmurodga izoh berdi: -Bu xotinning ukasi bizda xizmat qiladi. Men bilan judi inoq.* Shuhrat, Shinelli yillar.

Izohlamoq. So‘z, ibora, voqea-hodisa va sh. k. ma’nosini, mazmunini tushuntirmoq, izoh bermoq. *So‘z ma’nosini izohlamoq. Qonunning ayrim moddalarini izohlamoq. - Chunki uning Otabekning so‘ziga qaraganda, siz uni og‘irroq tariqa bilan darbozangiz yonidan jo‘natgan ekansiz, - deb izohladi usta.* A. Qodiriy , O‘tgan kunlar. *Berdiyorovning o‘zbek frazeologizmlarini izohlagan ikki kitobi nashrdan chiqdi.* Nazarmat, Jo‘rlar baland sayraydi.

Izohi bor, ma’nosi, mohiyati tushuntirilgan.

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilshunosligida izhorli gaplar masalasida olimlar fikri yakdil emas va sintaksis bo‘yicha yaratilgan darslik va qo‘llanmalardagi yo‘l-yo‘lakay bildirilgan ayrim fikrlarni hisobga olmaganda mazkur masala bo‘yicha biror-bir ko‘zga ko‘rinarli ish amalga oshirilgan emas. Bu esa izhorli gaplarni alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish tilshunoslarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbek tili grammatikasi. 2-tom. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1976, 416-422b.
2. O‘zbek tili grammatikasi. 2-tom. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1976, 319-329b.
3. Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М. –Л.: Восточная литература, 1960, 329-333с.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000, 87b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 1981, 318b.
6. Юлдашев М.М. Синонимия изъяснительных конструкций. (Монография) Самарканд 2019, 10-14с.
7. Yuldashev M.M Description of Lexical Semantic Groups of Expounding Semantics (on the Material of the Uzbek Language with Russian Equivalents). International Journal of Innovative 2(14), 2019, Warsaw.

UDK: 891.709

LUTFIYNING BOYSUNQUR MIRZOGA BAG’ISHLANGAN QASIDALARI

M. J. Hasanova
Samarqand davlat universiteti
ikaroy84@mail.ru

Annotatsiya. Maqola Mavlono Lutfiyning Boysunqur Mirzoga bag’ishlangan qasidalari haqidadir. Muallif qasidalarni tahlil etish asnosida XV asr Xuroson voqeligi, Boysunqur temuriyning madaniyat va adabiyot sohasida tutgan o‘rni va fojiasi haqida fikr yuritgan.

**Kalit so`zlar:** qasida**,** mamduh**,** xattot, musavvir, sahhof, so`fiylik, murshid, mulk, kotib, o`tkinchi hayot, xalqparvar shaxs, дуо, қофия.

Касыды Лутфия посвященные Бойсункур Мирзе

Аннотация. Статья посвящена анализу касыд Мавлоно Лутфий о жизни Бойсункура Мирзы. Автор освещает события в Хуросоне в XV веке и позиции Бойсункура Мирзы в отношении культуры и литературы.

Ключевые слова: ода, мемдух (хвалить), каллиграф, художник, редактор, суфизм, муршид, имущество, секретарь, короткая жизнь, патриот, молиться, рифма.

Lutfiy’s qasidas devoted to Boysunqur Mirzo

Abstract. In this article the author says about events of Khuroson in XV centure and Boysunqur Mirza’s position in the culture and literature and also Boysunqur Mirza’s fatal death.

Keywords: ode, memduh (praise), calligrapher, artist, editor, Sufism, murshid, property, secretary, transitional life, patriot, to pray, rhyme.

XV asr qasidachiligiga katta hissa qo‘shgan shoirlardan biri Mavlono Lutfiydir. Mavlononing qasidago‘yligi haqida Alisher Navoiy shunday deydi:
«… valekin forsigo‘y ustodlardin ko‘pining mushkil she’rlarig’a javob aytibdur va yaxshi aytibdur…» [3; 54]. Ammo bu qasidalar bizgacha yetib kelmagan. Lutfiyning bundan tashqari, 4 ta turkiy madh qasidasi ma’lum bo‘lib, ularning bittasi Shohruh Mirzoga, 2 tasi Boysunqur Mirzoga, 1 tasi Alouddavlaga bag’ishlangan [1; 11-17] .

Manbalardan ma’lumki, XV asrda Xurosonda Shoxruh Mirzo buyrug’i bilan Boysunqur Mirzo tarafidan tashkil qilingan ulkan kutubxonada yuzlab qimmatli qo‘lyozmalar to‘plandi. Unda 40dan ortiq xattotlar, musavvirlar, zarkorlar, sahhoflar ana shu ko‘hna qo‘lyozmalardan nusxa ko‘chirishdi. Alisher Navoiyning so‘zlariga qaraganda, Shoxruh dunyoviy ilmlar ichida tarixni xush ko‘rganligi bois, ko‘pgina yirik tarixnavislarni saroyiga taklif qilgan. Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro‘, Abdurazzoq Samarqandiylar shular jumlasidandir. Davlatshoh Samarqandiy Boysunqur Mirzo haqida: «…hunarparvar va hunarmandlikda jahonda mashhur bo‘ldi. She’riyat va xattotlik uning zamonida rivoj topti. Hunarmand va fazl egalari uning ovozasini eshitib atrof va tevarakdan uning xizmatiga keldilar. Xush xat kotiblardan 40 kishi uning kutubxonasida kitobat qilish bilan mashg’ul edilar… hunarmandlarni rioyat qilar, shuaroni do‘st tutar edi… turkiy va forsiy she’rlarni yaxshi aytardi va olti qalam bilan xat yozar edi va juda chiroyli yozar edi» [4; 55] deb yozadi.

Shu munosabat bilan Boysunqur mirzoning (1397-1434) shuhrati oshgan ediki, Lutfiy unga bag’ishlab 2 ta qasida bitgan. Ularning birinchisi 29 baytli bo‘lib, nasihat usulida yozilgan.

Bunga sabab shuki, Davlatshoh Samarqandiy ta’rif etganidek «Zamon sultonlaridan Xusravi Parvizdan keyin hech kim Boysunqur Sultondek ishratu zebu-ziynatda kun kechirmagan» [6; 141]ligi bo‘lsa kerak. Xuddi shuningdek, «Matla’i sa’dayn»da shahzodaning vafoti zikrida uning olam podshohlaridan ustun bo‘lgan bir qancha fazilatlari yuqori baholanib, «… shahzoda shunday kamolotga egaligiga qaramay, doimiy ichkilik ichishga ruju’ qilgan edi, tiriklik bir daqiqadan iborat bo‘lganida ham agar u la’l rangli maysiz bo‘lsa, uni harom hisoblar…»[5; 29-44] deb yozilgan. Tarixiy asarlarda keltirilgan ushbu ta’riflarga qaraganda, Lutfiy qasidasi tarixiy ahamiyatga ham ega deya olamiz.

Shoir qasida orqali shahzodaga nasihat qiladi:
Ko‘ngulni bog’lama, foniy jahong’a, ey oqil,
Safar yarog’ini qil bo‘lma bir nafas g’ofil.
Ko‘zungga uyqu harom et, bu yo‘lda ogoh bo‘l,
Kim, asru maqsad iroqu hatarnok ul manzil.
Safar yarog’ini sen tonglag’a solursen, lek,
Amiri qofila ko‘chti ravon qilib mahmil.
Muning bikin yurumak birla bilmasang qayda,
Harimi Ka’bai hazratqa bo‘lg’aysen vosil. [1; 11]

Unga murojaat etib, ko‘zingga uyquni xarom qilgin, bu yo‘l ogohlik yo‘li bo‘lishi kerak, ko‘p maqsadlar uzoqda; senga xazinalarni Tangri tijorat uchun berdi, shuncha xazinalarni hosil etib nima qilding; bugun mollarning egasi bularni oson hal etishi mumkin, ammo so‘roq kunida So‘roqchi so‘raganda, hisobini berish mushkul bo‘ladi, do‘st visoli kerak bo‘lsa, o‘zingdan kech, chunki bu oraga o‘zingni solsang, to‘siq qo‘ygan bo‘lasan, habib yuzini mahsharda ko‘rganda hijolat bo‘lmagin, Tangrining ishini bugun qilish kerak, sen johil esa ertaga qoldirding, havas ortidan yurib, nafsning so‘zlarini ko‘ngling qulog’iga kiritmaki, u Bobil sehru jodusidekdir, deydi:

Xazinalarni senga berdi Haq tijorat uchun,
Ne qilding oncha xazoyin bila qilib hosil.
Bukun tasarrufi amvol xush qilur oson,
So‘ruqchi tongla so‘rarda hisob erur mushkil.
Ko‘ngulni kes bu jahondin, ibodat etkim erur,
Xudoy toatidin o‘zga barchasi botil.
Tila ne saltanatu mulk Tengrini ista,
Xudoy boqivu mulki jahon erur zoyil.
Havas keynicha yurub, sanmag’il xudoy yo‘lin,
Daraxt shoxi bikin bo‘lma, bil bila moyil.
Hadisi nafsini ko‘nglung qulog’ina qotma,
Kim, ul fasona turur sehri jodui Bobil. [1; 11-12]

Qasidada Mirzoni bu o‘tkinchi hayotga berilmaslikka undab, tangri ibodatidan boshqa hamma narsa, mulku jahon foniy ekanligini, dunyoni egallash orzusi bilan yongan necha-necha podshohlar hozir bu dunyoda yo‘q ekanligini uqtiradi:

Janobi hazrati Haqqa qachon boʻlur maqbul,
Azal inoyatidin boʻlmasa kishi muqbil.
Qamuq farix tuzukin buzg'uchi ajalni bilib,
Ajab turur but arab birla tuzmaking mahfil.
Oʻlumning oftidin chiqti qasridin kavsar,
Ajal mahobatidin soldi tojini Xarqil.
Qani Malikshohu Hoqonu qaydadur Sanjar,
Qani Toʻg'anu Qizil Arslon, qani Toʻg'ril.
Bu barcha koʻchti, kechishti jahoni foniydan,
Qamuq kishiga budur yoʻl oqil ersang bil.[1; 12]

Lutfiy toʻg'risida Navoiy «majolis»da «Mavlono yigitlikda ulumi zohirini takmil qilg'ondin soʻngra mavlono Shahobiddin Xiyoboniy alayhir rahma qoshida soʻfiya tariqatida ham suluk qilg'ondur. Aziz va mutabarruk kishi erdi» deydi.

Ushbu oʻrinda ta'kidlashimiz joizki, Lutfiy Boysunqur mirzoga qarata «Faqirning (Lutfiyning) oyog'i tuprog'i surmadir, bu tilanchi eshigingga kelganini behuda deb bilmagin. Muridlik qoʻli bilan ishqning etagini tutginki, bu yoʻlda ishq murshidi (Lutfiy) komildir» deb yozgani uning soʻfiylik tariqatida bir komil murshid boʻlganligini isbotlaydi:

Faqirning odoqi tuproqi turur surma
Guzof soʻrma eshikingga kelsa chun soyil.
Irodat ilgi bila tut bu ishqing etagin –
Kim, ushbu yoʻlda turur ishq murshidi komil.

Qasidaning soʻnggi baytlarida bu nasihatning aslini senga aytdim, buni qabul qilish uchun qabul qiluvchi koʻngil boʻlishi kerak. Chunki burungi bilimdonlar qabul qiluvchining joyi soʻzlovchining nasihatidir deb bekorga aytishmagan deydi.

Oxirgi 3 bayt duodan iborat boʻlib, mirzoga boqiylik tilanadi:

Misoli hukmina boʻlsun qamuq sitora mute',
Falakta necha boʻlursa mumassilu homil.
Osib beliga bejaqin sipehr uza zobih,
Hasudi davlatu johini aylasun bismil.
Izi inoyati oʻksulmasun bu sultondin
Kim, ul inoyat erur bahri behadu komil. [1;13]

Keyingi qasida 22 baytdan iborat boʻlib, ramal bahrining mahzuf shaklida (foilotun, foilotun, foilotun, foilun) yozilgan. Bu nasibsiz qasida ham Boysunqur mirzoga bag'ishlanadi. Aftidan, qasida mirzoning biror jangdan g'olib boʻlib kelgani munosabati bilan yozilgan:

Shukrkim, Haq fazlidin boʻldi duolar mustajob
Kim, muzaffar boʻldi dushman uzra shohi komyob.[1;14]

Ushbu qasidada shoir shahzodaning insoniy, kotiblik va podshoh sifatidagi fazilatlarini: mulku millat ravnaqi, shahzodalar sarvari, islom dini homiysi, she'ru kitoblar noshiri, Jamshid, Afridun, Kayxusrav, Doro, himmat va ehson ichra Hotam, adolat ichra Noʻshiravon, mulk olish ichra Faridun, asl ichra Afrosiyob deb maqtaydi.

Uning adlidan bukun olam shunday ma'mur boʻldiki, deydi shoir, dunyoda dushman uyidan boshqa xarob yer yoʻq, har neni fikr etsa, xato kelmasdan savob tushadi; agar Yoqut kotiblikni oʻrganish uchun shogirdlikka ariza bersa, bu xat ilmini boshidan oʻrganishi zarur boʻladi; baxt, iqbolu zafar sizga mulozimdir deya lutf etadi.

20-21-baytlar qasd boʻlib, unda shoir sening madhingni aytishga haddim yoʻq, ammo shah sanosin aytgin deb g'aybdan xitob kelgach, soʻzlarim dur boʻlib, sidq bilan keltirdim, axir shoh qulog'iga nodir dur loyiqdir, deydi. Soʻnggi bayt duo boʻlib, shahzodaga boqiylik tilanadi:

Boqiy boʻlg'il dunyada koʻnglung tilagani bila,
Ul kechagadigrukim, boʻlg'ay tongi yavmul-hisob.[1;14]

Xulosa oʻrnida shuni ta'kidlash lozimki, Boysunqur mirzoga bag'ishlangan yuqoridagi qasidalarda nafaqat Mavlono Lutfiyning, balki, Xuroson xalqining odil podshoh, komil inson haqidagi g'oyalari aks etadi. Qasidalar xalqparvar, millatparvar shaxsning fazilatlarini ulug'lash, uning xalq va millat oldidagi burchlarini eslatish, ezgu maqsadlar, ezgu g'oyalar sari yetaklash, inson sifatidagi qadr-qimmatini yuqori tutishga chorlash kabi hayotbaxsh mavzularni qamrab olganligi bilan ham katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Мавлоно Лутфий, Манзумалар, "Meriyus" – Тошкент – 2010, 11-17- бетлар

2. Навоий асарлари луғати, Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972
3. Алишер Навоий, Мажолис ун-нафоис, Ўзбекистон давлат нашриёти, 1948
4. Б.Аҳмедов, Давлатшоҳ Самарқандий, Фан, 1967, 55 бет
5. Абдураззоқ Самарқандий, Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн, Тошкент, «Ўзбекистон» НМИУ, 2008
6. Давлатшоҳ Самарқандий, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981

UDK: 494.3

O‘ZBEK TILIDA LEKSIK O‘ZLASHMALAR VA ULARNING O‘ZBEKCHA SINONIMLARI

B. X. Daniyarov
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilidagi leksik o‘zlashmalar va ularning o‘zbekcha sinonimlari izohi keng tahlil qilingan. O‘zbek tili leksikasining rivojlanib va boyib borishi natijasida sinonimik komponentlarning kengayishi, yangilanib borishiga sabab bo‘luvchi omillar ilmiy asoslanib berilgan. Bunday xususiyatlar o‘zbek tilidagi so‘z o‘zlashtirish jarayonining tezlashishiga olib kelishi, lisoniy hodisalarning ekstralingvistik, ya’ni nolisoniy omillar bilan bog‘liqligi misollar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Leksikologiya, leksikografiya, nutq madaniyati, o‘zlashma so‘zlar, tilning lug‘at tarkibi, baynalminal so‘zlar, sinonimlar, ekstralingvistik, ekvivalent, printsip.

Лексические заимствования узбекского языка и их синонимы на узбекском языке

Аннотация. В статье широко проанализированы лексические заимствованные слова узбекского языка и их синонимы. Научно обоснованы факторы, являющиеся причиной расширения и обновления синонимических компонентов в результате развития и обогащения лексики узбекского языка. Эти особенности приводят к ускорению процесса освоения слов узбекского языка, также к связи лингвистических явлений с экстралингвистическими, т.е., нелингвистическими факторами.

Ключевые слова: лексикология, лексикография, культура речи, заимствованные слова, словарный состав языка, интернациональные слова, синонимы, экстралингвистический, эквивалент, принцип.

Lexical mastering and thier synonyms in Uzbek language

Abstract. In this article in Uzbek language acquired words synonyms and their explanations of Uzbek synonyms are widely analyzed. Because of developing and increasing of Uzbek language lexics growing components of synonymics, renewing of guilty factors are scientific founded. This peculiarity be the cause of hastening process of acquiring in words of Uzbek language, lingvistic factors depending on unlinguistic factors are illuminated with examples.

Keywords: lexicology, lexicography, speech culture, acquired words, dictionary structure of language, international words, synonyms, unlinguistic, equivalent, procedure.

Til-ijtimoiy hodisa va zamon bilan hamnafas taraqqiy etib boradi. Yangilanish jarayonlari, eng avvalo, tilning lug‘at tarkibida aks etadi. Zotan, fan va texnologiyaning rivojlanishi har bir tilga yangi-yangi tushunchalarni olib kiradi, negaki, texnika taraqqiyoti natijasida yaratilgan kashfiyotlar qaysi mamlakatga kirib bormasin, shu tilda o‘z nomini ham ommalashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyot davriga nazar tashlansa, qadim turkiy tildagi ko‘plab so‘zlar boshqa tillarga o‘zlashgani kabi o‘zga xalqlar tillaridan ham bir qancha so‘z va so‘z shakllarining lug‘atimizdan muqim joy olgani tabiiy.

O‘zlashma so‘zlar uni o‘zlashtirgan tilning qonun-qoidalariga moslashadi, shu tilga singib ketadi. Aks holda, u to‘liq o‘zlashmagan hisoblanib, shu tilning lug‘atida “begona”ligi, “o‘zga”ligi sezilib turadi. O‘zbek tili lug‘at tarkibidagi o‘zlashma so‘zlar so‘zlashuv tili orqali ham, adabiy til orqali ham o‘zlashgan bo‘lishi mumkin. Tilning tarixiy taraqqiyoti natijasida so‘zlarning muayyan qismi o‘z o‘rnini boshqa yangi so‘zlarga bo‘shatib beradi, ya’ni arxaik yoki tarixiy so‘zga aylanadi. Tildagi bu holat ya’ni o‘zlashma so‘zlar kirib kelishining ijobiy va salbiy tomonlari ham bor, albatta. Ijobiy jihati til lug‘at tarkibining boyishi bo‘lsa, salbiy jihati – asl turkiy so‘zlarning iste’moldan chiqib ketishidir. Ko‘rinadiki, xalqlar o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy aloqalar tilga turlicha ta’sir qilar ekan.

Globallashuv asri deb nom olgan XXI asrda, hayot sur'atlari benihoya tezlashgan davrda vaqtni tejashning ahamiyat kasb etishi hech kimga sir emas. Rus tilidan o‘zlashgan baynalmilal so‘zlarning o‘zbek tilidagi muqobili masalasida mulohazatalab o‘rinlar ijtimoiy-foydali mehnat bilan band har bir kishini uyga toldiradi. Biz shu kabi bir qarashda jo‘n, ammo nozik muammoga har kun duch kelib, masalaga to‘g‘ri yechim topa olmay, vaqtni boy berayotganimiz bu muammoning hamon dolzarbligicha qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Jamiyat qanchalik rivojlanib borsa, tilga ongli ravishda munosabat ham kuchayib boradi. Chunki til kishilar orasidagi aloqa vositasi bo‘lishi bilan birga, har bir inson va xalqning tafakkur tarzini ham namoyon etadi. Adabiy til esa grammatik qurilishi, lug‘at tarkibi jihatidan ma'lum bir me'yorga keltirilgandir. Adabiy til so‘zlarni qonuniy ravishda bir xilda ishlatishni, uslubda so‘z ma'nosidan to‘g‘ri foydalanishni hamda jumlani grammatik to‘g‘ri tuzishni talab qiladi. Bundan tashqari, so‘zlarni orfoepik me'yor asosida talaffuz etishni ham taqozo qiladi. Tilning yaratuvchisi ham, tarqatuvchisi ham xalq ekan, adabiy tilni umumxalq mulki deyish mumkin. Shu ma'noda adabiy til me'yori xalqchil, zamonaviy bo‘lishi bilan birga til taraqqiyotini ham aks ettirishi kerak. Zero, me'yor tilning ijtimoiy vazifa bajarishdagi asosiy sharti bo‘lib, unga amal qilish, shu tilda so‘zlashuvchilar uchun majburiydir.

Darvoqe, hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasi jamiyat hayotidagi har bir o‘zgarishni aks ettirib, yangilanib va rivojlanib bormoqda. O‘tgan asrning so‘ngida o‘zbek tilining davlat tili maqomini olishi, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi sohalarning kengayishi va rivojlanishiga, bu esa o‘zbek tili leksik qatlamining boyishiga, balki sinonimik komponentlarning kengayishiga, yangilanib borishiga sabab bo‘ldi. Bu xususiyatni o‘zbek tilining so‘z o‘zlashtirish jarayonining tezlashganligi bilan baholash mumkin.

So‘z o‘zlashtirish – har qanday til taraqqiyotida qonuniy jarayon, binobarin, biror bir xalq boshqa tillar ta'siridan tashqarida yashay olmaydi. Lisoniy hodisalarning leksika doirasida ekstralingvistik, ya'ni nolisoniy omillar bilan bog‘liqligi bir tildagi turli birliklarning boshqa tillarga o‘zlashtirilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zlashtirishning bu turi turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa aloqalar natijasida paydo bo‘ladi[3; 10; 4; 9]. Masalan, bu jarayonni XX asrning 90-yillariga qadar o‘zaro ijtimoiy hayotda yaqin munosabatda bo‘lgan, bir davlat tarkibida yashagan, ammo yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy voqealar tufayli turli davlatlarga ajralgan o‘zbek va rus xalqi misolida ko‘rish mumkin.

Leksikologiya, leksikografiya, nutq madaniyati, adabiy me'yor masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar, bizningcha, leksikaning muhim kategoriyasi bo‘lgan so‘z o‘zlashtirishga ta'sir etmaydi. Har bir tilda so‘z o‘zlashtirish asosida yuzaga kelgan sinonimiyaning milliy xarakteri, bu hodisa haqidagi tushunchaning o‘ziga xosligi [5; 4] uni turli tillar materiallari asosida tadqiq qilishni taqozo qiladi.

O‘zbek tilshunosligidagi muhim va munozaralari masalalardan biri - sobiq sho‘rolar davri va undan keyingi davrda, shuningdek, bugungi kunda ham o‘zbek adabiy tilidagi ruscha baynalminal leksik o‘zlashmalar va ularning ekvivalentlarining (xususan, ruscha, arabcha va forscha birliklar) qo‘llanishi va tartiblanishi, tasniflanishi muammosidir. Turkiyshunoslik va o‘zbek tilshunosligida so‘z leksik-semantik strukturasining kontekstdagi leksik qurshoviga bog‘liqligi, shuningdek, ma'no qirralarining faollashuvi darajasiga bog‘liqligi nutqda doimiy va zaruriy bo‘lishini tadqiq etish masalasining yetarli o‘rganilmaganligi bilan bog‘liq (Bu haqda qarang: K.M.Musayev, D.M.Nasilov, E.A.Begmatov, X.D.Doniyorov, I.Qo‘chqortoyev, H.Ne'matov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev).

Biz o‘zbek tilshunosligida leksik-semantik sistemalar ichidagi o‘zaro shartlangan va o‘zaro ta'sir qiluvchi sinonimik munosabatlar yo‘nalishida ruscha leksik o‘zlashmalarni o‘zbekcha ekvivalentlari bilan taqqoslash orqali tadqiq etishga urindik. Tahlil qilinayotgan birliklarning leksik-semantik xususiyatlari konnotativ jihatdan tadqiq qilinib, xususan, o‘zbek tiliga ilgari o‘zlashgan birliklar semantikasidagi milliy o‘ziga xosliklar ko‘rsatib berildi. O‘zbek tili semantik tizimi ichida so‘z o‘zlashtirish asosida yuzaga kelgan leksik sinonimiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxlit tadqiq etish; tahlil qilinayotgan sinonimik qatordagi har bir so‘z leksik ma'nosining ilgari ajratilmagan semantik komponentlarini topish va izohlash; sinonimlarning semantik strukturasini qiyosiy o‘rganish, shuningdek, ularning qo‘llanishidagi o‘ziga xosliklarni aniqlash asosida amalga oshirildi.

Har bir so‘zning leksik-semantik strukturasini tadqiq etish, uning nozik ma'no qirralarini ajratish, shu asosda, sinonimlarning umumiy va farqlovchi semantik belgilarini aniqlash zarur bo‘ladi. So‘z ma'nosining leksik qurshoviga bog‘liq ekanligini belgilash, o‘rganilayotgan so‘zni turli kontekstlarda qarab chiqish, so‘z ma'nosidagi farqlovchi uzual semantik komponentlarning faollashuvi va namoyon bo‘lishi uchun xos bo‘lgan kontekst yoki nutq vaziyatini belgilash, zarur hollarda leksik birlik sifatida so‘zning mavjud ta'rifiga, uning ekvivalenti – terminologiya birligi bo‘lgan atamaga aniqlik kiritish, sinonim so‘zlarning bir-biridan farqlanuvchi o‘ziga xos semantik va vazifaviy xususiyatlarini tadqiq

etish muhim. Ushbu masalani yoritishda umumiy tilshunoslik namoyandalari: Boduen de Kurtene, V.Gumboldt, L.V.Sherba, V.V.Vinogradov va boshqalar, shuningdek, taniqli tilshunoslar: I.V.Arnold, V.G.Gak, V.N.Yartsyeva, D.N.Shmelyev, Yu.S.Stepanov, Ye.S.Kubryakova, O.N.Seliverstova, V.N.Teliya, A.N.Kuznetsov, Ye.M.Vereщagin, V.G.Kostomarovlarning ishlari nazariy asos sifatida xizmat qildi. Bizning tadqiqotimiz turkiy tillardan biri –hozirgi o‘zbek adabiy tili materiallari asosida bajarilayotganligi bois B.A.Serebrennikov, N.A.Baskakov, E.R.Tenishyev, K.M.Musayev, D.M.Nasilov, I.V.Kormushin, X.Doniyorov, I.Qo‘chqortoyev, A.Hojiyev kabi atoqli turkiyshunos va o‘zbek olimlarining asarlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

So‘z semantikasida xalq milliy-tarixiy madaniyatining o‘ziga xosligini (agar bo‘lsa, aynan qanday leksik birliklarda) aniqlashga harakat qilish, boshqacha aytganda, tahlil qilinayotgan qaysi birlik o‘ziga xos yorqin milliy-madaniy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lsa, bu fon qirralarini ajratish va ularga farqlovchi sema (semantik komponent) maqomini berish mumkin. Aniq matniy materiallar taklif qilinib, so‘zning fon bo‘yoqdorligi qay hollarda nutq (badiiy, publitsistik) tasviriyligi va obrazliligini hosil qilishda qatnashishini kuzatish maqsadga muvofiq. So‘zni o‘zbek tili leksik sistemasidagi assotsiativ-derivatsion munosabatlar jihatidan ko‘rib chiqish, shuningdek, leksik birliklarni ularning yasalishi, so‘z hosil qilish imkoniyatlari va sinonimik xususiyatlari bilan taqqoslagan holda tadqiq qilish zarur. Sinonim so‘zlarning badiiy matnda qo‘llanishini, ularning leksik-semantik va vazifaviy-uslubiy o‘ziga xosligini aniqlash va taqqoslash orqali kuzatish mumkin. Biror xorijiy tilga xos so‘zni o‘zbek tilidagi muqobiliga almashtirishda ham g‘oyat ehtiyotkorlik lozim. Negaki, ba’zan muqobil so‘z o‘zlashma so‘z ma’nosini to‘laligicha bera olmasligi mumkin. Masalan, *printsip* so‘zi o‘rnida *tamoyil* so‘zining qo‘llanishini u qadar asosli deb bo‘lmaydi. *Printsip* baynalminal leksemasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday izoh berilgan: 1 Biror nazariya, ta’limot, dunyoqarash va sh. k. ning dastlabki, asosiy qonun-qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g‘oya, qonun-qoida. Qonunlarimizda saylov printsiplari to‘la va aniq aks etishi zarur (“Fan va turmush”). Qonunning ustuvorligi huquqiy davlatning asosiy printsipidir (Gazetadan). 2 Xulq-atvor, xatti - harakat me’yorlarini belgilaydigan, kishi og‘ishmay amal, qiladigan ichki ishonch, nuqtai nazar, qarash, maslak. Printsipi yo‘q odam. Printsip yuzasidan ish tutmoq [11.309].

TAMOYIL so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da eskirgan kitobiy so‘z sifatida izohlangan: 1 Mayl, moyillik. Vahshiy xalqlarda qonxo‘rlikka tamoyil zo‘r bo‘ladi. Bu – shubhasiz haqiqat! (Oybek, Tanlangan asarlar). 2 Biror sohada tartib, qoida tusini olgan narsa, tadrijiy yo‘nalish. Xalq afsonalarada realistik tamoyil shu tarzda tobora kuchayib bordi (“Fan va turmush”). ...bozorlarimizda o‘sha azaliy udumlarimizni, tamoyillarimizni tiklash, bozorni milliy qadriyatlarimiznang ko‘zgusi sifatida namoyon qilish lozim (Gazetadan) [11.655]. *Tamoyil* so‘zi anglatadigan ma’no aslida *tendentsiya* so‘zi anglatadigan ma’noga yaqin. TYeNDYeNSIYa 1 Taraqqiyot yo‘nalishi; biror narsaga qiziqish, moyillik, intilish. 2 Ma’lum o‘y-mulohaza, tasvir yoki asarning asosiy mazmuni, g‘oyasi. Ma’lumki, 60-70-yillar davomida tarixiy kinolentalar yaratish sohasidagi ijodiy tendentsiyalar yanada rivojlantirildi (S.Xo‘jaev, O‘zbek tarixiy filmlari). Bunday asarlarga qiziqishning siri esa, menimcha, turmushdagi ilg‘or tendentsiyalarni zamonga kishilar talablariga hamohang... bo‘ladigan tomonlarini topib, tanlab, saralab olib yozish bilan bog‘liq (N.Safarov, Jasoratning davomi) [12. 65].

Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa amaldagi qonun hujjatlarida *printsip* so‘zi qoldirilgan, masalan: *O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi* ***printsipiga*** *asoslanadi*(**11-modda**) [1. 6]. Yoki *printsipial, printsipiallik, printsipli, printsipsiz* so‘zlarini *tamoyil* so‘zi orqali ifodalab bo‘lmaydi. Mazkur so‘zlar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham keltirilgan:

“PRINSIPIAL Printsipdan kelib chiqadigan, muhim, jiddiy. Printsipial qarama-qarishlik. Printsipial masala. Jahondagi hozirgi vaziyatga ikki printsipial holat xosdir (Gazetadan). 2 q. **printsipli.** Printsipial odam.

PRINSIPIALLIK 1 Printsipial holatga xoslik, muhimlik, jiddiylik. Masalaning printsipialligi. 2 Ishda o‘z printsipini izchillik bilan amalga oshirish, bir printsipda mahkam turish. Rahbarning printsipialligi.

PRINSIPLI Printsipga qattiq rioya qiladigan, bir printsipda mahkam turadigan. Printsipli olim.

PRINSIPSIZ Bir fikrda mahkam tura olmaydigan; burdi yo‘q, beburd. Printsipsiz kishi [11. 309].

Gap o‘zbek tilida mazkur tushunchani aynan ifodalay oladigan birlik yo‘qligida emas, balki so‘z o‘z mutanosibiga ega. Masalan, *printsip* so‘zi o‘rnida *tutum (tutim)* so‘zini ishlatish mumkin. Zero, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mazkur so‘zga quyidagicha izoh berilgan: “TUTUM Ish tutish yo‘sini. Tutumlari joyida, istarasi issiq, so‘zamol bola oila a’zolariga yoqib qoldi (N.Yusufiy, Hayot so‘qmoklari) [12. 211].

Keyingi o‘n yillikda semasiologiya va lingvostilistika sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar sharofati bilan leksik birliklarni kompleks tadqiq etishning metodikasi ishlab chiqildi. Metodlarni ishlab chiqishda nomlari yuqorida qayd qilingan olimlar ishlaridagi nazariy qarashlarga tayandik. Tadqiqot yo‘lini tanlash ko‘pincha tadqiqot ob’ekti, qurilishi haqidagi farazga qarab belgilanadi. Har qanday faraz ma’lum masalani o‘rganish maqsadida muammoli vaziyat sharoitida tug‘iladi [10; 8; 7; 2]. Ma’lumki, o‘z davrida “50-60 yil davomida o‘zbek tilshunosligida ko‘plab tortishuvlar va munozaraalarga sabab bo‘lgan” [6. 21-26] ruscha baynalminal o‘zlashmalar va ularning sinonimik ekvivalentlarining amal qilinishi va tartiblanish muammosi bilan bog‘liq masalalarni tadqiq qilishga jiddiy ehtiyoj yuzaga keldi.

Adabiyotlar

1.Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: Ўзбекистон, 2007, – 39 б.

2. Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике. М.: Высшая школа, 1991, – 176 с.

3. Бодуэн де Куртене И.А. Избранные труды по общему языкознанию. Том I, М.: 1963, – 384 с.

4. Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. М.: 1977, – 312 с.

5. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. М.: 2000, – 400 с.

6. Дониёров Р. Терминларни ўзлаштириш мезонлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1991, № 6. – Б. 21-26.

7. Постовалова В.И. Лингвистическая гипотеза и ее обоснования. Автореф. дис. ... док. филол. наук. М.: 1988, – 34 с.

8. Селиверстова О.Н. Об объекте лингвистической семантики и адекватности её описания // принципы и методы семантических исследований. М.: Наука. 1976, - С. 119-146.

9. Шанский Н.М. Лексикология современного русского литературного языка. М.: 2009, – 312 с.

10. Щерба Л.В. Избранные работы по языкознанию и фонетике. -Л.,1957, – 186 с.

11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – 688 б.

12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – 606 б.

UDK: 809.1

NODIRABEGIM SHE'RIYATIDA TASAVVUFIY QARASHLAR TALQINI

N. M. Muxitdinova
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqola Nodirabegim ijodining Qo‘qon adabiy muhitida tutgan o‘rni hamda shoira she'rlaridagi tasavvufiy g‘oyalar, komil inson timsolining badiiy talqiniga bag‘ishlangan.

Davrning mashhur ijodkorlaridan biri Nodirabegim adabiy merosi qariyb yuz yil davomida turli nuqtai nazarlardan, turli darajada o‘rganib kelindi. Ammo, shoira ijodidagi ma’rifat talqini haqida, g‘azaliyotida so‘fiyona fikrlar sharhlari borasida so‘z yuritilmadi. Vaholanki, bu shoira ijodining asl mohiyati, yashagan davr mafkurasi bo‘lmish tasavvuf tariqatlari masalalarining sharhi, irfoniy – falsafiy mushohadalar ifodasidan iborat edi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, komil inson, she'riyat, g‘oyaviy yo‘nalish, badiiy timsol.

Интерпретация суфизма в лирике Надирабегим

Аннотация. В статье раскрыта роль творческого наследия Надиребегим в Какандской литературной среде. В лирике поэтессы освещаются вопросы суфизма, создаётся художественный образ всесторонне совершенной личности.

Ключевые слова: суфизм, совершенный человек, поэзия, идеологические истоки, художественный образ.

Interpretation of sufism in Nadirabegim lyric

Abstract. This article is devoted to the disclosure of the place and role of the creative heritage of Nadirebegim in the Kakand literary environment. The lyrics of the poetess highlight the questions of Sufism, creating an artistic image of a comprehensively perfect personality.

Keywords: Sufism, perfect man, poetry, ideological origins, artistic image.

O‘zbek adabiyotining ming yillik tarixini tasavvuf ta’siridan ayri holda tasavvur qilishning aslo imkoni yo‘q. Chunki, tasavvuf yurtimiz milliy ma’naviy hayoti uchun asosiy e'tiqod falsafasi, o‘ziga xos mafkura edi. Tasavvufning asl maqsadi axloqqa yo‘naltirilgan. Komil inson g‘oyasi bu ta’limotning bosh g‘oyasi hisoblanadi. Hayotning o‘zida shunday g‘oya va unga intilishning tayyor nazariyasi bo‘la turib, adabiyotning bu ta’limotga befarq bo‘lishining ham iloji yo‘q edi. Negaki inson va uning kamolotga erishishi masalasi so‘z san'atida ham asl maqsad yanglig‘ targ‘ib etib kelingan.

Tasavvufda tariqat inson irodasini charxlash, toblash orqali uni donolikka chorlovchi, o‘z-o‘zini tarbiyalash, aql –idrokni yuksaltirish, nafs xohish-istaklaridan uzoq bo‘lish kabi fazilatlarga yetaklovchi buyuk ta’limotdir. Kamolotga erishgan inson esa Haq taolo manzuri bo‘ladi va ko‘p fayzu futuh, ilohiy inoyatlarga sazovor bo‘ladi.

Naqshbandiya ta’limoticha, “naqsh band bar dil band”, ya’ni ko‘nglingda Alloh taolo zikrini naqsh ayla, demakdir. Ko‘ngil tarbiyasi esa tariqat bilan bo‘ladi. “Chinakam musulmon bo‘lgan, islomni chuqur anglab, uning ma’rifati, hikmat va falsafasidan bahramand bo‘lgan, musulmonlikni Alloh yodida pok yashash deb bilgan kishi hyech qachon tariqatni o‘ziga yot deb bilmaydi. Musulmonlikni faqat rasm-rusumlar, odatlar va tashqi belgilar yig‘indisi deb biluvchi kishi uchun, turgan gap, tariqat mavhum va hatto zararli narsa bo‘lib tuyuladi” [3. C. 43].

Barcha tariqatlar insonni Alloh taolo huzuriga qadar yuksaltiradi. Naqshbandiya tariqati, xususan, Haq taolo huzurida doimiy hozirlikdir. U sahobai kiromdan asl holicha, ziyoda ham, nuqson ham bo‘lmay yetib kelgan tariqatdir [5. S. 8].

Shayx Amin Alouddin Naqshbandiy o‘zining “Naqshbandiya tariqati nedir” nomli kitobida shunday yozadi: “Naqshbandiya tasavvufi o‘rtacha va mo‘tadildir. U sulukdagi mo‘tadilligi, shariatga ergashish, tariqatning osonligi bilan ajralib turadi... Naqshbandiy sufiyning qalbi Alloh bilan, jismi banda bilan. Bu tariqatdagi nazarni o‘ziga tortadigan eng muhim narsa – sokinlik, ya’ni uning riyodan holi bo‘lmaydigan baqiriq – chaqiriq, tarannum va tinglashlardan uzoqdaligidir” [5. S. 8].

Biz ijodiy meroslarini o‘rganayotgan shoira asarlarida ana shu madaniy hayot sharoitiga moslashgan insonsevar tariqat g‘oyalari, tushunchalari bevosita talqin va targ‘ib etilgan fikrlar ko‘plab uchraydi. Ijodiy merosi ancha keng o‘rganilgan shoira Nodirabegim she'riyatining ham qariyb yuz yil davomida olib borilgan tadqiqotlarda shoiraning diniy – tasavvufiy mushohadalari, asarlaridagi irfoniy ma’no ochilmay qolgan. Oliynasab Qo‘qon malikasining pardali, kinoyali, imo-ishorali she'riyatini to‘la anglamoq, uqmoq mushkul ish. Uning Komila taxallusi bilan nashr etilgan forsiy devoni “Hamdi on xoliqi xalaqal arzu samo, Kardam suxan ba nomi xudovand ibtido” [2. S. 7] matla’li hamd bilan boshlanadi. Undan keyin “Ey shamsan livoyat mehrest olamoro, Har shuqqaash navishta debochai fatahno” [2. S. 11] misralari bilan boshlanuvchi na’t keladi. Shoira ijodiy merosining avvalgi nashrlari adabiyotshunoslar e'tiborida bo‘lib, ancha batafsil tahlil etilgani bois, biz diqqatimizni eng so‘nggi nashrga qaratdik. Bundan tashqari zullisonayn shoiraning forsiy devonida irfoniy, ma’rifiy fikr va qarashlari ko‘proq o‘rin olgan.

Komila devonidagi ushbu na’tda payg‘ambar alayhissalomning olamlar, xususan, nisoniyat uchun ilohiy inoyat ekanliklari, ul zotning gavhar vujudlari tufayli olam xazinasi mavjud ekanligi, me'roj tunidagi mo‘jizalari, shafoatlari mo‘jizasi haqida so‘z yuritiladi. G‘azalga “o‘” (uning) so‘zi radif etilgan:

Kase ki nest sarash xok gashta bar dari o‘,
Buvad agar hama xurshed xok bar sari o‘.
Dar muhiti inoyat Muhammadi arabi,
Ki bud maxzani olam tufayli gavhari o‘…
Agar parad ba sari xoni shohiyash magase,
Ba bargi sad rah zanad pushti dast shahpari o‘... [2. S. 181]

Devonda shunday g‘azallar borki, ularni bir o‘qishda na’t ekanligini anglash qiyin, oshiqona g‘azalga o‘xshaydi. Ammo, g‘azal mag‘zidagi biror bayt uning payg‘ambar alayhissalomga bag‘ishlanganligini ma’lum qiladi. Bu Nodira ijodiy uslubiga xos yangi xususiyat. Shunday g‘azallardan biri “Dar sog‘ari sahbo nabuvad mavчi mai tob, Az partavi husni tu dili oina shud ob” [2. S. 21] tarzidagi matla’ bilan boshlanadi. G‘azalning ikkinchi bayti mamduhning zulfi gajaklariga, uchinchi bayt uyqu elitgan mast qaro ko‘zlarga, to‘rtinchi bayt qoshlar mehrobiga, beshinchi bayt ma’shuqa xayollari va mayxona eshigi ta’rifiga bag‘ishlangan. Maqta’dan oldingi quyidagi bayt esa bevosita o‘quvchi ko‘z o‘ngiga payg‘ambar alayhissalom timsollarini keltiradi:

Shud fikri tu g‘avvos ba dar'yoi maoni,
Durhoi kalomi tu buvad gavhari noyob.

Mazmuni: Fikring ma’nolar daryosiga g‘avvosu, so‘zing injulari gavhari noyobdur.

Xuddi shunday, shoiraning “talab” radifli g‘azalining so‘nggi baytlarida ham payg‘ambar alayhissalom shafoatlari, mazog‘ surmasi hodisalariga ishora etiladi. G‘azal pand – o‘git ruhida “Ey

mayxo‘r, masjidda Xudoning yo‘lini tut, Har eshikdan fayz yetsa, tilagingni tila” mazmunidagi matla’ bilan boshlanadi. G‘azal nihoyasida Komila mamduh eshigi tuprog‘idan ko‘zlariga to‘tiyo tilaydi.

Komila devonida shoira o‘zini rind, qalandar deb atagan baytlar, g‘azallar mavjud. Ilohiy ishq talqini keltirilgan “omadam” radifli g‘azalda shoira “ishq libosini kiyganman, murod tojini boshimga qo‘yganman, aylanib turgan charx piyolamdir, men bir rind qalandarman”, deb yozadi:

Kisvati ishq dar baram, toчi murod bar saram,
Gardishi charx sog‘aram, rindi qalandar omadam.

Keyingi baytlar shoira mushohadalarini yanada aniqroq ifodalaydi:

Fahru fano tariqi man, mehru vafo rafiqi man,
Ishqi buton shafiqi man, volai dilbar omadam.
Bas, ki rahi malak zadam, naqshi vuчudi haq zadam,
Poy ba no‘h falak zadam, bar sari chambar omadam... [2. S. 164]

Bu baytlarda shoira sufiya ayol sifatida namoyon bo‘ladi. U faqr va fano yo‘lida yo‘lchi ekanligini bayon etmoqda. Demak, shoira qaysidir tariqatga rasman aloqador bo‘lmasa–da, qalban ixlosmand bo‘lgan. Balki, keyingi baytda ishora etilayotganidek, “Haq vujudini naqsh etib”, naqshbandlarga ixlos qilgandir. Shoira bundan faxr etadi. U faxriya usulida ijod etilgan bir g‘azalida olamlarni kuydirguvchi haqiqiy ishqdan bahramand bo‘lganligini, shu ishq dardiga mubtalo oshiqlar qatorida ekanligini shukrona tarzida bayon etadi:

Muridi ishqi olamso‘zman ushshoq bazmida,
Navoi nolai naydek baland etti maqomimni. [1. S. 296]

Xuddi shunday faxriya bilan ajdodlari haqida so‘zlar ekan, shoira naqshbandiya tariqatiga bag‘oyat ixlosmand bo‘lgan bobokaloni Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo nomini tilga oladi:

Sayodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokiman,
Xudoyo, rahmat ayla, barcha ajdodi izomimni. [1. S. 6]

Bobur Mirzoning buyuk naqshbandiy diniy rahnamo Hazrati Xoja Ahrori Vali (q.s) va ul zoti pok xonadoniga bo‘lgan ixlosu muhabbati, bu oilaning Bobur Mirzo hayoti bilan bog‘liq karomatlari haqida shoira, albatta, “Boburnoma” orqali xabardor bo‘lgan. Bobur Mirzoning Xoja Ahror Validan keyin Movarounnahrdagi yirik naqshbandiy tariqatpesha Hazrat Mahdumi A’zam Dahbediy (q.s) ga murid va niyozmand bo‘lganligidan ham (balki, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”i orqali orqali), pirga Hindistondan turib sovg‘a salomlar yuborganligidan ham shoira xabardor bo‘lgan bo‘lishi mumkin [6. S. 53]. Bu tafsilotlar shoira ta’kidlagan “faqru fano” tariqatga munosiblik bevosita o‘sha davrning yetakchi mafkurasi sanalmish naqshbandiya tariqati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, degan mulohazalarni uyg‘otadi. Shoira asarlarida uning biror tariqat piriga ixlos qo‘yganligi haqida ma’lumot yoki ishora uchramaydi. Uvaysiy o‘zining ikki pir – Xoja Ahrori Vali va Mashrabga ixlosu sadoqatini ochiq bayon etadi. Ammo, Nodira she'riyatida shayx va pirlarga, akobiri kiromga nisbatan hurmat izhor etilgan bayt va g‘azallar uchraydi. “Sabo‘h” radifli g‘azalida shoira pirlarni izzat – ikrom qilish davlatning obro‘yidir, har tong o‘rningdan turgach, ularning izzat – hurmatini o‘rniga ko‘y, mazmunidagi fikrlarni bayon etadi:

Komila ikromi piron obro‘yi davlat ast,
Har safar barhyez az чo bahri ikromi sabo‘h. [2. S. 70]

Nodirabegim chuqur orifona mazmunli she'rlar bitgani holda, uning qaysi tariqatga ixlosi yoxud intilishi ko‘proq ekanligini sezish mushkul. U ichida Do‘stni pinhon aylagan qalb sohibasi va bu xazinaning ziyrak qo‘riqchisi. U bu davlatni – Do‘st ishqini – hyech kim bilan bo‘lishmoqchi emas:

Fosh etma ulusqa ishq sirrin,
Ko‘ngulda ani nihon etib ket.

Shoira she'riyatida qalandarlik ruhi, devonai Mashrab she'riyati ruhi ham seziladi. “Mardi xudo” laqabini olgan Hazrat Mashrabning “Ayo do‘zax, mani kuydur, xaloyiq kuymasun hargiz” deya jonfidolik qilishlari, bir “oh” bilan yetti tamug‘ni kul qilishni istashlari, fig‘on chekishlari ruhidagi bayt va g‘azallar Nodira ijodida ham mavjud.

Komila devonida “Ey Komila, agar bir subh payti miqdorida dunyoda yashash imkoniyati bo‘lsa, bir hazin oh tortib, ikki dunyo ishini qilib ketgin”, mazmunidagi mashrabona fig‘on “subh” radifli g‘azalning maqtaida ifoda etilgan:

Komila kori du olam kun ba yak ohi hazin,
Fursati hasty agar boshad turo, miqdori subh. [2. S. 72]

“Meravad” radifli g‘azal maqta’ida esa “dil pardasi yashiringan shunday sirlarim borki, Mening bir ohim yashinidan olamda to‘fon turadi”, mazmunidagi mashrabona “ohi so‘zon” mavjud:

Chun nigoh doram nihon dar pardai dil Komila,
Olam az yak barqi ohi man ba to‘fon meravad. [2. S. 100]

XVIII asr birinchi yarmi Qo‘qon adabiy muhitining hassos shoirasi Nodirabegim she'riyatida orifona g‘oyalar talqin etilgan she'riyat o‘tmish mumtoz she'riyati g‘oyaviy-badiiy an'analaridan bahramand bo‘lgani holda, o‘zining xususiy jihatlariga ham ega bo‘ldi. Shoira ijodida naqshbandiya tariqati tushunchalari va malomatiylik kayfiyati turli badiiy usullar, rang-barang badiiy timsollar vositasida yuksak badiiy mahorat bilan o‘z ifodasini topdi.

Nodirabegim ijodiy merosi ikki asrdan ortiq davr mobaynida o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, uni tamoman yangi mafkuraviy nuqtai nazardan chuqur tadqiq etmoq lozimligi aniq ayon bo‘ldi. Shoiraning tasavvufiy dunyoqarashi, g‘oyaviy yo‘nalishi, zamondoshlari bo‘lmish piru murshidlar va ahli tariqatga munosabati hayotiy biografiyasi va adabiy merosi misolida tadqiq etilishi zarurati yuzaga keldi. O‘zbek adabiyotshunosligining keyingi taraqqiyoti ana shu masalalar yechimiga bevosita bog‘liq ko‘rinadi.

Adabiyotlar

1. Нодира-Комила. Девон. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, – Т.: 2001. – Б. 345
2. Нодира-Комила. II китоб. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, – Т.: 2004. – Б. 208
3. Комилов Н.Тасаввуф. “Movaraunnahr” – “O”zbekiston”, – Т.: 2009. – Б. 290
4. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити (XVIII – XIX асрлар). – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1961. – Б. 361
5. Шайх Муҳаммад. Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф. - Тошкент: “ Мовараннаҳр ”, 2010. – Б. 280
6. Салоҳий Д. Бобур ва Нақшбандия. «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали. 2013. №1. – Б. 53.

УДК: 821.512.133

OYDIN HOJIEVA SHE’RIYATIDA VATAN MANZARALARI

I. T. Saymuratova
Guliston davlat universiteti
ijobat1980@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoira Oydin Hojiyevaning Vatan mavzusida yozgan ayrim she’rlari tahlilga tortilgan. Oydin Hojieyvaning Vatan mavzusidagi ayrim she’rlarining mazmun-mohiyati, yurt talqini va vatanparvarlikning ifodalanishi tarannum etilgan. Lirik qahramonning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Vatan mavzusi, lirik qahramon, poetik obraz, tasvir kechinmalari, lirik kechinma, tushuncha, majoz va tashbeh.

Тема родины в поэзии О.Хаджиевой

Аннотация. В данной статье анилизируется стихотворения, посвященные Родине поэта О.Хаджиевой. Речь идёт о бесконечной любви к Родине о патриотизме. В произведениях О.Хаджиевой ярко выражается душевное состояние лирического героя.

Ключевое слова: тема Родины, лирический герой, поэтический образ, описание чувств, лирическое представление, понятие, метофора, сравнение.

The theme of the motherland in the poetry of O. Khadzhieva

Abstract. This article analyzes poems dedicated to the homeland of the poet O. Khadzhieva. In the works of O. Khadzhieva, the emotional state of the lyrical hero is clearly expressed.

Keywords: the theme of the Motherland, a lyrical hero, a poetic image, a description of feelings, a lyrical representation, a concept, metaphor, comparison.

O‘zbek she’riyatining taraqqiy etishida xalq shoirasi Oydin Hojievaning o‘ziga xos o‘rni bor. Professor A.Rasulov: “Darhaqiqat, o‘zbek she’riyatida nozik didli, betakror ko‘rish qobiliyatiga ega shoirlar ko‘p. Shulardan biri – hozirgi o‘zbek she’riyatining yetuk namoyondalaridan Oydin Hojievadir” - deb ta’kidlaydi [6,2012]. Uning she’rlari, qalb kechinmalari, ruhiy evrilishlari o‘zbek she’riyati muxlislari qalbidan o‘rin olgan. Binobarin, “Haqiqiy badiiy asar o‘quvchi yoxud tomoshabinning hislariga ta’sir etishi bilan yozma so‘zning hamma boshqa turlaridan ajralib turadi” [1,2005] Shu sababdan ham shoiraning haqiqiy qalb kechinmalari kitobxon qalbiga muhrlangan.

Davr ijodkorga mavzular, tuyg‘ular berishi mumkin, lekin hamma gap bu niyatni qay tahlidda ifodalay bilishda, ro‘yobga chiqarishda. Shoirning san’atkorligi, ijodkor sifatidagi mahorati shundaki, lirik bir she’r doirasida umumahamiyatli muammoni diqqat markazga olib chiqib, o‘z poetik niyatini real, borliqning in’ikosi bo‘lgan fikrlar va his-tuyg‘ular orqali jamiyat va alohida olingan bir shaxs olamining manzarasini va siyratini, sharhi va tahlilini satrlarga singdira olishidadir [2,1996].

XX asrning 60-70 yillarda she’riyatimizga kirib kelgan shoiraning she’rlarida o‘zbek xalqi hayotining rangin manzaralari, el-yurt uchun jon fido etadigan qahramonning ruhiy kechinmalari, Vatan muhabbati va iftixor tuyg‘ulari tarannum etiladi. Vatan mustaqilligi shoira ijodiga yanada jo‘shqinlik, qat’iyat, ko‘tarinki ruh berdi. U o‘zbek xalqining behad go‘zal dunyosini, tarixini, yashargan hayotini mehr-u muhabbat, buyuk ishonch bilan sevib kuylay boshladi, iste’dodining yangi qirralari ochildi.

Vatan tushunchasi har bir ijodkorda o‘zgacha ifodalanadi. Vatan – eng avvalo kindik qonimiz to‘kilgan muqaddas zamin, asrab-avaylashimiz zarur bo‘lgan ota makon, u gunohsiz go‘dak singari pokiza bir tuyg‘u ekanligi shoiraning shu mavzudagi she’rlari zamiriga singdirilgan:

Hazorispand bo‘lsam sahrolaringda,
Feruza tosh esam daryolaringda,
Hayit oyi bo‘lsam samolaringda,
Mehr-u vafo – ko‘rar dunyolaringda,
Seni yomon ko‘zdan asramoq uchun!

Shoiraning lirik qahramoni Vatanni har nedan ortiq suyadigan, jon fido etadigan haqiqiy vatanparvar. Sahro, daryo, samo, dunyo bir-biriga yaqin tushunchalardir. Bu tushunchalarning har biri o‘ziga xos ramzlarga ega. Sahro – quruq cho‘l, dashtu biyobon, vatanning bir bo‘lagini tashkil etadi. Daryo - keng ummon, bag‘rikenglik belgisi. Samo – osmon, tiniqlik, musaffolik ramzi. Dunyo esa kenglik, borliqning o‘zi. Sahro bilan hazorispand, daryo bilan feruza tosh, samo bilan hayit oyi, dunyo bilan mehru vafo tushunchalari bog‘lanib bir butunlikni tashkil etadi. Bu holat lirik qahramonning Vatan haqidagi orzu – o‘ylari bilan birlashib, misralar tagma’nosida yangi ma’no kashf etadi. Sahroda hazorispand bo‘lish uni shu o‘simlik kabi yovlardan, balo-qazolardan asrash ma’nosini beradi. Daryodagi feruza tosh - soflikka oshuftalik. Ranglar ichida feruza rang – musaffolik ramzi. “Hayit oyi bo‘lsam samolaringda” [4,1998] misralarida islom dinidagi muqaddas oylardan biri ramazon oyida barcha samodagi yomon maxluqotlar – insu-jinslar, jinlar kishanlanishiga ishorani ilg‘ash mumkin. Ya’ni samoda barcha ezgu niyatlar mustajo bo‘lishi uchun qarshiliklar yo‘qotiladi. Hayit oyi ramazon oyi ma’nosida bo‘lib vatandoshlarimizning pok niyatlarini amalga oshirishda vositachi bo‘lish, ularning xizmatiga bel bog‘lash lirik qahramonning maqsadlaridan biri ekanligi anglashiladi. Mehr – vafo kabi ezgu fazilatlar har bir kishi uchun umumiy bo‘lgan tushuncha. Bu tushunchalarning xulosasi bir misra qatiga birlashtirilgan: “Seni yomon ko‘zdan asramoq uchun!”. Qahramon vatan uchun balogardon bo‘lishni xohlaydi.

Yaxshi she’rda fikr bo‘lishi mumkin, biroq u fikrdangina iborat holda qololmaydi. U bundan boyroqdir. “Lirikadagi poetik obraz fikr bilan tuyg‘uning uzviy birikishidan tug‘iladi” – deydi, Ozod Sharafiddinov [5,1979].

She’rda soxtalik va sun’iylik ko‘rinmaydi. She’rdagi har bir poetik obraz shoira shaxsiga va ko‘ngil dunyosiga yaqin. Shuning uchun ham ifodalar ta’sirli, ishonarli ko‘pchiligi ramziy ma’nolarga ega. Lirik qahramonning chin va pokiza niyati samimiy tasvirlangan.

Ostonangda yotgan iting bo‘loyin,
Naslingni pok tutgan suting bo‘loyin,
Ko‘zingdagi hurlik o‘ting bo‘loyin,
Baland tog‘larda burguting bo‘loyin,
Seni g‘anim ko‘zdan asramoq uchun!

Ushbu samimiy niyat ifodasida haqiqiy millatparvar inson qalbi urib turibdi. Uning kechinmalari aniq tushunchalar orqali aks ettirilgan. Vatan, eng avvalo, har bir uyning ostonasidan boshlanadi. Jumladan, har bir xonadonning qo‘riqchisi – iti bor. It jonivorlar ichida eng vafodori. Itning vafodorligi egasiga nisbatan sodiqligidir. Sodiqlik tushunchasi burch tushunchasiga yaqin. Bu qahramondagi burchga sodiqlikka ishora. Burgut qushlar shohi va o‘ta mag‘rurlik tushunchalariga tashbeh bo‘ladi. She’r misralaridagi “Baland tog‘larda burguting” jumlalarida g‘ururi tog‘lardan baland, dushmaniga bo‘y bermaydigan, o‘zini xo‘rlatib qo‘ymaydigan millat farzandi tushunchasi aks ettirilgan. Farzandlar uchun ona suti pok va qadrli. Ona suti bir parcha etni ulg‘aytiradi. Ham ma’nan, ham jismonan kamolga etkazadi. U orqali qalblarda Vatanga muhabbat mehri uyg‘onadi. Ona suti oqlikka va ezgulikka ishora bo‘lsa, hurlik o‘ti – ozodlikka, istiqlol va istiqbolga ishora. Qahramonning bu samimiyligi faqat bir niyat uchun xizmat qiladi: “Seni g‘anim ko‘zdan asramoq uchun!”.

Yurt, Vatan tushunchalari kishi tilida emas, balki qalbida ham chuqur ildiz otishi lozim. O‘zini o‘ylaydigan, o‘zi uchun yashaydigan kishi qalbida Vatan tuyg‘usi bo‘lmasa kerak. Shoiraning Vatan lirikasi har

qanday kimsa ko‘nglida unga nisbatan uyg‘oqlikni, iliqlikni, sezgirlikni, muhabbatni his ettiradi. Bu shirin tuyg‘u qalbimizni, ruhimizni har jihatdan tozartiradi. Nafaqat o‘zgalarni, balki o‘zimizni o‘zimizga yaqinlatadi. Vatan uchun fido bo‘lishga chorlaydi. Kishi qalbida Vatanga muhabbat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Inson Vatanni anglasa, chin dildan sevsagina, har qanday kuch-qudratga tayyor bo‘lsagina, unga nisbatan muhabbat izhorlari quyilib kelaveradi.

Oydin Hojieva uchun Vatanni kuylamoq, ta’riflamoq shunchaki ko‘ngil tug‘yoni emas. Uning lirik qahramoni o‘zini borligicha Vatan xizmatiga, Vatan muhabbatiga shaylagan. Shu bois ham uning bitganlarida Vatan oddiy, jo‘n, shunchaki timsol emas, balki haqiqiy insoniy tuyg‘u, ulug‘vor poetik obraz bo‘lib gavdalanadi. Lirik qahramoni Vatan haqidagi o‘ylarida Vatanni “Hur qiz kabi”, “Yashil moviy va oq yolqin”, “Bir bayroq husnida” ramzlari orqali talqin etadi.

Vatan!
Hur qiz kabi bul kun
Baland tog‘ ustida ko‘rdim.
Yashil moviy va oq yolqin
Bir bayroq husnida ko‘rdim.

Mazkur misralarda Vatanni hur qizga qiyoslanishi bejiz emas, albatta. Hur qiz – oqlik va poklikning, gunohlardan xoli bo‘lgan eng toza va shaffof yurakning ramziy ifodasidir. U jannatning to‘ridan makon topadi. Shoira nazdida Vatan ham beg‘ubor maskan. Uning muhabbati baland tog‘lardan-da yuksak va purviqor. “Yashil moviy va oq yolqin” bayrog‘imizda aks etgan yashil bepoyon kengliklarga, ko‘kalamzorlarga, tinchlik va tiniqlik, soflik va musaffolikka ishoradir. U millatining, vatanining kechagi tarixini yaxshi biladi. Vatanparvar sifatida vatanning buguni o‘tmishidan, ertasi bugunidan ayri bo‘lolmasligini chin dilidan his etadi. Shu sabab ham Vatan haqidagi o‘ylarida hurlik, ozodlik uchun olib borilgan omonsiz kurashlar aks etadi:

Agar qirq yil bo‘lib qirg‘in,
Ajal o‘tsa chalib burg‘u,
O‘lmagan mardlaringni men
Hur saboq ustida ko‘rdim.

Oydin Hojieva ijodidagi Vatan manzaralari samimiy muhabbatning ifodasidir. Uning bu boradagi lirikasi Vatan ishqidan yaralgan, Vatan ruhi bilan yo‘g‘rilgan, boshdan-oxir vatansevarlik tuyg‘ularini tarannum etishga chog‘langanligi bilan ahamiyatlidir. Vatanning shonli o‘tmishini yuksak va haroratli qalb qo‘ri bilan ifoda etadi.

Ko‘zingda – o‘chi alqasos
Ko‘ksingda kuchli gulduros,
Nodiraday giryon uvvos
Dod-firoq ustida ko‘rdim.

Lirik qahramon Vatan muhabbati deganda, Vatan uchun olib borilgan jangu-jadallarda halok bo‘lgan farzandlarning jonini, ular firoqida kuyib ado bo‘lgan Nodira va Nodiralarning dod-faryodlarini ko‘radi.

Shoiraning Vatan lirikasidagi qahramoni nodir va o‘ktam shaxs. Yurt kelajagini oldindan idrok etadi. Vatan istiqbolini kechagi kunidan ko‘ra olib, ertasini bashorat qiladi.

Izing qutli, shoning qutli,
Tog‘ing, cho‘qqing sor burgutli,
Seni tong sharaf qutbli
Burji moh ustida ko‘rdim.

Shoiraning bugungi istiqlol davridagi qahramonining Vatan haqidagi to‘xtamlari ushbu misralarda jamlangan:

To‘kilsam, qovjirab bir kun,
Vido aytar dunyoi dun.
Onamday ko‘zlari purxun
Shu tuproq ustida ko‘rdim.

Buni fidokorlikning yorqin namunasi deyish mumkin. Bu dunyoda tug‘ilmoq, o‘lmoq bor. Inson tug‘ilganda o‘zini ona-er bag‘rida ko‘radi, umri tugab hayot bilan vidolashganda ham shu tuproqqa boradi. Inson tirikligida yurtini himoya qiladi, u foniy dunyoga ketganda esa tuproq uni panohiga oladi. She’rning “To‘kilsam, qovjirab bir kun”, “Vido aytar dunyoi dun” misralaridan yorug‘ olamga kelish, oxir oqibatda tuproqqa singib ketish ma’nolarini anglash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, shoiraning Vatan mavzusidagi she’rlari bugungi davr kishilarini yurtni sevib ardoqlashga, xalqparvarlik va qahramonlikka chaqiradi. Xalqimizning o‘sib kelayotgan farzandlarini mustaqillikka, Vatanni sevishga, unga e’tiqod qilishga, mehr-muhabbat bilan qarashga undamoqda, xalqning o‘yidagi, dilidagi dardlarini jasorat bilan yozmoqda. Shoira ijodini kuzatar ekanmiz, vatan mavzusidagi she’rlarida lirik qahramon timsoli ajoyib tashbehlar, o‘xshatishlar, go‘zal va sirli vositalar asosida umumlashma obraz darajasiga ko‘tarilganligining guvohi bo‘lamiz. Mavzu, g‘oya, muammo, lirik qahramon nuqtai nazaridan uning she’rlari nihoyat darajada rang-barangdir. Uning “Tuproqda nur ko‘rdim, nafasda - shuur”, “To‘kildim-a

turnalarning patiday, O‘qildim-o minoralar xatiday”, “Tiriklikni bekor ko‘rsang, jon tikmoqqa qaror ko‘rsang” kabi tasvir kechinmalari bu mavzudagi she’rlarining badiiy qimmatini yana ham oshirgan.

Adabiyotlar

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
2. Norboev B. Istiqlol va iste’dod tarbiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
3. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. –Toshkent: Fan, 2007.
4. Hojieva O. Panohim. She’rlar va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 1998.
5. Sharafiddinov O. Birinchi mo‘jiza. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.
6. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2012-yil, 20-aprel,16-сон

UDK: 494.3

SHE’RIYATDA NOODATIY SO‘Z TARTIBI – INVERSIYANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

A. Q. Sobirov
Samarqand davlat universiteti
anvarsobir@mail.ru

Annotatsiya. She’riyatda so‘z tartibi (Hozirgi o‘zbek she’riyati misolida). Gap tarkibidagi so‘z birikmasi komponentlariga bog‘liq holda inversiyaning stilistik imkoniyatlarga egaligi nutqning ohangdorligini, ta’sirchanligini ta’minlaydi, unga ravshanlik va jo‘shqinlik, mayinlik bag‘ishlaydi. Gap bo‘laklarini ma’lum kommunikativ maqsadda joylashish tartibini o‘zgartirishda u yoki bu gap bo‘lagining estetik ahamiyati leksik-semantik birliklarning o‘zaro munosabati asosida shakllanadi. Bu esa muallifga gap bo‘laklarini noodatiy tartibda joylashtirishda so‘z ma’nosinini ajratib ko‘rsatish, ta’kidlash va kuchaytirishga imkon berishi kabilar maqolada aniqlandi.

Tayanch so‘zlar: so‘z tartibi, noodatiy so‘z tartibi – inversiya, ma’no nozikliklari, semantik vazifa, assemantik vazifa, ijodkorning o‘ziga xosligi, so‘z tartibida tabiiylik va sun’iylik, mantiqiy urg‘u, qofiya va vazn talabi.

Необычный порядок слов в поэзии – особенности инверсии

Аннотация. Порядок слов в поэзии (как в современной узбекской поэзии). Стилистические возможности инверсии в зависимости от составляющих фразы в речи обеспечивают тон, чувствительность речи, придают ей ясность. Эстетическая ценность конкретной пьесы в изменении расположения речевых секций для конкретной коммуникативной цели основана на взаимосвязи между лексическими и семантическими единицами. В статье автору удается необычным образом подчеркнуть и усилить значение слова.

Ключевые слова: порядок слов, необычный порядок слов - инверсия, тонкость значения, семантическая задача, асимметричная задача, оригинальность создателя, естественность и искусственность в порядке слов, логические акценты это, рифма требования.

The unusual word order in poetry is inversion peculiarities

Abstract. The order of words in poetry (as in modern Uzbek poetry). The stylistic capabilities of the inversion depending on the components of the phrase in the speech provide the tone, the sensitivity of the speech, and give it clarity and clarity. The aesthetic value of a particular piece in changing the layout of speech sections for a specific communicative purpose is based on the relationship between lexical and semantic units. In the article author emphasizes and reinforces the meaning of the word in an unusual way.

Keywords: word order, unusual word order - inversion, meaning subtlety, semantic task, asymmetric task, creator originality, naturalness and artificiality in word order, logical accents it, rhyme and weight requirement.

She’riy asarlar tilida shakliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham eng murakkab birlik gap hisoblanadi. Gapdagi so‘z tartibi har xil vazifalarni bajarib, matnga bog‘liq holda ma’no nozikliklarini ifodalaydi. Bundan tashqari, so‘z tartibi kommunikativlik nuqtai nazaridan ham muhim bo‘lib, she’riy asar tilida tema va rema ko‘rinishida namoyon bo‘luvchi ifoda komponentlarini ajratishga yordam beradi. Gap bo‘laklarini bu tarzda shakllantirishda uslubiy ma’no ham ishtirok etadi, u gapga qo‘shimcha

ma’no nozikliklarini kiritadi, ma’noviy yukni kuchaytiradi va emotsional-ekspressivlikni ta’minlashga yordam beradi.

O‘zbek tilshunosligida inversiya hodisasi quyidagicha izohlanadi: «Inversiya (lot. unversio — o‘rnini almashtirish, gap bo‘laklarining odatdagi tartibining o‘zgarishi.Tilda inversiya ikki xil vazifa bajaradi:1. Semantik 2. Assemantik. Inversiyaning semantik vazifasi – gapning biror bo‘lagini alohida ta’kidlash bilan nutqqa ekspressiv ruh bag‘ish etish. Masalan: Bu chol shu ahvolda qayoqqa boradi? – Shu ahvolda qayoqqa boradi bu chol? Assemantik vazifa esa so‘roq gap (ayniqsa, roman va german tillarida) she’riyatda kompozitsiya, vazn, ritm, qofiya hosil qilishda namoyon bo‘ladi. Masalan, ***Ketdimi u? Ilk bor rozilik so‘rashim mening.*** Inversiya faqat uslubiy hodisa emas, balki sintaktik-uslubiy (sintaktik-poetik hodisadir) u jonli so‘zlashuv tilida, badiiy adabiyotda ayniqsa, she’riyatda ko‘proq uchraydi [O‘zTME, 2002. 4-jild. 144-b.].

Ta’kidlanishicha, inversiya odatdagi so‘z tartibining buzilishi hisoblanadi. Tilshunoslikda odatdagi tartib deyilganda gap tarkibida eganing kesimdan oldin, aniqlovchining aniqlanmishdan oldin kelishi kabilar tushuniladi. Nutq jarayonida qo‘llanadigan har bir so‘z zimmasida ma’lum bir *“yuk”* bo‘ladi. Gapda bo‘laklarning o‘rin almashinuvida ma’lum kommunikativ maqsad ko‘zda tutilib, u turli vazifalarni bajarishga xoslangan bo‘ladi. Noodatiy so‘z tartibi badiiy matnda ifodalayotgan fikrga ko‘tarinkilik bag‘ishlaydi, ifodalanayotgan fikrlar ta’sirchanligini kuchaytiradi. She’rda alohida bo‘lakni ta’kidlash bilan fikrning ma’lum tomoni bo‘rttirib ko‘rsatiladi, kinoya, hajv kabi ma’no nozikliklari ifodalanadi.

Ko‘p yig‘lama,
og‘riydi boshing,
axir baxtli bo‘lmog‘imiz shart.
Yomon bo‘lar agar ko‘zyoshing
tugab qolsa, kelgunicha Baxt (Shavkat Rahmon, Saylanma, 7-b.).

Sh.Rahmonning yuqoridagi misralaridagi so‘z tartibini to‘g‘rilasak, ma’no nozikliklari yo‘qoladi: *Ko‘p yig‘lama, boshing og‘riydi, axir baxtli bo‘lmog‘imiz shart. Agar baxt kelgunicha ko‘zyoshing tugab qolsa, yomon bo‘lar.* She’riy shaklda esa “Baxt” so‘zi tartibi o‘zgartirilib, asosiy e’tibor qaratilganda ijodkor engil kinoya va hajv asosida o‘z fikrini ifodalagan.

Baxtiyorman
degan birgina so‘zni
aytish uchun kerak qancha kuch-chidam,
garchi baxt so‘zlarning eng yoqimligi,
garchi tursa hamki tilning uchida…
G‘am so‘zin elimdan avvalroq aytdim,
baxt so‘zin aytaman, eldan keyinroq (Savkat Rahmon, Saylanma, 48-b.).

Baxt tushunchasiga Sh.Rahmon qayta-qayta murojaat qiladi. Ijodkorning o‘ziga xosligini ta’minlashda so‘z tartibi muhim o‘rin tutadi. Dastlabki she’rda shoir baxtni kinoyaviy usulda ifodalash uchun misra so‘ngida keltirgan bo‘lsa, keyingi she’rida misralarni baxt so‘zi bilan boshlaydi. Shu o‘rinda so‘zlarga qanday tartib berish, shoirning so‘z tanalash mahorati yuqoridagi ikki parchada ham o‘zgargan so‘z tartibi tuyg‘ularni teranroq ifodalash imkonini beradi.

Bunday inversiya uslubiy jihatdan ahamiyatli bo‘lib, u fikr ifodalashda muhim detallarni ajratishga imkon beradi. Vaholanki, bu kabi inversiyaning uslubiy imkoniyatlari sezilarli bo‘lsa-da, ular juda chegaralangan. Gap tarkibidagi so‘z birikmasi komponentlariga bog‘liq holda inversiyaning stilistik imkoniyatlarga egaligi nutqning ohangdorligini, ta’sirchanligini ta’minlaydi, unga ravshanlik va jo‘shqinlik, mayinlik bag‘ishlaydi. Gap tarkibidagi bo‘laklar doirasida yuz beruvchi har qanday o‘zgarish nutq jarayonida so‘z ichki munosabatlari tizimi bilan shartlangan. Gap bo‘laklarini ma’lum kommunikativ maqsadda joylashish tartibini o‘zgartirishda u yoki bu gap bo‘lagining estetik ahamiyati leksik-semantik birliklarning o‘zaro munosabati asosida shakllanadi. Bu esa muallifga gap bo‘laklarini noodatiy tartibda joylashtirishda so‘z ma’nosinini ajratib ko‘rsatish, ta’kidlash va kuchaytirishga imkon beradi. So‘z birikmasi yoki gap tarkibidagi komponentlar maxsus morfologik ko‘rsatkichlar orqali shakllangan bo‘lsa, bunda tartib o‘zgarishi sintaktik holatga ta’sir ko‘rsata olmaydi. Ko‘rinadiki, o‘zbek tilida so‘z tartibi o‘zining o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, oddiy so‘zlashuv uchun hamda badiiy uslub uchun inversiya xarakterlidir. Bunda hol-kesim, to‘ldiruvchi-kesim, ega-kesim inversiyalari ko‘p kuzatiladi: masalan,

Oldiga kelganni qaytarmay emoq
Aslida, aqli yo‘q hayvonning ishi.
Og‘ziga kelganni qaytarmay demoq
Noqis-u befahm, nodonning ishi.

Mazkur misrada shoir ikkita sodda gapdagi bo‘laklarni to‘rt maisraga joylashtirgan. Bu erda ta’sirchanlik, badiiy bo‘yoq berish yoki estetik zavq berish maqsad qilinmagani bois jumlalar odatdagi tartibda falsafiy fikr-mulohazalar ifodalanmoqda, ayrim bandlar esa mutlaq inversiya asosida shakllangan bo`ladi. Ega va kesimning o‘rin almashishi natijasida so‘z tartibining o‘zgarishi sodir bo‘lmoqda. Keyingi misralar ham shu zayilda inversiyaga uchrashda davom etgan:

Ko‘zingning o‘ngida o‘sgandek ekin
Rabbim ham ogohdir har zum har ishdan.
Ro‘za-yu parhizda muddat bor, lekin... (A.Oripov, Haj daftari, 11-bet.)

Shoir A.Oripov she’rning birinchi bandida xalq maqolidan foydalanaytganda to‘g‘ri tartibni qo‘llaydi. Keyingi bandda tangri taolo insonni ulug‘lagani o‘zgargan so‘z tartibi orqali ta’sirli ifodalanmoqda. Oxirgi bandda shoirning xulosasi (Hamisha harom-harishdan hazar qil.) ham inversiya orqali bayon qilinmoqda.

She’riy matnlarda lirik qahramon ruhiy kechinmalarini, iztiroblari, qiynalishlari, fikrlashlarini inversiya vositasida ochishda, shubhasiz, asar muallifning dunyoni idrok qilishi uning his qilishidagi o‘ziga xosliklar va voqelikni, inson tushunchasi mohiyatini poetik tasvirlash mahorati yotadi.

Muhimi shundaki, she’riyatda so‘z tartibining o‘zgarishi kommunikativlik yoki ta’sirchanlik vazifasini bajaradi. Gapda so‘z tartibini uslubiy jihatdan tadqiq etishda unga gapni ma’noviy tashkil bo‘lishi vositasi sifatida qarash katta ahamiyatga ega. Gap bo‘laklarining odatdagi tartibi ta’sirchanlik kuchiga ega bo‘lmay, ko‘proq tilning xabar berish funksiyasini ta’minlashga xizmat qiladi. Inversiya esa she’riy asarlar tilida stilistik bo‘yoqdorlikka egaligi bilan ajralib turadi. So‘z tartibining uslubiy sifati uning turli matnlarda har xil funksional-uslubiy xoslanishini belgilab beradi. Odatdagi so‘z tartibi ilmiy, rasmiy uslublari uchun ko‘proq xarakterli bo‘lib, gap bo‘laklarining ma’lum tartibda joylashishi ta’sirchanlik uchun xizmat qilmaydi. Inversiya badiiy matnlarda, xususan, she’riy asarlar tilida lirik qahramon ruhiyati, ichki kechinmalari tasvirini berishda, voqelik faktlariga, kishilarga munosabatini ko‘rsatishda, shuningdek, she’rda poetik ta’sirchanlik, ohangdorlikni ta’minlashda muhim uslubiy vosita sifatida ishtirok etadi.

Bugun dunyo she’riyati ham zamonaviy o‘zbek sheriyati ham fikr ifodalashda turli grammatik, sintaktik kombinatsiyalardan faol foydalanmoqda. Bu o‘rinda so‘z tartibining o‘rni beqiyosdir. O‘zbek she’riyatida ham so‘z tartibidan mahorat bilan foydalangan ijodkorlardan biri U.Azimning quyidagi misralarini kuzatamiz:

Bir qishloqda yashaydi o‘g‘lon,
Oddiygina dehqonning o‘g‘li.
U boqadi olamga hayron,
Nelargadir to‘ladi ko‘ngli.

Shoir o‘z she’rida inversiyadan unumli foydalanadi. Dastlabki jumlani oddiy, odatiy tartibga aylantiradigan bo‘lsak: O‘g‘lon bir qishloqda yashaydi. Bunda bir qishloqda so‘zi boshqalaridan ko‘ra ko‘proq uslubiy yuk olmoqda. She’rdagi variantda esa, o‘g‘lon so‘zi mantiqiy urg‘u olib turibdi.

U boqadi **zangor osmonga**,
Bir zumgina qoladi **qotib**.
Zangor osmon dehqon o‘g‘longa
Nimanidir qiladi **tortiq.**

Birinchi misrada “zangor osmon” inversiyaga uchramoqda. Ikkinchi misrda inversiya ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi doirasidagini yuz bermoqda.To‘rtinchi misrada qo‘shma fe’l orqali ifodalangan fe’l-kesim tarkibi inversiyalashgan.

Usmon Azim o‘z she’rlarida inversiyadan unumli foydalanadi. U, asosan, urg‘u bermoqchi, kitobxonning diqqatini tortmoqchi bo‘lgan so‘zlarini ataylab misra oxiriga qo‘yadi va natijada inversiya sodir bo‘ladi. Buni yuqoridagi misralar isbotlab turibdi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, shoir she’rlarida, asosan, ega va hol inversiyaga uchraydi. Bu birinchidan, **ega – shoir shaxsini, hol – uning ruhiyatini** ifodalayotganligi anglatsa, ikkinchidan, ijodkorning so‘z tartibidan foydalanish mahoratini bildiradi.

She’riyatdagi so‘z tartibida biroz sun’iylik mavjud. Oddiy so‘zlashuv uslubida nutq vaziyatiga qarab inversiya tabiiy holatda sodir bo‘ladi. Masalan, *“Aytaman dadanga seni”, “Seni dadanga aytaman”, “Dadanga seni aytaman”*

Bu erda ifoda maqsadiga qarab so‘zlar turlicha tartibga solingan.

1-gap ma’lumot berishga qat’iy qaror;
2-gap murojaat yo‘nalishi ta’kidlanadi;
3-gap sube’kt ajratib ta’kidlash.

Ko‘rinib turibdiki, uchala kombinatsiya ham tabiiy ravishda gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra hosil

qilingan. Barchasida kommunikativ maqsad mavjud.

She'riy misralarda esa, ko'p hollarda vazn talabiga ko'ra turoq, yoki qofiyaga e'tibor berilib so'zning tartibi o'zgartiriladi. Ta'kidlash masalasi keyingi planda qoladi: Masalan, Iqbol Mirzoda shunday satrlar bor:

Bobomning bayti bor yaproqlaringda,
Momomning tafti bor chorbog'laringda.
Onamni eslatar rayhoning, yurtim,
Dadamning hidi bor tuproqlaringda.

Ijodkor yozgan she'rining avvalgi qatorlariga hamohang tarzda fikr izchilligiga erishish maqsadida qofiyaga asosiy e'tiborni qaratadi. Natijada so'zlarning tartibini o'nlab kombinatsiyaga solib ko'radi.

Shu o'rinda Halima Xudoyberdievaning quyidagi misralarini tahlil uchun keltiramiz:

Men seni topgandim, mayli yaxshi qol
Sen yaxshi qol, degin ko'rishgunchamas (Saylanma, 12-bet)

Bunda shoira so'zlar tartibidan mohirona foydalanmoqda. She'riy misralar bo'lganligi sababli bunday gap tuzilishi me'yoriy holatday qabul qilinadi. Aslida ikkinchi misradagi joylashuv odatdagi tartibga to'g'ridan-to'g'ri muvofiq kelavermaydi.

Eshqobil Shukur o'z she'rlarida ko'pincha aniqlovchiga urg'u beradi. Ayniqsa, qaratqich aniqlovchisi asosidagi inversiyalarda ijodkor o'z shaxsiyatini ifodalashga harakat qiladi:

Tilim tiyildi **mening**, so'zim qiyildi **mening**,
Po'lat til topib oldim, havo so'z topib oldim.
Qorachaqmoq cho'qilab bag'rim o'yildi **mening**,
Tilim tiyildi **mening,** so'zim qiyildi **mening** (Hamal ayvoni, 3-bet).

She'riyatda, odatda, shoir birinchi misrani qaysi so'z tartibida bayon qilsa, qolgan misralar shu qolipda davom etadi. Ko'rinib turibdiki, Sh.Rahmonning birgina she'ri paradigmasi tuzib chiqilganda aksariyat bandlarda gap bo'laklari tartibi har xil.

Sh.Rahmonda inversiyaning noyob namunalarini uchratish mumkin:

Endi safsar kechalarda oq
mash'alalar tutib ulug'vor
kengliklarda kezar chiroyli
kunduzlarni axtarib bahor.

Nasrga aylanganda: *Bahor endi chiroyli kunduzlarni axtarib safsar kechalarda oq mash'alalar tutib ulug'vor kengliklarda kezar*. Muallif **oq, ulug'vor, chiroyli** so'zlarini misralar oxirida keltirib, bahorning sifatlarini ta'sirli ifodalamoqda. Bu – so'z tartibining qudrati. Nasrga o'tkazilganda oq – mash'alaning belgisi, ulug'vor – kengliklarga taalluqli, chiroyli –kunduzning sifati, she'rda esa ular bahorning xususiyatlarini ifodalamoqda.

Inversiyalarning sodir bo'lishida shoir shaxsiyati ham, uning ifoda uslubi, maqsadi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Sh.Rahmon she'riyatining asosiy qismi mazmunan da'vat, chorlov shaklida bo'ganligi uchun ham shoir ijodidagi inversiya, uning so'z tartibidan foydalanish mahorati o'ziga xosdir:

Jangda o'lgan emas biror bahodir,
bari halok bo'lgan xiyonatlardan,
toshday uxlaganda to'shlarin ochib
yo zahar qo'shilgan ziyofatlardan.

She'riy asarlarda inversiyaning ishtirokini ikki holatini farqlash kerak:

1. She'r misralarining mutlaq inversiyaga uchrashi.
2. Odatiy va noodatiy so'z tartibining baravar qo'llanilishi – aralash inversiya.

I.Mirzo she'riyatining tili haqida to'xtalinadigan bo'lsa, ijodkor yoyiq undalma va uyushiq bo'laklardan juda ko'p foydalanishiga guvoh bo'lish mumkin. Ayrim she'rlarida o'zgargan tartibdan ko'ra oddiy tartib hukmron. Quyidagi she'rning birinchi bandi inversiyaga asoslangan:

Yiroqlarda do'ndirasiz **yolg'onni**,
Uchirasiz, qo'ndirasiz yolg'onni.
Ey, to'nini chappa kiygan janoblar,
Avval keling, ko'ring **O'zbekistonni**. (Aytgil, do'stim, 59-bet)

Ikkinchi va uchinchi bandlar, asosan, odatiy tartibda ifoda qilingan, biroq bu erda shoir oxirgi misralardagi o'rin holini inveriyaga uchratib unga alohida mantiqiy urg'u bergani ko'rinib turibdi. Keyingi bandlar yana inversiyaga asoslangan bo'lib, shoir asosan, ega va to'ldiruvchiga mantiqiy urg'u bermoqda. Inversiyadan foydalanishdan birlamchi maqsad ham o'quvchiga u e'tibor qiladigan nuqtani ko'rsatishdir.

Tarixlarga savol har bir binosi,
Har qadamda dahosi, avliyosi,
Dardingizni olar Ibn Sinosi,
Avval keling, ko‘ring O‘zbekistonni.

Ko‘rinib turibdiki, barcha bandlarda ijodkor tomonidan qo‘llaniladigan so‘z tartibi deyarli bir xil. Ayrim shoirlarda har bir band alohida so‘z tartibiga asoslanadi. I.Mirzoda esa ko‘pincha birinchi band qanday bo‘lsa, qolganlari ham shu shaklda davom etadi:

Gullayotgan, o‘sayotgan eldir bu,
Zulmat yo‘lin to‘sayotgan eldir bu,
Inson nomin bezayotgan eldir bu,
Avval keling, ko‘ring O‘zbekistonni (Aytgil, do‘stim, 59-bet)

Aytish mumkinki, falsafiy, fikr ifodalash, fikrni uqtirish mazmunidagi she’rlarda misralar ko‘pincha odatdagi so‘z tartibida bo‘ladi. His-tuyg‘u, kechinmalar, e’tiroslar ifodalanadigan she’riy matnlarda, asosan, inversiyaga ehtiyoj sezilar ekan.

Tushimni suvga aytdim, *(odatdagi tartib)*
Suvlar yondi-ya lov-lov. *(hol, o‘zgargan tartib)*
Cho‘g‘ tergali tilimga *(to‘ldiruvchi, o‘zgargan tartib)*
Qishlar qo‘ndi-ya birrov. *(hol, o‘zgargan tartib)*
Dardni yomg‘irga aytdim, *(odatdagi tartib)*
Yomg‘ir tindi-ya sim-sim. *(hol, o‘zgargan tartib)*
Gul tergali kaftimga *(to‘ldiruvchi, o‘zgargan tartib)*
Qizlar qo‘ndi-ya lim-lim. *(hol, o‘zgargan tartib)*

(Hamal ayvoni , 47-bet)

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, E.Shukur she’rlarida inversiyadan foydalanishda ham qat’iy tartib, mutanosiblik bor. Sh.Rahmon she’rlarida buning aksini kuzatish mumkin, yani har safar bir-biriga o‘xshamagan, yangi inversiyalardan ijodkor foydalanaveradi.

She’riyatda gap bo‘laklarning o‘rin almashinishi ma’lum kommunikativ maqsad bilan qo`llanilib, u turli vazifalarni bajarishga xoslangan bo‘ladi. Noodatiy so‘z tartibi – inversiya badiiy matnda ifodalayotgan fikrga ko‘tarinkilik bag‘ishlaydi, ifodalanayotgan fikrlar ta’sirchanligini kuchaytiradi, she’rda alohida bo‘lakni ta’kidlash bilan fikrning ma’lum tomoni bo‘rttirib ko‘rsatiladi, so‘zlarning ma’no nozikliklari ifodalanadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 tomlik. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002-2006.– 926 b.
2. Usmon Azim. Tanlangan asarlar. 1 jild. –Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 479 b.
3. Shavkat Rahmon. Abadiyot oralab. Saylanma. – Toshkent: “Sharq” NMAK, 2012. – 462 b.
4. Eshqobil Shukur. Ko‘z yumib ko‘rganlarim. – Toshkent: “Akademnashr”, 2013. – 102 b.

UDK: 42:494

BORROWING IS THE MAIN WAY OF UPDATING THE LEXIS OF THE UZBEK LANGUAGE

N. A. Isakova
Samarkand state university
isakovanodira4@gmail.com

Abstract. The article is about the reasons of enriching the Uzbek language and ways of borrowing words. There are some examples of meanings and translations of borrowed words from unrelated languages.

Keywords: Uzbek language, the dictionary, borrowed word, borrowing, family of Indian-European languages, occasional, bilinguality, conversation, written source.

O‘zlashtirish -o‘zbek tili lug‘at boyligi oshishining eng muhim vositasi

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilining boyish sabablari va so‘z o‘zlashish usullari haqida fikrlar bayon qilingan. Bir-birga qardosh bo‘lmagan tillardan o‘zlashgan so‘zlarning mazmuni va tarjimasidan misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, lug‘at boyligi, o‘zlashma, o‘zlashtirish, hind-yevropa tillar oilasi, muvaqqat, bilingvizm, jonli muloqot, yozma manba

Заимствование один из самых важных способов обогащения лексики узбекского языка

Аннотация. В статье речь идет о причинах обогащения лексики языка и о методах заимствования. Даны примеры заимствований из неродственных языков, их значения и переводы.

Ключевые слова: узбекский язык, лексика языка, заимствование, индийско-европейская семья языков, непостоянный, билингвизм, устная речь, письменный источник

Uzbek linguistics has changed during last years. Creation of textbooks on the Uzbek language, researches on linguistic theory, publications in prestigious journals, defense of PhD and Ds dissertations, preparing of philological and encyclopedic dictionaries are the evident proof of its development.

During centuries lots of foreign words have borrowed and many languages have loaned Uzbek terms. The process of borrowing is constantly active on social-cultural and spiritual spheres. Even the English language includes approximately 60 percent of loanwords.

There are several ways of borrowing foreign words. When some new notions and events don't have names in the Uzbek language or loanword has the effective influence in naming, there borrowing is mostly used.

For instance, chat (chat) –conversation (suhbat), bifshteks –(beefsteaks) – fried beef in sauce (qovurilgan mol go‘shtini qaylaga solib beriladigan ovqat turi), mani (money) –pul, boy-frend (boy-friend) –friend (do‘st, o‘rtoq) are words which reflect the ads, children clothes or draw customer's attention.

In linguistics, borrowing (also known as lexical borrowing) is the process by which a word from one language is adapted for use in another. The word that is borrowed is called a borrowing, a borrowed word, or a loanword.

The English language has been described by David Crystal as an "insatiable borrower." More than 120 other languages have served as sources for the contemporary vocabulary of English. Present-day English is also a major donor language--the leading source of borrowings for many other languages.

"English . . . has freely appropriated the major parts of its vocabulary from Greek, Latin, French, and dozens of other languages. Even though "The official's automobile functioned erratically consists entirely of borrowed words, with the single exception of the, it is uniquely an English sentence

"The problem with defending the purity of the English language is that English is about as pure as a cribhouse whore. We don't just borrow words; on occasion, English has pursued other languages down alleyways to beat them unconscious and rifle their pockets for new vocabulary."

Exploration and Borrowing. The vocabulary of English based on exploration and trade was often brought to England in spoken form or in popular printed books and pamphlets. An early example is assassin (eater of hashish), which appears in English about 1531 as a loanword from Arabic, probably borrowed during the Crusades. Many of the other words borrowed from eastern countries during the Middle Ages were the names of products (Arabic *lemon*, Persian *musk*, Semitic *cinnamon*, Chinese *silk*) and place names (like *damask*, from Damascus). These were the most direct examples of the axiom that a new referent requires a new word."

Enthusiastic Borrowers. "English speakers have long been globally among the most enthusiastic borrowers of other people's words and many, many thousands of English words have been acquired in just this way. We get *kayak* from an Eskimo language, *whisky* from Scottish Gaelic, *ukulele* from Hawaiian, *yoghurt* from Turkish, *mayonnaise* from French, *algebra* from Arabic, *sherry* from Spanish, *ski* from Norwegian, *waltz* from German, and *kangaroo* from the Guugu-Yimidhirr language of Australia. Indeed, if you leaf through the pages of an English dictionary that provide the sources of words, you will discover that well over half the words in it are taken from other languages in one way or another (although not always by the sort of straightforward borrowing we are considering here"

Reasons for Language Borrowing. "One language may possess words for which there are no equivalents in the other language. There may be words for objects, social, political, and cultural institutions and events or abstract concepts which are not found in the culture of the other language. We can take some examples from the English language throughout the ages. English has borrowed words for types of houses (e.g. *castle, mansion, teepee, wigwam, igloo, bungalow*). It has borrowed words for cultural institutions (e.g. *opera, ballet*). It has borrowed words for political concepts (e.g. *perestroika, glasnost, apartheid*). It often happens that one culture borrows from the language of another culture words or phrases to express technological, social or cultural innovations."

Contemporary Borrowing. "Today only about five percent of our new words are taken from other languages. They are especially prevalent in the names of foods: *focaccia, salsa, vindaloo, ramen*."

Borrowings from English. English borrowings are entering languages everywhere, and in more domains than just science and technology. Not surprisingly, the reported reaction of a Paris disk jockey to the French Academy's latest pronouncements against English borrowings was to use an English borrowing to call the pronouncement 'pas très cool' ('not very cool')."

As the English and Russian language belong to one language family, the process of borrowing is easily seen between them. As linguists mentioned, majority of loanwords have occasional character, after some period occasional neologisms widen their bilinguistic character.

Nowadays the loanwords in different spheres of life can be met in newspapers, magazines, radio and tele broadcasting. Popular politicians, statesmen, economists, journalists use foreign borrowings in their speech. According to linguistic sources, there are two ways of borrowing foreign words:

1) borrowing through oral speech. For instance, Russian words рамы, клубника, поднос were pronounced as ром, кулупнай, патнис and were borrowed into Uzbek language as rom, qulupnay, patnis;

2) borrowing through written sources. It means the borrowing by translation or usage of foreign words (especially, terms and phrases) in articles, scientific and literary works in Uzbek language. The words catet, hypotenusa in maths, terms as culmination, sujet, roman, povest in literature were borrowed in that way.

The borrowings can be divided into the following lexical-semantic groups:

1.The sphere of economics and politics: auditor (auditor), barter (barter), broker (broker), demping (damping), diler (diller), injiniring (engineering), kliring (clearing), konsalting (consalting), provayder (provider), menedgment (management), transfert (transfert), menedger (manager), sammit (summit), brifing (breafing), кongress (congress), simpozium (symposium), department (department), parlament (parliament), spiker (speaker), preglament (reglament), grant (grant), daydjest (dayjest), magistr (magistr), reyting (rating), impichment (impeachment), Pi-Ar (P.R.). Majority of words have borrowed from the English language as: auditor (auditor), edvayzer (adviser), anderrayter (underwriter), attorney (attorney), broker (broker), diler (diler), distributor (distributor), insayder (insider), intervyuyer (interviewer), kopi-rayter (copywriter), meneger (manager), fermer (farmer), xaker (hacker). Last decades the process of borrowing was activated due to the rapid reforms in our state.

2.The sphere of sport: bodibilding (bodybuilding), armrestling (armwrestling), kikboksing (kickboxing), vindserfing (windsurfing), bouling (bowling), snoubording (snowboarding),pressing (pressing), doping (doping), golf (golf), darts (darts), fristayl (freestyle), skeyt (skate).

3.The sphere of food. There are several English words as: gamburger (hamburger), fishburger (fishburger), chizburger (cheeseburger), chikenburger (chickenburger).

4.The sphere of Internet and computer technologies: veb-sayt (web-site), fayl (file), printer (printer), skaner (scanner), monitor (monitor), modem (modem), kseroks (xerox), peydger (pager), provayder (provider), Internet (Internet), server (server), glasnet (Glasnet), intranet (Intranet), Uznet (Uznet), displey (display), interfeys (interface), makros (macros), multimedia (multimedia), gipertekst (hypertext), brauzer (browser), rouming (rouming), i-meil (e-mail), noutbuk (notebook), IP adres (IP address).

«Bepul va hamma uchun ochiq Wi-fi hududi o‘quvchilarning elektron kutubxonadan foydalanishida ayni muddao bo‘lmoqda» «Бесплатный и доступный для всех зона Wi-fi очень пригодилось для учеников в использовании электронной библиотеки ». “Free and open Wi-Fi zone si very helpful for pupils in usage electron library” (Xalq so‘zi, 2017, 23 noyabr, №236 (6930) [7]

«Xabarnoma … operatorning veb-portalida va veb-saytlarida joylashtirildi » «Извещение о …. выставлено на веб-портале и веб-сайте оператора». “Notification was posted in web-portal and web-sites of operator” (Xalq so‘zi, 2017, 20 sentabr, №189 (6883).

5.The sphere of art: media-branch (media-tarmoq), video, cable television (kabelli televideniye), parabolic antenna (parabolli antenna), cinema business (kinobizneschi), cinema (kinoteatr),cinema company (kinokompaniya), cinema epopee (kinoepopeya), cinema art (kinosan’at), videocam (videoteka), video saloon (videosalon)

6. The sphere of education: innovational technology (innovatsion texnologiya), intellectual property (intellectual mulk), projector (proyektor), presentation (prezentatsiya)

7.Everyday terms: airplane (havo kemasi), comfortable (komfortabelli)

8.The sphere of agriculture: infrastructure (infratuzilma), innovation (innovatsiya), reconstruction (rekonstruksiya), mechanizing (mexanizatsiyalash), electrify (elektrlashtirish), automacy (avtomatlashtirish), zoo engineering (zoo injiniriya), zoo hygiene (zoo gigiyena), certify (sertifikatlash), etc.

In modern Uzbek language there are lots of words which consist of native and foreign lexemes as biznes-klass (business-class), grin-karta (green card), shou-rum (show-room), veb-sayt (web-site), mass

media (mass media), internet-konferensiya (internet-conference), internet-magazin (internet-магазин), internet-kafe (internet-cafe), internet-klass (internet-class), internet-kompyuter (internet-computer), internet-biznes (internet-business), mediabozor (media bozor), VIP zal (VIP-zal), LCD-monitor (monitor), IRG xizmati (service), CD-ROM disk (disc), PR-agentlik (agency), PR-men (men), PR-тtexnologiya (technology), IP adres (address), VIP-kompyuter (computer), DVD-pleyer (player), E-мeyl (mail) etc.

Assimilation is a process of adjusting in Phonetics and Lexicology. The term Assimilation in Etymology is used to denote a partial or total conformation of a borrowed word to the phonetical (graphical and morphological standards and the semantic system of the receiving language.

There are three main types of Assimilation:

Phonetic Assimilation – the adjusting of the phonetic structure of a borrowed word to the phonetical system of the recipient language. Loan words not assimilated phonetically retain their foreign pronunciation like most of the French borrowings of the latest time, e.g. police, machine, ballet;

Grammatical Assimilation – a conformation of a borrowed word to the morphological standards of the receiving language. Grammatically assimilated loan words acquire English grammatical categories and paradigms, e.g. to count-counted-counting, sputnik-sputniks. Loan words not assimilated grammatically retain their foreign grammatical forms like some nouns borrowed from Latin which keep their original plural inflexions, e.g. phenomenon – phenomena.

Lexical Assimilation – a conformation of a borrowed word to the lexico-semantic system of the receiving language. It means that a borrowed word may participate in word building and develop its semantic structure, e.g. sputnik – to out sputniks, sputnikists. Foreign polysemantic words become monosemantic in the receiving language but a borrowed word may develop a new meaning in the receiving language, e.g. palate (the roof of the mouth) has developed a new meaning in English = taste, inclination and interest; and the new derivatives – palatable (tasty) and etc.

Degree of Assimilation depends on the following factors:

-The time of borrowing. The older the borrowing is, the more thoroughly it’s assimilated

-The frequency of usage

-The way in which the word was adopted. Oral borrowings are assimilated more rapidly and more completely than literary borrowings, e.g. borrowings through writing.

According to the degree of Assimilation, borrowings are subdivided into:

1.completely/fully assimilated words. They correspond to all phonetic, morphological and semantic laws of English and do not felt as borrowings. They are found in all the layers of older borrowings (Latin, Scandinavian, French). Many of them belong to the native word stock of English (cheese, street – Latin; husband, to die, to take – Scandinavian; table – French).

2.partially assimilated borrowed words. They’ve retained:

- foreign pronunciation (vase, restaurant)\
- foreign morphological characteristics (datum – data)
- they are not assimilated semantically denoting notion of foreign cultures, nature, customs (steppe, taiga, sombrero). These are foreign realies which have no corresponding equivalents in English.
- barbarisms (unassimilated borrowed words). These are foreign words used by English people in oral speech or in writing but not assimilated in any way. They usually have corresponding English equivalents, e.g. “Chao” (Italian), “adio”.

The choice of these groups is justified by the analysis of Western European vocabulary in the modern Uzbek language in periodical materials, since in our sources it is in the above lexico-semantic groups that the largest number of borrowed vocabulary is observed.

From the above analysis of linguistic material, we can conclude that borrowings from Western European languages are widespread in the modern Uzbek language. Borrowing penetrated almost all of its spheres of functioning: both political, economic, sports, scientific, and everyday. At this stage of the development of the Uzbek language, the active entry and use of foreign words is observed. This contributes to the development of synonymy in the language. It should also be noted that not all newly borrowed words are reflected in dictionaries.

Reference

1. Krysin, L. P. Foreign language in the context of modern public life // Russian language of the late twentieth century (1985–1995). M., 1996. p. 142–161.

2. O.Jumaniyozov “O‘zbek tilidagi german tillari o‘zlashmalari” monografiya T. Fan. 1987. p. 69

3. Mahmudov N. O‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlar: me’yor va milliylik // O‘zbek tili va adabiyoti. 2010. -№ 6, p. 224

4. Linguistic Encyclopedic Dictionary, Moscow, 1967, p.126, 227
5. Dictionary of foreign words, Moscow, 1955, p. 331, 226
6. English-Russian Dictionary, 1998, p. 146-147
7. Newspaper "Xalq so'zi" (Народное слово) 2011, 24 November № 228 (5395); 1995, 2 May № 83(1085); 2004, 24 February; 2017, 14 September, №184 (6878); 2017, 23 November, №236 (6930); 2017, 20 September, №189 (6883).

УДК: 491.7

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ПРОИЗНОШЕНИЮ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО

Н. А. Вохидова, Д. Д. Марупова
Самаркандский государственный университет

Аннотация. В статье затрагиваются вопросы работы над фонетическим строем языка при изучении русского языка как иностранного, акцентируется внимание на необходимости выработки у обучающихся устойчивых слухопроизносительных навыков путем использования рецептивных и репродуктивных упражнений.

Ключевые слова: произносительные и слуховые навыки, произносительные нормы, элементы артикуляции, фонетическая система.

Education training technique while studying the Russian as a foreign language

Abstract. The article addresses the issues of working on the phonetic system of the language in the study of Russian as a foreign language, focuses on the need for students to develop sustainable auditory-pronunciation skills through the use of receptive and reproductive exercises.

Keywords: auditory-pronunciation skills, pronunciation norms, articulation elements, phonetic system.

Rus tilini xorijiy til sifatida o'rganishda talaffuzni o'rgatish usullari

Annotatsiya. Maqolada rus tilini xorijiy til sifatida o'rganishda fonetik tizimining xususiyatlari, reproduktiv mashqlar orqali talabalarda eshitish va talaffuz qilish ko'nikmalarini hosil qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: talaffuz va eshitish ko'nikmalari, talaffuz normalari, artikulyatsiya belgilari, fonetik tizim.

Деятельность высшей школы суверенной демократической Республики Узбекистан на современном этапе определяется основными направлениями и закономерностями ее социально-экономического и культурного формирования. Большое внимание на данном этапе уделяется педагогической технологии. Педагогам- профессионалам, уже освоившим педагогическую технологию, ясно, что технологический подход значительно эффективнее традиционного. Следовательно, учителям школ и профессорско- преподавательскому составу высших учебных заведений необходимо освоить методы педагогических технологий и применять их на практике для повышения качества обучения и подготовки кадров. Методика преподавания русского языка – это наука о принципах, путях и средствах обучения русскому языку. Одной из задач обучению русскому языку является проведение сравнительно- типологического анализа русского и родного языка для выявления доступности или трудности отдельных лексем, звуков и звукосочетаний, специфики ударения.

Известно, что владение звуковым строем языка – обязательное условие общения в любой его форме. Выработка навыков правильного произношения в устной речи и чтении зависит от того, как обучающиеся усвоили произношение звуков русского языка в различных фонетических позициях. Под обучением произношению понимается обучение звуковому строю языка – совокупности всех языковых средств, которые составляют его материальную основу (звукам, ударению, интонации). Формирование слуховых навыков, или навыков речевого слуха, - основа развития речевой деятельности в разных ее формах. При этом под речевым слухом понимается способность обучающихся при восприятии речи улавливать слухом и одновременно воспроизводить во внутренней речи все филологические средства языка, артикулируя и интонируя слышимую речь.

Можно выделить следующие основные методические проблемы обучения произношению: опора на слуховой и артикуляционный образ (моторный, двигательный); ставить произношение каждого звука в отдельности или опираться на артикулярные характеристики русских звуков в целом с переходом затем к постановке отдельных звуков; осознание звуков и бессознательная имитация чужого произношения у обучающихся. Нужно ли знакомить учащихся с артикуляцией звуков? Знакомить необходимо, однако делать это надо не с помощью теоретических описаний, а главным образом путем подражания и имитации. Необходимо добиваться понимания образования и артикуляции данного звука и сознательного его воспроизведения. При работе над фонетикой, сравнивая звуковую систему русского и родного языков, можно выделить:

1. Сходные звуки, которые легко усваиваются и не требуют фонетического осознания.
2. Звуки с незначительной разницей в произношении.
3. Звуки, характерные только для русского языка.

Простой имитацией здесь не обойтись – необходим целый комплекс разных видов работ: новый звук демонстрируется преподавателем, объясняется артикуляция звука в изолированном положении, затем в составе слога и слова; студенты многократно «пассивно» слушают; слушают и повторяют; повторяют без преподавателя со зрительной или словесной опорой; читают вслух текст соответствующего упражнения; пишут диктант.

Фонетическая система является той базой, в соответствии с которой происходит порождение звуков речи: она определяет взаимоотношение звуков данного языка и правила их функционирования в речи. Например, в русском языке согласные делятся на твердые и мягкие, а в узбекском языке такого противопоставления нет. Русский человек автоматически контролирует себя, чтобы не сказать *угол* вместо *уголь,* иначе изменится смысл. Различия фонетических систем русского языка и родного языка учащегося создают большие трудности при обучении произношению, так как даже те звуки, которые, казалось бы, совпадают по артикуляции, на деле оказываются не одними и теми же.

Знания фонетической системы русского языка позволяют обучающимся успешно преодолевать трудности при работе над русским произношением. Постепенно, шаг за шагом учащийся осознает место каждого изучаемого явления в системе, т.е. по отношению к другим звуковым явлениям того же порядка. Это достигается не столько путем теоретических объяснений, сколько за счет правильно отобранного и организованного материала.

При обучении произношению особенно актуальна опора на родной язык учащегося. Ведь усвоенные с детства произносительные навыки речи на родном языке в высшей степени автоматичны и при этом, как правило, бессознательны. Поэтому учащиеся незаметно переносят в русскую речь типичные произносительные особенности родного языка, прежде всего особенности его системы и нормы. Фонетическая интерференция распространяется на так называемый фонетический слух: носитель того или иного языка слышит звуки чужого языка как бы через призму системы родного языка – он слышит те фонетические различия и особенности, которые есть в его родном языке, и без специального обучения не услышит специфические особенности иностранного языка. Поэтому совершенно необходимо научить учащихся анализировать свое произношение.

Работая над акустической стороной, преподаватель развивает слух учащихся, т.е. учит правильно слушать русские звуки (опознавать их и отличать друг от друга), различать на слух слова с разным местом ударения, различать предложения с разной интонацией. При работе над артикуляционной стороной слухопроизносительных навыков преподаватель основное внимание уделяет постановке русских звуков, ритмической организации слов с правильным ударением, правильному воспроизведению основных типов интонационных конструкций. Сначала изучается материал, характеризующийся простыми артикуляционными работами (*например, твердые согласные: т, д, н, с, з*), затем вводятся звуки с более сложной артикуляцией – мягкие согласные, шипящие. Практика преподавания помогла выделить такие фонетические явления, которые вызывают затруднения у носителей родного языка (*гласный /ы/, сочетания с «й», «ь» и др.*). Обучение лексике и грамматике на начальном этапе подчиняется главной задаче – работе над произношением. Поэтому новое слово можно вводить только тогда, когда учащиеся умеют произносить все звуки, входящие в его состав, когда они усвоили соответствующую ритмическую модель и т.д. Значения слов чаще всего семантизируются с помощью наглядности, грамматический материал усваивается лексически, без специального объяснения. Основное внимание на начальном этапе обучения уделяется устной речи: обучащиеся отвечают на вопросы, задают вопросы, составляют высказывания по ситуации или по картинке. В то же время они учатся читать и писать

по-русски. Обучение ведется по принципу устного опережения. Это означает, что последовательность работы над материалом должна быть следующей: сначала новый звук, слово, предложение должны быть услышаны учащимися, затем они это новое произносят, потом видят написанными в учебнике или на доске и, наконец, читают и пишут сами.

Трудности усвоения русского произношения у обучающихся сводится в основном к следующему:

1. Трудности усвоения звуков, отсутствующих в родном языке.
2. Произношение звуков, сходных со звуками родного языка, но не тождественных им.
3. Произношение твердых и мягких звуков.
4. Сочетание звуков в различных фонетических позициях.
5. Овладение русским ударением.
6. Усвоение звуков редукции гласных в безударных согласных слогах и ассимиляции согласных.

Наиболее распространенной ошибкой является вставка гласного между согласным: (встреча – /фиситреча/). Вставка гласного между согласными нарушает ритмику конкретного слова и в некоторых случаях может привести к смешению значений (пароход – проход). Для устранения вставки гласного между согласными полезны упражнения на сопоставление слов со стечением и без стечения согласных /дано –дно, город – горд/. Сначала отрабатываются труднопроизносимые сочетания звуков в изолированном положении, а затем в упражнениях на сопоставление слов со стечением согласных и без него. Сложностью для обучащихся является переключение артикуляции с твердых согласных на мягкие *(математика, переписывать).*

Ударение играет важную роль в русском языке, так как оно дает возможность различать слова или формы одного слова. Например, *дома –дома; дорогой – дорогой.* В русском языке, в отличие от узбекского, ударение не закреплено за каким-то определенным слогом, оно разноместное и подвижное. Обучающиеся должны запоминать место ударения, так как в русском языке ударение подвижно даже в рамках одного слова. Чтобы облегчить эти трудности, можно наметить группы слов, на которые распространяются правила ударения. Существуют группы слов с постоянным ударением на окончании, на словообразовательном суффиксе, на слоге, предшествующем суффиксу, и т.д. Так, например, в существительных женского рода с окончаниями -ИЯ ударение всегда находиться на слоге перед -ИЯ: *аудитория, лаборатория*, в существительных среднего рода с окончанием -ИЕ: *собрание, заседание* ударение находится на слоге перед -ИЕ. В существительных мужского рода суффиксы -ИЗМ, -ИСТ, -АНТ, -АНИН и другие всегда ударные: *реализм, футболист*. В существительных мужского рода с окончанием -ТЕЛЬ: *учитель, преподаватель* ударение на слоге перед окончанием -ТЕЛЬ. Неподвижное ударение имеют прилагательные с суффиксом -ИЧЕСК: *химический, политический*, с суффиксом -АЛЬН: *музыкальный, театральный*, в прилагательных с суффиксом -ТЕЛЬН ударение всегда на слоге, предшествующем этому суффиксу: *строительный, внимательный*.

В русском языке есть группы: существительных, глаголов, где при образовании форм одного и того же слова ударение может перемещаться с одного слога на другой, с одной морфемы на другую – с основы на окончание, с окончания на основу: *дом – дома, дело – дела, город – города, страна – страны, рука – руки, пишу – пишешь, верчу – вертишь, люблю – любишь и т.д*. Эта особенность называется подвижностью русского ударения, а само такое ударение – подвижным. В отличие от подвижного, неподвижное ударение имеет место в тех случаях, когда при образовании разных форм одного и того же слова ударение остается на одном и том же месте: *буква – буквы – букве, стерегу – стережешь – стерегут, умна – умно – умны.*

Для усвоения произносительных норм требуется повседневная работа в течение всего периода обучения. С каждым днем возрастает значение технических средств обучения или метода постановки русского произношения. Выбор того или иного материала зависит от изучаемого материала, и в первую очередь, от отрабатываемого звука, его способа и места образования , особенности сочетания с другими звуками.

В заключение можно сказать, что результаты обучения зависят от преподавателя, его профессионального мастерства, владения методами и приемами фонетической работы на уроке, его изобретательности, фантазии, остроумия и, конечно, от его терпения, доброжелательности, тактичности по отношению к своим ученикам. Все это в конечном счете обеспечивает успех в работе над специфическим, трудным, но очень важным аспектом практического русского языка –обучением произношению.

Литература

1. Андриянова В.И. Очерки по методике развития русской речи учащихся- узбеков. – Т.,1996.
2. Бойцова А.Ф. Обучение русскому произношению в нерусской школе. – М., 1994.
3. Буржунов Г.Г. Методика преподавания русского языка в национальной школе. – Л., 1980.
4. Карабаева Л.И. Методика преподавания русского языка в начальной узбекской школе. – Т., 2005
5. Чеснокова М.П. Методика преподавания русского языка как иностранного. – М., 2015.

УДК: 81.367.5

TURLI TIZIMLI TILLARDA YIG‘IQ GAPLAR

R. R. Sayfullayeva, N. A. Sadullayeva
O‘zbekiston milliy universiteti
nilufar_sadullaeva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida uchraydigan yig‘iq gaplar o‘rganilgan. O‘zbek tilida yig‘iq va yoyiq gaplar batafsil o‘rganilib, tilshunoslar tomonidan darsliklar, monografiyalar va ilmiy ishlarda yoritilgan. Ko‘rib chiqilgan materiallar ushbu ikki til birligini qiyosiy tahlil qilish zarurligini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: yig‘iq va yoyiq gaplar, grammatik qurilish, sintaksis, o‘zbek tilshunosligi, ingliz tilshunosligi, semantik kategoriya, formal tilshunoslik.

Нераспространённые предложения в разносистемных языках

Аннотация. В этой статье рассматриваются нераспространённые предложения в узбекском и английском языках. В узбекском языке распространённое и нераспространенное предложения изучены и описаны подробно в учебниках, в монографиях и в научных работах лингвистов. Рассмотренные материалы доказывают необходимость тщательного сравнительного анализа этих двух языковых единиц.

Ключевые слова: распространённое предложение, нераспространенное предложение, грамматическое строение, синтаксис, узбекское языкознание, английское языкознание, семантическая категория, формальное языкознание.

Unextended sentences in multisystem languages

Abstract. This article analyzes unextended sentences in the Uzbek and English languages. In the Uzbek language, extended and unextended sentences are studied and described in textbooks, monographs and scientific works of linguists. The considered materials prove the need for a thorough comparative analysis of these two language units.

Keywords: extended and unextended sentences, grammatical structure, syntax, Uzbek linguistics, English linguistics, semantic category, formal linguistics.

Nazarimizda, tilshunoslik fanining eng murakkab va qiziqarli sohalaridan biri sintaksis bo‘lsa kerak. Sababi shuki, gap inson fikrini ifodalaydi. Olimlarning fikricha, o‘rgangan so‘zlarni bir-biriga bog‘lash qobiliyati go‘dak miyasida ona qornidayoq shakllanadi, u tug‘ilgach, ma’lum vaqt o‘tgach, ularni bir-biri bilan bog‘laydi va sekin-asta so‘zlashishga o‘rganadi, qisqa va o‘ta sodda gaplar tuza boshlaydi. Tabiatning bu mo‘'jizasi keyinchalik bolaning fikrlash qobiliyati va uning ifodasini shakllanishiga, umuman, rivojlanishiga yordam beradi. [1]

Quyida insonlarning o‘zaro fikr almashuvini ta’minlovchi gap va uning eng qisqa ko‘rinishi bo‘lgan yig‘iq gap haqida ayrim fikrlarni bayon etamiz. Yig‘iq gaplar o‘zbek tilida boshqa tilga nisbatan yaxshi o‘rganilgan. Mustaqillikka erishilgach, hayotimiz har bir jabhasida, xususan, fanda ham o‘zgarishlarga yangicha yondashishga yo‘l ochildi.

Ona tili bo‘yicha yaratilgan fan dasturlari, o‘quv qo‘llanma va darsliklarda ona tilimiz mohiyatidan kelib chiqib, hosila va hodisalar tadqiq etila boshlandi. Darsliklarda yig‘iq gaplarga quyidagicha ta’rif berilgan: “Faqat ega va kesimdan iborat bo‘lgan gap sodda yig‘iq gap hisoblanadi.”[3:77] Xuddi shu kabi ta’rif g‘arb tilshunosligi, jumladan, rus, ingliz tillari grammatikalarida ham keltirilgan. Bu tabiiydir, chunki yuqorida qayd etilgan tillarda bu hosila ona tilimizdagidan tubdan farq qiladi. Buning asosi esa sodda gapning eng kichik qurilish qolipi [WPm] deb olinganida. Ushbu masala mustaqillik davrida yaratilgan ona

tili darsliklarida mukammal sharh etilgan. [4:87,117] Darslikda keltirilgan bu materiallar o‘zbek tilshunosligining substantsial yo‘nalishi asosida bajarilgan.

Ingliz tili grammatikalarida bu gap eng oddiy gap (элементарное предложение) deb berilib, “Gapning struktur sxemasi” bandida ko‘rib chiqilgan. Tarkibi bo‘yicha minimal grammatik tuzilishi va mazmuni jihatdan oddiy gap strukturasi uning struktur sxemasi deb olingan. Struktur sxemaning aniq ifodalangan komponentlari struktur sxemasi bo‘yicha qurilgan konstruktsiya elementar gap deyiladi. [5:211] Shuningdek quyidagi parchaga diqqatingizni tortamiz: “Взаимные отношения элементарного предложения и предложения, состав которого выходит за пределы элементарного предложения в “полное” или наоборот, как свертывание последнего до элементарного. Такое понимание отношений между элементарным и “полным” предложением позволяет интерпретировать элементарное предложение как нераспространенное, а предложение, состав которого не ограничен компонентами, определяемыми структурной схемой, как предложение распространенное. В этих отношениях элементарного и распространенного предложений проявится сущность элементарного предложения как заверщенной, но открытой конструкции”. [5:213]

Yuqorida keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, ingliz tilida yig‘iq gaplar “элементарное” yoki “нераспространенное предложение” deb yuritiladi. Ayrim misollarga murojaat qilamiz: 1*) Chiqadi. Albatta, chiqadi. 2) Ayol qavmini ipidan ignasigacha bilaman”, deysizmi? O-o-o, siz daho ekansiz! 3) Ayol sizni sevsa, hushyor bo‘ling!*

Ko‘rinib turibdiki, birinchi gap sodda yig‘iq gap – birgina so‘z – kesimdan iborat. Yonida ketma-ket qo‘llangan gap “albatta, chiqadi”da bir element ko‘paygan – albatta kirish bo‘lagi va u konstruktsiya ishonch, ta’kid mazmunlarini olib kirgan. Ikkinchi misol ikki gapdan iborat bo‘lib, ikkinchisida esa egasiz kesim – daho ekansiz qo‘llangan bo‘lib, kuchli ekspressiv bo‘yoqqa ega gap. Undan kesatish yoki so‘zlovchining ustidan kulish ma’nosi ifodalanmoqda. Ingliz tilidagi quyidagi misollarga diqqat qilamiz: *1) I explained. – Men tushuntirdim. 2) Wolfe sighed – Vulf xo‘rsindi. 3) Molly was dead, I could see that. – Molli o‘ldi, men buni ko‘rdim.* Dastlabki ikki misol ega va kesimdan iborat yig‘iq gapdir. 3-misoldagi gap esa qo‘shma gap bo‘lib, u 2 qismdan iborat teng tarkibli gaplardir, har ikkisidan keyin nuqta qo‘yish mumkin. Ayol sizni sevsa, xushyor bo‘ling gapi tobe tarkibli va bunda birinchi qism yoyiq, ikkinchi qism yig‘iq gapdir. Bunda birinchi gap *(Ayol sizni sevsa)* nomustaqil kesim shakli *(-sa)* bilan kelib, o‘zidan keyin yana bir boshqa gapning kelishini talab qilmoqda. Bunda ikkinchi qism *(xushyor bo‘ling)*

Xushyor bo‘ling, ayol sizni sevsa.

I could see that Molly was dead.

Birinchi gapda birinchi o‘ringa xushyor bo‘lish chiqadi va ogohlantirish, maslahat ma’no ottenkalarini beradi, ammo nimadan xushyor bo‘lish, ya’ni maqsad – ayol sizni juda sevib qolishi mavqei nisbatan pastga tushadi va o‘zidan oldin agar, o‘zidan keyin esa yana boshqa birlikni talab qiladi. Shuning uchun ham muallif – O‘.Xoshimov birinchi o‘ringa maqsadni ifodalovchi gapni qo‘ygan. Yozuvchining niyati bitta – ogohlantirish, aks holda:

Xushyor bo‘ling,  ∞ - cheksizlikdir

Ayol sizni sevsa,  - xushyor bo‘ling – bir-biriga mutanosiblik o‘rnatiladi.

Ikkinchi gapda esa teng tarkibli qo‘shma gap ergash gapli qo‘shma gapga aylandi. Bunda gap shakli o‘zgardi, lekin mazmuni asl holida qoldi. Xuddi shu holni quyidagi misolda ko‘rish mumkin:

Ishonch yo‘qolsa, orzu qoladi.

Orzu yo‘qolsa, umid qoladi.

Umid yo‘qolsa, ilinj qoladi.

Ilinj yo‘qolsa, xech nima qolmaydi...

Muallif yig‘iq gaplarni ikki qismdan iborat qilib, har biridan tobe tarkibli qo‘shma gap yasagan. Ketma-ket qo‘llangan 4 ta qo‘shma gapda ega va kesimlar aynan takrorlangan. Ular ichida birgina ishonch so‘zi bir marta qo‘llangan. Egalar ishlatilganda, inson bu holatining quyidan yuqoriga yoki aksi kuzatiladi!

Hech nima > ilinj > umid > orzu.

Bu darajalanish qatoriga ishonch so‘zi zamin bo‘lib xizmat qilmoqda va u bir martagina qo‘llanilmoqda:



Bu qatorda, nazarimizda, hech nima birligi bir qutbni, orzu birligi ikkinchi qutbni tashkil qiladi. Insonda ishonch boʻlmasa, hech nimaga erishib boʻlmasligi ixcham ifodalangan. Muallif ushbu satrlarni shunday joylashtirganki, ularning tartibini buzish mumkin emas. Bu esa uning oʻtkir salohiyati va qobiliyatidan darak beradi va oʻquvchiga kuchli ta’sir qiladi. Shu kabi gaplarning tarbiyaviy ahamiyati ham yuqoridir.

Adabiyotlar

1. Сайфуллаева Р.Р. Сайфуллаев Ш.Р. Монолингвистический эффект имени Ф.С.Убаевой//Журнал научных и прикладных исследований. УФА, 2013, №3, -С. 25-39;
2. Сайфуллаева Р.Р. Сайфуллаев Ш.Р. Би-трилингвистический эффект имени А.Р.Сайфуллаева//Журнал научных и прикладных исследований. Уфа, 2013, №4, -С. 29-44.
3. Qodirov M. va b. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. –T.: 2006. –B.77
4. Sayfullaeva R. va boshqalar. Zamonaviy oʻzbek tili. Sintaksis. 2-jild. –T.: 2013. –B.87
5. Иванова И.П. и др. Теоретическая грамматика современного английского языка. –М.: 1981. –Б.213

UDK: 42:494.3

ABOUT ENGLISH METHODICAL TERMS

N. Ashurova
Termiz branch of Tashkent State Technical University
nasibaashurova76@mail.ru

Abstract. This article deals with terms of methodics which were used in some textbooks of linguists. Textbook and dictionary of scientist, professor J.Jalolov were analysed comparatively.
Keywords: glossary, lingvodidactic, term, lingvomethodic, dictionary

Ingliz uslubiy atamalari borasida

Annotatsiya. Ushbu maqola metodika atamalari haqida boʻlib, ular tilshunoslar darsliklarida tilga olingan. Olim, professor Jamol Jalolov tomonidan yozilgan darslik va lugʻat qiyosan tahlil qilingan.
Kalit soʻzlar: glossariy, lingvodidaktik, atama, lingvometodik, lugʻat

Об английских терминах методики

Аннотация. Статья посвящена терминам методики которые встречаются в учебниках лингвистах. Учебник и словарь ученого, профессора Ж.Жалолова анализированы сравнительно.
Ключевые слова: глоссарий, лингводидактический, термин, лингвометодический, словарь

We have the linguistics based on the language or linguistic materials that are not monographically studied in terms of language teaching method. While, the Russian Language methodology and dictionaries have been published. In the 70s of the last centuries, and multilingual lingvometodic dictionaries were published in the former alliance. This is a textbook by G.V. Rogova, "The Methodology of the English Language" (L. Prosveshchenie, 1975), (see the English Language technique in this handbook, pages 289-305). Andeevskaya-Levenstern's Methodology of the French Language and Literature" (M: Prosveshchenie, 1982), pp. 212-219 of the textbook provides a methodological dictionary, NIGez, M.V. Lyakhovsky, A. Mirolyubov , S.K. Folomkina, S. Shatilov's book "Methodology of induction of textbooks" (M.: Wysshaya shkola, 1982), by A.Shukin Lingvodidactic encyclopedic dictionary: more than 2000 units (M. : Astrell: AST: Hranitel, 2007) and so on.

At the end of the 20th century, methodological terms were also created in Uzbekistan. In 1984, Saydalieva and others were the first works in this area ‘Russian-German French-Uzbek terminology dictionary’ (T., Teacher, 1989). In 1978, S.Soatov , G.Aliev and V.S.Setlings translated the book "Foreign Language Teaching Course in Secondary School", edited under the editorial in Uzbekistan. Then in 1996

and 2012 J.Jalolov's "Methods of Teaching Foreign Language'' and in 2003, the textbook "English Teaching Methods" by U.Hashimov and I. Yakubov was published.

The glossary attached to J. Jalolov's tutorial is the first attempt to create the terminology of English in Uzbekistan. Here's what we are talking about.

This work, called " Terminology Explanatory Azusa'' is composed of Introduction," "Speak dictionary of Glossary," and "Glossary." The introduction introduces the role of sectoral dictionaries in foreign language teaching and dictionaries of CIS in different periods.

As we studied several suggestions, that can be presented as Dictionaries are wonderful tools to *assist* a reader in learning vocabulary. The dictionary and reading are similar. Read what you enjoy or what is assigned. Keep the dictionary nearby so you can look up words as needed. A good guideline is the "rule of five." If you read a page and have to look up five or more words on that page, the text is beyond your learning zone. If you are reading to improve your vocabulary, keep a highlighter with you as you read. Highlight the words you don't fully understand. Finish the paragraph and see if you can infer the meaning from the context or break the word into prefix, root word and suffix. If you cannot get a solid meaning from either method, look the word up. Once you have looked up your words and understand the denotation, write a sentence for each word for ten days; each day use a different sentence built around the word you wish to use. By the tenth day, the word will likely be part of your working vocabulary.

Or another point of view in learning new foreign words as following: People do not study the dictionary! The dictionary is strictly for reference. It is obvious that you do not, and have not, given one moment to any previous answer I have given you. I personally researched excellent books for you to get and practice the assignments in, that would have greatly brought up your reading comprehension and vocabulary skills. Go back to my advice and reading material and workbooks that I suggested.

One should remember that the entire problem is that you don't read, not even to do what we here at Quora advise. If you did, I would not be answering this question. If you are learning English as a foreigner, reading the dictionary is capital to achieving proficiency. Most learners do the mistake of using bilingual dictionaries (as in Spanish-English) instead of standard English dictionaries. It is much more important than you think to use uni-lingual dictionaries - reading and trying to understand the precise definition of a word instead of translated approximates is vital to getting the nuances of the language you're studying.

And the last recommendation is do not suggest reading the whole dictionary of course, but whenever you struggle with a word, or when you want to learn more vocabulary, pick a random page and read the word and its definition. This works for both native speakers and learners. There used to be a time when reading the dictionary was a game for kids - I remember doing that, looking for strange words and for the few illustrated pages my French dictionary had when I was young. I learnt a lot about my mother tongue this way.

Indeed, lingvodidactic dictionaries provide the same understanding of the field and its terminology as well as the content of the textbooks, and put an end to subtle use of the term.

The dictionary is based on the following lexicographical rules:

- The explanation of the terminology described here is excluded from the Middle Ages, and it is a Turkish term;
- pointing to a two-point combination of terminals;
- The terms in the so-called word are separated;
- Explained the terms used in Russian and Russian;
- a line is drawn between the synonym terms;
- Antonyms have been written between "and" bindings;
- Units associated with the term are separated by a straight line;

In the context of an article statement, the ~ sign (tilted).

The dictionary then has the alphabetical order. This is why it was not intended to do so.

Prof. J.Jalolov's Russian and international terms, which today have their equivalents in Uzbek .

Compare:

In the dictionary	in the current Uzbek language
abstract	abstract
adaptation	adaptation
active	asset
activation	activate
analytical	analysis
analysis	analysis
Knowingly	Bilingual

Definition	def.
Stage	arrange
facilitate	facilitation, simplify
interactive	interactive
method	method
loading	loading
student	student and so on.

’The word dictionary’’ is also in alphabetical order. It also has many Russian-international terms. In order not to put an end to this idea, we give the terms "k": cabinet, calendar, calligraphy, card, professional, sequence, cybernetics, cinema, classification, cliché, code, cognizant, communicant, communicative, communication, comparative, complex, complex, Component, compresiya, computer, conceptual, Contextual, Contest, Concentration, Concentric, Concept, Corrective, Correlation, Critical, Cumulative, Course, Cursor, Monitoring, Compositing, monitoring, quantitative, the default, Surveillance, qualitative, quantative.

Most of the methodical terms outlined above are available in Uzbek and are used. Compare: Calendar-Calendar, Calligraphy-Chicory, Comparative-Comparative, Complex - Complex, Component - Component, Control – Control, Collective – collective, Criterion - Measurement, and so on. These include terms that are popular in Uzbek and require extensive interpretation: kinesthetic, cliché, code, cognizant, concentric, correlation, circulatory, cursor, qualitative, quantitative, and so on.

The language in which the terms of the word came from are in their Uzbek language Compare:
abstraction [lot. Abstraction - Abstraction - Abstract grammatical ~ grammatical rule academic [greek. Academeia (Mythical Hero Akadem name)]; ~ hour (45 minutes lesson); ~ or astronomical (60 minutes) hours; ~ group (-group)
The algorithm [the great mathematician, astronomer Al-Khorezmi (born 783 in Khiva, died in850 in Baghdad) is Latin algorithm, written in algorithm]; language course material, step-by-step instructions, definite instructions for consistent implementation of speaking activities); ~ - This rule does not apply to any rule because the rule is in the form of a general and specific (clear) indication; Grammar Skills; - consists of two parts, identification (Russian phrase frequency) and discovery (Russian version)

The study of this dictionary shows that it has been structured in accordance with the terminology requirements, that the words have been carefully clarified, and that the person who uses it can have sufficient knowledge not only of the term, but also its meanings. For example, the term abstract is interpreted in the dictionaries: Abstract 1. Abstracting, abstracting (something or phenomenon, imagination of events, generalizing their essential features); 2. Abstract concepts; generalization of theoretical conclusions by abstracting; 3.f.m. mysterious, uncertain or abstract idea, dry imagination.

This term was interpreted by prof. J.Jalolov as follows: [abstraction [lot. Abstraction - Abstraction - Abstract grammatical ~ grammatical rule].
Apparently, prof. J.Jalolov invents the meaning of the abstracted term in dictionaries and enriches the reader with a new grammatical term.
The foregoing is the following:
prof. J. Jalolov’s dictionary contains about 20-25percent lingvomethodic of Russian and international terms. This sharply reduces the degree of usefulness of a dictionary and, secondly, limits the popularity of pure Uzbek terms;

J.Jalolov's "Glossary" can be considered as a complete example of the terminological interpretation and description. In his subsequent publications, it would be expedient to replace improperly used Russian and international terms with Uzbek equivalents;

We have not only learned English lingvometodic dictionaries, but also a foreign - Uzbek dictionaries.

Reference

1. Jalolov J. Language teaching methodology. - T: Teacher, 2017, p.20
2. O.Usmanov, R. Abdurakhmanov.Russian-Uzbek Dictionary. - Tashkent, UzFA, 1950, p. 124-126
3.G.V. Rogova, "The Methodology of the English Language", L. Prosveshchenie, 1975/English Language technique in this handbook, pages 289-305.
4 Quota.com/ how-effective-is-reading-the -dictionary
5. Andeevskaya-Levenstern's Methodology of the French Language and Literature", M: Prosveshchenie, 1982, pp. 212-219

5. M.V. Lyakhovsky, A. Mirolyubov, S.K. Folomkina, S. Shatilov's book "Methodology of induction of textbooks", M.: Wysshaya shkola, 1982, p. 232

UDK: 42

MAQOLLARDA «ONA» KONSEPTINING IFODALANISHI

S. U. Tagayeva
Samarqand davlat universiteti
tagayevasayyora2018@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda konsept tushunchasi, uning mohiyati haqida so‘z boradi. Unda nemis va o‘zbek tillaridagi maqollarda “ona” konseptining lingvokulturologik tahlili, ularning o‘xshash tomonlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: konsept, kognitiv, lingvokulturologiya, paremiya, maqol. mazmun

Интерпретация концепта «матери» в пословицах

Аннотация. В статье речь идет о понятии концепта, о его значении. А также дается лингвокультурологическое сравнение и анализ особенностей пословиц в ходе работе над концептом «мать» в русских, немецких и узбекских языков.

Ключевые слова: концепт, когнитивная, лингвокультурология, паремия, пословица, значение

Interpretation of the concept “mother” in proverbs

Abstract. This article deals with the notion of concept, its meaning. It also provides the linguo-cultural comparison and analysis during the work on the concept «mother» of proverbs in German, Russian and Uzbek languages.

Keywords: concept, cognitive, lingvoculturology, paremy, proverb, notion

Zamonaviy tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan biri ona tili va o‘rganilayotgan tillarning o‘zaro bog‘liqligini, madaniyatini qiyoslash hamda chuqur o‘rganishdan iboratdir. Xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida asosiy diqqat-e’tibor o‘quvchilarning lug‘aviy boyligini boyitishga qaratilgan. Ushbu muammoni hal etishda vhet tilidagi maqol va matallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biz bilamizki, maqollarda xalqning milliy xarakteri, mentaliteti, an’analari o‘z aksini topgan. Shuning uchun lug‘aviy boylikni maqollar, matallar hamda ma’lum madaniy konseptlarni tahlil qilish orqali kengaytirish til o‘rganishdagi muhim metodlardan hisoblanadi.

Insonning kundalik voqea-hodisalarga munosabati tilning kognitiv nazariyasining amalda qo‘llanishi bilan uzviy bog’liqdir. Zotan, biz yillar davomida hosil bo‘lgan hayot tajribamiz, bilim va ko‘nikmalarimiz asosida voqelikdagi u yoki bu tarzda mavjud bo‘lgan narsa-predmetlar, voqealar, hodisalar haqida fikrlay olamiz va ana shunga tayangan holda o‘zaro so‘zlashuv jarayonida nutqimiz bekamu ko‘stligiga erishamiz.

Ma’lumki, bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan boshlanadi. Sezgi idroki tafakkurda voqelikning ushbu parchasi ramzining shakllanishi uchun zamin tayyorlaydi. Voqelik idroki jarayonida bilish faoliyati ijrochisi – sub’ekti va ushbu faoliyat ob’ektini o‘ziga xos o‘zaro qarama-qarshiligiga asoslangan sub’ekt-ob’ekt munosabati yuzaga keladi. Bilish faoliyatining barcha bosqichlari xuddi shu munosabat asosida kechadi.

Hozirgi zamon tilshunosligida kognitiv yo‘nalish leksik-semantik sathdagi tahlillar bilan chambarchas bog’liq bo‘lib, unga ko‘ra til umumiy kognitiv mexanizm bo‘lishi bilan birga, kognitiv qurol tarzida axborotning taqdimotini, kod yordamida uzatish va o‘zgartirish vazifasini bajaruvchi belgilar tizimi hamdir.

Kognitiv tilshunoslikda insonga xos bo‘lgan kognitiv tuzilma va usullar yordamida axborotni to‘la egallab olish mexanizmlari o‘rganiladi. Zero, intensivlikni ifodalovchi so‘zlar ham borliq haqidagi bilim va tasavvurlarni ifoda etishga xizmat qiladi.

So‘z ma’nosini anglashda faqat uning semantik tuzilmasini bilishimiz kamlik qiladi. Biz muayyan tilda so‘zlashuvchi odamlarning tafakkur xususiyatlari, fikrlash tarzlari va dunyoni til unsurlari yordamida bilish xususiyatlaridan ham xabardor bo‘lishimiz lozim. Chunki mazkur vazifalarni so‘zlarning sof lingvistik tahliliga yuklash qiyin. Bu esa til hodisasining tabiatini, mohiyatini chuqurroq tushunish uchun

unda so‘zlashuvchining borliqni bilishi va uni ongida “pishirib”, o‘z tilida (nutqida) tinglovchiga bekam-ko‘st uzatishi bilan bog’liq masalalarni ham tadqiqotlarimiz kun tartibiga qo‘yishni talab qilmoqda.

Ma’lumki, inson moddiy olamda yashar ekan, u o‘z atrofidagi borliqqa (narsa-hodisalarga, o‘simlik va hayvonlarga) o‘z munosabatini bildiradi. Masalan, hayvonlar va qushlarga xos ijobiy, salbiy xususiyatlar insonga, uning turmushi, odob-axloqi va holatiga til yordamida o‘xshatiladi, ko‘chiriladi yoki metaforizatsiya qilinadi. Bu holatlar obrazli bo‘lganligi uchun inson hissiyotiga kuchli ta’sir qiladi va uning ongida muhrlanib qoladi. Bu tarzdagi til talqini masalaga kognitiv aspektda yondashuvni aks ettiradi.

Professor D.Ashurova o‘z maqolasida kognitiv tilshunoslikning maqsad va vazifalari, o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalarni ko‘rsatib o‘tadi. Jumladan, hozirgi davrda shakllanib borayotgan kognitiv tilshunoslikning kognitiv fonologiya, kognitiv grammatika, kognitiv leksikologiya, kognitiv semantika kabi yangi yo‘nalishlari vujudga kelganligi ta’kidlanadi. Kognitiv yondashuv asosida so‘z turkumlari, til birliklarining kategoriyalarga bo‘linishi va kontseptualizatsiyalashuvi, til va dunyoni bilish kabi tushunchalar yangicha talqinlarga ega bo‘ladi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalari tizimidan freym, stsenariy, skript, kategoriyalashtirish, kontsept, kontseptualizatsiya, kognitiv struktura, kognitiv metafora kabilar o‘rin olmoqda. Mazkur yo‘nalishning asosiy tadqiq metodlariga freymlar asosida tahlil qilish, modellashtirish (kognitiv xaritasini yaratish), kontseptual tahlil singarilar kiradi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda yana shuni ham ta’kidlash lozimki, bugungi tilshunosligimizda freym, skript, stsenariy, geshtalьt kabi oraliq til birliklarini o‘rganishga e’tibor ortib bormoqda. Buning asosiy sababi kognitiv tilshunoslik muammolarining tadqiqotlarimiz mundarijasidan o‘ziga munosib o‘rin olganligidadir.

Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri – bu kontseptdir. Bu atama XX asrning 90 yillariga kelib keng qo‘llanila boshladi. Kontsept so‘zi aslida lotincha conceptus bo‘lib, “tushuncha” ma’nosini ifodalaydi. Hozir ham ko‘pincha “konsept” terminidan “tushuncha” so‘zining sinonimi sifatida foydalanilmoqda. Shuningdek, kontsept termini matematik logika, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda ham faol qo‘llanilmoqda.

Ushbu maqolada «ona» konseptini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish va buni bir qator tillardagi maqollarni qiyoslash orqali amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Maqollar xalqning ko‘p yillar davomida to‘plagan ma’naviy boyligi va madaniy merosi hisoblanadi. Maqollar paremiyalarning bir turidir. Rus va bir qator tillardagi oila, oilaviy an’analar va tarbiya metodlarini tahlil qilganimizda, shu narsa ma’lum bo‘ldiki, barcha tillarda ona tushunchasi muhim o‘ringa ega [5.8-b.]

1) *Ona har bir inson uchun qadrlidir.*

O‘zbek tilida**: «**Ona - olam faxridir», «Bola ham ona deydi, ona ham ona deydi», «Ona daraxt, bola meva» [3.317-b.]
Rus tilida**:** «У кого есть матка, у того голова гладка», «нет такого дружка, как родная матушка».[5.50-b]
Nemis tilida: “Die beste Amme ersetzt keine Mutter”.

2) *Uchala til lingvomadaniyatshunosligida ham ona himoya, xotirjamlik ramzi hisoblanadi.*

O‘zbek tilida: **«**Ona mehribon, ota g‘amguzor», «Ona hayotning guli, bola uning bulbuli», «ona oyog‘i bilan beshikni, qo‘li bilan ro‘zg‘orni tebratar», «onali bolaning og‘zi o‘ynar, onasiz bolaning ko‘zi o‘ynar» [3.316-b.]
Rus tilida: «Мать праведна- ограда каменна», «Сердце матери лучше солнце греет», «С матерью жить – ни скуки, ни горя не знать».[5.50-b.]
Nemis tilida: “Ist eine Mutter noch so arm, so gibt sie ihrem Kinde warm”.

3) *O‘zbek, rus va nemis tillaridagi paremiyalar orqali ma’lumki, har bir ona o‘z farzandini qadrlaydi, hammasiga bir ko‘z ila boqadi.*
O‘zbek tilida: **«**Onaga bolaning olaligi yo‘q», «Bolasi ko‘cha kezar, onasi bag‘rin ezar», «Onangni yaxshiligini bemor bo‘lsang bilarsan» [3.315-b.]
Rus tilida: «Для матушки ребёнок до ста лет дитёнок», «Всякой матери своё дитя мило».
Nemis tilida: “Muttertreu ist taglich neu” , «Eine Mutter ist der einzige Mensch auf der Welt, der dich schon liebt, bevor er dich kennt».

4) *Yaxshi ona o‘z farzandini qanchalik sevsa, unga nisbatan shunchalik qattiqqo‘llik qiladi, uning tarbiyasiga ahamiyat beradi.*

O‘zbek tilida: «Enasi tepgan qo‘limning eti og‘rimas», «Bolaning ko‘ngli dalada, onaning ko‘ngli bolada».
Rus tilida: «Материнский гнев, что весенний снег, и многи его падает, да скоро растает», «Матереные побои не болят, мать их бия не бьет».
Nemis tilida: “Eine Mutter erreicht mehr als hundert Lehrer”.

5) *Nemis, rus va o‘zbek tilidagi maqollarda ham ko‘poincha qizning onaga nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki fe’l-atvor, yurish-turish jihatidan ham o‘xshashligi haqidagi fikrlarni uchratish mumkin.*
O‘zbek tilida: «Qiz bersang otasiga qarab ber, qiz olsang onasiga qarab ol», «Eshigi yomonning uyiga borma, onasi yomonning qizini olma», «Otadan o‘g‘il, onadan qiz», «Semiz qo‘zining go‘shti yaxshi, oqil onaning qizi».
Rus tilida: «По матери и дочь», «Если хочешь узнать, какой будет невеста через много лет, посмотри на её мать».
Nemis tilida: “Die Tochter einer guten Mutter wird die Mutter einer guten Tochter”, «Wie die Mutter, so die Tochter».

6) *Uchala til lingvomadaniyatshunisligida ham onalarni hurmat qilish, ularni qadrlash haqidagi maqollarni ko‘plab uchratish mumkin.*
O‘zbek tilida: «Onasini suyganning bolasini suy», «Onangni senda shunchalik ko‘p haqqi borki, sen unga har qancha yaxshilik qilsang ham kamlik qiladi», «Otasini og‘ritgan el ichida xor bo‘lar, onasini og‘ritgan parcha nonga zor bo‘lar», «Ona-olam faxridir».
Rus tilida: «Когда мать на земле обижают, бог на небе плачет».
Nemis tilida: “Man hat keine wichtigere Verbundete auf dieser Welt als seine Mutter”, «Eine gluckliche Mutter ist fur die Kinder lehrreicher als hundert Lehrbucher uber Erziehung», «Mutter tragen ihre Kinder durch den Morgen, Kinder sollen ihre Mutter durch den Abend tragen».

7) *Farzandlar tarbiyasida onaning roli juda muhimdir.*
O‘zbek tilida: «Ona suti bilan kirmagan, tana suti bilan kirmas», «Daraxtga ko‘ra mevasi, ota-onasiga ko‘ra bolasi”, «Qizni onasi tiysin, o‘g‘ilni otasi» [4.159-b.]
Rus tilida: «Умел дитя родить, умей и научить», «Что с молоком матери не впитал, с коровьим не придёт», «Умная мать богатство семьи»
Nemis tilida: «Eine Mutter ist so viel Wert wie hundert Schulmeister».

8) *Nemis, rus va o‘zbek tillaridagi maqollarni tahlil qilganimizda? Ushbu tillarda o‘gay onaga bo‘lgan salbiy munosabatni ko‘rish mumkin.*
O‘zbek tilida: «Onang o‘gay bo‘lsa, otang o‘zingniki emas», «Onali yetim gul yetim, onasiz yetim shum yetim», «Otangni chorbog‘ida qolguncha, onangni uymog‘ida qol», «O‘gayning oti qursin, saksovulning o‘ti qursin» [4.278-b.]
Rus tilida: «В лесу медведь, а в дому мачеха», «Достаток - мать, убожество - мачеха», «Мать гладит по шерети, мачеха - насупротив»
Nemis tilida: «Wenige sind wie Vater, niemand ist wie Mutter».

O‘zbek, rus va nemis tillaridagi maqollarning lingvomadaniy tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, har uchala tilde ham bir-nbiriga o‘xshash tomonlarni uchratish mumkin. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, ona har bir inson uchun qadrlidir, ona farzandi uchun hamma narsaga tayyor.

Adabiyotlar

1. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – М: Языки славянской культуры, 2004-93с.
2. Железнова Ю.В. лингвокогнитивное и лингвокультурное исследование концепта «семья». Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук: Спец. 10.02.19. – Ижевск.: Удмуртский государственный университет, 2009.27с.
3. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov «Hikmatnoma», O‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 1990, p. 24-26
4. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2012. – p.122-124
5. Поён Бакиров. Пословицы энциклопедия народной жизни. – Ташкент: Академнашр, 2018. – p.35, 46, 101

UDK: 894.3

LIRIK KECHINMALAR BADIIYATI

D. Mo‘minova
Samarqand Davlat Universiteti
muminova-d@list.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharq she'riyatining muhim an'analaridan bo‘lgan fors -tojik, o‘zbek va ozarbayjon adabiyotlarida yaratilgan nomalarning lirik va liro-epik xarakterdagi ijod namunalari yoritilgan .

Kalit so‘zlar: noma, lirik, liro-epik, vazn, qofiya, janr, masnaviy, g‘azal, qit'a, fard.

Художественность лирических переживаний

Аннотация. Это статья раскрывает лирические и лирико-эпические характеры в письменностях персидской, узбекской и азербайджанской литератур, которые являются одной из самых важных традиций восточной поэзии.

Ключевые слова: письмо, лирический, лирико-эпические, ритм, рифма, жанр, духовный, материк, фард.

Artistry in lyric emotional experience

Abstract. In this article there are fragments of lyric and lyric-epic characters written in Persian, Uzbek and Azerbaijan literature, which is one of the most important traditions of Oriental poetry.

Keywords: letter, lyric, lyric-epic, rhyme, rhythm, genre, mental, ghazal, continent, fard.

Mumtoz adabiyotimizda noma janri mazmun va janr jihatidan rivojlangan. Bunday rivojlanish xususan Xorazmiy asarida XIV asrning oxiri va XV-XVI asrlarda fors-tojik, o‘zbek hamda ozarbayjon adabiyotlarida yaratilgan nomalar ko‘zga tashlanib turadi. Bu davrda nomachilikda ikki uslub – biri Avhadiy va Xorazmiylar uslubi, ya’ni lirik tur xarakterida yozilgan nomalar (masalan, Xo‘jandiyning «Latofatnoma», Sayid Ahmad ibn Mironshohning «Taashshuqnoma») hamda liro-epik xarakterga ega bo‘lgan nomalar (Amiriyning «Dahnoma», Xatoiyning «Dahnoma»lari) maydonga keldi.

Shulardan biri Amiriyning «Dahnoma»si 1429-1430-yillar (hijriy 833 yil)da Shohruxning o‘g‘li ma’rifatparvar Boysung‘ur Mirzoga bag‘ishlab yozilgan. Muallif oshiq va ma’shuqa nomalarini bir sujetga kiritib, ikki yoshning ichki kechinmalarini tasvirlaydi. Asarda lirik tasvir bilan epik tasvir o‘zaro qorishib ketib, yangi xarakterdagi noma yuzaga keladi. «Dahnoma»da keltirilgan nomalar ma’lum ma’noda oshiq uchun ham, mahbuba uchun ham sinov vositasiga aylanadi. Bu nomalar orqali ular o‘rtasidagi sadoqat va samimiyat ifodalanadi. Mahbuba oshiqning nomalari orqali uning samimiyatiga ishongach, ko‘rishishga rozilik beradi. Xorazmiy «Muhabbatnoma»sidagi nomalar faqat oshiqning ma’shuqaga yozgan she’riy maktublari xarakterini olib, oshiqning kayfiyati va ishq yo‘lidagi zahmatlari ma’shuqa munosabati ko‘rsatilmagan bo‘lsa, Amiriy «Dahnoma»sida Avhadiy ijodida bo‘lgani kabi ma’shuqa va oshiq o‘rtasidagi munosabati hayajonli tarzda bayon etiladi. Shu jihatdan qaraganda Amiriy o‘zining «Dahnoma»sida lirik tasvirda Xorazmiy «Muhabbatnoma»sidan ilhomlangan, epik tasvirni kuchaytirishda Avhadiy an’anasini davom ettirib, o‘ziga xos ariginal asar yaratadi. Xo‘jandiyning «Latofatnoma», Sayid Ahmadning «Taashshuqnoma» asarlarida ham lirik tasvirlar ustun turadi.

Nomanavis ijodkorlar lirik va liro-epik tasvirlarni berishda vazn, qofiya va badiiy san’atlardan o‘rinli, maqsadga muvofiq tarzda foydalangan. Nomalarda oshiqning ruhiy holatiga katta e’tibor berilgan. Lirik kechinmalar, ruhiy holatlarni yoritish aruzning hazaj bahrida qulaydir. Bu vazn, asosan, Sharq klassik adabiyotida ishqiy ”firoqnoma”, “g‘amnoma” ruhidagi asarlarda qo‘llanilgan. Jumladan, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy kabi ijodkorlarning Layli va Majnun mavzuidagi asarlari shu vaznda yaratilgan edi. Shuningdek, ushbu o‘lchov “Shashmaqom”ning “Soqiynomai mo‘g‘ulchai dugoh”, “Ufori mo‘g‘ulchai segoh”, “Iroq” maqomining to‘rt taronasi kuylariga mosdir.[3] Albatta, bu vaznning g‘amnoma ruhidagi she’rlarda, dostonlarda va kuylarda qo‘llanilishining o‘ziga xos sabablari bor. Chunki u ruhiy holatlarni ifodalash uchun qulay imkoniyatlar yaratib beradi. Shuning uchun ham nomalarda oshiqning ayriliqdan azoblanishi, ruhiy qiyinchiliklarni boshdan o‘tkazishi ko‘rsatilgan o‘rinlarni tanishganda qayg‘uramiz, hayajonga tushamiz. “Muhabbatnoma”dan keltirilgan namunalarga e’tibor qaratsak:

Ayo bo‘yi sanuvbar, chehrasi oy,
Quyosh yanglig‘| jamoling o|lamoroy [1].

V - - - | V - - - | V - -
Mafoiylun / mafoiylun / fauvlun

«Muhabbatnoma»da barcha janrdagi she'rlar hazaji musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida yozilgan. Ahamiyatlisi, bu vazn orqali butun asar davomida bir xil musiqiy ohanglar silsilasi yuzaga kelgan.

Xuddi shunday «Latofatnoma»da ham boshdan oxirigacha hazaji musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida yaratilgan:

Tilimda so'z/, elimda xo/ma bo'ldi,
Latofatno/ma ham o'n no/ma bo'ldi [1].
V - - - | V - - - | V - -
Mafoiylun / mafoiylun / fauvlun

«Dahnoma»dan:

Nigorin ne/chag'a ulkim/ ilindi,
Ilik berdi /murodi ko'ng/li tindi [1].
V - - - | V - - - | V - -
Mafoiylun / mafoiylun / fauvlun

«Taashshuqnoma»dan:

Ayo, zebo/ sanamlar ko'r/kaboyi,
Qamuq shahlar/ gadoyingning/ gadoyi [1].
V - - - | V - - - | V - -
Mafoiylun / mafoiylun / fauvlun

Asarda qahramonlarning xatti-harakatlaridan ko'ra, ularning ruhiy kechinmalarini ifoda etish yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham Avhadiy o'z asariga g'azallarni kiritib, «Dahnoma»dagi ruhiy kechinmalarni yanada chuqurlashtiradi. Bu hol, xususan, oshiqning ma'shuqaga yozgan maktublarida va oshiq ruhiy dunyosining yoritilishida yorqinroq ko'rinadi. Shoir oshiqning o'z sevgisiga sodiq ekanini quyidagi misol orqali ko'rish mumkin:

Na yak dam dil chudomegardad az tu,
Na komi dil ravo megardad az tu [2],

ma'shuqaning sitamlariga qaramay, undan ko'ngil uza olmasligini:

Tu xohi chavr kun, xohi malomat,
Ki mann tarkat nago'yam to qiyomat

deya samimiyat bilan tasvir eta olgan. Adabiyotshunos olim G'.Begdeli aytganidek, Avhadiy ma'shuqa obrazini chizarkan, uni ojiza va itoatkor emas, balki o'z erki va muhabbati yo'lida kurashuvchi ayol sifatida tasvirlaydi [3].

Bundan tashqari, shoirning so'z boyligi va o'zbek tili talaffuziga yaxshi e'tibor berishi hamda ayrim g'azallarning bevosita musiqaga muvofiq yaratilishi she'riy misralarni ravon va ohangdor qilgan. Zotan, "Muhabbatnoma" misolida biz san'atning ikki turi – she'riyat va musiqaning yaqindan bog'langanligini va biri ikkinchisining ravnaq topishiga ta'sir etganini ko'ramiz. Xorazmiy ayrim g'azallarini "Husayniy", "Sifahon" kabi maqomlarda aytilishini ta'kidlaydi:

Iroqiy mutribe xoham xushilhon,
Ki xonad in g'azalro dar Sifahon [1].

Mazmuni: Xushovoz iroqiy hofizning bu g'azalni Sifahon (Isfahon) kuyida aytishini istayman degan fikr bildirilgan. Bundan tashqari nomalar o'zbek she'riyatida asosiy o'rin tutgan masnaviy (ikkilik) usulida qofiyalangan. Undagi har bir misra fikrlarni yaqqol ifodalovchi qofiyalar, qofiyaga ichki tomondan bog'lanib, umumiy ohangni ta'kidlab turuvchi radiflar bilan obraz yaratishdagi tasviriy vositalarni singdirib kelgan. Nomalar tarkibida keluvchi g'azal, qit'a, fard kabi janrlarning ham o'ziga xos qofiyalanishi mavjud. Lekin «Latofatnoma» bundan mustasno. Chunki u boshdan oxirigacha masnaviyda qofiyalangan.

"Muhabbatnoma" turli janrlardagi she'riy shakllarni o'z ichiga oladi, shoir shu janrlarga xos qofiya usulini to'la saqlaydi, radifdan ustalik bilan foydalanadi.

"Muhabbatnoma" XIV asr o'zbek adabiyoti va tili tarixini o'rganish uchun ham muhim mumtoz manba sanaladi. U o'zbek adabiyoti va adabiy tili taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi, o'zbek adabiyoti va adabiy tilining XV asrda yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tarilishiga zamin tayyorlagan asarlardan biri bo'ldi. Alisher Navoiy "Muhokamatul-lug'atayn" asarida o'zbek tilida katta xolni ifodalovchi "meng" so'zi borligini aytib, "Muhabbatnoma"dagi

Aning kim ol enginda meng yaratti,
Bo'yi birla sochini teng yaratti, - [1]

misralarini keltiradi. Bu misralarni Navoiy bevosita “Muhabbatnoma”dan olganmi yoki ularni qo‘shiqlarda eshitganmi, bu aniq emas. Lekin bundan qat’iy nazar “Muhabbatnoma” misralarining “Muhokamat ul-lag‘atayn”da misol tariqasida keltirilishi uning til jihatidan xiyla boy ekanini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari Xatoiyning «Dahnoma»si Hamid Arasli qayd etganidek, ozarbayjon adabiyoti tarixidagi ilk masnaviylardandir. U ozarbayjon tilida yozilgan bo‘lib, XVI asr boshlaridagi til xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur asarning maydonga kelishida XV asrning ikkinchi yarmida Hirotdagi adabiy harakatning, o‘sha davrdagi o‘zbek adabiyoti vakillari ijodining ma’lum ta’siri borligini ta’kidlamoqchimiz. Chunki unda til va tasvir xususiyatlari jihatidan Amiriy, Navoiy va shu kabi o‘zbek shoirlari asarlari ta’sirini eslatuvchi faktlar mavjud. Masalan, Navoiy asarlarida ko‘p ishlatiladigan mag‘bun, dastgir, rafiq, infiol, malol, giryon-u hazor sina biryon, nag‘ma og‘oz etmak, kofura qorushdi mashk-u anbar kabi so‘z va iboralardan tashqari Alisher Navoiy asarlaridagi baytlarga o‘xshash misralar ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, Alisher Navoiy o‘zining «Layli va Majnun» dostonida Navfal haqida shunday yozadi:

Navfal dag‘i ishq ko‘rgan erdi.
G‘am dashti aro yugurgan erdi.

Xatoiy o‘zining «Dahnoma»sidagi bog‘bon haqida shunday yozadi:

Bir ol dəxi ashig ulmish imish,
Eshgin hunərini bilmish emish [6].

Xatoiy asarida bunday holning bo‘lishi bejiz emas. Chunki u shoh sifatida yurishlar qilgan vaqtda 1510-1511-yillar orasida Hirot, Marv va Balx shaharlari bilan birga Xurosonni ham o‘z teritoriyasiga qo‘shib olgan edi. Ma’lumki, bundan oldin, ya’ni Xatoiy - Ismoil Safaviyning yurishlaridan 10-12 yil ilgari bu joylarda, xususan, Hirotda Alisher Navoiy boshchilik qilgan kuchli adabiy muhit mavjud edi. Shoh Ismoil Safaviy Hirotga kelganida bu muhitning shuhrati, ovozasi hali so‘nmagandi, balki keng tarqalgandi. Shu bilan bir qatorda, 1508-1509-yillar (hijriy 914yil)da hirotlik kotib mashhur o‘zbek shoirlari Xorazmiy, Xo‘jandiy, Lutfiy, Navoiy, Amiriy, Haydar Xorazmiy va boshqalarning doston, noma va munozaralarini go‘zal nastaliq xati bilan bir bayoz qilib ko‘chirgan edi [6]. Bu bayozda, qayd qilinganidek, Amiriyning «Dahnoma»si ham mavjud [6].

O‘n to‘rt kitobdan iborat bo‘lgan mazkur bayozning Xatoiyga ma’lum bo‘lmasligi mumkin emas. U ehtimol shu kitobni ham mutolaa qilgandir. Shu sabab Xatoiy asarida o‘zbek adabiyotida, jumladan, Amiriy «Dahnoma»sining ta’siri, bizningcha, shak-shubhasiz. Bu ta’sir avvalo nomada epizmning kuchayishida, qahramonlarning ruhiy holatini bayon etishda muhim o‘rin egallagani sezilib turadi. O‘zbek shoiri Amiriy «Dahnoma»ni yozayotganda Avhadiy va Xorazmiy nomachiligi an’anasiga ijodiy yondashganidek, ozarbayjonlik Xatoiy ham Amiriy «Dahnoma»si an’analariga ijodiy yondashib, nomachilikning yanada mukammallashuviga o‘z hissasini qo‘shgan. Bu hol eng avvalo shunda ko‘rinadiki, Xatoiy «Dahnoma»sini ishq dardiga yo‘liqmagan odamning tushida go‘zal ma’shuqani ko‘rib. Unga oshiq bo‘lib qolishidan boshlaydi. So‘ngra oshiq mahbubasining daragini hotifdan eshitib, parilar bog‘iga boradi, u yerda mahbubasining dugonalari bilan o‘tirganini ko‘rib qoladi. Shu vaqt bog‘bon yetib kelib, uning kimligini bilgach, mahbubaga erishish uchun Saboni axtarib topishni maslahat beradi. Oshiq Saboni axtara boshlaydi. Nihoyat uni topib, o‘z ahvolini bildirgach, Sabo unga yordam berajagini, buning uchun u ma’shuqaga noma yozishi kerakligini aytadi. Oshiq noma yozgach, Sabo ertalab uni ma’shuqa oldiga olib boradi. Boqqa yetgach, bog‘bonni uchratadi, U Saboning kelganini ma’shuqaga bildirib, nomani ham beradi. Ma’shuqa nomani olib achchig‘lanadi va uni yirtadi. Bog‘bon va Saboni esa koyiydi, oshiqning unga munosib emasligini yetkazishni Saboga topshiradi. Sabo oshiq yoniga g‘amgin kelib, voqeani bayon etadi. Oshiq unga minnatdorchilik izhor etadi va yana nomasini yetkazishni iltimos qiladi. Ma’shuqa nomani olib, yana oshiqqa parvo qilmaydi. Saboni esa bandga solib qo‘yadi. So‘ng oshiq yana noma yozib, uni o‘zi yuboradi. Ma’shuqa nomani olib oshiqni koyiydi va unga javob yozadi. Shunday qilib, oshiq o‘z ma’shuqasiga uch marta noma yuboradi. Nihoyat ma’shuqa uchinchi marta noma olganidan keyin ko‘ngli yumshab, oshiq ahvolini so‘ray boshlaydi. Saboni ozod qiladi, oshiq bilan ko‘rishishga rozilik beradi. Sabo xursandlik va minnatdorlik bayon qilingan nomani ma’shuqaga olib boradi. So‘ng ular uchrashadi va visol damining egzu kayfiyatlari bilan yashashadi. Shundan so‘ng mahbuba o‘zidan yodgor qoldirib ketadi va bu bilan asar tugallanadi. Ko‘rinadiki, Xatoiy «Dahnoma»sida epizm kuchaygan bo‘lib, unga Sabo, bog‘bon obrazlari kiritiladi va ular ijobiy fazilatlar egasi sifatida tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda she’riy maktub – noma janri avvalo lirik xarakterga ega bo‘lsa, keyinchalik unda epizm kuchayib, ishqiy-romantik doston darajasiga, aniq sujet chizig‘i, obrazlar sistemasi va ularning o‘zaro munosabati mavjud bo‘lgan asar darajasiga ko‘tariladi. Nomalarning mukammallashuvida ozarbayjon va o‘zbek adabiyoti vakillarining xizmati katta. Chunki ozarbayjon adabiyotining yirik namoyandasi Avhadiy «Dahnoma»sining an’anasi o‘zbek shoiri Amiriy tomonidan rivojlantirilganday,

o‘zbek shoiri Amiriy «Dahnoma»sidagi xususiyatlar ozarbayjonlik Xaptoiy tomonidan yanada mukammallashtirildi. Filologiya fanlari doktori E.Rustamov Amiriy va Fuzuliy asarlari («Bang va Chog‘ir orasinda munozara», «Bang-u boda») o‘rtasidagi aloqa va munosabat haqida muhim fikrlar bayon etgan bo‘lsa-da, bu ikki shoir o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik to‘g‘risida nima uchundir so‘z yuritmaydi. Bunday hol G.Begdelining «Avhadiy» monografiyasida ham seziladi. Vaholanki, adabiy aloqalar ozarbayjon va o‘zbek adabiyotlari o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik tarixini yanada yoritadi va uning yangi-yangi sahifalarini ochadi. Shuningdek nomachilikda liro va liro-epik xarakterdagi nomalar maydonga kelgan bo‘lib, noma janri mazmun va janr jihatidan takomillashgan.

Adabiyotlar

1. Муборак мактублар. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987. 25-41-96-124-37-бетлар.
2. Орзибеков Р. Шеърий санъатлар таҳлили. – Сам., СамДУ нашри, 2000. 87 бет.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006. 46 – 48 - bet.
4. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. 221 бет.
5. Yusuf B. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. - T.: Sharq, 2010. 420 bet.
6. Mazkur bayoz – to‘plam Britaniya muzeyida A 7914 inventari bilan saqlanadi. Uning fotokopiyasi Rosiya FA va O‘z FA kutubxonasida mavjud. Asar shu bayozning 227 b – 272 a varaqlarida joylashgan.

UDK: 42:494.3

NATIONAL CHARACTER OF ENGLISH PEOPLE THROUGH THE PRISM OF CONCEPTS

L. A. Abdusalamova
Samarkand State Institute of Foreign languages
cool.abdusalamova@mail.ru

Abstract. This article studies the national specificity of phraseological units of the English language and the reflection of culture, world outlook, and specific features of the character and mentality of the English people within their inner form. Based on the analysis of some idioms, a lot of information about the traditions, habits, mode of life, way of thinking that are typical of the English people was expanded, described and delivered.

Keywords: phraseology, linguoculturology, mentality, national character, stereotype, British culture, national coloring, sense of humor, morality, peculiarity.

Национальный характер англичан сквозь призму концептов

Аннотация. В данной статье проанализирована национальная специфика фразеологизмов английского языка и отражение в их глубоком внутреннем значении, культуры, взглядов на мир, специфичные черты характера и менталитета английского народа. На основе анализа нескольких фразеологизмов раскрыты, описаны и переданы сведения о традиции, привычках, быте, образе жизни и образе мышления, характерные для английского народа.

Ключевые слова: фразеология, лингвокультурология, менталитет, национальный характер, стереотип, британская культура, национальный колорит, чувство юмора, нравственность, особенность.

Konsept orqali ingliz xalqining milliy fe`l-atvor xarakteristikasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi frazeologik birliklarning o`ziga xos milliy xususiyatlari va ularning ma`nosida ingliz xalqining madaniyati, dunyoqarashi, mentaliteti, ularning fe`l-atvoridagi xususiyatlarning aks ettirilishi o`rganilgan. Bir necha frazeologik birliklarning tahlili asosida ingliz xalqiga xos turmush tarzi va dunyoqarashi, an`ana, urf-odatlari, kundalik hayotiga oid ma`lumotlar ma`lum qilingan va tavsiflab berilgan.

Kalitso`zlar: frazeologiya, lingvistikmadaniyat, mentalitet, milliy, stereotip, Britaniyamadaniyati, milliyuyg‘unlik, hazil-mutoyibatuyg‘usi, ahloq, odob, xususiyat.

The linguistic research aimed at the study of a language in direct communication with spiritual and practical activity of a man becomes to be a topical issue in modern linguistics. The basic unit of

linguoculturology is acknowledged to be the concept which finds its definition in being multivariate meaningful issue. Concept is special meta-language of culture. Taken in verbal form concepts are key words of this or that language or culture. The components of concepts appear to be settlement or ground of cultural life of different period.

As it is widely known to everybody, national character is not the whole scope of distinctive, specific, inherent features of that nation, but corresponds to peculiar range of universal traits, and it is only possible to speak about relative specificity of the features of national character, nuances of their development.

It is more agreeable to take into consideration the definition of "national character" or "psychological cast of nation" by S.M. Arutyunyan as "peculiar national coloring of feelings and emotions, pattern of thought and actions, steady and national traits of custom and traditions, formed under the influence of conditions of material life, specifications of historical development of particular nation. One of the sources of information about national character is a set of stereotypes, associated with particular nation. The English are characterized by such qualities as having good manners, moderateness, peacefulness, readiness to come to the aid, primness, self-esteem, independence, practicality

Stereotype is defined as "schematic, standardized image of social phenomenon or entity, especially as emotionally colored and possessing of stability" and also represents typical attitude of a person to this or that phenomenon, emerged under the influence of social conditions and prior experience.

For all its schematism and generality, it is very significant to have a stereotyped idea of other nations and cultures for the reason that it helps to reduce culture shock, allows a person make a notion of the whole world, go beyond the scope of narrow social, geographical and political world.

As the main sources confirming the existence of the national character are acknowledged to be:

-national classical literature;

-international anecdotes;

-folklore;

-national language

As the most credible and scientifically acceptable illustration of existence of the national character turns to be a national language. Language both reflects and moulds the character of its bearer; this is the most objective characteristic of national character. Language directly represents not only the whole world itself but also our conceptualization of the world [5].

As we above have mentioned the stereotype of every nation is closely connected with its phraseological unit, with certain image conveyed in it. Within their semantics they reflect a long process of the development of the culture of the certain nation, convey national character, historical and cultural coloring. Undoubtedly, we can get to know many things about mode of life, mentality of the nation based on the inner form of linguistic units. For instance, European stereotypes are clearly visible in the joke as *"Paradise is where cook are French, mechanics are German, policemen are British, lovers are Italian and it is all organized by the Swiss. Hell is where cook are British, policemen are German, lovers are the Swiss, mechanics are French, and it is all organized by Italian"*.

When we spoke about a person's character, we actually mean and comprehend the total behavior of the person in a given environment or in the interpersonal communication. The reason why we feel this person is different from that one is that he has his own unique character. This character is actually a symbol or an identifier that an individual is different from another one.

National character is of great vitality in every nation, mostly it concerns the English people, which vividly show their patriotism, stereotyped, and at the same time mysterious. None of the inhabitants of London cannot give a full answer to the question-"Who is an English man?". As the author of the book "England, England" Julian Barns points "You think being is invasive because you are English". The distinctive features of this nation are the constancy of character and stability. Also, the British are less susceptible to any other influence, because geographically they are quite distant from the rest of the world. In the analysis of British idioms, the opportunity to present such a group as character traits is provided.

Character is a combination of the most persistent individual psychological characteristics of a person, which are always manifested in its activities and social behavior, as well as the system of relations. Thus, this group is divided into the following subgroups:

-The basis of personality (its relation to itself)

-Attitude towards other people

-Attitude to work

-Attitude towards the outside world

Phraseological units form the picture of the informant`s world, for they ingenuously focused on the results of cultural experience of the nation. The meanings of phraseological units are more anthropocentric-

illustrate general features of human nature, than ethnocentric-oriented in particular ethnos, they come forward as the key to the cognition of ethno-cultural and language mentality of the nation.

Mentality is understood as the patterns of thought, set of intellectual skills and spiritual set inherent to a particular individual or social group.

The phraseological fund of the English language is extraordinarily rich. Without touching upon this sphere, one cannot learn the language of this nation and converse with the representative of the British culture not having little stock of frequently used idioms.

The British character is embodied by the Anglo-Saxon practicality, with dreaminess of Celtic people, piratical courage of Vikings and with the discipline of North men.

There are stereotypes that the British are very vain. They are sure that in the life of their country everything is much better than that of others. This feature of the British developed due to the lack of sociability and the increased awareness of their superiority over others.

The first and the most evident feature of this nation is the stability and permanency of the character of people that form it. Curiosity of British people let them be introduced with the best of what the other nations own, yet being the true follower of their traditions: *Every bird likes its own nest; every bullet has its billet.*Being admired by French cuisine, the English man would never copy it. They are very moderate in emotions, both in public and within the narrow family circle [1; 38].

Arrogance is the attitude of the individual to herself, expressed in some British idioms.

Punch above your weight – participate in an event or competition that you think is beyond your capabilities or abilities.

This metaphor went from such a sport as boxing. Competitions in this sport are held between opponents of almost equal weight.

Little tin god is a self-sufficient person.

The following stable expressions reflect such a character trait as English selfishness: *have an ax to grind* - to have personal reasons or interest to do something.The expression originated in the story of Benjamin Franklin and was used first in the United States, especially with reference to politics, but now it is used everywhere. For example: *“I don’t have a political ax to grind "="* I do not have a personal political interest to do this.

However, not all character traits that reflect English idioms have a negative connotation. There is a fairly large group of set expressions that personify courage and bravery.

Bell the cat - take it. Take the risk of joint initiative / enterprise.

Bell the cat hints at a fable in which mice or rats have an idea to hang a bell on the cat's neck, in order to be aware of its approximation in a timely manner, the only difficulty is to find one brave person among them who are ready to perform the task.

heart of oak - manly character

Literally, the heart (heart) - solid central part of the oak, traditionally used for covering ships. The phrase was popularized by the words of an 18th century song: “The heart of the oak is our ships, the heart of the oak is our people.”

The main features of the British character are considered to be independence, education, dignity, honesty and selflessness.

For example, Mr Clean means an honest and incorruptible politician. And the expression *above board*, which also means “fair,” came from the terminology of gambling, which meant fair play (with the players holding their hands above the table, called board).

Irresponsibility, loquacity, light-mindedness are considered to be a big offence in England within all periods. It can be seen in such proverbs as *“Tattler is worse than a thief, Good words and no deeds, Good words without deeds are rushes and reeds, Gossip in gandly in go hand in hand”[4].*

It is believed that the British have a very developed sense of responsibility, this can be said about the abundance of phraseological units that characterize this trait.

Let George do it - let someone else do their job or take responsibility.

Hold the fort - hold responsibility for the situation while someone is absent.

Carry the can - informal to take responsibility for a mistake or misconduct.

In relation to other people, some character traits can also be distinguished. One of them is anger. And in the British version of the English language, this feature is characterized by various idioms.

Consider some of them:

rattle someone's cage - informally forcing someone to get angry or annoyed, usually consciously (literally "shaking someone's cell"). This phrase describes a situation in which the viewer annoys a dangerous animal in a cage.

go non-linear – informal- to be very excited or angry, especially when it comes to a particular obsession.

This expression could arise as a humorous pun to the words “go off the rails” (losing self-control)

To any case an Englishman fits with great care. This criterion shows his interaction with the outside world, as well as his attitude to work, which can be traced through English phraseology.

from soda to hock - outdated which means from beginning to end.

In the card game “Faro”, soda is the open top card at the beginning of the game, and hock is the last card left in the box after everyone else has been dealt.

Along with the previous criterion reflecting the attitude to work, we can distinguish such a character trait of the British as laziness. Based on it, they negatively treat the laziness of people and consider is as the big obstacle to wisdom and successful life and -*“Idleness is the mother of all evil”, “Idleness make the wit rust”, “Idle folks need no excuses”, “The devil finds work for idle hands to do”*. Besides, this negative attitude passes to beggars; they somehow semantically equalize idle people with beggars as in the idioms *“lazy beggar”, “lazy dog”* and believe them to be very ungrateful and uncontrollable- *“Set a beggar on the horseback and he will ride to the devil”*.

However, in the British English, only a few expressions were found concerning this subject. The following expressions mean avoiding duties or affairs: a bone in your leg, swing the lead, dodge the column. The last expression literally means “to evade a column”, in which column (column) is a military term that refers to the usual formation of troops for the march.

In the English language there is the special term “privacy” which shows the endeavor of the English to keep a strict distance with respect to other surrounding people and never interfere in someone`s private life and give some advice to him. They prefer to keep distance in communicating with others. If in the centre of London someone gets acquainted with you, evidently he is not an Englishman, as true Englishman will not even think of being carried away by a conversation with the stranger. Prudence, self-command, self-respect and practicality are turned to be the most significant features of national character of the English people being evinced in their phraseology as*: in private; private eye; privacy of indifference; to violate smb'sprivacy; invasion of one's privacy; in the privacy of one's thoughts.*The only thing that irritates and drives the Englishman to distraction is the boisterous and defiant behavior of other people [3].

People in western countries, especially in England and America live by the principle *“time is money”*, and for them punctuality stands for an essential feature. They are influenced by time less than others. They appreciate the time and emphasize on its fugacity and unsteadiness. The following phraseological units convey this trait of British people as *“in due time, strike while the iron is hot, make hay while the sun shines, on the dot, on the tick, “in the morning mountains, in the evening fountains”, “First come, first served”, “One today is worth two tomorrows”, “The early bird catches the worm”, “One cannot put back the clock” and others”*. It is also explained by complaisance, politeness, quickness laid on their mentality*: smb is running for all he is worth; show a clean pair of heels; in the twinkling of an eye; at the drop of a hat.*

Concepts “time” and “money” are considered as one of most important and appreciable issues in the life of an Englishman. They get accustomed to have everything planned ahead, and mostly negatively think of unexpectedness as the visit of uninvited guests that knock them out of their graphic – *“out of the blue”, “out of a clear blue sky”, “out of nowhere”, “like a bolt from the blue” [3].*

The humor is also considered to be one of the important features of national character of the English people. They are very proud of it and morbidly react to negative attitude of foreigners to their sense of humor. The peculiarities of the sense of humor of the English are known to everyone and called as delicate humor because of the reason that it is very hard for foreigner to perceive the sense of English jokes, especially when they don`t know the language well enough: *the elephant jokes, dry sense of humour, banana skin sense of humour, shaggy-dog stories.*

Speaking about the English mentality, it is also necessary to note about the concepts of home, family, relationship between parents and children, distribution of the roles in the family. The home is appealed to be something holy, where you can hide in from the hardship of the outer world, find a place to stay alone with your own thoughts, which obviously finds its reflection in the phraseological units as *“My home is my castle”, “Every bird likes it own nest”, “There is no place like home, “East or west, home is the best”*.

In the deep meaning of the phraseological units one can see the negative attitude of the English towards insincerity-*Many kiss the child for the nurse`s sake*, towards stinginess-*As good beg of a naked man as a miser*, towards the inequality in the society too -*One man may steal a horse while another may*

not look over a hedge. Boasting and conceit are also subjected to criticism by the English people: *He who hesitates is lost, Pride goes before a fall.*

In the sphere of art an Englishman prefers grandiosity and originality. Most of the English national peculiarities are connected with the system of upbringing. It is built according to the principle "Don`t spoil!". From their childhood they used to sleep in cold bedrooms, walk without headgear under the pouring rain, consider the punishments as the normal issue of the life, see the parents strictly according to the schedule and in addition to this, the richer and more outstanding the parents are, the stricter the child is brought up.

The behavior of the English in some situations, their attitude towards this behavior, reaction to some unfavorable conditions, trouble are illustrated in the deep meaning of the following phraseological units:

a hard nut- a person or thing that is difficult to understand or influence;

virtue is its own reward

a man can die but once

the race is to the swift

actions speak louder than words

Based on the analysis of the selected phraseological units, we were able to highlight the national features of the British. British people can be characterized as follows: they are very responsible, they do their work carefully and are hardworking, despite this, they are able to relax, while correctly allocating such important resources as time and money. The main important features of the British character are considered to be independence, education, dignity, honesty and selflessness. A typical Englishman is vain and sometimes selfish, which is probably due to their isolation due to island lifestyle and difficult climatic conditions. The Englishman everywhere feels "at home", and wherever he comes, he will carry his traditions, customs and way of life with him everywhere.

References

1. Добровольский Д. О. Национально-культурная специфика во фразеологии/ Д.О. Добровольский // Вопросы языкознания. 1997. №6. С. 37-48
2. Гуревич П.С. Культурология. М.: Знание, 1996. – 288 с.
3. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. М.: Гос. Изд-во иностранных и национальных словарей, 1956. – 1455 с.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология / В.А. Маслова. – М.: Академия, 2004. – 202 с.
5. Телия В. Н. Русская фразология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М: Школа"Яз.рус. Культуры", 1996. – 284 с.

UDK: 37:004.9

TALABALARNI AXBOROT XAVFSIZLIGIGA O‘RGATISHDA TARMOQ O‘QUV-AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH

M. X. Abduraxmonov
Samarqand davlat universiteti
muxtorabduraxmonov85@mail.ru

Annotatsiya. Axborot jamiyatining tezkor shakllanishi va inson hayotining barcha jabhalarida axborot tahdidlarining muttasil o‘sib borayotgan hozirgi sharoitida inson hayoti va umuman jamiyat xavfsizligini, shu jumladan ularning axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ko‘p bosqichli ma’rifiy ishlar alohida ahamiyatga ega.

Tayanch so‘zlar: ma’lumotlar, tahdidlar, xavfsizlik, jamiyat, hayot, manbalar.

Обучение студентов информационной безопасности с использованием сетевых учебно-информационных ресурсов

Аннотация. В современных условиях стремительного формирования информационного общества и сопутствующего этому росту информационных угроз во всех сферах жизнедеятельности человека особую актуальность приобретает многоуровневая образовательная работа по обеспечению безопасности жизнедеятельности человека и общества в целом, в том числе их информационной безопасности.

Ключевые слова: информационные, угрозы, обеспечения, безопасность, общества, жизнедеятельность, ресурсы.

Teaching students information security using net educational-information resources

Abstract. In modern conditions of the rapid formation of the information society and the concomitant growth of information threats in all spheres of human life, the multi-level educational work on ensuring the safety of human life and society as a whole, including their information security, is of particular relevance.

Keywords: information, threats, security, security, society, life, resources.

Kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya tarmoq resurslaridan foydalanuvchi o‘qituvchiga muntazam yangi texnik va axborot-kommunikatsiya bilimlarni o‘zlashtirishga, ularni moslashtirishga, nafaqat ona tilida, balki muloqotning “virtual tili”da assotsiativ tafakkuri orqali bilimlarni o‘zlashtirish asosida talabaning tafakkurini rivojlantirishga to‘g‘ri keladi, ayniqsa bu Internetda ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi tufayli yanada dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu va shunga o‘xshash qator muammolar psixolingvistika bo‘yicha tadqiqotlarda o‘qitishni kompyuter texnologiyalari yordamida yangicha tashkil etishning ko‘pgina psixologik-pedagogik muammolari ilgari surilgan va hal qilingan. Eng muhim muammolardan biri har bir aniq kompyuter o‘quv qo‘llanmasini psixologik-pedagogik asoslash zarurligi hisoblanadi. Bu muammo dasturchilar uchun ham, fan o‘qituvchilari uchun ham dolzarb hisoblanadi, aynan fan o‘qituvchisi dasturchi oldiga bunday kurs bilan ishlash natijasida talaba egallashi lozim bo‘lgan konkret bilim, ko‘nikma va malakalarni nazarda tutgan holda aniq vazifalarni qo‘yishi lozim.

Shuningdek, o‘qituvchining o‘ziga ham talabalar oldiga asosiy maqsad va talablarni shunday aniq qo‘yishi lozimki, o‘qitishning turli bosqichlarida kompyuter tayanch vosita rolini o‘ynashi bilan birga mazmuniy yordamchi vosita bo‘ladigan haqiqiy samarali ta’lim kurslarini yaratishga imkon beradigan bo‘lsin. Mazkur maqolada qaralgan masalalar mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak, bu talablar quyidagilardan iboratdir:

1. Foydalanish ko‘nikmalarini avtomatizm darajasigacha yetkazish, ya’ni malaka darajasiga yetkazish. Buning uchun kompetentlikni aniqlash va ularni o‘qitish jarayonida erishishni ta’minlash (virtual muloqotdagi Internetdan axborotlarni olish, tushunish va qayta ishlash uchun kommunikativ birliklar va konstruksiyalar qo‘llanilishligining chastotalik tamoyili).
2. Talabaga o‘zlashtirgan bilimlarini belgilangan qoida yoki ko‘rsatmalarga qat’iy mos tarzda amaliyotda foydalanishga o‘rgatish. Bu ta’lim jarayonini algoritmlash masalasi, ya’ni mos standartlashgan sharoitlarda konkret amallarni shakllantirish masalasini hal qilishni talab etadi (mustaqil va auditoriya ishida algoritmlashtirish tamoyili).
3. Axborot xavfsizligiga o‘qitish va o‘rgatish jarayonida imkoni boricha ko‘proq axborot qabul

qilish kanallarini qamrab olish. Amaliyot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quv qo‘llanmada, kompyuter yoki videodasturda ma’lumotni bayon qilish qanchalik ko‘rgazmali va xilma-xil bo‘lsa, shuncha ma’lumotni eslab qolish tez hamda mustahkam bo‘ladi (o‘qitishni multimediyalilik tamoyili).

4. Talaba olgan bilimlarini axborot xavfsizligi va Internet muloqotidagi tabiiy til nuqtayi nazaridan bayon qila olishi va tahlil eta olishi lozim.

5. Talabani nafaqat muloqotning virtual tilida axborot xavfsizligi bo‘yicha asosiy ma’lumotlar bilan, balki bir-biriga yaqin bo‘lgan sohalarda ishlashga tayyorlash kerak bo‘ladi (axborot sohalarini mavzulashtirish va uni konkretlashtirish). Bu yerda ma’lumotnomalar va boshqa yordamchi manbalardan foydalanish o‘rinli bo‘lishi nazarda tutiladi.

Elektron ta’lim, xususan, zamonaviy axborot texnologiyalar potensialidan foydalanishga asoslangan ochiq va masofaviy ta’limning tez sur’atlar bilan rivojlanishi, boshlang‘ich tajriba to‘plash, elektron kutubxonalar bosqichidan asta-sekinlik bilan elektron pedagogikaga e’tibor berilmoqda.

Hozirgi vaqtda obyektiv mavjudlik sifatida elektron ta’limni o‘rganish, qayta ishlash, tatbiq etish va foydalanishga yo‘naltirilgan uslubiy, nazariy ishlarning davri amalga oshmoqda. Bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra, quyidagilarni aniq farqlash maqsadga muvofiqdir:

1. Masofaviy ta’lim (MT) – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosobatni masofadan turib, ta’lim vositalari va ularni yetkazib berish kanallari orqali ta’minlab beruvchi ta’lim hisoblanib, o‘quv jarayoniga xos bo‘lgan elementlarni: maqsad, mazmun, metod va shakllarni amalga oshirilishini ta’minlaydi. Bu yerda eng muhimi o‘qituvchi bilan doimiy yuzma-yuz muloqotsiz bilim olishdir.

2. Kompyuterli ta’lim – kompyuter texnikasi, pedagogik dasturiy vositalar hamda kompyuter telekommunikatsiya vositalaridan foydalaniladigan maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim. Bu vaziyatda eng muhim talab turli xil kompyuter uskunalari bilan ishlash ko‘nikma va malakasini erkin egallash hisoblanadi.

3. Elektron ta’lim (ET) – o‘qitish yoki o‘qish, o‘quv axborotlarni yetkazish yoki u bilan o‘zaro almashish telekommunikatsiya texnikalari va aloqa kanallari (telefon, radio, televidenie, kino, faksimil aloqalar va boshqalar)dan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bu yerda eng muhimi axborotni topish, qayta ishlash, uni o‘quv materiali sifatida o‘zlashtirish haqidagi bilim va ko‘nikma hisoblanadi.

Umuman olganda, didaktik tizimlarga bevosita o‘rgatish va o‘qitish jarayonini amalga oshirishga taalluqli va quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi (ular ham o‘z navbatida yetarlicha murakkab qism tizimlar ham hisoblanadi) [4]: maqsad, mazmun, usullar, vositalar, shakllar, ta’lim beruvchilar (o‘qituvchilar), ta’lim oluvchilar (talabalar, tinglovchilar).

Tadqiqot ishimizda ta’lim maqsadini ixtisos modeliga mos ravishda shakllanadigan va rivojlanadigan bilimlar, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar hamda shaxsiy tajriba, qobiliyat va sifatlar tizimi deb tushunamiz.

O‘quv maqsadi – o‘quv jarayonini tashkil qilish va uning sifatini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim mazmuni – bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, tajriba va atrof-muhitga bo‘lgan hissiy-qadriyatli korporativ ijtimoiy buyurtmaga mos pedagogik moslashtirilgan munosabatlar tizimidir.

Axborot xavfsizligi kursi bo‘yicha elektron ta’limga nisbatan biz o‘qitish usullari deb pedagogik dasturiy vositalar va telekommunikatsiyalardan foydalanish tufayli ta’lim beruvchi tomonidan bilvosita boshqariladigan ta’lim oluvchining (ta’lim oluvchilar guruhining) ketma-ket o‘zaro bog‘liq amaliy tizimini tushunamiz.

Fikrimizcha, faqat elektron ta’lim sharoitlaridagina umumdidaktik usullari to‘liq tarzda amalga oshiriladi [3, 24-67-b.]:

- axborot-retseptiv;
- reproduktiv;
- muammoli, evristik;
- tadqiqotli.

Yuqorida sanab o‘tilgan usullardan dastlabki ikkitasi passiv, chunki ular ta’lim oluvchidan axborotni faol qayta ishlash va uning ustida refleksiya o‘tqazishni talab etmaydi. Bu usullarni qo‘llaganda o‘qitish sifati yo axborotni eslab qolish, yoki uni qayta takrorlash darajasi bilan aniqlanadi.

Muammoli, evristik va tadqiqot usullari ta’lim oluvchidan bilimlarni faol ijodiy qayta ishlashini, refleksiyani hamda shaxsiy tajribasini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Bu usullarning har biri o‘qitishning o‘ziga xos maqsadlari, bilimlarni o‘zlashtirish usullari, ta’lim jarayoni subyekt va obyektlarning faoliyati me’yorlari va o‘zaro hamkorlik tavsifi bilan aniqlanadi. Elektron ta’lim usullarini

tanlashga tashkiliy faoliyatning o‘ziga xosligi, tashkiliy tuzilma xususiyatlari va o‘quv muassasasi ta’lim siyosati, hamda u yoki bu darajada tashkiliy rivojlanish strategiyasi ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim vositalari – o‘quv axborot yoki o‘quv-bilish faoliyati vositasini tashuvchilari sifatida ta’lim maqsadlari uchun maxsus foydalaniladigan sun’iy yaratilgan yoki tabiiy obyektlardir [5].

Kompyuter elektron ta’limining asosiy vositalari bizning pedagogik tajribamizda quyidagilar hisoblanadi:



1-rasm. *Elektron ta’lim vositalarining ifodalanishi*

Ta’limning umumiy ta’limiy shakllari (bevosita yoki bilvosita) uning konkret tashkiliy shakllari: ma’ruza, seminar, konsultatsiya, referat, keyslarning individual yoki jamoaviy yechimi va h.k. larning asosida yotadi.

Elektron ta’lim sharoitida an’anaviy ta’limga qaraganda pedagogik jarayonidagi ta’lim beruvchi subyektlarining roli jiddiy o‘zgaradi. Elektron ta’limga mos tarzda ta’lim beruvchilarni ikki toifaga ajratish maqsadga muvofiqdir: pedagogik dizaynerlar va tyutorlar [1].

Umuman olganda muallif - dizayner, tyutor bir shaxs bo‘lishi ham mumkin, aynan shu holga tadqiqot ishimizda alohida e’tibor qaratilgan. Biroq, jarayonning va kompyuter ta’limi vositalarining murakkablashishi oqibatida ET vositalarining muallifi ham, tyutori va pedagogik dizayneri ham bir shaxs bo‘lish holati kamayib boryapti, ularning o‘rniga ishlab chiqaruvchi yaxlit jamoalar paydo bo‘lmoqda, ularning orasida kompyuter dizaynerlari va dasturchilari o‘zining alohida o‘rniga ega.

Adabiyotlar

1. Кальнин С.М., Румянцев И.А., Соломин В.П., Степанов С.А. Информационное проектирование учебного процесса: Теория и практика анализа и синтеза педагогических макросистем НИТО. - СПб.: Образование, 1997.

2. Карлащук В.И. Обучающие программы. – М.: Солон-Р, 2001. - 528 с.

3. Никитина Н.Н., Железнякова О.М., Петухов М.А. Основы профессионально-педагогической деятельности. - М.: Мастерство, 2002. – 288 с.

4. Суворинов А.В., Осин А.В. Мультимедиа – среда образования в эпохе глобальных компьютерных технологий. – М.: «Проблемы информатизации высшей школы». № 1-2(11-12), 1998, с. 105-110

5. Shadiyev R.D., Turdiyev Sh.R. On questions of particularities of teaching mathematics in technical higher education institutions (HEI). Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. № 9–10.Vienna , 2014.pp 141-144.

UDK: 37:008

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASH PRINSIPLARI

A. A. Raximov
Samarqamd davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlash tamoyillari to‘g‘risida ma’lumot berilib, uni talaba shaxsini rivojlantirishdagi roli izohlangan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni tashkil qilishning ayrim yo‘nalishlari izohlangan.

Kalit so‘zlar: ta’lim islohoti, shaxs, ta’lim, tarbiya, rivojlanish, ma’lumot, demokratik jamiyat, ma’naviyat, ma’rifat, faoliyat, prinsip.

Принципов подготовки будущих учителей к духовно-просветительской деятельности

Аннотация. В данной статье дается информация о подготовке учителей будущего к духовной деятельности. Отдельные направления организации духовной деятельности в высших учебных заведениях определены также в статье.

Ключевые слова: развитие образования, личность, воспитание, воспитание, развитие, информация, социал-демократия, духовность, деятельность, принципы.

Preparing teachers of future for the spiritual activity

Abstract. In this article the information about preparing teachers of future for the spiritual activity is given. Some branches of organizing spiritual activity in high education organizations are defined also in the article.

Keywords: developmeut of education, person, education, up-bringing, developmeut, information, social democracy, spirituality, activity, principles.

Respublikamizda ro‘y berayotgan ta’lim islohoti sharoitida barkamol avlod o‘z Vataniga, xalqiga, ona eriga, millatiga, ota - onasiga sodiq bo‘lgan har tomonlama kamol topgan insonlarni tarbiyalash eng muxim axamiyat kasb etadi. Yangilangan davlat tizimida tarbiya mazmuni maksad va vazifalari xam yangilanadi. Bu yangilanish avvalo tarbiyani insonparvarlik va demokratiya prinsipi asosida qurilishi bilan farqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek “ta’lim-tarbiya – har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masaladir. Shuning uchun mamlakatimizda bu masalaga davlat miqyosida ulkan e’tibor qaratilmoqda”. Darhaqiqat bugun ta’lim va tarbiya jarayonini sifatli tashkil qilish har qachongidan ham dolzarb bo‘lib turibdi.

Tarbiyani insonparvarlashtirish va demokratiyalash prinsipi talabalar, o‘qituvchi - tarbiyachilar ijodiy faollik va mustaqilligini rivojlantirishi ularni turli xil ijtimoiy foydali ishlarni amalga oshirishda hamkorligini ta’minlash uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Talaba-yoshlarda ijodiy faollik, aqliy zakovat, axloqiy salohiyat, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni keng qamrovli ijtimoiy -foydali ishlarga faol ishtirok etishlarini shakllantirish uchun, oliy ta’lim muassasalarida olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning alohida o‘rni bor.

Shunga ko‘ra biz ushbu maqolada ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyat, uni rejalashtirish, tashkil etish prinsiplari, shakllari xususida fikr yuritamiz.

O‘z yurtiga, vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab avaylash va yanada takomillashtirish farzandlarimizning ozod va demokratik O‘zbekistonning munosib o‘g‘il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma’naviyat soxasidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishini tashkil etishi darkor. Shunga asosan ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni aniq rejalashtirish, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya tizimini yaratish, uning shakllari, metodlarini yosh avlod ma’naviy-ma’rifiy dunyokarashini shakllantirishga qaratishni taqozo qiladi. Har qanday tarbiya, tadbir, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat yig‘indisi ma’lum qoidalar, talablarga rioya qilinganda, yoinki, ularga asoslangan taqdirdagina maqsadli bo‘ladi. Bu qoidalar, talablar, asoslar pedagogika fanida «prinsiplar» deb nomlanadi.

Darxakikat, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat ham ma’lum prinsiplarga amal qiladi. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat prinsiplari - bu ta’lim muassasalarida barkamol avlodni tarbiyalash maksadida tashkil etiladigan ma’rifiy tadbirlarning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkiliy shakllariga, tarbiya jarayoni

ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlariga ko‘yiladigan asosiy talablarga amal qilishni ifodalaydigan koidalardir.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat prinsiplari o‘qituvchi-tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi talablar, qoidalar yig‘indisi hisoblanib, u barkamol insonni tarbiyalashning vazifalari bilan belgilanadi va umuminsoniy tarbiya to‘g‘risidagi ta’limotga hamda ilmiy pedagogik ma’lumot erishgan yutuqlarga asoslanib, uning qonuniyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ma’naviy-ma’rifiy faoliyat jarayonida bu prinsiplarga rioya qilish uning samaradorligini oshiradi, sifat ko‘rsatkichini rivojlantiradi.

Hozirgi zamon jahon va milliy pedagogika nazariyalariga asoslanib, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat prinsiplarini quyidagicha guruhlash mumkin:

- ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning ijtimoiy yo‘nalganlik prinsipi;
- ixtiyoriylik, mustaqillik, o‘yin va romantika prinsipi;
- ishda ijodkorlik, tashabbuskorlik, yangilikka intilish nuqtai nazaridan yondashish pritsipi;

ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning rejaliligi va tadbirlarning talaba-yoshlarlar kuchiga mos bo‘lishini ta’minlash prinsipi;

ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning muntazamliligi, davomiyligi, uzviyligi va ta’sirchanligi prinsipi;

ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini xisobga olish prinsipi.

Endi mazkur ma’naviy-ma’rifiy faoliyat prinsiplarini tavsiflashga o‘tamiz:

1. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning ijtimoiy yo‘nalganligi prinsipi. Bu prinsip ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda ijtimoiy taraqqiyot, mamlakatning g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy rivojidan kelib chiqqan holda, darsdan va auditoriyadan tashqari tashkil qilinadigan ishlar mazmunini, to‘garak, klublar, birlashmalar faoliyatini mamlakat taraqqiyoti bilan bog‘lanishi, shuningdek, fan, texnika, madaniyat, san’at yutuqlariga asoslanishni nazarda tutadi.

2. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga ishtirok etishning ixtiyoriyligi prinsipi.

Bu prinsip ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat fakultativlar, to‘garaklar, turli seksiyalar, klublar va x.k. larga ishtirok etadigan talabalarning qiziqishi, istak-xohishi, qobiliyatiga qarab tanlash va bunda ularning ixtiyoriy bo‘lishini ta’minlashga qaratiladi. Ixtiyoriylik prinsipi, talabalar ixtiyoriyligini inobatga olib, ularni toliqtirmaslik va zo‘riqtirmaslik uchun, ta’lim muassasalarida tashkil qilinadigan darsdan tashqari ishlarning ikkitadan ortiq bo‘lmasligini inobatga olishni ham nazarda tutadi.

3. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatda talabalar-yoshlar mustaqilligi, tashabbuskorligi, ijodkorligini hisobga olish prinsipi.

Bu prinsip talabalarning qiziqishlari, tashabbuslari asosida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish lozimligini nazarda tutadi. Har qanday tadbir, avvalo talabalarning mustaqilligiga asoslanishi, o‘qituvchi-tarbiyachi ularni ruxlantirishi, faoliyatini rivojlantirishi lozim. Shunda talaba-yoshlarda tashabbuskorlik, qiziqishlar, ijodiy qobiliyat rivojlanadi. Har qanday tadbirni ular yuqori ko‘tarinki ruhda qiziqish bilan, tashabbus bilan mustaqil ijro etishga o‘rganadilar. Ularda o‘z-o‘zini boshqarish his-tuyg‘usi taraqqiy etadi.

4. Tarbiyaviy tadbirlarning o‘yin faoliyati, romantika shaklida bo‘lish prinsipi. Bu prinsipni asosan kichik va o‘rta maktab o‘quvchilariga qo‘llash maqsadga muvofiq. Chunki kichik va o‘rta maktab yoshi o‘quvchilari asosan o‘yin faoliyatiga ko‘proq ehtiyoj sezadilar. Ammo bu ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat tarbiyaning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari, tashkiliy shakllariga, tarbiya jarayonining ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlariga ko‘yiladigan asosiy talablarni ifodalaydigan qoidalarga qaratilgandir.

5. Ma’naviy - ma’rifiy faoliyatda talabalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish prinsipi. Ushbu prinsipda tadbirlarning vazifalari, mazmuni talaba-yoshlarning yosh va tayyorgarlik darajalariga mos bo‘lib, ular sog‘ligiga, dunyoqarashiga ma’naviy-axloqiy salohiyatiga aqliy zakovatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishdan yiroq bo‘lishi lozim.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning kayd etilgan prinsiplariga asoslanilsa, ularning yaxlitligi, o‘zaro hamkorligi, bir-birini to‘ldirilishiga e’tibor qaratilib, ulardan samarali foydalanilsa, talabalarning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlanuvchanlik faoliyatlari maqsadli yo‘lga ko‘yilishi, barkamol insonning to‘liq shaxs bo‘lib shakllanishi kafolatlanadi.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni maqsadli tashkil qilish, yo‘naltirish uning mazmunini aniq belgilash va rivojlantirish bilan belgilashdir. Agar mazmun va reja nomutanosibligi tashkil etilsa, ko‘zlangan maqsad amalga oshmaydi. Shunga ko‘ra inson noto‘g‘ri tarbiyalanadi, bundan jamiyat ham, insonlar ham, odamning o‘zi ham aziyat chekadi. Demak mazmunni aniq belgilash va uni to‘g‘ri rejalashtirish darkor. Aks holda buyuk mutafakkir Bedil, aytganidek, agar me’mor dastlabki g‘ishtni to‘g‘ri qo‘ymasa, devor yulduzlarga etsa ham qiyshiq bo‘lib qolaveradi. Bedilning bu fikri ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga daxldordir.

Modomiki shunday ekan, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat mazmunini aniq tasavvur qilish, uning yo'nalishlarini to'g'ri belgilash va rejalashtirish lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatini anglatadigan, uni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan ichki olamini boyitadigan, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyokarashini, mafkuraviy saloxiyatini mustaxkamlaydigan, umuminsoniy qadriyatlarni bilish, targ'ib qilish, yoxud muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq aqliy zakovati va ma'naviy-axloqiy salohiyatini tarkib toptirish, rivojlantirish jarayonidir. Shunga ko'ra jamiyatni, ijtimoiy-siyosiy, iktisodiy-madaniy rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha mazmunini belgilash va rejalashtirish talabga muvofiqdir.

I. Tashkiliy-tarbiyaviy ishlar

II. Mafkuraviy (G'oyaviy-siyosiy) tarbiya talabalar ijtimoiy faolligi va o'qishga munosabatini kuchaytirish.

III. Ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, bilish faolligini oshirish.

IV. Umuminsoniy, milliy axloq va xulk madaniyatini tarbiyalash.

V. Go'zallik, nafosat va badiiy tarbiya.

VI. Mehnatsevarlik va mehnat ahliga muhabbat tarbiyasi.

VII. Iqtisodiy va ekologik tarbiya hamda tabiatni muhofaza qilish

VIII. YOshlarning huquqiy bilimdonligini oshirish.

IX. Sog'lomlashtirish va talabalar jismoniy barkamolligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

X. O'qituvchi-tarbiyachilar va OTMning ishchi-xodimlari bilan olib boriladigan ma'naviy - ma'rifiy hamda mafkuraviy ishlar.

XI. Ota-onalar va mahalla bilan ishlash.

XII. OTM dagi jamoat tashkilotlari (Yoshlar ittifoqi, Kasaba uyushma, xotin-qizlar qo'mitasi) bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, oliy ta'lim muassasalarida barcha fanlarni o'kitish jarayonida talabalarning ma'naviy-ma'rifiy madaniyatini oshirishga va darsdan tashqari olib boriladigan ishlarga qaratilmog'i lozim. Bunda har bir talaba «ma'naviyat», «madaniyat» tushunchalarining tub ma'nosini anglab olishlari, milliy ma'naviyatimiz sarchashmalari, manbalaridan xabardor bo'lishlari, bu manbalardan mustaqil erkin ilm olish, o'rganish malakalariga ega bo'lishlari lozim. Bizningcha, oliy ta'lim muassasalarida tashkil qilinadigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat yo'nalishlari quyidagicha qamrab olinsa maqsadga muvofiqdir:

I-yo'nalish: - mustakillik, bilimlar bayramini o'tkazish, yubiley sanalarga doir bayramlar, ustozlar va murabbiylar kuni, Konstitutsiya kuni, Vatan himoyachilari kuni, diniy bayramlar («Ramazon» va «Qurbon» hayitlari), Hosil bayrami, Navro'z bayrami, Xotira va qadrlash kunini nishonlash, tarixiy obidalarga, respublika ziyoratgoxlariga ekskursiyalar uyushtirish, yil murabbiysi kabi ko'rik tanlovlarni o'tkazish bo'yicha tadbirlarni o'tkazish rejalashtiriladi.

II-yo'nalish: - mafkuraviy tarbiya talabalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olib, mamlakatimizning ichki va tashki siyosatiga doir ma'lumotlarni o'rganish, Prizidentimiz asarlarini o'qib o'rganish, Oliy majlis qarorlari, ma'lumotlari bilan tanishish, davlatimiz ramzlari mohiyatini o'rganish, davlat arboblarining faoliyatlari bilan tanishish kabi masalalar muhokamaga qo'yiladi.

III-yo'nalish: - aqliy mehnat madaniyati, bilish faolligi va o'qishga ongli munosabat, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash. "O'qishni o'rgan", "Mening qiziqarli mashg'ulotim", "Mening qiziqishlarim", "Inson va texnikaviy dunyo", "Mashhur odamlar hayotidan", "Mening orzu va qiziqishlarim", "Men bilgan va bilmagan dunyo", "Fan taraqqiyoti uchun" kabi mavzularda suhbatlar, munozaralar, ilmiy amaliy anjumanlar o'tkazish, «O'yla, izla, top», «Quvnoqlar va zukkolar» o'yinlarini tashkil etish va h.k.

IV-yo'nalish: - umuminsoniy axloq asoslarini tashkil etgan Islom dinida ta'lim-tarbiya masalalari, allomalarimiz ta'limotini o'rganish, "Odob-axloq saboqlari", "Ma'naviyat va hayot", "Hayotva turmush odobi" kabi mavzularda davra suhbatlari tashkil etish,"Qizlar iffati", "Yigitlik g'ururi", "Ayol madaniyati" mavzularida baxsmunozara, so'zlashish, kiyinish, muomala odobi bo'yicha suhbatlar, kechalar, anjumanlar o'tkazish.

V-yo'nalish: - talabalar va professor-o'qituvchilar jamoasi estetik madaniyatini rivojlantirish maqsadida taniqli san'atkorlar, haqida ma'lumot berish, uchrashuvlar tashkil kilish, "Musiqa mening hayotim", "So'z qalbni engar, kiyim husnni» mavzularida suxbat, "Jahon ichra - jahonim - Buxoroi SHarifim", "Men nechun sevaman, O'zbekistonni" nomli stendlar chiqarish, ijodkor, shoirlar, yozuvchilar,

kompozitorlar, aktyorlar, rejissyorlar bilan uchrashuvlar tashkil kilish, kitobxonlar konferensiyalarini uyushtirish: badiiy ijod to‘garaklarini tashkil kilish, ekskursiyalarga borish, odob go‘zalligi, xulq madaniyati, did va xulq qoidalari ko‘rik tanlovlarini uyushtirish.

VI-yo‘nalish: - mehnat ilg‘orlari, kahramonlari, faxriylari bilan uchrashuvlar uyushtirish: ijtimoiy-foydali mehnat shanbaliklari, yakshanbaliklarga ishtirok etish: texnik ijodiy to‘garaklarga, klublarga, remont - qurilish otryadlari ishiga katnashish: “Mehnatning qadriga et”, “Kasb va mehnat”, “Kasbim-faxrim” stendlarini chiqarish: kasblar, mehnat qaxramonlari vitrinalari, “SHahrimiz mustaqillik yillarida” fotomontajini chiqarish va h.k.

VII-yo‘nalish: - iqtisodiy tarbiya va tabiatni muhofaza qilish: iqtisodiy bilim, tejamkorlik to‘g‘risida ma’lumotlarini berib borish: o‘quv xonasi jihozlarini darslik, o‘quv qo‘llanmalarini asrash to‘g‘risida suhbatlar o‘tkazish: “Iqtisod va maorif”, “Suv obi–hayot” stendlarini tashkil kilish: iqtisodchilar, hisobchilar, bank xodimlari bilan uchrashuvlar, savol – javob kechalarini tashkil qilish.

VIII-yo‘nalish: - talaba-yoshlarning huquqiy bilimdonligini oshirish bo‘yicha: talaba-yoshlarda yuksak fuqarolik sifatlarini tarbiyalash, mustaqil Respublika konstitutsiyasi, qonunlariga hurmat his-tuyg‘ularini o‘stirish: milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat, diniy ekstremizm va fundamentalizmga murosasiz bo‘lishni shakllantirish: xalq deputatlari, huquqni himoya qilish organlari xodimlari bilan suhbat, uchrashuv, savol-javob kechalarini uyushtirish: “O‘z uyingni o‘zing asra”, “Militsiya - mening qo‘riqchim”, “Huquqiy onglilik - davr talabi” ko‘rgazmali stendlar tashkil qilish: Yo‘l harakati qoidalari, “Yosh huquqshunos” to‘garagini tashkil etish: “Siz qonunni bilasizmi?” ko‘rik tanlovini o‘tkazish.

IX-yo‘nalish: - sog‘lomlashtirish va talabalar jismoniy barkamolligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish. O‘quv muassasalarida ertalabki sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini tashkil qilish: jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat darslari, to‘garaklarini faoliyatini takomillashtirib borish: Talaba-yoshlar harakat organlarini chiniqtirishga e’tiborni kuchaytirish: sport seksiyalarini tashkil qilish: o‘quv yilida o‘tkaziladigan sport o‘yinlari, musobaqalari jadvallarini ishlab chiqish: “Kichik universiada”, “Olimpiada rezervlari” kabi sport o‘yinlarini muntazam o‘tkazish, sog‘lom turmush tarzi va uni faol amalga oshishini keng targ‘ib qilish: “Sog‘lom tanda sog‘ aql” ko‘rik tanlovini o‘tkazish.

X-yo‘nalish: - o‘qituvchi-tarbiyachilar va talaba-yoshlar o‘rtasida olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat. “Ma’naviyat - millat gultoji”, “Islom ma’naviyat mash’ali”, “Hadis ilmi - hayot ilmi”, “Ma’naviyatimiz darg‘alari” mavzularida suhbatlar, kechalar uyushtirish, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”, “Mehnat qonunlari”, “Oila kodeksi”, “Jinoyat kodeksi”, “Ta’lim to‘g‘risida qonun”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi qonun va me’yoriy hujjatlarni o‘rganish soatlarini o‘tkazish, “O‘qituvchilik sha’ni”, “Tarbiyachilar mahorati”, “Kasb madaniyati”, “Yosh avlod murabbiysi” mavzularida kechalar uyushtirish.

XI-yo‘nalish: - ota-onalar va mahalla bilan ishlash. O‘quv yurti hududida talaba-yoshlar ota-onalarining pedagogik ma’lumotlarini aniqlash maqsadida “Aholining ma’naviy-ma’rifiy” bilimdonligi ko‘rik tanlovlarini tashkil qilish: “Bir bolaga etti mahalla ota-ona” mavzusida suhbat, kechalar uyushtirish: sinf, guruh ota-onalar majlislarini amalga oshirish: “Ochiq eshiklar kuni” tadbirini o‘tkazish: ota-onalar komiteti faoliyatini yo‘lga qo‘yish: “Ota-onalar burchagi”, “Oila va jamiyat” seminarlarini tashkil qilish: talaba-yoshlar, ota-onalar bilan bayramlar, kinofil’mlar ko‘rish, teatrlarga borish tadbirlarini yo‘lga qo‘yish “Obod mahalla”, “Mahalla - madaniyat o‘chog‘i”, “Mas’uliyatli oila” uchrashuvlari, kechalarini tashkil qilish va o‘tkazish.

XII-yo‘nalish: - oliy ta’lim muassasasi jamoat tashkilotlari bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat. Yoshlar ittifoqi, kasaba uyushmasi, xotin-qizlar qo‘mitasi kabi jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyatni yo‘lga qo‘yish, jamoat tashkilotlarining ilmiy, texnik, madaniy, sport va fizkultura uyushmalarini tashkil kilish. Darsdan so‘ng talaba-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy ishlari ustidan pedagogik rahbarlikni yo‘lga qo‘yish. Qayd qilingan ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalshdagi ishlar o‘quv yilida rejalashtiriladi. Yillik reja asosida oylik va haftalik boshqariladigan ishlar tuziladi.

Yuqorida kayd etib o‘tilgan yo‘nalishlarda ma’naviy-ma’rifiy faoliyat olib borish maqsadida ishlar o‘quv yilida yoki bosh yilga mo‘ljallab tuziladi va rejalashtiriladi.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat turli shakllarida tashkil etiladi. Buni taxminan uch guruhga bo‘lish mumkin:

Yakka tartibdagi (Individual) ishlar.

To‘garak ishlari.

Ommaviy ishlar.

Yakka tartibdagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga olimpiadalar, iqtidorli talabalar bilan o‘tkaziladigan tanlovlar, konkurslar, ko‘rgazmalar kiradi. Garchi bu shakldagi tadbirlarga ko‘pchilik ishtirok etsada unda har bir ishtirokchi yakka holda ishtirok etishi, o‘quv yurti, viloyatini tadbirning ma’lum turi bo‘yicha yakka

tartibda himoya qilgani uchun uni yakka shakldagi ma'naviy-ma'rifiy faoliyat deb ataymiz. Fan olimpiadalari - bu bilimlarga qiziqishini rivojlantirishning eng muhim vositasidir. Uning tarbiyaviy qiymati shundaki, garchi ma'lum fan bo'yicha o'tkazilsada, unda tuziladigan yakka holatdagi topshiriqlar, savollar talabani ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi, bilim olishga intilishini kuchaytiradi.

Yakka tartibdagi ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning tanlov va ko'rgazma shaklidagi turi ham talaba-yoshlarga ijodkorlikni, maqsadga intiluvchanligini rivojlantiradi. Masalan: talaba "Mohir qo'llar", "Texnik ijodkorlik", "She'riyat maskani" kabi tanlovlar va ko'rgazmalarda ishtirok etib, har biri o'z ijodkorligi, qobiliyati, iste'dodini namoyish etadi. Bu tanlovlar oliy ta'lim muassasasidandan boshlanib, respublika miqyosida o'tkazganligi tufayli talabada mas'uliyat, faxr, sha'n uchun kurash his-tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Hozirgi kunda o'quv yurtlarida eng ko'p tarqalgan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat shakli bu to'garak ishidir. Oliy ta'lim muassasalaridagi fan to'garaklari, badiiy havaskorlik, foto, radio, kinoxavaskor to'garaklari, "Yosh adabiyotshunos", "Yosh kitobxon", "Yosh pedagog" kabi to'garak va klublar xam katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

To'garaklar va klublarda ishtirok etish talaba-yoshlarga bilish qobiliyatlari, ijodiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga ularda yurt, vatan, xalq oldidagi mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi va shuning uchun ham yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning yana bir shakli ommaviy tadbirlardir. Bunga ertaliklar, mavzuiy kechalar, disputlar, savol-javob kechalari, anjumanlar, festivallar, sport bayramlari va o'yinlari, ekskursiyalar va x.k.lar kiradi.

Shunday qilib, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat keng qamrovlidir. Zero, ma'naviyat va ma'rifat - Oliy qadriyat. U xalqimizning urf-odatlarini, mutafakkirlarimizning sermazmun ta'limotlarini, tarixiy milliy qahramonlarimizning hayot yo'lini, istiqlol, erk uchun kurashganlarning mashaqqatli turmush saxifalari o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ham u oliy qadriyat. U o'z yo'nalishlariga ko'ra komil insonni tarbiyalash kabi buyuk maqsadni amalga oshiradi.

Yuqorida aytilgan fikrlar, ishlarni amalga oshirsak, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat o'z muddaosiga etgan, barkamol avlodni shakllantirishga tamal toshi ko'yilgan bo'ladi. Buning uchun esa doimo izlanish, xarakat kilish lozim. Ma'naviy - ma'rifiy faoliyatda bu boradagi bor imkoniyatlardan maksimal foydalanishlari zarur.

Shunday kilib, ta'lim muassasalarida tashkil qilib o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat talaba-yoshlarni bilimga chanqoqliklarini oshirib, aqliy saloxiyat va zakovatlarini rivojlantirish bilan birga, ularni ma'naviy barkamol bo'lib tarbiyalanishlar uchun zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 400 b.
2. «Ta'lim to'grisida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, - Toshkent, 1997.
3. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». - Toshkent, 1997.
4. Pedagogika.// o'quv qo'llanma. A. Munavvarov taxriri ostida - Toshkent, «O'kituvchi», 1996.
5. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish «Sharq», 2000.
6. Umarov B, Olimov Sh. Oliy o'quv yurtlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya asoslari. - T: «Fan», 2004.

УДК: 37.01/.09

TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION VA ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINING ME'YORIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

X. A. Akramova
Bosh ilmiy-metodik markaz

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalari innovatsion faoliyatlariga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish jarayoni o'rganilgan va shuningdek uning samaradorlik darajasi tahlil qilingan. Oliy ta'lim muassasasining innovatsion faoliyati uchun zarur bo'lgan potentsialni shakllantirish mexanizmini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etish uchun bir qator masalalarni hal etish maqolaning asosini tashkil etadi va shuningdek, maqolada oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy manfaatdorligini oshirish yo'llarini taklif etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, ilmiy muassasalar, ijtimoiy faoliyat, ilmiy-texnik faoliyat, ilmiy-tadqiqot faoliyati

Нормативно-методические основы инновационно-исследовательской деятельности в образовательных учреждениях

Аннотация. В статье рассматривается процесс организации научно-исследовательской деятельности, направленной на инновационную деятельность высших учебных заведений Республики Узбекистан и анализируется ее эффективность. Основой статьи является создание механизма наращивания потенциала, необходимого для инновационной деятельности вуза и его решения.

Ключевые слова: инновационная деятельность, научно-исследовательские учреждения, общественная деятельность, научно-техническая деятельность, научно-исследовательская деятельность.

Regulatory and methodological foundations of innovative research activities in educational institutions

Abstract. The article discusses the process of organizing research activities aimed at the innovative activities of higher educational institutions of the Republic of Uzbekistan, and analyzes its effectiveness. The basis of the article is the creation of a mechanism for building the capacity necessary for the innovative activities of the university, and its solutions.

Keywords: innovation activity, research institutions, social activity, scientific and technical activity, research activity.

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqning boy ma’naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilm-fan va texnikasi va texnologiyasining so‘nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta’lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega. Konstitutsiyamizda belgilangan normalar, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bu borada mustahkam huquqiy poydevor sifatida xizmat qilmoqda.[1,2].

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va shuningdek, yirik mutaxassislar mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarda to‘plagan ijobiy tajribalariga asoslangan holda, oliy ta’lim tizimining to‘laqonli faolitini tashkil etish va islohatlarni jadallashtirishga qaratilgan qator me’riy-uslubiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda va mustaqillik yillarida ta’lim sohasi, xususan, oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga berilayotgan e’tibor har tomonlama yetuk intelektual salohiyatli kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirilganligidadir.

Ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini amalga oshirish borasida hal etilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalardan biri sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi jahon bozorlariga chiqishi va u yerda o‘ziga munosib o‘rinni egallashi uchun ilm-fan yutuqlaridan keng ko‘lamda foydalanadigan, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqara oladigan iqtisodiy tizimni shakllantirishi shart. Bunday mas’uliyatli vazifani mukammal darajada bajarish uchun esa milliy ilm-fanni jadal tarzda rivojlantirishga katta ahamiyat berilishi lozimdir.

Mamlakatimizda shakllantirilayotgan yangicha bozor munosabatlari ilm-fan dargohlarining va shu jumladan, oliy ta’lim berishga ixtisoslashgan muassasalarning faoliyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Mavjud shart-sharoitlarda milliy ilmiy muassasalarimizda va oliy o‘quv yurtlarimizda yaratiladigan ilmiy-innovatsion mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotishga moslashtirilgan tizimni shakllantirish ta’lim muassasalarining funktsional faoliyati samaradorligini oshirishning hamda bozor munosabatlari asosida ishlashga o‘tishning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda.

Ilm-fan sohasida kashf etilgan yangi g‘oyalarning moddiy tusga kiritilishi bosqichida innovatsion faoliyat sohasidagi novatorlik mehnati quyidagi xususiyatlarni kasb etadi:

- xayoliy tasavvurdagina bo‘lgan g‘oyalarni moddiylashtirishga intilishning natijalari ehtimoliy xarakter kasb etadi, turli xil tavakkallar tufayli negativ natijalar olinishi ehtimoli mavjud bo‘ladi;
- innovatsion faoliyat yakunida hosil qilinadigan mahsulotlarning noyob xususiyatlarini takroran yaratish mumkin bo‘lmaydi.

Innovatsion faoliyat mohiyat-mazmuniga ko‘ra ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlarning bevosita ishlab chiqarish sohasida moddiylashtirilishini ta’minlab, ijtimoiy faoliyatning har ikki sohasini o‘zaro bog‘laydigan, integratsiyalashtiradigan, turli xil iqtisodiy agentlarning texnik-iqtisodiy ehtiyojlarini ilm-fan tomonidan beriladigan imkoniyatlar vositasida qondirilishi uchun sharoit yaratib beradigan o‘ziga xos ishlab chiqaruvchi kuchdir.

Oliy o‘quv yurtlarining innovatsion faoliyatini ilmiy jihatdan o‘rganish davomida turli xil muammolar ushbu sohada ishlatiladigan asosiy tushunchalarni talqin etish davomidayoq ko‘zga tashlanadi. Buning asosiy sababi shuki, biz uchun birinchidan, “innovatsion faoliyat” va ayniqsa, “oliy o‘quv yurtlarining innovatsion faoliyati” degan tushunchalarning o‘zi nisbatan olganda yaigilikdir.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha[3,4], “innovatsion faoliyat” tushunchasi mazmunan ilm-fan sohasida yaratilgan yangi g‘oya asosida ishlab chiqarilgan mutlaqo yangi yoxud takomillashtirilgan va tovarlar bozoriga chiqarilgan innovatsiyaning o‘zidan tashqari bu jarayonning ilk bosqichlarida amalga oshirilgan turli xil ilmiy izlanishlarni, ishlanmalarni ham qamrab oladi. Natijada, innovatsion faoliyat negizida amalga oshiriladigan ilmiy faoliyatning qay darajada innovatsion xususiyat kasb etishini aniqlash lozim bo‘ladi.

Shuni e’tiborga olib turib, turli xil mualliflar tomonidan “innovatsiya” va “innovatsion faoliyat” tushunchalariga berilgan ta’riflarni mazmunan tahlil qilgan holda quyidagilar tanlab olinadi.

“Innovatsiya” deganda, yangitdan yaratiladigan (o‘zlashtiriladigan) yoki ilgari mavjud bo‘lgan texnologiyalarni, tovarlarni va xizmatlarni takomillashtirish uchun asos bo‘ladigan, shuningdek, ishlab chiqarish mahsulotlarini iste’mol bozorlariga olib chiqib sotish tufayli foyda olish uchun qulay sharoit yaratib bera oladigan tashkiliy-texnik boshqaruv qarorlari nazarda tutiladi [5]. Biron bir yangilikdan innovatsiyalar quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

- innovatsiyalar shunchaki yangilik bo‘lmasdan mavjud tizimni tubdan isloh qilish uchun baza yaratib beradi;
- innovatsiyalar amaliy jihatdan foydali bo‘lish xususiyatiga ega bo‘ladi;
- innovatsiyalar tijoratchilik nuqtayi nazaridan potentsial jihatdan foyda keltirishi kutiladi. Ilmiy tushunchalardan to‘g‘ri foydalanish borasida mavjud muammolarni e’tiborga olib, “innovatsion faoliyat” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilishi taklif etiladi: “innovatsion faoliyat” deganda, iqtisodiy faoliyat sohasidagi jarayonlarni tushunish talab etiladi.

Shu o‘rinda masalaning yana bir muhim jihatiga e’tibor qaratiladi. Ilmiy muassasalar bilan oliy o‘quv yurtlarining va sanoat korxonalarining innovatsion faoliyati mazmun-mohiyatan bir-biridan farqlanadi. Ilmiy muassasalar bilan oliy o‘quv yurtlarining innovatsion faoliyati haqida so‘z yuritilganida, “ilmiy-innovatsion faoliyat” degan tushunchadan foydalanish to‘g‘ri bo‘ladi, deb hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasasining innovatsion faoliyati uchun zarur bo‘lgan potentsialni shakllantirish mexanizmini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etish uchun bir qator masalalarni hal etishga to‘g‘ri keladi.

Jumladan:

- oliy ta’lim muassasasining innovatsion potentsialini xarakterlovchi turli xildagi ma’lumotlar bazasini tashkil etish;
- oliy ta’lim muassasasining innovatsion potentsialini shakllantirishga yo‘naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish;
- innovatsion faoliyat uchun zarur resurslar bilan ta’minlash jarayonlari qanday amalga oshirilishini aniqlab olish;
- mavjud bo‘lgan informatsion, innnovatsion loyihalarga daxldor informatsiyalar bazasini yaratish;
- oliy ta’lim muassasasining innovatsion faoliyatini tizimli tahlil qilish;
- amalga oshirilishi mo‘ljallangan va realizatsiya qilinayotgan innovatsion loyihalarning monitoring tizimini shakllantirish;
- tanlov asosida tanlab olingan innovatsion dasturlarning amalga oshirilishini tashkillashtirish.

Tashkiliy masalalarning rejali amalga oshirilishi natijasida oliy ta’lim muassasasining innovatsion faolligini keskin yuksaltirishga imkon beradi.

Respublikamiz iqtisodiyotini takomillashtirish va jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashtirish uchun oliy ta’lim muassasasining ilmiy potentsialidan o‘rinli foydalanish zarur.

Tahlillar shuni ko‘rsatadaki, oliy ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyati negizida uchraydigan va kelgusida bartaraf etilishi lozim bo‘lgan asosiy kamchiliklarni quyidagicha ta’riflash mumkin:

- amalga oshirilayotgan ilmiy-texnik, innovatsion loyiha va dasturlarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ishlarni muvofiqlashtirish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan;
- bir vaqtning o‘zida bir qancha oliy o‘quv yurtlarining ishtirokida amalga oshirilishi lozim bo‘ladigan kompleksli loyihalarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yetarlicha rivojlantirilmagan;
- oliy o‘quv yurtlarida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot faoliyatining pirovard natijalari qanchalik samarali ekanligini aniq bilib olish uchun kerakli informatsiyalarning to‘liq emasligi;
- aniq maqsadga yo‘naltirilgan marketing faoliyatining rivojlantirilmaganligi;
- oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot loyihalarni amalga oshirish va rivojlantirish ishlarini moliyalashtirish uchun byudjetdan tashqari manbalarni izlab topishga yo‘naltirilgan aniq harakatlar yetarli emas.

Oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bog'liq muammolarning mazmun-mohiyatini, xususiyatini, ehtimoliy yechimlarini o'rganib chiqib, innovatsion potentsialni shakllantirish mexanizmini takomillashtirsh ustuvor vazifalardan biri bo'lmog'i lozim.

Oliy ta'lim muassasasining asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida ilmiy-texnik faoliyatini yanada jonlantirish va rivojlantirish, samaradorligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlab berishdan iborat. Bular:

- oliy ta'lim muassasasining o'quv-ilmiy ishlab chiqarish potensialini to'liq namoyon bo'lish maqsadida ustuvor ahamiyatli innovatsion loyihalar va dasturlarning realizatsiyasini ta'minlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishiga, innovasion faoliyatni har jihatdan qo'llab-quvvatlanishiga erishish;
- oliy ta'lim muassasasining negizida xatti-harakatlari muvofiqlashtiriladigan texnoparklar, innovatsion-texnologik markazlar, biznes-innovatsion markazlar, biznes inkubatorlar tizimini rivojlantirish;
- raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yordam beradigan, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning ilm-fan yutuqlaridan foydalangan holida muntazam ravishda yangilab turish potensialiga ega bo'lgan ilmiy-texnik guruhlarni shakllantirish;
- oliy ta'lim muassasasining negizida ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar, tashkilotlar, tadbirkorlik va boshqa turdagi iqtisodiy tuzilmalar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;
- ilmiy-texnik, patent-huquqiy va iqtisodiy ekspertiza, loyihalar va ularni ro'yobga oshirish natijalaridan foydalanish tizimlarini takomillashtirish borasida to'plangan ish tajribalarini umumlashtirish maqsadini ko'zlab ishga aloqador ma'lumotlar bazasini tashkil etish, turli xil informatsiyalarni to'plash, informatsion oqim harakatini tartibga solish va informatsiyalar bilan almashuvni izga solish;
- tadbirkorlik subyektlariga kashfiyotchilik bilan shug'ullanishda, printsipial jihatdan yangi bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga joriy etish, ilm-fan yangiliklari asosida shakllantirilgan yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirib olishga yordam ko'rsatish;
- oliy ta'lim muassasasida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga moddiy rag'batlantirilgan holda talabalarni, yosh va iqtidorli olimlarni va professor-o'qituvchilarni keng ko'lamda jalb etishni tashkillashtirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil. 9-son, 225-modda.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil. 11-12-son, 295-modda.
3. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1983. – Стр. 278-285.
4. "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2016 yil
5. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-jild. – T.: O'zbekiston, 2011. – 360 b.

УДК: 42:008

THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE LESSONS

K. Maxkamova
Samarkand State University
kamila.makhkamova@mail.ru

Abstract. The present article highlights the importance of English language teacher's intercultural communicative competence and the benefits of inculcating it at lessons. The main essential definitions to this category are given in the article.

Keywords: intercultural communicative competence, Common European Framework of Reference, education, foreign culture, target language, authentic materials.

Ingliz tili darslarida madaniyatlararo kommunikativ kompetentlikning ahamiyati

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili o'qituvchisining madaniyatlararo kommunikativ kompetentlikning ahamiyati va uni darslarga joriy etish afzalliklari yoritilgan. Bu kategoriyaga eng muhim bo'lgan izohlar ham maqolada bayon etilgan.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo kommunikativ kompetentlik, chet tilini o'zlashtirishda umumyevropa kompetentsiyasi, ta'lim, xorijiy madaniyat,nazarda tutilgan til, autentik materiallar.

Особенности межкультурной коммуникативной компетентности на уроках английского языка как иностранного языка

Аннотация. Данная статья посвящена особенностям межкультурной коммуникативной компетентности преподавателей и полезность внедрение их на уроках. В статье расматриваются наиважнейшие определения этой категории.

Ключевые слова: межкультурная коммуникативная компетентность, общеевропейские компетенции владения иностранным языком, образование, иностранная культура, целевой язык, аутентические материалы.

Intercultural Communicative Competence (ICC) is an essential issue in teaching English as a foreign language (TEFL). ICC is the best way to communicate with native speakers of a target language in foreign education.

The category of "*professional foreign language communicative competency*" is widely analyzed and considered both in modern domestic and foreign methodical literature due to its multiaspect nature (V. A. Adolf, I. L. Bim, N.D. Galskova, I. A. Zimnyaya, I. V. Khaleeva, R. Bader, W. Hutchmacher, etc.). Its conceptual basis is the study ofthe communicative competence forming problem (I. L. Bim, N. D. Galskova, O. G. Polyakov, E. R. Porshneva, V.V. Safonova, E. N. Solovova, G. S. Trofimov, A. N. Shamov, A. V. Schepilova, T. Hutchinson, A. Waters, etc.). The scientific works devoted to students' various professional competencies forming (especially pre-service teachers) (N. I. Almazova V. I. Baydenko, E. F. Zeer, I. A. Winter, N. F. Koryakovtseva, O. G. Oberemko, E. R. Porshneva, T. S. Serova E. N. Solovova, G. S. Trofimov, V. P. Furmanova , A. N. Shamov) are of great actuality and demanded nowadays (Bezukladnikov, Zhigalev, Vikulina, 2014).

It is important to teach culture equally with language of the target language to achieve good results. It was said several times that foreign culture is inseparable part of the foreign language education by great scientists [1]. May be culture of the language is not so essential part of learning and teaching foreign languages, but as a part of listening, reading, writing and speaking we should teach learners the culture of the target language at least [2]. Really we could not learn or teach the language without its culture as teaching or learning any language without its culture, customs and traditions, everyday life means that the learned language becomes moldy.

Culture never stays unchangeable, it always changes and it is difficult for foreign language teachers to be in one level with language changes in this case [3]. In order to learn and develop the language equally we unquestionably should learn culture of the target language and then we will have knowledge in ICC. (See picture 1)

Picture1. (https://www.google.co.uz)

Cultural aspects take great part in learning foreign languages. It was said in the introduction of Common European Framework of Reference (CEFR) and added that sense is unique. If it is so, we should look through cultural aspects of ICC as its sense is substantial:

- ***Socio-cultural knowledge***
- ***Sociolinguistic competences***
- ***Pragmatic competences***
- ***Nonverbal communication***

Socio-cultural knowledge teaches us to have communicative competence in such as everyday living, living conditio0ns, interpersonal relations, history, values, beliefs, taboos, social conventions, ritual behavior. It

would be better to motivate learners to try to learn ICC in in target language, in our case the English language, to use authentic materials, according to the aspect. Only if learners listen or read the real socio-cultural situation it will help to provide guidance to learners. According to all this knowledge they will achieve intercultural communicative competence and will be able to communicate with native speakers of target language on socio-cultural topics much more easily and tactically.

The sociocultural element in learning is particularly sensitive in EFL because in acquiring a language there is, to some extent, an appropriation of a cultural identity too [4].

The incident was observed at a luncheon counter, where the waitress behind the counter was talking with a friend seated at the counter. Friend: I called Joe last night. Waitress: You did? Well what'd he say? Friend: Well, hi! Waitress: Oh yeah? What else did he say? Friend: Well he asked me out of course. Waitress: Far out! To participate in this exchange, the waitress, apart from having to rely on socio-culture schemata about dating situations, must recognize that the first statement, which seems complete on the surface, is actually the lead-in for a story that she is expected to help elicit. Further, she must know that "called" refers to a telephone call. She must know who Joe is; and she must realize that the call was no routine but had special meaning for her friend. Her reply "You did?" with exaggerated intonation contour and vowel elongation on "did", implicitly acknowledges all this. She then demonstrates that she has an idea of what is coming next in the story by her prompt "well what'd he say?" The friend's response gives the main point of her story, but the meaning is not entirely conveyed by the content of what is said but by how it is said, which is communicated largely through prosody. In other words, participants must infer that the fall rise intonation on greetings such as "Hi" may signal surprise mixed with pleasure. Such intonation contours become meaningful through recurrent association with certain speech activities. Only if we know this, and are acquainted with the relevant conventions, can we interpret the speaker's use of "of course" in her subsequent comment [5].

Sociolinguistic competences give us an opportunity to learn a competence on greetings, addressing, dialect, accent, register, positive and negative politeness, idioms and etc. During the communication with native speakers of target language socio-linguistic competences are significant. They are not less important than others. These competences help us to learn delicateness of usage the target language.

There are many helpful materials in order to learn socio-linguistic competences. But one of the most beneficial one is authentic materials and they are as essential as in socio-linguistic competences as in other aspects. For example, when native speakers use the same idioms in different context, we should understand the distinguishing mark of the idiom. Because the same idiom can gives different even opposite meanings in several situations and etc.

Example: "Death, thou shalt die" [6]. This statement uses *"death"* in two opposing ways. We clearly know the death is not a living thing and cannot die. But Donne is shoving mortality in this paradox.

Pragmatic competences as advising, persuading, urging, socialing, interaction pattern are also unique part of particular qualities of intercultural communicative competence. In *Acquisition in Interlanguage Pragmatics* (2003), linguist Anne Barron offers this more expansive definition: "pragmatic competence . . . is understood as the knowledge of the linguistic resources available in a given language for realizing particular illocutions, knowledge of the sequential aspects of speech acts, and finally, knowledge of the appropriate contextual use of the particular language's linguistic resources."[7]

The term *pragmatic competence* was introduced by sociolinguist Jenny Thomas in 1983 in the article "Cross-Cultural Pragmatic Failure" (*Applied Linguistics*). In that article, she defined *pragmatic competence* as "the ability to use language effectively in order to achieve a specific purpose and to understand a language in context." [8]

There was significant statement by Chomsky: "language is used purposefully; indeed, in later writings, he introduced the term ***pragmatic competence***-knowledge of how language is related to the situation in which it is used. Pragmatic competence places language in the institutional setting of its use, relating intentions and purposes to the linguistic means at hand" [9].

The competence helps to teach and adopt mostly speaking competence. And these competences are one of the significant peculiarities in communication. They are prime helpers for foreign ICC learners.

As pragmatic compoetence is the ability to use language appropriately in a social context (Taguchi, 2009). It is key to effective communication in a second or foreign language. But developing pragmatic competence is often overlooked. However it is actually the skill which native speaker subconsciously use to define non-native speaker as successful communicator. In order to teach this aspect we should compere two languages: *language transfer* and *pragmatic transfer* and to note the distinction between them:

- У меня есть красная ручка
- I have _red pen X

  We know that there are no articles in Russian. But it should be, as we know
- *I have a red pen*

Nonverbal communication components as body language gestures, eye contact and proxemics are the most fundamental component what are necessary for development of ICC. It is influential to include cultural

activities right from the beginning of foreign language education, in our case the English language in all age groups. The aim of learning all this aspects is to enrich learners' awareness, attitudes, not only the target culture, but also their own culture and other cultures in order to learn and to have ICC.

During the learning nonverbal communication we should remember that Judee Burgoon (1994) has identified seven different nonverbal dimensions:

1. Kinesics or body movements including facial expressions and eye contact;
2. Vocalic or paralanguage that includes volume, rate, pitch, and timbre;
3. Personal appearance;
4. Our physical environment and the artifacts or objects that compose it;
5. Proxemics or personal space;
6. Haptics or touch.
7. Chronemics or time. To this list, we would add signs or emblems.

"Signs or emblems include all of those gestures that supplant words, numbers, and punctuation marks. They may vary from the monosyllabic gesture of a hitchhiker's prominent thumb to such complex systems as the American Sign Language for the deaf where nonverbal signals have a direct verbal translation. However, it should be emphasized that signs and emblems are culture-specific. The thumb and forefinger gesture used to represent 'A-Okay' in the United States assumes a derogatory and offensive interpretation in some Latin American countries."[10]

In conclusion we can say that the ambition of this article was to discuss various factors for teaching culture and to inspire teacher of foreign languages to teach culture of target language in order to develop the intercultural communicative competence of nonnative learners. We looked through the essentialness of learning culture of the language and it should be part of learning foreign language. Only in this case we can achieve ICC.

References

1. Brooks, N. Culture in the Classroom. In: Valdes, M. (ed.) Bridging the Cultural Gap in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

2. Dunnett, S. C., Dubin, F. and Lezberg, A. English language teaching from an intercultural perspective. In: Valdes, J. M. Culture Bound. Cambridge University Press, 1986.

3. Robinson, G. Cross cultural Understanding. New York: Prentice-Hall, 1985.

4. https://www.teachingenglish.org.uk/article/sociocultural-awareness-elt

5. Xiaomei Yang, Socio-cultural knowledge in conversational inference. Asian social science. Canadian center of science and education. Vol. 5, No. 8 (2009), p. 136-140

6. John Donny Holy Sonnets: Death, be not proud https://www.poetryfoundation.org/poems/44107/holy-sonnets-death-be-not-proud

7. Anne Barron, *Acquisition in Interlanguage Pragmatics* (2003), linguist Anne Barron

8. Jenny Thomas, "Cross-Cultural Pragmatic Failure," 1983. Rpt. in *World Englishes: Critical Concepts in Linguistics, Vol. 4*, ed. by Kingsley Bolton and Braj B. Kachru. Routledge, 2006)

9. Chomsky 1080 - Chomsky N. Rules and representations. New York: Columbia University Press, 1980. p. 225.

10. Wallace V. Schmidt et al., Communicating Globally: Intercultural Communication and International Business. Sage, 2007

UDK: 378:78

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK TEXNIKANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATLARI

G. M. Davronova, Sh. Sh. Shaykulov
Samarqand davlat universiteti
shux-sam@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada, bo'lajak musiqa o'qituvchilarda pedagogik texnikani egallashning pedagogik va psixologik jihatlari va uning ahamiyati yoritilgan. Musiqa o'qituvchisining pedagogik texnikaga ega bo'lishi, musiqa ta'limining samarali tashkil etishning muhim omilidir. Zero, musiqa darslari boshqa (darslardan) fanlardan ozining badiiyligi, bolalarda ijodiy, emotsional tuyg'ular, obrazli kechinmalar uyg'otish hamda odob-axloq tarbiyasini shakllantirish bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnika, pedagogik maxorat, interaktiv muloqot, mimika, pantomimika, nutq texnikasi.

Педагогические и психологические особенности формирования у будущих учителей музыки педагогической техники

Аннотация. В данной статье раскрываются педагогические и психологические стороны преподавательской техники будущих учителей музыки и их важность. Владение учителем музыки педагогической техники, являются важными факторами эффективной организации музыкального образования. Так как уроки музыки отличаются от других уроков своей образностью, художественностью, пробуждением творческих, эмоциональных чувств, образных переживаний в детях, а также формированием морального воспитания.

Ключевые слова: педагогическая техника, педагогический опыт, интерактивное общение, мимика, пантомимика, техника речи.

Pedagogical and psychological aspects of the formation of pedagogical techniques in future music teachers

Abstract. This article describes the pedagogical and psychological aspects of mastering pedagogical techniques in future music teachers. The availability of pedagogical techniques by a music teacher is an important factor in the effective organization of music education. Because music lessons are different from other lessons with their artistic, the development of creative, emotional feelings, and moral education in children.

Keywords: pedagogical techniques, pedagogical skill, interactive communication, mime, pantomimics, speech techniques.

Ijtimoiy taraqqiyot, yangi texnika va texnologiyalarning kundalik hayotga kirib kelishi, o‘quvchi - yoshlarning bilim va tasavvurlar ko‘lamiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘qituvchining ta’lim subyekti va obyekti bo‘lgan o‘quvchilarning oshib boruvchi talablariga doimo tayyor bo‘lishini taqozo etmoqda.

Musiqa o‘qituvchilari ta’lim muassasalarida (umumta’lim va san’at maktablarida) eng faol shaxslar bo‘lish bilan bir qatorda, bugungi kunda ta’lim sohasidaga qo‘yilayotgan talablarni teran anglab, o‘z faoliyatlarida tashabbuskorlik, ijodrorlik bilan ish yuritishlari maqsadga muvofiq.

Musiqa ta’lim-tarbiyasini yuqori saviyada tashkil etishda o‘qituvchi pedagogik texnikaga ega bo‘lish muhim ahamiyatga ega. Zero, musiqa darslarining spetsifik xususiyatlarining 4-bandida “Musiqa bolaga faol emotsional ta’sir ko‘rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar ug‘otadi. Yaxshi, mazmunli qiziqrarli musiqa darslaridan bolalar badiiy va ma’naviy ozuqa oladilar. Musiqa darsi o‘zining faol psixologik ta’siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi. [1,28-b]

Pedagogik texnika pedagogik mahoratning tarkibiy qismi sanalib, o‘qituvchining o‘quv jarayonini samarali tashkil etishida namoyon bo‘ladi. Pedagogik texnika – bu musiqiy faoliyat turlarini tashkil etishda, ko‘nikma va malakalar majmuasi bo‘lib, o‘qituvchi tomonidan ijro repertuarini yuksak talablar darajasida amalga oshirishda qo‘llaniladi [2,105b]. (Umumta’lim maktablari musiqa darslarida asosiy faoliyat turlari: musiqa tinglash, musiqa savodi, jamoa bo‘lib kuylash).

Ta’kidlash joyizki, ba’zida endi ish boshlagan yosh o‘qituvchilar pedagogik faoliyatida pedagogik texnika yetishmaslik hollari kuzatiladi, natijada darslarda ko‘zlangan maqsadga erisha olmaslik, o‘quvchilar jamoasini birlashtira olmaslik, fanga qiziqtira olmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Bunday vaziyatlarda o‘zlari ham aziyat chekishadi.

Muommoli vaziyatlar:

1) o‘quvchi bilan sidqidildan so‘zlasha olmaslik;
2) salbiy pedagogik vaziyatlarda o‘zini to‘xtata olmaslik va o‘quvchi bilan munosib muloqotni amalga oshira olmaslik;
3) bolalar bilan pedagogik muloqot jarayonida o‘zida ishonchsizlikni yenga olmaslik;
4) nutqining ravon emasligi;
5) ayrim hollarda ortiqcha qattiqqo‘llikka yo‘l qo‘yish;
6) muntazam xushmuomala bo‘lishdan qo‘rqib turish;
7) dars jarayonida juda tez, sekin, haddan ortiq baland yoki past gapirish;
8) mashg‘ulot paytida ortiqcha harakat qilish yoki bir joyda qotib qolish, ba’zan qo‘llarini qayerga qo‘yishni bilmaslik, o‘z gavdasini tutishdagi kamchiliklarni (bukchayib, yerga qarab yurish, keraksiz joyda kulish, ortiqcha harakatlar qilish, turli jismlarni qo‘lida aylantirib yurish va h.k.) aytib o‘tish lozim.

Musiqiy ta’lim-tarbiyada muloqot (muomala) san’atini qo‘llashda quyidagilar asosiy rol o‘ynaydi:

- o‘quvchilar jamoasiga moslashuvchanlik. Bunda o‘quvchilar bilan jamoa bo‘lib kuylash faoliyatini amalga oshirganda ularning ruhiy holatini tezda o‘rganib, guruhga tez moslashib keta olish imkoniyati tushuniladi. Zero, ushbu imkoniyat ommaviy musiqiy faoliyatni muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim omildir.

- hissiy (emostional) jihatdan murosali bo‘lish. Dars jarayonida turli psixologik, hissiy vaziyatlarga duch kelinadi. Ba’zan kayfiyatni tushiradigan, salbiy holatlar uchraganda bosiqlik bilan ushbu masalani hal qilib, tezda mavzu tahliliga o‘tish yoki ijro jarayonini davom ettirish talab etiladi;

- hamdardlik. Musiqa darsini muvaffaqiyatli tashkil etishda o‘quvchilarning kayfiyati muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun darsni boshlashdan oldin va dars jarayonida har bir o‘quvchining kayfiyatini nazorat qilib borish va zarur bo‘lganda, ularni qo‘llab–quvvatlash, hamdardlik ko‘rsatish katta ta’limiy ahamiyatga egadir. O‘quvchilarda kayfiyatning yaxshiligi ijro etish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (Ayniqsa bu holat qo‘shiq kuylashda ovozga ham ta’sir etadi);

- muammoli vaziyatlarga nisbatan tayyor bo‘lish. O‘quvchilarning o‘zaro muloqotini samarali tashkil etishda turli vaziyatlarga duch kelish mumkin. Muammoli vaziyatlar uchraganda uni yengil hal qilish lozim;

- ijro jarayonida o‘quvchilarning diqqatini boshqara olish**.** Diqqat mexanizmlaridan (ixtiyoriy va ixtiyorsiz) xabardor bo‘lish.

Diqqat deganda ongning boshqa obyektlardan to‘la xoli bo‘lgan holda ma’lum obyektlar (musiqa asarini tinglash) yoki faoliyatga (xorda kuylash) qaratilganligi va yo‘nalganligi tushuniladi. Ma’lum obyektni ajratishda diqqatning tanlanganligi namoyon bo‘ladi.

Diqqat:

- ixtiyorsiz;
- ixtiyoriy;
- ixtiyoriydan keyingi tarzida bo‘lishi mumkin.

Ixtiyorsiz diqqat quyidagi holatlarda:

- tashqi ta’sirlar – masalan, biron yoqimli kuy uzoqdan quloqqa chalinganda ixtiyorsiz ravishda biz ushbu musiqaga diqqatimizni yo‘naltiramiz, bunda qo‘zg‘atuvchilar xususiyatlari (ularga qo‘zg‘atuvchining kuchi va kutilmaganligi; yangiligi, o‘ziga xosligi, qo‘zg‘atuvchining kontrastligi, obyektning harakatliligi kiradi) orqali;

-ichki intilish natijasida, masalan, biz uchun sevimli bo‘lgan musiqani tinglash ehtiyoji mavjudligi sababli mazkur musiqani tinglashga diqqatimizni yo‘naltirishimiz yo‘nalganlik orqali namoyon bo‘ladi.

Simfonik orkestr ijrosidan faqatgina birinchi skripkaning ijrosini ajratib idrok etish – ongli tarzda qo‘yilgan maqsad natijasida hosil bo‘ladigan ixtiyoriy diqqatga misol bo‘la oladi. Bunday diqqat turi bo‘lib, hamisha irodaviy harakatlarni talab etadi.

Xorda kuylaganda tashqi ko‘rinishiga qarab o‘quvchining hissiy holatini aniqlash, ya’ni, individual xususiyatlariga ko‘ra o‘quvchi...

- xotirjammi?
- bezovtami?
- hayajonlanyaptimi?
- quvnoqmi?
- xafami, aniqlash tushuniladi.

Ijro jarayonida harakatlar, kechinmalar, kayfiyatni ifodali ko‘rsata olish qobiliyati mavjudligi. Buning uchun:

a) o‘quvchining hissiy holatini obyektiv baholay olish muhimdir;

b) pedagogik muvaffaqiyatlar garovi sifatida o‘quvchiga hamdardlik, uning hissiy holati (kechinmalari)ni ijobiyligiga erishish zarur.

Mimika orqali badiiy kommunikastiyani amalga oshirishda quyidagi talablar qo‘yiladi:

- mimika pedagogik jihatdan talabga javob berishi, ijro etilayotgan yoki tinglanayotgan musiqa asaridagi badiiy voqelik mohiyatini aks ettirishi lozim;

- mimika o‘qituvchining musiqiy faoliyat mazmuni va yo‘nalganligini kuchaytirishi zarur.

Pantomimika o‘qituvchining so‘z orqali tushuntirayotgan dars badiiy materiali estetik mazmunini tabiiy tarzda kuchaytirishi lozim.

Musiqa asari g‘oyasini ifodalashda nutq texnikasi madaniyati quyidagi talablar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq:

1) nutq, leksika, fonetika, uslub, so‘zlash, urg‘u jihatidan yuksak talab darajasida bo‘lishi zarur;

2) Nutq, musiqa san’atida badiiy mazmunli, aniq va tushunarli bo‘lishi, aktyorlikka xos ifoda usuliga ega bo‘lishi lozim.

Shu o‘rinda taniqli pedagog A.S.Makarenkoning o‘z ilmiy asarlarida aytgan fikrlarini keltirib o‘tish lozim: “Pedagog darsda ma’lum bir o‘ziga xos rolni o‘ynamasligi mumkin emas. Sinf sahnasida rol o‘ynashni bilmaydigan o‘qituvchi kasbiy faoliyat olib borolmaydi. U ma’lum ma’noda aktiyor. Bizning xulq-atvorimiz, fe’limiz, xarakterimiz biz uchun pedagogik qurol bo‘lishi ham aslo mumkin emas. Bolalarni, qalb va ko‘ngil azoblari, his-tuyg‘ularimiz yordamida tarbiyalashga umuman yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

O‘quvchiga ba’zan muloqotda, his-tuyguli jarayonni namoyish etishga to‘g‘ri keladi. Buning uchun pedagog sahnadagi aktyordek ijobiy rol o‘ynashni ham bilish kerak. Tasodifiy pedagogik vaziyatlarda o‘qituvchi g‘azablanganda, quvonganda, xafa bo‘lganda, tushkun bir ahvolda tushganda ichki his-tuyg‘ularini bir holatdan boshqa holatga, bir shaklda boshqa shaklga aktyorga xos iqtidor bilan o‘tkazishni ham bilishi kerak. Biroq shunchaki tashqi, sahnaviy rol o‘ynash yaramaydi. Bu o‘yinda pedagogning ajoyib shaxsiy mahorati bilan bog‘laydigan qandaydir kamar bor, bu sizning go‘zal xulqingizni namoyish etib bog‘lovchi rolingiz. Bu sahnadagi o‘yin o‘lik bir holat yoki texnika emas, balki qalbingizdagi yashirin his-tuyg‘ularingizni, mehringizni nomoyon etuvchi haqiqiy jarayondir” [3] 38b

Pedagogik texnikada o‘qituvchining o‘z xatti-harakatini boshqarishi ustuvor ahamiyatga ega. Bunda u:

a) o‘z gavdasini boshqara olishi: bunga mimika va pantomimikani qo‘llash me’yori, u orqali ifodalanadigan musiqiy tushunchalar, musiqiy ijroda ovozning kuchi, dinamikasi, sur’ati, glissandoni ifodalash, “boshlash” va “tugatish” kabilar kiradi;

b) hissiyoti va kayfiyatini boshqara olishi: bunga musiqiy ijroda zarur bo‘lgan kayfiyat va kechinmalarni ifodalashga salbiy ta’sir etuvchi ortiqcha ruhiy charchoqni yo‘qota olishi, ham badiiy musiqiy ijroda, ma’lum musiqa asarini tinglash jarayonida ham asar dramaturgiyasida asosan ijobiy hissiyotlarni vujudga keltira olishi kiradi;

c) ijtimoiy-persteptiv qobiliyatlari: bunga musiqiy diqqati, har bir o‘quvchining ijro jarayonida va tinglanayotgan musiqa asari bo‘yicha bildirmoqchi bo‘lgan badiiy fikrlarini yuzidan “uqib olishi”, shuningdek, turli kayfiyat va kechinmalarga, dramatik holatlarga ega bo‘lgan musiqa asarlarini tinglash va undan ma’lum xulosalarga ega bo‘lishida kuzatuvchanligi, ijro etiladigan qo‘shiq yoki tinglanadigan musiqa asarining hajmi, dinamikasi va undagi mavjud kulminatsiya, avj pardalar borasida tasavvuri hajmi kiradi;

d) nutq texnikasi: bunga nafas olishi, o‘z ovozining balandligi va tonini auditoriya hajmi va tinglovchilarga moslashi, talaffuz tarzi, ya’ni, gapirganda o‘z ovozi tonini turlicha o‘zgartirishi, nutq sur’ati, ya’ni tez, jadal yoki sekin gapirishi, mavzu mazmunini bayon etganda qay darajada pauzalardan foydalanishi kabilar kiradi.

Musiqa o‘qituvchisi bilim oluvchilarga pedagogik ta’sir ko‘rsatib, ta’lim-tarbiya jarayonining texnologik loyihasini tuzadi va uni ochib beradi. Bunga o‘qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv va kommunikativ ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar, qo‘llaydigan texnologik ish usullari, pedagogik ishlarni tashkil etishi va boshqalar kiradi.

Pedagogik texnikaga ega bo‘lish, o‘qituvchiga o‘quvchilar bilan muloqotda bo‘lishda to‘g‘ri muomala tarzini tanlash imkonini beradi. Muomala tarzi, o‘quvchilar bilan munosabat uslubi, diksiya, mimika, imo-ishorani to‘g‘ri tanlash, bularning barchasi pedagogik texnika tushunchasi tarkibiga kiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchi aynan oliy o‘quv yurtida tizimlashtirilgan zaruriy ilmiy bilimlarni puxta egallab olishi zarur. Musiqiy pedagogik mahoratni egallashda, pedagogika, musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash, musiqa pedagogikasi, umumiy psixologiya va musiqa psixologiyasi kabi fanlarga doir bilimlar katta rol o‘ynaydi.

O‘quv mashg‘uloti jarayonida ovoz va nutqda uchraydigan ayrim kamchiliklar: monoton, zerikarli, ya’ni bir xil, o‘zgarmas ohangda mavzu bayonini amalga oshirish, auditoriya talabidan baland tovushda yoki aksincha, juda past ohangda gapirish, gapirish tonining aytilayotgan masala mohiyatiga mos bo‘lmasligi (ba’zan juda yuqori tonlarda yoki aksincha past tonda gapirish), nutqning ba’zan hayotiy emasligi, mavzu bayonida pauzalar, ohangni o‘zgartirib turish, urg‘u berish, ta’kidlash kabilarga yetarlicha amal qilmaslik, ifodali o‘qish malakasining pastligi (dikstiya), so‘zlarni aniq talaffuz qilmaslik kabilardan iborat.

Ushbu kamchiliklar musiqa o‘qituvchisi uchun o‘quvchilarga samarali ta’sir etishga xalaqit berishi mumkin. Mazkur nuqsonlarga talabalik davrida barham berish bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari uchun ahamiyatlidir. Bunga mustaqil ravishda maxsus mashqlarni takrorlash, eng asosiysi musiqa o‘qitishga o‘rgatishga oid fanlarning amaliy darslarda sinab ko‘rish orqali erishish mumkin.

O‘qituvchining estetikasi uning yuz ifodasida, ochiq ko‘ngilligida, harakatidagi vazminlik va ixchamligida, imo-ishorasining haqiqiyligi va o‘quvchiga e’tiborliligida, o‘z gavdasini qanday tutishida bilinib turadi. Yuz ifodasini tirishtirish, harakatlardagi pala-partishlik, muloqot jarayonidagi imo-ishoraning ba’zan sun’iyligi, sinf jamoasini boshqarishda bo‘shanglikka yo‘l qo‘yilishi mumkin emas.

Hatto, o‘qituvchining xonaga qanday kirib kelishi, bolalarga qanday nigoh bilan qarashi, salomlashishi, sinf xonasida qanday tempda yurishi-turushi bularning barchasi o‘quvchiga o‘ziga xos ijobiy yoki salbiy psixologik ta’sir ko‘rsatadigan kuchdir. Vazmin, xushmuomala, bilimlarni o‘quvchiga sodda tarzda yetkaza oladigan, har bir o‘quvchining o‘zlashtirish dinamikasini sezib turadigan va hissiy holatini yaxshi tushunadigan o‘qituvchi o‘ziga ishongan, kuchli o‘qituvchidir. Taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o‘qituvchining hech bir kasbga o‘xshamaydigan kasbiy faoliyatini yukasak baholab: “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin”- deb ta’kidlab o‘tgan. [3,38b]

O‘qituvchining diagnostik mahorati: bilim, ko‘nikma va malakalar sifatiga tegishli baho bera olish, o‘quvchilarning egallagan bilim darajasini aniqlashdan iborat:

1) o‘qituvchining tashkilotchilik imkoniyatlari: o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini shunday tashkil etish lozimki, o‘quv materiali ularning faol harakatlari manbaiga aylansin;

2) o‘quv metodlari va vositalarini shunday tanlash lozimki, o‘quv materiali o‘zining murakkabligi nuqtayi nazaridan o‘quvchilarning qobiliyatlari, ularning o‘zlashtirish imkoniyatlari darajasida bo‘lsin;

3) musiqa o‘quv mashg‘ulotlarida badiiy tarbiya samaradorligi: o‘quv materialidan samarali foydalanish, o‘qitish metodlari va vositalaridan o‘quvchilarning estetik rivojlanishi, ularning mustaqil bilishga intilishi, mas’uliyatliligi, javobgarlikni his etishi, o‘zi va boshqalarga nisbatan talabchanligi yo‘lida foydalansin;

4) har bir o‘quvchi nimani va qanday o‘qishi, uni qayerdan axtarishi, qaysi ma’lumotlarni olishi, qaysi ko‘rsatkichlar bo‘yicha qo‘llashi va foydalanishi orqali bilishning mo‘ljallangan chegaralarini aniqlasin;

5) darsda maqbul axloqiy-psixologik vaziyat, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarida qulayliklar yaratsin;

Har bir darsni qiziqtirish tamoyili va pedagogik hamkorlik asosida tashkil etish zarur. Bunda dars jarayonida yaratiladigan badiiy-pedagogik vaziyat muhim rol o‘ynaydi. O‘qitish jarayonida pedagogik mehnat samaradorligining asosiy mezoni o‘zlashtirish bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy va intellektual tafakkurini rivojlantirish asosida fanning yetakchi g‘oyalarini egallash samaradorligi muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida pedagogik texnikani shakllantirish orqali ularning mahoratini oshirish muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. G.Sharipova, G.Najmitdinov, Z.Xodjayeva. Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari. Darslik. – Toshkent: Turon-iqbol, 2018. –189 bet.

2. G. Davronova. Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalsh. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019. – 155 bet.

3. Z. Qosimova . Ta’lim texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Tafakkur qanoti, 2014.– 192 bet.

UDK: 378

OLIY O‘QUV YURTIDAN KEYINGI TA’LIM TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN HUQUQIY TADBIRLAR

K. A. Tuxtabekov
O‘zbekiston Milliy universiteti
kozimazimbek@mail.ru

Аннотация. Maqolada O‘zbekistoda Respublikasida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarlar tayyorlashda amalga oshirilayotgan islohatlar jarayonida qabul qilingan qarorlar asosida amalga oshirilgan ishlarning huquqiy asoslar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar, ilmiy tadqiqot, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tizimi, davlat talablari, низом.

Правовые меры по дальнейшему совершенствованию системы послевузовского образования

Аннотация. В статье изложены правовые основы выполненных работ в процессе реформирования системы по подготовки высококвалифицированных научных и научно-педагогических кадров в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: послевузовское образование, высококвалифицированные научные и научно-педагогические кадры, научное исследование, двухстепенная система послевузовского образования, государственные требования, положения.

Legal measures to further improve the system of postgraduate education

Abstract. The article outlines the basics of the work done based on of decisions made in the process of reforming the highly qualified scientific and scientific-pedagogical staff in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: postgraduate education, highly qualified scientific and scientific-pedagogical staff, scientific potential, scientific research, two-stage system of postgraduate education, government requirements, provisions.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda oliy ta’lim va ilm-fan sohasini, jumladan oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha keng miqyosdagi maqsadli ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimiz ta’lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lgan oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim jamiyatning oliy

malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, barkamol avlodni tarbiyalash, ta’lim va ilm-fan sohalarini sifat jihatdan rivojlantirish hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash kerakki, ilm-fan sohasini jahon talablari darajasida rivojlantirishni ta’minlashda yoshlarning o‘rni benihoya katta. Shu jihatdan ham mamlakatimizda yoshlar davlat siyosatini samarali ro‘yobga chiqarishga judda katta e’tibor qaratilmoqda.

Respublika muassasalarining ilmiy salohiyati, ilmiy elitasini oshirishda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning ahamiyati beqiyosdir. Mamlakatimizda ilm-fan sohasini rivojlantirish, ilmiy salohiyatni yanada yuksaltirish, ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘lamini va ilm-fan bilan ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish borasidagi ishlarni amalga oshirishda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishi kerak.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni [1] tarixiy ahamiyat kasb etib, unga muvofiq davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlikni, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash, o‘zaro manfaatli tashqi siyosat yuritish kabi yo‘nalishlarda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish masalalari alohida o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyasi barcha sohalar qatorida ilm-fan sohasida ham jahonda raqobat tobora kuchayib borayotgan sharoitda ilmiy izlanishlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF–4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni [2] bilan 2017-yilning 1-iyulidan boshlab mamlakatimizda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tizimi joriy qilinishini alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Mazkur Farmon oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestasiyadan o‘tkazish tizimining sifati va samaradorligini tubdan oshirish, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini har tomonlama namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni ijrosi yuzasidan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori bilan oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim to‘g‘risidagi Nizom hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogkadrlar davlat attestatsiyasiga oid muhim qoidalar tasdiqlangan[3]. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissyasi tomonidan Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasiga oid nizomlar o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Normativ-huquqiy hujjatlarda xalqaro ilg‘or amaliyotdan foydalanish, samarali ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish, dissertatsiya sifatini oshirish, ortiqcha byurokratik jarayonlarni yo‘qotish, malakaviy imtihonlar tarkibini optimallashtirish va baholash tizimida ilg‘or amaliyotni joriy qilish kabilarga alohida e’tibor qaratildi. Sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan yangiliklar, jumladan quyidagilar bilan tavsiflanadi[4].

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash to‘g‘risidagi nizomda attestatsiya jarayonida ishtirok etadigan shaxslar va tuzilmalar mas’uliyatini oshirish, ko‘chirmachilik (plagiat) holatining oldini olish, ekspertiza jarayonini optimallashtirish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etdi. Bu borada quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin: izlanuvchi, dissertatsiya bajarilgan muassasa, Ilmiy seminar va Ilmiy kengash mas’uliyatini oshirish hamda korrupsiya holatining oldini olish maqsadida Ilmiy seminar va Ilmiy kengash faoliyatini tashkil qilishga quyidagilar kiritildi: Ilmiy seminar xulosasi “dissertasiya himoyaga tavsiya etilsin” yoki “dissertasiyani qayta ishlash tavsiya etilsin” tarzida beriladi. Agar Ilmiy seminar muayyan dissertasiya bo‘yicha “dissertasiyani qayta ishlash tavsiya etilsin” xulosasini qabul qilsa, Ilmiy kengash rasmiy xat bilan ish bajarilgan muassasaga dissertasiyani qaytaradi[5].

Ilmiy darajalar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomda attestatsiya jarayonida dissertatsiyalar va nashr ishlariga qo‘yiladigan talablarni aniq belgilash, dissertatsiyalar sifatini oshirish, ilmiy darajalar berishda xalqaro ilg‘or amaliyotdan foydalanish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, samarali va natijador ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish uchun muhim ilmiy yangiliklar olgan va katta ahamiyatga ega bo‘lgan uchtagacha ixtiro patenti muallifiga falsafa doktori (PhD) va uchtadan ortiq ixtiro patenti muallifiga fan doktori (DSc) ilmiy darajasini dissertatsiya himoyasisiz berish qoidasi ilk bor kiritildi [6].

Ilmiy unvonlar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomda respublika oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil qilish yuzasidan amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar e’tiborga olingan.

Malakaviy imtihonlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritishda imtihonlar tarkibini optimallashtirish, baholash tizimida xalqaro va milliy ilg‘or amaliyotni joriy qilish, malakaviy imtihonlarni topshirishda mavzuning e’lon qilinishiga bog‘liqligi cheklovini bekor qilish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Bu borada quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin: respublika oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan sifat o‘zgarishlarini e’tiborga olgan holda malakaviy imtihonlar tarkibi optimallashtirilib, 3 ta malakaviy imtihon o‘rniga 2 (67%) ta (ixtisoslik va chet tili) imtihon topshirilishi belgilandi. Shuningdek, barcha qo‘shimcha malakaviy imtihonlar bekor qilindi. Attestatsiya jarayoni tajribasi hamda xorijiy tillarni o‘rganish xalqaro va milliy tizimi amaliyotini e’tiborga olgan holda IELTS (o‘rtacha balli kamida 5,5), TOEFL (RVT) (567 balldan kam bo‘lmagan), TOEFL (iBT) (87 balldan kam bo‘lmagan) hamdaV2 darajadan past bo‘lmagan CEFR, Test DaF (Test Deutsch alsFremdsprache fur auslandische Studienbewerber), GOETHEZERTIFIKAT, DALF (Diplome approfondi de langue francaise)va Davlat test markazining malakaviy sertifikatigaega bo‘lgan izlanuvchilarni mazkur hujjatlarning amal qilish muddati davomida chet tili bo‘yicha malakaviy imtihonni topshirishdan ozod etilishi bo‘yicha yangi qoida kiritildi [7]; malakaviy imtihonlarni topshirish uchun izlanuvchilarning dissertatsiya mavzulari OAKda ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lishi hamda veb-sayt va «OAK Byulleteni»da e’lon qilinishi kerakligi talabi bekor qilindi.

Dissertasiyalar ilmiy natijalarining amaliyotga joriy etish bo‘yicha mavjud tajriba va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tizimi joriy qilinishi munosabati bilan natijalarni joriy qilish imkoniyatlari kengaytirildi. Bu borada quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin: dissertatsiyaning ilmiy natijasini amaliyotga joriy etish quyidagilar bilan to‘ldirildi: intellektual mulk obyektiga mutlaq huquqning e’tirof etilishi – ixtiroga va seleksiya yutug‘iga patent hamda falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun foydali modelga patent, sanoat namunasiga patent; ilmiy natijaning nufuzli, shu jumladan respublika ilmiy seminari yoki fan tarmog‘i rivojlangan xorijiy mamlakatlarning impakt-faktori 0,5 dan yuqori bo‘lgan va xalqaro tizimga kirgan ilmiy jurnallarda kamida 3 ta havola berilgan; ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan DTS, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun o‘quv qo‘llanma; Davlat reyestriga kiritilgan natija; innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasida imzolangan shartnomalar; innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasi natijasiga ko‘ra (falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun) quyidagi faxriy nominatsiyalar: “Eng yaxshi innovatsion ishlanma”, “Sanoat yo‘nalishi bo‘yicha eng yaxshi innovatsion ishlanma”, “Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi bo‘yicha eng yaxshi innovatsion ishlanma”, “Axborot texnologiyalari yo‘nalishi bo‘yicha eng yaxshi innotvasion ishlanma”, “Fan va ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha eng yaxshi innovatsion ishlanma”, “Yosh olimlarning eng yaxshi innovatsion loyihasi”, shuningdek, fan tarmog‘i (ixtisoslik) xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa shakllar[8].

Dissertatsiya va avtoreferatni rasmiylashtirishda mazkur hujjatlarning annotasiya qismi oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim xususiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirildi, shuningdek, rasmiylashtirishning me’yoriy-texnik talablari aniq belgilab berildi. Masalan, falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining hajmi 60 varaqdan va fan doktori (DSc) dissertasiyasining hajmi 100 varaqdan oshmasligi kerakligi belgilandi (matn varaqning ikkala tomoniga yoziladi) [9].

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari ro‘yxatida ham o‘zgarishlar amalga oshirilib, jumladan ro‘yxatga siyosiy fanlar, ishlomshunoslik fanlari tarmog‘i kiritildi [10].

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar davlat attestasiyasi sohasida boshlangan islohotlarni mantiqiy yakuniga yetkazish yuzasidan tizimli tadbirlar, jumladan, attestatsiya sifatini oshirish, dissertatsiyalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada yuksaltirish, mavjud ilmiy salohiyatdan samarali foydalanish, OAK faoliyatini yanada takomillashtirish va attestatsiya jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada keng joriy etish bo‘yicha belgilangan tadbirlarni izchil amalga oshirish davom ettirilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fan sohasini jadal rivojlantirish, modernizatsiyalashtirish va oliy malakali ilmi va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qabul qilgan qaror va farmonlari mamlakatimizda oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Prezidentimizning 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni bilan shu yilning 1 iyulidan boshlab mamlakatimizda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tizimi joriy qilindi. Mazkur farmon oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimining sifati va samaradorligini tubdan oshirish, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini har tomonlama namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori bilan esa oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari, oliy o‘quv

yurtidan keyingi ta'lim to'g'risidagi nizom hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar davlat attestatsiyasiga oid muhim qoidalar tasdiqlandi.

Shuningdek, ushbu sohadagi yangilanishlar O'zbekistonda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini isloh qilish, yanada takomillashtirish hamda turli fan yo'nalishlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlari faoliyat yurituvchi rivojlangan davlatlarning oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimlari bilan integratsiyalashtirishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.
2. O'zbekistonRespublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF–4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingita'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni.www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son «Oliyo'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK "Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kegash to'g'risdagi Nizom", "Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risida"gi nizom, "Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi nizom", "Malakaviy imtihonlarni o'tkazish taribi to'g'risidagi Nizom", "Ekspert kengashi to'g'risida"gi Nizom – O'zbekiston Respublikasi Vzirlar Mahkamasi huzuridagi OAK.
5. "Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kegash to'g'risdagi" Nizom. 38-bandi.
6. "Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risida"gi Nizom. 5-bandi.
7. "Malakaviy imtihonlarni o'tkazish taritbi to'g'risida"gi nizom. 1-bandi.
8. Dissertatsiyalar ilmiy natijalarining amaliyotga joriy qilinishini baholash bo'yicha uslubiy ko'rsatma.
9. Dissertatsiya va dissetatsiya avtoreferatini rasmiylashtirish qoidalari.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK "Byulleteni" //Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish masalalari – T.: 2017 – №1. – B-7.

UDK: 378

O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA MODELLASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH

I. B. Aminov, A. I. Inatov
Samarqand davlat universiteti
a-inatov@samdu.uz

Annotasiya Modellashtirish butun borliqni tasvirlash va anglash vositasi sifatida fan va texnikaning barcha sohalarida, shu jumladan ta'limda keng qo'llanilmoqda. Ushbu maqolada o'quv jarayonini tashkil etishda modellashtirish vositalaridan foydalanish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'limda axborot texnologiyalari, o'quv jarayonini tashkil etish, modellashtirish vositalari, multimedia, model, matematik model, kompyuterli modellashtirish, kompyuter model, o'quv jarayonida modellashtirish bosqichlari.

Использование средства моделирования для организации учебного процесса

Аннотация. Моделирование, как средство познания и преобразования материального мира, широко применяется во многих отраслях науки и техники, а также в образовании. В статье рассматриваются дидактические вопросы применения средств моделирования при организации учебного процесса.

Ключевые слова: информационные технологии в образовании, организации учебного процесса, средства моделирования, мультимедиа, математическая модель, компьютерное моделирование, компьютерная модель, основные этапы моделировании в учебном процессе.

Use of means modeling for organization of educational process

Abstract. The modeling, as a means of knowledge and transformation of the material world, is widely applied in many branches of a science and engineering and also in education. In the article the questions of application of means modeling for organization of educational process are examined.

Keywords: information technologies in education, organization of educational process, means of modeling, of multimedia, mathematical model, computer modeling, of computer model, basic stages modeling in educational process.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasida o‘tkazilayotgan islohatlarda o‘quv jarayonini takomillashtirish va isloh qilish vazifasi belgilanib, barcha o‘quv muassasalariga fanlarni o‘qitishda ilmiylik, amaliylik va zamonaviylikni ta’minlash, buning uchun ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy texnologiyalaridan kengroq amaliy foydalanishni taqozo etadi [1]. Bu esa o‘quv jarayonida o‘quvchilarni o‘qitilayotgan fan bo‘yicha amaliy bilim va malakalarini shakllantirish, o‘qitish jarayonini ham mazmun, ham uslub, ham ko‘rgazmalilik jihatdan samaradorligini oshirishga olib keladi.

Ta’lim tizimida fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, shu jumladan modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchilarni qo‘yilgan masalaning mohiyatini tushunish, uni yechish modelini yaratish, modellar uchun algoritmlar tuzish, tuzilgan algoritmlar asosida kompyuter dasturini ishlab chiqish va uni hal qilish, olingan natijalar asosida boshqa masalalarni yechish va har bir masalani yechishga ijodiy yondashish kabi bilim va malakalarni shakllantirishga olib keladi. Shuning uchun ham o‘quvchilarni ilmiy va mustaqil fikrlar doirasini kengaytirish, ularni kompyuterlarning zamonaviy dasturiy vositalaridan foydalanish amaliy malakalarini oshirish maqsadida o‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy metodlar asosida tashkillashtirish zaruriyati tug‘iladi [4].

Ana shuning uchun ham, hozirgi kunda respublikamizda ta’lim jarayonini samaradorlik darajasini oshirish maqsadida bir qancha tadbirlar va ilmiy tatqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Buning natijasida esa ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarini tatbiq qilish darajasi oshib, o‘quv jarayonlarini tashkil qilish va olib borish yanada takomillashib, ta’lim oluvchilarning chuqurroq bilim egallashlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda [5].

O‘quv jarayonini tashkil etishda an’anaviy ta’lim turlari bilan birgalikda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanib, dars jarayonini tashkil etishga alohida e’tibor berilmoqda.

O‘quv jarayonida har bir mashg‘ulotni pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil etishda, eng avvalo o‘qituvchining o‘zi shu texnologiyalarning mazmun va mohiyatini yaxshi anglab yetishi va mukammal amaliy malakaga ega bo‘lishi zarur. Buning uchun esa har bir texnologiya va metodlar haqida mustaqil tushuncha olishlari va mashg‘ulotni tashkil etish uchun undan qanday foydalanish zarurligi to‘g‘risida kerakli bilimlar bilan tanishishi kerak [3].

O‘quv jarayonini axborot texnologiyalari tashkil etishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi [4]:

– ta’lim tizimining barcha faoliyat turlarida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta’minlash;
– barcha fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish tizimini loyihalashtirish, yaratish va tatbiq etish;
– ta’lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish axborot muhitini yaratish;
– ta’lim muassasasi texnik bazasini zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari bilan ta’minlash;
– ta’lim tizimida kompyuter va internet tarmoqlaridan foydalanish imkonyatini yaratish;
– kompyuter sinflarini zarur dasturiy vositalar, qurilmalar va axborotlar muhiti bilan ta’minlash.

O‘quv jarayonini axborot texnologiyalari asosida tashkil etishda o‘qituvchi faoliyatiga mavzuga oid axborot obyektlarini yaratish, zarur axborot obyektlarini izlash, axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish va ajratib olish, tashkillashtirish, kerakli ko‘rinishda tasvirlash, axborot obyektlarini uzatish, modellashtirish, loyihalashtirish va boshqalar kiradi.

O‘quv jarayonini axborot texnologiyalari asosida tashkil etishda talabalar berilgan masalaning mazmunini va yechilish shartini tushunishda ba’zi bir qiyinchiliklarga duch kelishadi. Masalaning mohiyati va mazmunini tushunmasdan turib uni hal qilishga, jarayonda qatnashayotgan miqdorlarni bog‘liqligini o‘zida aks ettirgan formulalarni topishga harakat qilishadi. Bu yerda asosiy muammo, talabalar o‘rganilayotgan jarayonlarning modelini tassavur va ifoda qilolmasligidadir. Buning uchun esa o‘qituvchi dars jarayonini tashkil etishda samarali bo‘lgan metodlarndan foydalanishi kerak. Bundan tashqari o‘qituvchi noan’anaviy metodlarni qo‘llaganda fikr mulohazalarni umumlashtirish va xulosa chiqarishni bilishi hamda guruhni boshqarish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak [2].

Ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini axborot texnologiyalari asosida tashkil etishga katta e’tibor qaratilganligi sababli, bugungi kunda zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan dars jarayonini tashkil etishda foydalanish ijobiy natijalarni berish bilan, birga uning samaradorligini ham oshirmoqda.

Ana shunday metodlardan biri modellashtirish bo‘lib, u ilmiy tatqiqot izlanishlarning samarali metodlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi zamon ilmiy bilish usuli hisoblangan modellashtirish voqelikdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilishda keng qo‘llaniladigan usullardan biridir. Modellashtirish metodi voqelikni bilvosita o‘rganishga moslangan ilmiy usuldir. Modellashtirish deyilganda, moddiy va ma’naviy real mavjud tizimlarni bilishda, mazkur tizimlarning tashkillanishi va funksionallashuvi tamoyillarini qayta ishlab chiqish orqali yaratilgan model tushuniladi.

"Model" so‘zi lotincha modulus, so‘zidan olingan bo‘lib, o‘lchov, me’yor, obraz, namuna, analog, "o‘rinbosar" degan ma’nolarni bildiradi.

Model bu – tatqiqotchi tomonidan yaratilgan ma’lum bir tizim bo‘lib, tekshirilayotgan obyektga o‘xshash bo‘lib, uning turli belgilari unda sodir bo‘ladigan jarayon, hodisa va o‘zgarishlarni ifodalaydi. Boshqacha aytganda model biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasidir.

Modellashtirish metodlaridan foydalanish uchun o‘qituvchi darsni tashkil etish loyihasini tuza olishi, mavzu mazmunini bayon qilishi va talabalarining dars jarayonidagi faoliyatini bilishi lozim.

O‘rganilayotgan jarayonning modellari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o‘zlashtiriladi. Odatda dars jarayonida modellashtirish metodidan foydanilganida asosan ikki xil moddiy va abstrakt(g‘oyaviy) modellar ishlatiladi.

O‘qituvchi o‘quv jarayonini tashkil etishda modellashtirish metodlaridan foydalanishni quyidagi vositalar orqali amalga oshirishi mumkin:

- multimedia vositalari;
- matematik usullar(matematik modellashtirish);
- dasturlash vositalari (kompyuterda modellashtirish).

Multimedia vositalari ko‘proq moddiy modellarni yaratishda ishlatiladi. Multimedia vositalari orqali modellashtirish amalga oshiruvchi o‘qituvchiga:

- ma’ruza matnlari, amaliyot bilan bog‘liq topshiriqlarni tayyorlash;
- uslubiy ko‘rsatmalarni, nazorat savollarini, to‘g‘ri javoblar variantini tuzish;
- ishchi dastur va texnologik xaritani tuzish;
- bilimni nazorat qilish natijasini tahlil etish;
- har bir mavzu bo‘yicha dinamik ko‘rinishda aks etuvchi jarayonlarning animatsiyalarini tasavvur etish;
- mustaqil ishlar bo‘yicha o‘quvchilarga nazariy va amaliy savollar yuzasidan maslahatlar berishni tashkil qilish;
- o‘zlashtirilishi murakkab bo‘lgan mavzular bo‘yicha o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazish kabi talablar qo‘yiladi.

Multimedia namoyishlari yaratishda o‘qituvchi Paint grafik muharriri (oddiy ko‘rinishdagi turli rangdagi tasvirlarni-modellarni yaratishda), Word matn muharriri (turli matn, jadval, formula, krossvord va boshqa obyektlarni yaratishda), Excel elektron jadval (jadvallar, turli diagrammalar, grafiklar va boshqa obyektlarni yaratishda), Power Point taqdimot dasturi (ovozli va harakatli obyektlarni yaratishda) va boshqa dasturiy vositalardan foydalanishi mumkin.

Bundan tashqari o‘qituvchi multimedia namoyishlarini yaratishda kompyuter, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proyektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar qurilmalar bilan ishlash malakasiga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Multimedia vositalari asosida dars jarayonini tashkil qilish o‘qituvchilarning ish faoliyatini osonlashtirib, o‘quv jarayonini boshqarish, uning samaradorligini yanada ko‘tarish, o‘qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, dars jarayonida namoyish qilinishi kerak bo‘lgan obyektning ichki, tashqi xossalarini ko‘rsata olishdek muhim vazifani amalga oshirish imkoniyatini yaratadi [5].

O‘qituvchi dars jarayonini tashkil etishda o‘quvchilar o‘tilayotgan mavzuni mohiyatini yaxshiroq tushunib olishi, uning mazmunini to‘liq anglashi va shu jarayonni hal qilishi uchun kerakli matematik ifodalarni bayon qila olishi uchun matematik modellashtirish vositasidan foydalanish o‘z samarasi beradi.

Bizga ma’lumki, o‘rganilayotgan hodisa, jarayon yoki obyektni matematik ifodalar, munosabatlar va formulalar yordamida ta’savvur etish jarayoni matematik model deyiladi. Tadqiq etilayotgan obyektni modellashtirish obyektni shakllashtirishdan boshlanadi, ya’ni mos matematik model tuziladi. Buning uchun uning esa ma’lum va noma’lum parametrlar ajratib olinib, ular matematik munosabatlar, ya’ni formulalar yordamida ifodalanadi.

O‘quv jarayonini tashkil etishda matematik modellashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Masalaning mohiyatini tushunish. Modellashtirish jarayoni o‘rganilayotgan masalaning qo‘yilishi bilan boshlanadi. O‘rganilayotgan masala murakkab va ko‘p komponentali bo‘lishi mumkin. Biz bir vaqtning o‘zida o‘rganilayotgan jarayonning hamma xossa va xususiyatlarini bila olmaymiz. Shuning uchun shunga mos ravishda o‘rganilayotgan jarayonning ba’zi bir xossa va xususiyatlarini ajratib olamiz. Uning natijasida, masalaning aniq mohiyati kelib chiqadi.

2. Jarayonni o‘rganish. Bunda sodir bo‘layotgan jarayon o‘rganiladi, obyektni ko‘rib turgan tashki muhit chegarasi aniqlanadi. Bundan tashqari bu bosqichda o‘rganilayotgan jarayonning hamma ma’lum va noma’lum parametrlari va ularni modellashtirish jarayoniga ta’siri o‘rganiladi.

3. Modelni tavsiflash. O‘rganilayotgan jarayonning hamma ma’lum va noma’lum parametrlarini o‘zaro bog‘lanishini belgilash va ifodalash.

4. Matematik modellashtirish. Tavsiflangan modelni matematika formulalar orqali ifodalash. Bu ifodalar o‘rganilayotgan jarayonning hamma ma’lum va noma’lum parametrlari orasidagi bog‘lanishni ifodalaydi. Bunday ifodalanish turli xil ko‘rinishdagi matematik, matematik dasturlash, chizikli algebra, differensial va integral hisoblash va boshqalar masalalar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

5. Masalani yechish usulini tanlash yoki yaratish. Bu bosqichda vujudga kelgan matematik masala uchun mos keluvchi usul tanlanadi.

Bugungi kunda o‘quv jarayonini tashkil etishda kompyuterli modellashtirishdan keng foydalanilmoqda. Kompyuterli modellashtirish o‘quvchilarga o‘rganilayotgan jarayon mazmunini anglab olish, uni kompyuter ekranida ko‘rish, o‘zgartirish va ma’lum bir natijaga erishish imkoniyatini yaratadi.

Kompyuter modellari modellashtirishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, fizika, iqtisodiyot, mexanika, ximiya, biologiya, astrofizika va boshqa sohalarda amaliy masalalarni yechishda ishlatiladi. Kompyuter modellari o‘rganilayotgan jarayon yoki obyektlar to‘g‘risida hamda ularni holatini taqribiy baholash haqida to‘liqroq va yangi ma’lumotlarni olish uchun ishlatiladi.

Kompyuterli modellashtirish murakkab tizimlarni o‘rganishning samarali usullaridan biri bo‘lib, kompyuter modellari ustida real tajribalar o‘tkazish qiyinchilik tug‘diradigan holatlarda tekshirish o‘tkazishda sodda va qulay imkoniyatni yaratadi. Kompyuter modeliga jarayon yoki obyektlar haqida aniqlangan qanchalik ko‘p xossalar kiritilsa, u shunchalik haqiqiy jarayon yoki obyektga yaqin bo‘ladi hamda o‘rganish imkoni shunchalik yuqori bo‘ladi.

Kompyuterli modellashtirish kompyuterda ko‘p maratoba takroriy hisoblash tajribalarini o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘rganilayotgan jarayon yoki obyektning real holati bilan modellashtirish natijalarini tahlil qilish, modelning mosligi va aniqligini tekshirish vazifasini bajaradi.

O‘quv jarayonini tashkil etishda kompyuterli modellashtirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– o‘rganilayotgan jarayon yoki obyekt sohasini kengaytiradi;
– real sharoitda ro‘y bermaydigan, takrorlanmaydigan jarayonlar, oldingi va keyingi jarayonlarni o‘rganish imkonini beradi;
– abstrakt obyektlarni vizuallashtiradi;
– vaqt bo‘yicha tekshirish, tezlatish yoki sekinlashtirish;
– jarayonni yoki obyektni sonli yoki grafik ko‘rinishlardagi xossalarini o‘rganadi.

Dars jarayonini tashkil etishda kompyuterli modellashtirishning quyidagi bosqichlaridan foydalaniladi:

– masalaning qo‘yilishi va uning tahlili;
– informatsion modelni yaratish;
– kompyuter modelini hal qilish metodini tanlash va algoritmini tuzish;
– kompyuter modelini yaratish;
– tajriba o‘tkazish.

O‘quv jarayonini tashkil etishda kompyuterli modellashtirish metodidan foydalanish tamoyillari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

– kompyuter modeli tajribani o‘tkazish mumkin bo‘lmagan yoki tajriba kuzatib bo‘lmas darajada harakatlangan paytda qo‘llanilishi lozim;
– kompyuter modeli o‘rganilayotgan detalni aniqlashda yoki yechilayotgan masalaning illyustratsiyasida yordam berishi kerak;
– tajriba natijasida talabalar model yordamida hodisalarni xarakterlovchi kattaliklarning ham sifatiy, ham miqdoriy bog‘lanishlarini ko‘ra bilishlari kerak;
– model bilan ishlash paytida talabalarning vazifasi turli murakkablikdagi topshiriqlar ustida ishlashdan iborat, chunki bu o‘z ustida mustaqil ishlashga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda o‘quv jarayonini tashkil etishda modellashtirish vositalaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

– o‘quvchilarda fanni o‘rganishga qiziqishni oshiradi;
– kompyuter bilan ishlashni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi;
– kompyuterlardan foydalanish bilan bog‘liq dunyoni ilmiy bilishning hozirgi zamon metodlari bilan tanishtiradi;
– ta’limda o‘quvchining individuallik darajasini oshiradi;
– o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi;
– materiallar mazmunining xilma-xilligini ta’minlaydi;

– ta’limda foydalaniladigan o‘quv materiallari doirasini kengaytiradi;
– ta’limda ko‘rgazmalilikni kuchaytiradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi “2017 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘grisidagi PF-4947-son Farmoni.
2. Беспалько В. П. Образование и обучение с участием компьютеров– М.: Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2002. – 352 с.
3. Дахин А.Н. Педагогическое моделирование: сущность, эффективность и неопределенность // Педагогика. 2003. № 4. С. 21-26.
4. Могилев А.В., Титоренко С.А. Дидактические принципы компьютерного обучения // Педагогическая информатика. - 1993. - №2. - С. 10-16.
5. Лебедева И. П. О технологиях обучения в вузе на основе математического моделирования // Современные исследования социальных проблем. 2012. № 4 (12)

UDK: 378:796.8(575.1)

O‘ZBEK KURASHINING DUNYODA OMMAVIYLASHUVI TAHLILI

O. E. Toshmurodov
Samarqand davlat universiteti
sport@samdu.uz

Annotatsiya. Maqolada kurashning taraqqiyoti va ommalashuvi O‘zbekistonning qadrlanadigan sport turlaridan biri sifatida tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida kurash nafaqat O‘zbekistondagi eng qiziqarli va mashhur sport turlaridan biri bo‘ldi, balki turli qit'alarda ham faol rivojlandi. Kurash, halollik, jasorat va kamtarlik kabi ajoyib fazilatlarni o‘zida mujassam etgan yuzlab va minglab sportchilarni o‘ziga jalb qiladi. Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi kurashni ommaviylashtirish va global ishonchlilikni yanada oshirish uchun maqsadli tadbirlarni amalga oshiradi.

Kalit so‘zlar: kurash, musobaqa, tashviqot-targ‘ibot, xalqaro turnirlar, jahon chempionati.

Анализ популяризации узбекского кураша в мире

Аннотация. В статье проанализирован ход развития и популяризации кураша – как одного из почитаемых видов спорта в Узбекистане. В годы независимости кураш стал одним из самых интересных и массовых видов спорта не только в Узбекистане, но и активно развивается на разных континентах. Кураш привлекает сотни и тысячи спортсменов тем, что воплощает такие благородные качества, как честность, мужество, скромность. Международной ассоциацией кураш, проводится целенаправленная деятельность по популяризации кураша, массовости и дальнейшему повышению мирового авторитета.

Ключевые слова: кураш, соревнование, агитация и пропаганда, международные турниры, чемпионаты мира.

Analyzing of popularization of Uzbek kurash

Abstract. The article analyzes the course of development and popularization of kurash - as one of the esteemed sports in Uzbekistan. In the years of independence, kurash became one of the most interesting and popular sports not only in Uzbekistan, but also actively developed on different continents. Kurash attracts hundreds and thousands of athletes that embodies such noble qualities as honesty, courage, modesty. The International Kurash Association, carries out targeted activities to promote kurash, the mass and further increase global credibility.

Keywords: kurash, competition, propaganda, international, tournaments, World Championships.

Dolzarbligi. O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sportning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri aniq ifodalangan milliy xarakterdagi sport turlari, ag‘darish, ko‘pkari, poyga, kurash xalq o‘yinlari va hokazolarning birligidir. Bu sport turlarining hammasi qadim zamonlarda paydo bo‘lgan. Taraqqiyotning har bir tarixiy bosqichida turli ijtimoiy vazifani bajargan va o‘z shaklini o‘zgartirgan [1].

Qadimiy Sug‘diyona markazi bo‘lgan Samarqandda Navro‘z bayrami har doim xalq tomoshalari bilan o‘tgan. Bu yerda xalq san’at vakillari, baxshilar, xonandalar, hofizlar, dorbozlar, raqqoslar o‘z

san'atini namoyon qilishgan. Lekin har bir bayram kurashsiz o'tmagan. Musobaqa natijasida har yili kurashchilardan biri Sug'diyona polvoni nomini olgan. Bayramlarda u obro'li joyda o'tirgan va kurash tushishni istagan har kishini bellashuvga chaqirgan. Odatda talabgorlar ko'p bo'lgan. Ba'zi vaqtlarda asosiy polvon va kuchiga ko'ra unga munosib raqiblar o'rtasidagi kurash hatto bir necha kun davom etgan [2]. Bundan tashqari, qadimda davlatlar va qabilalar o'rtasidagi mojarolar ularning vakillari olishuvida hal qilinganligi haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish va yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayon bo'ldiki, demak bundan ming yillar avval ham O'zbekiston hududida usullar tizimi yetarlicha rivojlangan va aniq shakllangan milliy kurash mavjud bo'lgan.

Asrlar davomida shakllangan, shaxsning kamolotga erishuvida muhim ahamiyat kasb etgan kurash ba'zi davrlarda, xususan 130 yildan ziyod vaqt davom etgan chor mustamlakasi va sho'rolar hukmronligi paytida anchayin zavol topdi, oyoqosti qilindi. Totalitar tuzum mustasaddilari mahalliy xalqni ruhan ko'taradigan, mudroq qalbini uyg'otib, faxr va g'urur bag'ishlaydigan kurash singari milliy qadriyatlarimizning payini qirqishdan manfaatdor edilar. Shu bois ham avloddan-avlodga o'tib, sayqal topib kelgan o'zbek kurashi sho'rolar davrida ro'yobga chiqa olmadi [3].

Biroq jism-u dilida buyuk ajdodlar qoni gupurib turgan, ularning ma'naviy merosidan qandaydir darajada bahra olgan beli baquvvat polvonlar tor doirada bo'lsa ham kurash udumiga sodiq qoldilar. Mustaqillik yillarida asrlar sinovidan, murakkab davrlardan mardona o'tgan, chinakam mardlar bahsi, ezgu niyatlar oliy maqsadlar bo'lib e'tirof etilgan kurash yana xalq nazariga tushdi va davlat darajasidagi muhim ishga aylandi. Bir necha yildirki jahon ommasining mehrini qozonib dunyo sport sahnasida o'z o'rnini topdi.

Kurash sportini dunyoda ommaviylashuvini tahlil qilish va o'rganish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Kurash sportining ommaviylashuvida respublikamizda o'tkazilgan xalqaro turnirlar va targ'ibot-tashviqot ishlarining o'rnini aniqlash;
- Kurash sportining ommaviylashuvida xalqaro muhim uchrashuvlarning rolini aniqlash;
- Kurash sportining ommaviylashuvida Jahon chempionatlarining o'rnini aniqlash.

Komiljon Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan yangi qonun-qoidalar asosida birinchi bor 1991-yil 7-10-avgust kunlari Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalarining polvonlari ishtirokida katta kurash musobaqasi (sayli) o'tkazildi. Ana shu yangi qonun-qoidalar asosida 1992-yildan boshlab nufuzli bellashuvlar boshlanib ketdi. Muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'tmishda yashab o'tgan barcha pahlavonlar va ulug' allomalarning ruhlarini shod etishni kurash bo'yicha xalqaro turnirlar o'tkazish bilan boshlagan edi. Qorako'lda Tursun ota, Shaxrisabzda Amir Temur, Surxondaryoda At-Termiziy, Buxoroda Baxouddin Naqshband, Andijonda Bobur Mirzo, Xorazmda Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlab Prezident sovrini uchun o'tkazilgan xalqaro turnirlar kurashni yuksak darajaga ko'tarilishida, sport olamiga yangi tur bo'lib kirishiga katta hissa qo'shdi. Chunki kurash ilk musobaqalardayoq jozibadorligi va jangovarligi, go'zalligi va halolligi bilan barcha ishtirokchilarning, xorijiy mutaxassislarning mehrini qozondi. Biroq mamlakatimizda o'tkazilgan bu bellashuvlar kurashni dunyo sportiga aylantirishga kamlik qilardi. Shu sababli o'tgan yillar maboynida kurash mutaxassislari tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- 1992-yili Kanadada o'tkazilgan «dzyudo» bo'yicha jahon chempionati hamda «dzyudo» federatsiyasining butun jahon Kongressida ilk bor kurash (o'zbek kurashi) targ'ib etildi;
- 1994-yilda Xirosima shahrida bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida kurash musobaqalaridan yozib olingan video tasvirlar namoyish etildi;
- 1995-yil Hindistonda o'tkazilgan «dzyudo» federatsiyasining Osiyo Kongressida kurash haqida atroflicha ma'lumot yetkazildi;
- 1998-yil 6-7-mart kunlari Irlandiyaning Dublin shahrida Yevropa «dzyudo» uyushmasi taftish hay'ati yig'ilishi o'tkazildi. Ushbu yig'ilishda kurash haqida yozma va video lavhalar namoyish qilindi;
- 1998-yil 15-18-aprelda Monako shahrida o'tkazilgan «dzyudo» uyushmasining 50 yillik yubiley Kongressiga O'zbekistonlik vakillar (kurash sporti vakillari) taklif etildi [4].

Tinimsiz mehnat, ko'plab izlanish va sa'y-harakatlar sababli 1998-yil 6-sentabrda Lotin Amerikasi, Yevropa va Osiyo qit'asining 28 ta davlatidan kelgan vakillar ishtirokida Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis kongressida Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi (KXA) tuzilganligi, xalqimizning milliy kadriyati «Kurash» nomi bilan jahon maydoniga chiqqanligi e'tirof etildi.

- Kurash sportini butun dunyoda ommaviylashtirish maqsadida o'sha yillarda Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi Prezidenti bo'lgan K.Yusupov 1993-yil Litva Prezidenti Algirdas Bazauskos bilan uchrashdi va Litvada kurashni rivojlantirish bo'yicha muzokara olib bordi. 2000-yil Xalqaro Olimpiada

Qo‘mitasi a’zosi Palo Shmitt bilan uchrashdi va Vengriyada kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi. 2002-yil Hindiston Milliy Kongres partiyasi lideri Soney Gandi bilan uchrashdi va Hindistonda kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi. 2002-yil Xalqaro Olimpiada Qo‘mitasi a’zosi Vitaliy Smirnov bilan uchrashdi va Rossiyada kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi. 2002-yil Xalqaro Olimpiada Ijroi Qo‘mitasi a’zosi Sergey Bubka bilan uchrashdi va Ukrainada kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi. 2002-yil Xalqaro Olimpiada Qo‘mitasi a’zosi Xalqaro Og‘ir atletika federatsiyasi Prezidenti Tamosh Ayan bilan uchrashdi va Vengriyada kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi. 2004-yil FIFA Prezidenti, Xalqaro Olimpiada Qo‘mitasi a’zosi Yozef Blatter bilan uchrashdi va Yevropada (Shvesariyada) kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi. 2005-yil Xalqaro Olimpiada Qo‘mitasi Prezidenti Jak Rogge bilan uchrashdi va Jahonda kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi. 2005-yil Xalqaro Olimpiada Qo‘mitasi bosh direktori Urso Lakotto bilan uchrashdi va Jahonda kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi. 2006-yil Osiyo Olimpiada Qo‘mitasi Prezidenti, Xalqaro Olimpiada Qo‘mitasi a’zosi Shayx Ahmad Al-Sabah bilan uchrashdi va Osiyoda kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi. 2006-yil Afrika Milliy Olimpiada Assotsiatsiya Qo‘mitasi Prezidenti, Xalqaro Olimpiada Qo‘mitasi a’zosi Lassana Palenfo bilan uchrashdi va Afrikada (Kot-d Ivuarda) kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi. 2006-yil Xalqaro Olimpiada Qo‘mitasi a’zosi Osiyo Olimpiada kengashi bosh kotibi Randxir Singx bilan uchrashdi va Hindistonda kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi. 2006-yil Milliy Olimpiada Assotsiatsiya Qo‘mitasi Prezidenti, Xalqaro Olimpiada ijroi Qo‘mitasi a’zosi Panamerika Olimpiada Qo‘mitasi Prezidenti Mario Vazkez Ranya bilan uchrashdi va Panamerikada (Meksikada) kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi. 2007-yil Mo‘g‘iliston Prezidenti Yenxbayar Nabmarin bilan uchrashdi va Mo‘g‘ilistonda kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi. 2007-yil Yevropa Olimpiada Qo‘mitasi Prezidenti, Xalqaro Olimpiada Qo‘mitasi a’zosi Patrik Xiki bilan uchrashdi va Yevropada (Irlandiyada) kurashni rivojlantirish bo‘yicha muzokara olib bordi[5].

Kurash sportini ommaviylashuvida jahon chempionatlarining rolini aniqlash maqsadida jahon chempionatlari qayerda o‘tkazilganligi, nechta davlat ishtirok etganligi va sovrindor bo‘lgan davlatlar soni tahlil qilindi.

Birinchi Jahon chempionati 1999-yil 1-2-may kunlari, O‘zbekiston Respublikasining Toshkent shahrida o‘tkazilgan. Musoboqa erkaklar o‘rtasida uchta vazn toifasida bo‘lib o‘tgan.

Ikkinchi Jahon chempionati 2000-yil 13-17-iyul kunlari Turkiyaning Antaliya shahrida o‘tkazilgan. Musoboqa erkaklar o‘rtasida uchta, qizlar o‘rtasida bitta vazn toifasida bo‘lib o‘tgan.

Uchinchi Jahon chempionati 2001-yil 25-26-avgust kunlari Vengriyaning Budapesht shahrida o‘tkazilgan. Musoboqa erkaklar o‘rtasida mutloq, qizlar o‘rtasida bitta vazn toifasida bo‘lib o‘tgan

To‘rtinchi Jahon chempionati 2002-yil 30-avgust, 2-sentabr kunlari Armanistonning Yerevan shahrida o‘tkazilgan. Musoboqa erkaklar o‘rtasida to‘rtta, qizlar o‘rtasida uchta vazn toifasida bo‘lib o‘tgan.

Beshinchi Jahon chempionati 2005-yil 26-27-noyabr kunlari, O‘zbekiston Respublikasining Toshkent shahrida o‘tkazilgan. Musoboqa erkaklar o‘rtasida yettita, qizlar o‘rtasida to‘rtta vazn va mutloq vazn toifasida bo‘lib o‘tgan.

Oltinchi Jahon chempionati 2007-yil 25-29-oktabr kunlari, Mo‘g‘ilistonning Ulan-Bator shahrida o‘tkazilgan. Musoboqa erkaklar o‘rtasida yettita, qizlar o‘rtasida ikkita vazn va mutloq vazn toifasida bo‘lib o‘tgan.

Yettinchi Jahon chempionati 2009-yil 9-10-oktabr kunlari, Ukrainaning Alushta shahrida o‘tkazilgan. Musoboqa erkaklar o‘rtasida yettita, qizlar o‘rtasida yettita vazn toifasida bo‘lib o‘tgan.

Sakkizinchi Jahon chempionati 2011-yil 22-23-oktabr kunlari, O‘zbekistonning Termiz shahrida o‘tkazilgan. Musoboqa erkaklar o‘rtasida yettita, qizlar o‘rtasida yettita vazn toifasida bo‘lib o‘tgan.

To‘qqizinchi Jahon chempionati 2013-yil 14-15-dekabr kunlari, Turkiyaning Stanbul shahrida o‘tkazilgan. Musoboqa erkaklar o‘rtasida yettita, qizlar o‘rtasida sakkizta vazn toifasida bo‘lib o‘tgan.

O‘ninchi Jahon chempionati 2015-yil 5-6-noyabr kunlari, Eronning Xurramobod shahrida o‘tkazilgan. Musoboqa erkaklar o‘rtasida yettita vazn toifasida va mutloq vazn toifasida bo‘lib o‘tgan.

O‘n birinchi Jahon chempionati 2017-yil 2-3-dekabr kunlari, Turkiyaning Stanbul shahrida o‘tkazilgan. Musoboqa erkaklar o‘rtasida yettita, qizlar o‘rtasida sakkizta vazn toifasida bo‘lib o‘tgan [5].

1999-yil Toshkentda bo‘lib o‘tgan 1-jahon chempionatida Yevropa, Osiyo, Afrika, shimoliy va janubiy Amerika qit’alarining 30 mamlakati vakillari ishtirok etgan. Barcha vazn toifalarida o‘zbekistonlik kurashchilar 1-o‘rinni qo‘lga kiritishgan. Jami sovrindor bo‘lgan davlatlar soni ikkitani tashkil qiladi. 2000 va 2001-yillardagi jahon chempionatlarida ishtirok etgan davlatlar soni birmuncha pasaygan (14 tagacha). 2002-yildagi jahon chempionatidan boshlab musoboqada ishtirok etgan davlatlar soni osha boshlagan. Natijada sovrindor davlatlar soni ham oshgan. O‘n birinchi Jahon chempionatiga kelib ushbu musoboqada ishtirok etgan davlatlar soni 51 taga yetgan. Yillar kesimida 11 ta jahon chempionatida ishtirok etgan va ushbu musoboqalarda sovrindor bo‘lgan davlatlar 1- jadval va 1- rasmda keltirilgan.

1-jadval

Kurash sporti bo‘yicha jahon chempionatlarida sovrindor bo‘lgan davlatlar

№	Jahon chempionatida ishtirok etgan davlatlar soni	Ruxsat etilgan vazin toifalari soni		Jahon chempionatida 1,2,3 o‘rinlarni egallagan davlatlar soni			Jami sovrindor bo‘lgan davlatlar soni
				I-o‘rin	II-o‘rin	III-o‘rin	
1	1999-yil O‘zbekistonda 30 ta	Erkaklar	3	1	1	2	2
		Qizlar	-	-			
2	2000-yil Turkiyada 21 ta	Erkaklar	3	2	2	2	2
		Qizlar	1	1	1	2	
3	2001-yil Vengriyada 14 ta	Erkaklar	1	1	1	2	3
		Qizlar	1	1	1	2	
4	2002-yil Armanistonda 28 ta	Erkaklar	4	4	6	7	8
		Qizlar	3	2	4	4	
5	2005-yil O‘zbekistonda 32 ta	Erkaklar	8	3	5	12	22
		Qizlar	5	3	2	8	
6	2007-yil Mangoliyada 33 ta	Erkaklar	8	2	3	14	20
		Qizlar	3	1	5	5	
7	2009-yil Ukrainada 36 ta	Erkaklar	7	3	5	10	18
		Qizlar	7	5	3	7	
8	2011-yil O‘zbekistonda 50 ta	Erkaklar	8	6	4	9	16
		Qizlar	7	4	3	8	
9	2013-yil Turkiyada 39 ta	Erkaklar	7	5	5	8	17
		Qizlar	8	5	5	10	
10	2015-yil Eronda 35 ta	Erkaklar	8	2	3	7	8
		Qizlar	-				
11	2017-yil Turkiyada 51 ta	Erkaklar	7	3	3	9	13
		Qizlar	8	3	4	6	

Xulosa. Kurash mutasaddilarining olib borgan sa’yi harakatlari, targ‘ibot-tashviqotlari, xalqaro muhim uchrashuvlari besamara ketmadi. Natijada:

- qit’amizni ikkita nufuzli musobaqasi, yopiq inshoatlarda o‘tkaziladigan to‘rtinchi qit’a o‘yinlari va yakkakurashlar o‘rtasidagi birinchi Osiyo o‘yinlarida ushbu sport turi bo‘yicha rasmiy musobaqalar uyushtirildi;
- 2017-yil 20-sentabrda Ashxabodda Osiyo Olimpiya Kengashining 39 Bosh Assamblesida kurash birinchi bor Indoneziyada bo‘lib o‘tadigan XVII Osiyo o‘yinlari dasturiga rasman kiritildi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktabrdagi “Kurashni rivojlantirish chora-tadbirlari” qaroriga asosan 6 sentabr – kurash kuni deb e’lon qilindi.



1-rasm. *Yillar kesimida kattalar o‘rtasida jahon chempionatida ishtirok etgan va sovrindor bo‘lgan davlatlar soni*

Bugun dunyo bo‘yicha 30 milliondan ortiq yoshlar kurash bilan muntazam shug‘ullanishadi. Dunyoning turli burchaklarida kurashni bilishadi, uni sevishadi. Buni chet ellarda kurash bo‘yicha

o‘tkaziladigan musobaqalar misolida ko‘rishimiz mumkin. O‘z tillarida kurash qo‘llanmalarini chop qilgan davlatlar soni 50 dan oshdi. Bu esa kurashni butun dunyoda yanada chuqurroq o‘rganishga, bilishga zamin yaratadi.

Ta’kidlash mumkinki, kurash dunyo sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan, avlod-u ajdodlardan bizgacha yetib kelgan ma’naviy meros – katta bir xazinadir. Bu xazina bugun yoshlar tarbiyasida muhim omil bo‘lmoqda. Sayyoramizning turli qit’a va yurtlarida istiqomat qiluvchi ne-ne xalqlar, elatlar kurashning jozibasiga, uning insonparvarlik, baynalminallik, bag‘rikenglik g‘oyalariga mahliyo bo‘lib, sevimli sport turi sifatida qabul qilmoqdalar.

Adabiyotlar

1. Atoyev A.Q. O‘quvchi yoshlarni o‘zbek kurashiga o‘rgatish uslubiyati. –Toshkent. 2005. –3 b.
2. Atoyev A. Q. Kurash. – Toshkent, 1987. – 27 b.
3. Yusupov K. Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. – Toshkent, 2005. – 21 b.
4. Toshmurodov O.E. Milliy kurashning nazariy asoslari. – Samarqand. 2017. – 10 b.
5. Kurash IKA/org.

UDK: 378:004.9

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA USULLARDAN FOYDALANISH ORQALI O‘QITISH SIFATINI OSHIRISH SHARTLARI

V. Q. Begimqulova

Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

vbegimkulova86@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada hozirgi kundagi ta’lim tizimida pedagoglar tomonidan qo‘llaniladigan innovatsion ta’lim texnologiyalari va innovatsion g‘oyalar haqida fikr yuritilgan bo‘lib, bugungi kunda hshakllanayotgan professional ta’lim tizimi uchun nihoyatda zarurdir.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyalar, o‘qitish usullari, loyiha metodi, tadqiqot usuli, reyting tizimi, nazorat.

Условия повышения качества преподавания за счет использования инновационных технологий и методов

Аннотация. В статье дается представление об инновационных образовательных технологиях и инновационных идеях, используемых педагогами в современной системе образования, что абсолютно необходимо для формируемой сегодня системы профессионального образования.

Ключавые слова: инновационные технологии, методы обучения, проектный метод, метод исследования, рейтинговая система, контроль.

Conditions for improving the quality of teaching through the use of innovative technologies and methods

Abstract. The article gives an idea of innovative educational technologies and innovative ideas used by educators in the current education system, which is absolutely necessary for the professional education system that is being formed today.

Keywords: innovation technology, teaching methods, project method, research method, rating system, control.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi inson faoliyatining muhim sohasi bo‘lib, u ijtimoiy institutlardan biri bo‘lib, uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jamiyatning axborot-texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tomon rivojlanishi bilan ta’lim tizimida ham muhim o‘zgarishlar amalga oshmoqda. Bu esa ta’lim tizimida juda katta muammolarni keltirib chiqarishga sabab bo‘lmoqda. Ushbu muammoni hal qilish uchun ta’limning zamonaviy innovatsion g‘oyalarini ishlab chiqish, innovatsion pedagogik texnologiyalar, o‘qitish usullari va shakllarini yaratish zarurdir. Ma’lumki, ta’lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo‘la olmaydi. Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari o‘rtasidagi asosiy farqlarini bilib olishimiz zarur. Agar faoliyat qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmasa, o‘z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba’zi elementlarini o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u holda biz “novatsiya” xususida fikr yuritayotgan bo‘lamiz. Agar faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa va uning natijasi

o‘sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o‘zgarishiga olib kelsa “innovatsiya” degan tushuncha shakllanadi [1, 33-40 b]. Ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham o‘rganilgan. Innovatsion faoliyat – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi [2, 21-27 b]. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining yuzaga kelgan me’yor bilan to‘qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga qaratiladi. Innovatsiyalar doimiy ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta’lim rivojiga hissa qo‘shadi va pedagogik faoliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi kunda interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga kiritishga qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishga, mustaqil o‘rganish, tahlil qilish va olingan bilimlardan o‘zlari xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Innovatsion texnologiyalar inglizchadan “innovaton” yangilik kiritish – pedagogik jarayon, ya’ni o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyati o‘zgarish, yangilik kiritish, o‘quv jarayonida interaktiv metodlardan to‘liq foydalanishni o‘z ichiga oladigan vositalar esa o‘quvchining birgalikda faoliyat orqali ta’lim mazmuniga ta’sir ko‘rsatadigan vositalarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li – bu mashg‘ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Xo‘sh, interfaol metodlarning o‘zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta’lim jaraènida interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadga muvofiq qo‘llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuningdek, ta’lim tizimi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bugun ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

– faoliyat yo‘nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi);
– kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra (lokal, modulli, tizimli);
– kelib chiqish manbaiga ko‘ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o‘rganilgan. Innovatsion faoliyat – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining yuzaga kelgan me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga qaratiladi. Innovatsiyalar doimiy ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta’lim rivojiga hissa qo‘shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [4, 21-27 b].

Bugungi kunda O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi qaror topdi. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash zarurati ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro‘yobga chiqarish shartlaridan biridir. “Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta’minlashni nazorat ostiga olish zarur”ligini alohida ta’kidlab keladilar. Bugungi kunda olimlar va o‘qituvchilar tomonidan ilg‘or pedagogik texnologiyalar va shakllarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri bo‘lib belgilandi. Hozirgi zamon sharoitida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o‘qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Chunki yangi pedagogik texnologiyalarni ahamiyati shundaki, unda qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun o‘quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg‘ulotlarning muvaffaqiyatli o‘tishining 80 foizi ta’lim jarayonini to‘g‘ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog‘liqdir [7, 29-32 b].

O‘quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta’lim mazmunini, ta’lim maqsadi, kutilayotgan natijani aniq belgilash, ta’lim metodlari, shakllari va vositalarini to‘g‘ri tanlash, o‘quvchi va talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashni real mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg‘ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni samarali amalga oshirish va bir-biri bilan uyg‘unlashuviga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir [3, 29-32 b]. Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog‘liq xususiy nazariyasiga ega. U avvalo o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qitishning axborotli vositalaridan, didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan faoliyat ya’ni, o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi. Pedagogik texnologiyaning eng muhim yutuqlaridan biri – testlar fondini, o‘quv jarayonining borishini to‘la qamrab olgan nazorat-tekshiruv topshiriqlar to‘plamini yaratilishidir. Oldindan tayyorlangan, standartlashgan testlar ishda anchagina qulaylik tug‘diradi. Har bir o‘quv siklida test yordamida baholash tezkor qaytuvchan aloqa o‘rnatishga imkon beradi va o‘quv jarayonini belgilangan maqsad tomon ketma-ket ravishda yo‘naltirib turadi. Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati va ahamiyatini chuqurroq tushunish uchun, bizning fikrimizcha, pedagogik jarayonga kompleksli nuqtayi nazardan qarash kerak, chunki pedagogik jarayon, ta’lim va tarbiya jarayondan iborat bo‘lib, juda murakkab, ko‘pqirrali jarayondir [8,78-85 b].

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy bo'g'inga aylanadi [5, 65-70 b].

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan, interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi [6, 55-62 b].

Kelajakda ta'lim taraqqiyotining asosiy va kerakli harakatlantiruvchi kuch sifatida o'qituvchi faoliyatini yangilashga, ta'lim-tarbiya jarayonini maqbul tarzda qurishga, talaba yoshlarda fikrlash qobiliyatini kengaytirish, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa hozirgi rivojlanayotgan professional ta'lim tizimi oldidagi muhim talablardan biri hisoblanadi. Shuningdek, o'quv jarayoniga ta'lim texnologiyalari va innovatsion ta'lim metod va texnologiyalarni qo'llash nihoyatda zarur ekanligi joizdir.

Adabiyotlar

1. Omonov H.T., Xo'jayev N., Madyarova S.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2012.
2. Muslimov N., Usmonbekova M., Sayfurov D., To'rayev A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T., 2015.
3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari / O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.
4. Ishmuhammedov R. Ta'limda innovatsiya. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2010.
5. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008. – 164 b.
6. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar / Ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009. – 160 b.
8. Ishmuhammedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2010.

УДК: 491.7:494.3

ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В НАЦИОНАЛЬНОЙ АУДИТОРИИ

Н. С. Тойчиева
Самарканд государственный университет
toychiyeva67@bk.ru

Аннотация. В статье рассмотрено явление методики обучения навыков и умением устной русской и английской речи при употреблении падежей и глагольных видовременных форм изучаемого языка. В процессе формирования и развития навыков и умений устной русской и английской речи на базе падежных и видовременных форм русского падежа и английского глагола в условиях узбекской многоязычной аудитории.

Ключевые слова: иностранный язык, национальные школы, методика обучения, глагол, узбекский язык, падежи, акценты, разговоры, предлог.

The problem of teaching the Russian language in a national audience

Abstract: Summary. In the article trainirg of skills and ability of the oral Russian and the English speech is considered the technique phenomenon at the use of cases and verbal aspectual-temporal forms of the Russian case and the English verb in the conditions of Uzbek multilingual audiences.

Keywords: foreign language, national schools, methods of teaching, verb, Uzbek cases accents convertation preposition.

Milliy auditoriyalarda rus tilini o‘qitish muammolari

Annotasiya. Ushbu maqolaning maqsadi rus va ingliz tilining jiddiy muammolaridan biri, og‘zaki nutqni rivojlantirish, ularni qo‘llash, o‘rgatish ko‘nikmalari qobilyatini o‘rganish mumkinligidandur. Rus va ingliz tilidagi keskin shakllari va o‘zbek tilidagi ko‘p tilli o‘quv xonalari bazasidagi og‘zaki va rus tilini bilish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonidagi muammolar: 3 ta rod, 3 ta skloneniya (turlanish) va rus tilidagi so‘zlar 3 ta skloneniye bo‘yicha kelishikda turlicha qo‘shimchaga ega bolishligidan iborat.

Kalit so‘zlar: xorijiy til, milliy maktablar, fe`l, o‘zbek tili, kelishik, talaffuz, so‘zlashuv, ko‘makchi.

Преподавание иностранных языков в национальной аудитории имеет свои характерные трудности, на которые обращал внимание, ещё Л.В.Щерба, указывая на наличие местных сложных вопросов. Эти специфические трудности заключаются в том, чтобы при изучении иностранных языков учащиеся национальной аудитории испытывают влияние не только родного языка, но и других изучаемых в это время языков.[1.,С. 82]. Поэтому в качестве одной из мер коренного улучшения преподавания русского и иностранных языков в узбекских национальных аудиториях необходимо детально разработать вопросы методики объяснения ряда важнейших явлений изучаемого языка в плане сопоставления не только с родным языком учащихся, но и создать соответствующие методические пособия.

Все знают, что знания учащимися русского языка оказывают большую помощь делу преподавания иностранного языка, т.е. в нашем случае английского в узбекских национальных школах, так этот язык является не вторым, а третьи изучаемым языком для учащихся этих школ.

Предметом исследования настоящей статьи является методика обучения навыков и умением устной русской и английской речи при употреблении падежей и глагольных видовременных форм изучаемого языка.

Объектом исследования является процесс формирования и развития навыков и умений устной русской и английской речи на базе падежных и видовременных форм русского падежа и английского глагола в условиях узбекской многоязычной аудиториях. Использование знаний, умений и навыков учащихся по родному языку при обучении иностранному способствует сознательному и прочному усвоению изучаемого иностранного языка. Преподаватели иностранного языка в этих аудиториях строят свою работу, используя знания, умения и навыки учащихся по русскому языку, а не по родному даже в тех случаях, когда знания родного языка послужили бы более удобной опорой для понимания и усвоения изучаемого явления иностранного языка.

Знания учащимися русского языка оказывает большую помощь делу преподавания иностранного языка в узбекских национальных школах, аудиториях, так как этот язык является не вторым, а третьим изучаемым языком для учащихся этих школ.

Роль русского языка в обучении английскому ещё более возрастает в будущем, когда будет осуществлена реформа системы образования с увеличением объема времени отведенного на изучение иностранного, здесь следует отметит, что сопоставлению с родным языком учащимся узбекистанцам нужно прибегать тогда, когда в русском языке нет аналогий для изучаемых явлений английского языка, а в родном языке есть. В остальных случаях следует проводить объяснение нового материала с использованием знаний, умений и навыков учащихся по русскому языку.

Например, объяснение предлогов английского языка в сопоставлении их эквивалентами в узбекском языке, т.е. соответствующими падежными аффиксами было бы менее национальным, с методической точки зрений так, как это потребовало больше усилий и времени для их усвоения из-за сложности взаимоотношений между способами выражения пространственных отношений в английском и узбекском, русском языках. А при объяснении большинства предлогов английского языка в узбекских аудиториях очевидна целесообразность использования знаний учащихся по русскому языку, а не по узбекскому, поскольку русский язык располагает соответствующими предлогами, тогда как узбекскому языку вовсе не присуща категория предлога как части речи. Работая над объяснением формы present contours (progressive), учителям узбекских школ, лицеев и колледжей, т.е в аудиториях следует проводить предварительное сопоставление дифференциальных признаков этого временного плана с таковыми в узбекском языке, а в процессе урока с помощью специально подготовленных таблиц парадигм глаголов показать совпадающие элементы на этапе презентации, только затем подводит учащихся к самостоятельному выводу об однотипности способов образования и сходства семантики так называемых продолженных (процессуальных) времен в английском языке и соответствующих им текущих времен в их родном языке.

Затем, необходимо выполнение упражнений на условном переводе предложений с узбекского языка такого же порядка слов, что и в английском, т.е. на употреблении вспомогательного глагола перед смысловым. Такой подход (непременно) заинтересует учащихся, они легко выделяют сказуемое в сопоставляемых парах и определяют сходство их внешнего структурного оформления:

Русский язык	Узбекский язык	Английский язык
Я читаю письмо. *Он работает в кабинете.*	*Мен хат ўқияпман.* *У хонада ишлаяпти.*	*I am reading letter.* *He is working in the room.*

Таким образом, путем установления аналогий в сопоставляемых языках, достигается большая экономия времени и максимальная доступность содержания объяснимого языка того материала. Экономным и рациональным способом является объяснения в таких случаях, практическое сопоставление сходных фактов-иностранного и родного языка на конкретных примерах или с помощью таблиц путем указания учащихся на семантическую близость дифференциальных признаков сравнительных форм в данных примерах на сходство или однотипность их структурного оформления.

В конце такого объяснения можно дать учащимся в качестве обобщения правило по изучаемому материалу. Основной для осознания данного материала будут те смысловые связи, которые возникли у учащихся в результате сопоставления конкретных примеров в двух (трех) языках.

Объяснения английских видовременных форм в узбекских школах, то здесь данная проблема не требует расстановки акцентов, поскольку многие виды знаменных форм английского глагола, в том числе Present Simple и Present Progressive имеют аналоги в родных языках, узбекских национальных школах, как по значению, так и по форме.[2, стр 15].

Здесь еще можно (исследовать) сопоставить падежи русского и узбекского и английского языков. Всем известно, что в русском и в узбекском языке существует 6 падежей, но национальным учащимся очень трудно усвоить, различать падежные окончания русского языка. Сопоставим:

Падежи	Вопросы	Окончания, предлоги
Именительный падеж	*Кто? Что?*	*книга, стол, мать*
Родительный падеж	*Кого? Чего?*	*книги, стола, матери*
Дательный падеж	*Кому? Чему?*	*книге, столу, матери*
Винительный падеж	*Кого, Что?*	*книгу, стол, мать*
Творительный падеж	*Кем? Чем?*	*книгой, столом, матерью*
Предложный падеж	*О ком? О чём?*	*о книге, о столе, о матери*

Вышеуказанные падежные формы и наличие окончаний, использование предлогов является болезненной точкой в национальной аудитории. Эти трудности заключаются в том, что при изучении иностранных языков учащиеся национальной аудитории испытывают влияние не только родного языка, но и других изучаемых в это время языков.

Ещё хочу обратить внимание на то, что в узбекском языке нет 3 склонений, которые существуют в русском языке. И это склонение в русском языке, служит для правильного выставления падежных окончаний. Чтобы правильно просклонять слова по падежам, надо точно знать, к какому склонению относится, данное слово в русском языке. Таким образом, слова по трём склонениям склоняются по- разному. И конечно, падежные окончания по трём склонениям будут по- разными. А в узбекском языке так, как не существует три (3) склонений, падежные окончания на любое слова одинаковы. В узбекском языке просклонять слова очень проще, чем в русском языке. Хочу отметить о том, что места двух падежей изменены, т.е., расположены по другому, поэтому учащиеся национальной аудитории затрудняются усвоить, правильно поставить падежные окончания русского языка, отсюда начинается неправильное произношение и появление акцентов при устной разговорной речи.

Ещё хочу привести один пример, который, тоже очень влияет усвоению знаний и навыков, развитию разговорной речи русского языка в национальных аудиториях. В узбекском языке, как и во многих тюркских языках, нет категории рода, исходя, из этого категория рода может передаваться разными способами и просто дать перевод русского слова.

Обучающие с трудом усваивают значения предлогов, это вызвано тем, что узбекский язык является языком агглютинативным, т.е. в нём отсутствует система предлогов, а также приобретенными навыками употребления предлогов русского языка.

На основании вышеуказанных соображений можно сделать вывод о том, что объяснение грамматики русского, английского языка в узбекских национальных аудиториях целесообразно и правомерно строить с учетом общей подготовки учащихся, т.е. их теоретико-практических знаний, как по русскому языку, так и по их родному узбекскому языку.

В последние годы с достаточной полнотой были раскрыты и обоснованы изучения иностранных языков. Но большое место было отведено роли родного языка, опора на который и отталкивание от него в процессе обучение не вызывает сомнения. Нам, учителям русского языка, которые проводить урок в национальной аудитории, кажется, что нужно учитывать то, что слушателей в аудиториях отличаются контрастным уровнем знаний. Нужно обратить внимание на средние школы и работа в национальной аудитории убеждают в том, что опора на родной язык не является единственным средством достижения поставленных целей в процессе обучения русскому и иностранному языку в национальной группе.

Литература

1. Fiolologiyaning dolzarb muammolari-2016. Ilmiy maqolalar to‘plami. Samarqand -2016 стр 80-81.
2. Преподавание языка и литературы 05.2011. Научно- методический журнал. №3.стр 15.

UDK: 37.018:004.9

OILADA YOSHLARNING INTERNET TARMOG‘IDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

S. To‘ychiyeva
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola oilada yoshlarning internet tarmog‘idan foydalanish madaniyatini shakllantirishda ota-onalarning savodxonligini oshirish haqida yoritilgan. Bu borada ota-onalarga tavsiyalar berilgan. Oiladagi muhit va internet tarmog‘i o‘rtasidagi munosabatlari ilmiy tahlil qilingan. Ushbu masalani o‘rganish oila pedagogikasi uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: oila, internet, ota-ona, farzand, munosabatlar.

Формирование культуры использования интернета для молодёжи в семье

Аннотация. В этой статье основное внимание уделяется повышению осведомленности родителей о том, как использовать интернет для развития культуры использования интернета для молодежи. Родителям рекомендуется по этому вопросу научно-аналитический анализ взаимосвязей между семейной средой и интернетом. Изучение этой проблемы важно для семейной педагогики.

Ключевые слова: семья, интернет, родители, дети, отношения.

The formation of a culture of using the Internet for youth in the family

Abstract. This article focuses on increasing parents' awareness of how to use the Internet to develop a culture of using the Internet for young people. The relationship between the family environment and the Internet has been scientifically analyzed. Studying this issue is important for family pedagogy.

Keywords: family, internet, parents, children, relationships

Yoshlarning ma’naviy olamini shakllantirishga halaqit qilayotgan illatlar, turli buzg‘unchi g‘oyalar va mafkuralardan ularni asrash borasida bir qator ishlar amalga oshirilishi lozim. Hozirda aksar yoshlarimiz internet tarmoqlaridan keng foydalanmoqdalar. O‘zbekistonda kompyuter texnologiyalari, internet tizimi ijtimoiy-madaniy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bo‘lgan. Texnika tamoyillarining ustuvorlik darajasi mustahkamlanib bormoqda. Buning natijasida yoshlarimizning dunyoni anglash ko‘lami, o‘z bilim-salohiyatini oshirish ehtiyojining qondirilishi holati zo‘rayib bormoqda. Milliy qadriyatlarimiz maskani bo‘lgan oilaga ham internet tarmog‘i kompyuter, mobil tarmoqlari orqali kirib keldi. Bu o‘rinda internet oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarga qay tarzda ta’sir qiladi? Ba’zi ota-onalar uchun “begona”, “tushunish qiyin bo‘lgan” bu “matohlar”ga nisbatan e’tibor va farzandlari tarbiyasi borasida qiyinchiliklar yuzaga keladimi? Tinimsiz axborotlar o‘zbek xalqining azaliy qadriyatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyun “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–3808-sonli Qarorida ham “Axborot-kommunikasiya texnologiyalari va Internet tarmog‘ining oila mustahkamligi va rivojiga ta’sirini o‘rganish, oilaviy turmush tarzi qadriyatlarini oshirishni targ‘ib qilishda, oilalardagi salbiy ijtimoiy holatlarni profilaktika qilishda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish” haqida qator vazifalar oldinga surilgan [1].

Rivojlangan mamlakatlarda oilaning roli pasayib bormoqda: ajralishlar soni, nikohdan o‘tmayotgan katta yoshli yolg‘iz kishilar hissasi, farzandsiz er-xotinlar soni ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda AQSh va Yevropa mamlakatlarida an’anaviy, to‘liq oila noyob bo‘lib, bunday oila modeliga intilish ba’zan keraksiz va ideallashtirilgan hodisadek tanqidga uchramoqda.Bilamizki, oilaning muqaddasligi va uning o‘ziga xos an’analari va qadriyatlari muqaddas ekani haqiqat. Ayniqsa, o‘zbek oilasining alohida “men”lar yig‘indisi emas, balki mustahkam ma’naviy an’analarga tayanadigan yagona va yaxlit organizmga aylanishga ko‘maklashuvchi qonunlarga tayanadi. Oilada ota alohida o‘ringa ega bo‘lib, oila a’zolari orasida alohida hurmat va e’tiborga egadir. U oila boshlig‘i, oila farovonligi , oila a’zolarini qo‘llab quvvatlash, himoya qilish uchun javobgar va mas’ul shaxs. O‘g‘il bolalar go‘dakligidanoq otaning izidan borib, muqaddas qadriyatlar tizimida tarbiyalanadilar.Ba’zi axborot manbalarida sharqona qadriyatlar boshqacha ifoda etilmoqda.

Yer yuzida 1,5 milliard kishi, O‘zbekiston aholisining 8 milliondan ortig‘i internetdan foydalanayotganligi fikrimiz isbotidir. Ayni paytda yoshlarimiz qaysi saytlardan foydalanayotganligini aniqlash va bu borada ish olib borishni nihoyatda muhim. Fikrimizning naqadar jiddiy asosga ega ekani internetda mavjud salbiy va zararli saytlar, ya’ni o‘z-o‘zini o‘ldirish– xudkushlikning oson yo‘llarini targ‘ib etuvchi saytlar qariyb 10 mingga yaqinlashganini, shundan ko‘pchiligi terorchilik va ekstremistik saytlar, 5 mingdan ortig‘i erotik saytlar va boshqa tarbiyaga zid saytlar ko‘payganligi ham tasdiqlaydi.

“Coogle” kompaniyasi tahlillariga ko‘ra O‘zbekistondan kuniga “Odnoklassniki.ru” saytiga 200 mingdan ortiq, “Facyebook” saytiga 90 mingdan ortiq, “Moy mir” saytiga 40 mingdan ziyod kishi kirayotir. Xo‘sh, bu narsa nimani anglatmoqda? Eng avvalo yoshlarda internet tizimiga qullik, tobelikni kuchaytirmoqda, ularda o‘ziga xos texnokratik madaniyatni shakllantirmoqda. Texnokratik madaniyat-faqat texnik vositalarnigina tan olish, ularga anglanmagan holda moslashuv, pirovard natijada internetga tobelikdan iboratdir. Afsuski, bu hammasi emas. Eng muhimi texnokratik madaniyat tufayli ayrim yoshlarimizda millatimizga xos bo‘lgan jamoaviylik ruhiyati o‘rniga individualistik qarashlar, samimiylik, mehribonlik xislatlari o‘rniga qo‘pollik, dag‘allik, agressivlik sifatlari kuchayib bormoqda. Bu esa xudbinlik, o‘zaro munosabatlarni inkor etish, milliy qadriyat, urf-odatlarni unutish, ayrim hollarda kosmolitik (dunyo fuqarosi) dunyoqarashga da’vo qilish kabi salbiy illatlarni yuzaga keltirmoqda.Texnokratik madaniyat yoshlarning muayyan qismida kitob fenomeni, kitob o‘qish madaniyatini inkor etmoqda. Kitob o‘qishning kamayishi esa idrok etish, mushohada qilish, o‘zini anglash, mustaqil fikrga ega bo‘lish kabi sifatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, oilada kitob o‘qishni tartibga solish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271 son Qarori dolzarb va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati jihatidan tarixiy voqyea bo‘ldi [2]. Qarorga muvofiq, milliy va jahon adiblarining kitoblarini elektron shakli yaratilib internet tarmog‘iga joylashtirish bo‘yicha ham bir qator vazifalar belgilangan.

Agar o‘tgan asrning 90-yillari o‘rtalarida yoshlarning eng sevimli mashg‘ulotlari musiqa tinglash va teleko‘rsatuvlar ko‘rish bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi paytda esa internet va kompyuter avvalgi qiziqishlarni yoshlarimiz hayotidan siqib chiqardi. Yoshlarimizning 70 foizi o‘z qiziqish va sevimli mashg‘ulotlari haqida so‘z yuritganda sport, do‘stlar bilan suhbatlashish, g‘oyaviy va madaniy hordiq chiqarish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari, internetga bo‘lgan qiziqishini birinchi o‘rinda tilga oladi.

Oilada farzandlar ko‘proq uy vazifalarini bajarishda internet tarmoqlaridagi ma’lumotlaridan foydalanishadi. Jumladan, Kanada yoshlarining yarmidan ko‘pi internet va kompyuter texnologiyalarini ota-onalaridan yaxshiroq bilishini aytishadi. Ularning 80 foizi mustaqil ravishda internetga ulanishini, ota-onalari kompyuterga himoya vositasi bo‘lgan filtrlash dasturini o‘rnatib qo‘ymagani va farzandlari qanday saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan olishadi. Umuman olganda, aksariyat ota-onalar, aniqrog‘i, ularning 65 foizi farzandlari internetdan faqat uy vazifasini tayyorlash uchun foydalanadi degan fikrdadir. Ammo, hozirgi yoshlar ko‘proq elektron darsliklar va adabiyotlarni o‘qishadi. Kitob matnini o‘qish bilan elektron matnni o‘qish orasida katta farq mavjud. Elektron matnga faqat axborot olish uchun qarash lozimligi, matndagi ma’lumotlar inson miyasida to‘liq aks etmasligi yoshlarimizni mutlaqo qiziqtirmaydi.

Kun tartibidagi mashg‘ulotlarni darajaga bo‘lsak, bunda yoshlarimiz ilm olishni eng oxirgi darajaga qo‘yar ekan. Ular asosan internet orqali musiqa tinglash, elektron manzilni tekshirish, xullas, vaqtichog‘lik qilishga ko‘proq vaqt sarflaydilar. Yoshlarning uchdan ikki qismi internetga yangi do‘stlar orttirish va kim bilandir suhbatlashish maqsadida ulanadi, ularning 15 foizi bu munosabatlarni keyinchalik real hayotda davom ettirar ekan. Muloqotning bu kabi shakllari yaxshi, albatta. Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham borki, unga chuqurroq nazar tashlash lozim. Alohida e’tibor talab etadigan jihat - internet orqali tahdid deb nomlanadi. Internet saytlarida yoshlarga kuchli ta’sir etuvchi axborotlarni quyidagicha tasniflash mumkin. Birinchi toifadagi axborotlar sirasiga yot, buzg‘unchi g‘oyalar (diniy ekstremizm va terrorchilik g‘oyalari, millatchilik, irqchilik, sadizm kabilar)ni kiritish mumkin. Ikkinchi toifadagi axborotlar esa g‘arb hayot tarziga xos, o‘zbek mentalitetiga zid odatlar va ko‘nikmalarni targ‘ib etadi. Bu ayniqsa, g‘arb yoshlarining kiyinishi, odatlarini targ‘ib qiluvchi maqolalar, kliplar, filmlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Uchinchi toifaga esa pornografik axborotlarni kiritish mumkin. To‘rtinchi toifaga esa hali tekshirilmagan, o‘z isbotiga ega bo‘lmagan turli hujumkor axborotlarni kiritish mumkin. Internet saytlaridan tarqatilayotgan bu kabi yot g‘oyalar va axborotlarni yoshlar tomonidan qabul kilinayotganligi va uning oqibatlari jahondagi barcha xalqini ham tashvishga solmokda. Bundan tashqari, internet tizimida axloqsizlik va shafqatsizlikni targ‘ib etadigan, inson ruhiyatiga salbiy ta’sir etadigan, turfa xil qimor o‘yinlari joylashtirilgan ko‘plab sayt va portallar mavjudligini e’tiborga olish zarur. Masalan, Star craft, Line age, GTA, Cat Woman, Sims sity, Mortal combat, War Craft kabi yuzlab saytlarda joylashtirilgan o‘yinlarda “qahramon” niqobi ostida o‘ta yovuz va shafqatsiz g‘oyalarning targ‘ib qilinayotgani yoshlarning axloqini butkul izdan chiqarib yuborishi, ularning diydasiin qotirib, ezgulik va yovuzlikni farqlamaydigan, hamma narsaga befarq o‘ziga xos manqurtlarga aylantirib qo‘yishi hyech gap emas[3].

Ba’zilar uchun internet tarmog‘i faqat uzoqdagi oila a’zosi yoki qarindoshlari bilan muloqot uchun muhim hisoblanadi.Internet orqali ota-onalar ko‘proq o‘z farzandlarini qayerdaligini, ularni nazorat qilish imkoniyati borligi uchun ham foydalanadilar. Ota-onalar internetdan ko‘proq farzandini nazoratini kunduzi amalga oshiradi. Farzandlar esa internetga ko‘proq kechqurun kirishadi. Bu ba’zan yashirincha amalga oshiriladi. Bolalar internetdan foydalanish uchun ota-onalar tomonidan nazorat qilinmasligi salbiy, hatto jinoyatga yetaklashi ham sir emas.Ota-onalar ushbu murakkab masalani tushunib yetishga yordam beradigan quyidagi qoidalarni yaxshi bilishi lozim:

1. Ota-onalar internetdan foydalanadigan farzandlarini qiziqishlari va maqsadlarini yaxshi bilishlari kerak.
2. Farzandlari bilan birgalikda internetdan foydalanish vaqtlarini belgilab olishlari lozim, ushbu axborot resurslariga kirish samarali va xavfsiz bo‘lishiga yordam beradi.
3. Internet tarmoqlarida mavjud pornografik, zo‘ravonlik va axloqsizlikni targ‘ib qiladigan saytlarga kirishni bartaraf qiluvchi filtrlovchi yoki parolli dasturlardan foydalanish.
4. Farzandlarning internetga mustaqil kirish imkoniyati bo‘lgan taqdirda, ota-onalar kichik yoshdagi bolalarning axborotdan foydalanishlarini nazorat qilishlari lozim. Internet resurslaridagi bolalar tomonidan olingan ma’lumotlarning xarakteri va miqdori to‘g‘risida “Internet Explorer”dasturining “Internet-brauzer”jurnali bilan tanishishlari lozim. Internetda bolalarning salbiy ma’lumotlarga yoki saytlarga kirishini oldini olish uchun kompyuterga“Kasperskiy Internet Security 2010” o‘rnatilgan bo‘lishi lozim[4: 58]. Shunda bolalar turli pornografik sahnalar, shafqatsizlikni targ‘ib qiladigan saytlardan uzoqda bo‘lishadi.

Ota -onalarga yana bir eslatmani keltirib o‘tish lozim. Ota-onalar o‘zlarining shaxsiy ma’lumotlarini, dasturdagi parollarning ba’zilarini farzandlari bilan “baham ko‘rmasliklari” maqsadga muvofiq.

Farzandlar bilan ochiq muloqot bo‘lishi shart. Farzandlar bilan internet tarmog‘idan olgan har bir ma’lumot haqida birgalikda suhbatlashish zarur. Chunki, internetdagi hamma ma’lumotlar ham ishonchli hisoblanmaydi.

“Texnokratik madaniyat”ni “tartibga solish” uchun Yevropa Ittifoqida qabul qilinganidek, “xavfsiz Internet” dasturini ishlab chiqishni maqsadga muvofiqdir. Umuman axborot oqimini nazorat qilishning mukammal tizimi lozimligi aksioma. Jumladan, Buyuk Britaniyada “O‘zini tutish kodeksi” va “xavfsiz tarmoq” mustaqil jamg‘armasi zararli, noqonuniy axborotlar oqimini nazorat qilmoqda. Ayrim Yevropa davlatlarida esa qonun asosida saytlarni blokirovka qilish belgilab qo‘yilgan[5: 117].

Xullas, oilada internet tarmog‘iga ulanish -farzandlar tarbiyasiga jiddiy ta’siri yuzaga keltirmoqda. Faqatgina ota-onalar bu borada o‘z mas’uliyatlarini sezishlari yot axborot oqimlarining farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini doimo yodda tutmoqlari darkor.Internet tarmog‘idan foydalanishda faqatgina oilaning tinchligi, farovonligi va oila a’zolarining dunyoqarashini kengaytirish, ma’naviyatini

shakllantirish uchun xizmat qilishi maqsadga muvofiq. Internetdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish borasida ota-onalar tajribalarini oshirish o‘z navbatida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashga xizmat qiladi, bu esa o‘z navbatida o‘sib kelayotgan avlodning tarbiyasiga nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyun “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–3808-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha to‘g‘risida”gi PQ-3271 son Qarori.
3. Internet va yoshlar tarbiyasi //www.ma’naviyat.gov.uz.
4. Psixologiya semeynix otnosheniy. Pod red., O.Shagrayevoy, A.Sergeyeva. Moskva: Akademiya, 2008.
5. G‘oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat.- Toshkent: “O‘ZBEKISTON” NMIU, 2012.

UDK: 371.48

O‘RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARI MEROSI YOSH AVLODNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH VOSITASI SIFATIDA

N. Shodiyev, D. Sulaymanova, R. Tuxtasheva
Samarqand davlat universiteti
ped_fak@samdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmuni, shakl, metod va vositalari bilan bog‘liq masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, vatanga muhabbat, Ona vatanni asrash, sadoqat, mardlik, fidoyilik, ta’lim-tarbiya, tinchlik, yosh avlod.

Воспитание молодого поколения в духе патриотизма на основе творческих наследий мыслителей Центральной азии

Аннотация. В работе расматриваются вопросы, связанные с содержанием, формой, методом и средством патриотического воспитания.

Ключевые слова: патриотизм, любовь к Родине, защита Родины, лояльность, мужество, самоотверженность, образование, мир, молодое поколение.

Education of the younger generation in the spirit of patriotism on the basis of the creative heritage of the thinkers of Central asia

Abstract. In the paper issues related to the content, form, method and means of patriotic upbringing are considered.

Keywords: patriotism, love for the Motherland, the defense of the Motherland, loyalty, courage, dedication, education, peace, the younger generation.

O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da [1] “O‘zbekiston mustaqilligi prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga qodir shaxsni shakllantirish...” [1,55] alohida ta’kidlagan. Davlatimiz darajasidagi ustuvor vazifani amalga oshirishda ulug‘ mutafakkirlarning boy merosidan foydalanish asqotadi. Boy tariximizda ota-bobolarimizning uzoq asrlar osha xalqimiz nomiga dog‘ keltirmaslikka intilib kelgan, o‘z vatani va xalqini cheksiz sevganliklari, vatan manfaatlari uchun fidoyilik ko‘rsatganliklari, uni yovuz bosqinchilardan ozod qilish uchun qahramonona kurashganliklaridan dalolat beruvchi yozma yodgorliklar, dostonlar, rivoyatlar, hikmatlar va.h.k. ko‘plab yaratilgan. Ularni o‘rganish, tizimlashtirish va ta’lim-tarbiya jarayoniga singdirish orqali yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mustaqilligimizni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan uch ming yil avval yaratilgan yozma yodgorlik bo‘lmish “Avesto”da [8] bitilgan xalqimizning zo‘ravonlikka, zulmatga qarshi kurashi, xalq dardiga malham bo‘lish, davlat boshliqlari, bosh qumondonlarning mamlakat ravnaqi, yurt tinchligi, daxlsizligi, obodonchiligi borasida adolatpeshalik, vatanparvarlik yo‘lida amalga oshirgan tadbirlarda ko‘rsatgan jasoratlarini yoshlarga tushuntirish, shubhasiz, ularda vatanni sevish, uning qadriyatlari bilan faxrlanish his-tuyg‘ularni tarkib toptiradi. “Har

bir inson o‘zi o‘sib-ulg‘aygan (zamin) mamalakatni eng yaxshi va go‘zal mamlakat deb tushunmog‘i kerak”. Shuningdek, Mahmud Qoshg‘ariy XI asrda yashab, ijod etgan tilshunos olim o‘zining “Devonu lug‘otit turk” [“Turk so‘zlar devoni”] asarida turkiy xalqlarning Vatanga bo‘lgan muhabbati va sadoqatlari, Vatanni ardoqlash, Vatanga tegishli har bir narsani muqaddas bilish, o‘zini shu Vatanning farzandi deb his qilish haqiqiy insonga xos fazilat ekanini aytadi, e’zozlaydi.

Mahmud Qoshg‘ariy erk, ozodlik, mustaqillik insoniyatni hamma vaqt faol harakat qilishga chorlaganini uqtiradi. Uning fikricha ozodlik, mustaqillikni istagan inson loqaydlik qilmagan, uning uchun kurashgan [7].

Vatan haqidag falsafiy fikrlar Xoja Ahmad Yassaviyning “Hikmatlari”da ham olg‘a surilgan:

Boshim tufroq, o‘zim tufroq, jismim tufroq,

Haq vasliga yetarman deb ruhim mushtoq [4].

Uning ma’nosi tufroq-Vatandir. Tuproq necha asrlardan beri buyuk farzandlarni o‘z quchog‘iga bosib kelayotgan mushfiq zamin. Shuning uchun biz uni e’zozlab Ona Vatan deymiz. Yassaviya tariqati asoschisi bu baytda diydor sog‘inchidagi komil qalbning Ruh mushtoqligini ko‘rsatgan. Odam Vatan bilan birlikka erishsa, u kafolat o‘z elining, balki olamning ehtiromiga sazovor bo‘ladi. Bunday kishini esa xalq tushunadi, dunyo taniydi.

Ma’lumki, “Tabiat” va “Vatan” tushunchalarini bir-biridan ayri qarash mumkin emas. Yosh avlodda tabiatga, uning o‘simliklar florasi va hayvonot olamiga gumanistik motivlarni uyg‘otish orqali, ularda ona Vatanga mehr-muhabbatni tarkib toptirish mumkin. Shu nuqtayi nazardan Yusuf Xos Hojib ham inson va tabiat munosabatlarini izohlashga intilib, tabiatning paydo bo‘lishi va jamiyat shakllanishining o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga harakat qilganini ta’kidlash joiz. U o‘zining [“Qutadg‘u bilig”] dostonida inson va tabiatning o‘zaro aloqasi va omuxtaligi, ularni bir-biridan ajratish mumkin emasligi moddiy borliqning hamda jonli materiyaning to‘rt narsadan (o‘t, suv, havo, tuproq) yaratilganligini izohlab beradi. Mutafakkir, inson tabiatning bir uzviy bo‘lagi, uning eng ulug‘ farzandi sifatida uni o‘z beshigiday qadrlashi, unga o‘z onasining bag‘riday sig‘inishi kerak, deb uqtiradi.

Yusuf xos Xojib ma’noning mohiyatini chuqurlashtirib borib insoniyatning buguni uchun saboq bo‘ladigan va dolzarb jaranglaydigan muhim bir muammoni o‘rtaga tashlaydi, ya’ni: agar dunyo odamlari o‘zlari yashaydigan shahar (qishloq)larni tark etib inson yashashi lozim ko‘rilmagan bir cheka joyga: (masalan, toqqa chiqib ketsa dunyo buzilib, odam urug‘i quriydi, avlodi tugaydi) [14, 72].

Amir Temur o‘z eli-yurtini sevganini va uni mashhuri jahon qilganini, qudratli davlat barpo etib, uni adolatli qonunlar bilan boshqarganini, millatimiz iftixorini Sohibqironni e’tirof qilib, “Bizkim – mulki Turon, amiri Turkistonmiz, Bizkim – millatlarning eng qadimi va ulug‘i, Turkning bosh bo‘g‘inimiz”, deganini o‘zining shiddatli umri mobaynida xalqning yaratuvchilik shijoatiga qulay imkoniyatlar yaratib berishga intilganini ko‘rsatib beradi. Amir Temurning merosi “Tuzuklar”ni hikoya qilish orqali bolalarda vatan oldidagi burchga sodiqlik, do‘st-u dushmanni taniy bilish, matonat, axloqan poklik kabi xislatlarni tarbiyalash uchun keng imkoniyat mavjud. Shuningdek, o‘qituvchi “Temur tuzuklari”da Sohibqironning oqil, sabr-toqatli, hayot mashaqqatlari va bevafoliklarini yaxshi biladigan donishmand sifatidagi siymosini yosh avlodga ko‘rsatish orqali uning namunasida ularda vatanparvarlik, do‘stlik va sodiqlikni tarbiyalashni yoddan chiqarmasligimiz lozim. Amir Temur haqiqiy vatanparvar va millatparvar shaxs bo‘lgan. Bu his-tuyg‘uni Herman Vamberi shunday ifodalaydi: “...Turk va arab qavmidan iborat bo‘lgan barcha jahongirlar va fotihlar kabi Temurda ham Ona Vatanga juda xos darajada tarafkashlik bor...Temurning shu maslagi uning aziz Vatani O‘rta Osiyo uchun nihoyatda muhim va uzoq davom etgan samara berganini gapirib o‘tirishga ehtiyoj yo‘qdir” [5, 48].

Amir Temur “Tuzuklari”da Ona Vatanni sodiq o‘g‘li vazir haqida quyidagi ibratomuz so‘zlarni yozadi: “Tajribali, ishbilarmon va bilimdon vazir shunday bo‘ladiki, mamlakat obodonchiligini, raiyat va sipohning tinch-farovonligini, xazina boyligini doim ko‘zda tutadi. Davlat, saltanatga foyda keltirishdagi ishlarni bajarishga tirishib harakat qiladi. Saltanatga zarar yetkazadigan xatarli ishlarni bartaraf etishda mol-u jonini ayamaydi” [11, 109]. Sohibqiron o‘z vatandoshlariga xiyonat qilib, dushman bilan til biriktirgan navkarlar to‘g‘risidagi tuzugida o‘zining vatan oldidagi burch qanday bo‘lishi lozimligi haqidagi qarashlarini bayon etadi: “Va amr qildimki, har bir navkar g‘anim nazdida hurmat-e’tiborga ega bo‘lib qadrlansayu, biroq jangu jadal paytida o‘z begiga xiyonat qilsa, uning dushmaniga do‘stlik ko‘rsatsa, tuz haqini, bek hurmatini, navkarlik burchini va undan ko‘rgan noz-u ne’matlarini unutsa, o‘z begining dushmaniga yon bosib, uni o‘z begidan ustun qo‘ysa, bunday kimsani xizmatga yo‘latmasinlar. Hayotning o‘zi bundaylarning qilmishiga yarasha jazosini beradi” [11,128-129]. Vatanga muhabbat, mazkur vatanda istiqomat qiluvchi kishilarga bo‘lgan munosabatni ham o‘z ichiga oladi. Bu munosabat, avvalo, do‘stlik munosabatida ifodalanadi. Sohibqiron mamlakat taxtiga o‘tirgan kundan boshlab do‘st-u dushman bilan muomalada bir tekis yo‘l tutganligini ta’kidlar ekan …“haqiqiy do‘st o‘lkim, o‘z do‘stidan ranjimaydi,

do‘stining dushmanini o‘z yovi deb biladi. Agar kerak bo‘lsa, do‘sti uchun jonini ham ayamaydi. Shuning uchun ham amirlarimdan qay birlari menga jon-dili bilan hamrohlik qilgan bo‘lsalar, men ham ulardan hech narsani ayamadim” [11, 131] deb yozadi. Bugungi kunda mustaqilligimizni mustahkamlash, uni rivojlangan buyuk davlatlar qatoriga ko‘tarish pirovardida ona-zaminimizni gullab-yashnatish, xalqimizni farovon yashashini ta’minlash fuqarolardan, ayniqsa o‘sib kelayotgan yoshlardan jo‘shqin, faol bo‘lishni, ona zaminimiz uchun butun vujudi bilan barcha sohalarda faol faoliyat ko‘rsatadigan fidoyilarni, haqiqiy vatanparvarlarni talab etmoqda. Xalqimizning boy tarixida Ona yurtini e’zozlaydigan vatanparvarlar ko‘plab topiladi. Jahon e’tirof etgan vatanparvarlar, milliy qahramonlarning jo‘shqin, betinim faoliyati namunasida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun ularning keng qamrovli faoliyatini ayrim jihatlarini o‘rganish va tahlil qilish asqotadi. Jumladan, Turon zaminini bir yarim asrlik mug‘ullar jabr-zulmi, kulfatlaridan ozod qilib, feodal tarqoqlikni, ichki va tashqi dushmanlarni bartaraf etib uni jahon e’tirof etgan markazlashgan saltanatga aylantirgan Amir Temurning ibratidan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali foydalanish joizdir. Bunga birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning Toshkent shahrida ochilgan “Temuriylar tarixi davlat muzeyi”ni ochilish marosimida “Amir Temur hayotining mazmuni, betakror faoliyatining asosiy ma’nosi – Vatan ozodligi, Vatanga muhabbat, degan oliy qadriyatlardan iboratdir” [2, 169], deb so‘zlagan nutqi asos bo‘ldi. Millatimiz faxri Sohibqironning el-yurt farovonligi yo‘lidagi xizmatlari nafaqat Samarqand va Keshni jahonning eng go‘zal qudratli shaharlariga aylantirish bo‘yicha sa’y-harakatlaridan tashqari u o‘z vatanida madaniyat, fan, me’morchilik, ayniqsa riyoziyot, handasa, falakiyot, adabiyot, musiqa hamda hunarmandchilikning rivojiga katta e’tibor berdi, har bir kasb-kor uchun alohida bozorlar qurdirdi. U davlat qonun-qoidalarini bekam-u ko‘st bajarilishiga erishib, davlat va xalq haqiga xiyonat qilgan vazir-u amirlarga nisbatan shavqatsiz bo‘lgan. Sohibqiron shariat qoidalariga va islom axloqiga qattiq rioya qilgan.

Ulug‘ mutafakkir Mir Alisher Navoiy o‘z asarlarida insonga muhabbat, xalqlar do‘stligi, adolat, insonparvarlik, hunar o‘rganish, yurtning tinchligi, mamlakat obodligi, xalq farovonligi, qahramonlik g‘oyalarini tarannum etdi. Navoiy xizmat vazifalari bilan poytaxtdan Hirotdan yiroqda bo‘lgan chog‘larida ham u yerlarni Vatanning bir bo‘lagi deb qabul qilgan, bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Alisher Navoiy Astrobod hokimi sifatida ishlaganda o‘z oldiga “Modomiki, taqdir quyuni bizni bu yerlarga keltirib tashlabdi, bas, sabr-bardosh lozim. Vatanning noobod viloyatini, mohir bog‘bon kabi, mehnat va xafsala bilan gullatmog‘imiz kerak. Yurt g‘amiga beparvolikdan hazar qiling yigit”. [3, 304] deb o‘z oldiga vatan ravnaqi uchun fidokorona mehnat qilishni talab etadigan shior (da’vat)ni qo‘ydi.

Navoiyning yurt tinchligi, xalq farovonligini naqadar ustun qo‘yishini uning Vatandan uzoqda tursa ham doimo Hirot tinchligini o‘ylaganini, doimo xalqqa yordam berishga intilishini, Vatan sog‘inchi doimo unda ustun turishini ko‘rish qiyin emas. Navoiy “Marvda yurgan bo‘lsa ham Hirotdagi nohaqliklar, buzg‘un ishlarni oldini olar, Hirotdagi ijtimoiy ahvolni yaxshilay olar edi. “Marvdan Navoiy Hirotdagi baloga changal soldi” [3, 278]. Navoiy qayerda bo‘lmasin yurt uchun aqlning muqaddas alovini qo‘riqlay olgan. U o‘zini temirchi sifatida qarab, zulmning kishanlarini aqlning o‘txonasida eritib undan kerakli asboblar yasagan, metindek e’tiqodini namoyon qilgan. Alisher Navoiy o‘z faoliyati va jahonga mashhur asarlari orqali bashariyatga “Vatanni sevish, e’zozlash, qadrlash zarurligini”, “Vatanni asrab-avaylash, himoya qilish har bir yurt farzandining muqaddas burchi ekanligini”, “Yurt tinchligi, xalq farovonligi yo‘lida fidokorona xizmat qilish lozimligini”, “Mamlakat mustaqilligi va tinchligini saqlash va mustahkamlash yo‘lida fidokorona mehnat qilish”, “Insonlarni ulug‘vor ishlarga safarbar etish” yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib berdi.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonini yaratishda xalq [3,119] orasidagi turli vatanparvarlik (Farhodning ajdarga qarshi kurashi, Axramanni yengishi, [3,128] Iskandar tilsimini ochishi [3,137] va b.q.)larni xalq og‘zaki ijodi, ertaklar va afsonalarda ifodalanganligidan foydalanganligini yosh avlodga ko‘rsatish orqali milliy birlikni shakllantirish asqotadi. Hazrat Navoiy mamlakat obodonligi va farovonligi yo‘lida betinim kurashganligini yosh avlodga tarixiy manbalarda, Jumladan qayta-qayta ta’kidlaganini hamda Oybekning “Navoiy” romani misolida ko‘rsatish mumkin. Bu yerda Alisher Navoiyning inson va tabiat munosabatlariga doir masalalar hamda atrof-muhitni obodonlashtirish, xalq obodonchiligi va farovonligi tabiatning go‘zalligi yo‘lida kurashi bilan bog‘liq ijtimoiy faoliyati yozma manba’larda yetarli darajada o‘z ifodasini topganligini alohida ta’kidlash lozim. Ulug‘ mutufakkir inson va tabiat muammosini jamiyat taraqqiyoti va tabiat muvozanatini hayot-mamot masalasi deb qaraydi. Mustaqillikni mustahkamlash, uning buyuk kelajagiga ishonchni yanada oshirish maqsadida “Farhod va Shirin” dostoni asosida bahs-munozaraga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishda yosh avlod e’tiborini ular yashayotgan hududlarda suvga muhtoj bo‘lgan yerlarning suv ta’minotini yaxshilash, tashlandiq va qarovsiz yerlarni serhosilli bo‘lishiga qo‘l o‘rib jon fido qilayotgan mehnatkashlarga ularning ehtiyojini o‘ylab, ko‘pchilik bilan birga elning kuchiga tayanib beminnat yordam qo‘lini cho‘zayotgan vatanparvarlarning hamda

ekologik omillarga befarq va loqayd munosabatda bo‘luvchilarning axloqiy, insonparvarlik, vatanparvarlik qiyofalarini ochib berishga qaratildi. Zahiriddin Muhammad Bobur umrining 27 yilini musofirchilikda o‘tkazdi. Shoir qayerda bo‘lmasin Vatani Andijon doimo qalbida bo‘ldi. Bir lahza bo‘lsada vatanini unutmadi. O‘zga yurtda shoh bo‘lib faoliyat ko‘rsatsada, lekin o‘z yurtining bir kunlik gadosi bo‘lishga rozi edi. Shoirning ijodiga nazar tashlar ekansiz, vatanida bir kun bo‘lsa ham tinch xilvat joyda orom olgisi kelganligini o‘qib olasiz:

Go‘shae tutsam, jahonning elidin g‘am ko‘rmasam,
Istaramel ko‘rmasa meniyu men ham ko‘rmasam.
Bizga chun mehring yo‘q, elga mehrubonlig‘ qilmag‘il,
Yaxshilig‘ chun qilmading, bore yomonlig‘ qilmag‘il

Hazrat Bobur o‘z g‘azallarida, ruboiylarida vatanni madh etib, o‘zga yurtga-mol orttirish uchun ketmaganligini aytib o‘tgan [6, 9-10]. Bir umr vatan sog‘inchi bilan yashagan Bobur qayerda bo‘lmasin har doim ota yurtiga chopar yuborib, vatanidan xabar oldirar edi. Vatani hajrida yonib o‘tgan Bobur farzandlarini doim inoqlikka, xiyonatkor bo‘lmaslikka undardi. Chunki, uning o‘zga yurtlarda sarson-sargardon bo‘lishining asl sababi atrofdagilarni, do‘st-birodarlarning, amakivachchalarining xiyonati tufayli edi. Boburning ijodini, hayotini o‘rganar ekansiz “O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l” maqolining nechog‘lik haqiqat ekanligini anglaysiz. Uning asarlarini o‘qir ekansiz, vatanga bo‘lgan mehringiz, tinch o‘tgan har bir kunga, o‘z yurtingizda sog‘-omon yurganligingizga shukronalik hissi jo‘sh uradi.

Turkman shoiri Mahtumquli o‘z ijodida insonning baxtli, tinchligi, xalq, Vatan baxti bilan bevosita bog‘liq, shu sababli odamlar Vatan, xalq uchun jonini fido qilishi kerkligi g‘oyasini olg‘a suradi. Shoir Vatanparvarlik tarbiyasini barcha tarbiyaning asosi deb biladi. Uning fikricha, markazlashgan davlat, mamlakat barpo etish yo‘lida kattadan kichik, butun xalq jonbozlik ko‘rsatmog‘i, bir yoqadan bosh chiqarib fidoyilik ko‘rsatmog‘i lozim. Buning uchun xalq ongini uyg‘otish, ko‘zini ochish kerak. Ulug‘ shoir vatanparvar chidamli, xushyor bo‘lishi lozim deb hisoblaydi. Chinakkam farzand Vatan, ona-yurt, xalqning or-nomusini har narsadan yuqori qo‘yish, kerak bo‘lsa jonini qurbon qilishga tayyor tursin. Mahtumquli odamlarni Vatan tabiatini sevishga undaydi, tabiat go‘zalligini himoya qilganlarni haqiqiy Vatanparvar deb biladi. Adib ona yerning xislati, go‘zalligini ta’riflab odamlarda unga muhabbat uyg‘otadi, uni e’zozlashga da’vat etadi. Uning vasf etishicha:

Yerga go‘zal xasta odam sog‘ bo‘lur,
Og‘riq, bejon, g‘arib ko‘ngil chog‘ bo‘lur.
Sarchashma daraxti bilan bog‘ bo‘lur,
Ajib, qush solmoqqa ovloqlari bor [9, 124].

Zokirjon Furqat Vatanni, vatanparvarlikni ulug‘laydi. U ona Vatan-diyorni najot baxt manbai deb hisoblaydi. Vatandan judolikni g‘am-anduh, rangi-alam, musibat deb biladi. Bu fikrlarni o‘z hayoti misolida shunday ta’riflaydi:

Vatanning ishtiyoqini tortaram g‘urbat g‘ami birla,
Turub erdim qutulmay g‘ussayu ranju inolardan
Olib yodig‘a, so‘rmas, kimsa Zokirjon Furqatni,
Agarchi aytadur doim duo bodi sabolardin [13,13].

Ubaydullo Solih o‘g‘li Zavqiyning asarlarida ham xalqparvarlik, vatanparvarlik g‘oyalari ilgari surilgan. Mavjud ijtimoiy tuzumdan nafratlanib, ozod va farovon turmushga intilish, mehnat va xalq manfaati yo‘lida xizmat qilish uning asosiy mavzusi hisoblanadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko‘rinadiki, ulug‘ mutafakkirlar asarlarida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha boy meros jamlangan. Jamiyatimizning yosh avlod ongi-shuuriga vatanga mehr-muhabbat his-tuyg‘usini singdirish bo‘yicha buyurtmasini amalga oshirish murakkab jarayon bo‘lib, u har bir o‘qituvchidan mazkur soha bo‘yicha o‘z faoliyatida o‘ta mas’uliyat bilan yondashishni talab etadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”//Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1998.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi.-T.:Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi.-T.:O‘zbekiston, 1997.-382 b.
3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. -T.: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1941. – 444 b.
4. Ahmad Yassaviy hikmatlari. -T.: G‘.G‘ulom, 1991. – 256 b.

5. Vamberi Herman. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. -T.: G‘afur G‘ulom Adabiyot va san’at, 1990. -96 b.
6. Zahiriddin Muxammad Bobur. n.ziyouz.com
7. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. -T.: Fan, 1967.
8. Maxmudov T. “Avesto” abadiyati. -T.: Sharq, 2000. -63 b.
9. Mahtumquli. Mahtumquli she’riyatidan. -T., 1976.n -159 b.
10. Oybek. Navoiy. Roman.-T.: Sharq, 2004. – 489 b.
11. Temur tuzuklari. -T.: “Navro‘z” nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,- 1992.
12. Furqat. Tanlangan asarlar-T: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.1975. -295 b.
13. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. -T.: Yulduzcha, 1990. -192 b.

UDK: 42/48:409

YEVROPADA XORIJIY TIL O‘RGATISHNING ILK TAJRIBALARI

T. Sh. Karshiyeva
Samarqand davlat chet tillar instituti
tshodiyorovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Yevropada chet tillar o‘rgatishning ilk tajribalari to‘g‘risida bo‘lib, unda XX asr o‘rtalariga qadar mavjud bo‘lgan til o‘rgatish uslublarining yutuq va kamchiliklari bayon qilinadi. Jumladan, til o‘rgatish ilk metodlarining tasnifi, asoschilari, ijobiy yondashuvlari, shu bilan birga, kamchilikli jihatlari yoritib berilgan. Chet tili o‘qituvchisi an’anaviy usullar bilan birga yangi texnika va texnologiyalarni birlashtirishi juda muhimdir.

Kalit so‘zlar: ko‘p tillilik (poliglossiya), mumtoz tillar, grammatik-tarjima uslubi, natural uslub, to‘g‘ri uslub, aralash uslub.

Первый опыт преподавания иностранных языков в Европе

Аннотация. В этой статье рассказывается об опыте преподавания иностранных языков в Европе, в котором рассказывается преимуществах и недостатках методов преподавания языков, которые существовали в середине 20-го века. В том числе, описаны классификация оригинальных методов обучения языку, основателей, их позитивных подходов, а также, их недостатков. Очень важно, чтобы учитель иностранного языка исползовал новые техники и технологии с традиционными методами.

Ключевые слова: полиглоссия, классические языки, метод грамматического перевода, естественный метод, прямой метод, смешанный метод

The first experiences of foreign language teaching in Europe

Abstract. This article is about first European experiences of teaching foreign languages, which highlights the advantages and disadvantages of language teaching methods that existed until the middle of 20th century. In particular, the classification of the original language teaching methods, the founders, their positive approaches, as well as, their disadvantages are described. It is very important that a foreign language teacher combines new techniques and technologies with traditional methods.

Keywords: polyglossia, classical languages, grammatical-translation method, natura method, direct method, mixed method

Til o‘rganish kishilik jamiyatida bag‘oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo‘lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o‘rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa, ko‘p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etishi bizga sir emas[2].

XIX asrga qadar Yevropada chet tilini o‘qitish mumtoz tillar hisoblanuvchi lotin va qadimgi grek tillarini o‘rgatishga asoslangan bo‘lib, bundan nazarda tutiladigan asosiy maqsad shu tillar yordamida antik madaniyat va antik adabiyot durdonalari bilan yaqindan tanishish edi. Mazkur tillarni o‘qitish juda muhim hisoblangan, chunki o‘qimishli inson saviyasi mumtoz tillarni bilish darajasi bilan belgilangan [3].

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib fan sohalarining rivojlanib borishi hamda Yevropa miqyosida xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida gimnaziyalarda yangi tillarni, birinchi navbatda, fransuz va ingliz tillarini o‘rgatish kun tartibiga qo‘yildi.

Ikkinchi jahon urushiga qadar Yevropada chet tillarini o‘qitish bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir necha xil uslubiyat asosida amalga oshirildi va ular mutaxassislar tomonidan ketma-ket tarzda quyidagicha tasniflanadi:

1) Grammatik – tarjima uslubi
2) Natural (tabiiy) va to‘g‘ri uslub
3) Garold Palmer uslubi
4) Maykl Uest uslubi
5) Aralash uslub

1. Grammatik- tarjima uslubi

Bu uslub tarafdorlarining fikricha, chet tillarini o‘qitishdan maqsad til tuzilishini o‘rgatish orqali mantiqiy fikrlashni o‘stirishdan iborat bo‘lgan. O‘qitishning bosh obyekti grammatika bo‘lib, yozma nutq tillarni o‘qitish uchun asos qilib olingan, chunki u paytlarda so‘zlashuv nutqiga til normasidan chetga chiqish deb qaralgan. O‘sha davrlarda hukm surgan tasavvurlarga binoan, kimki grammatikani va tarjima qilishni puxta egallar ekan, demak u chet tilini yaxshi biladi. Ushbu uslub Yevropa gimnaziyalarida 19 asrda ingliz va fransuz tillarini o‘qitish borasida rivojlandi. Ta’kidlash lozimki, “yangi” tillarni o‘qitishda namuna sifatida “eski” tillarni (lotin va grek) o‘qitish uslubiyati xizmat qila boshladi, chunki o‘sha paytda gimnaziyalarda lotin va grek tillaridan boshqa chet tillarini o‘qitish tajribasi yo‘q edi [4]. XIX asr oxirlariga kelib, Germaniyada chet tilini o‘qitish bo‘yicha mutaxassislar o‘rtasida munozara kelib chiqdiki, unga binoan yangi o‘qitish uslubiyati eski tillarni o‘qitishdagi maqsad va vazifalardan keskin farq qilishi kerak, degan talab o‘rtaga tashlandi va keyinchalik ushbu talab amalga oshirildi.

Grammatik-tarjima uslubining mazmuni, uning nomiga monand, grammatik qoidalarni tushuntirish va ularni tarjima mashqlarida qo‘llashga o‘rgatishdir. O‘tilgan grammatik material asosida chet tilidan ona tiliga tarjima qilishga o‘rganishi lozim. Bu uslub Yevropada yuzaga kelgan uslublardan dastlabkisi bo‘lib, undan ma’lum muddat mobaynida samarali foydalanildi va so‘zsiz, chet tilini o‘rgatish uslubiyati tarixida o‘ziga xos iz qoldirdi.

2. Natural (tabiiy) va to‘g‘ri uslub

XX asrning 70-yillariga kelib Yevropa ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sharoitlar jiddiy o‘zgardi. Burjuaziya xomashyo olish va tovar sotish uchun yangi bozorlar izlab milliy davlatlar chegarasidan ancha uzoqlarga chiqadi. Bunday sharoitda hukmron sinf uchun chet tillarni va, birinchi navbatda, og‘zaki nutqni amaliy o‘zlashtirgan kishilar tobora ko‘proq kerak bo‘la boshladi. Jamiyatning ijtimoiy talabi chet tillardagi og‘zaki nutqni egallagan kishilarni yetishtirishdan iborat bo‘lib, bu ishni ta’limning tarjima metodlari bilan amalga oshirib bo‘lmasdi.

Natural (tabiiy) uslubning asosiy qoidalari ona tilidagi nutqning tarkib topish amaliyoti va uni kuzatish natijalari zaminida chiqarildi. Bu yo‘nalish vakillari chet tillarni o‘qitishda ona tilini o‘zlashtirishga xos tabiiy muhitni yaratish zarur deb hisobladilar. Bu uslubning eng taniqli vakillari M. Berlis, F. Guen va M. Valterdir [4]. Bu uslubga ko‘ra, chet tillarini o‘qitishdan kutiladigan asosiy maqsad, bola eng avvalo og‘zaki nutqni egallashi tufayli o‘quvchilarda og‘zaki nutqni o‘stirish bo‘lgan. Bu uslub tarafdorlari og‘zaki nutqni egallash o‘qish va yozish ko‘nikmalarini ortiqcha qiyinchiliklarsiz rivojlantirishga yordam beradi, deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham ular faqat boshlang‘ich bosqich uslubiyatini, ya’ni odatiy og‘zaki nutqni o‘rgatish metodikasini ishlab chiqish kerak, degan xulosaga keldilar.

Keyinchalik natural, ya’ni tabiiy uslub asosida to‘g‘ridan to‘g‘ri uslub yuzaga keldi. Bu metod uning tarafdorlari chet tilidagi so‘z va grammatik shakllar bilan ularning ma’nolari o‘rtasida o‘quvchilarning ona tiliga murojaat qilmay, bevosita, to‘g‘ri bog‘lashga harakat qilganliklari tufayli ana shunday nomlandi. To‘g‘ri metod tarafdorlari tilni amaliy egallashni o‘rgatishga intilib, bunda faqat og‘zaki nutqning o‘zlashtirilishini nazarda tutganlar, vaholanki, jamiyatning talabi ham ana shu maqsadni talab etgan. Ishga bunday yondashish, garchi o‘qishni o‘zlashtirish muayyan sharoitlarda ancha muhim amaliy ko‘nikma bo‘lsada, og‘zaki nutqni bilishni asossiz ravishda tilni amalda bilish bilan tenglashtirishga olib keldi va bu holat hozirgacha ham saqlanib, davom etib kelmoqda. To‘g‘ri uslub vakillari o‘qishni butunlay rad etmadilar. To‘g‘ri uslubning tabiiy uslubdan asosiy farqi shundaki, to‘g‘ri uslub til materialini va faqat leksikani emas, balki grammatikani ham, fonetikani ham ma’lum darajada qisqartirishni nazarda tutgan. Leksika mavzuga oid tamoyil asosida, ammo birmuncha talabchanlik bilan tanlangan. Fonetika materiali birinchi marta ilmiy asosda tanlab olindi va birmuncha kengaytirildi. Shunday qilib, to‘g‘ri uslub vakillari til materialini tanlash masalasiga va garchi maxsus mezonlar ishlab chiqmasalar-da, chet tillarini o‘qitish mazmunini ilmiy asosda belgilashga birinchi marta jiddiy yondashdilar.

To‘g‘ri uslub tarafdorlari ko‘p hollarda tabbiy uslubning metodik tamoyillaridan foydalanganlar. Shuningdek, ular metodika uchun asos bo‘lgan fanlarning so‘nggi yutuqlarini qo‘llab, birinchidan, mavjud

metodik tamoyillarni ilmiy jihatdan asoslashga harakat qildilar, ikkinchidan, ba'zi yangi tamoyillarni yaratdilar. Ushbu uslub tarafdorlari erishgan jiddiy yutuq ilgari shug'ullanilmagan fonetikani o'qitishning ishlab chiqilishi bo'ldi. Ular taqlid bilan bir qatorda artikulatsiyalarni ifodalab berishni, dastlabki bosqichda o'quvchilarning faqat transkripsiya qilingan matnlardan foydalanishini tavsiya qildilar, ammo ularning ba'zilari transkripsiya bilan parallel ravishda an'anaviy yozuvni ham taklif etdilar. Bundan tashqari, ular talaffuzni o'rgatish, fonetik mashqlar tizimini tuzish masalalarini ishlab chiqdilar. To'g'ri uslub vakillarining ana shu yutuqlaridan biz hozirgacha foydalanamiz.

Yuqoridagilar bilan birga natural va to'g'ri uslublarda jiddiy kamchiliklar ham bor edi. Birinchidan, bu yo'nalish vakillari nutq va fikrlashning bog'liqligi masalasini noto'g'ri hal qildilar. Ularning ayrimlari faqat hissiy bilish va xotiraga tayanib tilni o'rganish mumkin, deb hisobladilar. Shundan keyin nutq faoliyati zaminida tafakkur mavjudligi isbot qilindi. To'g'ri uslubning boshqa tarafdorlari yangi o'zga tilga xos fikrlashni shakllantirish kerak deb bilar va til bilan tafakkur o'rtasidagi bog'lanishni noto'g'ri tushunardilar. Tafakkur umuminsoniyligini, biroq fikrlarni ifodalash vositalari turli xil bo'lishi mumkinligini hozirgi zamon fani ishonchli ravishda ko'rsatib berdi.

Ikkinchidan, ona tilni batamom chiqarib tashlash ham noo'rin ish edi. Binobarin, akademik L.V.Sherba oqilona aytganidek, "Ona tilini auditoriyadan quvib chiqarish mumkin, biroq uni o'quvchilarning miyasidan chiqarish mumkin emas" [5]. O'quvchilar ona tili va chet tili hodisalarini beixtiyor qiyoslaydilar. So'zlarni tarjima qilib bo'lmasligi haqidagi fikr ham asossizdir. Uni hozirgi sinxron tarjima amaliyoti rad etdi.

To'g'ri uslubning uchinchi kamchiligi grammatikaning tilni o'rganishdagi ahamiyatini butunlay inkor etish yoki uning roliga ona tilini o'rganishdagi kabi qarash, ya'ni grammatikadan ilgari o'zlashtirilgan mexanizmlarni anglash uchun foydalanishdan iborat edi. Grammatikaga bunday munosabatda bo'lish malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdagi barcha og'irliklarni sinab ko'rish va xatolar yo'liga ko'chiradi. Nihoyat, to'g'ri uslub asosidagi mashg'ulotlar chet tilini o'rganishning umumta'limiy ahamiyatini butunlay inkor etgan.

3. Garold Palmer uslubi

XIX asr oxiri va XX asr boshida chet tili metodistlari va o'quvchilari orasida mumtoz to'g'ri uslub g'oyalaridan norozilik boshlandi. Chunki bu uslub ular kutgan natijani bermadi. Maktab sharoitida ham chet tillarni o'rganishga ajratilgan soatlar cheklanganligi, ham bu uslubning yuqorida aytilgan kamchiliklari sababli o'quvchilar chet tilida erkin muloqot qilishni o'zlashtira olmadilar. Shuning uchun to'g'ri metodning ayrim qoidalari qayta ko'rib chiqila boshlandi. Shunday uslubchi ingliz olimlardan biri Garold Palmer bo'lib, u Tokioda yashab yaponlarga ingliz tilini o'rgatadi. Ingliz tilini o'rgatish natijasida o'z uslubini yaratadi. Uning uslubi tinglab qabul qilishga, yodlab o'rganishga asoslangan. Hamma til materiallari shunday o'rgatilgan.

Palmer ishlab chiqqan asosiy tamoyillarni quyidagicha ifodalash mumkin:

1) Til o'rgatishni og'zaki nutqdan boshlash;

2) 1 yoki 2 oy davomida inkubatsiya davrini o'tkazish, bu davrda o'quvchilar ona tili ishtirokisiz faqat ingiz tilini tinglash, uning fikricha, ong ishtirokisiz til o'rgatishda ko'p vaqt ketmaydi. Albatta, bu noto'g'ri fikrdir;

3) Grammatik materialni jadvalda qoida bermay o'rgatish (u 100 ta grammatik jadvallar tuzgan);

4) Tilni alohida olingan gaplar tartibida o'rgatish;

5) Qiyinchiliklarni sekin-asta berish;

6) Psixologik omil- qiziqishga, qiziqtirishga ahamiyat berish;

7) O'quvchilarning quloqlarini (tinglash) ko'zga (ko'rishga) qaraganda oldinroq, tezroq ishlatish, chunki material og'zaki o'rgatilgan [1].

G. Palmer ingliz tilida o'qitishning og'zaki kursini ishlab chiqdi va amalda qo'llab ko'rsatdi, qo'llanmalar yozdi. U so'zlarning ma'nosini ochishda, grammatikani tushuntirishda ona tilini qo'llashga qarshi emasdi. Bu esa to'g'ri uslubda yangilik edi. Bu bilan u to'g'ri uslubni takomillashtirdi. U ingliz tilini o'rgatishni 4 bosqichga bo'ladi:

1. Boshlang'ich bosqich (elementary stage).

2. O'rta bosqich (intermediate stage).

3. Yuqori bosqich (advantage stage).

4. So'nggi bosqich. U ingliz tilini o'rgatishni boshlanishi boru, oxiri yo'q, birinchi 2 ta bosqichlarga ingliz tili o'rgatishda katta ahamiyat berish kerak, keyingi bosqichlar o'z-o'zidan rivojlanib ketaveradi, degan fikrni bildiradi.

Palmer uslubi ham to'g'ri uslubga xos kamchiliklardan holi emas. Uning uslubida nutqni passiv idrok qilish ko'proq o'rin olgan. Buni ayniqsa, boshlang'ich bosqichda ko'rish mumkin. Lekin boshqa

bosqichlarda ham o‘quvchilar o‘qituvchi aytgan yoki yodlab olingan narsalarni mexanik tarzda qayta takrorlaydilar. Boshqacha aytganda, o‘quvchilarning fikrlashiga tayanib ish ko‘rilmaydi.

4. Maykl Uest uslubi

M. Uest G. Palmerdan farqli ravishda to‘g‘ri uslub tarafdorlarining fikriga tayangan holda asosan, o‘qishni o‘rgatish masalalarini ishlab chiqdi. Keyingi yillarda u og‘zaki nutqni o‘stirishga ham alohida e’tibor berdi.

M.Uest Dehlida yashagan va ishlagan. O‘sha yerda hindlarga ingliz tilini o‘rgatish natijasida o‘z uslubini ishlab chiqqan. Uning uslubi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) o‘quvchi ikki tilli bo‘lishi uchun ingliz tilini o‘qishdan boshlab o‘rganishi kerak;

2) ingliz tilini o‘rgatishning eng oson usuli o‘qishdir;

3) o‘quvchi o‘qish orqali ingliz tilini o‘rganayotganda tezda muvaffaqiyatni sezadi;

4) o‘quvchi o‘qish orqali ingliz tilini o‘rganayotganda o‘qituvchining tajribasi, ustaligi muhim emas;

5) o‘quvchi inglizcha o‘qish malakasini egallay olsa, boshqa malaka-ko‘nikmalarni mustaqil o‘rganib keta oladi [1].

U ham so‘z ma’nosini ochishda ona tilini, tarjimani qo‘llashga qarshi emas edi. Uest o‘zining uslubi asosida tuzilgan qo‘llanma va dasrliklarini yaratdi, ularni amalda qo‘llab ko‘rsatdi. Bu kitoblar bir-birini mantiqiy tomondan davom ettiradi va to‘ldiradi. Ammo uning o‘qishni o‘rgatish metodikasi ham munozaralidir. Chunki u faqat yuzaki o‘qishni o‘rgatadi, vaholanki, yetuk kitobxon o‘qishning har xil turlaridan – tanishib chiqish, o‘rganish, izlanish, ko‘z yugurtirish va hokazolardan foydalanadi. Boshqacha aytganda, uning tizimi bo‘yicha tajribasiz mutolaachilar tayyorlanadi. Bundan tashqari, o‘qituvchi asosiy shaxsu yoki bu tilning sohibi rolini emas, balki boshqaruvchi xodim yoki nazoratchi rolini o‘ynaydi.

G. Palmer ham, M. Uest ham til materialini tanlash masalasini ko‘tardilar, tanlash mezonlarini ishlab chiqdilar, chet tilini o‘qitish metodikasini boyitdilar va metodik qo‘llanmalar yaratdilar.

G. Palmer og‘zaki nutq orqali, M. Uest esa o‘qish orqali ingliz tilini o‘rgatish metodikasini boyitdilar va mashqlar tizimini tuzdilar.

5. Aralash uslub

Bu uslubiy yo‘nalishning eng yirik vakillari E. Otto, F. Aronshteyn, K. Flagstad va boshqalardir. Aralash uslublar yo to‘g‘ri uslubning yoki tarjima uslubining qoidalarini o‘zlashtirishi tufayli muayyan o‘ziga xoslik bilan ifodalanadi. Shuning uchun bu yo‘nalish vakillari tomonidan birorta original o‘quv qo‘llanmasi yaratilmadi. Avvalo shuni aytish kerakki, aralash uslub vakillari to‘g‘ri uslub vakillaridan farqli ravishda chet tilini o‘qitishning maqsadlarini ancha batafsil ifodalaydilar. To‘g‘ri metodchilar chet tilini o‘rganishning tor amaliy ahamiyatinigina ko‘rgan bo‘lsalar, aralash uslub vakillari bu predmetning amaliy vazifasini inkor qilmay, garchi har xil tushunsalar-da, uning umumta’limiy ahamiyatini ham e’tirof etadilar. Masalan, K. Flagstad chet tilini o‘qitishning umumta’limiy ahamiyatini aynan tilni o‘rganish orqali ro‘y beradigan shaxsning intellektual o‘sishida ko‘radi.

Amaliy maqsadlarga kelganda, aralash usulning barcha vakillari, garchi o‘qishni o‘rgatish yo‘li ishning reproduktiv shakllari, ya’ni og‘zaki nutq orqali o‘tishini tan olsalar ham, o‘qishni afzal ko‘radilar.

Ta’limning mazmuni masalasi aralash uslub vakillari tomonidan tahlil qilinmagan. K. Flagstad va E. Otto ta’lim mazmuniga umuman yondashmagan bo‘lsalar, F. Aronshteyn o‘rganilishi lozim bo‘lgan grammatika va leksika qo‘llaniladigan hamda o‘rganilayotgan til normalariga mos bo‘lishi kerak, degan umumiy mulohazalar bilan cheklanadi. E. Otto chet tilini o‘qitishda ona tilini chetlab o‘tib bo‘lmasligini, ona tilidagi shakl va so‘zlar ma’lum tushunchalar bilan tutashgandek vujudga kelganini, shuning uchun so‘zlarning ma’nosini ochishda grammatikani tushuntirishda ona tiliga murojaat qilish, chet tilida yetarli asos yaratilgunicha ona tilidagi tajribaga tayanish kerakligini ta’kidlaydi. F. Aronshteyn bu masalaga yanada chuqurroq qarab, chet tili grammatikasini o‘rganishda ona tiliga tayanish va uni ona tili bilan taqqoslash maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

K. Flagstad ana shu masala bo‘yicha eng ilg‘or pozitsiyada turib, o‘qituvchi o‘quvchilarning ona tilisiga murojaat qilmasa, ular chet tilining tuzilishlarini tushuna olmasliklarini uqtiradi. Shuning uchun chet tili grammatikasini o‘zlashtirishning eng yaxshi usuli uni ona tili bilam qiyoslash, deb hisoblaydi. Buni asoslash uchun aytgan fikricha, o‘quvchilar o‘z ona tillarining tuzilishiga shunchalik o‘rganib ketadilarki, uni har qanday so‘z uchun mos keladigan tuzilma deb ham hisoblaydilar. Ularning bu tasavvurini taqqoslash va tarjima, ba’zi hollarda, hatto so‘zma-so‘z tarjima yo‘li bilangina kengaytirish mumkin. K. Flagstad qoidalardan foydalanish va grammatikani o‘rganishni birmuncha qat’iy yoqlaydi. Shuningdek, u grammatikani induktiv yo‘l bilan o‘rganishga qarshi chiqadi. Chunki uning tushunishicha, induksiya-qoidalarni o‘rganish va deduksiya- qoidalarni amalda qo‘llash demakdir. Shuning uchun u qoidalarni misollar bilan birga yodlashga, keyin ularning qo‘llanishini mashq qilishga katta ahamiyat beradi. Bu

usulni u chet tilini ona tili bilan taqqoslab o‘rganishning xususiyatlaridan kelib chiqib tavsiya etadi. Mana shu aytilganlar asosida aralash usul vakillari tarjima qilish, qoidalar va grammatik mashqlarni qayta tiklashga uringanlar.

Xulosa qilib aytganda, Yevropada chet tili o‘qitishdagi ilk metod va tajribalar bir-biri bilan bog‘liq holda bir-birini to‘ldirishga xizmat qilgan. Ularning har biri o‘ziga xos yutuqlarga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, kamchiliklardan ham holi bo‘lmagan. Ushbu davr uslubchilari chet tili o‘qitish metodikasining ilk tamal toshini qo‘ygan holda, bugungi kungacha ham o‘z amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan ilmiy merosni qoldirgan. Bu ilmiy meros davrlar mobaynida sayqallanib, amaliyotlar orqali mukammal holatga keltirilib nafaqat g‘arb, balki sharq dunyosida ham yoshlarga chet tilini o‘rgatish uchun olim va murabbiylarning bir qancha darslik, qo‘llanma va ilmiy ishlariga asos bo‘lib xizmat qilgan, deb ayta olamiz.

Adabiyotlar

1. Hoshimov O‘, Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2003. – 301 bet.
2. Jalolov J.J, Mahkamova G.T, Ashurov Sh.S. English language teaching methodology. –Tashkent, 2015. – 334 bet.
3. Mamatov M.Sh. Yevropada chet tilini o‘qitish uslubiyati tarixidan. Oliy o‘quv yurtlarida til va adabiyot fanlarini o‘qitishning nazariy va amaliy jihatlari (IV son), Toshkent, Toshkent davlat yuridik instituti, 2003. 142 bet.
4. Zaripova A.R. Chet tillar o‘qitish metodikasidan qo‘llanma. – Toshkent, O‘qituvchi, 1986. –182 bet.
5. Sherba L.V. O‘rta maktablarda chet tili o‘qitish. – M., 1974. – 320 bet.

UDK: 37.018.61

OILADA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY TAMOYILLARI

M. Rahimqulova, Sh. Usanov
Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi
raximkulova80@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada sog‘lom turmush tarzining inson va jamiyat hayotida tutgan o‘rni, uni qaror toptirishning asosiy omillari keng yoritilgan. Bu borada ota-onalarning mas’uliyati, ularning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda amal qilishi lozim bo‘lgan tamoyillar batafsil o‘rganilgan. Shuningdek, oilada sog‘lom-turmush tarzini shakllantirishdagi asosiy yo‘nalishlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga oid amaliy tavsiyalar keltirilgan. Ota-onalarni, qolaversa butun oila a’zolarini sog‘lom turmush-tarziga amal qilishlari uchun zarur bo‘lgan bilimlar zahirasini boyitish, jismoniy va ruhiy barkamollikka erishishning nazariy asoslari hamda ularni oila sharoitiga tatbiq etishning amaliy yo‘llari ochib berilgan. Berilgan nazariy va amaliy tavsiyalar oila a’zolarining jismoniy faolligiga, oila a’zolarining ma’naviy va jismoniy tarbiyalanishiga hamda oilaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: oila, ota-ona, sog‘lom turmush tarzi, iqtisodiy ta’minlanganlik, mehnat, farovonlik, ishlab chiqarish, ijtimoiy mas’uliyat.

Основные факторы формирования здоровый образ жизни в семье

Аннотация. В данной статье широко освещена роль здорового образа жизни в жизни человека и общества, основные факторы его принятия. Подробно изучены принципы ответственности родителей, которые должны соблюдаться при формировании их здорового образа жизни**.** Также представлены основные направления формирования здорового образа жизни в семье, существующие проблемы и практические рекомендации по их устранению. Были раскрыты теоретические основы для обогащения запасов знаний, достижения физического и психического совершенства, необходимых для поддержания здорового образа жизни родителей и членов их семей, а также практические пути их внедрения в семейные условия. Представленные теоретические и практические рекомендации способствуют физической активности членов семьи, духовному и физическому воспитанию и обеспечению экономической стабильности семьи.

Ключевые слова: семья, родителии, здоровый образ жизни, экономическое благополучие, труд, процветание, производство, социальная ответственность.

The main factors of forming a healthy lifestyle in the family

Abstract. This article details the role of healthy lifestyles in the life of the individual and society, and the key factors that contribute to this decision. In this regard, the responsibilities of parents and the principles that should be followed in shaping their healthy lifestyles are studied in detail. It also provides the main directions in the family's healthy lifestyle, existing problems and practical recommendations for addressing them. Theoretical bases for enriching the knowledge resources, physical and mental development of parents, as well as the whole family, are necessary to maintain a healthy lifestyle for parents and family members. The theoretical and practical recommendations will contribute to the physical activity of family members, spiritual and physical education of family members, as well as economic stability of the family.

Keywords: family, parents, healthy lifestyle, economic welfare, work, welfare, production, social responsibility.

Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy jihatdan kuchli hamda barqaror rivojlanishini ta’minlashda asosiy o‘rin tutadi. “Oila insonning tug‘ilishi, o‘sishi, voyaga yetishi va tarbiyalanishi uchun zarur maskan ekan, oilaviy munosabatlarning ma’naviy muhitni barqarorlashtirishdagi obyektiv va subyektiv omillarini bilish maqsadga muvofiqdir” [11; 6-7]. Zero, oiladagi obyektiv va subyektiv omillar farzand tarbiyasi, uning qanday inson bo‘lib o‘sib-ulg‘ayishiga bevosita ta’sir qiladi.

“O‘zbekiston aholisining 60 foizidan ziyodini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Yoshlar uchun ularning sog‘lom tug‘ilishidan boshlab, toki mustaqil hayotga kirgunga qadar barcha zarur sharoitlarni yaratib berish maqsadida qanday katta ishlar amalga oshirilayotganligi barchaga ma’lum” [2]. Darhaqiqat, O‘zbekistonda oilani mustahkamlash va yoshlar masalasi davlat siyosati darajasidagi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, baxtli oilani shakllantirmay turib, bunyodkor kelajak haqida orzu qilish ham noo‘rindir. Oila barqarorligini ta’minlash jamiyat uchun nafaqat iqtisodiy ustuvorlik, balki yoshlar uchun ma’naviy-ruhiy ozuqa manbai bo‘lgan ijtimoiy makon hamdir. Shuning uchun ham oilada sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish va oila a’zolarining unga amal qilishiga erishish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Sog‘lom turmush tarzi – nosog‘lom yoki nuqsonli turmush tarziga xos bo‘lgan axloqiy jihatlarni inkor etish va insoniy odobning ijobiy tomonlarini o‘zida mujassamlashtirish jarayonida takomillashib, rivojlanib boradigan qarashlar, qonun-qoidalar va prinsiplarni o‘zida aks ettirgan yondashuvlarga rioya qilishni ifodalaydi [10; 167].

Ma’lumki, inson salomatligi va hayot davomiyligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning 50 foizdan ortig‘i aynan turmush tarziga, 20 foizga yaqini ekologiyaga, 20 foizi nasliy omillarga, atigi 10 foizigina tibbiy omillarga bog‘liq [5]. Ya’ni, inson sog‘lom bo‘lishi uchun uning turmush tarzi sog‘lom bo‘lishi va unda sog‘lom turmush tarzi tushunchasini shakllantirish zarur.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan aholi salomatligini yaxshilash, mustahkamlash, insonning hayotdagi faol umrini uzaytirish, kasalliklarni kamaytirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” kabi davlat dasturlarida qator tadbirlar belgilanib, ular bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda [3].

Sog‘lom turmush deganda oila a’zolari me’yorida ekologik sifatli tanavvullanib, jismoniy chiniqishi, sihat-salomatlikning ta’minlanishi oilaning moddiy imkoniyatlarini oshirib, uzoq umr ko‘rishi, munosib hayot kechirishini tushunamiz. Oilada bunday sog‘lom turmushni qaror toptirish ota-onalar zimmasiga yuklatilgan katta mas’uliyatdir. Shuningdek, sog‘lom turmushning yana bir omili oila daromadi va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashdir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida “Ota-onalar o‘z bolalarini boqish va tarbiyalashga majburdirlar” [1; 12], – deb belgilab qo‘yilgan.

Buning uchun esa ota-onalarning sog‘lom turmush tarzi xususidagi ijtimoiy-biologik, iqtisodiy va siyosiy savodxonligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Bularni anglamasdan turib, oilada sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish mushkul. Ushbu ijtimoiy mas’uliyatni bajarishda ota-onalar anglab yetishlari muhim bo‘lgan masalalar qatoriga farzandni sog‘lom tarbiyalash va oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish kabi vazifalarni anglab yetish talab etiladi. Buning uchun esa ota-onalar sog‘lom turmush tarzining maqsad va vazifalarini nazariy jihatdan bilishlari hamda uni oilada tatbiq etish uchun amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur.

Bugungi kunda sog‘lom turmush haqidagi oilalarning savodxonlik darajasini tahlil qilib, uni – sog‘lom turmushni to‘liq, o‘rtacha, past darajada, tushunadigan; befarq bo‘lgan; tushunmaydigan va

umuman amal qilmaydigan oilalarga ajratib tadqiq etish mumkin. Demak, sog‘lom turmush tarzini amalga oshiradigan ota-onalarning ma’lumotlari va tajribasi turlicha ekan.

Oilada nafaqat jismonan, balki qalban, aqlan, fikran sog‘lom bolani tarbiyalab, voyaga etkazish kerak. Farzandimiz bardam-baquvvat bo‘lish bilan birga, sharqona axloq-odob doirasida tarbiya ko‘rgan bo‘lishi shart. Sog‘lomlik bo‘y bilan emas, o‘y bilan o‘lchanadi. G‘arb dunyosidan farqli ravishda farzandlarimiz o‘zlari bilan birga ota-onalari, oila a’zolari, qarindosh-urug‘lari, boshqa yaqin kishilari, jamiyat el-yurt va Vatan uchun yashaydi. Ma’naviy sog‘lom bolagina ota-onaga, oilaga, jamiyatga, yurtga tayanch bo‘ladi.

Dastlab oilada shakllangan bunday ko‘nikmalar, keyinchalik maktabda, yanada rivojlanadi. Amaliy ko‘nikma va malakalar nazariy bilimlar bilan mustahkamlanadi. Jumladan, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar “Atrofimizdagi olam” fanida umumiy biologik tushunchalarga ega bo‘lishadi. Inson organizmi tuzilishi, atrof muhitning ekologiyasi, o‘simlik va hayvonlar haqida umumiy tushunchalar shakllanadi [5].

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga oid ijobiy faktorlar: ratsional ovqatlanish, jismoniy madaniyat va sport bilan shug‘ullanish, uyqu me’yorini saqlash, atrofdagilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish [6; 4]. Bunga qarama qarshi bo‘lgan faktorlar esa: alkogol, chekish, narkotika, emotsional va psixologik bosim, stresslar, ekologiyaning buzilish kiradi [6; 4].

Oilada sog‘lom turmushni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- oila a’zolarining tartibli, sarishtali hayot kechirishi, shaxsiy gigiena va tibbiyotga amal qilishi, me’yorida sifatli oziqlanishi;
- oila a’zolarining jismoniy rivojlanishi, ta’lim-tarbiya olishi, jismoniy madaniyat bilan shug‘ullanishi va chiniqishi (ertalabki mashq va kechki sayr);
- oilaning iqtisodiy barqarorligini uzluksiz ta’minlash, ishlab chiqarishini doimiy tashkil etish (tomorqa, bog‘, chorva, dehqon, fermer xo‘jaligi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish);
- oila a’zolarining sigareta, nos chekmasligi, spirtli ichimlik va narkotik moddalarni iste’mol qilmasligi;
- ota-onalarning oilada sog‘lom turmush tarzini boshqarish haqidagi dunyoqarashini rivojlantirish, oila a’zolarida sog‘lom turmush haqidagi bilimlarni shakllantirish va tajribasini oshirish.

Yuqoridagi omillarning barchasi oilada sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishga xizmat qiladi. Sog‘lom turmushning barcha yo‘nalishlari o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, biri-ikkinchisini to‘ldirib boradi. Masalan, oila a’zolari jismoniy mashq bilan shug‘ullanmasa yoki oila iqtisodiy barqaror bo‘lmasa, boshqa yo‘nalish va maqsadlar ham amalga oshishi qiyin.

Oilaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash ota-onalardan katta mas’uliyat talab etadi. Buning uchun jismoniy salomatlik, teran fikrlash, tinimsiz mehnat talab etiladi. Iqtisodiy barqaror oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ham oson kechadi. Oilaning imkoniyatlari kengayib, munosib hayot kechirish ta’minlanadi, inson umr kurish davomiyligi oshadi. Mas’uliyatsiz ota-onalardan iborat oilalar bunday imkoniyatga ega bo‘lmay, oila parokandaligi yuzaga kela boshlaydi. Buning oqibatida oila ham, jamiyat ham zarar ko‘radi.

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, oila bola uchun eng muhim tarbiyaviy muhit bo‘lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun zarur hisoblangan xulq-atvor, iroda, tasavvur, dunyoqarash shakllanadi [9; 256] .

Oilada sog‘lom turmush tarzini amalga oshirish uchun ota-onalarning oiladagi sa’y-harakatini tashkil qilish haqida pedagog Abdulla Avloniy “Sihatimiz, saodatimiz, sarbatimiz, sabrimiz, qanoatimiz al-hosil butun hayotimiz harakatlarimizga bog‘liqdir. Harakatli odamlar tezgina maqsadlariga yeturlar. Yalqov kishilar barcha ne’matlardan mahrum bo‘lib, xorlikda qolurlar” [4; 5] deb ta’kidlagan edi.

Olimat-ul-Banotning “Muosharat odobi” asarida ham sog‘lom turmush tarzini shakllantirish xususida ibratli fikrlar keltirilgan. Jumladan, “Ota-onalar qo‘lida bolalar aziz omonatlardir. Shuning uchun bularni go‘zal tarbiya etmoq, yaxshi xulqlarga o‘rgatmoq va ko‘rkam odatlarni tushuntirmoq lozim bo‘ladi. Tarbiya ila bir bolani oltin etmoqlik mumkin, tuproq qilmoq ham mumkin. Bularning har ikkisiga ota-onalari sabab bo‘ladilar” [8; 18].

Oilada sog‘lom turmushni ta’minlash uchun ota-onalarning sa’y- harakatlarini to‘g‘ri tashkil qilish amaliy ahamiyatga ega. Buning uchun olib boriladigan faoliyatni ikki yo‘nalishda tashkil etish mumkin:

Birinchi yo‘nalish – ota-onalarning oilada sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish haqidagi bilimlarini kengaytirish;

Ikkinchi yo‘nalish – ota-onalarda shakllantirilgan bilimlar zahirasini oila sharoitida tatbiq qilishga o‘rgatishdir.

Bularni yo‘lga qo‘yish mushkul bo‘lsa-da, lekin bugungi tahlikali dunyoda mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, turli tajovuzlarning ortib borishi uni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Ota-

onalar sog‘lom turmush tarzini ta’minlashda oila a’zolarining oziq-ovqati, kiyinishi, uy jihozlari, madaniy mollar, kommunal xizmat, dam olishi, o‘qishi, mehnati, transport harajati, sayohatga borish, mehmon kutish, to‘y o‘tkazish, dori-darmon, yengil mashinaga ega bo‘lish, uyni ta’mirlash, bog‘ va chorvani tashkil qilish kabi boshqa ehtiyojlarni hisobga olishi kerak. Bundan tashqari, oilaning kunlik, haftalik, oylik harajatini aniqlash va ular qanday qoplanishini oldindan rejalashtirishlari ham zarurdir. Ular ichida eng asosiysi oila a’zolarining oziq-ovqat ehtiyoji bo‘lib, uning uzluksiz va barqaror bo‘lishini amalga oshirish zarurdir. Oila sharoitidan kelib chiqib, boshqa ehtiyojlarni keyinga surish yoki vaqtincha to‘xtatish mumkin.

Ota-onalar oilaning barcha ehtiyojlarini amalga oshirish uchun oila hayotida harakatchan bo‘lishlari shart. Ular oilaning moddiy holatini inobatga olib, uning kam-ko‘stlarini to‘ldirish uchun barcha ichki va tashqi imkoniyatlarini ishga solishi muhimdir. Oiladagi iqtisodiy barqarorlik oila a’zolarida moddiy manfaatdorlikni oshirib, ruhiy ko‘tarinkilikni yuzaga keltiradi, o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Ruhiy ko‘tarinkilik sog‘lom tafakkurni shakllantirib, organizmda modda almashinuvi va qon aylanishining yaxshilanishi kabi biologik jarayonlar ham faollashadi.

Zero, I.P. Pavlov jismoniy harakatning inson salomatligiga ta’sirini, organizm tashqi muhit bilan chambarchas bog‘langanligini anglatuvchi ko‘rinish, deb ta’riflaydi. Bunday bog‘lanish va biologik a’zolar faoliyatini markaziy asab tizimi boshqarib turadi. Jismoniy mashg‘ulot nafaqat u yoki bu organga, balki butun organizmga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ayniqsa, uzluksiz ravishda bajariladigan jismoniy harakat kishi sog‘lig‘iga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Modda almashinuvi yaxshilanadi, organizm to‘qimalari oziq moddalarni yaxshi o‘zlashtiradi, parchalangan moddalar esa organizmdan tezroq chiqarib tashlanadi. Yurak chiniqadi va yana chidamli bo‘ladi [12 ; 172]. Shu sababli faol jismoniy harakat qiluvchi kishilar tetik, ruhan yengil, quvvatga to‘la, kayfiyati yuqori, dili ravshan bo‘ladi. Jismoniy mashqlarni bajarish natijasida organizmning himoya vositalari yaxshi rivojlanadi.

Harakatsiz yoki kam harakatli ota-onalar oilaning mavjud moddiy imkoniyatlarini qo‘ldan boy berib, oila a’zolarining sog‘lom turmushini amalga oshira olmaydi. Oilaning iqtisodiy holati beqarorlashib, turmush darajasi pasayib boradi. Oila azolaridagi kam harakatlilik yoki yetarli darajada harakat qilmaslik jismoniy chiniqishni yo‘qotadi. Iqtisodiy tanglik oila a’zolarida ruhiy tushkunlikni yuzaga keltirib, kelajakka va o‘zlariga bo‘lgan ishonchni yo‘qolishiga olib keladi. Shuningdek, ota-onalardagi bunday kam harakatlilik bolalarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib, ulardagi shijoatkorlikni so‘ndirib qo‘yishi mumkin. Oqibatda oila hayotidagi faollik rivojlanishdan to‘xtaydi.

Harakatchan ota-onalar moddiy manfaatdor bo‘lish bilan birga, tejamkorlik bilan oila mablag‘ini oshirishga urinadi. Hatto tabiiy iqlim sharoiti noqulay joyda yashaygan holatlarda ham suvsizlikka chidamli o‘simliklar (tok, bodom, dukkakli o‘simliklar) yetishtirish orqali oila daromadini oshirish mumkin.

Oilada sog‘lom turmushni targ‘ib qilish uchun ota-onalarning qanday hududda yashashi, oila sharoitini hisobga olgan holda ma’rifiy targ‘ibotni amalga oshirish zarur. Bunday ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini respublika ommaviy axborot vositalari orqali, mahallalarda tashkil etiladigan turli uchrashuvlar, suhbat va debatlar orqali kengaytirish mumkin.

Oilaga tegishli tarmoqlardan (tomorqa, bog‘u-rog‘, chorva-parrandalar) yuqori daromad olishni amaliyotga tatbiq etishda ilg‘or oila boshliqlarining tajribalarini o‘rganish muhimdir. Ularning ijobiy ta’siri tufayli kam harakatli oilalarga bevosita amaliy yordam berish mumkin. Bunday tadbirlarning uyushtirilishi mas’uliyatsiz va kam harakatli ota-onalar dunyoqarashini o‘zgartirishda yaxshi samara beradi. Natijada iqtisodiy barqaror oilalar soni ortib, ularning turmush darajasi yaxshilanadi, sog‘lom turmush tarzi shakllanadi. Oilaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda ota-onalar va mehnatga yaroqli yoshlarning dehqon, fermer xo‘jaligidagi mehnatini yo‘lga qo‘yish ham foydalidir. Muhimi oila a’zolari mehnat qilishga o‘rganadi va ularda harakatchanlik shakllanadi.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning yana bir omili bu – oilada sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishdir. Jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muammolarni bartaraf etishda oila tarbiyasida quyidagi tamoyillarga e’tibor qaratish zarur:

- milliy ruh va sog‘lom turmush tarzini hisobga olib, ota-onaga va Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish;
- farzandlarning maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to‘la ado etishlari uchun oilada mas’uliyatli bo‘lish [7; 17].

Bundan tashqari, oilada sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishning o‘ziga xos psixologik omillari ham mavjud. Ota-onalarning farzandlar tarbiyasiga nisbatan konstruktiv munosabati, ya’ni ularni emotsional qo‘llab- quvvatlashi, farzandi qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilish, bola shaxsi shakllanishiga zarar yetkazmay, uning psixik rivojlanishi haqida qayg‘urish kabi sifatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ayrim ota-onalarda farzand tarbiyasiga oid bilimlaridagi kamchiliklarni, ya'ni farzandlariga nisbatan destruktiv munosabatni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratish bola shaxsining emotsional (hissiy), kognitiv (bilish) va konitiv (xulq-atvor) jihatlarini ijobiy tomonga o'zgartirish imkoniyatini yaratadi [11; 7].

Umuman olganda, yurtimizda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalar, bolalar va o'smirlar sog'lig'ini muhofaza qilish borasidagi olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar tahsinga sazovor. Ushbu yo'nalishda tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy tashxis usullarini joriy etish, ayollar, bolalar va o'smirlar o'rtasidagi kasalliklarning oldini olish va ularni davolashga doir ishlar ko'lamini kengaytirishda dasturulamal bo'lmoqda. Xalqimizda "kasallikni davolagandan ko'ra, uning oldini olgan afzal" degan naql mavjud. Sog'lom ota-onadan – sog'lom farzandlar dunyoga keladi. Qonuniy nikoh orqali vujudga kelgan otalik va onalikdan jamiyat, davlat va oilalar ham manfaat topadi, ular oldiga barkamol va sog'lom avlodni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa qo'yilgan.

Mamlakatimizda sodir bo'layotgan muhim o'zgarishlar jarayonidagi yoshlarning ishtirokini faollashtirmoq uchun, eng avvalo, ularning ongida tub sifatiy o'zgarishni yuzaga keltirish zarur. Chunki, yoshlarning tafakkur doirasi kengayib borgani sayin, ular jamoada, oilada o'zining tutgan o'rnini yanada aniqroq his eta boshlaydi. Oila va jamiyatda o'zaro hissiy moslik, ruhiy xotirjamlik va iliq do'stona muhitni shakllantirish, tarbiya tizimida pedagoglar va ota-onalarning bir xilda talabchan bo'lishi, bolani mehnat qilishga, sog'lom raqobatga kirishishga o'rgatish – yoshlarda mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirishga olib keladi.

Aksincha, notinchlik va ziddiyatli holatlarni boshidan kechirgan oila farzandlariga tibbiy, psixologik va ma'naviy yordam ko'rsatish, ularning to'laqonli ta'lim-tarbiya olishi va muayyan kasb-hunarning egasi bo'lishlari uchun oila-mahalla- ta'lim muassasalarida qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Chunki, ota-onalar o'rtasida muttasil davom etadigan nizolarning mavjudligi farzandlarning jinoyat yo'liga kirishiga turtki bo'layotgani kuzatilmoqda. Notinchlik va behalovatlik oila a'zolarining turli salbiy ta'sirlarga, yengil-yelpi yo'llarga berilib ketish ehtimolini oshirmoqda.

Zararli odatlar va ularning inson hayotiga ta'siri haqida yoshlarga tushuncha berish jarayonida quyidagi asosiy masalalarga e'tibor qaratish zarur:

- zararli odatlar (chekish, spirtli ichimlik iste'mol qilish, giyohvandlik)ning ro'y berishi va avj olishi;
- sog'lom organizmni narkotiklarga javob reaksiyasi, giyohvandlikning rivojlanish bosqichlari;
- zararli odatlarga berilishning oldini olish bo'yicha ogohlik talablari va salomatlikka qarshi xavflarni sezish;
- giyohvand shaxsning jismoniy va psixik jihatdan tubanlikka yuz tutishi, profilaktika ishlari, sanitariya xizmati, salbiy xususiyatlarni bartaraf qilish uchun tadbir va muhokamalar o'tkazish.

O'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lig'i va turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning oldini olish maqsadida ta'lim muassasalari va tibbiyot xodimlarining hamkorligi muhimdir. Sog'lom turmush tarzining asosiy komponentlarini bilish, uni amalga oshirish kompetensiyalarga ega bo'lish zarur. Buning uchun ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy soatlarda "Sog'lom turmush tarzi" to'g'risida ma'lumotlar berilishi zarur. Shu bilan birga, mutaxassislar ishtirokida, ya'ni huquqshunoslar, psixologlar, narkodispanser xodimlari hamkorligida OITS va narkotik moddalarning inson hayotiga zararlari to'g'risida tushuncha berish, videofilmlar ko'rsatish, ma'ruza, davra suhbarlarini tashkil etish, kutubxonalarda, sinf xonalarida shu mavzuga oid ko'rgazmapar tashkil etish ijobiy natijalar garovidir.

Ta'lim muassasalari va mahallalarda giyohvandlik moddalarni iste'mol qilishga moyil oilalarni aniqlash, o'rganish (so'rov varaqalari, testlar vositasida) va ularga profilaktik yordam ko'rsatish orqali jamiyatdagi bunday illatlarga qarshi kurashish mumkin. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish uchun turli to'garaklar, sport seksiyalarini kengaytirish, ruhiy kamolotga erishishning yangi-yangi g'oyalarini ishlab chiqish uchun o'quv-uslubiy tavsiyanomalar yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy dunyodagi global tahdidlar va ularning oldini olishga oid kuchli strategiyalar ishlab chiqilishi va hayotga keng tatbiq etilishi ogoh yashashning kafolatidir.

Xulosa qilib aytganda, sog'lom turmush tarzini tashkil qilish – oilalar turmushini barqarorlashtirish mamlakat aholisi moddiy hayotini yuksaltirishning poydevoridir. Oila sog'lom turmush tarzi, millat va jamiyat hayotini sog'lomlashtirishning zaruriy sharti bo'lmog'i darkor.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi nashriyoti, 2018.

2. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi "Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustaxkam podevoridir" nomli ma'ruzasi // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil, 8 dekabr, №247 (6941).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Ma’rifat gazetasi. 2018 yil, 29-dekabr, №104 (9169).
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
5. Abidova S. Shasxning rivojlanish davrlarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning o‘ziga hos xususiyatlari / http://new.tdpu.uz/article/571
6. Консултация для родителей. Здоровий образ жизни семъе – залог здоровя ребёнка. – Ухта, 2017. – С.4.
7. Musurmonqulov O. Ijtimoiy-ma’naviy muammolar va ularning yechimlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015. – 32 b. (B. 17).
8. Olimat ul – Banot. Muosharat odobi / Mas’ul muharrir A.Irisov; Tarjimon va nashrga tayyorlovchi T.Ziyoev. – Toshkent: Mehnat, 1991. – 32 b.
9. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. J.Hasanboyev va va boshqalar. – Toshkent: Noshir, 2011. – 456 b.
10. Pedagogika: ensiklopediya. III jild / tuzuvchilar: jamoa. – II 29 Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 424 b.
11. Fuqarolar yig‘inining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilari uchun aholi bilan o‘zaro muloqotda e’tibor qilinadigan psixologik jihatlar haqida uslubiy tavsiyalar. – Toshkent, 2016.
12. Sharipova D.J., Fuzailova G.S. va boshq. Talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish / Uslubiy qo‘llanma. – Farg‘ona, 2010. – 172 b.

УДК: 373.3(575.1)

ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС В РАЗВИТИИ ПАТРИОТИЗМА У СТУДЕНТОВ, ПОСРЕДСТВОМ КУЛЬТУРНО-ДОСУГОВОЙ РАБОТЫ НА ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ФАКУЛЬТЕТЕ СамГУ

Т. Османова, Р Уразова
Самарканд государственный университет

Аннотация. Целью данной статьи было определить задачи, стоящие перед факультетом, которые способствуют воспитанию молодежи, формированию гражданственности, активной социальной позиции, патриотичности. Для этого в статье, дан анализ культурно-досуговой работы проводимой на педагогическом факультете СамГУ, а так же педагогические условия развития патриотического воспитания которые составляют взаимосвязанную, целостную систему, руководствуясь которой педагоги обеспечивают эффективное выполнение целей и задач воспитания.

Ключевые слова: культура, традиции, обычаи, патриотизм, гражданственность, молодежь, воспитательный процесс, учебный процесс, досуг молодежи

SamDU pedagogika fakultetida madaniy-ma’rifiy ishlar orqali talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishdagi o‘quv jarayoni

Annotatsiya. Maqolaning fakultet oldida turgan asosiy vazifasi – yoshlar tarbiyasida fuqarolikni, faol jamiyatdagi holatni, vatanparvarlikni rivolantirish. Buning uchun maqolada, ma’naviy–madaniy ish bo‘yicha SamDU pedagogika fakultetida o‘tkazilayotgan tahlil, hamda vatanga bo‘lgan muhabbatni tarbiyalashdagino‘quvchilarning barcha maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish uchun bir-biriga bog‘liq va yaxlit tizimdagi pedagogik shart-sharoitlar belgilangan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, urf-odatlar, vatanparvarlik, fuqarolik, yoshlar, ta’lim jarayoni, o‘quv jarayoni, yoshlar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish

The development of patriotism among students through cultural and leisure work at the pedagogical faculty of SAMSU in the educational process

Abstract. Purpose of the article is to define the tasks, which facilitate the education of young generation, the formation of civicism, active social position, patriotism. For this reason, there is given an analysis of cultural-leisure work which is held in the pedagogical faculty of SamSU, moreover, pedagogical conditions of patriotic education which are drawn up for composing an interconnected and holistic system by means of which teachers ensure an effective accomplishment of goals and tasks of education.

Keywords: culture, traditions, customs, patriotism, citizenship, youth, educational process, youth leisure,

Под руководством Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева в нашей стране ведется целенаправленная работа по созданию условий духовного роста нашего народа, дальнейшего укрепления в нашем обществе дружбы и согласия, возрождения и развития, присущих нашему народу ценностей. «…Мы мобилизуем все силы и возможности нашего государства и общества для того, чтобы наша молодежь обладала самостоятельным мышлением, высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, ни в одной сфере не уступала своим сверстникам из других стран, была счастлива и уверена в своем будущем...»[1]

Патриотическое воспитание молодежи всегда являлось одной из важнейших задач современности. Под патриотическим воспитанием понимается постепенное и неуклонное формирование у молодежи любви к своей Родине. Патриотизм - одно из важнейших черт всесторонне развитой личности. У молодежи должно вырабатываться чувство гордости за свою Родину и свой народ, уважение к его великим свершениям и достойным страницам прошлого.«27 июня 2018 года президент Шавкат Мирзиёев подписал новый указ «О государственной программе «Yoshlar kelajagimiz» Воспитание молодежи, формирование гражданственности и активной социальной позиции является приоритетным направлением молодежной политики в республике Узбекистан.

Исторический опыт становления и развития нашей Республики указывает на то, что важнейшим средством формирования гражданского общества, укрепления единства и целостности многонациональности является патриотическое воспитание молодежи. Патриотизм является историческим явлением. Национальное самосознание и патриотизм не являются наследственными и не даются при рождении. В воспитании патриотизма особую роль должно занимать изучение исторического прошлого, в котором концентрируются лучшие гражданские традиции. Главной составной частью патриотизма является гордость человека за свою Родину.[3]

Педагогические условия развития патриотического воспитания составляют взаимосвязанную, целостную систему, руководствуясь которой педагоги обеспечивают эффективное выполнение целей и задач воспитания, воплощают в педагогическую практику содержание образования и воспитания при обязательном условии общественного и государственного регулирования деятельности учреждений образования и культуры, общественных организаций и семьи по патриотическому воспитанию.[5]

В годовой план работы педагогического факультета включены мероприятия, охватывающие все направления воспитательного процесса университета, а также культурно-массовые мероприятия, посвященные знаменательным датам. Принцип культурно-досуговой работы факультета организован так, чтобы удовлетворить все запросы и интересы студентов.

Основной целью кружков педагогического факультета является выявление и объединение одаренной молодежи, интересующейся различными направлениями культуры и искусства, развитие их таланта и творческого потенциала для внесения вклада в развитие и популяризацию современной и национальной культуры и искусства Узбекистана, возрождению национальных традиций и обычаев.

Задачи, стоящие перед факультетом это - создание благоприятных условий для проявления и развития способностей и таланта молодежи; содействие молодежи в реализации своих идей, планов и проектов, в сфере культуры и искусства; сохранение традиций и обычаев народа; развитие национальной культуры и искусства; развитие современных и традиционных направлений искусства и культуры; организация целенаправленного досуга молодежи.

В начале учебного года специалистами проведена профориентационная работа на факультете, придерживающаяся Стратегии действий, которая была утверждена 7 февраля 2017 президентом Узбекистана по пяти приоритетным направлениям развития страны с 2017- 2021 годах. Для студентов предложены кружки следующих направлений: -педагогика, филология (родной язык)

− биология;

− краеведение;

− народное творчество.

−Спортивные секции.

Для учебно-творческого процесса факультет имеет оснащенные аудитории.

Проведение кружков на факультете проводятся согласно рабочей программе и расписанию занятий, составленных с учетом занятости студентов основным учебным процессом.

Особой популярностью пользуется среди студентов кружок «Краеведение», в работу которого входит ознакомление своим краем, экскурсии по достопримечательностям г.Самарканда посещение музеев, в числе которых музей зоологии при САМГУ. Обязательным является посещение музея «Краеведения», Специфическая образовательная музейная среда создает условия для проявления

интереса к истории, традициям, культуре своего народа. Уникальная роль музея заключается в том, что он способен одновременно влиять на интеллектуальную, эмоциональную и моральную сферы, предоставляет возможность получить опыт непосредственного личного контакта с историей и культурой, влияет на формирование и развитие личности студентов. На воспитательный процесс на наш взгляд, как нельзя лучше способствуют средства музейной педагогики.

Для активизации воспитательного процесса и дальнейшего развития художественно-творческих способностей студенческой молодежи университета с начала учебного года в кружках факультета составляются план мероприятий, где студенты сами составляют сценарий мероприятия, театральные постановки и сами же в них участвуют. Это дает возможность молодежи творчески подойти к делу, претворить в жизнь свои идеи, ближе познакомиться с традициями и обычаями. На всех факультетах Университета есть одаренные студенты, которые принимают активное участие в мероприятиях факультета и университета, научно-практических конференциях, конкурсах, олимпиадах. Одним из творческих видов, пользующиеся популярностью среди молодежи является КВН, где дается возможность проявить и развить свои таланты, способности.

Каждый человек, живущий в Узбекистане, должен знать откуда он родом, кто его предки, гордиться традициями своей страны, ее историей, культурой и чувствовать себя частицей большого государства. Поэтому проблема патриотического воспитания должна выйти на достойный уровень. Сегодня жизнеутверждающий призыв «Наши дети должны быть сильнее, умнее, мудрее и, конечно же, счастливее нас!» занял прочное место в сознании и сердце каждого из нас, родителей, педагогов и широкой общественности.

Литература

1. Мирзиёев Ш.М. Мы вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. – Т.: Узбекистан, 2016. – с 40
2. Гайбуллаев Н. Педагогика. – Ташкент, 2011. – с 15
3. Агапова, И., Давыдова М. Патриотическое воспитание в школе. - М., Айрис-пресс, 2002. – 224 с.
4. Историческое краеведение. – М., 1980. – с 34
5. Кобылянский, В. А. Национальная идея и воспитание патриотизма // Педагогика-1998-№ 5 - с. 52
6. http://www.ziyonet.uz

UDK: 37; 371; 147

O‘QUVCHILARNI EKOLOGIK QADRIYATLAR VOSITASIDA TARBIYALASHNING AYRIM YO‘LLARI

D. I. Tosheva
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada suv va uning tirik mavjudot uchun zarurati, suv resurslari va undan to‘g‘ri foydalanish, tabiiy unsur bo‘lmish suvning inson salomatligi va muhumligi haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ekologik tarbiyalashda suvni qadriyat sifatida qarab, uni dars jarayonida mavzular kesimida shakllantirish omillari talqin qilingan. Ekologik ta’lim-tarbiyada suv haqidagi bilimlar, suvni isrof qilmaslik, uni asrash haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, boshlang‘ich ta’lim, ekologik tarbiya, suv, qadriyat, dars jarayoni, ekologik ta’lim, jamiyat qoidalari, maqollar, “Avesto”, suvni asrash.

Методы обучения учеников с помошъю экологических ценностей

Аннотация. Эта статья содержит информацию о здоровье и важности воды и ее использовании для живых существ, об использовании водных ресурсов и их рациональном использовании, а также о важности природной воды для природных элементов. Нарядус этим в данной статье раскрываются факторы формирования экологического воспитания у учеников начальных классов в разрезе тем в процессе урока с признанием воды в качестве ценности. В экологическом воспитании и обучении приведены сведения о воде, включающие рациональное использование воды и бережное к ней отношение.

Ключевые слова: обучение, воспитание, начальное образование, экологическое воспитание, вода, ценность, процесс урока, экологическое обучение, общественные правила, пословицы, «Авеста», бережное отношение к воде.

The methods and ways of teaching pupils through ecological valus

Abstract. This article is about the health and importance of water and its use for living things, about the use of water resources and their rational use, as well as about the importance of natural water for natural elements.

This article also explores the value of water in the environmental education of elementary school students, and how it is shaped by topics in the classroom. Environmental education provides information on water, information on how to avoid wastage and protection of water

Keywords: education, upbringing, primary education, ecological upbringing, water, value, educational process, environmental education, community rules, proverbs, Avesto, water preservation.

Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda o‘quvchi-yoshlarni ekologik jihatdan barkamol qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik tarbiya mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan davrda har qachongidan ham muhim hisoblanadi. Ekologik ta’lim-tarbiyada suv haqidagi bilimlar, suvni isrof qilmaslik, uni asrash asosiy o‘rinda turadi. Chunki suv tomchisida hayot mujassam. Suv – tiriklik kafolati. Suv – tabiiy unsur, ilohiy qudrat, tabiatning bir bo‘lagi. Uni behuda sarflash kelajakka nisbatan qilingan xiyonat va e’tiborsizlik bilan barobardir. Suv – tabiatning qimmatbaho resursi bo‘lib, biosferaning mavjudligini ta’minlovchi moddalar almashinish jarayonlarida o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Suvning qudratli kuchi haqida akademik **V.I.Vernadskiy** shunday yozadi: “Suv bizning sayyoramizning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Hech qanday tabiiy kuch o‘z ta’siri bo‘yicha eng asosiy, eng qudratli, geologik jarayonlarni tartibga solishda suv bilan bellasha olmaydi” [2, 91]. Suv har doim va har vaqt biosferaning muhim qismini tashkil etib, insonlar yashash muhitining ajralmas qismi bo‘lib qoladi. Atrof-muhitimizning mavjudligini ta’minlashda zaruriy vosita bo‘lib, sayyoramizdagi butun tirik organizmlarni, eng avvalo, butun insoniyatning yashashi uchun sharoit yaratadi. Shuning uchun ham suvga “Yerning qon tomir tizimi" deb ta’rif berilishi bejiz emas. Xalqimiz azaldan ushbu bebaho ne’matni yuksak qadrlab ,,Suvga tupurma”, ,, Quduqqa tosh tashlama”, ,, Ariqqa suprundi tashlama” kabi o‘gitlarni bejiz aytishmagan. Buyuk allomamiz Muhammad Muso al- Xorazmiy (782-847 yy) risolalarining birida bunday deb yozadi: “ Bilingki, daryoning ko‘zlari yoshlansa, uning boshiga g‘am-kulfat tushgan bo‘ladi. Odamlar daryodan mehringizni darig‘ tutmanglar” [3, 11]. Daryoning yoshli ko‘zlari deganda al-Xorazmiy nimani nazarda tutgan ekanlar? Ehtimol, u daryo suvini ortiqcha isrof bo‘lishni nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz eng avvalo daryo bilan odamlarni bir-birini tushunishlari va til topishlari o‘zaro mehr-muhabbat qo‘yishlarini nazarda tutgan.

Butun dunyoda suv hayot manbayi sifatida qaralsa, O‘rta Osiyoda bu muqaddas bir tilsim sifatida e’zozlanadi. Qadim o‘tmishga nazar soladigan bo‘lsak, “Avesto”da ham suvni muqaddas bilganlar. Islom olamida ham suv poklik, halollik va hayot ramzi sifatida qaralgan. Chunki sayyoramizda o‘simliklar va hayvonot dunyosining tarqalishi va ularning yashashi uchun zarur sharoitning mavjudligi, albatta, suv bilan bog‘liq. Qayerda suv ziyoda bo‘lsa, u yerda butun tirik mavjudot gullab-yashnaydi va ko‘payadi, aksincha, suv kam yoki umuman yo‘q bo‘lsa, hayotning o‘zi ham bo‘lmaydi. Suv insoniyat madaniy hayotining shakllanishi va taraqqiy etishida sayyoramizdagi boshqa tabiiy resurslarga nisbatan sezilarli rol o‘ynaydi. Suvning sanoat va qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati beqiyosdir. Uning maishiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur vosita ekanligi hech kimga sir emas. Suv inson organizmi, barcha o‘simlik va hayvonlar tarkibini tashkil qiladi. Ko‘plab tirik mavjudotlar uchun yashash muhiti vazifasini bajaradi. Suv tabiatda aylanma harakat qilib, yer yuzasini shakllantirishda ishtirok etadi. Atrof-muhitning gidrologik va gidrogeologik tarkibining shakllanishida bizning sayyoramiz uchun xos bo‘lgan suvning umumbashariy aylanma harakati katta ahamiyatga ega.

Ma’lumki, dunyo miqyosida ushbu bebaho ne’matni asrash, undan oqilona foydalanishga alohida e’tibor beriladi. Xususan, suv resurslari bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish, ularni asrash va tiklash uchun aniq choralar ko‘rilmoqda. Ammo obi hayotdan oqilona foydalanish, oqova suvlarning ifloslanishi kabi holatlarning uchrab turishi achinarlidir. Yer sharining ko‘plab tumanlarida toza ichimlik suvi yetishmovchiligi muammosi asosiy muammoga aylanib bormoqda. Yer yuzida aholi sonining tobora ko‘payib borayotganligi insoniyat oldida turgan qator muammolarni insonlarning o‘zlari hal etishlarini taqozo qilmoqda. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash muammosini hal etish uchun qishloq xo‘jaligi jadal sur’atda rivojlantirilmoqda. Aholini ish bilan ta’minlash, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ko‘plab sanoat korxonalari, energetika, texnika-transport, turli ma’muriy va turar joy binolari va boshqa obyektlar barpo etilmoqdaki, bu hol tabiatning eng noyob ne’matlaridan biri hisoblangan chuchuk suvga bo‘lgan talabning yildan yilga oshib borishiga sabab bo‘lmoqda. Ma’lumotlarga qaraganda, dunyoda chuchuk suvning yillik zahiralari 41 ming km^2ni tashkil etadi, shundan Osiyo qit’asida 13.2, Janubiy Amerikada 9.5, Shimoliy va Markaziy Amerikada 6.5, Yevropada 6.2, Afrikda 4.0 va Avstaliya va Okeanlarda 1.6% miqdorda chuchuk suv mavjud. Yer yuzining uchdan ikki qismi suvliklardan iborat bo‘lib, uning 97% dengiz suvlari(sho‘r) va 3% chuchuk suvlardan iborat.



Mana shu 3% chuchuk suvlarni 77.6% ni tog‘ va qutb muzliklari suvi, 21.8% ni grunt(tuproq) (quduq, buloq)suvlari, 0.6% yuza suvlari (daryolar, ko‘llar va irmoqlar) tashkil etadi.

Agar dunyo miqyosida olib qaralsa, chuchuk suvdan foydalanish bo‘yicha sanoat korxonalari oldingi o‘rinda, undan keying o‘rinda esa qishloq xo‘jaligi turadi. Bu holat O‘zbekiston Respublikasida aksincha, chuchuk suvni eng ko‘p sarf qiladigan tarmoq qishloq xo‘jaligi hisoblanadi. O‘zbekistonda suvdan foydalanish sohalari va ularda ishlatiladigan suv ulushi (3% kommunal xo‘jaliklarda, 12% sanoatda va 85% qishloq xo‘jaligida).

Tabiiy suvlar tarkibida 65 ga yaqin mikroelementlar aniqlangan bo‘lib, ulardan 20 tasi insonlar, jonivorlar va o‘simliklar hayoti uchun juda zarur. Ular tirik organizmlar va o‘simlik to‘qimalarida, shuningdek, hayvonlar tanasida faol moddalar bilan birikib, muhim biokimyoviy jarayonlarda qatnashadilar. Tirik organizmlar hayoti, ayniqsa, inson salomatligi uchun mis, rux, yod, marganes, kobalt, temir kabi mikroelementlar hamda kalsiy, kaliy, natriy, fosfor singari kimyoviy elementlar nihoyatda zarur. Lekin bunday makro va mikroelementlar tirik organizmlar uchun juda oz miqdorda kerak bo‘ladi. Shuning uchun, ularning me’yorini bilish muhim ahamiyatga ega. Bu moddalar organizmga suv, oziq-ovqat mahsulotlari bilan kirib, uning elementlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirib turadi. Agar makro va mikroelementlar organizmlarda yetishmasa, turli kasalliklar kelib chiqadi. Masalan, inson organizmida yod elementi me’yor darajada bo‘lmasa buqoq kasalligi, kalsiy va ftor elementi yetishmasa tishlarning “kariyes” kasalligi kelib chiqadi. Aksincha, kalsiyning me’yordan ko‘p bo‘lishi buyrakda tosh hosil bo‘lishiga, ftor esa “flyuroz” kasalligining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.Suv ta’sirida organizmda sodir bo‘ladigan jarayonlarni tasavvur qilish uchun suvning tirik organizmlar uchun ahamiyati to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Yer yuzida yashovchi har qanday tirik mavjudot tanasining asosiy qismini suv tashkil qiladi. Shuningdek, balog‘at yoshiga yetgan kishilar tana og‘irligining yarmidan ko‘p qismini suv tashkil qiladi. Yosh ulg‘ayib borishi bilan inson tanasida yog‘ to‘planishi tezlashib, suv miqdori kamaya boradi. Organizmdagi suvning 70% i protoplazmalar to‘qimasida, 7% i qon tomirlarida (qon plazmasini hosil qiladi), 23% i to‘qimalarni yuvib turish uchun sarf bo‘lar ekan.





Shunday ekan suvning inson organizmi uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini biz bolalarga yoshligidan tushuntirmog‘imiz undan to‘g‘ri foydalanishlari haqida ma’lumot bermog‘imiz darkor. Bu uchun maktab o‘quv dasturiga boshlang‘ich sinfdan boshlab atrofimizdagi olam va tabiat darslarida suv va uning tuzilishi uning tirik organizmlar uchun ahamiyati nazariy jihatdan yoritib o‘tilgan. Maktabga ilk qadamini qo‘ygan bola men dunyoni angladim, hamma narsani bilaman, shuning uchun maktab boryapman, degan fikr bilan yashaydi. Lekin keyinchalik ilm orqali dunyoning sir-u sinoatlarini nazariy jihatdan bila boshlagandan so‘ng, hali ko‘p narsani o‘rganmog‘im darkor, degan xulosaga keladi. Xuddi shu o‘rinda kundalik hayotida foydalanib kelayotgan “suv “ haqida ham unga dastlabki elementar ma’lumotlarni bermog‘imiz darkor. Tabiat haqidagi dastlabki ma’lumotlarni biz bolalarga atrofimizdagi olam fani orqali beramiz. 1-2 sinfda bolalarga suvning ahamiyati, ularning turlari va shakllari fasllarda ularning ko‘rinishlari va suv havzalari va undagi suvlarning turi, hamda ichimlik suvi, shuningek, uning ahamiyati xususida ma’lumot beriladi. Yer yuzining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ini suv qoplaganligi, lekin bu suv sho‘r va uning iste’molga yaroqsizligi haqida ham ma’lumot berib o‘tiladi. O‘zbekistonning yarmidan ko‘proq hududlari cho‘llardan iborat bo‘lib, suvli joylar daryo, ko‘l va orollari mavjudligi haqida ma’lumot beriladi. Suvning qattiq holdagi ko‘rinishini tog‘lardagi muzlar timsolida tushuntirish mumkin. Suvlarning o‘zaro harakatlanishini bolalarga nazariy jihatdan turli amaliy mashqlar orqali (bir stakanga suv olib uni olovda qaynatish orqali bug‘lanishini yoki muzlatgichga qoyib muzlatish orqali) bolalarga daryo va dengizlardagi suvlar havo isishi bilan bug‘lanishini keyinchalik havo harorati pasayishi orqali bulut bo‘lib yomg‘ir va qor shaklida qayta yerga tushishi, havo harorati past joylarda (tog‘larda) ular muz shaklida saqlanishi haqida tushuntirib o‘tiladi.

Biz doimo barcha sohalarda (o‘simliklar, hayvonlar, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jalik) chuchuk suvdan foydalanamiz. Biroq bu suv yer yuzida ko‘p foydalanish uchun kamayib boryapti, uni tejab ishlatishimiz va undan to‘g‘ri foydalanishimiz darkor. Suv inson uchun nafaqat ozuqa manbayi, balki inson organizmini to‘g‘ri o‘sishi va toza-ozoda bo‘lishi va jismonan chiniqishi uchun ham foydalidir. Hammamizga ma’lumki, havo harorati isishi bilan insonning boshqa narsalarga nisbatan suvga bo‘lgan ehtiyoji ortib boradi. Issiq kunlarda ko‘pchilik, ayniqsa, bolalar ochiq suv havzalarida cho‘milishni istaydi. Bexosdan ifloslangan suvni yutishi yuqumli oshqozon-ichak kasalliklariga sabab bo‘ladi. Ya’ni qorin tifi, dizenteriya, gepatit A, patogen enterobakteriyalar, oshqozon-ichak traktining zararlanishi, intoksikatsiya, degidratatsiya (suvsizlanish) hamda turli asoratlar bilan kechadigan xastaliklar kelib chiqadi. Shu kabi noxush holatlarning oldini olish maqsadida profilaktik choralar ko‘rilyapti. Xususan, maktabgacha ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablari, dam olish maskanlari, umumiy ovqatlanish obyektlarida sifatli suv bilan ta’minlash, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etish bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borilmoqda.

Inson tabiat qo‘ynida yashar ekan, uning beminnat saxovati, in’omi va marhamatidan bahramand bo‘ladi. Shunday ekan, insonning eng yaqin do‘sti bo‘lmish tabiatni ardoqlash va e’zozlash har bir kishining muqaddas burchi bo‘libgina qolmasdan, balki shu ko‘rkam tabiatning eng oliy ne’mati hisoblanadigan insonning sharafli burchi bo‘lishi lozim. Muruvvatli, ko‘rkam, saxovatli keng tabiatni

e'zozlab, unga bo'lgan muhabbat inson qalbida yoshlikdan uyg'onadi va davrlar o'tishi bilan shakllanadi. Oltindan ham aziz bo'lgan suvning hayotimizdagi o'rni cheksiz. Uni tejab foydalanish, ifloslantirmaslik insoniyat oldida turgan eng muhim vazifadir. Ushbu mas'uliyatni bajarishda esa har birimiz jiddiy yondashib, mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlashimiz, eng muhimi, kelajak avlod uchun bebaho ne'matni asrashda munosib hissa qo'shishimiz zarur.

Xulosa qilib aytganda, agar biz tabiat qo'ynida tinch va sog' yashashni xohlasak, tabiat qonunlarini o'rganishimiz, o'zlashtirishimiz va uning qonunlari asosida o'z hayot-faoliyatimizni , ish rejalarimizni tuzishimiz shart.

Adabiyotlar

1. Atlas. 9-sinf. Dunyoning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Toshkent - 2018 y.
2. Sultonov P. S. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent "Musiqa " nashriyoti 2007. - 91-98 bet.
3. To'xtayev A. Ekologiya. Oliy ta'lim talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi. 1998. - 128 b.
4. . Xolliyev I., Ikromov A. Ekologiya. O'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Mehnat, 2001.
5. G'ulomov P., Mirzaaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam. Darslik. –Toshkent.: "Cho'lpon" nashriyoti. 2018. – 49-52 b.

УДК: 796.015: 011.1: 853.23

ПОВЫШЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНОШЕЙ УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫХ ГРУПП ПО БОРЬБЕ ДЗЮДО

О. Ж. Дадабаев
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта
o.dadabaev70@mail.ru

Аннотация. В данной статье описываются результаты исследования физической подготовленности спортсменов дзюдо в возрасте 14-15 лет.

Ключевые слова: физическая подготовка, юные дзюдоисты, учебно-тренировочная группа, учебно-тренировочный процесс.

O'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi yosh dzyudochilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish

Annotatsiya. Ushbu maqolada dzyudo bo'yicha 14-15 yoshli o'quv mashg'ulot guruhi sportchilarining jismoniy tayyorgarligini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, yosh dzyudochilar, o'quv mashg'ulot guruhi, o'quv mashg'ulot jarayoni.

Improving the physical preparation of young judo wrestlers in studying and training groups

Abstract. This article describes the results of a study of the physical preparation of judo athletes aged 14-15 years.

Keywords: physical training, young judo wrestlers, training-studying group, studying and training process.

Ведение. В связи с постоянным увеличением нагрузки в дзюдо для достижения высокого спортивного результата, в настоящее время всё большее значение приобретает физической подготовленности борцов. Дзюдо как один из видов борьбы пользуется большой популярностью в мире. В связи изменением в правилах соревнований по борьбе дзюдо, введенных в последние годы Международной федерацией дзюдо обусловили требование существенного повышения зрелищности соревновательных поединков за счет увеличение активности и результативности тактических действий дзюдоистов это обстоятельство потребовало необходимой коррекции всей системы подготовки дзюдоистов, включая тренировочный процесс и особое внимание физической подготовленности а также соревновательную деятельности спортсменов [1].

В этой связи представляется актуальным и необходимым разработать план физической подготовки дзюдоистов учебно-тренировочный групп спортивной специализации. Проблема совершенствования физической подготовки дзюдоистов на данном этапе связана с поиском

наиболее рациональных путей и эффективных средств, направленных на совершенствование всех физических качеств в дзюдо.

Физическая подготовка – один из важнейших факторов дальнейшего прогресса в обучении техники и тактики. Особенности детей 13-14 лет позволяют направленно воздействовать на развитие таких качеств как быстрота, ловкость, гибкость, сила и координация. Занятия дзюдо оказывают положительное влияние данные физического развития организма, а также существенно повышают физическую подготовленность занимающихся. [2,3].

Цель исследование: Определить эффективность методики повышения общей физической подготовки.

Методы исследования- наблюдение, тестирование, педагогический эксперимент, методы математической статистики.

Объект исследования - тренировочный процесс подготовки дзюдоистов.

Организация эксперимента. В эксперименте участвовали юноши 14-15 лет учебно-тренировочных групп первого и второго года обучения.

Результаты исследования и их обсуждение. Проведен педагогический эксперимент, для развитие физической подготовленности у дзюдоистов 14-15 лет учебно-тренировочных групп первого и второго обучения, общий количество 12 человек. Из них 10 спортсмены имели первую юношеский разряд, один спортсмен имел второй юношеский разряд, один спортсмен без разряда. Эксперимент проводился 2018-2019 гг. в детско-юношеской спортивной школе №1 в городе Наманган.

В эксперименте участвовали 12 дзюдоистов в возрасте 14-15 лет. Тренировочные занятия проводилась с использованием разработанных упражнений разработанной нами.

Тренировочный процесс были включены комплекс упражнений, направленных на развитие физических качеств.

Экспериментальная методика состояла из комплекса упражнений для развития скоростной, скоростно-силовой, специальной выносливости и включала в себя следующие упражнении: челночный бег 3х10 см, прыжок в длину с места, сгибание, разгибание рук в упоре лежа, сгибание, разгибание туловище, подтягивание на перекладине

Используемые контрольные упражнения являются достаточно информативными и надежными. Полученные результаты анализировали методами вариационной статистики.

В группе до эксперимента наблюдается большей разброс (V%) по всем показателям общей физической подготовленности. В настоящее время совершенствование и развития физической подготовленности спортсменов различного уровня физическая подготовка занимает одним из наиболее важных факторов в многолетние подготовки. Поэтому необходимо было улучшить их физическую подготовленность, для чего были организованы научно-исследовательский эксперимент. В учебно-тренировочный процесс были внедрены в недели один раз дополнительные упражнении по развитие физической подготовленности спортсменов, а также были использованы экспериментальная методика для повышение физической подготовленности дзюдоистов в годичном цикле.

Тренировочные занятия в основном были направлены на повышение общей физической подготовленности дзюдоистов.

В настоящее время по мнению многих специалистов физическая тренированность выходит на первый план в подготовленности дзюдоистов. Для контроля тренировочных нагрузок учитывалось пять основных компонентов: продолжительность, интенсивность, время интервалов отдыха и характер пауз отдыха между упражнениями, число их повторений. С целью повышение всех физических качеств и разносторонней подготовленности дзюдоистов применялись различные упражнения. Для развития скоростно-силовой подготовленности применялись подтягивание на перекладине на скорость за 20 секунд, для развития брюшного пресса применили сгибание, разгибание туловища лежа на спине за 20 секунд, для развития скорости применялись бег 30м, прыжки в высоту с места, прыжки через натянутую резинку, прыжки со скакалкой. Для повышения выносливости использовались чередование ходьбы и бега на дистанции 400м, кросс 1000 м без учета времени, бег 60 м на результат. Для развития координационных способности применялись эстафеты, спортивные и подвижные игры.

Для гармоничного развития мышечных групп проведены учебно-тренировочные занятия с применением кругового методы тренировки. Учитывая возраст спортсменов, нами выбран комплекс упражнений, состоящий из 4-6 станций (упражнений). Количество кругов составлял 2-3; время выполнения упражнений на станции 10-15 секунд; интервал отдыха между станциями 6-8 секунд;

отдых между кругами до полного восстановления испытуемых (по показателям ЧСС). Комплекс тренировки проводилась по следующим станциям: 1. Прыжки со скакалкой. 2. Выпрыгивание из приседа. 3. Прыжки в высоту с места. 4. Разведение рук с гантелями (2кг). 5. Вращение туловища с набивным мячом. 6. Сгибание и разгибание рук в упоре лежа в быстром темпе за 20 секунд. В период проведения педагогического эксперимента учебно- тренировочные занятия по круговому методу проводилась один раз в неделю течение годичного цикла.

По окончании эксперимента было проведено тестирования по пяти показателем. Надо отметить, что после окончание педагогического эксперимента улучшились данные по всем параметрам, в тесте челночным беге на 3х10 см показатели повысилась на 15%, прыжке в длину с место на 9%, сгибание разгибание в упоре лежа повысилась на 21%, в тесте поднимании туловища из положения лежа на спине 25% и подтягивании на перекладине 29%. (табл. 1-2).

Таблица 1

Показатели физической подготовленности юных дзюдоистов (n - 12) до эксперимента

№	**Ф. И.О.**	Челночный бег 3х10 (сек)	Прыжок в длину с места (см)	Сгибание, разгибание рук в упоре лёжа (кол-во раз)	Поднимание туловище из положение лежа на спине (кол-во раз)	Подтягивание на перекладине (кол-во раз)
1	Ахм-в. М.	7,2	175	66	48	7
2	Амад-в. Х.	7,5	163	34	40	3
3	Руст-в. А.	8,5	168	48	50	7
4	Шар-в. А.	8,7	172	37	22	3
5	Хол-в. А.	7,9	160	40	40	3
6	Руст-в. М.	8,4	158	38	40	4
7	Хам-в. О.	7,5	172	51	52	6
8	Махм-в. А.	8,3	160	18	14	2
9	Усм-в. М	7,7	163	35	51	6
10	Зок-в. Қ	7,3	240	47	53	8
11	Шок-в. Х	7,4	240	36	55	9
12	Код-в. Р	7,5	210	50	50	10
	x	**7,83**	**181,75**	**41,67**	**42,92**	**5,67**
	δ	**0,45**	**24,13**	**8,94**	**9,76**	**2,22**
	V%	**5,70**	**13,27**	**21,47**	**22,75**	**39,22**

Таблица 2

Показатели физической подготовленности юных дзюдоистов (n - 12) после эксперимента

№	**Ф. И.О.**	Челночный бег 3х10 (сек)	Прыжок в длину с места (см)	Сгибание, разгибание рук в упоре лёжа (кол-во раз)	Поднимание туловище из положение лежа на спине (кол-во раз)	Подтягивание на перекладине (кол-во раз)
1	Ахм-в. М.	6,5	195	74	55	9
2	Амад-в. Х.	6,2	196	43	52	4

3	Руст-в. А.	7,1	179	55	64	9
4	Шар-в. А.	6,6	185	45	35	5
5	Хол-в. А.	6,4	172	51	54	4
6	Руст-в. М.	7,2	169	46	50	6
7	Хам-в. О.	5,8	194	59	67	8
8	Махм-в. А.	7,0	180	25	25	3
9	Усм-в. М	6,3	174	46	60	8
10	Зок-в. Қ	6,8	250	55	58	10
11	Шок-в. Х	7,1	245	48	63	10
12	Код-в. Р	7,2	230	58	62	12
	x	**6,68**	**197,42**	**50,42**	**53,75**	**7,33**
	δ	**0,38**	**26,87**	**8,25**	**8,83**	**2,87**
	V%	**5,74**	**13,61**	**16,36**	**16,43**	**39,1**

Выводы. В соответствии с позитивными результатами педагогического эксперимента, рекомендуется тренерам начальной подготовки юношей по дзюдо, проводить учебно-тренировочные сборы в условиях спортивно-оздоровительного лагеря. Нужно отметить, что уровень физической подготовленности у спортсменов существенно улучшился в среднем 20%.

По окончании педагогического эксперимента спортсмены из экспериментальных групп достигли значительные результаты. 1-призёр в первенстве Республики среди юношей, 2-пятое место, 1-седьмое место. 2-чемпиона в областном первенстве. Приобретенное в результате физической подготовки и позволяющие достигнуть определенных результатов в освоении техники, роста спортивного мастерства, поддерживает должный уровень здоровья у дзюдоистов.

Литература:

1. Коблев Я. К. Система многолетней подготовки спортсменов международного класса в борьбе дзюдо. Дисс. на соиск. уч. степ. доктора пед. наук. - М.: ГЦОЛИФК, 1990. - 328 с.

2. Ерегина С.В., Тарасенко К.Н. Комплексная оценка физической подготовленности дзюдоистов //Детский тренер, 2007, №2. - С. 10

3. Вершинин, М.А. Физическая подготовка высококвалифицированных дзюдоистов на основе дифференцированного подхода / М.А. Вершинин, А.В. Ерофицкий, Д.Л. Новиков // Физическое воспитание и спортивная тренировка. – 2014. – № 3 (9).- С. 5-10.

UDK: 371.3

O‘QUVCHILARNI TEXNIK LOYIHALASHGA O‘RGATISH

I. U. Izbosarov[1], Z. B. Sultonova[2]
[1]Samarqand davlat universiteti, [2]Samarqand shahri 58-o‘rta maktabi
baxriddinov_2014@mail.ru

Annotatsiya. Taqdim etilgan ilmiy maqolada o‘quvchilarga loyihalashni o‘rgatish jarayonida texnik ijodkorlikning muhim o‘rni haqida so‘z borib, ularni yoshlik davrlardan boshlab ijod qilishga undovchi omillar va mana shu omillar orqali ijodiy faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan ba’zi muommolarni hal qilishning dastlabki bosqichlari yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Texnik ijodkorlik, loyiha, kompozitsiya, bezak, applikatsiya, kolorit, konsentratsiya, eskiz, konstruktorlik g‘oyasi.

Обучениие техническому творчеству учеников

Annotация. В научной статье рассказывается о важности технического творчества в процессе проектирования у учеников, начиная с раннего возраста, факторов, способствующих творчеству, и благодаря этим факторам, первое решение некоторых проблем, которые могут вознкнуть в творческой деятельности даны.

Ключевые слова: технического творчества, проект, композиция, арномент, апплекация, колорит, концетрация, эскиз, дизайнерская идея

Learning technical creativity of students

Abstract. The scientific article describes the importance of technical creativity in the process of projecting students, from an early age, the factors contributing to creativity, and, thanks to these factors, the first solution to some problems that may arise in creative work. are given.

Keywords: technical creator, project, composition, decor, applet, coloring, concentration, sketch, design idea

Umumpedagogik tajribalardan bizga ma'lumki, bolalarni har qanday ijodiy faoliyatga yo'naltirish avvalom bor shu mashg'ulotga nisbatan motivatsiya paydo qilishdan hamda ko'nikma hosil qilishdan boshlanadi. Bolalar o'zlari bajarayotgan har bir vazifa, topshiriq haqida aniq tushunchaga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi tomonidan beriladigan har bir topshiriq va uning bajarilish shartlari to'g'risida batafsil tushuntirilishi, amaliy bajarib ko'rsatilishi va ular bilan birga ishlashi zarur bo'ladi. Albatta dastlabki ko'nikmalar harakatlarning bir necha marotaba takrorlanishidan paydo bo'ladi. Loyiha va kompozitsiya ayniqsa tasviriy san'atda bir-birini to'ldiruvchi tasviriy faoiyatning elementlaridan hisoblanadi. Masalan o'quvchilarni bir xillikka ko'nikib qolmasliklarining oldini olish maqsadida rasm chizish bilan qo'yilmani har xil kombinatsiyalashni ham ko'rsatib borish lozim.

Mavzu asosida rasm chizishda bola bevosita o'zi eshitgan ko'rgan voqea hodisalar, o'qigan kitoblarining matniga tayangan holda biron narsani xayolan tasavvurdan chizib berishga harakat qiladi. Bundan tashqari narsaning o'ziga qarab rasm chizish mashg'ulotida esa naturani (qo'yilma) tanlash, undagi predmetlarni qanday joylashtirishni bolalarning o'ziga havola qilish ham ularda qandaydir ijodiy faoliyatga erkinroq yondashishi va qiziqishni tarkib topishiga asos bo'ladi.

Kompozitsiya asar yaratishda tuzish, qurishni o'z ichiga olar ekan albatta loyiha orqali amalga oshiriladi. Bundan chiqdi loyihalangan ishni qanday ko'rinishda namoyon etish bu kompozitsiya shartlarining bajarilishiga bog'liq. Biron bir kompozitsiya loyihasini tuzish uchun avvalom bor bajariladigan ishlarni aniqlash, bu esa asarga oid bo'lgan eskizlar, qoralamalar, etyudlar qachonki u eng pishiq holatga kelmaguncha bir necha bora takrorlanishi tabiiy. Har qanday usta musavvir ham o'zining nomdor asarini qisqa muddatda tugatganini eslay olmaymiz. Birgina uyg'onish davrining buyuk rassomi Leonardo da Vinchi ham odam tanasi tuzilishini o'rgana turib, tana qismlarining nisbatlarini aniqlash maqsadida odamlar tanasini yorib ko'rdi va ishga oid 800 taga yaqin rasm chizib asoslab bergan bo'lsa, taniqli rus rassomi Surikov esa o'zining mashhur asarlarini yillar davomida yuzlab eskizlar chizish bilan yaratgan. [3]

O'quvchilarni loyihalashga o'rgatishda texnik ijodkorlikning ahamiyati juda kattadir. Chunki mashg'ulotlarda ko'pincha narsa buyumlarni ko'z bilan ko'rib uning shakli, tuzilishi, hajmi va rangi idrok qilinadi. O'quvchi o'zi bajarayotgan mashg'ulotning mohiyatini tushunishi va undan qanday natija chiqishini oldindan ko'z o'ngiga keltira olishi ish samarasini kafolatlaydi.

Maktab pedagogikasida bolalar ta'lim olish bilan birga tarbiyaning muhim turlaridan biri nafosat bilan bog'liq estetik ruhda ham tarbiyalanadilar. Estetik tarbiyani olib borish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalaydi, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantiradi, estetik madaniyat rivojlantiriladi. Estetik tarbiyaning natijasi ijodiy faoliyatda ko'zga tashlanadi.

Rasm, chizmachilik, qo'l mehnati darslari bolalarga go'zallikni idrok etishni o'rgatadi. Bolalar o'zlari idrok etgan go'zallikni rasm, applikatsiya, loy va plastilindan, yog'och, qog'ozdan yasalgan buyumlarida gavdalantiradilar.

O'quvchilarda estetik idrokni rivojlantirish uchun o'qituvchi turli vosita, usullardan foydalanishi zarur.

Maktablarda bolalarning ish mashg'ulotlariga estetik mezon kiritish lozim. "Kim chiroyli yasadi?", "Nima uchun uning qo'g'irchog'i chiroyli?" "Qanday yaxshi qilish mumkin?" kabi savollar berish o'rinli. Maktablarda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda san'atning roli yildan yilga ortib bormoqda.

Asosan umumta'lim maktablarining tasviriy va amaliy san'atga oid dars mashg'ulotlarining badiiy mehnat ham amalga oshiriladi. Bolalar tasviriy faoliyatning birinchi bosqichida quyidagicha va shunga o'xzshash buyumlarning eng sodda xillarini – yoyilmalarini chizib oladilar. So'ngra naqsh elementlaridan xohlaganlarini tanlab ularni yoyilma ustida tasvirlab yangi kompozitsiya hosil qilib loyihalashtiradi.

Tanlangan o'lchamlarda buyum shakli yasalib buyum tomonlarining yuzalariga yoyilmadagi kompozitsiya bosqichma bosqich tushiriladi. Naqshlarning ranglarini ham bolalar mustaqil tanlaydilar, rang tanlashda ular sonini chegaralash lozim, aks holda marom va naqsh ranglarining uyg'unligi buzilishi mumkin.

a.



b v

a-b buyum uchun tuzilgan naqsh kompozitsiya, v- bezatilgan buyum tasviri.

Istalgan mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyalarni tuzishda avval ko‘plab xomaki ishlar, eskizlar ishlanadi, va ulardan eng chiroyli namunalar tanlab olinadi. Naqsh kompozitsiyalarni tuzishda elementlar o‘rnini almashtirish, qo‘shimcha elementlar kiritish orqali uning mazmunini yanada boyitish ham muhim ahamiyatga egadir. Naqsh mazmunini ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim.

Bular kompozitsiyaning bir butunligi, elementlar, shakllar, ranglarning takrorlanishi va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, kompozitsiyaning tarkibiy qismi bo‘lgan rang tuslarining ma’lum bir koloritga bo‘ysundirishdan iborat. Mavjud naqsh elementlarini ma’lum qonun-qoidalarga amal qilingan holda joylashtirish, ya’ni kompozitsiya tuzish o‘ziga xos bilim va malakaga ega bo‘lishni talab etadi.[2]

Loyihalashtirilgan bezaklar, naqsh kompozitsiyalar buyumlar yuzasiga ma’lum bosqichlarda tushiriladi. Buyumga ko‘chirilishidan ilgari naqsh qog‘ozda chizilib tanlangan ranglar gammasida eskiz sifatida uning biron bir choragi qalam chizgilar ustidan to‘liq ranglanib pardozlar berib ko‘riladi. Ma’qul bo‘lgandan so‘ng buyumga ana shu eskizdagi naqshning namunasi andoza sifatida ko‘chiriladi.

Buyumlarni yasashda albatta chizmalarga murojaat qilinadi. Chizmada buyumning barcha o‘lchamlari ko‘rsatilgan texnologik xaritasi tuzilgan bo‘lishi lozim. Texnologik xaritaga ko‘ra mazkur buyumni yasash uchun zarur bo‘ladigan xomashyoning xususiyatlari ham o‘rganiladi. Shu tariqa aynan ushbu mashg‘ulotga doir yangi shakldagi buyum va unga mos naqsh kompozitsiya tuzish mustaqil ish sifatida o‘quvchilarga vazifa qilib beriladi. Bu ishga o‘quvchilar ijodiy yondashib o‘zining asarini yaratish maqsadida o‘rgangan saboqlariga asoslanib yangi loyiha tuzishga kirishadi. Mana shu jarayonni tom ma’noda ijodkorlik deb ataydigan bo‘lsak, ijod tushunchasining ma’nosi nima ekan.

Ijod tushunchasi ma’lum bir iste’dodli odamlar tomonidan buyuk san’at asarlari, yangi mashinalar, dastgohlar va hokazolarni yaratishini anglatadi. Lekin ijod faqat buyuk asarlar yaratishdan iborat bo‘lib qolmasdan, balki kishining fikr yuritishi, biror tadbirni o‘ylab topishi, ozgina bo‘lsada, qandaydir yangilik yaratishi kabi tushunchalarni ham qamrab oladi. Shu bois ijod jarayoniga tasodif sifatida emas, balki muayyan sharoit va imkoniyatlar hamda qonuniyatlar asosida amalga oshuvchi muhim jarayon sifatida qarash lozim.

O‘quvchining ijodkorligi, avvalo, uning har qanday ta’limiy faoliyat jarayonidagi: o‘ziga xos usullar bilan masala yechish, mashq bajarish, insho yozish, tajriba ishlarini amalga oshirishi jarayonida mustaqil fikrlashida namoyon bo‘lishi lozim. O‘quvchining ijodi uning olgan bilimini hayotda ko‘rgan dalil va hodisalarga bog‘lay olishi, ularni to‘g‘ri baholab, dastlabki ma’lumotlarni tahlil va sintez qila bilishidir.

O‘quvchilarni loyihalashga o‘rgatish ishlari tasviriy san’atning dastlabki mashg‘ulotlaridan boshlab amalga oshirish ko‘zda tutiladi.

Bu hali bog‘cha yoshidagi bolalarda rasm chizishni mashq qilishga qiziqtirish va ko‘niktirish bilan boshlanadi. Qo‘liga qalam ushlagan bola biz o‘rgatyotgandan tashqari o‘zicha bir narsalarni xayolan chizmoqchi bo‘ladi. Chunki hali o‘z xatti-harakatlarini aniq bir tizimga sololmagan xayoliga kelgan narsani chizadi. Bu borada bizning asosiy ishimiz uning bajarayotgan mashqlaridagi rivojlantirish mumkin bo‘lgan jihatlarni ko‘rish va anglash. Ko‘pincha biz hali o‘smirlik yoshiga yetmagan boladan muhimroq natijali ishlarga jalb qilishni, hattoki uni mustaqil bir ish qilishga unamaymiz. Aslida bu holat vaqtida ya’ni ilk bolalik yoshidan uning iqtidorini aniqlay olgan kunimizdan boshlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bolaning tasviriy faoliyatda bo‘yoqlar bilan ishlash atrofdagi buyum va narsalardagi ranglarni idrok qila

olish va o‘sha ranglarni yasay olish iqtidorini shakllantirish va rivojlantirish kelgusidagi ijodiy ishlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday ijodiy ish yoki yangilik yaratish ma’lum bir tajriba, bilim va malakaga tayanib amalga oshiriladi. Demak, bizning bolaga berayotgan dars mashg‘ulotlari aniq rivojlantiruvchi maqsadga ega bo‘lishi lozim.

Mavzu asosida yoki xotiradan rasm chizish, esa buyumni bezashdan ko‘ra ancha erkinroq. Chunki rasm chizishda o‘quvchi xayolidan o‘tgan yoki tasavvuridagi obyektni, voqea hodisani ifodalaydi. Texnik ijodkorlikda esa yangi yechimlarini ishlab chiqishdan, to rasmiylashtirishgacha bo‘lgan davrni amalga oshirishda, undagi jarayonlarning muhimligi, murakkabligi va ahamiyatiga bog‘liq holda fikrlash jarayoni amalga oshadi.

O‘quvchilardagi bilim va ko‘nikmalarni reproduktiv, reproduktiv-ijodiy, ijodiy-reproduktiv va ijodiy darajalarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Shu asosda texnik ijodkorligi g‘oyalarini amalga oshirishning fikrlash faoliyati produktiv va reproduktiv xususiyatlari almashinuviga bog‘liq bo‘lgan 4 ta davrni o‘z ichiga oladi .[1]

Texnik yechim g‘oyasini amalga oshirish davrlari birinchi davrda fikrlash faoliyati produktiv xususiyatga ega bo‘ladi, bunda mavjud muammoni anglash, idrok qilish, yechimini topishga ehtiyoj sezish jarayoni boradi. Izlanuvchining bilim va tajribasi qanchalik ko‘p bo‘lsa, bu jarayon shu qadar kam vaqt davom etib, reproduktiv xarakterga ega bo‘lgan ikkinchi davr – muammo yechimini topishga o‘tiladi. Bu davrning davomiyligi ham izlanuvchi bazaviy bilimi, tajribasi, dunyoqarashi kengligi, qidirilayotgan yechimning izlanuvchi mutaxassisligiga bog‘liq bo‘lib, unda qaralayotgan muammo-ning yechimi bo‘lib xizmat qila oladigan holatlar tahlil qilinadi. Uchinchi – produktiv davrda hal qilinishi lozim bo‘lgan muammo va tanlangan yechim o‘zaro bog‘lanadi va texnik yechim konsepsiyasi taklif qilinadi. U ixtironi amalga oshirishning eng mas’uliyatli davri bo‘lib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi taklif etilayotgan g‘oyaning ijtimoiy bahosini shakllantirishga hal qiluvchi tasir ko‘rsatadi. Ya’ni, yechim ijobiy natija bersa, uning amaliyotga tatbiq qilinishiga asos yaratiladi yoki aksincha, yechim kutilgan natijani bermasa, u inkor qilinadi. To‘rtinchi, reproduktiv davrda taklif etilayotgan yechimni asoslash uchun hisoblash va tajriba-sinov ishlari bajarilib, texnik yechimni ishlab chiqishning uchinchi davrida amalga oshirilgan ishlarning natijasi nazariy va amaliy isbotlab beriladi.

Har bir bosqichning natijaliligi o‘quvchilarda texnik fikrlash, mehnat ko‘nikma va malakalarni rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘quvchilarning ijodiy jihatdan tayyorgarlik darajalari. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatga tayyorgarlikning besh darajasini ko‘rsatuvchi me’yoriy-ilmiy jihatlarga asoslangan. Ular quyidagilardan iborat:

1) o‘quvchilarning buyum va uning shaklini takomillashtirish yoki detallarni ratsional joylashtirish maqsadida chizmaga, sxemaga qisman o‘zgartirish kiritib, berilgan hujjatlar bo‘yicha tayyorlay olishi;

2) o‘quvchining instruksiyalashni oxiriga yetkazib va berilgan texnik hujjatga yoki alohida sxemaga o‘zgartirishlar kiritib buyumlarni yasay olishi;

3) o‘quvchining buyumni, uning konstruksiyasini dastlabki originalini takomillashtirib, texnologik hujjat yoki sxemaga mustaqil holda o‘zgartirishlar kiritib tayyorlay olishi;

4) o‘quvchining original konstruktorlik g‘oyasini mustaqil holda texnologik jihatdan ishlab chiqishi va uni tayyorlashni uddalay olishi;

5) o‘quvchi buyumning original konstruktorlik yoki ratsionlizatorlik g‘oyasini mustaqil holda asoslab va ta’riflab bera olishi, hujjatlarni ishlab chiqish va buyum yasashni bajara olishi. [1] 26 b.

Tasvirlab berilgan matn obrazlarini tasavvur etish rasmlar, chizmalar va shaxsiy o‘ylab topilgan obrazlarni tasvirlashdan iboratdir. Bu borada konsentratsiya bo‘lib berish, diqqatni ko‘chirish usullaridan ham foydalaniladi. Mustaqil o‘rganish shaxsga xos bo‘lib, o‘zgalar yordamisiz tirishqoqlik bilan bilim olish masalalarini hal etib, o‘zini o‘rab turgan borliqni o‘rganish va kelgusida chuqurroq bilim olish, shaxsiy o‘qish va bilim faoliyatini boshqara bilishni shakllantirish, boshqacha aytganda, o‘z-o‘zini nazorat qilish deyiladi. [4]

O‘rgatish – harakatni ko‘rsatish bilan boshlanadi. O‘qituvchi ko‘rsatadi, keyin talab qilinayotgan harakatni o‘quvchilar takrorlaydi. Ko‘rsatish juda aniq, tushunarli bo‘lishi shart o‘qituvchi juda murakkab har bir harakatni alohida ko‘rsatishi mumkin. Faoliyat ko‘rsatilgandan keyin bolalar mashq qilishni boshlaydilar.

Bolalar ishini o‘rganish. Bolalar ishini o‘rganish metodi bolalarning bilimlarini va qobiliyatlarini aniqlashda yordam beradi. Bunda ular chizgan har xil rasmlarni tahlil qilish hamda ularning qog‘ozlar, plastilin, loy va boshqa materiallar bilan ishlash ko‘nikmasini aniqlashdan iborat. [5]

a- 1- bocqich. b- 2- bosqich

Badiiy didni tarbiyalash ham estetik tarbiya vazifalaridan biridir. Estetik did – bu go‘zallikni sezish, go‘zallikka hissiy munosabat, estetik sezgilar madaniyati, estetik baho bera olish, go‘zallikning obyektiv mezonlarini tushunish bilan chambarchas bog‘liqdir. San’at asarlari namunalarini baholash darajasi badiiy did ko‘rsatkichlaridan biridir. Shu asosda muayyan shaxsning didi haqida fikr yuritish mumkin. [2]

Badiiy didning ikkinchi ko‘rsatkichi: go‘zallikka baho berish, me’yorida tanlash masalasida, haqiqiy go‘zallikni soxta go‘zallikdan ajrata olishda ko‘zga tashlanadi. Badiiy didning uchinchi ko‘rsatkichi: san’at asarlarida yuksak talabda, soxtalikka qarshi kurashda, tasvirlardagi obrazlami chuqur ko‘ra bilishda namoyon bo‘ladi.

Estetik did atrofimizdagi narsalaming, tabiatning, mehnat mahsulotlarining, kishilar munosabatining, haqiqiy san’at namunalarining ta’siri ostida rivojlanib boradi. Estetik did go‘zallikni tushunib idrok etishda go‘zallikka oid ongli munosabat ham shakllanib boradi.

Ota-onalar bolalariga uyni yig‘ishtirish rasm, chizmachilik, qo‘l mehnati darslari bolalarga go‘zallikni idrok etishni o‘rgatadi. Bilamizki, bolalar yoshlikda she’rlarni tez yod olish xususiyatiga ega. Rang va shakllarni ham shu kabi yodda saqlash va ularni aynan takrorlashga o‘rgatish tasviriy faoliyatning ilk qadamlari bo‘ladi. O‘zlari idrok etgan go‘zallikni rasm, applikatsiya, loy va plastilindan, yog‘och, qog‘ozdan yasagan buyumlarida gavdalantiradilar.[6]

Grafik tasvirlar maktabdagi ko‘pchilik fanlar bo‘yicha yangi bilimlarni o‘quvchilar faol va ongli ravishda o‘zlashtirishlarida eng asosiy vositalardan biri sanaladi. Ular bilimlarning sezgi asosini ta’minlaydi va o‘quvchilarda bizni o‘rab turgan olam va undagi narsalar haqida yaqqol, aniq va to‘g‘ri tasavvurlarni hosil qilish maqsadlarini ko‘zda tutadi. Grafik tasvirlar ko‘plab ijodkorlik faoliyati turlarini bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblanadi. Shuning uchun ham chizmachilik kursida shaxsning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiruvchi juda katta potensial imkoniyatlar mavjud.[7]



Chizmachilikka oid loyihalash.

Demak yangi loyihani bajarish ma’lum ko‘nikma va malakaga tayanib amalga oshiriladi, buning uchun oldindan tarkib topib kelayotgan loyiha tuzish tajribasi ham bo‘lishi lozim. Bu tajriba esa faoliyatning uzluksiz takrorlanishidan yuzaga keladi.

Adabiyotlar

1. Sharipov Sh. S., Muslimov N. A. Texnik ijodkorlik va dizayn. – Toshkent, 2011. –26.b.
2. Xasanov R. Amaliy bezak san’ati mashg‘ulotlari metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2003. – 14 b.
3. S.Raxmetov. Dastgohli rangtasvirda kompozitsiya asoslari. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2007. – 18 b.
4. Ростовсев Н.Н. «Методика преподования изобразителного искуства в школе». М.2000. С.24.
5. N.Isoxo‘jayeva. Rangtasvir kompozitsiya” (natyurmort). – T., 2014. – 35 b
6. Oripov B. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. – T.: Ilm- Ziyo, 2005. – 40 b
7. E.Ro‘ziyev. Muhandislik grafikasini o‘qitish metofdikasi. Darslik. – T., 2010. – 16 .b.

UDK: 37:378

TALABALARDA KONFLIKTOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

dots. Yu. A. Ahrorov*, *N. Sh. Mirzoyeva
Samarqand Davlat universiteti
nigora-2204@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quv jarayonida sodir bo‘ladigan talabalar va ularning ta’lim-konfliktli vaziyatlarda talabalarda konfliktologik kompetentlik sifatlarini shakillantirish yo‘l-yo‘riqlari va mexanizmlari ishlab chiqilgan. Mavzuga doir ilmiy izlanishlar va nazariy bilimlar keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: konflikt, ziddiyat, pedagogik nizo, ijtimoiy tanglik, adovat, xulq-atvor, munosabat, muloqot, anglashilmovchilik.

Теоретические основы формирования конфликтологической компетентности у студентов

Аннотация. В данной статье рассматриваются противоречивые ситуации, возникающие у студентов в процессе образавания, а также рассмотрены принципы и механизмы развития компетенций студентов в конфликтных ситуациях. Широко освещены теоретические и практические знания по теме.

Ключевые слова: конфликт, конфликт, педагогический конфликт, социалная напряженность, враждебность, поведение, отношение, общение, недопонимание.

Theoretical basis of forming confliktological competence of students

Abstract. This article is about some conflicts in educational process of students. Recommendations and mechanisms of forming the ability of conflict competence of students in conflict situations are worked out. Scientific researches and theoretical knowledge are widely expressed in it.

Keywords: Conflict, pedagogical conflict, social problem, opposition, attitude, conversation, misconception.

Keyingi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda shiddat bilan amalga oshirilayotgan tub islohotlar o‘zining ijobiy samaralarini ko‘rsata boshladi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev olib borayotgan uzoqni ko‘zlovchi istiqbolli siyosatning tag zamirida ham, eng avvalo, O‘zbekistonni eng rivojlangan ilg‘or davlatlar qatoriga qo‘shish, yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash, shuningdek, birinchi navbatda, xalqimizning turmush farovonligini yuksaltirish va munosib hayot kechirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berish orqali odamlarni rozi qilishdan iboratdir.

Haqiqatdan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda. Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. [1]

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yil 7-fevralda 2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo‘yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi.

Xususan ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabi vazifalar belgilab berilgandir. Dasturda ushbu yo‘nalishda ta’lim tizimiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Malakali kadrlar, bilamizki, yurtimiz rivojida, uning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini yanada mustahkamlashda eng asosiy omil hisoblanadi. Shuning uchun ham dasturda maktabgacha ta’lim tizimidan tortib, umumiy o‘rta ta’lim, oliy va undan keyingi ta’lim, malaka oshirish masalalari yuzasidan chora-tadbirlar belgilanganligini ko‘rish mumkin. Masalan, bitiruvchilar jamg‘armasini tashkil qilish rejalashtirilganligini olaylik. Bu shunday jamg‘arma bo‘lishi ko‘zlanganki, ta’lim muassasasini bitirib, xayriya qilish imkoniga erishgan bitiruvchilar o‘zlarining ushbu ta’lim muassasini rivojlantirishga hissasini qo‘shish imkoniyati tartibi belgilanadi. Bunda, albatta, jalb qilinayotgan mablag‘lar maqsadliligi va samaradorligi ortishi imkoni yaratilib, barcha darajadagi ta’lim muassasalarida tahsil olayotganlar va o‘qituvchi-professorlarni rag‘batlantirishning qo‘shimcha imkoniyati yaratiladi.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o‘quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo‘llashga o‘rgatish, mustaqil o‘rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko‘zda tutilmagan noaniq, ya’ni, muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallagan bilimlarni kundalik turmushi jarayonida qo‘llay oladigan xususiyatlarni egallashni tarbiyalashdan iboratdir .

O‘quvchilarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda, ayniqsa, ona tili va adabiyat faniga oid bilim, ko‘nikma va malakalarning dars jarayonida singdirish bilan birgalikda ularda kompetensiyalarni ham shakllantirilishi lozim.

Kompetensiya – muayyan fan bo‘yicha o‘quvchi egallagan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir.[2]

Inson qaysi kasb sohibi bo‘lishidan qat’iy nazar o‘z ishiga, mashg‘ulotiga qunt bilan, mehr bilan yondashsa, uning sir asrorini mukammal egallaydi, shu bilan birga o‘z-o‘zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. O‘qituvchi ham bolalarni sevsa, tarbiyalasa, o‘zi ham ulg‘ayadi, donishmandlik kasb etib boradi. O‘qituvchi kelajak farzandini tarbiyalab bilim beradi. Zero kelajak yoshlar qolida, ular bizning ertangi kunimiz. Ularda kompetensiyalarni shakllantirilishi, dars davomida o‘quvchining faqat tinglovchi yoki eshitganini takrorlavchi “to‘ti”ga emas , balki chuqur mushohada yurituvchi, mustaqil fikrini bayon etuvchi, boshqalar bilan o‘zaro hamkorlikda ishlovchi, o‘zgalar fikrini hurmat qiluvchi, keng dunyoqarashli shaxsga aylantitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Interfaol metodlarni qo‘llab dars o‘tish o‘quvchilarda har tamonlama ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim va ko‘nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshirish, erkin fikr yurita olishga o‘rgatish, ijodiy qobiliyarlarini aniqlash va ro‘yobga chiqarish,o‘qituvhi – o‘quvchi hamkorligini shakllantirish va nihoyat kafolatlangan yakuniy natijaga erishishishni ta’minlaydi.

Hozirgi vaqtda ziddiyatlar muammosiga ilmiy qiziqish kuchayib bormoqda, bu zamonaviy jamiyatda ziddiyatlarning umumiy darajasining oshishi bilan bog‘liq. Shaxsni va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi ziddiyatlar va aloqalarni buzadigan ziddiyatlarni farqlash qobiliyatlarini shakllantirish yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlashni ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda pedagogik nizolarga alohida e’tibor berilmoqda. Bu turli sabablarga ko‘ra yuzaga keladi, birinchidan, zamonaviy ta’lim zamonaviy jamiyatning asosiy qarama-qarshiliklarini aks ettiradi. O‘zbekistonda ro‘y berayotgan chuqur o‘zgarishlar hayotning turli sohalaridagi ziddiyatlarni kuchaytirdi, ijtimoiy va siyosiy to‘qnashuvlarga, psixologik tanazzullarga olib keladigan ko‘plab obyektiv va subyektiv muammolarni keltirib chiqardi.

Hozirgi zamon fani insoniyatning tarixiy o‘tmishiga nazar tashlar ekan, konfliktni hamisha ijtimoiy taraqqiyotning doimiy yo‘ldoshi ekanligiga shubha qilmaydi, chunki odamlar bor joyda konfliktlar mavjud bo‘lgan va bo‘laveradi. Ijtimoiy hayotda konfliktlarning tutgan o‘rni va keng tarqalganligi uzoq o‘tmishda ham e’tiborni o‘ziga tortgan.

XVIII asrda mutafakkirlar jamiyat hayotini umumjahon tarixi doirasida tushuna boshlaganlar. Bu jihat J.J.Russo (1712-1778) ning ijtimoiy falsafasida ko‘rinadi. U umumjahon-tarixiy jarayonini quyidagi uch tarkibiy qismga bo‘ladi: insonlar «tabiiy holat»da erkin va teng bo‘ladilar, so‘ngra sivilizasiya rivojlanishi insonlarni teng, erkin va baxtli bo‘lishdan mahrum qiladi va, nihoyat, «ijtimoiy shartnoma» tuzib ijtimoiy munosabatlarning yo‘qotilgan uyg‘unligiga, «abadiy tinchlik»ka, hamjihatlik va birlikka erishadilar.

J.J.Russoning «tabiiy holat» tabiatiga doir qarashlari uning ko‘pchilik zamondoshlari tomonidan ma’qullangan. Mashhur nemis faylasufi I.Kant (1724-1804) esa, “Qo‘shnichilik asosida yashovchi insonlar orasidagi tinchlik holati tabiiy holat emas, … aksincha, u urush holatidir, ya’ni agar to‘xtovsiz dushmanchilik harakatlari bo‘lmasa ham ularning doimiy tahdidi mavjud. Demak, tinchlik holati o‘rnatilishi lozim”. Bu yerda muayyan qarama-qarshi nuqtayi nazar borligini ko‘rish mumkin. Bir tomondan, T.Gobbs kabi «tabiiy holat»ga «barchaning boshqalarga urush qilish» holati deb qarash, boshqa tomondan esa, J.J.Russo singari kelgusida tinchlik va totuvlikning butunlay yangi holatini o‘rnatilishi imkoniyatiga bo‘lgan ishonch aks ettirilgan.

Shunday qilib, XIX-XX asrlar arafasida ijtimoiy taraqqiyotning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy konsepsiyalarida konflikt muammosiga bo‘lgan nazariy qiziqish yaqqol ko‘rinadi. Uning tahlili asosan ijtimoiy darvinizm va marksizm, g‘arb sotsiologiyasi, siyosatshunosligi va yurisprudensiyalarining metodologik qoidalari asosida amalga oshirilgan. Bu ilmiy yo‘nalishlarning metodologik xususiyatlari muayyan darajada konflikt kabi murakkab hodisaning mohiyatiga kirib borishdagi ham kuchli, ham zaif tomonlari bilan belgilanadi. Bu davr ijtimoiy taraqqiyot nazariyalarida bildirilgan asosiy g‘oyalar haqida so‘z yuritganda umumiylik xususiyatiga ega bo‘lgan va yuridik konfliktning hozirgi zamon konsepsiyalari uchun o‘z dolzarbligini saqlagan g‘oyalarni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir, ya’ni :

1) konfliktni odatdagi ijtimoiy voqelik ekanligiga qat’iy ishonish. Inson va jamiyat tabiatining o‘ziga ko‘pgina va turli konfliktli vaziyatlarni muqarrar tarzda yuzaga keltiruvchi biologik, ruhiy, ijtimoiy , siyosiy va boshqa qator omillar xosdir;

2) konfliktlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida qator ijobiy funksiyalarni bajaradilar. Ular jamiyat hayotining umumiy taraqqiyotini ta'minlaydilar, ijtimoiy tuzilmalar birligini saqlashga, umumahamiyatli normalar va ijtimoiy qadriyatlarning qaror topishiga yordam qiladilar;

3) ijtimoiy taraqqiyotning konfliktli vaziyati bilan bu holatni yuzaga keltirgan ijtimoiy tuzilma tipi o'rtasidagi bog'liqlik va aloqadorlik tushuniladi, ya'ni tuzilmaviy konflikt holati aniqlanadi;

4) hukmron ozchilik bilan boshqariladigan tobe ko'pchilik o'rtasidagi qarama-qarshilik muqarrar va abadiy hodisa bo'lib, uning har qanday kelishmovchiliklar, kolliziyalar, konfliktlarni yuzaga keltirishi haqidagi tezis ilgari suriladi;

5) jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar bilan bu o'zgarishlar natijasida vujudga keladigan konfliktli vaziyatlar o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlik mavjudligi, ya'ni funksional konflikt holati aniqlanadi;

6) muayyan ijtimoiy muvozanatni yaratuvchi konfliktlar yordamida turli ijtimoiy guruhlarning bir xil bo'lmagan manfaatlari o'zaro tenglashtirilgan vaqtda ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi dinamik muvozanat holati tadqiq etiladi.

Eng yangi davrga kelib konfliktlar nazariyasi yanada rivojlantirildi. Konfliktlarni tadqiq qilishning nazariy jihatlarini ishlab chiqishda amerikalik sotsiolog Tolkott Parsons (1902-1979) tomonidan asoslantirilgan tashkilotning tuzilmaviy funksional modeli muhim o'rin egallaydi. U jamiyatga insonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi, normalar va qadriyatlarga uni bog'lovchi bo'g'in deb qaragan. U quyidagi qoidalarga amal qilgan: a) har qanday ijtimoiy tizim nisbatan barqaror, doimiy va yaxshi tashkil etilgan tuzilmadan iborat; b) bu tizimning har bir elementi muayyan funksiyani bajarishi bilan tizim barqarorligini saqlashga o'z ulushini qo'shadi; v) bu ijtimoiy tuzilmaning amal qilishi zarur barqarorlik va hamkorlikni ta'minlovchi jamiyat a'zolarining qo'llab-quvvatlashiga asoslanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida pedagogik nizo tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: "Pedagogik nizo – bu o'qituvchi va o'quvchi, ustoz va shogird, domla va talaba o'zaro kelishmovchiliklari yoki qarama-qarshilik, dushmanlik, adovat orqasida tug'ilgan holat, munosabat, ixtilof, nifoq ". Adovat, ixtilof, nifoq, tufayli o'zaro janjallar sodir bo'ladi. Odamlar janjal haqida o'ylaganlarida dushmanlik, qo'rqitish, bosqinchilik, tortishuv kabi noxushliklarni nazarda tutishadi. O'quv jarayonida nizo – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muayyan masalalarni hal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir yechimga kela olmaganligi tufayli vujudga keladigan vaziyat. Ta'lim jarayonidagi nizolar kishilar kayfiyatiga salbiy ta'sir qiladi va ularning bilim olish qobiliyatini pasaytiradi, guruhdagi "ruhiy iqlim"ni yomonlashtiradi, o'quvchilar qo'nimsizligini ko'paytiradi. Shuning uchun bu masalalarga doimo e'tibor berish, ta'lim olayotgan guruhlarni boshqarishni, o'quvchilar turg'unligini ta'minlovchi shartlardan biridir. Ta'lim jarayonida nizoli vaziyatlar oldini olishning barcha imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Pedagogik nizo qanday xarakterga ega bo'lmasin va u qay darajada katta bo'lmasin, barcha hollarda bu nizoning sabablari hamda uni vujudga keltirgan holatlar diqqat bilan tahlil qilinishi lozim. O'qituvchi har bir aniq vaziyatning tagiga adolat va obyektivlik bilan yetishi, tegishli xulosalar chiqarishi kerak. Ta'lim jarayonida nizoli vaziyatlar turli sabablarga ko'ra vujudga kelishi mumkin. Ulardan: ta'limni tashkil qilishdagi kamchiliklarni; rag'batlantirishning takomillashtirilmagani; yomon ta'lim sharoitlarini; ta'lim to'g'risidagi qonunlarni buzishni; o'qituvchi saviyasining pastligi; o'zaro munosabatlar madaniyatining qoniqarsizligi va hokazolarni ko'rsatish mumkin.

Bizning fikrimizcha, o'quvchilarning ziddiyatli vaziyatdan konstruktiv chiqishga tayyorgarligi muammosi asosan shakllantiruvchi yondashuv darajasida o'rganildi, shuningdek, maktab o'quvchilarining konfliktologik kompetensiyasi uchun diagnostika usullarining to'liq emasligini qayd etamiz. Bu hodisani o'rganayotganda ular an'anaviy ravishda mavzularni (me'yorlar, baholar) bilish darajasida yetarli darajada qo'llab-quvvatlamasdan ishlaydi. Hayotiy vaziyatlarda o'zlarining xatti-harakatlarini qurishda ularning tayyorligi va qay darajada ularga ishonish kerakligi haqida ma'lumot o'quvchilarning ziddiyatlarga bo'lgan shaxsiy munosabati xususiyatlarini, xulq-atvor prinsiplari va me'yorlarining xususiyatlarini aniqlash uchun qoldiq.[3]

Ta'lim muassasalaridagi nazariya va haqiqiy vaziyatni tahlil qilish bir qator qarama-qarshiliklarni aniqladi:

- zamonaviy ta'limning shaxsga yo'naltirilgan, faol tabiati va ziddiyatlarning oldini olish, boshqarish va hal qilishda talabalarning mustaqil rolini cheklash o'rtasida;
- zamonaviy maktabning ziddiyat tabiati va talabalarning ziddiyatli vakolatlari rivojlanmaganligi,
- talabalarning konfliktologik kompetentsiyasini shakllantirish zaruriyati va uni o'qitish uchun innovatsion texnologiyalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasida;
- ziddiyatli vaziyatda talabalarning konstruktiv xulq-atvorga tayyorligini munosib baholash zarurati va tegishli diagnostika texnikasining yo'qligi o'rtasida.

Qarama-qarshiliklarning dolzarbligi biz tanlagan mavzuning dolzarbligini belgilaydi - "O'rta maktab o'quvchilarining ziddiyatli kompetentsiyasini tarbiyalash. O'qituvchi fikrlashining tegishli pedagogik moslashuvchanligi, o'quvchilarning fikrlashi va faoliyatiga stereotipik baho berish, bolalarga nisbatan stereotipli

munosabat, individual pedagogik pozitsiyaning yo‘qligi, pedagogik madaniyatning past darajasi, umumiy pedagogik va uslubiy xatolar.

Sabablarning ikkinchi guruhiga biz yana bir, muhim ahamiyat beradigan narsa – maktab o‘quvchilarining ziddiyatli kompetentsiyasining shakllanmaganligi bilan bog‘liqmiz. Bu shaxs funktsiyasini tarbiyalash jarayoni alohida tahlilni talab qiladi.

Turli xil ziddiyatlarni tasniflashga umumiy ilmiy yondashuvga asoslanib, “o‘qituvchi-shogird” tizimida yuzaga keladigan pedagogik to‘qnashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflash mumkin. Eng eng keng tarqalgan ichki ziddiyatlar - rol, motivatsion va kognitiv rol ko‘pincha o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan hurmati va unga bog‘liq bo‘lgan rol o‘rtasidagi ziddiyat bilan bog‘liq. Bolaning taxminlari va qobiliyatlari. Motivatsion ziddiyat – bu mavzuga qiziqishning yo‘qligi, uning mazmuniga mazmunli munosabat va buning uchun mukofotni kutish bilan bog‘liq holda yuqori reytingni olish zarurati o‘rtasidagi ziddiyatda ifodalanadi. Kognitiv nizo kognitiv dissonans natijasida yuzaga keladi. Men o‘rganishim kerakligini bilaman, lekin o‘zimni majburlashni xohlamayman, bilaman, do‘stim menga yomon ta’sir qiladi, lekin men u bilan muloqot qilishni davom ettiraman.

Pedagogik shov-shuvdagi shaxslararo ziddiyatlar ko‘pincha ikki yo‘nalish bo‘yicha yuzaga keladi: o‘qituvchi - talaba, talaba - talaba. Birinchi holatda faoliyat, xatti-harakatlar va munosabatlar to‘qnashuvi eng ko‘p uchraydigan munosabatlar to‘qnashuvlari bo‘lib, o‘z navbatida ularni aloqa ziddiyatlariga ajratish mumkin (aloqa qonunlarini buzish, nuqtayi nazarni hurmat qilmaslik). raqibning nuqtayi nazari) va qabul qilish (noto‘g‘ri baholash, o‘qituvchining talabani noto‘g‘ri tushunishi, turli avlodlarning qadriyatlari, qiziqishlari va g‘oyalari o‘rtasidagi farq). Talabalar o‘rtasidagi shaxslararo nizolar. Barcha qadriyatlar, manfaatlari, fikr nizolar yoriq.

Guruhlararo ziddiyatlar bir necha xil bo‘lishi mumkin: turli xil ijtimoiy qatlamlarga mansub o‘quvchilar guruhlari o‘rtasidagi to‘qnashuvlar, sinf rahbarligi uchun kurash, etnik nizolar, yoshlar tashkilotlari yoki guruhlarga tegishli bo‘lgan nizolar.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: O‘zbekiston, 2017. – 23b.
2. Isayev I.F. O‘qituvchining kasbiy va pedagogik madaniyati. Darslik. - M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2002. - 208s.
3. Abdullayeva Sh.X. Pedagogik faoliyat va professional kompetentlik: tushunchalar uyg‘unligi //Pedagogik mahorat. 2018., № 3. – B.70-73. (19.00.00; № 4)
4. Yoshlar va konfliktlar: Konfliktlar yechimiga o‘rganish/ To‘ychiyeva Gulxumor –Toshkent, 2008.
5. Ergeshova D.Q., Najimov M.K. Yuridik konfliktologiya: O‘quv qo‘llanma – T.: TDYuI, 2007. – 97 b.

UDK: 37:796

TALABA QIZLARNING JISMONIY RIVOJLANISH KO‘RSATGICH UZGARISHINI O‘RGANISH

I. R. Turakulov
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talaba-qizlarning sog‘ligi, jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini monitoringi qo‘llanilishi bo‘yicha ishlab chiqilgan shaxsga yo‘naltirilgan talim-tarbiya usullariga asoslangan bo‘lib, talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasi ko‘rsatkichlari keltrilgan.

Kalit so‘zlar: Talaba-qizlar, monitoring, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, kuch, chaqqonlik, egiluvchanlik, tezlik, sakrovchanlik, sog‘lom turmush tarzi, sog‘lomlashtirish.

Изучение меняющийся динамики физического роста студенток

Аннотация. Это статья об образовательных методах мониторинга и паказателей динамики здоровья спортсменов-девушек, физическое подготовки и развития.

Ключевые слова: студентки, мониторинг, физическая падгатовка, физическое разветие, скорость прыгучесть, здоровый образ жизни, здравоохранение.

Studying the changing dynamics of physical development of female students

Abstract. This article is about educational methods on monitoring and dynamics indicators of sportswomen- students, their physical development and preparation.

Keywords: student-girls, monitoring, physical preparation, physical, development, fixable, speed, jumping, healthy lifestyle, health care.

Ishning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil yakuniga bag‘ishlangan yig‘ilishida O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining 5 ta ustivor yo‘nalishi harakatlar strategiyasida, Davlatimiz rahbari mamlakatimiz yoshlarini sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning rolini oshirishga alohida e’tibor qaratdi. Chunki jismoniy tarbiya insonning umumiy madaniyati, uning sog‘lom turmush tarzi qirralaridan biri sifatida ko‘p jihatdan uning o‘qishdagi, ishlab chiqarishdagi, uydagi, munosabatlardagi fe’l-atvorini belgilab beradi.

Salomatlik holati va ko‘rsatkichlar tahlili: mamlakatimizda so‘nggi o‘n yilliklarda o‘quvchi yoshlarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi o‘suvchi organizmning ushbu ko‘rsatkichlari sezilarli yomonlashishiga moyillikni ko‘rsatmoqda. [1]

Ishning dolzarbligi, muhimligi shu bilan asoslanganki, talaba-qizlarni jismoniy tayyorgarligi darajasining pasayishi, ularning sog‘lig‘i ustidan nazorat va profilaktikani kuchaytirishning yangi texnologiyalari ishlab chiqilishini talab etadi. Talabalardan jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi monitoringi samarali regional tizimining ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish vaqti keldi. Ilmiy adabiyotda bizni qiziqtirayotgan masala bo‘yicha kerakli ma’lumotlar yetarli emasligi mazkur muammoni tadqiq etishga undadi. Ushbu ishimizning mazmuni va yo‘nalishi uning nomlanishini belgilab berdi.

Oliy o‘quv yurtlari turli yo‘nalishlarda tahsil olayotgan *talaba-qizlarining* jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi monitoring tadqiqotlari mazmunini metodologik jihatdan asoslashdan iborat bo‘lib, jismoniy rivojlanish deyilganda odam organizmining tana vazni, zichligi va shaklini, uning tashkiliy-mexanik sifatlarini belgilovchi morfofunksional xossalar majmui tushuniladi M. Raximov quydagi fikirlarni keltirib o‘tadi: “Jismoniy rivojlanish – individual hayot davomida jismoniy tarbiya ta’siri ostida takomillashadigan organizmning qonuniy biologik tiklanish jarayoni hamda morfologik va funksional xossalari o‘zgarishlaridan iborat”.[2] A.N.Normurodov fikricha, jismoniy rivojlanishni “jismoniy holat” sifatida belgilash aniqroq bo‘lardi, chunki “rivojlanish” so‘zi kuzatiladigan o‘lchamlarning dinamikasi, harakatlanishi, o‘zgarishini nazarda tutadi, biroq hech bir vaziyatda, jismoniy rivojlanishni baholashda amalga oshirilganidek, o‘lchash paytida ularning holatini nazarda tutmaydi. Jismoniy rivojlanish alomatlari irsiy xususiyatlar ta’siri ostida hamda ijtimoiy va demografik sharoitlarning murakkab majmui ta’siri ostida o‘zgaradi.[3]

Talabalar jismoniy rivojlanishini baholash uchun, odatda, uchta ko‘rsatkichlar guruhidan foydalaniladi: 1) somatometrik ko‘rsatkichlar – tana bo‘yi va vazni, ko‘krak qafasi aylanasi, tananing alohida bo‘g‘inlari chiziqli o‘lchamlari; 2) somatoskopik ko‘rsatkichlar – ko‘krak qafasi shakli, yelka, oyoq, gavda, mushaklar relyefi va tarangligi, yog‘ to‘planishi, teri tarangligi, shilliq pardalar rangi, jinsiy balog‘at alomatlari; 3) fiziometrik ko‘rsatkichlar – dinamometrik ko‘rsatkichlar. Barcha ko‘rsatkichlar turli yosh, jins, millat, turli harakatlanish oriyentatsiyasiga ega shaxslar katta kontingenti antropometrik o‘lchovlarini statistik ishlash natijasida olingan tegishli o‘lchamlar bilan solishtiriladi. “Zaif”, “kuchli”, “yaxshi”, “yomon”, “o‘rtacha”, “o‘rtachadan past” va h.k. rivojlanish kabi kategoriyalar solishtirish natijalari hisoblanadi. [4]

A.B Artemov kuzatishlarida esa, tana bo‘yi – jismoniy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu o‘ziga xos o‘sish jarayoni indikatori bo‘lib, u tana vaznini va ko‘krak qafasi aylanasini baholash uchun zarur bo‘lib, ko‘krak qafasi va o‘pkaning hayotiy sig‘imi ekskursiyasi bilan bir qatorda skelet va nafas olish organlari holatini tavsiflaydi.

Ilg‘or tajribani umumlashtirish maqsadida mahalliy va xorijiy mualliflarning talaba qizlarning morfofunksional ko‘rsatkichlari hisobga olingan holda *jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi, monitoringini o‘tkazishda* pedagogik test va so‘rovnoma o‘tkazish *masalalari bo‘yicha ilmiy-metodik asarlari o‘rganildi.* Oliy o‘quv yurtida jismoniy tarbiya jarayonini samarali boshqarish masalalarida *ilg‘or tajribani o‘rganish va umumlashtirishga alohida diqqat-e’tibor qaratildi.*

Antropometriya aholini jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini monitoring qilish tizimini amalga oshirish bo‘yicha metodik tavsiyalarga muvofiq o‘tkazildi. Unda antropometriya umumiy qoidalari va asosiy tamoyillariga muvofiq tana vaznini aniqlash, tana uzunligi va ko‘krak qafasi aylanasini o‘lchash nazarda tutildi.

O‘lchash jarayonida quyidagi asboblardan foydalanildi:

- tik turgan holatda tana uzunligini o‘lchash uchun antropometr (vertikal shkala), o‘lchash aniqligi – 0,1 sm.gacha. Bo‘y o‘lchashda tekshiruvdan o‘tkazilayotgan bo‘y o‘lchagichning vertikal ustuniga uchta nuqtasi: tovoni, dumbasi va kuragini tekkizgan holatda orqasi bilan turadi;
- tana vaznini o‘lchash uchun tibbiy tarozilar, o‘lchash aniqligi – 50 g.gacha;
- ko‘krak qafasi aylanasini o‘lchash uchun santimetrli lenta (nafas olmay turgan, maksimal nafas chiqargan holatda). Tekshiruvdan o‘tkazilayotgan qo‘llari ikki tomonga uzatilgan holatda turadi, santimetrli lenta to‘g‘ri holatda turganligi tekshirilgandan so‘ng u qo‘llarini tushiradi. Santimetrli lenta orqa tomondan kurakning quyi burchaklari ostiga, old tomondan – ko‘krak bezi ustiga qo‘yiladi.

Ishimizda qo‘shimcha o‘lchovlar o‘ng va chap panjaning panja dinamometriyasidan iborat bo‘ldi. O‘tkazilgan o‘lchovlarda panja dinamometriyasi 100 g.gacha aniqlikka ega panja kuch o‘lchagich signallarini qayd etuvchi kompyuter stabilografiyasi usuli yordamida amalga oshirildi

Jismoniy tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish ko‘p jihatdan shug‘ullanuvchilarning jismoniy sog‘lig‘i va jismoniy rivojlanishi holati ustidan o‘z vaqtida va to‘g‘ri nazorat amalga oshirilishiga bog‘liq bo‘ladi. Tajribada jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini monitoring qilish tizimiga kiritilgan, aniqlik va ishonchlilik talablariga javob beradigan test mashqlaridan foydalanildi. Bundan tashqari, test mashqlari quyidagi umumiy qoidalarga javob beradi:

- amalga oshiriladigan harakat tana vazniga va oyoq-qo‘llarga bog‘liq bo‘lmasligi kerak;
- amalga oshiriladigan harakat tana vazniga va uning mushak massasiga bog‘liq bo‘lmasligi kerak;
- test o‘tkazish shartlari barcha tekshiruvdan o‘tkazilayotganlar uchun bir xil bo‘lishi kerak;
- nazorat mashqlari sinovdan o‘tkazilayotganlar uchun o‘lchash va baholash oddiyligi, sinov natijalari ko‘rgazmaligi bilan ajralib turishi kerak.

1-2-kurs talaba qizlarining jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun quyidagi testlar “me’yorlar”dan foydalanildi:

1) 30 m.ga yugurish;
2) 1000 m.ga yugurish;
3) o‘rtacha 30 soniya mobaynida gavdani ko‘tarish;
4) turgan joyidan uzunlikka sakrash.

Jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etish talaba qizlarning individual morfologik xususiyatlari, harakatlanish imkoniyatlari va sog‘lig‘i har tomonlama tahlil etilishi *ta’minlangan holatdagina maqsadga muvofiq bo‘ladi.[5]*

2017-yil sentyabrda, SamDUning turli yo‘nalishlarda tahsil olayotgan 1- kurs talaba qizlarining jismoniy rivojlanish darajasi ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqamiz, masalan,

Pedagogika fakulteti, o‘zbek filologiyasi va amaliy matematika fakultetlarida talaba-qizlarining tik turgan holatda tana uzunligi, tana massasi (vazni), ko‘krak qafasi aylanasi va panja dinamometriyasi kabi o‘tkazilgan antropometrik o‘lchovlar natijasida quyidagilar aniqlandi:

Keltirib o‘tilgan jismoniy rivojlanish dastlabki ko‘rsatkichlaridan ko‘rinib turganidek, 2017-yil sentyabrda *pedagogika fakulteti* 1-kurs talaba qizlarining o‘rtacha bo‘yi 164,9 ± 4,5 sm.ni tashkil etadi. Bunda individual ko‘rsatkichlardagi maksimal bo‘yi 175 sm, minimal bo‘yi esa – 155 sm.dan iborat bo‘ldi.

Ushbu *fakultetlar* talaba qizlarining vazn ko‘rsatkichlari 55,4 ± 3,1 kg doirasida o‘zgarib turadi, individual ko‘rsatkichlardagi maksimal va minimal miqdorlar, taalluqli ravishda, 63 kg va 48 kg.ni tashkil etadi.

Sinovdan o‘tkazilayotgan talaba qizlarning ko‘krak qafasi aylanasi o‘rtacha guruh ko‘rsatkichlari 84,9 ± 2,9 sm.ni tashkil etadi, individual ko‘rsatkichlardagi maksimal va minimal miqdorlar, ta’lluqli ravishda, 91 sm va 80 sm.ni tashkil etadi.

O‘ng qo‘l panja dinamometriyasi ko‘rsatkichlari 33,4 ± 2,6 kg.ni tashkil etib, ayni vaqtda individual ko‘rsatkichlardagi maksimal miqdor 37 kg, minimal miqdor esa – 27 kg bilan ifodalanadi. Chap qo‘l dinamometriyasi ko‘rsatkichlari o‘z miqdorlari bo‘yicha o‘ng qo‘l natijalaridan pastroq bo‘lib, bu talaba qizlarning yaqqol ifodalangan o‘naqayligidan dalolat beradi. Ushbu qo‘l kuchining o‘rtacha ko‘rsatkichlari 28,3 ± 3,0 kg; individual ko‘rsatkichlardagi maksimal ko‘rsatkichlari 33 kg, minimal ko‘rsatkichlari esa – 21 kg.ni tashkil etadi.

Ushbu davrda talaba qizlarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari integral bahosi 5 balli baholash shkalasi bo‘yicha 3,0 ballni tashkil etadi. Pedagogika fakulteti talaba qizlari jismoniy rivojlanish darajasi bo‘yicha boshqa fakultetlarda ta’lim olayotgan tengdoshlaridan biroz farq qiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilarining o‘rtacha bo‘yi 161,6 ± 4,0 sm; maksimal va minimal bo‘y miqdorlari, taalluqli ravishda, 169 sm va 153 sm.ni tashkil etadi.

Individual ko‘rsatkichlardagi vazn o‘zgarishlari 71 kg.dan 48 kg.gacha tashkil etadi. O‘rtacha miqdorlar esa, taxminan 55,3 ± 3,7 kg. Pedagogika fakulteti talaba qizlarining ko‘krak qafasi aylanasi tajribada qatnashayotgan barcha fakultetlar talaba qizlarining ushbu ko‘rsatkichidan kamroq o‘rtacha ko‘rsatkichga ega – 80.0 ± 2,6 sm, shuningdek individual ko‘rsatkichlardagi miqdordan ham kamroq – 70 sm.ga teng o‘rtacha ko‘rsatkichga ega.

O‘ng qo‘l kuchini ifodalaydigan panja dinamometriyasi ko‘rsatkichlari o‘rtacha miqdori 35,7 ± 3,0 kg (individual natija maksimal miqdori – 39 kg)ni tashkil etadi. Bu ushbu o‘lchov turida eng yuqori o‘rtacha ko‘rsatkichga ega matematika fakulteti talaba qizlarining bu boradagi ko‘rsatkichlaridan biroz pastroq. Individual ko‘rsatkichlarda minimal miqdor esa – 27 kg)ni tashkil etgan. Chap qo‘l kuchini ifodalaydigan panja dinamometriyasi ko‘rsatkichlari o‘rtacha miqdori 29,1 ± 3,1 kg, individual ko‘rsatkichlardagi maksimal va minimal miqdorlar, taalluqli ravishda, 32 kg va 24 kg.ni tashkil etadi.

Pedagogika fakulteti birinchi kursiga *o‘qishga kirgan* talaba qizlar jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari integral bahosi o‘rtacha rivojlanish darajasiga muvofiq bo‘lib, o‘rtachadan pastroq daraja – 2,5 ballni tashkil etadi.

O‘zbek *filologiya fakulteti* birinchi kurs talaba qizlari yanada kamroq bo‘y ko‘rsatkichlariga ega. Bo‘y ko‘rsatkichlari o‘rtacha miqdori 160,7 ± 4,1 sm.ga teng, bunda individual ko‘rsatkichlardagi maksimal bo‘y miqdori 170 sm, minimal bo‘y miqdori esa – 151 sm.dan iborat bo‘lgan.

Ushbu fakultet talaba qizlari tadqiqotimizda qatnashgan barcha fakultetlar talaba qizlari o‘rtasida eng kichik o‘rtacha vazn og‘irligiga ega – 52,4 ± 3,4 kg. Individual ko‘rsatkichlardagi maksimal vazn miqdori tibbiyot fakulteti talaba qizlarining xuddi shunday ko‘rsatkichlariga yaqin bo‘lib, 62 kg.ni tashkil etadi. Talaba qizlarning minimal vazn miqdori, aksincha, o‘zbek filologiya fakulteti hamda pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi fakulteti talaba qizlarining xuddi shunday ko‘rsatkichlari miqdoridan yuqori bo‘lib, 51 kg.ni tashkil etadi.

Ko‘krak qafasi aylanasi ko‘rsatkichlari o‘zining o‘rtacha miqdorida 82,7 ± 2,9 sm.ga teng bo‘lib, bu barcha fakultetlardagi xuddi shunday ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich hisoblanadi. Ko‘krak qafasi aylanasi individual ko‘rsatkichlardagi maksimal miqdori – 90 sm, minimal miqdori esa – 80 sm.ni tashkil etib, bu boshqa fakultetlar talaba qizlarining xuddi shunday ko‘rsatkichlari bilan o‘xshashlikni aks ettiradi.

O‘ng qo‘l panja kuchi individual ko‘rsatkichlarining eng yuqori miqdori ushbu fakultet talaba qizlarida qayd etilgan: 41 kg, mazkur ko‘rsatkichning minimal miqdori 28 kg.ni tashkil etgan. O‘ng qo‘l panja kuchi ko‘rsatkichining o‘rtacha miqdori 34,0 ± 3,0 kg.dan iborat bo‘lgan.

Barcha tekshiruvdan o‘tkazilayotganlar o‘rtasida *o‘zbek filologiya fakulteti* talaba qizlari chap qo‘l kuchi rivojlanish darajasi yuqori o‘rtacha ko‘rsatkichi bilan ajralib turadilar. Ushbu ko‘rsatkich 30,3 + 2,5 kg.ni tashkil etib, bunda uning maksimal ifodalanishi – 35 kg va minimal ifodalanishi – 25 kg.

Buni shu bilan izohlash mumkinki, fikrimizcha, ushbu *fakultet* talaba qizlari ko‘pincha ham o‘ng qo‘l, ham chap qo‘l kuchini namoyish qilish talab etiladigan uy ishlari bilan shug‘ullanishga to‘g‘ri keladigan qishloqlarda voyaga yetishgan.

O‘zbek filologiya fakulteti talaba qizlarining jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari integral bahosi 2,5 ballni tashkil etadi, bu ushbu yoshdagi qizlarning jismoniy rivojlanish o‘rtacha darajasiga muvofiq bo‘lib, biroq o‘rtacha rivojlanish darajasidan past chegaraga yaqin miqdorni tashkil etadi.

Amaliy matematika *fakulteti* talaba qizlarini tekshiruv natijalari shuni ko‘rsatdiki, ularning o‘rtacha bo‘y ma’lumotlari 164,1 ± 4,4 sm.ga teng. Ushbu *fakultet* talaba qizlari yuqorida qayd etilgan *fakultetlar* talaba qizlaridan o‘z individual maksimal va minimal bo‘y ko‘rsatkichlari bilan farq qilmaydilar – taalluqli ravishda, 172 sm va 158 sm.

Ular boshqa talaba qizlardan vazn bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar bilan farq qiladilar – 57,8 ±3,7 kg, bu mazkur *fakultet* talaba qizlarining o‘rtacha vazn ko‘rsatkichlarini biz tomonimizdan tavsiflangan natijalarning eng yuqori ko‘rsatkichlariga kiritish imkonini beradi.

Amaliy matematika fakulteti talaba qizlarining ko‘krak qafasi aylanasi o‘rtacha natijasi amaliy matematika fakulteti talaba qizlaridagi ko‘rsatkichlar bilan deyarli bir xil: 84,4 ± 2,7 sm, individual ko‘rsatkichlardagi maksimal va minimal miqdorlar, taalluqli ravishda, 91 sm va 72 sm.ni tashkil etadi.

O‘ng qo‘l kuchini ifodalaydigan panja dinamometriyasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot ko‘rsatkichlari qayd etilgan fakultetlar orasida o‘ng panja kuchi ko‘rsatkichlarining eng katta o‘rtacha miqdorlarini aniqladi: 36,2 ± 3,0 kg, bunda individual ko‘rsatkichlardagi maksimal va minimal miqdorlar, taalluqli ravishda, 41 kg va 26 kg.ni tashkil etadi. Chap qo‘l kuchi ko‘rsatkichlari o‘rtacha miqdorlari esa quyidagilarga teng: 30,0 ± 3,2 kg; individual ko‘rsatkichlardagi maksimal miqdori – 34 kg, minimal miqdori esa – 22 kg.ni tashkil etadi. Kompyuter dasturi yordamidagi hisob-kitoblar amaliy matematika fakulteti birinchi kurs talaba qizlarining jismoniy rivojlanish darajasi va ularning jismoniy rivojlanish o‘rtacha darajasini aks ettiradigan 3,0 ballga teng integral bahosini aniqladi.

Shunday qilib, 2017-yil sentyabr holati bo‘yicha yuqorida qayd etilgan fakultetlar talaba qizlarining jismoniy rivojlanish darajasi 2,5 - 3,0 balldan iborat integral bahosi doirasida ekanligi to‘g‘risida qisqacha xulosa chiqarish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich mazkur yoshdagi talaba qizlarning jismoniy rivojlanish o‘rtacha darajasini aks ettiradi.

O‘quv yili oxirida 1-kurs talaba qizlarining morfologik xususiyatlari tadqiqotlari natijalari tahlili ularning bo‘y va aylana, shuningdek tana vazni o‘lchamlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermaganligini ko‘rsatdi. Ushbu yo‘nalish panja dinamometriyasi ko‘rsatkichlarida ham aniqlanmadi. Ma’lumotlaridan ko‘rinib turganidek, matematika fakulteti talaba qizlarida bo‘y, vazn, o‘ng qo‘l kuchi kabi ko‘rsatkichlarda biroz o‘sish kuzatiladi, ayni vaqtda chap qo‘l kuchi ko‘rsatkichlari miqdori o‘rtacha ko‘rsatkichdan orqada qolmoqda. Individual ko‘rsatkichlarda variatsiyalar hisobiga o‘zgarishlar yuz beradi. Jismoniy rivojlanish darajasining integral bahosi oldingidek saqlanib qoldi – 3,0 ball.

Pedagogika fakulteti talaba qizlarida bo‘y ko‘rsatkichlari 161,6 ± 4,0 sm.dan 162,0 ± 4,5 sm.gacha biroz darajada o‘zgargan. Tana vazni ko‘rsatkichlari deyarli o‘zgarmagan: 55,6 ± 3,3 kg. Ko‘krak qafasi aylanasi va panja dinamometriyasi ko‘rsatkichlarida biroz o‘sish jismoniy rivojlanish darajasi integral bahosini bir balldan ortiq (2,5 ball) o‘zgartirish imkonini bermadi.

O‘zbek filologiya fakulteti talaba qizlarining jismoniy rivojlanishi ham deyarli shu doirada yuz bergan. Faqat bo‘y, tana vazni, ko‘krak qafasi aylanasi individual ko‘rsatkichlarida biroz farq va panja dinamometriyasi ko‘rsatkichlari biroz o‘sishi jismoniy rivojlanish darajasi integral bahosini 0,1 ballga (2,6 ball) oshirish imkonini berdi.

Amaliy matematika fakulteti talaba qizlarida vazn, ko‘krak qafasi aylanasi va panja dinamometriyasi o‘rtacha ko‘rsatkichlari biroz o‘sishi yuz berib, bu talaba qizlarning jismoniy formasi saqlanganligi va biroz rivojlanganligidan dalolat beradi. Ta’lluqli ravishda, jismoniy rivojlanish darajasi integral bahosi hech qanday o‘zgarishlarga duch kelmagan va oldingi 3,0 ball doirasida saqlanib qolgan.

O‘quv yili mobaynida vazn, bo‘y, ko‘krak qafasi aylanasi hamda o‘ng va chap qo‘l panja dinamometriyasi kabi jismoniy holat ko‘rsatkichlari dinamikasini tavsiflaydigan tadqiqot ma’lumotlariga muvofiq, eksperimental fakultetlari 1-kurs talaba qizlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermagan. Shu tufayli statistik ishonchli farqlar aniqlanmadi.

Ushbu *fakultetlar* talaba qizlarining jismoniy rivojlanishi ko‘rsatkichlarida jiddiy o‘zgarishlar yo‘qligi qizlar organizmida yuz berayotgan jarayonlarning tabiiy dinamikasidan va ularga jismoniy tarbiyaning tegishli amaliy ta’siri mavjud emasligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda ishimiz natijalari pedagogik nazorat talaba qizlarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi darajasi o‘rtasida sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga yordam berdi. Hozirda mavjud jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik monitoringi kompyuter dasturlari metodologik loyihalari yoshlar jismoniy rivojlanishining regional xususiyatlarini hisobga olmaydi. Samarqand qizlarining bo‘y ko‘rsatkichlari ishimizga muvofiq mamlakat bo‘yicha o‘rtacha statistik ma’lumotlardan biroz pastroq bo‘lib, bu jismoniy tayyorgarlik indeksi ko‘rsatkichlarida aks ettiriladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4749 sonli farmoni Toshkent 04.02.2017- y
2. M.Raximov, B.Qo‘lto‘rayev. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiyani o‘qitish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
3. A.N.Normurodov. Jismoniy tarbiya. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2011.
4. I.G.Azizov, Sh.S. Sobitov. Sport fizalogiyasi. – Toshkent, 1993.
5. Артемов А.Б. Организация физического воспитания студентов. Теория и практика физической культуры. – 2002.
6. F.A.Kerimov Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. – Toshkent: Zar-qalam, 2004.

UDK: 37:796

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASINI BOSHQARISHNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI

E. A. Tursunqulov
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasini boshqarishda axborot texnologiyalari vositasitasida boshqaruv tizimini tadbig‘ qilish xususiyatlari o‘rganilgan, shuningdek, boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayonining jismoniy ta’lim tizimi, jismoniy tarbiya tizimida axborot texnologiyalari, boshqaruv tizimi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, boshqarish funksiyasi.

Управление сферой физической культуры и спорта в настоящее время

Аннотация. В статье освещены особенности управлением физкультурой и спортивными состязаниями с помощью информационных технологий. Разработаны заключения, нацеленные на улучшение системы управления.

Ключевые слова: Физические и образовательные системы образовательного процесса, информационные технологии в системе физического образования, функции управления социально-экономических условий.

The condition of management of sphere of physical education and sport in nowadays

Abstract. This article explores the features of managing the management of physical culture and sports through the use of information technology, and has developed conclusions aimed at improving the management system.

Keywords: Physical and educational systems of the educational process, informational technologies in physical training system , management function of socio-economic conditions.

Axborot texnologiyalari sharoitida boshqaruv faoliyati Jismoniy tarbiya va sport tizimining har bir tarkibiy bo‘linmasida muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Nafaqat butun tizimning faoliyat yuritishi, balki uning kelgusi rivojlanishi ham qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari to‘g‘riligiga, ularning tezkorligiga, o‘z vaqtida qabul qilinishiga bog‘liq. Shu tufayli nazariy tadqiqot oldiga yangi axborot texnologiyalari qo‘llanilgan holda quyidagi yo‘nalishlarda boshqaruv faoliyati muammolarini o‘rganish masalalari qo‘yildi:

Zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalaridagi o‘zgarishlar sur’ati va xususiyati jahon hamjamiyati ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy sifatlari va uni jadallashtirish yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Respublikamizning bugungi sharoitlariga nisbatan izohlaganda, ushbu o‘zgarishlar jismoniy tarbiya va sport sohasini boshqarishning ushbu ijtimoiy tizimni jamiyatning zamonaviy ehtiyojlariga yaqinlashtirish asosida yanada rivojlantirishga ko‘maklashadigan hamda birinchi o‘ringa olib chiqish manbai hisoblanadi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda puxta yo‘lga qo‘yilgan jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining boshqaruv tizimi alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi kabi murakkab tizimlar va jarayonlar tadqiqoti boshqaruv tizimini shakllantirish va uning tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish bilan chambarchas bog‘liq.

Zamonaviy tushunchalarga ko‘ra, boshqaruv tizimi umumiy ko‘rinishda bevosita va teskari bog‘lanish kanallari bo‘yicha o‘zaro hamkorlik qiladigan boshqarish obyektini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, ma’lumki, boshqarish jarayonida boshqariladigan obyektga boshqaruvchi va o‘rin to‘ldiruvchi ta’sirlar ko‘rsatiladi, ushbu ta’sir natijasi esa «chiqish» ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi. Bunda boshqaruvchi ta’sirlar «chiqish» ko‘rsatkichlariga biriktiriladi.[1]

Shunday qilib, boshqaruv tizimi ikkita tizim – boshqarish obyekti va boshqaruvchi tizim jamlanmasi sifatida baholanishi mumkin (1-rasm).

1-rasmda boshqaruvchi tizim boshqarish obyektiga o‘zini qanday tutishi kerakligi to‘g‘risida axborot (boshqaruvchi qarorlar)ni boshqaruvchi signallar uzatish orqali ta’sir ko‘rsatishi ifodalangan. Qayd etamizki, boshqarish maqsadiga erishishni ta’minlaydigan qarorlarni ishlab chiqish uchun boshqaruvchi tizim tashqi muhit holati va boshqarish obyekti holati to‘g‘risida axborotga ega bo‘lishi kerak. Bunday axborotni uzatish kanali «teskari bog‘lanish» deb nomlanadi. Boshqarish umumiy mexanizmi shundan iborat.



1-rasm: Boshqaruv sxemasi

Boshqarish deyilganda, boshqarish obyektiga aniq maqsadga qaratilgan ta’sir ko‘rsatish jarayoni tushunilib, u ta’sir natijasida muayyan funksiyalarni bajaradi.[2]

Maxsus adabiyotlarida boshqarish muayyan obyekt, sifatida qaralib tizim yoki jarayon holatining maqsadga erishishga olib boradigan har qanday o‘zgarishi sifatida talqin etiladi

Boshqarish fani fanlar integratsiyasi davrining o‘ziga xos fani hisoblanadi. U oqilona tashkil qilishni nazarda tutadi, shu tufayli boshqarish fani rolli fikrlashni yengillashtirish va optimal qarorlar qabul qilishdan iborat

Qayd etilishicha, sport sohasini ijtimoiy boshqarishning hozirgi holati tavsifi quyidagi masalalar oldindan izohlanishini talab etadi:

- ijtimoiy boshqarish va jumladan sport sohasini boshqarish mohiyatining tavsifi;
- ijtimoiy boshqarish tuzilishi va funksiyalari tavsifi;
- sport sohasini ijtimoiy boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Jismoniy tarbiya va sport inson faoliyatining barqaror sohasi sifatida ijtimoiy hayot sohasiga tegishlidir. Ijtimoiy boshqarish mohiyatini qayd etib, shunday yozadi: ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning mislsiz ko‘lami iqtisodiy, ijtimoiy, aholi sog‘lig‘i yomonlashishi kabi muammolarni paydo qildi. Shu tufayli ijtimoiy boshqarish samaradorligini oshirish ahamiyati va unga bo‘lgan talab kuchayib bormoqda. [3]

Biz aniqladikki tadqiqotchilar puxta nazariy tadqiqot o‘tkazish orqali shuni tasdiqladiki, sport sohasini boshqarish mohiyati belgilangan maqsadga erishish jarayonida uning tuzilishi va faoliyatini

tartibga solish bo‘yicha tashkiliy ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Tuzilish deyilganda tizim qismlari tarkibi va ular o‘rtasidagi muayyan qonuniy tartib tushuniladi:

a) jismoniy tarbiya va sportni boshqarish: tashkil etish va ta’sis qilish subyekti;

b) boshqarish obyekti (boshqariladigan tizim);

v) vazifalar – farmonlar, qonunlar, qarorlar va h.k.;

g) boshqarish obyektiga boshqaruvchi ta’sir (dasturlar);

d) boshqarish obyekti faoliyati to‘g‘risida teskari axborot.

Sport sohasining boshqaruv tizimi faoliyati quyidagi tizimlar ta’sirini o‘z ichiga oladi:

a) umumiy funksiyalar: rejalashtirish, tashkillashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va tuzatish, axborot bilan ishlash;

b) maxsus funksiyalar deyilganda, sport sohasini boshqarish asosiy shakllari: jamiyat-davlat, qo‘mita va muassasa; ijtimoiy; aralash (ijtimoiy-davlat), o‘z-o‘zini boshqarish organlari tushuniladi. Bunda respublika, viloyatlararo, tumanlararo va mahalliy darajalar sport harakatini boshqarishning yetakchi darajalari hisoblanadi.[4]

Shunday qilib, biz sport sohasini boshqarish tahliliga tizim nuqtayi nazaridan yondashashi uni murakkab tizim sifatida ifodaladik, bunda ijtimoiy boshqarish yaxlit va muntazamlilik xususiyatiga ega ekanligini aniqlandi.

Ko‘plab olimlar tizimli yondashuvni aksariyat holatlar, shu jumladan ijtimoiy voqea-hodisalarni tadqiq etishdagi eng muhim usullardan biri sifatida baholaydilar.

Har bir murakkab voqea-hodisa turli tomonlardan ko‘rib chiqilishi mumkin. Aynan ushbu muhim talab tizimli yondashuvning asosini tashkil etishi, bunda obyektning barcha ehtimoliy tarkibiy qismlari o‘zaro uyg‘un munosabatlari hisobga olingan holda, uning tomonidan umuman bilim o‘zlashtirish amalga oshirilishi kerak.

Tizimli tadqiqotning boshlang‘ich punkti – tarkibiy qismlari alohida emas, balki dialektik birlikda o‘rganiladigan obyektni yaxlit, shu bilan birga har tomonlama tadqiq qilishga yo‘nalishdan iborat. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati hamda jismoniy tarbiya va sport boshqrish tizimli yondashuv, fikrimizcha, yetarli darajada tatbiq etilmagan. Bevosita amaliyot bilan bog‘liq ishlardan qayd etish kerak, ushbu ishlarda tizimli yondashuv yetarlicha keng taqdim etilgan.

Umuman, sport amaliyotida ushbu yondashuvni, hattoki «badiiy gimnastikachi qadamini tadqiq etishning tizimli-tuzilmali tamoyili»da ishlatishgacha ushbu yondashuvni qo‘llashga intilish kuzatiladi. Ayrim mualliflar tizimli yondashuvni mashq nazariyasida uslub, usul ishlarning samaradorligini yanada takomillashtirishning asosi deb hisoblashadi. Sportchilarning mashqida tiklash vositalaridan tizimli foydalanish bo‘yicha ishlar, shuningdek, jismoniy tarbiya va sportni o‘rganishda tizimli yondashuv bo‘yicha nazariy manbalar paydo bo‘ldi.

Yaqin kelajakda jismoniy tarbiya va sport singari ko‘p funksiyali hodisalarni o‘rganishda tizimli yondashuv o‘z o‘rnini topadi, deb taxmin qilish mumkin. Bu sohada tadqiqotlar ko‘lami juda keng bo‘lishi mumkin. Ilgari tadqiq etilgan hosilalar va ularning mazmuni: «jismoniy tarbiya tizimi», «jismoniy tarbiyada meyoriy baholar tizimi», «jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash tizimi», «jismoniy tarbiya va sportni boshqarish» kabilarning rivojlanish modellari yanada batafsil tizimli tahlildan o‘tkazilishi lozim.

Shunday qilib, jamiyatdagi hodisalarga nisbatan tizimli yondashuv dialektik usulning shakllaridan biridir. Uning bu mohiyati muayyan tizimni ajratib olish va tadqiq etishda ifodalanadi.

Rahbarning faoliyati «maqsad», «vosita», «natija» kabi mezonlarning muayyan o‘zaro munosabati bilan tavsiflanishini ko‘rsatadi. Bunday holat real voqelik bilan belgilanadi, chunki rahbar qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun, (o‘zining nuqtayi nazaridan) zarur vositalar yordamida tizim (boshqaruv obyekti)ni faoliyat natijasining aniq shakliga o‘tkazadigan kuch sifatida boshqaruv obyektiga faol ta’sir etishga murojaat qiladi.

Ammo faoliyat natijalari har doim ham qo‘yilgan maqsadga olib kelavermaydi. Haqiqatda mavjud va bo‘lishi lozim voqelikning farqi ham mavjud boshqaruv tizimini, ham boshqaruv qarorlarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi, oqibatda natijaning maqsadga va maqsadga erishishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayoniga nisbatini tadqiq etish zarurati yuzaga keladi.

Demak, boshqaruv g‘oyasini amalda ro‘yobga chiqarish uchun birinchi navbatda boshqarilayotgan obyektning tuzilmasi hamda uni bir holatdan ikkinchisiga o‘tishi qonuniyatlari to‘g‘risida aniq tasavvur zarur. Ushbu talab qay darajada qondirilganiga boshqaruv nazariyasining ilmiy aniqligi, to‘g‘riligi, tushunchalar apparatining mazmuniy qat’iyligi va nihoyat, amaliy jihatdan samaradorligiga bog‘liqdir. Axborotni tizim va tashqi muhit o‘rtasida uzluksiz harakati boshqaruv jarayonlarining eng muhim

belgilaridan biridir. Tizimning tarkibiy komponentlari, qismlari o‘rtasida ham axborot almashuvi yuz beradi, shuning oqibatida ular o‘zaro ta’sirga kirishadilar va tizimning yaxlitligi saqlanadi. [4,5]

Xulosa qilib, boshqaruvning mohiyati pirovard quyidagilardan iborat deyish mumkin :

♦ tizimning va uni o‘rab turgan muhitning holati to‘g‘risida axborotni to‘plash zarur;

♦ ushbu axborotni aloqa kanallari bo‘ylab qayta ishlash manziliga jo‘natish;

♦ boshqaruv buyruqlarini shakllantirish maqsadida axborotni qayta ishlanishini amalga oshirish;

♦ boshqaruv buyruqlarini amalga oshirish, ya’ni tarkibida buyruq bo‘lgan axborotni ijroiya organlariga uzatish;

♦ tegishli harakatlarni va nazoratni amalga oshirish.

Shunday qilib, boshqaruvni tashkillashtirish, boshqarilayotgan tizimning holati to‘g‘risidagi axborotning ham miqdoriy, ham sifatiy tasniflarini, uning mazmuni va mohiyatini bilishni talab qiladi, bu esa ham biologik, ham ijtimoiy tusdagi o‘ta murakkab tizimlarni boshqarishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi holatning berilgan holat bilan mos kelmasligi boshqaruv tizimiga berilgan yo‘nalish faoliyat yuritishi uchun tizimni qayta qurishga olib keladi.

Axborot, kommunikatsiya nazariyasi, jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kommunikatsiya masalalari ko‘rib chiqilgan. Ushbu ishlardan kelib chiqadigan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarga axborot xizmatini ko‘rsatishni takomillashtirishning turli muammolari bo‘yicha ilmiy-tekshirish ishlarini doimo o‘tkazish talab qilinadi;
- ko‘rib chiqilayotgan faoliyat sohasida axborot oqimlarini o‘rganish o‘ta muhim muammo hisoblanadi. Ushbu faktlarni bilish va ulardan foydalanish jismoniy tarbiya va sport sohasida axborot xizmati ko‘rsatishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkonini beradi;
- jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ilmiy-texnik axborotni to‘plash, saqlash, tartibga solish va qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan maxsus axborot-qidiruv tizimini yaratish;
- jismoniy tarbiya xodimlarini axborotning ilmiy asoslari bilan kengroq tanishtirish zarur.

Adabiyotlar

1. T.V. Xutiyev. Jismoniy tarbiya va sport tizimini boshqarish. – Toshkent, 1991. – 78 bet.
2. Волков, В.Ю. Компьютерные технологии в физической культуре, теория и практика физической культуры. – Москва, 1998. – 106 с.
3. V.V.Mixalev Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi axborot texnologiylari. – Toshkent, 1998. – 110 bet
4. K.D.Yarashev. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. – Toshkent, 1998. – 66 bet.
5. R.S.Salomov, F.A.Kerimov. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2003. – 40 bet.

UDK: 374.3:377

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI KASBLAR OLAMI BILAN TANISHTIRISH MAVZUSINING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI

Ch. Tursunova,[1] G. S. Abduraxmanova[2], F. R. Fayzullayeva[3]
[1]Samarqand davlat universiteti, [2]Samarqand shahri 7-o‘rta maktab, [3]Samarqand shahri 29-o‘rta maktab

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasbga bo‘lgan qiziqishlar, qolaversa har bir kasbga lozim bo‘lgan milliy qadriyatlar, insoniylik xislatlarining ayrimlarini ta’riflashga, to‘xtalib o‘tishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: aqllilik, odoblilik, odobsizlik, bilimlilik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, milliy g‘urur, vatanparvarlik, baynalminallik, qat’iyatlilik, sabr-toqat, kechirimlilik, sahovatlilik, xushmuomalalik, pokizalik, faollik, poklik.

Научно-педагогические основы ознакомления учеников начальной школы с профессиями

Аннотация. В этой статье сделана попытка разъяснения интересных сторон профессии, некоторых национальных ценностей а также описание гуманистических отношений каждой профессии.

Ключевые слова: интеллект, скромность, мораль, знание, трудолюбие, гуманизм, национальная гордость, патриотизм, солидарность, настойчивость, терпение, прощение, щедрость, краткость, активность, чистота.

Scientific-pedagogical bases of introducing primary school students to the professional world

Abstract. In this article autors tried to clarify the interests of the profession, as well as to describe some of the national values, humanistic attitudes of each profession.

Keywords: intelligence, modesty, morality, knowledge, diligence, humanism, national pride, patriotism, solidarity, perseverance, patience, forgiveness, generosity, gentleness, purity, activity, purity.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga qaratilayotgan e’tibor, xususan, ularda ta’lim sifatini oshirish, ijodkor, mustaqil o‘z hayot yo‘lini tanlay biladigan barkamol insonlarni tayyorlash muammosini o‘rganishga nisbatan ilmiy ehtiyoj doimo mavjud.

Bugungi kunda zamonaviy pedagog mutaxassislarni tayyorlash masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanib, uning samaradorligi bevosita kasbga bo‘lgan qiziqish tadbirlarini tashkil etish bilan asoslanadi. O‘qituvchilar shaxsning kasblar olamiga azal-azaldan e’tibor qaratib kelishgan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, o‘qituvchiga bu borada qo‘yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan.

Tarixda ta’lim-tarbiya jarayoni maxsus faoliyat sifatida shakllanib borishi barobarida, uning yakunida tarbiyalanuvchilarning sifatlari, ya’ni ta’limiy maqsadlariga ham aniqlik kiritilgan. Biz quyida kasblarga bo‘lgan qiziqishlar, qolaversa har bir kasbda lozim bo‘lgan milliy insoniylik xislatlarining ba’zilariga ta’rif berishga harakat qildik.

Aqllilik – bu tushunchaning lug‘aviy ma’nosi fikr yuritmoq, bilmoq degan mazmunni bildiradi. Shunday ekan, ma’lum kasb egasi qanchalik ko‘p fikr yuritib, ko‘p bilimga ega bo‘lsa, shunchalik aqlli hisoblanadi. Lekin odam chuqur fikr yuritmay boshqalardan ko‘rgan, eshitganlarini, kitoblardan o‘qiganlarini hamda ustoz muallimlar aytganini esda saqlab qolib, shu yo‘llar bilan olingan bilimlarga amal qilib yurishi ham mumkin.

Odoblilik – ayrim kasblarda inson fazilatining muhim ko‘rsatgichi bo‘lib hisoblanadi. Odobli kishi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy qadriyatlarni yaxshi bilgan va ularni e’zozlagan hamda jamiyat ichida qabul qilingan barcha axloq normalariga rioya qiladigan odamdir.

Odobsizlik – butun insoniyat yoki bir millat qadriyat deb qabul qilgan narsa va voqeliklarga behurmatlik ko‘rsatish, muayyan jamiyatda qabul qilingan urf-odat va an’analarga rioya qilmay, ularni mensimaslikdir. Ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi kishilar, bolalarga odob nima ekanini, uning mohiyatini tushuntirib berib, ularda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o‘rgatish va hayotda amal qilishga o‘rgatishlari kerak.

Bilimlilik – bilimli kishi ko‘p bilim sohibi hisoblanadi. Ba’zan “bilimli” tushunchasi “aqlli” tushunchasi bilan sinonim sifatida qo‘llaniladi. Yana qaytarib aytamizki, aqlli odam mustaqil fikr yurita oladi, bilimli odam esa, mustaqil fikr yuritib yoki kitob va ustozlardan olgan bilimlarni yod olish natijasida, нetarlicha bilimga ega bo‘lgan kishi hisoblanadi.

Mehnatsevarlik – har bir kasbda yoshlarning erishishi zarur bo‘lgan omillardan biridir. Mehnatsevarlik deb, mehnatning turidan – og‘ir mehnatmi yo yengilmi; aqliymi yo jismoniymi, bundan qat’iy nazar, kishi uni bajarishga jon-jahdi bilan kirishishligiga aytiladi.

Salomatlik – har bir kasb egasi uchun zarur bo‘lgan omil, biror kasb bilan shug‘ullanishda zarur talab. Mutloq sog‘lom kishi deb, ham jismonan, ham aqlan, ham ruhan salomat bo‘lgan kishiga nisbatan aytiladi.

Milliy g‘urur – milliy g‘ururi yo‘q odam har bir ishda loqayd bo‘lib, uning qilgan ishining unumi bo‘lmaydi. Milliy g‘ururga ega inson esa, oldiga biron-bir maqsad qo‘ydimi, butun vujudini ishga solib, shu maqsadga erishish uchun g‘ayrat qiladi va tezlikda unga yetadi.

Vatanparvarlik xislati – milliy g‘ururning taraqqiy etgan varianti bo‘lib, vatan ravnaqi uchun rag‘bat paydo qiluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Milliy g‘urur negizida odamlarda vatanini sevish kayfiyati paydo bo‘lib, millati uchun, yurti uchun, ya’ni vatani uchun fidoyilarcha mehnat qilib, zarur bo‘lganda jonini ham fido qilishga tayyor bo‘ladi. Buni haqiqiy vatanparvarlik deyiladi. Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik, o‘zining qudratli ildizlari bilan o‘z oilasining avlod-ajdodlarining nomus-origa chuqur ehtiromga, insonning shaxsiy vijdoniga, burchga va o‘z so‘ziga sodiqlikka borib taqaladi. Kishilarimizning vatanparvarligi hamma vaqt sevimli xalqning shon-sharafi, qadr-qimmati, madaniyati va an’analariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda o‘z ifodasini topib keldi. Vatanparvarlik fuqarolar yakdilligi yosh va mustaqil O‘zbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o‘zgartirish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishga yordam beradi.

Baynalminallik – har bir kasbda muhim omil. Odam millatini va vatanini sevish bilan birga boshqa millat tarixini, ma’naviyat va qadriyatlarini o‘rgana boshlaydi. Odam boshqa xalqlar madaniyatini o‘rganish jarayonida, ularda ham juda ko‘p qadriyatlar, adabiyot va san’atlari bor ekanini bilib oladi. Shundan keyin yaqin va uzoq xorijdagi xalqlar ma’naviyati va madaniyatini chuqurroq o‘rgana boshlaydi.

O‘rganish jarayonida, ularga mehri oshib, sekin-asta ularni ham o‘z millati qatorida yaxshi ko‘radigan bo‘ladi. Baynalminal tuyg‘uga ega odam komillikka etishgan hisoblanadi. Bu yer yuzida haqiqiy tinchlik va totuvlikni o‘rnatish, umumjahon iqtisodiyotini taraqqiy ettirish, pirovard natijada dunyoda farovon hayot o‘rnatilishining asosiy omili va garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Insonparvarlik (gumanizm) – bu xislati mavjud kasb egasi umuminsoniy qadriyatlarni tan olibgina qolmay, ularni bor kuchi bilan muhofaza qiladi. Umuminsoniy qadriyatlarga: har bir insonni shaxs sifatida tan olishlik, yashash, mehnat qilish, sevish va sevilish, o‘z iqtidorlarini istalganicha namoyon qilish huquqlari kiradi. Insonparvar kishi odamdagi ushbu insoniy huquqlarni tan olib, ularning buzilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Ushbu ta’riflarga xulosa qiladigan bo‘lsak, yuqorida sanab o‘tilgan shaxsning ijobiy fazilatlari uning kasbiy xislatlarini shakllantirishda muhim omillar bo‘lib hisoblanadi. Shunday ekan, yoshlarni turli kasblarga tayyorlashda ularni hisobga olishimiz zarurdir.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilariga ta’lim berishda ham zamonaviy pedagogikaning asosiy prinsiplaridan biri - shaxsni jamiyat hayotiga tayyorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan (ijtimoiy integratsiya va sotsiokorreksiya) tamoyilini ta’minlashga e’tibor qaratilishidir.

Bosqichlar orasida mantiqiy izchillik, davomiylik va uzluksiz bo‘lishini ta’minlashga katta e’tibor berilgan. Shuning uchun quyi bosqichlarda o‘quvchilar egallagan bilimlarini yuqori bosqichlarda davom etishlari uchun zamin yaratiladi.

Biz har bir kasb egasida bo‘lishi lozim bo‘lgan shaxsiy fazilatlarning ma’lum qismini aniqlashga va ro‘yxat asosida tartiblashga harakat qildik:

1. Haqqoniylik. 2. Vatanparvarlik. 3. Olijanoblik. 4. Tashabbuskorlik. 5. O‘ziga tanqidiy yondashish. 6. Samimiylik. 7. Xushmuomalalik. 8. Pokizalik. 9. Qat’iyatlilik. 10. Talabchanlik. 11. Insonparvarlik. 12. Sabr-toqat. 13. Kamtarlik. 14. Faollik. 15. Kechirimlilik. 16. Saxovatlilik. 17 Poklik.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlarini anglashlari o‘qish, o‘yin va sport faoliyatlari bilan namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda ta’lim muassasalaridagi odatlanilmagan vaziyatlarning shaxslararo munosabat va muloqot ko‘lami endilikda kengaydi. Bu hol yoshlarning aqliy, irodaviy xususiyatlarini oqilona baholash, qo‘yilayotgan talablarga javob tariqasida yondashishni jadallashtiradi.

Albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular o‘zlarining yutuq va kamchiliklarini, kuchli va zaif jihatlarini, ijobiy va salbiy qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga doim ham ega bo‘lmaydilar. Ularda shaxsiy fazilatlarni, xulq-atvorni, aqliy va jismoniy hamda o‘quv faoliyatni tahlil qilish, qiyosiy baholash masalasi dolzarb emas. Shuni ta’kidlash lozimki, ayrim hollarda o‘quvchilar o‘z xatolarini baholashga urinmaydilar. Pedagogik tashxislash natijalaridan shu narsa aniqlandiki, ular o‘z xususiyatlariga ortiqcha baho berib, yosh bolalikka xos bo‘lgan kibrlanish, maqtanchoqlik, manmanlik kabi odatlari ham mavjuddir. Shuningdek, ayrim bolalar aksincha o‘z shaxsiy fazilatlarini umuman baholay olmaydilar.

O‘tkazilgan anketa so‘rovnomalarimizda aksariyat boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kasb va burchni fahmlashga moyilliklarini bildirdilar. Masalan, so‘rovda qatnashgan 36 ta qiz boladan 19 tasi muayyyan kasb deganda “ishga borib kelish”, “boshqalarga yordam qilish” bo‘yicha harakat qilishni tushunadilar. 33 nafar o‘g‘il bolaning 14 tasi kasb deganda “kattalarning band bo‘lishini” tushunadilar. Yoshlarning aksariyati “Mustaqil O‘zbekistonning ravnaqiga o‘z hissamni qo‘sha olamanmi?” va “Kelajakda o‘zim tanlaydigan kasb haqida nimani bilaman?” kabi savollarga javob qidirishda juda jiddiylik, mas’uliyat, ayrim hollarda bir oz hazil bilan yondashganliklarining guvohi bo‘ldik.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zlarining bo‘lajak kasb fazilatlari haqida yaqqol tasavvur hosil qilish uchun o‘qituvchi, pedagoglar jamoasi juda ustalik, bilimdonlik, mohirlik bilan faoliyat ko‘rsatishi lozim. Ular o‘zlarining do‘stona, iliq munosabati bilan guruh jamoasi bilan birgalikda harakat va mehnat qilish hissini paydo qilishga zamin yaratadi.

1. O‘zbekistondagi zamonaviy pedagogik qarashlarda, masalan, pedagog olimlar I.Tursunov va U.Nishonaliyevlarning «Pedagogika» nomli asarida shaxsning kasbiy va umuminsoniy xislatlarini olti jihatga bo‘lib o‘rganish taklif etiladi.

Umuman olganda, shaxsning kasbga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishda muhim bo‘lgan juda ko‘p insoniy xislatlar mavjudligi qayd qilinadi.

I. Shaxsning kasbiy-umumiy xislatlari: 1. Madaniyatlilik. 2. Bilimlilik. 3. So‘zamollik. 4. Kamtarlilik.

II. Axloqiy xislatlar: Odamiylik. 2. Do‘stonalik. 3. Oliyjanoblik. 7. Xushmuomalalik.

III. Ishchanlik, uddaburonlik xislatlari: 1. Quntlilik. 2. Halollik. 3. Tirishqoqlik. 4. Ijro etuvchilik. 5. Chaqqonlik. 6.Saranjom-sarishtalik.

IV. Zakovatlilik, zukkolik xislatlari: 1. Zehnlilik. 2. Xotirjamlik. 3. Topag‘onlik. 4. Savodxonlik. 5. Sinchkovlik.

V. Irodaviylik, chidamlilik xislatlari: Serg‘ayratlik, intizomlilik.

VI. Ehtirosli xislatlar: Hazilkashlik, ishonuvchanlik, kek saqlamaslik, ozodalik.

Shaxsning tuzilishi, uning xislatlarining ta’riflanishi, shaxs yashayotgan jamiyat vazifalarini hal etishdan kelib chiqib, ta’riflanadi. Shaxsning jamiyatda o‘zini tutishini namoyon qiladigan va jamiyat a’zolari bilan munosabatlarda bo‘ladigan xislatlar - fazilatlar majmui - ijtimoiy fazilatlar sifatida mujassamlanadi. Ijtimoiy fazilatlar - shaxsning dunyoqarashi, axloqi, xulq-atvori, madaniyati, nafosati, ichki va tashqi go‘zalligi munosabatlarda yuzaga chiqadi. Bu munosabatlar salbiy va ijobiy bo‘lishi mumkin. Masalan, jamiyatda shaxsning mehnat xislatlari mehnatsevarlik - mehnat jarayoniga, buyumlariga kishilarga hurmat hissida, yoki aksincha, ishyoqmaslik, dangasalik ko‘rinishlarida ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Shaxsning hayotiy tajribasi unda kasbiy sifatlarning shakllanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Hayotiy tajriba turli ma’lumotlardan, bilimlardan xabardorligi darajasi ham ushbu omilning, qanday darajada taraqqiy etganligining belgilaridan hisoblanadi. Bu belgilar shaxsning o‘qimishliligi, bilimdonliligiga uning o‘z harakat usullarini qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajara olishida, ko‘nikma va mahorat darajasida ko‘rinadi. Albatta, ushbu holatni o‘quvchilarning muassasadagi o‘quv-o‘rganish faoliyatiga taqqoslasak, uning onglilik darajasi turli fanlardan ma’lumotlarni o‘zlashtirish (xotiraga ko‘chirib olish), og‘zaki aytib bera olish, turli ko‘nikma va malakalari misollar va mashqlarni yechish, bajarish, mehnat jarayonida ishtirok etishida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Tursunov I., Nishonaliev U. Pedagogika kursi.– T.: O‘qituvchi, 1997. - 232 b.
2. Abdullaeva SH.A. O‘quvchilarni pedagogik tashxislashda qo‘llaniladigan metodlar // Xalq ta’limi, 2003, №3. 40-45 betlar.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. – Ташкент, 2000.
4. Беспалко В.Р. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: Педагогика, 1989.
5. Бордовская Н. Педагогика, 1995.
6. Галперин П.К. К теории программированного обучения. – М., 1967.
7. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2006. – 263 b.

UDK: 74:37

RANGTASVIR SAN’ATINING TA’LIM VA TARBIYADA TUTGAN O‘RNI

Sh. B. Oydinov
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Taqdim etilayotgan ilmiy maqola O‘zbekiston rangtasvir san’ati namunalari haqida bo‘lib ulardan ba’zilari badiiy tahlil etilgan. Rassomlarning his-tuyg‘u va fikrlari, rang-barang ijod olami tasviriy san’atdagi ro‘y bergan o‘zgarishlar hamda rangtasvir san’atini estetik jihatdan ta’lim va tarbiyada tutgan o‘rni haqidagi fikr va mulohazalar ilmiy bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Rangtasvir san’ati, Afrosiyob, Bolaliktepa, Varaxsha, devoriy suratlar, miniatyura, natyurmort, manzara, estetik, ta’lim va tarbiya, go‘zallik.

Роль живописи в образовании и воспитании

Аннотация. В данной статье расскрываеться примеры живописного искусства Узбекистана и их художественный анализ. Приведены научно обоснованые эмоции и мысли художника, красочные творения в мире изобразительного искусства, живописи и художественного образования эстетических аспектов изменений, которые имели место и роль в образовании.

Ключевые слова: искусство живописи, Афросияб, Болаликтепа, Варахша, настенные рисунки, миниатюра, натюрморт, пейзаж, эстетика, образование и воспитание, красота.

The role of oil painting in the process of education

Abstract. The article is about the samples of oil paintings of Uzbekistan and by this paper some of them were analyzed from the artistic point of view. Here the followings were explained from scientific point of view: the feeling and thoughts of painters, their rich creativeness and changes, which took part in the graphic arts and the role of oil painting in the process of education from the aesthetics point of view as well.

Keywords: Oil painting, Afrasiab, Bolaliktepa, Varaxsha, wall paintings, miniatures, still life painting, landscape painting, aesthetics, process of education, richness.

Mustaqillikga erishgan yillarimizdanoq Vatanimiz tarixida ilm-fan, san'at, madaniyat, adabiyot, ma'naviyat va ma'rifatga bo'lgan e'tibor oshdi. Natijada bunyodkorlik ishlariga o'zining munosib hissasini qo'shgan buyuk ajdodlarimizni anglay boshladik. Ulg'ayib kelayotgan yoshlarimiz esa buyuk yurt farzandlari ekanliklaridan xabordor bo'lib, faxrlanmoqdalar. Vatanimiz tarixida, o'chmas iz qoldirgan insonlar – Imom al-Buxoriy, Hakim at-Termiziy, Xo'ja Bahouddin Naqshband, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Amir Temur kabilarni nomlari qayta tiklandi. Shu kabi o'zbek mutafakkirlari – Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Muhammad Murod Samarqandiy, Zaxriddin Muhammad Boburlarning nomlari g'urur bilan tilga olinmoqda. Ularning ijodini va boy madaniy merosini o'rganmoqdamiz.

O'sib, ulg'ayib kelayotgan yoshlarni har tamonlama yetuk, barkamol bo'lib etishishlarida buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy, madaniy merosining ahamiyati juda kattadir. Tariximizni qanchalik chuqur va yaqindan o'rgansak uning yuqori darajada rivojlangan sohalari qatorida tasviriy san'atning ham o'z o'rni borligiga amin bo'lamiz. Tasviriy san'at – eng qadimiy va keng tarqalgan san'at turlaridan biridir. U o'z o'rnida grafika, rangtasvir va haykaltaroshlik kabi turlarga bo'linadi.

Tasviriy san'at turlari ichida rangtasvirning o'ziga xos tamonlari bor. Rangtasvir haqida fikr yuritar ekanmiz, uning rangli bo'yoqlar vositasida qog'ozga, matoga, devorga xullas tekisliklar yuzasiga ishlanadigan san'at deb bilamiz. Rangtasvir asarlari mazmunini ochib berishda ranglar muhim rol o'ynaydi. Rangtasvir san'ati tarixi ibtidoiy odamning g'or devorlariga chizgan rasmlaridan boshlanadi. O'zbekiston hududida ham qadimdan ajdodlarimiz tamonidan yaratilgan rangtasvir namunalari kishilarni necha asrlardan beri o'ziga rom qilib kelmoqda. Bulardan eng qadimiylari ibtidoiy Zaravutsoy, Sarmishsoy kabi tasvirlar hisoblanadi. Bu tasvirlarda ov manzarasidagi turli rasmlarni ko'ramiz. Bular qadimgi odamlarning hayotini, turmush tarzini tasavvur qilishga yordam beradi. Rangtasvir san'atidagi yutuqlarni kulolchilik namunalari bo'laklarida, tuproq ostida saqlanib qolgan binolarning devorlariga ishlangan suratlarda batafsilroq ko'rish mumkin. Samarqandning qadimiy o'rni Afrosiyobdagi devoriy rasmlar, Buxorodagi Varaxsha, Surxondaryoda joylashgan Termiz yaqinidagi Bolaliktepa tasviriy san'at namunalari bunga misol bo'la oladi.

Afrosiyob nomi bilan yuritilayotgan qadimgi devoriy rasmlarda rangtasvir san'atining rang-barang va nafis namunalari mavjud. Rasmdagi tasvirlarda sharq xalqlariga xos ko'rinishlar ifodalangan. Bu suratlarni kuzatar ekanmiz, rassom devoriy rasmda keng manzarani qamrab olishga intilganini ilg'aymiz. Bu devoriy suratlar chizilgan xona mehmonxona ekanligi ma'lum. Rahim Hasanov "Tasviriy san'at asoslari" qo'llanmasida: …"Mehmonxohaning to'rt tamoniga turli devoriy rasmlar ishlangan. Mehmonxona devorlaridagi rasmlardan birida bir erkak va ayol suhbatlashib o'tirgani aks ettirilgan. Umuman, mehmonxonaning devorlarida to'y safari, daryoda cho'milish, elchilarni qabul qilish marosimi, ov kabilar aks ettirilgan. To'y safari aks etgan rasmda oq rangdagi filda malika, saman ot mingan shoh-kiyov aks etgan. Shuningdek, malikani kuzatib ketayotgan kanizaklar ham tasvirlangan"… [1]deb yozadi. Teparoqda joylashgan manzarada oq qushlar tasviri esa devoriy suratga yanada badiiy mazmun kiritgan. Tasvirda oq qushlarning harakati bir-biriga uyg'unlashib ketganki bu manzarada o'ziga xos musiqiy ohang jaranglab turgandek. Kompozitsiyaning rangga boy qilib tasvirlanganligidan Afrosiyob tasviriy san'ati nihoyat darajada badiiy yutuqlarga ega ekanligini ko'ramiz. Devoriy suratlarning juda ko'p qismi turli sabablarga ko'ra o'chib ketgan. Tasvirlardagi turli qush va hayvonlar tasviri anatomik tuzilishiga mos aks ettirilgan. Bu esa musavvir mahoratidan darak beradi. Afrosiyob devoriy rasmlari nafaqat tasviriy san'atimiz merosini, balki butun sharq xalqlari tarixini o'rganishda ham juda katta ahamiyatga ega.

Termiz yaqinidagi Bolaliktepa yodgorligidan topilgan bino devorlarining to'rtala tomoni ham turli ko'rinishdagi rangdor tasvirlar bilan to'ldirilgan. Bolaliktepa rangtasvir san'atida odamlarning kayfiyati, o'zaro munosabatlari, xarakterlari rassomlar tomonidan o'ta ustalik bilan tasvirlangan. Umuman obrazlarning xatti-harakati, qiyofalaridagi ko'rinishlar qandaydir to'y yoki bayramona marosimni aks ettirmoqda.

Buxoroning qadimgi madaniy markazlaridan biri – Varaxshadan ham devorlari suratlar bilan bezatilgan hashamatli saroy qoldiqlari topilgan. Bu me'morchilik obidasi va undagi san'at namunalari sharq xalqlariga xos madaniy aloqalar qay darajada bo'lganligini o'rganish imkoniyatini ham ko'rsatib beradi. Umuman, tasvirlar rang-barang manzaralar bilan boyitilgan va ma'lum bir go'zallikni o'zida mujassamlashtirgan. Devoriy suratlardagi tabiat manzaralari turli daraxtlar ko'rinishlari bilan o'zgacha ma'no kasb etgan.

Umuman o‘tmish tasviriy san’ati me’morchilik san’atining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Nozik va nafis, rang-barang devoriy suratlar, haykaltaroshlik namunalari me’morchilik san’atini boyitibgina qolmasdan, u bino va xonalarni nima uchun, kim uchun xizmat qilganini ham har tomonlama aniqlab bergan. Qadimgi musavvirlar o‘z hunarlarini tugal egallagan mohir san’atkor ekanliklarini ular yaratgan tasvirlarning me’yoriga yetkazib ishlaganligidan, obrazlar xarakterlarini to‘laqonliligidan yaqqol sezish mumkin. Albatta, qadimgi rassomlarning barcha tuyg‘u va fikrlari, shuningdek, rango-rang ijod olami va mo‘yqalamining sehrli tasvirlari to‘la-to‘kis bizgacha saqlanib kelmagan.

Vatanimiz hududiga Islom dinining kirib kelishi bilan tasviriy san’atda o‘ziga xos o‘zgarishlar ro‘y beradi. Yozma manbalarning yoritilishi bo‘yicha bir qancha vaqt rassomlar asarlarida jonli mavjudotlarni tasvirlashda cheklanishlar ro‘y beradi. Islom dini va tasviriy san’at haqida fikr yurutib, falsafa fanlari nomzodi dotsent N. Oydinov o‘zining “Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari” monografiyasida shunday fikrlarni keltirib o‘tadi …“islom dini va muqaddas Qur’on kitobi tasviriy san’at asarlarini mutlaqo taqiqlagan degan fikrlarga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Tarixdan ma’lumki, islom dini ta’limotini to‘la-to‘kis bilmagan ayrim shariat peshvolari xatti-harakatlari tufayli tasviriy san’atga nisbatan keskin fikrlar, hatto vahshiyliklar yuzaga kelgan. Yana shuni aytish kerakki, islom dinining keng tarqalishini ta’minlash uchun butlar, sanamlarni, xudo tasvirlarini keskin chegaralash ham zarur bo‘lgan”… [2]. Shu sababli bu davrda asosan turli tasvirlar o‘rniga amaliy san’at keng rivojlanganligi, me’morchilik amaliy bezak san’ati orqali, rangli naqshlar orqali bezatilishi nihoyat darajada rivojlangani kuzatiladi. Professor Saidaxbor Bulatov “O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati” kitobida: …“IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda naqqoshlik san’ati avj olib rivojlandi. Me’morchilikda g‘isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yo‘g‘och o‘ymakorligini qo‘llash yuksak darajada rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch-naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi”… [3]. deb takidlaydi.

XI-XII asrlarda tasviriy va amaliy san’at bir-biri bilan o‘zaro uyg‘unlashgan holda rivojlangani ma’lum. San’atkorlar ijodida turli geometrik shakllardan tashqari, o‘simliklar, hayvon va qushlar tasviri bo‘lgan naqshlardan foydalanilgan. O‘sha davr hukmdorlari va boy zadogonlarining qasr va uylari, mehmonxonalar devorlari suratlar bilan bezatilganligi haqida ma’lumotlar saqlanib qolgan. Bu suratlarda jang, ov manzaralari, qabul marosimlari va bazmlar tavirlangan. O‘rta Osiyoga Chingizxonni bosqinchilik yurishi Vatanimiz hudududa gullab-yashnab turgan san’at va madaniyatini vayron qiladi. Uning ijodkorlari esa qirib yuboriladi.

Sohibqiron Amir Temur davriga kelib ilm-fan, san’at va madaniyat yuqori darajada taraqqiy etganligi ma’lum. O‘z davrida Amir Temur Samarqandni yirik madaniyat markaziga aylatirgan. Bu yerda ko‘plab bog‘lar yaratilgan. Ayrim qasrlarning devorlari turli tasviriy san’at asarlari bilan bezatilganligi haqida fikrlar mavjud. Umuman, bu tarixiy tasviriy san’at asarlarining asosiy qismi bizgacha deyarli saqlanib qolmagan bo‘lsada, ushbu davr tasviriy san’at namunalarning ma’lum va mashhurligi ko‘pchilikka sir emas.

XIV – XV asrlarga kelib qo‘lyozma kitoblarning qayta ko‘chirilishi natijasida ko‘plab tasviriy san’at namunalari yuzaga keladi va ular kitobat san’atini yanada boyitadi. Bu asrlarda asosan shoh, saroylardagi hayotiy voqealar tasvirlab beriladi. Amir Temur davrida ijod etgan tasviriy san’at ustalaridan mashhur ustod Gung yozma manbalardagi taxminlarga qaraganda monuviylik tariqati vakillaridan ta’lim olgan bo‘lishi mumkin degan fikrlar mavjud. Temuriylar davri nafis tasviriy san’ati haqida o‘zlarining “Miniatyura tarixidan lavhalar” kitobida N. Norqulov, I. Nizomiddinovlar shunday yozadilar. “Devorga surat chizish san’ati Mirzo Ulug‘bek zamonida yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarildi” … [4]. Temur faoliyatidan so‘ng esa Samarqandda Mirzo Ulug‘bek davrida tasviriy san’at yanada rivojlanganligi bizga yozma manbalardan ma’lum. Temuriylar zamonasida sharqona miniatyura san’atini bir qancha maktablari va uning buyuk ijodkorlari yuzaga keldi. Natijada temuriylar davrda shakllangan nafis tasviriy san’atning dovrug‘i jahonga yoyiladi.

Hirot «Nigoriston» maktabi jahon tasviriy san’ati maktablari ichida oldingi saflarda turadi. Aynan shu maktabda Kamoliddin Behzod buyuk musavvir sifatida kamolga yetgan. Kamoliddin Behzod sharq allomalari Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy kabi mutafakkirlarning asarlarini tasvirlar orqali yanada jonlantrib targ‘ib etadi. Kamoliddin Behzod ishlagan tasviriy san’at asarlari orasida Abdurahmon Jomiy, Husayin Boyqoro, Alisher Navoiy va Shayboniyxon suratlarini ham uchratish mumkin. Behzod va uning ilg‘or zamondoshlari ijodida dunyoviy mavzu yetakchi hisoblangan. Bu maktab ijodkorlari islomdan avvaligi davrlarga ham nazar tashlay olganlar.

Kamoliddin Behzod ijodining olamshumulligi shundaki, u o‘chmas maktab yarata oldi. Uning ijodidan ilhomlangan Qosim Ali, Sulton Muhammad, Muzafar Ali, Yusuf Mullo, Rustam Ali, Mirsaid Ali,

Mahmud Muzahhib, Abdullo kabi ko‘pgina musavvirlar miniatyura san’ati va kitobat san’ati ravnaqi uchun xizmat qildilar.

O‘zbek she’riyatining sultoni Alisher Navoiy obrazini Kamoliddin Behzoddan tashqari Mahmud Muzahhib ham rangtasvirda yaratgan. Miniatyura san’ati ustasi Mahhmud Muzahhib asli Hirotda Kamoliddin Behzod qo‘lida ta’lim olgan. Musavvir Alisher Navoiyni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va Kamoliddin Behzod ustozligidagi nafis san’at maktabini o‘tagani ma’lum. Maskur portret Navoiy zamonasidan bir oz keyin yaratilgan bo‘lsada yuqoridagi fikrlar uning haqiqatga yaqinligini aynan ta’kidlab turibdi. Mashhur portretda keksa va nuroniy chehrasidan iliq tabassum balqib turgan buyuk bobomiz Alisher Navoiyga xos o‘ta zukkolik hamda donolik yaqqol ko‘rinib turubdi.

Keyingi davrlarda me’morchilik san’atida tasviriy va amaliy san’at uyg‘unlashib jonli mavjudotlar ishtrokida mahobatli devoriy rangtasvir asarlari yaratiladi. Samarqand shahridagi Registon ansambilining Sherdor maqbarasidagi sher va ohu ishtrokidagi kompozitsiya bunga misoldir.

O‘zbekiston hududidagi rangtasvir san’at namunalari yurtimiz ahlining ajdodlari juda ko‘hna va boy madaniyat va san’at sohibi ekanligidan, ularning yuksak badiiy saviyada asarlar yaratganligidan darak berib turibdi.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusidir. Shu sababli ulg‘ayib kelayotgan yoshlarga ta’lim va tarbiya berishda Vatanimiz hududidagi o‘tmish rangtasvir san’ati bilan yaqindan tanishtrishning ahamiyati katta.

Mahobatli rangtavir san’ati haqida fikr yuritganda O‘zbekiston xalq rassomi, mahobatli devoriy rasmlarning mohir ustasi Chingiz Axmarovni eslamasdan o‘tolmaymiz. Rassom yoshlik yillaridanoq O‘zbekistonning tarixiy me’morchilik obidalariga mahliyo bo‘lib, ulardagi amaliy san’at sirlariga qiziqadi. Hamda o‘zbek milliy adabiyotiga, she’riyatiga bo‘lgan qiziqishi tufayli sharqona asarlar yaratishga intiladi. Jumladan buyuk bobomiz Alisher Navoiy asarlarini rangli bo‘yoqlar orqali yanada jonlantrishga harakat qiladi. 1945-yilda yaratilgan “Shirin portreti”da o‘zbek ayollariga xos go‘zallik, iffatlilik va o‘ta nazokatli xususiyatlarni rangli bo‘yoqlar orqali tasvirlashga muvaffaq bo‘ladi. Chingiz Axmarov butun hayoti davomida samarali mehnat qilib ko‘plab go‘zal asarlar yaratish bilan bir qatorda ajoyib rassom shogirdlarga ustozlik qildi. Ular orasida Temur Sadullayev, To‘xtabek Sobirov, Sobir Jumamurodovlarni alohida aytib o‘tish o‘rinlidir.

Mamlakatimizda yoshlarning tasviriy san’at orqali tarbiyalanishiga ularning ilk yoshlik davrlari, bog‘cha yoshidan boshlab e’tibor qaratiladi. Bolalar atrofidagi voqelikni o‘zlaricha talqin qilib boradilar. Ularning tasviriy san’at bilan yaqindan tanish bo‘lib borishlari dunyoni to‘g‘ri anglab olishlarida yordam beradi. Rassomlar asarlarini kuzatish bilan birgalikda, badiiy tahlil qilishning o‘rni va ahamiyati katta. Mustaqillik yillarida ham rangtasvirda ko‘plab asarlar yaratib ijod qilgan rassom istedodli mo‘yqalam sohibi, ustoz pedagog professor G‘ofir Abduraxmonovdir. U kishi tasviriy san’atining ko‘pgina janrlariga dadil murojaat qila olgan. Rassom ayniqsa mavzuli kompozitsiyalar ishlab manzara, natyurmort, portret janrlarida samarali ijod qiladi. Rassom ijodining ajralmas va o‘ziga xos tamonlaridan biri natyurmort janri bo‘lib, o‘z natyurmortlarida ona tabiat sahovatini mahorat bilan tasvirlab beradi. G‘ofir Abduraxmonovning asarlarini kuzatsangiz tasvirlardagi go‘zal ko‘rinishlar nozik chizgilar, rassomning naqadar nafis didli ekanligidan dalolatdir. Sharqimizning chiroyli tabiati, sof havosi, yeri, sarviqor tog‘lari, sermeva bo‘g‘lari, o‘simligi, hayvonot dunyosi, qo‘yinki barcha-barchasini rassom asarlarida ustalik bilan ifodalangan. Rassomning asarlaridan “Baqqol” deb nomlangan natyurmort asarini badiiy tahlil qilinsa quyidagicha ta’riflash mumkin. “Baqqol” asarini tomosha qilar ekansiz beixtiyor turli hayollar olamiga chumasiz. Tasvirda aks etgan buyumlarni birma-bir ko‘zdan kechirar ekansiz, qandaydir ko‘nglingizda mayin iliqlik sezasiz. Qalban yuzingizga tabbasum yugurganday bo‘ladi. Asar sizni huddi o‘zi bilan so‘zlashishga chorlayotgandek tuyiladi. Kompozitsiya jihatidan murakkab tuzilgan bu natyurmotda uy-ro‘zg‘or buyumlari, mevalar, rangli matolar ranglar jilvasi orqali jonli ifodalangan. Natyurmortning orqa ko‘rinishida milliy mis ko‘za, uning yuqori qismida qovun hamda kartinaning chap tomonini o‘rta qismida yana bir qovun tasvirlari joylashgan. Bu uchala predmetni rassom shunday joylashtirganki, natyurmort tuzish va kompozitsiya qoidalaridan mohirona foydalanilgani yaqqol ko‘rinib turibdi. Tasvirning oldi qismida tarozi va uning toshlari joylashishi, natyurmort mazmunni ochib berishga hizmat qiladi. Shuningdek, natyurmortda sopol idishga solingan turli xil mevalar hamda uy ro‘zg‘or buyumlari tasvirlangan. O‘tmishimizni eslatuvchi jundan to‘qilgan milliy gilam ham o‘z o‘rnida joylashtirilgan. Asar kompozitsiya jihatidan mukammaldir. Rassom G‘.Abdurahmonov «Baqqol» natyurmortini rangtasvirda ifoda etib, undagi buyumlar shaklini, materialligini, yorug‘-soyalarni, tekisliklarni aniq ko‘rsatib bera olgan. Asar shunchalar mahorat bilan ishlanganki, tasvirdagi har bir predmetga nazar solinsa, go‘yoki ularni qo‘lingiz bilan ushlab ko‘rishigiz mumkindek bo‘ladi. Chunki, undagi barcha narsalar tasviri bo‘yoqlar yordamida asli kabi tabiiy tasvirlangan. «Boqqol» natyurmorti zo‘r mahorat bilan tasvirlangan

asar deb hisoblanadi. Asarni tahlil qilar ekanmiz ayniqsa mis ko‘zaning orqa tomonida xiyol ko‘rinmas qilib tasvirlangan piyola kishi diqqatini tortadi. Tashqi tamoni qizil rangda ifodalangan bu piyola, atayin natyurmortni qiziqarli chiqishi uchun ham bir oz ko‘rinmas qilb joylashtrilganmi? degan savol tabiiy tug‘iladi. Yoki piyolani to‘liq ko‘rinadigan qilib tasvirlasa qanday bo‘lar edi degan fikrlar beixtiyor yodga keladi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki «Baqqol» natyurmorti kishini fikrlashga, o‘ylashga, shuningdek, tomosha qilishga chorlaydi.

Maromiga нetkazib ishlangan rangtasvir asarlari kishi ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta’sir etishini so‘z bilan ifoda etish qiyin. Albatta har bir tasviriy san’at asarini ko‘z bilan ko‘rib, qalb bilan sezish, his etish kerak. Rassomlar tomonidan yaratilgan rangtasvir asarlari har biri kishi qalbida hayajon uyg‘otadi. Kishilarni go‘zallikga chorlab, uning estetik dunyo qarashining shakllanishiga ijobiy tasir ko‘rsatadi. Shuningdek, yoshlarni har tamonlama bilimli va yetuk, barkamol bo‘lib etishishlariga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Hasanov R. Tasviriy san’at asoslari. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashiryot matbaa –ijodiy uyi, 2009. –64 b.
2. Oydinov N. Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari. –T.: “O‘qituvchi”-“Ziyo-noshir”, 1997. – 81 b.
3. Bo‘latov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. –T.: Mehnat, 1991. –143 b.
4. Naim Norqulov, Ilyos Nizomiddinov. Miniatyura tarixidan lovhalar. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashryoti, 1970. – 57 b.

UDK: 796.8

SPORT MASHG‘ULOTLARIDA JISMONIY YUKLAMALAR TAVSIFI

R. T. Sultonov
Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Mazkur maqolada sport mashg‘ulotlarida jismoniy yuklamalarining tavsifi tahlil etilgan. Jismoniy yuklamalarning o‘ziga xos xususiyatlari, mashg‘ulotlar jarayonida ularning sportchi organizmiga ta’siri, yuklamalarning tuzilishi va mazmuni tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: sport mashqi, jismoniy yuklama, yuklamalar xarakteri, pedagogik nazorat.

Характеристики физической нагрузки на тренировках

Аннотация. В данной статье анализированы характеристики физической нагрузки в процессе спортивной тренировки. Изучены особенности структуры физической нагрузки и их влияние на организм спортсмена.

Ключевой слово: спортивной тренировки, физической нагрузки, характер нагрузок, педагогической контроль.

Characteristics of physical load in sport training

Abstract. In this article characteristics of physical loads in sport training are analyzed. Main features of structure of physical load and it’s influences to organism of sportsmen are studied.

Keywords: sport training, physical load, physical loads’ character, pedagogical control.

Mavzuning dolzarbligi. Sportchini tayyorlashda eng asosiy vosita bu sport trenirovkasi ekanligi xususida mutaxassislar o‘z fikrlarini bildirib o‘tganlar. Darhaqiqat, sport turidan yoki sportchining malakasidan qat’iy nazar sport trenirovkasi sportchini tayyorlashning ustuvor vositasidir [1, 2]. Sport trenirovkasisiz tayyorgarlik hech qanday ahamiyatga ega emas. Ammo, shuni unutmaslik kerakki, sport mashg‘ulotlari ham ma’lum me’yorlar va talablar doirasida tashkil qilinadi va bizning fikrimizcha mazkur masala bugungi sport fani oldida turuvchi doimiy ilmiy muammo hisoblanadi.

Ushbu maqolani tayyorlashda biz sport mashg‘ulotlari jarayonida jismoniy yuklamalarning xususiyatlarini yoritib berishni ishning asosiy maqsadi sifatida belgilab oldik. Shuningdek, maqolani yoritish jarayonida quyidagi vazifalar bajarildi:

- *mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlil qilindi;*
- *sport mashg‘ulotlari pedagogik kuzatildi;*
- *olingan natijalar umumlashtirilib, xulosalar ishlab chiqildi.*

Mashg‘ulotlarda jismoniy yuklamalarning xususiyatlarini tushunish muhim ahamiyatga ega. Chunki, jismoniy yuklamalarning maqsadga muvofiq tarzda tashkil qilinishi sportchining sport mahorati ortishi bilan

birgalikda uning o‘sishi va rivojlanishiga ham u yoki bu darajada ta’sir qiladi. Umuman olganda jismoniy yuklama tushunchasi sportchi organizmiga beriladigan jismoniy mashqlar hajmi bilan tavsiflanadi. Jismoniy mashqlarning hajmi esa o‘z-o‘zidan mashqning shiddatliligi, mashqning qaytarilish soni va mashqning intensivligi kabi komponentlardan iborat [2, 3, 5].

Jismoniy yuklamalarning hajmi mashqning murakkablik koeffitsiyentiga ham bog‘liqligini alohida aytib o‘tish lozim. Mashqning murakkablik koeffitsiyenti qanchalik katta bo‘lsa, uni o‘zlashtirish shu darajada murakkab bo‘ladi. Mos ravishda jismoniy yuklamalar hajmi ham ortib boradi. Sport nazariyasiga doir ayrim adabiyotlarda [1, 2, 4] jismoniy yuklamalarni sportchi organizmiga mos tarzda berish kerakligi tavsiya etiladi. Jismoniy yuklamalar jarayonida dastlab qaysi bir xususiyatlarni inobatga olish kerakligi to‘g‘risidagi savol doimiy ravishda mutaxassislarni izlanishlarga undamoqda. Shuningdek, mazkur masala bugungi, zamonaviy sport mashg‘ulotlarining doimiy ilmiy muammosi qatoriga kiradi. Bu kabi savollarga yetarlicha ilmiy asoslangan, faktlar bilan xarakterlanadigan xulosalar va yechimlar to‘laligicha yoritib berilmagan.

Tadqiqotning tashkil qilinishi. Zamonaviy sport mashg‘ulotlari nazariyasi va amaliyoti fani oldida turgan eng asosiy masalalardan biri mashg‘ulot yuklamalarini maqsadga muvofiq tashkil qilishdir. O‘rganilayotgan mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan yoritish maqsadida ayrim sport turlari bo‘yicha mualliflar tomonidan mashg‘ulotlar tizimli ravishda pedagogik kuzatildi. Kuzatishlar va tahlillar Samarqand ixtisoslashtirilgan olimpiya zahiralari maktab-internatida tashkil qilindi. Turli darajadagi sportchilarning mashg‘ulotlari kuzatildi. Shuningdek, yetakchi murabbiylar va soha mutaxassislari bilan mavzu doirasida suhbatlar tashkil qilindi. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi va o‘rganildi. Adabiyotlardan olingan ma’lumotlar va ularning amaliyotdagi holati qiyosiy tahlil qilindi.

Muhokama. Mashg‘ulotni samarali rejalashtirish mashg‘ulot yuklamalarini asosli ravishda nazorat qilish va ular hajmini belgilashni yuzaga chiqaradi. Keyinchalik, murabbiy mashg‘ulot jarayonida jismoniy yuklamalarni bevosita nazorat qilish yoki boshqarib borish vazifasini to‘la amalga oshiradi. Ushbu jarayonni pedagogik qonuniyatlarga va yuqori darajadagi ilmiylikka tayangan holda olib borish maqsadga muvofiq. Mashg‘ulot jarayonini pedagogik nazorat qilish samarali metodlarni qo‘llash, mashqlar ketma-ketligini to‘g‘ri tuzish, ularni sistematik tarzda amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu jarayonda sport mashqi nazariyasining tamoyillarini inobatga olish ham muhim ahamiyatga ega.

Jismoniy yuklamalarni pedagogik nazorat qilishda murabbiyga qo‘yiladigan eng asosiy talab bu ilmiy salohiyatdir. Murabbiyning ilmiy-pedagogik jihatdan mukammalligi mashq yuklamalarini pedagogik nazorat qilishda asosiy o‘rinda turadi. Murabbiy mashg‘ulot jarayonining har bir bosqichini nazorat qilishi, sportchi tomonidan bajarilayotgan mashqlarning o‘zlashtirilishini kuzatib borishi lozim. Har bir mashg‘ulot yuzasidan o‘zining xulosalarini shakllantirishi va ularni tizimlashtirib borishi kerak.

Sport mashg‘ulotlari jarayonida jismoniy yuklamalarni pedagogik nazorat qilishda quyidagilarni inobatga olish kerak:

- mashg‘ulotning uslubiy jihatlari to‘g‘ri tashkil qilinishi;
- mashg‘ulotning aynan bir maqsadga qaratilganligi;
- mashg‘ulot vazifalarining ketma-ket va sistematik tarzda amalga oshirilishi;
- mashqlarning murrakkablik koeffitsiyenti sportchi imkoniyatlariga mos kelishi;
- mashg‘ulot jarayonida o‘zlashtirilayotgan (yoki o‘rgatilayotgan) mashqlarning bir-birini to‘ldirishi (bunda ilgarigi mashg‘ulot navbatdagisi bilan o‘zaro mantiqiy bog‘langan bo‘lishi lozim);
- mashg‘ulotlarning umumiy va motor zichligi holati;
- sportchi tomonidan texnika va taktikaning o‘zlashtirilishi;
- o‘zlashtirilgan mashqlarning sifat va miqdor jihatdan mosligi.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlardan tashqari yana bir qator mezonlar orqali pedagogik nazoratni amalga oshirish mumkin. Lekin, shunga qaramay yuqorida keltirib o‘tilganlar asosiy hisoblanadi.

Mashg‘ulotlar jarayonida jismoniy yuklamalar sport turining xususiyatlariga bog‘liq. Masalan, siklik sport turlarida (yugurish, suzish, kanoye va baydarka va h.k.) jismoniy yuklama jarayonidagi intensivlik va mashq tezligi asosiy o‘rinda tursa, asiklik sport turlarida mashqning takrorlanish soni muhim ahamiyatga ega. Siklik sport turlarida bir xil mashqning takrorlanishi (masalan, yugurish, yurish, suzish kabilarda) ushbu harakatni tez va shiddat bilan bajarishni taqozo qiladi. Shu sababdan ham mashg‘ulot jarayonida mashq takrorlanishiga alohida ahamiyat qaratishni ko‘rsatadi.

Asiklik sport turlarida esa aksincha, (masalan, gimnastika, kurash turlari va boshqalar) mashqlarni takrorlash orqali ularni puxta o‘zlashtirish mumkin. Chunki, asiklik sport turlarida sportchi tomonidan bajariladigan harakatlarning turli-tumanligi mashg‘ulotlar jarayonida texnik elementlarni imkon qadar ko‘p takrorlash evaziga ularni samarali o‘zlashtirish mumkinligini ko‘rsatadi. Sport amaliyotining ko‘rstishicha mashqlarni takrorlash natijasida ularni samarali o‘zlashtirish imkoniyati mavjudligi aniqlangan.

Bizning kuzatishlarimiz xulosalariga ko‘ra mashg‘ulotlar jarayonidagi jismoniy yuklamalar mazmuniga ko‘ra turlarga ajratiladi va bu biz o‘tkazgan kuzatishlar bilan aynan mos keladi.

1. Mashg‘ulot yuklamalarining to‘lqinsimon o‘zgarishi – bunda yuklamalar butun bir mashg‘ulotlar jarayonida yoki mashg‘ulotlarning ma’lum bir bosqichida to‘lqinlarni tashkil qiladi. Buning ma’nosi shuki,

bunda mashg‘ulot yuklamalari sekin-asta ko‘tariladi va ma’lum vaqtdan so‘ng pasayadi. Bu to‘lqinlar yil davomida (makrosikl) va yarim yillik, oylik (mezosikl) va haftalik (mikrosikl) to‘lqinlarda aks ettirilishi mumkin. Hatto bir mashg‘ulotning o‘zida ham jismoniy yuklamalarning ortib borishi va kamayishi to‘lqinlarni tashkil qilishi mumkin.

2. Mashg‘ulot yuklamalarining to‘g‘ri chiziqli o‘sishi - bunda mashg‘ulotlarning ma’lum davrida jismoniy yuklamalar mumkin qadar o‘sib boradi. Yuklamaning bu turi asosan sportchining iroda va chidamlilik sifatlarini tarbiyalashda keng qo‘llaniladi. Bu asosan yuqori malakali sportchilar mashg‘ulotlarida asosiy o‘rinni egallaydi.

3. Mashg‘ulot yuklamalarining pog‘onali o‘zgarishi – asosan jismoniy yuklamalarga moslashish jarayonida keng qo‘llaniladi. Bunda mashg‘ulotning ma’lum davrida yuklamalar o‘sib boradi va nisbatan stabil ravishda ushlab turiladi. Sportchi organizmi yuklamalarga moslashgach yuklamalar yana o‘sib boradi. Yuklamaning bu turi asosan adaptatsiya jarayonini muvofiqlashtirishda, sportchilarni jismoniy yuklamalarga moslashtirishda keng qo‘llanilishi tavsiya qilinadi.

4. Mashg‘ulot yuklamalarining* “sakrash” *yo‘li bilan o‘zgarishi – bunda jismoniy yuklamalar mashg‘ulotning ma’lum davrida maksimal darajada ortadi va xuddi shuningdek yana pastlaydi. Bu mashg‘ulotning butun bir davri mobaynida bir necha marotaba takrorlanishi mumkin. Asosan, tayyorgarlikning mezo va mikrosikllarda qo‘llash tavsiya qilinadi. Chunki mashg‘ulot yuklamalarining bunday tez sur’atlar bilan o‘sishi va pastlashi makrosikllar uchun xos emas.

Xulosa. Mashg‘ulotlar jarayonida jismoniy yuklamalarning xususiyatlari ularning mazmunidan kelib chiqib belgilanadi va sportchi organizmiga ta’sir qiladi. Yuqorida ularning o‘ziga xos jihatlari mualliflar nuqtayi nazari doirasida tavsiflab o‘tildi. Shu bilan birga jismoniy yuklamalarning umumiy va bir-birini bog‘lab turuvchi jihatlari ham mavjud. Bu umumiylikni sport mashg‘ulotlarini kuzatish va tahlil qilish orqaligina tushunish mumkin.

Sportchining yoshi, sport malakasi va uning darajasidan qat’iy nazar sportchini tayyorlashning ustuvor vositasi bu sport mashqidir. Shuningdek, mashg‘ulotlar jarayonida jismoniy yuklamalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular alohida ko‘rinishlar va mazmunga ega.

Mashg‘ulot yuklamalarining turlari va mazmuniga mos ravishda ularni tashkil qilish, to‘g‘rirog‘i, ularni sport organizmiga ta’sir ettirish o‘zgarib boradi. Shu bilan birga, ular alohida mustaqil tarzda sportchini rivojlantirish va musobaqalarga tayyorlash imkoniyatiga ega emas. Shu sababdan ham mashg‘ulot yuklamalari umumiy birlikka ega tizim sifatida talqin qilinishi lozim.

Adabiyotlar

1. Гончарова.О.В. Ёш спортчиларнинг жисмоний қобилиятларини ривожлантириш. –Тошкент, 2005. 24-бет.
2. Ю.Ф.Курамшин. Теория и методика физической культуры. – Москва, 2010. – 43-бет.
3. Матвеев.Л.П. Теория и методика физической культуры. – М.: Физкультура и спорт, 1991. – 21-22 бетлар.
4. Ю.В.Верхошанский. Управление тренировочным процессом в годичном цикле. 1983. 58 бет.
5. Ахмедов.Ф.Ш., Норбоев.К.Ж. Болалар спорт машғулотлари назарияси. –Самарқанд, 2016. – 36-37 бетлар.

UDK: 371.3:54

KIMYO FANINI O’QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA METODIK TIZIMNI ISHLAB CHIQISH

D. A. Shayzakova
Chirchiq davlat pedagogika institutit

Annotatsiya. Mazkur maqolada kimyo o’qituvchisini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini tashkil etish, boshqarish va samaradorlikka erishish yo’llarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash, pedagogik shart-sharoitlarni vujudga keltirish, uning mazmuni hamda vosita, metod va shakllarini metodik tizim sifatida ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurligi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O’qituvchi, yetuk mutaxassis, ilg’or, shakl, metod, vositalar, o’quv jihozlari, malakali o’qituvchi, o’qitish samaradorligi, zamonaviy texnologiyalar, ta’lim muassasalari, ta’lim jarayoni, kasbiy, bilimlarni shakllantirish, psixologik xususiyatlar, ehtiyoj, xohish-istaklari, muvaffaqiyat, shaxslar faoliyati, qog’ozlar, ruchkalar, buyoqli ruchkalar, chizg’ich, yozuv taxtasi, faoliyat, zamonaviy pedagogika, kasbiy ta’lim, trening,tanlov, ko’rgazma, istiqbol.

Развитие методологических систем при повышении эффективности химической подготовки

Аннотация. В данной статье освещается значение доказательств преподавателя химии научно-методическим путём организация процесса по улучшению профессиональной подготовки , управлению и достижению результатов, формирование педагогической среды , разработка тематики и способов, метода и форм как методическая система и их использование в практике.

Ключевые слова: Преподаватель, совершенный специалист, передовой, форма, метод, средство, учебные принадлежности, результативность, квалифицированный преподаватель, результат обучения, современные технологии, учебное заведение, процесс обучения, профессиональный, формирование знаний, психологические свойства, необходимость, желание, успех, деятельность личности, бумага, ручки, (красочные ручки) цветные ручки, линейка, письменная доска, деятельность, современная педагогика, профессиональное обучение , тренинг, выбор, показ, перспектива.

Development of methodological systems in improveing the efficiency of chemical training

Abstract. In the given article is illuminated the importance of Chemistry teachers proving by the scientific-methodical way the organization of the process for improving the professional preparation, conduction and achievement the results, formation of pedagogical atmosphere, working out the theme and ways, method and forms as the methodical system and their use in practice.

Keywords: Result, teacher, perfect specialist, leading, study implement, skilled teacher, teaching results, modern technologies, educational establishment, study process, professional, formation of knowledge, psychological characters, need, desire, success, form, method, means, personal activity, paper, pens, coloured pens, ruler, writing-board, activity, modern pedagogy, professional education, training, choice, display, vista.

Bugungi kunda ta’lim muassasalari yetuk mutaxassisni yetishtirishda muhim bo’g’in bo’lib hisoblanadi. Ularning ta’lim jarayoni eng ilg’or, zamonaviy texnika va o’quv jihozlari, malakali o’qituvchilar bilan ta’minlangan. Bu esa o’quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o’rin tutadi.

Keyingi yillar davomida ta’lim muassasalari uchun barcha o’quv va mutaxassislik fanlaridan Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish, fan dasturlari va darsliklar yaratish, malakali o’qituvchilar bilan ta’minlash kabi vazifalar amalga oshirildi. Navbatdagi vazifa, muayyan o’quv fanining o’qitish samaradorligini oshirishdan iborat bo’lib, uning yechimi sifatida ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan barcha fanlarni o’qitish samaradorligini oshirishning pedagogik asoslarini yaratish sohasida izlanishlar olib borishdir.

Ta’lim muassasalari faoliyatining muhim yo’nalishlaridan biri, bu ta’lim jarayonini tashkil etish, o’quvchilarda bilm, ko’nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iboratdir. O’quvchilar tomonidan ta’lim jarayonida egallangan bilimlarni mustahkamlash, ko’nikma va malakalar hosil qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o’ziga xos o’rin tutadi. Ayni vaqtda bu jarayonning muvaffaqiyatli tashkil etilishi o’z-o’zidan fanlarni o’qitish samaradorligini ta’minlaydi.

Ta’lim jarayonida o’quvchilarda barcha fan asoslarini puxta o’zlashtirishga nisbatan qiziqish va ehtiyojning vujudga kelishiga erishish, ularning bu jarayonga faol ishtirok etishlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim muassasalarida o’qitish samaradorligiga quyidagi shart-sharoitlar yaratilgandagina erishish mumkin:

- kimyo fanini o’qitish hamda ta’lim jarayonlari o’rtasida o’zaro aloqadorlik qaror topganda;
- kimyo fanini o’qitish aniq maqsad asosida tashkil etilganda;
- kimyo fanini o’qitish ta’lim musassasasi faoliyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo’lib, uni amalga oshirishga nisbatan jiddiy munosabatda bo’lganda;
- kimyo fanini o’qitish talabalarning mavjud ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etilganda;
- kimyo fanini o’qitishni amalga oshirishda talabalarning ichki ehtiyoj, xohish-istaklari, shuningdek, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida uyushtirilganda;
- kimyo fanini o’qitish sohasidagi tadbirlarning ko’tarinki ruhda tashkil etilishiga erishilganda;
- tadbirlarning mavzu, mazmun, sharoit va boshqa jihatlariga muvofiq turli shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishiga erishilganda;
- tadbirlarning o’tkazilishi uchun reja asosida jiddiy tayyorgarlik ko’rilganda;
- ta’lim muassasalarida kimyo fanini o’qitishni samarali tashkil etish sohasida erishilgan ilg’or ish tajribalari muntazam o’rganilib ommalashtirilganda;

- kimyo fanini o'qitishda ta'lim muassasasi, oila, mahalla hamda ishlab chiqarish tashkilotlari o'rtasida mustahkam aloqani qaror toptirish-ga erishilganda;

- ta'lim muassasalarida kimyo fanini o'qitishda ommaviy hamda axborotli texnologiya, kompьyuter, Internet tarmog'i va hokazo xizmatidan unumli foydalanishga erishilsa va boshqalar.

Ta'lim muassasalarida kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatning quyidagi shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishi muvaffaqiyatga erishishning muhim omillari ekanligi kuzatuvlar jarayonida aniqlangan:

- konferentsiya, seminar, trening, bellashuv, ilmiy izlanish, kimyo fani bilan bog'liq hodisalar, uchrashuv kabilar;

- og'zaki bayon qilish, amaliy, ko'rgazmali namoyish etish, mashq-lantirish, klaster, zigzag, aqliy hujum, muammoli vaziyatlarni hal etish, kubik kabilar;

- texnik va axborotli vositalar - radio, televidenie, kompьyuter, shuningdek, Internet xizmatidan foydalanish, shaxsiy namuna, muayyan shaxslar faoliyati, hayotiy voqea-hodisalar va boshqalar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirishning maqbul yo'llari sifatida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish ijobiy natijalar bera olishiga kuzatishlar jarayonida ishonch hosil qilish mumkin. Kimyo fanini o'qitish mazmunidagi tadbirlarni oldindan puxta ishlab chiqilgan loyiha asosida tashkil etish ta'lim muassasasida mavjud bo'lgan obьekti va subьektiv omillarni markazlashtirish va aniq maqsadga yo'naltirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Quyida mazkur reja asosida amalga oshirilgan faoliyat mohiyatini yoritish maqsadida uyushtirilgan tadbirlarning biri xususida batafsil so'z yuritamiz.

"Kimyo fanini o'qitish mazmunidagi tadbirlar loyhasini ishlab chiqish" deb nomlangan trening quyidagicha o'tkaziladi:

I. Tashkiliy qism - tadbirni o'tkazish uchun talab qilinadigan obьektiv shart-sharoitlarni o'rganish (tadbir o'tadigan joy - zal, auditoriya- ni belgilash), tadbirni tashkil etish va o'tkazishga ma'sul shaxslarni belgilash, ularga aniq topshiriqlar yuklash, turli hajm va sifatdagi qog'ozlar, ruchkalar, buyoqli ruchkalar, chizg'ich, yozuv taxtasi qisqichlarni tayyorlash; tashkiliy masalalar: tadbirning o'tkazilishi haqida ishtirokchilarni og'zaki yoki yozma tarzda ogohlantirish, tadbir jarayonining loyhasini ishlab chiqish kabilarni o'z ichiga oladi.

II. Asosiy qism: ishtirokchilar o'rtasida so'rov tashkil etilib, ularning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar va ulardan kimyo fanini o'qitish jarayonida foydalanish imkoniyatlari to'g'risidagi bilimlari aniqlanadi. Ularga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

1. Kimyo fanini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini Siz qanday baholaysiz?

2. Kimyo fanini o'qitish jarayonini loyihalash deganda Siz nimani tushunasiz?

3. Kimyo fanini o'qitish jarayonini loyihalashda nimalar muhim ahamiyatga ega?

4. Kimyo fanini o'rganish bilan bog'liq faoliyatingizni muayyan loyiha asosida tashkil etganmisiz?

So'ngra ishtirokchilarga kimyo fanini o'qitish jarayonini loyihalash bo'yicha nazariy ma'lumotlarni beriladi.

1. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar hamda ta'lim jarayoni (kichik ma'ruza);

2. Kimyo fanini o'qitishga bag'ishlangan tadbir loyihasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadigan omillar, ko'rgazmali tarqatma materiallar bilan tanishish.

3. Kimyo fanini o'rganishni muayyan loyiha asosida tashkil etish namunasi (Amaliy trening).

Keyin ishtirokchilar o'rtasida kimyo sohasidagi ijodiy faoliyatni tashkil etladi.

1. Mustaqil ravishda kimyo fanini o'rganishga bag'ishlangan tadbir loyihasini ishlab chiqish (avtogen mashq).

2. Men - loyihachiman (ko'rgazmali taqdimot).

3. Eng mukammal loyiha (tanlov).

Undan keyin ishtirokchilar tomonidan egallangan bilim, hosil qilingan ko'nikmalar darajasi aniqlanadi.

4.1 Kasbiy ta'limga bag'ishlangan tadbirning mazmuni va yo'nalishi xususida Siz qanday fikrdasiz? (Intervьyu).

4.2 Kasbiy ta'limga bag'ishlangan tadbir jarayonida muayyan ma'lumotlarga ega bo'ldingizmi? (Intervьyu).

4.3 Kasbiy ta'limga bag'ishlangan ta'limviy tadbirlarni oldindan loyihalashtirishning afzalliklari (Davra suhbati).

III. Yakuniy qism - trening jarayoni va uning natijalarini tahlil etish.

Trening tarkibida respondentlar ishtirokidagi davra suhbati tashkil etilib, unda kasbiy ta'limga bag'ishlangan tadbirlarni avvaldan loyihalashtirishning afzalliklari muhokama etildi. Davra suhbatida ishtirokchilar kasbiy mazmundagi ta'limviy tadbirlarning yangicha yondashuv asosida tashkil etilishi quyidagi afzalliklarga egaligini ta'kidlab o'tadilar:

1) Kasbiy ta'limga bag'ishlangan tadbirning o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan obьektiv va subьektiv omillarning mavjudligi puxta o'rganildi;

2) Kasbiy ta'limga bag'ishlangan tadbirni tashkil etish va o'tkazish uchun sarflanadigan vaqt hajmi belgilab olindi;

3) Kasbiy ta'limga bag'ishlangan tadbir mohiyatining to'laqonli ochib berilishi uchun ishtirokchilar soni hamda vositalarning miqdori belgilandi;

4) Kasbiy ta'limga bag'ishlangan tadbir ishtirokchilarining imkoniyatlari inobatga olindi;

5) Kasbiy ta'limga bag'ishlangan tadbirni tashkil etish va o'tkazish uchun ijtimoiy tashkilotlarning yordamidan samarali foydalanish imko-niyati vujudga keldi;

6) Kasbiy ta'limga bag'ishlangan tadbir tashkilotchilari va ishti-rokchilarining ortiqcha zo'riqishlari bartaraf etildi;

7) Kasbiy ta'limga bag'ishlangan tadbirning tashkiliy, ijtimoiy-g'oyaviy jihatdan takomillashtirilishiga erishildi;

8) Kasbiy ta'limga bag'ishlangan tadbirni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va uning natijasi haqida yetarli ma'lumotlarni to'plash imko-niyati yaratildi;

9) istiqboldagi vazifalarni belgilash va bu sohada faoliyat olib borish uchun sharoit yuzaga keladi.

Ta'lim muassasalarida Kasbiy ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan maxsus metodika tarkibida nazarda tutilgan boshqa tadbirlar ham muayyan loyiha asosida tashkil etildi.

Ta'lim muassasalarida kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni hamda olib borilgan kuzatishlarning mohiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi xulosani chiqarish mumkin: kimyo fanini o'qitishning samaradorligini ta'minlovchi muhim omil, bu mazkur jarayonni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirishdan iboratdir. Noan'anaviy shakl, metod va vositalar yordamida kimyo fanini o'qitishni amalga oshirish o'zining ijobiy natijalarini beradi. Ta'lim muassasalarida kimyo fanini o'qitishni izchil tarzda amalga oshirish uning samaradorligini ta'minlaydi.

Kimyo o'qituvchisi mutaxassisligining modeli va professiogrammasiga asoslangan holda kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish mazmuni, metod, vosita va shakllaridan metodik tizim sifatida amaliyotda foydalanilsa;

- ta'lim-tarbiya jarayonida kasbiy yo'naltirilganlik ustuvorligiga amal qilgan holda, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini maqsadga muvofik ravishda, pedagogik va axborot texnologiyalar talablari asosida tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinsa;

- o'quvchilar tomonidan kasbiy tayyorgarlik tarkibiy qismlariga oid zamonaviy metodik bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismiga aylantirilsa, u holda kimyo o'qituvchilarnning kasbiy tayyorgarlik darajasi takomillashadi, shu orqali kimyo ta'limi samaradorligining o'sishiga erishiladi.

Xulosa

Shunday qilib, kimyo o'qituvchisi mutaxassisligining modeliga asoslangan holda kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish mazmuni, metod, vosita va shakllaridan metodik tizim sifatida amaliyotda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun kimyo o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini tashkil etish, boshqarish va samaradorlikka erishish yo'llarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash, pedagogik shart-sharoitlarni vujudga keltirish, uning mazmuni hamda vosita, metod va shakllarini metodik tizim sifatida ishlab chikish va amaliyotga joriy etish zarur.

Buni amalga oshirishda quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

- kimyo o'qituvchilarini malakasini oshirish kurslarida pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish orqali uzluksiz ta'lim tizimining hozirgi bosqichdagi va istiqboldagi vazifalarini amalga oshiradigan raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlashga zamin yaratish;

- ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmalar asosida ta'lim muassasalarida kimyoni o'qitish, oliy pedagogik ta'lim, pedagog kadrlarni malakasini oshirish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish holatini tahlil kilish, bu borada erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarning sabablarini aniqlash;

- kimyo o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning metodik tizimi samaradorligini pedagogik tajriba-sinovdan o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq nashriyot matbaa-kontserni. 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb xunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi PF-5313-sonli farmoni. -Toshkent. 2018 yil 25 yanvar.
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. Москва, 1995. – 412 с.
4. Боротко Н.М. Моделирование воспитательного процесса //Воспитательная деятельность: методология, содержание, технологии: Монограф. /Боротко Н.М., Воронцова Т.В., Герасев П.В. и др. /Под ред. В.А. Тятина. – Астрахань. Школа, 2001.

UDK: 791.3:796.4

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR HARAKAT FAOLLIGINI OSHIRISHDA DASTLABKI GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

G. Ibroimova
Samarqand davlat universiteti
Ibroimova89@bk.ru

Annotasiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bolalarni dastlabki gimnastika elementlari orqali harakat faolligini oshirish, salomatligini mustahkam–lash, jismoniy sifatlari, asosiy harakatlarini shakllantirish va rivojlantirish usullari, bolalarning yoshiga, jinsiga mos bo'lgan ko'nikma va malakalar orqali o'rgatishning asoslari yoritilgan. Sog'lomlashtirish, mashg'ulotlarining dastlabki gimnastika elementlari asosida tashkil etish bolalarda hayotiy zarur harakat ko'nikma va malakalarini takomillashtirish bayon qilingan.

Kalit so'zlar. dastlabki gimnastika, harakat, faollik, rivojlanish, jismoniy mashq, mashg'ulot, o'yin, egiluvchanlik, element,

Mechanismes of improving preliminary gimnstic disciplines in increasing activity of preschool age children

Abstract. This article presents approaches of increasing the physical activeness of children at pre-school ages by enhancing basic gymnastic elements, improving their health and physical strength, methodology of reforming and developing physical skills, bases of studying with the help of skills and experiencescorresponding to children's age and sex. Basides, importance of organization recreational training activities rooted in elementary gymnastic elements by shaping vitally essential skills and experiences of body movements.

Keywords: gymnastics, movement, activity development, physical exercise, lesson, play.

Разработка механизмов совершенствования предварительных гимнастических дисциплин в повышении активности детей дошкольного возраста

Аннотация. В данной статье изложено повышение активности движение детей дошкольного возраста на занятиях физического воспитания дошкольных учебных заведений используя предварительные гимнастические элементы, укрепление их здоровья, физических качеств, методы формирования и развития основных движений, основы обучения при помощи навыков и опытов, соответствующих возрасту и полу детей. Также, изложена важность организации оздоровительных занятий на основе предварительных гимнастических элементов при формировании жизненно важных навыков и опытов движения.

Ключевые слова: предварительная гимнастика, движение, активность, развитие, физкультурные упражнение, занятие, игра, гибкость, элемент

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy sog'lom hamda aqlan yetuk bo'lib voyaga yetishi uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bolalarda jismoniy tarbiyaga mehr uyg'otish, ularni sportning sehrli olamiga olib kirish har

birimizning kundalik vazifamiz bo‘lmog‘i kerak. Bu jarayonga e’tibor qaratmay turib *sog‘lom* millat, *sog‘lom* jamiyat haqida fikr yuritish qiyindir...

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar harakat faolligini oshirishda dastlabki gimnastika mashg‘ulotlari ahamiyatinining dolzarbligini amalda isbotlash, bolalarning salomatligini mustah–kamlash, mashg‘ulotlarni dasturlarda kengaytirish, shug‘ullanuvchi bolalar kontingentini oshirishni amalda sinab ko‘rish, jismoniy rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar jarayonida dastlabki gimnastika mashqlari elementlari orqali bolalar harakat faolligini oshirish va rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish.

Harakat bola organizmning asosiy faoliyati sanaladi. Harakat orqali u dunyoni o‘rganadi, suyak mushak tizimini takomillashtiradi, almashinuv jarayonlarini boshqaradi, uning o‘zaro uyg‘unligi esa bolaning o‘sishi va jismoniy rivojlanishini belgilaydi. Maktabgacha yosh davrida harakatlarni rivojlantirish juda muhim jarayon, chunki u bolaning nafaqat jismoniy, balki aqliy, taraqqiyotida ham ulkan ahamiyatga ega.

Organizmning o‘sishi davrida jismoniy mashqlarni to‘g‘ri tanlab, mushaklarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatish mumkin. Harakat faoliyatida ishtirok etuvchi mushaklar yurak-qon tomir, ovqat hazm qilish, nafas olish kabi ta’minot tizimlari hamda boshqaruv bilan bog‘liq neyroendokrin tizimi bilan chambarchas aloqadadir. Tomirlar orqali mushaklar oziq mahsulotlari, kislorod, gormonlarni qabul qilib oladi, karbonat angidrid suv, tuzlar singari modda almashinuvi, mashg‘ulotlarini qaytaradi.

Harakatlanish va tayanch vazifasini asosan oyoqlar va gavda mushaklari bajaradi. Qo‘llarda buyumlar bilan munosabatda bo‘lish uchun asosiy harakatlari ichkariga va tashqariga aylanish, oyoqlarda esa makonda siljish (ko‘chish) uchun zarur bo‘lgan bukilish, yozilish imkoniyatlari mavjud.

Jismoniy mashqlar Gippokrat zamonidanoq odam organizmdagi fiziologik jarayonlarini rag‘batlantiruvchi vosita sanaladi. Jismoniy mashqlar barcha ichki organlar faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, muntazam shug‘ullanish esa markaziy asab tizimining funksional holatini yaxshilaydi. Bu borada quyidagi mutaxassislar (A.Kabayeva, G.Ibroimova, A, Eshtayev, M, Umarov, M. Nuriddinova, L.Xolmurodov, B.Xaydarov T.Usmanxodjayev, K.A.Keneman, DXuxlayeva, S.Besshaposhnikova, M.Morgunova….) jismoniy mashqlar davolovchi ta’sirining asosiy mexanizmlarini ajratib ko‘rsatadilar. Jismoniy mashqlar tetiklashtiruvchi ta’siri vegetativ jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashida ifodalanadi, demak, maktabgacha yoshdagi bolalarning mukammal bo‘lmagan tomirlari tarangligi me’yorda saqlab turiladi. Bundan tashqari, jismoniy mashqlar va gimnastik harakatli o‘yinlar bolaning hissiy holatini yaxshilaydi, markaziy asab tizimidagi qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarini me’yorlashtiradi, unda mushaklar quvonch tuyg‘usini hosil qiladi. Jismoniy mashqlar tetiklashtiruvchi samarasi bola organizmning haddan ortiq qizib ketish, shug‘ullanish va boshqa ekstremal omillari ta’siriga barqarorligini oshirishda, qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini kuchaytirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Jismoniy mashqlarning fiziologik ta’siri shunday namoyon bo‘ladiki, uning ta’sirida almashinuv jarayonlari va to‘qimalar regeneratsiyasi (qayta tiklanish faollashadi.)

Jismoniy mashqlar kompensator ta’siri kompensatsiyalari shakllanishida tayanch harakat apparati faoliyatining yaxshilanashida, tomir reaksiyalari hamda yurak-qon tomir, nafas olish tizimlari ishining takomillashuvida namoyon bo‘ladi.

Jismoniy mashqlar me’yorlashtiruvchi ta’siri bola organizmning funksional ko‘rsatkichlari diapazonini tadrijiy tarzda kengaytirganida aks etadi. Bola organizmiga ko‘p organ va tizimlarning patologik jarayonga jalb qilinishi xos bo‘lganligi sababli uning o‘sishi va psixomotor rivojlanishi ko‘pincha izdan chiqadi. Jismoniy mashqlar harakatlanish sohasini me’yorga keltirish hamda jismoniy ish qobiliyatini tiklashning asosiy vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari majmuasi o‘z tarkibiga: maxsus adabiyotlar va dasturiy hujjatlar tahlili; so‘rov (so‘rovnoma asosida. suhbat, intervyu); pedagogik kuzatuvlar; psixologik-pedagogik testlash; pedagogik tajribadan iborat;

Bolalarni dastlabki gimnastika mashg‘ulotiga saralab olish va boshlang‘ich tayyorlash bosqichida harakatli o‘yin vositalari nihoyotda muhim. Ko‘pgina mutaxassislar boshlovchi dastlabki gimnastikachilari bilan ishlaganda, o‘yin metodidan o‘ziga ishonchsizlik hissini yengish vositasi sifatida ancha samarali foydalanadilar.[9] Dastlabki gimnastika yurish, yugurish uloqtirish, sakrash, tirmashish kabi harakatlar, muvozanat mashqlarida muayyan amaliy ko‘nikmaning takomillashuvini talab qiladi. Bu malakalarni mustahkamlash uchun qo‘llaniladigan o‘yin metodi jismoniy tarbiya rahbariga mashg‘ulotlarini hissiy ko‘tarinkilik, musobaqa kayfiyati bilan to‘yintirishda yordam beradi, bu o‘rgatish jarayonida ijobiy aks etadi. (A.Kabayeva, M.Nuriddinova, L.Xolmurodov, T.Usmanxodjayev, A.Keneman, D. Xuxlayeva B.Haydarov, M. Morgunova R. Salomov, A.Yeshtayev, M.Narziyevich, F.Kerimov M.Raximov G. Ibroimova). Bu jihatdan o‘yin diqqatni rivojlantirishda alohida bog‘lom va elementlarni asrab qolish vositasi sifatida qo‘llanadi. Yaxshi o‘zlashtirib olingan akrobatik mashqlariga ishlov berishda ko‘zlar

uchun qo‘shimcha qo‘zg‘atuvchilardan foydalanishga asoslangan o‘yinlar keng qo‘llanilishi mumkin. Dastlabki gimnastika buyumlaridan foydalanib o‘tkaziladigan o‘yinlar qo‘l, orqa, yelka kamaridagi bo‘g‘im va mushaklarini mustahkamlaydi, chaqqonlik va harakatchanlikni o‘stirishga yordam beradi, shuningdek, «buyum sezgisi»ni rivojlantiradi.

A.Geresov Ye.G.Popova G. Ibroimova, B. Haydarov, A.Kabayeva, M. Nuriddinova, L.Xolmurodov, A. Eshtayev T. Usmonxodjayevlarning fikrlariga ko‘ra gimnastika elementlari o‘yin bolalikning asosiy belgisi desa ham bo‘ladi. Bu bolaning asosiy faoliyati bo‘lib, unda o‘z-o‘zidan kattalarning har qanday undovchi hamda tarbiyaviy ta’sirlarisiz yuzaga keladi va bolaning diqqatini shunday qamrab oladiki, boshqa hech bir mashg‘ulotni unga o‘xshatib bo‘lmaydi. Ba’zan ota-onalar o‘yinni jiddiy ish emas deb hisoblab, bolani undan chalg‘itishga urinadilar, ularning fikricha foydaliroq boshqa mashg‘ulot masalan, o‘qish, tanlangan sport turi yoki uy ishlari bilan shug‘ullanishini istaydilar. Biroq bunday yondashuv hech bir tanqidga asos bo‘lmaydi. Axir, ko‘plab psixologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘yin bolaning dunyoni bilish usuli, uning rivojlanishi harakatlantiruvchi kuch. O‘yinlar va gimnastika elementlari juda xilma-xil bo‘ladi, bir qarashda bir- biriga uncha o‘xshamaydi, ammo uning barchasi uchun umumiy ikkita jihat bor. Birinchidan, har qanday o‘yin hayotiy yoki tasodif vaziyatda harakatlardan iborat. U haqiqiy hayotni aynan ko‘chirib olmaydi, balki o‘yinchoqlaridan real buyumlari o‘rinbosarlari, o‘yin rollaridan kattalar o‘qish yoki mehnatda egallagan vaziyatlari sifatida foydalanib, hayotning qandaydir gimnastika dastlabki elementlarini turmush tarzini takrorlashga imkon beradi. Ikkinchidan, o‘yin motivlari shug‘ullanuvchilar uchun uning yordamida egallanishi mumkin. O‘yin, birinchi navbatda, bolalar orasidagi o‘zaro munosabatlarini aks ettiradi. Ammo bu foyda masalan, mehnat faoliyatida bo‘lgani kabi biror samara uchun bajariladigan vaziyatlarda sodir bo‘ladi [5].

Umumrivojlantiruvchi mashqlar (URM) – dastlabki gimnastikaning universal vositasi – mashg‘ulotning o‘ziga xos (skeleti) hisoblanib, ayni vaqtda bir necha vazifani bajaradi: moyillik hosil qiladi, jalb yetadi, o‘rgatadi, rivojlantiradi, tiklaydi va bo‘shashtiradi [6].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolaning jismoniy shakllanishi va jismoniy tayyorgarlik dinamikasi bolalarning mehnat qilish layoqati va izchil bajariladigan jismoniy mashqlarning xususiyatiga bog‘liq. Maktabgacha tarbiya yoshida bolalarda bolalar harakat faolligini oshirish uchun, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida dastlabki gimnastika elementlarini asoslangan mashg‘ulot, mashqlarni to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazish eng muhim masaladir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishidagi psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishda dastlabki gimnastikaning samaradorligini belgilovchi omillar 5-7 yoshli bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini (ularni hisobga olish harakat faolligini oshirish ta’siri muvaffaqiyatini belgilaydi) aniqlashtirish maqsadida dastlabki tadiqiqotlar jarayonida ilmiy ma’lumotlarni umumlashtirish hamda dastlabki gimnastika mashqlari elementlari bilan shug‘ullanuvchilarning holatini tashxislash amalga oshirildi.

Eng avvalo qo‘llanilayotgan harakat faoliyati talablari o‘ziga xos jihatlaridan kelib chiqib, dastlabki gimnastika elementlari ta’sirining yo‘nalishi aniqlab olindi: dastlabki gimnastika sport turi sifatida koordinatsion qobiliyatlari hamda bog‘lam apparati va suyak to‘qimalari tuzilishining xususiyatlari hisobiga shakllanadigan egiluvchanlikning rivojlanishiga asosiy talablar qo‘yildi.

Pedagogik kuzatuvlar jarayonida ma’lum bo‘ldiki, 3-7 yoshli bolalarda harakatlar tezligi ancha barqarorlashib, o‘yin va kundalik hayot vaziyatlarida qo‘lning siljishi takomillashadi, yurish va yugurish vaqtida qo‘l va oyoqlar o‘zaro muvofiqlikda harakatlana boshladi. Shunga qaramay 4-5 yoshgacha qo‘l-oyoqlarning erkin motorikasi xilma-xil ortiqcha harakatlar bilan kechadi. 4 yoshga kelib yurishning tuzilishi shakllanadi, lekin u noritmik va beqarorligicha qoladi.

4 yoshdan boshlab harakatlarni shakllantirishga maqsadli ta’sir ko‘rsatish, bunda namoyishni og‘zaki ko‘rsatmalar bilan optimal tarzda uyg‘unlashtirish mumkin. 4-5 yoshli bolaning nosinxron harakatlari 6-7 yoshga kelib ko‘zga yaqqol tashlanadigan sinxronlik bilan almashinadi. 4-6 yoshda erkin harakatlarning dasturlashtirilishi ko‘rish orqali yuz beradigan teskari aloqa asosida amalga oshadi [6].

Gimnastikadagi yangi harakatlar uzoq muddat shakllanadi va o‘rgatish jarayoni texnologiyasi katta ahamiyatga yega. 4-5 yoshda keng qo‘llanadigan taqlid metodi (mexanik nusxa kuchirish) 3-7 yoshda harakatni ongli ravishda bajarishga o‘rgatish metodi bilan almashinishi, bunda aniq tushunarli har bir gimnastika elementiga beriladigan og‘zaki ko‘rsatmalar namoyish bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. 5-7 yoshda harakatlar aniqligini bolalar o‘zi ko‘rib nazorat qilishiga joriy nazoratga o‘tish yuz beradi [5].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tayanch harakat apparatini shakllantirishning gimnastik elementlari bilan bog‘liq egiluvchanlik jismoniy sifatining holati bog‘lamlarning biriktiruvchi to‘qimasida qayishqoq tolalarning katta miqdori hamda suyak to‘qimasi mineral zichligining past darajasi bilan

tavsiflanadi, bu esa maktab davrining oxirigacha saqlanib qoladigan egiluvchanlikning yuqori darajasini belgilaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mashg‘ulotlaridagi dinamik yuklama bajariladigan ishning davomiyligi bilan belgilanadi, u yosh ortgani sayin izchil ravishda oyoqlardan (3,5-5 yosh) qo‘llarga tomon (5,5-7 yosh) mushaklarga rivojlanishi hisobiga oshirib boriladi. O‘sish va oyoq qo‘llar rivojlanishiga bunday izchilligi tana qismlari va muayyan mushak guruhlariga beriladigan rivojlantiruvchi mashqlar to‘plamini belgilaydi. Shuning uchun 3,5-5,5 yoshlar oralig‘ida yuklamalani avval oyoq mushaklarini yirik guruhlariga 5-6 yoshdan boshlab qo‘llariga berish kerak. 3,5-4,5 yoshda dinamik yuklama berish davomiyligi 83 sek.ni, 4,5-5,5 yoshda 111 sek.ni, 5,5-6,5 yoshda 117 sek.ni, 7- yoshga kelib ko‘pi bilan 122 sek.ni tashkil etadi.

Yuklamani o‘lchab berishga bunday yondashuvni qo‘llash, zarurati tadqiqotlar avj boschiqida 5-6 yoshli bolalar bilan o‘tkaziladigan dastlabki gimnastika mashg‘ulotlari pulsometriyasi natijalari bilan tasdiqlandi (1-rasm).

Aniqlandiki, maktabgacha yoshdagi bolalar qisqa muddatli jismoniy yuklamalarga yaxshi bardosh beradilar. Bunda mashqlarni bajarish sur’atidagina emas, balki bajarilayotgan mashqlar metodik yo‘nalishini, navbatlash shart.

Mashg‘ulotdan oldin 1-rasm. 5-6 yoshli bolalarning gimnastika mashg‘ulotlarida qo‘llanadigan yuklamaga reaksiyasining fiziologik egri chizig‘i 3,5-7 yoshli bolalar harakat faoliyati fiziologiyasiga oid xususiyatlarini umumlashtirish asosida dastlabki gimnastika mashg‘ulotlarining samarali talablari aniqlashtirildi (1-jadval).



Pedagogik kuzatuvlar hamda mutaxassislar orasida so‘rov o‘tkazish jarayonida yana shu aniqlandiki, faqatgina bolalar, psixik rivojlanishini e’tiborga olgan holda ularga dastlabki gimnastikaning ko‘nikma va malakalarini chuqur o‘rgatish zarur.

1-jadval

3,5-7 yoshli bolalar bilan dastlabki gimnastika elementlarining samarasini belgilovchi fiziologik talablar

Yosh	Yuklamalardavomiyligi	Yuklamalar yo‘nalishi	Yuklamalarxususiyati	Yuklamalar belgilari	Dam olish
3,5-4,5yosh	83 sekund	Oyoq mushaklariga	Dinamik	YuQS dastlabkiko‘rsatkichning7 9,1 % ga; tiklanish 3 daq da.	Faol, boshqafaoliyatturigao‘tish
4,5 -5,5yosh	111 sekund	Oyoq mushaklariga yuklama lokallashuvini o‘rgartirib	Dinamik uzoqmuddatli		
5,5-6,5yosh	117 sekund	Tana qismlariga kombinasiyalangan harakatlari	Kombinasiyalangan (dinamik statik)		

7 yosh	122 sekund	Murakkablashtirigan kombinasiyalangan harakatlari	Hajm va shiddati hisobiga murakkablashtirilgan		

Maxsus adabiyotlar tahlili va pedagogik kuzatuvlar natijalari maktabgacha yoshdagi bolalar psixik rivojlanishining dastlabki gimnastika elementlarini bosqichi jarayonini loyihalash va uning amalga oshirilishini belgilovchi me'yorlarini aniqlashtirish imkonini berdi (2-jadval).

2-jadvalda taqdim etilgan ma'lumotlardan kelib chiqadiki, maktabgacha yosh davri moddiy dunyoning kengayishi hamda haqiqiy narsalar dunyosida harakatlanish zarurati bilan tavsiflanadi. Bolalar o'zini anglashi va o'ziga baho berishi shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning aniq maqsadli faoliyati uchun eng kuchli motiv-rag'bat va mukofot olish, shuning uchun dastlabki gimnastika bo'yicha bolalar jismoniy tarbiya mutaxassisi va yo'riqchi maktabgacha yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatlarini ijobiy mustahkamlash variantlarini oldindan rejalashtirib, o'ylab qo'ymog'i lozim.

Bu vazifani hal etish uchun eng mos keladigani o'yin metodi: mashg'ulotlarini o'yin shaklida o'tkazish mashg'ulotlarga estafetali, harakatli o'yinlarini kiritish. Mutaxassislar fikricha, bolalarning dastlabki gimnastika mashg'ulotlariga motivatsiyasini oshirishda, eng ta'sirchan og'zaki metodlari: ishontirish, rag'batlantirish, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida dastlabki gimnastika elementlarini bajarishda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va uni rag'batlantirishdan iborat.

So'z metodini tanlaganda, mashg'ulot yoki musobaqa faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklar chog'ida motivatsiyani oshirish uchun bolaning xatolari sababini vaqtinchalik, bartaraf etish mumkin bo'lgan omil sifatida tushuntira olish juda muhim. Bolalar bilan ular tayyorgarligining kuchli va zaif jihatlarini aniqlash; tahlil qilish hamda chiqarilgan xulosalar asosida mashg'ulot jarayoniga tahrir kiritish zarur.

2-jadval

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida dastlabki gimnastika mashg'ulotlarini pedagogik baholash va testlash natijalari

Sifatlar qobiliyat (ballar)	**Me'yorlar**	**Boshida**		**6-oylik**		**9-oylik**		**Stat. xulosa**
		Yu	p	Yu	p	Yu	p	
Egiluvchanlik	Yotgan holatda «ko'prikcha» Turgan holatda egilish	3,05	0,17	4,70	0,52	4,07	0,21	p<0,05
Qorin pressi kuchi	Burchak bo'lib o'tirish, qo'llar yonda	3,15	0,17	3,30	1,00	4,00	0,17	p<0,05
Sakrovchanlik	Qo'llarbelda, rostlanib 8 marta sakrash	3,02	0,09	3,00	0,76	3,61	0,05	p<0,05
Tayyorlikning Intgeral ko'rsatkichi		3,04	0,15	3,91	0,44	4,38	0,14	p<0,05

Fikrlarimizni xulosalaydigan bo'lsak, dastlabki gimnastikada harakat faolligi bosqichini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi omillar quyidagilar hisoblanadi: 3-7 yoshli bolalar psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish; shug'ullanuvchilar va ularning ota-onalari motivatsiya sohasini hisobga olish; bolalarning psixomotor faoliyatiga har tomonlama ta'sir ko'rsatuvchi tayyorgarlik vositalari zaxirasining eng muvofiq turlaridan foydalanish; bolalarning dastlabki gimnastika mashg'ulotlari jarayoni uchun me'yoriy hujjat hisoblangan ilmiy asoslangan dasturni amalga oshirishning mexanizmini shakllantirish va takomillashtirish zarur.

3-7 yoshli bolalar bilan dastlabki gimnastika bo'yicha harakat faolligini oshirish jarayonini amalga oshirishda motivatsiyani kuchaytirish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi:

- mashg'ulotlarga o'rgatish va jismoniy sifatlarini rivojlantirish va o'yinli shakllaridan foydalanish;
- og'zaki metodlardan ishontirish va rag'batlantirishni tadbiq etish;
- dastlabki gimnastikaga o'rgatishda gimnastika elementlariga xos estafetalar, harakatli va ijodiy o'yinlarni kiritish zarur;
- har bir mashg'ulotda bolalarning harakat faolligida, ijodiy fikrlash qobiliyatini uzluksiz rivojlantirishga yordam beradigan xilma-xil gimnastika elementlarini qo'llash zarur.

Adabiyotlar

1. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish Konsepsiyasi 13-fevral. 2019-y.18 b.
2. Achilov A.M. Akramov J.A. Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. – T.: O‘zbekiston, 2004. – 156. b.
3. Кабаева А.М. Содержание спортивно-оздоровительного этапа подготовки детей дошкольного возраста в художественной гимнастике. канд.дисс. Санкт Петербург 2018 г. ст. 215.
4. Бесшапошникова С. Ю. Развитие двигательной координации у детей 5-7 лет с использованием гимнастических упражнений на уменьшенной опоре. Кан. дисс. Ярославль, 2006.
5. Kurganov E. A. Gimnastika. Darslik. – Toshkent, 2015. –139.b.
6. A.B.Xuxlayeva D. B. Keneman Makatabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi 1988. – 140-142. b.
7. Tadjiyeva M.X .Xusanxodjayeva S.I. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi: Toshkent**,** 2017. – 18. b.
8. Haydarov B.T Eshtayev A.K. Ibroimoa G.X Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida gimnastika tashkil etish shakllari. – SamDU, 2019.
9. Бесшапошникова С.Ю. Об организации двигательной активности детей дошкольного возраста в условиях модернизации образования // Эффективность образования в условиях его модернизации: Материалы Международной научно-практической конференции. Новосибирск, 2005. - 4.1, с. 68-70.

UDK: 373.3:08(575.1)

BOSHLANG’ICH TA’LIMDA MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYATNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK MOHIYATI

S. Usmonov
Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi
samarqandmoi@exat.uz

Annotasiya. Ushbu maqolada mustaqil O’zbekistonda ma’naviyat va ma’rifat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudrati, milliy qadriyatlarimizni tiklash, o’zligimizni anglash, milliy g’oya va mafkurani shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri ekanligi eritib berilgan.

Kalit so’zlar: mustaqillik, ta’lim tizimi, milliy ma’naviyat, ma’rifat, qadriyat, boshlang’ich ta’lim.

Социально – педагогическая важность духовной деятельности в начальном образовании

Аннотация. В этой статье раскрыта важность духовности и просвещения для развития общества и государства, возрождения национальных ценностей, формирования национальной идеи и идеалов в независимом Узбекистане.

Ключевые слова: независимость, система образования, национальная духовность, образование, ценность, начальное образование.

The social-pedagogical importance of spirituality in primary education

Abstract. This article reveals the importance of spirituality and enlightenment for the development of society and the state, the revival of national values, the formation of national ideas and ideals in independent Uzbekistan.

Keywords: independence, education system, national spirituality, enlightenment, value, primary education.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi” PF-4947-sonli Farmonida ta’kidlab o’tilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning mazmunini tubdan yaxshilash, ularning ko’lami va miqyosini kengaytirishni davrning o’zi taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning madaniy-tarixiy an’analari, urf-odat hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va usullarni ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish, shaxsni tarbiyalash, uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvor vazifalariga aylandi. Pezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” [1], “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har

bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" [2] kabi asarlari, jamiyatimiz taraqqiyotining ma'naviy-ma'rifiy sohalariga oid metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi o'rni, mavqyei, ahamiyatini belgilovchi ijtimoiy omillardan biri - ma'naviyatdir. Bu o'zbek davlatchiligining uch ming yillik tarixidagi taraqqiyot tajribasida tasdiqlangan va shu sababli milliy mustaqillikning ilk yillaridayoq ma'naviy qadriyatlar masalasi, ularni tiklash istiqlol davrining dolzarb eqtiyojiga aylandi.

Shu sababli maktabda olib boriluvchi ma'naviy-ma'rifiy ishlar mohiyatini to'la ochib berish uchun «ma'naviyat» va «ma'rifat» tushunchalarining lug'aviy ma'nolarini tahlil etishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. **Ma'naviyt** so'zi arabcha «ma'nolar majmui» - kishilarining falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuini anglatadi. Insoniyat o'zining ko'p ming yillik tarixida hayotiy tajriba to'plab, tabiat bilan hamkorlik qilib, jismlar, ularning xossalari, hayot, o'lim, o'zining Vatan, millat, qarindosh-urug'lari oldidagi burchlari va boshqalar to'g'risida tasavvur, bilim, tushunchalarni to'plab, yosh avlodlarga o'rgatib kelgan.

Ma'rifat tushunchasi esa harakatni ifodalab, arabcha - «bilmoq» degan ma'noni beradi. Ta'lim - tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida kishilarning ong - bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat «ma'rifat» so'zining lug'aviy mazmunini tashkil qiladi. Ma'rifat so'zi tasavvuf ta'limotining markaziy tushunchalaridan biri. Ilmlarni zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) bilimlarga bo'lgan so'fiylar ma'rifatni «ilmi botiniy» deb tushunishgan.

Turkistonda ibtidoiy maktablar, madrasa va qorixonalarni ma'rifat maskani deb bilishgan. Hozirgi paytga kelib ma'rifat maskanlari va vositalarining shakl va turlari ko'paydi, ta'sirchanligi oshdi. Bunga misol tariqasida maktab, kutubxona, teatr, kitob, gazeta va jurnallar, televideniye va radio, videomahsulotlar, kompyuter, «Internet» tizimi va boshqalar ma'rifiy ishlarning keng tarmog'ini hosil qilmoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda har bir ijtimoiy qatlam xususiyatlarini inobatga olish, amaliylikni kuchaytirish, ta'sirchanligini oshirish zaruriyatlarini alohida ta'kidlanganligi masalaning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini yana bir bor oshiradi.

Sobiq sho'rolar davrida «ma'naviyat» tushunchasi o'zbek tili lug'atlariga ham kiritilmagan bo'lsa, istiqlol davrida bu tushuncha tez ijtimoiylashdi.

«Ma'naviyat» tushunchasi «ma'naviy qadriyatlar», «shaxsning ma'naviy madaniyati», «o'quvchining ma'naviy madaniyati», «ma'naviy ehtiyoj», «ma'naviy qiziqish», «shaxsning ichki ma'naviy dunyosi», «ma'naviy madaniyatni shakllantirish andazasi» kabi tushunchalarning mohiyati pedagoglarimiz tomonidan o'rganila boshlandi. Bu tushunchalarning pedagogik mohiyati nazariy va amaliy nuqtai nazardan asoslab berildi.

«Ma'naviyat» tushunchasi tobora rivojlantirilib, «Ma'naviyat asoslari» shaklida o'quv rejalariga kiritila boshlandi. Va nihoyat «Ma'naviyat» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o'rta ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 1999 yil 16 avgust qaroriga ko'ra umumiy o'rta ta'limning I–IX sinflari uchun mo'ljallangan sohalardan biriga aylandi [3; 12].

Ma'naviyat ta'lim sohasi sifatida «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» kabi o'quv fanlari turkumini hosil qildi va I–IX sinflarda o'qitila boshlandi.

Umumta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan ma'naviy- ma'rifiy ishlar ham ijtimoiy-siyosiy, ham ijtimoiy-pedagogik jihatlarga ega. Masalaning ijtimoiy-siyosiy jihati respublikamizda keng amalga oshirilayotgan O'zbekiston mustaqilligini mustaqkamlash, xalqning milliy tafakkurini rivojlantirish, buyuk davlatni barpo etish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan fuqarolik jamiyatini qurish va buning uchun ma'naviyat va ma'rifatni takomillashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi. Bu jihat O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1994 yil 23 aprel «Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida»gi Farmonida alohida ta'kidlangan. Demak, masalaning ijtimoiy-pedagogik jihati ma'naviy-ma'rifiy siyosat va uning subyekti - «Ma'naviyat va ma'rifat» markazlari ishi bilan funksional yaqinligida ko'rinadi. Muammoning pedagogik jihati ma'naviy-ma'rifiy ishlar obyektining kattalar emas, davlat o'quv muassasalarida, aniq tartib, jadval asosida, muttasil, rejalashtirilgan, standartlashtirilgan bilim berilayotgan turli yoshdagi o'quvchilar jamoasi ekanligida. Bu xususiyat maktablar ma'naviy-ma'rifiy ishlar maqsadi, mazmuni, uslublari, vositalari va shakllarida aks etadi. Shuningdek, bu jarayon mutaxassislar - pedagoglar tomonidan amalga oshirilmoqda. Keng ijtimoiy pedagogik ma'nodagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar gerontopedagogik aholining turli toifalaridagi katta yoshli kishilar tafakkuri, e'tiqodi, qarash va munosabatlarini boyitish, yangilash, eski tuzumdan qolgan zararli mafkura asoratlaridan poklash kabi vazifalarga yo'naltiriladi.

Umumta'lim maktablarida esa, tarbiya obyekti aloqida xususiyatlarga ega. Ular – ijtimoiy munosabatlarga endi kirishayotgan, tabiat, jamiyatga, Vatanga, tarixga, o'z-o'ziga munosabatlari to'liq

anglanmagan o'quvchilardir. Shu sababli maktab «ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi»ni «maktab tarbiyaviy ishlar tizimi»ning g'oyaviy boyitilgan sinonimi sifatida tushunish mumkin.

1996 yilning oxirlariga kelib O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida» (1996 yil 9 sentyabr) Farmoni e'lon qilindi. Buning sababi -«... hanuz joylarda ma'naviyatning mohiyatini, uning olg'a siljishimiz farovon jamiyatga tezroq yetishimizdagi qimmatini chuqur idrok etmaslik hollari mavjud»ligi. Ayrim katta-kichik raqbarlar eski mustabidlik, zo'ravonlik mafkurasining sarqitlaridan haligacha qutula olmay, bu borada kechirib bo'lmaydigan oqsoqlik tufayli ma'naviyatning asl mohiyatini tushunib yetmasdan unga ikkinchi darajali ish sifatida qaramoqdalar. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarga bo'lgan bunday e'tiborsizlik kelajagi buyuk demokratik, ozod davlat qurishdek ezgu maqsadimiz ro'yobi uchun mutlaqo zid» ekanligi Farmonda maxsus qayd etildi. Farmonda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo'nalishi deb hisoblanishi ta'kidlandi va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning 14 yo'nalishi belgilab berildi.

Ma'naviyatning ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy mohiyati turli fanlar vakillari tomonidan asoslab berilgan. Jumladan, uning badiiy, hayotiy mohiyati adabiyotshunoslarimiz tomonidan yorqin ochib berildi:

«Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanidagi Sobitjonni bilasiz», deydi bu haqda filologiya fanlari doktori I.Haqqul. Uning otasi Kazangap - oddiy temir yo'l ishchisi bo'lib ishlardi. Otasiga nisbatan u ming chandon o'qimishli. Ertadan kechgacha telefon oldida o'tirib, boshliqning kabineti bilan qabulxona o'rtasida bo'zchining mokisidek yelib-yugursa-da, har qalay, amaldor. Bilmagan narsasi, o'qimagan kitobi yo'q. Lekin uning axloqiy xususiyati va ma'naviyati otasinikiga nisbatan behad tubandir. Hatto, otasining o'limida ham siyosatdan, davlat manfaatlaridan vaysaydigan odamni bir tasavvur qiling? Qayerdaki, o'zini martabali, bilag'on, mas'ul odam qilib ko'rsatishga urinadigan amaldorlarni ko'rsam, o'sha Sobitjonni eslayman. qachonki aravani quruq olib qochishdan charchamaydiganlarning gapini eshitsam, «qachon qutulamiz bu Sobitjonlardan», degan gap xayoldan kechadi. Umuman, tili ishlab, dili ishlamaydigan kishi - xavfli kishi. Chingiz Aytmatovning haqqoniy e'tirofiga ko'ra, odamning odamligi faqat kasb-koridagi mehnatkashligi bilan belgilanmaydi. U qalban ham mehnatkash bo'lmog'i kerak. Qalban mehnatkashlik esa, ma'naviyat ishchisi, ma'naviyat dehqoni, ma'naviyat me'mori degani bo'ladi. Qalban mehnatkash insonlar esa, bir-biri bilan yoru birodar bo'ladilar, «bir-birining tillariga tushunadilar» [4; 42].

Umuman, boshlang'ich sinflarda ma'naviy - ma'rifiy ishlarni tashkil etishning muvaffaqiyati ta'lim mazmunidan ma'naviy tarbiya maqsadlarida foydalanishni takomillashtirishga bog'liq. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligi o'quv - tarbiya jarayonlarida o'lka ma'naviy qadriyatlaridan unumli foydalanishni taqozo etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, milliy, ruhiy, jinsiy, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish va tarbiyalanganlik darajalarining amaliyotga joriy qilinishi ma'naviy - ma'rifiy ishlarning samaradorligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" – T.: O'zbekiston, 2016.

2. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" – T.: O'zbekiston, 2017.

3. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: Boshlang'ich ta'lim: Ta'lim taraqqiyoti. - T., Sharq, 1999 (maxsus son). -479 b.

4. Ma'naviyat to'g'rilikdan boshlanadi. Ibrohim Haqqul bilan Murtazo Qarshiboy suhbati. // Ma'naviyat va komillik. Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi. - T., 1997. 42 - 6

5. Mustaqillik: izohli ilmiy - ommabop lug'at (A.Jalolov va Q. Xonazarov umumiy tahriri). - T.: Sharq. 2000. 320 - 6.

UDK: 37:159.9

TA'LIM JARAYONIGA PSIXOLOGIK YONDASHUV

N. M. Majidov[1], S. X. Nasimov[2]
[1]O'zbekiston milliy universiteti, [2]Samardanq davlat universiteti
s-nasimov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'limning xulq-atvor modeli, aqliy taraqqiyot, bilishning ijtimoiy nazariyasi, shuningdek, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash omilllari haqida ilgari surilgan g'oyalar muhokama qilingan. Bundan tashqari muammoli ta'limga tegishli bir qator masalalar ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xulq-atvor modeli, bilishning ijtimoiy nazariyasi, ta'lim jarayoni, muammoli ta'lim.

Психологический подход к процессу обучения

Аннотация. Статья рассматривает идеи факторов модели поведения, умственного развития, социальная теория познания, а также, снабжение эффективности процесса обучения. Помимо того, в статье расаматриваются некоторые вопросы присуще проблемному процессу обучения.

Ключевые слова: модели поведения, социальная теория познания, процесса обучения, проблемному процесса.

Psyhologic accesst education process

Abstract. The article shows ideas about factors of behavior models, intellectual developmet, social theory of cognition, as well as provision of effectiveness of the process of education. Besides there are also some issues problematic education analyzed.

Keywords: factors of behavior models, intellectual development, social theory of cognition, process education, problematic education.

Ta'lim-tarbiyaning psixologik asoslarini tahlil etishб ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatini samarali tashkil etish uchun xizmat qiluvchi qonuniyatlarni va omillar o'rnini aniqlash imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining uzoq yillik tarixiy tajribasi psixologik nazariyalariga asoslangan holda rivojlangandi. Ushbu tajribalarning keng ko'lamda psixologik tus olishi XX asrning 60-yillaridayoq G'arb mamlakatlari va AQSH ta'lim tizmida an'anaviy o'qitishdan vos kechish yo'llari izlanishda o'z aksini topgan. Amerika psixologiya maktabi vakillari ta'lim-tarbiya muhitiga ko'proq xulq psixologiyasi g'oyalariga keng tayandi. Bu nazariy yondashuvning o'ziga xosligi "stimul-reaksiya" tamoyiliga asoslanganligidir. Ta'limning xulq-atvor modeli ta'lim oluvchining bilimlarini boyitish manbai hisoblanadi. Uning vakillari tamonidan ilgari surilgan g'oyalarda quyidagi jihatlar xosligi kuzatiladi:

- xulqiy yondashuv yoki an'anaviy ta'lim berish 1920 yillarda tadbiq etilgan. Kompleks bilim va malakalar birliklaridan iborat bo'limlariga ajratilib, ular alohida o'qitildi.
- ta'limni kompleks topshiriqlarini hal etish uchun zarur bilim va malakalarni o'zlashtirish deb hisoblangan.
- bilimni qayta ishlashga qo'yiladigan talab nazariy ta'limning mantiqiy davomi sifatida e'tirof etilgan.
- ta'limning xulqiy nazariyasi:
- bir qolipdagi bilim va malakalarni o'qitish hamda tekshirishni qo'llab-quvvatlangan.
- ta'limning xulq-atvor modeli talabaning bilimlarini boyitish manbai hisoblanadi.
- ta'lim oluvchi "bilimlarni to'plavchisi"dir: ma'lumotlar to'plashni test yoki savollarga javob sifatida foydalanishdan iborat bo'lgan.
- ta'lim o'yin sifatida idrok qilinib, ular to'g'ri javobni topishdan iborat.
- an'anaviy ta'lim ta'lim oluvchilarni oldindan o'rnatilgan alohida tadbirlarda qoidalarni va simvollarni to'g'ri tadbiq qilishi uchun zarur individual malakalarni shakillantirishga yo'naltirilgan.
- ta'lim oluvchilar testga tayyorlanishda bilimlarni yod olib, malakalarni shakllantirganlar.
- test ularni ancha amneziyani his qilishga olib keldi. Bu bilim va malakalar faqat testni to'g'ri нechish uchun zarur bo'lib, oqibat ularni xotirada qisqa muddatda ko'proq foydalanishga olib keldi.
- ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot an'anaviy ta'lim asosi sifatida xizmat qiluvchi xulq psixologiyasi g'oyasidan voz kechishga olib keldi.

Xulq psixologiyasi g'oyalaridan tashqari bugungi ta'lim tizimida quyidagi ta'limning taraqqiyotiga nazariy-metodologik ba'za sifatida xizmat qilgan quyidagi nazariyalar vujudga keldi. Ularning har biriga

xos tomonlarni alohida bandlar bo‘yicha izohlab o‘tiladi. Kognitiv nazariychilar vakillari J.Piaje va B.Blumlar ta‘limda shaxsning intellekti va tafakkurining rolini yoritishga e’tibor qaratganlar. J.Piaje (1926)ning aqliy taraqqiyot nazariyasi asoschilaridan biri sanaladi. U aqliy taraqqiyotni (bilish jarayonlari) to‘rt bosqichga ajratadi.

- sensomotor;
- operatsiya oldi / intuitiv;
- yaqqol operatsiyalar;
- rasmiy operatsiyalar.

Undan farqli tarzda *Bendjamen Blumning* (1956) *tafakkur darajalari* nazariyasini ilgari surdi. U bilish faoliyatining uchta kategoriyasini aniqladi:

- bilish (aqliy qobiliyatlar yoki bilimlar)
- emotsional (his-tuyg‘u yoki munosabat)
- psixomotor (jismoniy qobiliyatlar)

Kognitiv kategoriyalarni tafakkurning uchta darajasiga muvofiq ajratadi:

- bilish analiz;
- idrok sintez;
- tadbiq qilish baholash.

Yana bir yo‘nalishda izlanish olib borogan olim L.S.Vigotskiy bo‘lib, u bilishni ijtimoiy nazariyasiga asos soldi. L.S.Vigotskiy o‘z qarashlarida quyidagilarni ilgari surdi:

- bilish jarayoni ijtimoiy va madaniy omillarning o‘zaro aloqadorligiga ega;
- ta’lim insonlar o‘rtasida, olamni o‘rganish jarayonida bilimlarni uzatishida namoyon bo‘ladi;
- bolalar o‘zining ijtimoiy borlig‘ini tengdoshlari va kattalar ta’sirida shakllantiradi;
- bolalarning kognitiv taraqqiyoti ularning tengdoshlari va katta yoshdagilar bilan birgalikdagi faoliyatida o‘sib boradi.

Edvard de Bononing (1992) *konseptual va ijodiy tafakkur nazariyasi.* De Bono strategik tafakkur metodi va yo‘llarini ishlab chiqib, ularni “Fikrlovchi turini ajratdi. “Fikrlovchi qalpoqlar”ning har bir kategoriyasi xususiy va metaforik bo‘yoqqa ega.

- oq (informatsion):
- sariq (optimistik);
- qizil (emotsional);
- yashil (ijodiy);
- ko‘k (boshqaruvchanlik).

Govard Gardnerning (1983) ko‘p qirrali intellekt nazariyasi.

Godvard Gardern tadqiqot o‘tkazib, muammoni yechishda yettita qobiliyatni namayon qilishlarini qayd qildi. Godvard Garderning quyidagi qobiliyatlarni ko‘rsatib o‘tdi:

- lingivistik; musiqiy; mantiqiy-matematik.
- fazoviy-kinestik shaxslararo shaxsning ichki dunyosiga qaratilgan.
- jismoniy.

Yuqorida ta’lim jarayonida metodologik asosida xizmat qilgan psixologik konsepsiyalar xususida to‘xtalib o‘tdik. Quyida ularga muvofiq muammoli ta‘limni psixologik jihatdan tahlil qilishga harakat qilamiz.

ta’lim muammoli ta‘limning talqini mavzusida sobiq sovet psixologiyasida alohida urg‘u berilgan. Bu borada T.V. Kudryavsev, A.M.Matyushkin va boshqlarning muammoli ta‘limni o‘qitish g‘oyasi o‘ziga xos o‘rin tutadi. O‘z navbatida bugungi kun tajriba va zamonaviy pedagogik texnologiyalarda muammoli ta‘limni ta’lim muhitida qo‘llashning o‘ziga xos psixologik mazmuniga ega ekanligi o‘z tasdig‘ini topmoqda. Shu bois quyida muammoli ta’lim tahliliga boshqa psixologik konsepsiyalarga nisbatan ko‘proq e’tibor qaratildi.

ta’lim jarayoni samaradorligiga qo‘yiladigan talablar ta’lim beruvchi uchun yangi o‘qitish metodlaridan foydalanish zaruratini tug‘diradi. O‘tgan asrda ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchi o‘rtasidagi o‘qitish jarayonida amal qilingan qonun-qoidalar bugungi kunga kelib o‘zining amaliy natijasini ko‘rsata olmayapti. Shu bois ta’lim jarayonida tadbiq qilinadigan metodlarga ijodiy yondashgan holda ish tutish muhimdir. Ta‘limda nafaqat o‘quvchi va talabalarni, balki malaka oshirish kurslaridagi tinglovchilar bilan ishlash tizmiga ham yetarlicha e’tibor qaratish lozim. Malaka oshirish kursidagi tinglovchi ham o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchi funksiyasini bajaradi. U xuddi talabasi singari bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarini boshdan kechiradi. Tinglovchining malaka oshirish kursida taqdim qilinayotgan o‘quv axborotlarini samarali o‘zlashtirishi uchun imkoniyat beruvchi ta’lim metodlaridan foydalanish zarur.

Tejamkorlik asosida ta’lim samaradorligiga erishish ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning qanday usul asosida ta‘limni tashkil qilinishiga bog‘liq. Quyida ta’lim jarayonida muammoli ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan to‘xtalib o‘tamiz.

Muammoli ta’lim nima? Ko‘p holatlarda muammoli ta‘limda mashg‘ulot davomida ta’lim beruvchi tamonidan bir muammo o‘rtaga tashlanib, unga ta’lim oluvchilar jalb qilingan holda muammoning yechimini topishga ahamiyat berilgan. Ba’zan muammoni yechishda mashg‘ulotdagi vaqt yetarli bo‘lgan, ba’zan yechimi topilmasdan qolgan. Bu esa muammoli ta‘limning ahamiyatini shubhasiz pasayishiga olib kelgan.

Muammoli ta‘limning mohiyati ta’lim beruvchi tamonidan kompleks muammo qo‘yilib, ta’lim oluvchi tamonidan esa uning eng qulay yechimlarini topishga yo‘naltirilgan o‘qitish jarayonini bildiradi. Muammoli ta‘limda bir qator xususiyat va talablarni inobatga olish uning to‘laqonli amalga oshirishini ta’minlaydi:

- muammoli ta’lim ta’lim oluvchinig ehtiyojlariga va faolligini oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim;
- muammo ta’lim oluvchiga aniq va tushunarli holda tadqim qilinishi kerak;
- muhim bo‘lishi kerak;
- muammo real hayotdan olingan bo‘lib, o‘ylab topilgan narsa bo‘lib qolmasligi lozim;
- muammoni ta’lim oluvchi uchun ahamiyatini ko‘rsatishi lozim;
- aniq echimga ega bo‘lishi kerak;
- muammo ta’lim oluvchini hamkorlikda va faol ishlashiga imkon berishini taminlash;
- muammoga aloqador axborotlar ba’zasini yaratish talab qilinadi;
- muammoning boshqalar uchun ham ahamiyatiga egaligini ko‘rsatish muhim;

Muammoli ta‘limning maqsadi:

- ta’lim oluvchining mazmunli va izchil bilim olishini rivojlantirishga;
- muammo echimlarini toppish va uning boshqa echimiga egaligi bo‘yicha ham istiqbolli rejalar ishlab chiqishga qaratilgan;
- ta’lim oluvchilarning guruh bo‘lib ishtirok etishini ta’minlashga yo‘naltirilgan
- ta’lim oluvchilar muammoning eng qulay yechimini topishlari uchun birlashishlari ehtiyoj tug‘dirishga qaratilgan;
- ta’lim oluvchida muammoni echishda shaxsiy mas’uliyatini his qilishga qaratilgan;

Muammoli ta‘limda ta’lim oluvchi quyidagi mazmundagi savollar orqali muammoni yechishga kirishish maqsadga muvofiq:

- Biz nima bilamiz?
- Biz nimaga aniqlik kiritishimiz kerak?
- Buning uchun qanday ish tutishimiz lozim?
- Biz qachon javob berib borishimiz lozim?
- Buning uchun qancha vaqt sarflashimiz kerak?
- Nega muammo maqsadi oldin hal qilinmagan?

Yuqorida qayd qilingan savollar ta’lim beruvchi faoliyatini boshqarishi va ko‘zlangan natijalarga erishishga yo‘naltiruvchi mezonlar bo‘lib qoladi. Muammoli ta‘limda ta’lim oluvchi bilan bir qatorda ta’lim beruvchining vazifasi va roliga alohida e’tibor qaratish lozim. Ta’lim beruvchining muammoli ta‘limni tashkil qilishi va boshqarishidagi faoliyatini me’yorda borishida bir qator jihatlarini inobatga olish talab qilinadi:

- ta’lim oluvchilarga reallikga mos muammoni tanlashga yordam berish;
- yo‘l ko‘rsatuvchi va maslahatchi;
- ta’lim oluvchilarning muammoni o‘zlari yechishga imkon berib, ularni natijalarini nazorat qiluvchi ekspert sifatida yondashish;
- guruhiy maslahatlarni uyushtirish;
- ta’lim oluvchilarni ruhlantiruvchi;
- ta’lim oluvchilarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi;
- ta’lim oluvchini muammoni yechishdagi asosiy madadkori sifatida o‘zini tutishi.

Muammoli ta‘limning ta’lim oluvchi faoliyati uchun ahamiyati:

- tafakkurni rivojlanishiga va mulohaza yuritish malakasini shakillantirishga;
- ta’lim oluvchini muammoni hayotga muvofiqlashtirishga va uni tahlil qilishga;
- shaxsiy mas’uliyat hissini shakillantirishga;
- mustaqil faoliyat yuritishga;
- shaxsiy pozitsiyasini shakillantirishga;

- guruh va jamoa bo‘lib ishlashga.

Ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanishning ahamiyati ta’lim beruvchi uchun ham ta’lim oluvchi uchun ham ahamiyatlidir. Chunki vaqt jihatdan faoliyatni to‘g‘ri tashkil qilish va boshqarish ahamiyatga molik hol. Shu bois muammoli ta‘limni ta’lim jarayonida tatbiq qilish zarur.

Adabiyotlar

1. Боно Э. Курсков А.А. - Мн.: “Попури”, 2005. – 288 с
2. Выготский Л. С. Собрание сочинений. – М.: Педагогика, 1984.
3. Пиаже Ж. Психология интеллекта. Избранные психологические труды. – М.: Просвещение, 1969.
4. Матюшкин А. М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – М.: Педагогика, 1972.
5. G‘oziyev E. G‘. Oliy maktab psixologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 104 b

UDK: 159.9.01

PSIXOLOGIYADA IJTIMOIY VA SHAXSIY IDENTIFIKATSIYALASHTIRISH NAZARIY TAHLILI

K. F. Murodov
Samarqand davlat universiteti
KamoliddinMurodov89@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada shaxsning ijtimoiy va shaxsiy indentifikatsiyalashtirishiga tegishli ilmiy qarashlar hamda yevropalik olimlarning nazariy qarashlari o‘rganilgan va nazariy-qiyosiy tahlil qilingan. Identifikatsiya psixologik hodisa sifatida talqin etilgan hamda kichik guruhlardagi psixologik omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit s o‘zlar: ijtimoiy, shaxs, identifikatsiyalashtirish, guruh, ijtimoiy hodisa, eksperiment.

Теоретический анализ социальной и личностной идентификации в психологии

Аннотация. В статье изучается и проводится теоретически-сопоставительный анализ социальной идентификации личности. Идентификация интерпретируется как социальное явление и обосновывается влияние малых групп на это явление.

Ключевые слова: социальный, личность, иденцификация, группа, социальное явление, эксперимент.

Theoretical analysis of social and personal identity in psychology

Abstract. The article studies and carries out a theoretical and comparative analysis of the social identification of an individual. Identification is interpreted as a social phenomenon and the influence of small groups on this phenomenon is substantiated.

Keywords: sacial, personality, identification, group, social phenomenon, experiment.

Jamiyatimiz hayotida sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarning ijtimoiy psixologik mohiyatini yoritishda o‘zbek, psixolog olimlari tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ayniqsa bu borada psixolog olimlarimiz M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziyev, N.A.Sog‘inov, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov, B.M.Umarov kabilarning bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy maqolalarini keltirish mumkin. Masalan, G‘.B.Shoumarov boshchiligidagi olimlar tomonidan oilaning ijtimoiy-psixologik vazifalari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, oila qurish motivlari, umumiy ijtimoiy-psixologik munosabatlar doirasida ro‘y beradigan jarayonlarning bir qator omillari o‘rganildi [1]. Lekin O‘zbekistonda ijtimoiy psixologlar oldida tadqiq etilishi lozim b o‘lgan yana k o‘plab, turli yosh, demografik, etnik professional kichik yoki katta guruhlarga mansub b o‘lgan kishilarning ijtimoiy tasavvurlari, ular asosida ijtimoiy xulq-atvorni o‘zgacha omillari, jarayonlari (ijtimoiy va shaxsiy identifikatsiyalashtirish) atroflicha yoritib berilmagan. Biz ijtimoiy psixologiya fanining hozirgi kundagi maqsadi va vazifalaridan, ijtimoiy-psixologiya fanining metodologik asoslaridan kelib chiqib ushbu ijtimoiy-psixologik jarayonlar negizida ro‘y beradigan (ijtimoiy va shaxsiy identifikatsiyalashtirish) psixologik omillarni tadqiq etishni maqsad qildik hamda shu bilan birgalikda, yevropalik ijtimoiy-psixolog olimlarning bu boradagi ilmiy ishlarini chuqur tahlil qilishni maqsad qildik.

Ijtimoiy identifikatsiyani o‘rganish yaqin 50-60-yillarning boshlarida, psixologik bilimlarga asoslangan yondoshuvning ulkan ta’siri ostida rivojlandi. Yevropada kognitiv psixologiyada esa identifika-

tsiya eng muhim psixologik omil yoki tuzilma deb hisoblanadi. Asosiy nuqtayi nazar shundan iboratki, dunyodagi ijtimoiy bilimlar, izchil tushunchalar, ijtimoiy xulq-atvorni tartibga soluvchi munosabatlar, identifikatsiyalashtirish negizida, stereotiplar asosida shakillanadi. Bu jarayon ancha oldinroq yevropalik olimlarning etiborini tortgan.

L.Festinger, J.Tyornerning asarlarida, ijtimoiy va shaxsiy identifikatsiyalashtirish jarayoni, ijtimoiy taqqoslash nazariyasi doirasida tushintirilgan. Ushbu yondashuvda ijtimoiy identifikatsiya tegishli sharoitlarda xatti-harakatni tartibga solish rolini bajaradigan bilish va anglash tizimi ekanligiga etibor qaratiladi. Shaxs turli psixologik tizimlari kontekstidagi tushunchalari, hamda atrofidagi dunyoni idrok etadigan “tushinish shakli" orqali (K.Levin, J.Kelly, V.Nayser) oʻzlikni anglash tizimi faollashuviga erishadi. L.Festingerning "kognitiv chalkashlik" nazariyasiga k oʻra bu tizim inson tajribasini, mavjud holatni, idrok formasini, insoniy faoliyatni boshqaradi va uning uchun muayyan turtki boʻlib xizmat qiladi. Ijtimoiy identifikatsiya qilish nazariyasi toʻgʻrisida yana bir guruh amerikalik olimlar (D.Abrams, M.Hogg, N.Tajfel, J.Tyorner va boshqalar). 1970-yillarda, Henri Tajfel, asosiy tamoyillarga etibor qaratgan holda, yanada kengaytirishga harakat qildi. A.Tajfelning izdoshlari J.Tyorner, D.Abram, M.Xog, M.Augastinos, N.Ellemers, R. Braun, P.Oaks va boshqalardir. Ular asosiy etiborini koʻproq ijtimoiy-psixologiyaning markaziy muammosi sifatida – shaxs va jamoa oʻrtasidagi munosabatlarni tushunishga qaratgan edilar. [2]

Ijtimoiy identifikatsiyalashtirish tushunchasi shaxsning, ma’lum bir guruhga yoki guruh a’zoligini koʻrsatadigan muayyan ijtimoiy xususiyatlarga ega ekanligi va boshqa tomondan oʻziga xos yoki noyob shaxsiy, jamoaviy xususiyatlarga ega ekanligiga asoslanadi. Bu shaxslararo va guruhlararo farqlash tushunchasi boʻlib, Amerika ijtimoiy psixologiyasida, ijtimoiy kontekstdagi bilim mexanizmlarini, prinsipial pozitsiyasini, qiyosiy ifodalashdagi, oʻziga xos, ijtimoiy-psixologik muammo sifatida qaraladi. Ijtimoiy identifikatsiyalashtirish jarayoni, nazariy jihatdan, boshqa psixik jarayonlardan tarkibi, davomiyligi, murakkabligi, boyligi jihatidan farq qiladi. Bu jarayonda muhim ahamiyatga molik narsa, bu tasavvurlar "shaxsiy xususiyatlar (shaxsiy qutb) va ijtimoiy xususiyatlar (ijtimoiy qutb) oʻrtasidagi doimiylikda" qurilishi mumkin. Bu borada ijtimoiy-psixologiya sohasida faoliyat olib borayotgan ba’zi mualliflar ijtimoiy identifikatsiya soʻzlarini e’tiborsiz qoldirishga harakat qilishgan. Masalan, P.N.Shikirxv oʻz diqqatini Tajfel tadqiqotlaridagi guruhlararo munosabatlar muammosiga qaratadi, shu bilan birgalikda ijtimoiy identifikatsiya muammosini chetlab oʻtib, uni odamlarning aql-idrokiga oid guruhlararo munosabatlar haqidagi fikrlarni ta’riflash bilan almashtiradi. Ammo psixolog sifatida Tajfel shaxsdagi turli xil ijtimoiy hayot va faoliyat bilan shugʻullanadigan psixologik mozaykani koʻrishning oʻziga xos usuliga, shuningdek, guruhlar oʻrtasida antagonistik munosabatlarga qanday ta’sir qilishiga qiziqdi. Toshfel turli ijtimoiy muhit va ulardagi insoniy xulq-atvorning xususiyatlarini oʻrganib, insonning barcha xulq-atvori reaksiyalari joylashgan "shaxslararo-guruharo doimiylik" tushunchasiga toʻxtaldi. Bu esa har ikkala holatda ham inson muayyan yaxlitlikda harakat qiladi degan fikrni ifodalaydi.

Tajfel guruhlararo psixologik ichki ziddiyatlar va jarayonlarni laboratoriyada kichik guruhlarda oʻrganish va ular tabiatiga mos xususiyatlarni yaratishni taklif qildi. Laboratoriya tajribasida guruhga haqiqiy ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar, ishtirokchilar oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar, guruhdagi boshqa tarkibiy qismlar yaratish, guruh a’zolari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik kabi oʻziga xos xususiyatlarni tadqiq qildi. Guruhlar orasidagi dinamik jarayonlarni oʻrganish uchun koʻplab laboratoriya tajribalarini oʻtkazgan. Bristol tomonidan esa (Angliya) maktab oʻquvchilari ustida olib borilgan ilk tajribasining maqsadi insonning guruhlararo xulq-atvoriga ta’sir etishi uchun guruh bilan oʻzini tanishtiradimi-yoʻqmi, boshqacha qilib aytganda, insonning guruh a’zolariga, guruhlar oʻrtasidagi munosabatlarga qanday reaksiya qilish haqidagi savolga javob berish edi. Eksperimental guruh ikkita shartli kichik guruhga boʻlinib, anonim va bir-biridan ajratilgan edi. Bu maktab oʻquvchilarining harakatlariga ta’sir koʻrsatdi. Ikkita strategiyani tanlash: ularning guruhlari uchun adolatli yoki foydaliroq, ular gururhga ichki a’zolik imkoniytlarini oshiradigan strategiya tanlashga harakat qilishgan edi.

Shunday qilib shaxsdagi ijtimiy va shaxsiy identifikatsiyalashtirish jarayoni Tajfel nazariyasi negizidagi asosiy tushunchadir, ammo u toifalarga ajratish jarayoni bilan kompleks tarzda koʻrib chiqiladi. Bu, birinchi navbatda guruhlar, guruhiga nisbatan koʻproq ta’sirchan munosabatda boʻlish istagi bilan namoyon boʻluvchi guruhlardagi favoritizm (afzallik, qulaylik, madaniy mavjud hodisa) fenomenini tushuntirish uchun mantiqiy ahamiyatga ega b oʻlib hisoblanadi.

Bizning farazimizcha esa ijtimoiy va shaxsiy identifikatsiyalashtirish jarayoni - bu hodisaning asosiy manbalari hisoblanadi. Ijtimoiy hisob va tanlash – bu ma’lum bir darajaga qadar qabul qilingan ijtimoiy kategoriya. Har bir inson uchun u muayyan miqdordagi ijtimoiy toifalar orqali quriladi, ularning majmui turli vaziyatlarda qisman aniqlanadi. Ijtimoiy identifikatsiya qilish ma’lum bir ijtimoiy kontekst boʻyicha tanlangan, ijtimoiy toifalarining bir qismi bilan bogʻliq. Identifikator oʻz-oʻzini aks ettirish yoki oʻz-oʻzini tushunish, anglash sohasiga tegishlidir. Shaxsning ijtimoiy identifikatorlarni bilishi bu guruhga

a'zolik imkoniyatlari qiymatini t o'g'ri anglash uchun yetarli emas. Misol uchun, siz boshqa kishilarning a'zoligiga qarashga qodir bo'lmasangiz, ularning qaysi guruhga tegishli bo'lishlarini qanday baholash mumkin? Guruhga a'zolik toifalarini baholash faqat ijtimoiy taqqoslash jarayoni bilan amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun, shaxsning individual darajasida ijobiy "men"lik maqomiga ega bo'lishining dastlabki bosqichini anglatadi: "men o'zimni yaxshi deb hisoblayman va menimcha, kimdir men to'g'rimda yaxshi fikrda". O'zingizni biron bir o'lchamda baholash uchun boshqalar bilan yopiq ijtimoiy taqqoslashni talab qiladi. Bu shuningdek, ma'lum ijtimoiy toifalarga ega bo'lgan shaxslarni aniqlash uchun ham kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, taqqoslash, o'xshash, yaqin, tegishli xususiyatlarga ega odamlar o'z turlarini boshqalarda qisman ko'rishadi va mohiyatiga yaqin bo'lganlar bilan taqqoslashadi. Ijtimoiy maqomini baholash uchun o'qituvchilar o'zlarini maktab o'quvchilari bilan taqqoslashmaydi, balki o'zlarini boshqa kasb vakillari bilan taqqoslashadi va guruhlarning barcha parametrlari taqqoslanmaydi, lekin faqat muayyan kontekstda ahamiyatga ega bo'lgan xislatlar taqqoslanishi ko'proq ahamiyat kasb etadi.

Identifikatsiyalashtirishdagi markaziy muammolardan biri bu insonning ijobiy, ijtimoiy va shaxsiy identifikatsiyaliligini ta'minlash masalasidir. Guruh a'zolari ijobiy yoki salbiy ijtimoiy baho bilan bog'liq bo'lgani uchun, odamning ijtimoiy identifikatori ham ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Bu har bir insonning o'z-o'zini ijobiy, yaxshi namoyon qilish istagi borligidan kelib chiqqan holda, ijtimoiy identifikatsiyaning dinamikasida insonning ijobiy ijtimoiy identifikatsiyaga erishish istagi bilan baholanadi. Shunday qilib, taqqoslash ko'pincha qarama qarshilikni o'z ichiga olgan ijtimoiy va shaxsiy identifikatsiya, uzliksiz, dinamik takomillashishning o'sib boruvchi asosiy jarayonidir. Ma'lum bir guruhga tegishli shaxsning sub'ektiv bilimlari qanday shakllantirilganligi, shuningdek, shaxsning shaxsan, guruhlararo yoki oraliq muhitda qanday qilib va qanday munosabatni shakllantirganligi uning ijtimoiy moslashuvining yetakchi vositasidir. Guruhdagi xatti-harakatlar, mexanizmlar ijtimoiy-kognitiv asosga ega bo'lib, guruh a'zolari bilan shartlangan emas, aksincha shaxsdagi alohida (identifikatsiyalashtirish) o'z-o'ziga munosabatning o'zgaruvchan hamda moslashuvchan shakliga bog'liqdir.

Farazimizning asosiy xulosasi quyidagilardan iborat: guruh ichidagi uzviylik va guruhlararo t o'g'ri, adyekvat farqlash, shuningdek, o'zlarining va boshqalarning ijtimoiy erkinligi, ijobiy yoki salbiy farqlanishi, rivojlanishi kabi kognitiv jarayonlarni o'rganish, guruhdagi ijtimoiy psixologik jarayonlarining motivatsion qismlarini taftish qilish, to'g'ri baholash bilan bog'liqdir. Ushbu ijtimoiy identifikatsiya, anglash, o'z-o'zini tushinishning o'zgacha shart-sharoitiga qaratilgan fikr, mulohazalarimiz guruhdagi ijtimoiy, obyektiv va subyektiv munosabatlar dinamikasini o'rganish hamda, guruhdagi qadriyatlar va insoniy xatti-harakatlarni o'rganish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Izchil rivojlanayotgan jamiyatda, har bir sohada keskin rivojlanish, o'zgarish jarayoni yuqori suratlarda tus olgan bir davrda inson tomonidan bajariladigan rollarning turli tumanligi ham toboro ortib bormoqda. Bunday hodisa shaxsda psixologik paradoksal kayfiyatni vujudga keltirishi, shuningdek, o'zi tomonidan bajariladigan ko'plab ijtimoiy rollarda o'zini to'g'ri va adyekvat aks ettiraolmasligi, hamda shaxsdagi ijtimoiy va shaxsiy indentifikatsiyalashtirish muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa o'smirlarda ijtimoiy va shaxsiy identifikatsiyalashtirish, taqlidchanlik ko'nikmalarini to'g'ri shakillantirish, guruhiy vaziyatni t o'g'ri idrok etishdik sifatlarni yaxshi shakillanganligi, keyingi faoliyatidagi garmonik muvoznatiga tasiri atroflicha bo'lishi mumkin. O'z o'zini to'g'ri va adyekvat baholash orqali o'smir bolalikdan, katta ijtimoiy kenglikka kirib boradi, biroq ushbu jarayonni o'zida subyektiv, ichki psixologik faol tizim mavjud bo'lib bunday (identifikatsiyalashtirish hodisasi) hodisa vaqt, vaziyat va psixologik tayorgarlikning uzoro tutashuvida sodir b o'ladi.

O'zbek psixologlari tomonidan aynan shaxsning ijtimoiy, guruhiy vaziyatlarga, guruh ishtirokchilariga va o'zining guruh a'zoligiga qiyosiy s o'bektiv baho berishi jarayoni tadqiq etilmagan. Shu sababdan ijtimoiy-psixologiya sohasida tatqiqot ishlarini olib borgan yevropalik psixolog olimlarni nazariy qarashlari tomon burilish qildik va umumiy nazariy, konsepsiyalar majmuidan kelib chiqib o'z farazimizni ifodalash uchun ilmiy gipotizalarga asoslangan fikr mulohazalarimizni sharhladik.

Adabiyotlar

1. Karimova V. M. "Ijtimoiy psixologiya", "Fan va texnalogiya", 2012, B.25
2. J.Tyorner, va N.Tajfel. "Guruhlararo hatti-harakatlarning ijtimoiy identifikatsiya qilish nazariyasi". "Guruhlar aro munosabatlar psixologiyasi", 1986-y, B.174
3. E.G`oziev, "Psixologiya metodologiyasi", Toshkent 2012-y, B.5
4. P.Ivanov, M.Zufarov, "Umumiy psixologiya", Toshkent 2008, B.457

UDK: 159.922.7(575.1)

DASTLABKI MULOQOT VA MEHRLI MUNOSABAT SOG‘LOM BOLA SHAKLLANISH MEXANIZMI SIFATIDA

O‘. B. Shamsiyev
O‘zbekiston milliy universiteti
uktamshams75@mail.ru

Annotasiya. Mazkur maqolada “Dastlabki muloqot va mehrli munosabat” degan konseptual fikrga atroflicha izoh berishga harakat qilingan. Undagi fikr va dalillar adabiyotlar tahlili va shaxsiy tadqiqotlarning ilmiy xulosalariga asoslaniladi.

Tayanch so‘zlar: dastlabki muloqot, mehrli munosabat, go‘daklik va bolalik davridagi jismoniy, biologik hamda psixologik erkinlik.

Начальное общение и заботливое отношение как механизм формирования здорового ребенка

Аннотация. В данной статье основательно дано пояснение на концептуальную мысль “Первичное общение и заботливое отношение”. Данное в нем мнение и аргументы обосновываются на литературном анализе, а также, на научных выводах личного исследования.

Ключевые слова: первичное общение, заботливое отношение, физическая, биологическая и психологическая свобода во время младенчества и детства.

Initial communication and affectionate attitude as a mechanism for the formation of a healthy child

Abstract. This article thoroughly clarified the conceptual idea of “Primary communication and caring attitude”. Arguments based on literary analysis as well as scientific conclusions personal research.

Keywords: primary communication, caring attitude, physical, biological and psychological freedom during infancy and childhood.

Ota-onaning, ayniqsa, onaning go‘dak haqidagi qayg‘urishlarini psixologiya fanida birgina “mehrli munosabat” atamasi bilan izohlash mumkin. Go‘dak o‘lg‘aygan sari bu so‘zning ma’nosi ham o‘z-o‘zidan kengayib boradi. Oiladagi shaxslararo munosabatlarning kengayishi, ota, ona va bola uchligi munosabatlarining chuqurlashishi ota-onalarda mehrli munosabatlarning tajriba sifatida shakllanishiga olib keladi. Ota-ona bilan go‘dak o‘rtasidagi dastlabki muloqot va mehrli munosabat fiziologik shaklda kechadi, ya’ni go‘dakni ona dastlab bag‘riga bosishi, qo‘lida tutib turishi, uni xavfsiz harakatlantirishi kabilar boladagi yaxshi yoki yomon psixologik munosabatning yuzaga kelishini ta’minlaydi.

Dastlabki muloqot va mehrli munosabat, xushmuomalalik go‘dakning psixik rivojlanish jarayoniga ijobiy ta’sir qiladi. Salbiy munosabatlar, ya’ni noto‘g‘ri, qo‘pol munosabatlarning davomiyligi go‘dakning atrof-muhitga moslashishga bo‘lgan ehtiyojini qanoatlantirmaydi, bu esa uning psixik rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi.

Vaqtidan avval tug‘ilgan go‘daklarning dastlabki kunlarida atrof-muhitning ahamiyati kam bo‘lsa, sog‘lom, o‘z vaqtida dunyoga kelgan go‘dak esa dastlabki daqiqalardanoq atrof-muhitga va ayniqsa, onasiga ehtiyoj seza boshlaydi. Shu daqiqalarda bolaga bo‘lgan munosabat sog‘lom, mehr va xushmuomalalikka asoslangan tajribaga tayanilishi go‘dakning tom ma’nodagi yetuk shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi [1].

Bolaning go‘daklik chog‘larida yaxshi va ko‘p vaqt davomida qo‘lda olib yurilishi ularda dadil harakatlanish, ishonch va mehr hislarining shakllanishiga asos bo‘lishi bilan birga, ularda mehrli munosabatlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatib, go‘dakning jadal hissiy rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Go‘dakni mustahkam va ko‘p vaqt qo‘lda olib yurish shaxs shakllanishiga xizmat qiladigan asosiy omillardan biridir. Bolalar o‘zlarini yetarlicha xavfsiz olib yurilganliklarini eslay olishmaydi, lekin ularga yetarlicha xavfsiz munosabat bo‘lmasa, bunday harakatlar ularning xotirasida muhrlanadi va kelajakda buning oqibatlari go‘dakka o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi dastlabki muloqot va mehrli munosabatlarning qay darajada shakllanganligi bilan belgilanadi. Xo‘sh dastlabki muloqot yoki munosabatlar qachondan boshlanadi? O‘tkazilgan so‘rovnomalarga javob berganlarning katta foizi ushbu savolga 2-3 yosh, nari borsa 1 yoshdan muloqot va munosabatlarning boshlanishi haqida gapirishadi. Biroq mutaxassislar tadqiqotlari natijalarining ko‘rsatishicha, tug‘ilgan go‘dakni tug‘ilgan zahotiyoq qo‘lga olinishi va dastlabki munosabatlarning o‘rnatilishi go‘dakning ijtimoiy muhitga qanchalik oson moslashishiga yordam beradigan asosiy omil hisoblanar ekan. Sir emaski, bugun uzoq kutilgan farzandlar ham tasodifiy

tug‘ilayotgan farzandlar ham yoki kutilmagan farzandlar ham dunyoga kelmoqda. Dunyoga kelgan farzand kutilganligining qay darajadaligi esa onaning dastlabki muloqoti va mehrli munosabatini belgilaydi. Shu paytdan boshlab go‘dak ongida tashqi muhit bilan o‘rnatiladigan munosabatlarning modeli shakllana boshlaydi.

Yana shuni aytish lozimki, go‘dakning ona tomonidan oziqlantirilishi ham dastlabki obyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘rnatilishi hisoblanadi. Go‘dak bilan bo‘ladigan barcha dastlabki munosabatlar uning ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishi jarayonida bosqichma-bosqich shakllanib boruvchi ona va bola o‘rtasidagi insoniy munosabatlarning boshlanishidir.

Go‘dakning ijtimoiy muhitga moslashishi, shaxslararo munosabatlarda o‘z o‘rnini topishida oila, oilaviy munosabatlar, ona-bola-ota uchligi o‘rtasidagi muloqotning ahamiyati qanchalik katta ekanligi ma’lum. Biroq bu masalaning bir tomoni, boshqa tomoni esa go‘dakning qanchalik fiziologik jihatdan sog‘lomligiga ham bog‘liq.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, davlatimiz tomonidan oilaga tayyorlash, oila qurilgunga qadar oila, sog‘lom ona va bolalarga qaratilayotgan e’tibor yuqorida ta’kidlangan bolalarning ham fiziologik, ham biologik, ham psixologik jihatdan sog‘lom dunyoga kelishlari va ijtimoiy muhitga jadal kirishishlariga zamin yaratmoqda.

Aynan shunday munosabatlar bola dunyoga kelishi jarayonida oiladagi shaxslararo munosabatlar, ya’ni ota-ona munosabatlari, ayniqsa, onaning psixologik holati, uning homiladorlikka nisbatan ijobiy munosabatlarining shakllanishiga ham xizmat qiladi. Onaning homiladorlik vaqtidagi ruhiy holati bola shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi ham ko‘p tadqiqotlar natijasida isbotlangan. Biroq ayolning ruhiy holati homilaning jinsiga nisbatan ham turlicha ta’sir ko‘rsatishi, ya’ni o‘g‘il bolaga nisbatan boshqacha ta’sir ko‘rsatsa, qiz bolaga nisbatan esa mutlaqo boshqacha ta’sir ko‘rsatishi bugungi kunga kelib endi-endi ma’lum bo‘lmoqda. Yana shuni aytish mumkinki, onaning ruhiy holati qiz bolaga nisbatan o‘g‘il bolaga ko‘proq ta’sir qiladi va bu bola tug‘ilganidan keyingi davrlarda ham ahamiyatli hisoblanadi.

Sharq va g‘arbiy Yevropaning ko‘pgina mamlakatlarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar bola rivojlanishi jarayonidagi dastlabki muloqot bir kishi bilan – odatda onasi bilan bo‘ladigan muloqotni go‘dakning to‘laqonli rivojlanishi uchun ideal deb hisoblashadi. Ushbu fikrlarni tasdig‘i sifatida professor V.M.Karimovaning “Dastlabki muloqot va mehrli munosabat bola shaxsi shakllanishiga xizmat qiluvchi asosiy omil”[2] degan konseptual fikrlarini keltirishimiz mumkin. Bunday muloqot mehrga to‘laligi, o‘yinlar va interaktiv dialoglarga boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu muammo doirasida olib borilgan tadqiqot va izlanishlar natijalari go‘daklik va bolalik davridagi jismoniy, biologik hamda psixologik erkinlik bolaning shaxs sifatida to‘g‘ri shakllanishiga xizmat qiladigan asosiy omillar ekanligini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, go‘dakning onasi bilan kechadigan dastlabki muloqoti boshqa ko‘plab buvisi, buvasi, opa-singil kabi keng doiradagi muloqotlarning ham shakllanishi va rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bola rivojlanishining dastlabki davrlarida unga atrofdagilarning g‘amxo‘rligi juda zarur. Shu bilan birga, bu munosabatlar qanchalik muloqotga boy bo‘lsa, bola shunchalik sog‘lom va o‘ziga ishonch bilan voyaga yetadi. Bola bir yoshga to‘lgunga qadar bo‘lgan davr noverbal (so‘zsiz) muloqot davri bo‘lib, undagi barcha o‘zgarishlar yaqinlari, ayniqsa, onasi bilan emotsional, bevosita munosabatlarning natijasi sifatida bora-bora muomalaga til hamda tovushlar bilan bog‘liq belgilar kirib kela boshlaydi. Agar ota va ona tomonidan ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik doimiy va samimiy bo‘lsa, ya’ni haqiqiy, g‘amxo‘r ona bolasining ayni paytdagi barcha ehtiyojlarini qalban his qilib, o‘sha zahoti qondirishga harakat qiladi, masalan, chanqasa suv, och qolsa ko‘krak suti berish kabi ishlarni o‘z vaqtida bajarib boradi. Bu jarayonda tan-vujud bilan ona-bolaning yaxlitligi o‘ziga xos hissiyot bo‘lib, ya’ni ona o‘z farzandini qo‘lidan ushlab, tanasi tanasiga tekkanda his qiladigan kechinmalari orqali boladagi o‘zgarishlarni tuyadi, his qiladi. Go‘dak bola ham onasini shu qadar yaqin hissiy-emotsional tarzda his qiladiki, shu sababli u hattoki ma’lum masofadayoq onaning kelayotganligini, yaqinlashgani va “hozir qo‘liga olishini” bilar ekan. Aynan shu holatni psixologlar go‘dakdagi yetakchi faoliyat deb atab, unga juda katta ahamiyat beradilar.

Mutaxassislarning fikricha, “mehrli munosabatlar”i kam bo‘lgan onalarning shaxsiy muammolari ko‘p bo‘lib, ular bolani qo‘lida ushlaganda ham deyarli hech nimani his etmaydilar [3]. Ana shunday chaqaloqlarda keyinchalik beixtiyor tarzda ro‘y beradigan psixik funksiyalar rivojida muayyan muammolarni vujudga keltirishi mumkin, masalan, ixtiyoriy ravishda diqqatni bir narsaga to‘plash, ixtiyoriy ravishda u yoki bu narsani eslab qolish, gapirish, mantiqiy fikrlash kabilar.

Gapirish, nutq faoliyati bilan bog‘liq psixik funksiyalar ko‘pincha sinxronizatsiya jarayonida shakllanadi. Bolasini suyib, uning his-kechinmalarini bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan ona odatda bolasining psixik rivojlanishida barcha qiliqlarini, ulardan qanday foydalanish malakalarini orttirib boradi.

Bolaning kognitiv rivojlanishi, ya'ni fikrlar tarbiyasi, dunyoqarashlarning shakllanishiga ham onaning xulq-atvori katta ta'sir qiladi. Yevropalik mutaxassislarning kuzatishlarida onaning har bir harakati, mimikalari, suyishlari, bolaning tepasida turib, unga qiladigan muomalasi, erkalashlari bora-bora bola o'zlashtiradigan alohida iboralar, so'zlarda namoyon bo'ladi. Shaxsiy kuzatishlarimiz asosida shu narsa ma'lum bo'ldiki, onaning qiliqlari tobora bolaning nutqli-nutqsiz, mantiqiy-mantiqsiz harakatlariga, ishoralariga aylanib boradi, keyinchalik bola alohida so'zlarni talaffuz qila boshlaganda ham beixtiyor onaning mimikalari, talaffuz uslublarini qaytaradi. Shu tariqa onaning bevosita ishtiroki va yordamida bola dunyoni taniydi, o'rganadi, o'zi haqidagi tasavvurlari ko'lami ham borgan sari ortib boradi.

Aynan yuqorida ta'kidlagan "mehrli munosabat" tushunchasini tushunish uchun tipik o'zbek oilalaridagi shaxslararo munosabatlarni ko'z oldimizga keltiraylik. Buvilarimiz nabiralarini kuzatar ekan, ko'pincha bola yig'lamasdan turib uning chanqaganligi yoki och qolganligini oldindan his qilib aytishlarini kuzatishimiz mumkin. Buni ham o'ziga xos sog'lom oilaviy muhitda shakllangan ko'nikma, sog'lom muloqot va mehrli munosabatning bir ko'rinishi deyish mumkin.

XX asr o'rtalaridan boshlab psixologlar go'dakning unga g'amxo'rlik qilayotgan odamlar bilan dastlabki munosabatlarini tadqiq etib, bu jarayonga nisbatan "mehribonlik" atamasini qo'llay boshladi. Bu tushunchani kuchli o'zaro yaqinlik, ikki tomonlama intensiv hissiyotlar va emosional aloqalar bilan izohlash mumkin.

Psixolog mutaxassislar uch toifali – mehribon, tortinchoq, qaysar bolalarni kuzatar ekanlar, ularning o'zlarini tutishlarida, psixik rivojlanishida va tengqurlari bilan muloqotda bir-birlaridan tubdan farq qilishini aniqlashdi.

Mehribon bolalar 18 oyligidayoq hamkorlikdagi faoliyatga tayyor ekanliklari, ularning ishtiyoqlari baland ekanligi va qat'iyatliliklari namoyon bo'ladi. Ikki yoshda esa tengqurlari bilan faol muloqotga kirisha oladi, o'yinchoqlarni tartib bilan o'ynaydi va turli o'yinlarda o'z fantaziyalaridan foydalana oladi. Besh yoshli bolalarda ham bunday farqlar saqlanadi. Keyinroq boshlang'ich sinflarda esa juda mehribon bo'lgan bolalar o'qishda ham yaxshi yutuqlarga erishib, tengqurlari va kattalar bilan faol muloqotga kirisha oladilar [4].

Ko'plab tadqiqotlar tahlili bolaning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini onasining rahmdilligi va ziyrakligi bilan bog'laydilar. O'tkazilgan tadqiqotlar vaqtida juda mehribon bo'lgan bolalarning onalari o'ta ziyrak ekanliklari va bolasining savollariga hushyorlik bilan javob qaytarishlarini aniqladi. Bundan tashqari, bir yoshli juda mehribon bolalarning onalari ularning har bir harakatiga ziyraklik bilan javob qaytarib, bolaning ovqatlanish va o'yin vaqtlarini bir-biriga moslay olishadi.

Shuningdek, boshqa tadqiqotchilar ham bunday bolalarning onalari farzandining ehtiyojlarini ziyraklik bilan aniqlay olishini hamda unga qachon, nima kerakligini uning yuz harakatlari va ovozidan bilib olishlarini ta'kidlashgan.

Tadqiqotlar yana shuni ko'rsatadiki, endi yurishni boshlayotgan bolalar, ya'ni jismoniy zo'riqishni boshdan kechirayotgan bolalarga mehribonlik ko'rsatilmasa, ularda o'z "Men"ini anglashi va nutqining shakllanishida muammolar yuzaga kelishi mumkin. Agar bolalar hayotining birinchi yilida kimgadir juda mehr bilan bog'lanib qolsa, ikki yoshligida unga qilingan noto'g'ri munosabatlarning noxush ta'siri ham kamroq bo'ladi.

Oilaviy shaxslararo munosabatlarda ona roli va timsolining ahamiyati yana shundan iboratki, bola bir yoshga to'lgunga qadar ota va ona shaxsini bir obyekt ona sifatida ko'radi va bir yoshdan boshlabgina otani alohida shaxs sifatida anglay boshlaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, bola onaning mehrini his qiladi va unga ham shu tarzda javob qaytaradi. Bu psixologiya tili bilan aytganda, sog'lom oilaviy muhit, undagi insonlarning o'zaro mehr-muruvvatli munosabatlaridan boshlanadi.

Adabiyotlar

1. Винникот Д.В. Семья и развитие личности. Мать и дети. – Екатеринбург: Изд-во «ЛИТУР», 2004. – 400 С.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. - T.: Fan va texnologiya, 2008. -170 b.
3. Винникотт Д.В. Разговор с родителями. – М.: Класс, 1995. – 92 с.
4. Выготский Л.С. Лекции по психологии. -СПб.: Питер, 1999. – 478 с.

УДК: 159.9

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ИМИДЖА И ПРИНЦИПЫ ЕГО ПОСТРОЕНИЯ

Ф. Б. Нарзикулова
Самаркандский региональный центр повышения и переподготовки квалификации работников народного образования
firuza-narzikulova@mail.ru

Аннотация. В статье представлена главная идея науки имиджелогии – как особой науке о человеке - главной целью, которой, является самореализация личности. Рассмотрен анализ и современное понятие определений “имидж”, “профессиональный имидж”, “имидж педагога”. Анализ психологической литературы позволил сделать вывод, что сущность понятия “имидж” представлен через категории: “образ”, “мысль”, “суждение”, “представление”, “развитие” и другие. Раскрыт психолого-педагогический аспект формирования имиджа в профессиональной деятельности педагога. Рассмотрены структура профессионального имиджа и принципы его построения.

Ключевые слова: имидж, профессиональный имидж, имидж педагога, психолого-педагогическая модель имиджа современного педагога, педагогическое мастерство, образ.

Professional imidjni shakllantirish va uni tuzish printsiplari

Annotatsiya. Maqolada imidjelogiya fanining asosiy g‘oyasi, maqsadi hamda "imidj", "kasb imidji", "o‘qituvchi qiyofasi" ta'riflarining tahlili, zamonaviy tushunchasi keltirilgan. Psixologik adabiyotlarda ushbu tushunchalarga berilgan ta’riflarga e`tibor qaratildi. Maqolada o‘qituvchining kasbiy faoliyatida imidjni shakllantirishning psixologik va pedagogik jihatlari ochib berilgan. Professional rasmning tuzilishi va uni qurish tamoyillari ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: imidj, kasbiy imidj, o‘qituvchining qiyofasi, zamonaviy o‘qituvchi obrazining psixologik-pedagogik modeli, pedagogik mahorat, imidj.

Formation of a professional image and principles of its building

Abstract. The article presents the main idea of the science of imageology - as a special science of the man, whose main goal is an individual self-realization. The article presents the analysis and the modern concept of terms as “image”, “professional image”, “image of a teacher”. Analysis of psychological literature led to the conclusion that the essence of the concept of “image” is presented through the categories: “image”, “thought”, “judgment”, “presentation”, “development” and others. The article reveals the psychological and pedagogical aspect of image formation in the professional activity of a teacher. The structure of the professional image and the principles of its construction are considered.

Keywords: image, professional image, image of a teacher, psychological and pedagogical model of the image of a modern teacher, pedagogical skills, image.

Преобразование системы образования современного Узбекистана, характеризуется поиском оптимального соответствия между устоявшимися традициями в отечественной школе и новыми тенденциями, связанными с вхождением в мировое образовательное пространство. Современная образовательная система должна отвечать высоким требованиям общества к личности педагога. Становится очевидным, что достижение целей современного образования во многом связано с личностным потенциалом педагога, его общей и профессиональной культурой. Поэтому, одна из главных задач, становится важнейшей социокультурной проблемой, обусловленной интенсивным процессом глобализации, необходимостью формировать условия для индивидуального развития личности и ее самореализации. В связи с этим все большее значение приобретает культурологический аспект в подготовке, как будущих педагогов, так и в процессе повышения их квалификации. Наряду с традиционными подходами к формированию педагогической культуры значительное внимание должно уделяться развитию духовной сферы педагога, основными критериями которой является культура мышления, чувств, гуманное поведение личности. Духовная культура является необходимой составляющей педагогической культуры преподавателя, его общенаучной и профессиональной подготовленности.

В последнее время социально-психологические науки постоянно уделяют внимание вопросам самообразования, самосовершенствования и самоопределения личности, полагаясь все больше на

стремление человека создать в себе силу своей профессии, путем построения жизненной стратегии и планирования профессиональной деятельности. Такое стремление должно выступать основной задачей профессионального образования, как будущих преподавателей, так и в процессе повышения квалификации педагогических кадров. Привлечение личности к созданию в воображении образа будущей профессии, как результат профессиональной подготовки, может стать побудительной силой, превратиться в целенаправленное формирование имиджа.

Неоспорим и тот факт, что научные представления о процессах, связанных с возникновением и формированием профессионального имиджа, складывались неразрывно, прежде всего, в категориальном поле двух таких наук: как социологии и психологии. Так же, неоспорим и тот факт, что представители этих наук создали большое количество фундаментальных теорий, существенное влияние которых отразилось на формирование, прежде всего, основ современной теории имиджа. Так, открытие “бессознательного” (З.Фрейд), “коллективного бессознательного” и “архетипов” (К.Юнг), осмысление социокультурных и этносоциальных феноменов в жизни больших общностей людей (Г.Лебон) побудило, как известно, к пониманию механизмов формирования образов, возникающих в индивидуальной и массовом сознании. Представители бихевиористских направлений (Дж.Уотсон, Б.Торндайк, Э.Толмен, Б.Скиннер и др.) исследовали, как в процессе социального взаимодействия через подражание (Г.Тард) усваивается социальный опыт, в свою очередь формируются привычки, навыки общения, впечатления и вкусы. А, обоснование такого понятия, как “полезности” (В.Парето), как одного из наиболее значимых в процессе социализации и разработка проблемы человеческих потребностей (А.Маслоу) охарактеризовали явления, детерминирующих возникновением имиджа. К ним относятся, прежде всего, потребность в одобрении и принадлежности, а так же потребность в самовыражении и самоактуализации, а так же в получении статуса и престижа.

Анализ психологической литературы позволил нам сделать вывод, что сущность понятия “имидж” представлен через категории “образ”, “мысль”, “суждение”, “представление” и другие. Таким образом, на наш взгляд, *имидж педагога - это интегративное качество личности, синтез интеллектуальной, габитарной, кинетической, речевой, средовой и артистической культуры* (схема.1).

Схема.1. Имидж *педагога*

Слагаемыми имиджа педагога являются:

- *интеллектуальная культура* - это гибкость мышления, рефлексия и самосознание, связанная с развитием творческого начала и ростом профессионального мастерства личности педагога;

- *габитарная* (лат. *habitus* — внешность) *культура* — это культура личности, включающая в себя *индивидуальность,* которая определяет цветовую гамму, физические и психофизиологические особенности; *стиль* - романтический, спортивный, драматический, устанавливающий индивидуальную креативную характеристику в соответствии с требования профессии; *моду,* отражающую тенденции развития и помогающую педагогу быть современным и признанным в среде коллег и обучающихся.

- *кинетическая* (греч. *kinesis* — движение) *культура,* обусловленная мимикой и пантомимикой: жесты, выражение глаз, поза, телодвижение, походка и осанка;

- *речевая культура* - личностная культура, развивающаяся на основе принципа объективно существующих связей между языком и познавательными процессами, предполагающая чувство стиля, развитый вкус и эрудицию;

- *средовая культура* - материальная и социальная: окружение и аксессуары;

- *артистическая культура* - интегрированное качество личности, осуществляющая единство общей культуры и артистизма, аксиологического и эстетико-этического начала в разнообразных видах профессиональной деятельности и общения.

Кроме этого, существует энергоинформационное поле человека, изучается структура и влияние. Эксперименты фиксируют с помощью приборов, как меняется энергетическое поле человека в зависимости от различных состояний и внешних условий, измеряется сила личностного влияния человека на человека [9]. Из всего набора характеристик в работе над формированием профессионального имиджа выбирают те, которые, несомненно, должны положительно оцениваться окружающими.

Нужно отметить интересный факт, что профессиональный имидж порождение социальное, и предполагает в свою очередь, обязательное наличие людей, которые и воспринимают публичное “Я” любого человека. Именно это восприятие происходит через призму личности. Вместе с тем, человеческая способность к восприятию других личностей основывается на эмоциях и чувствах. М.Монтень указывал на роль красоты в общении людей друг с другом следующим образом: “…она имеет первостепенное значение во взаимоотношениях между людьми: ее замечают раньше все, направляя на нас чудодейственное впечатление, она властно владеет нашими мыслями” [6]. В результате первичное восприятие имиджа так впечатляюще, нечаянно следует внутреннему захвату без раздумий. Таким образом, влияет красота на человека.

Однако нужно отметить, что волшебной внешности недостаточно, чтобы стать привлекательной личностью. Внешность, конечно же, имеет большое значение в формировании профессионального имиджа, но все-таки не решающее. Определяющим принципом создания профессионального имиджа влияние не только на сознание, но и на подсознание людей, требует представления внутренних качеств личности. Таких как: интеллект, духовная, нравственная составляющие, ораторские способности. Глубинная личность с богатой духовной жизнью не всегда может вызвать чувство симпатии. Профессиональный имидж – это не видение, а исследования, поиск ответа на вопрос: “Кто я такой?”. Поэтому важным значением, на наш взгляд, имеет овладение, прежде всего, технологией самосоздания, представления и познания, прежде всего самого себя.

Большинство психологов (С.Рубинштейн, Г.Костюк, А.Леонтьев, И.Бех) считают, что образы, как психологические образования оказывают существенное влияние на поведение человека. В целом все наше сознательное поведение побуждается и регулируется образами. Цель направляет наши действия. Ставя перед собой цель, мы обязательно представляем конечный результат. Как видим, именно образ стимулирует и направляет действие [1; 4; 8]. Так например, ученый исследователь И.Бех используя эти функции образов, предлагает программу формирования ценностного отношения к профессиональной деятельности, что, по нашему мнению, вполне соответствует профессии преподавателя. Автор описывает четыре основных блока программы формирования профессионального имиджа:

1) знакомство с профессиональной деятельностью и создание обобщенного представления о ней;

2) формирование реального представления о профессионале по выбранной специальности;

3) формирование ценностных представлений;

4) составление “образа себя - как – профессионала” [2, с. 268].

Больше всего ученый исследователь, на наш взгляд, акцентировал внимание на четвертом блоке, который имеет первостепенное значение и для нашего исследования, поскольку проблема образа, а для нас создание имиджа, возможной профессиональной деятельности и образа себя в ней может в дальнейшем выполнять направляющую функцию, задавать перспективу собственного становления и повышать ценность в избранном профессиональном пути.

В нашем исследовании – психолого-педагогические аспекты имиджа преподавателя, - на наш взгляд, в формировании представления о профессиональном имидже, т.е. создание образа, в процессе повышения педагогического мастерства, в профессиональной деятельности выполняет направляющую функцию, тем самым предоставляет, перспективу собственного становления, как профессионала. [5, с.14-15; 30-31].

Таким образом, самореализация в профессиональной деятельности, в первую очередь на наш взгляд, предполагает постоянный поиск средств, а также методов, адекватных приобретенным знаниям, как опыту, так и умениям и навыкам - всему, что составляет профессионально-личностный портрет. Изучение состояния разработки в науке особенностей формирования имиджа и состояния их практического использования показывает назревшее противоречие между необходимостью теоретико-методологического осмысления сущности, природы и особенностей имиджа личности и уровнем его реализации в деятельности педагога-профессионала. Указанное противоречие и вызвало необходимость исследования теоретико-методологических основ и особенностей формирования имиджа специалиста-профессионала. Разрешение данного противоречия и недостаточная разработанность психолого-педагогической теории и практики развития имиджа педагога и определили выбор темы нашего исследования. *Объектом* нашего исследования является личность педагога в процессе развития профессионального имиджа. *Предметом нашего* исследования являются социально-психологические условия и сам процесс создания позитивного имиджа педагога, как специалиста-профессионала. *Целью исследования* является изучение сущности и особенностей профессионального имиджа, как психолого-педагогическое явление, а так же разработка теоретических и научно-практических основ развития профессионального имиджа педагога и технологии его реализации в практической деятельности. *Методы исследования.* Для решения поставленных нами задач, в нашем исследовании мы предусматриваем использование анализа общепсихологической, социально-психологической, педагогической и философской литературы по данной проблеме исследования; методы экспериментального исследования, такие как: наблюдения, изучение и анализ документов, анкетирование, интервьюирование и ряд специфических методов, таких как: социометрия, экспертная оценка личности, рейтинг, шкалирование, ранжирование, самооценка, самоанализ, тестирование и т.д.; а так же методы статистической обработки и многие другие.

Исходя из вышеупомянутых положений, нами разработана модель реализации системы развития профессионального имиджа педагога, которая представляет собой систему, состоящую из отдельных, взаимосвязанных между собой элементов, что обеспечивает целостность процесса развития профессионального имиджа педагога в последипломном образовании. Процессуальными компонентами модели являются цели и задачи, принципы взаимодействия субъектов учебно-воспитательного процесса, содержание, условия, а также результаты, которых при этом достигают (схема 2). По нашему глубокому убеждению, педагогическая модель должна быть достаточно гибкой в ситуативной трансформации в соответствии с ситуацией, и естественно содержать при этом, как можно большее количество альтернатив. При разработке модели реализации системы развития профессионального имиджа учителя в последипломном образовании мы учитываем, прежде всего, принцип конструктивного моделирования, который предполагает соотношение результатов моделирования, мысленного эксперимента с результатами собственной экспериментально-практической деятельности, с одной стороны, и современными положениями теории - с другой.

В разработанной модели реализации системы профессионального имиджа учителя в последипломном образовании заложены теоретические основы для ее постепенного развития – это в первую очередь андрагогический принцип обучения взрослых, согласно которому будет осуществляться управление этим развитием.

Как нам известно, сущность андрагогического принципа обучения состоит в приоритете самостоятельной деятельности учителя и его эффективности. При этом, ведущая роль в определении стратегии развития профессионального имиджа принадлежит самому педагогу, при использовании опыта, как источника обучения, и применение результатов предварительного обучения на практике, педагогическая рефлексивность и кооперативность, которые определяют общий характер деятельности педагога и его коллег. Апробация эффективности модели реализации системы развития профессионального имиджа педагога осуществляется в ходе экспериментальной работы. Важным моментом апробации предложенной модели стало внедрение гипотетически прогнозируемых педагогических условий.

Таким образом, организация образовательной среды учреждения последипломного образования с учетом требований личностно ориентированного подхода в обучении, содержание которого учитывает специфику профессиональной деятельности учителя, является одной из педагогических условий развития профессионального имиджа учителя, поскольку именно образовательная среда заведений последипломного образования и личностно ориентированный подход предоставляют возможность всесторонне развиваться личности учителя. Мы считаем, что

процесс развития профессионального имиджа педагога невозможно без активного привлечения слушателей к учебно-познавательной деятельности, без выраженной потребности в профессиональном самосовершенствовании специалиста. Поэтому условием развития профессионального имиджа педагога нами определены овладение педагогом средствами эффективного развития профессионального имиджа на основе использования интерактивных форм и методов обучения.



Схема. 2. Модель реализации системы развития профессионального имиджа учителя в последипломном образовании

Литература

1. Бех И.Д. Гуманистическая педагогика в траектории воспитания личности . //Воспитание и культура. - 2002. - № 1. - С. 9-13.
2. Бех И.Д. Воспитание личности: личностно ориентированный подход: научно-практические основы. //Учеб. Пособие, в 2 кн. - М.: Просвещение, 2003. - Кн. 2. - 344 с.
3. Бодалев А.А. Вершина в развитии взрослого человека: характеристика и условия достижения . - М.: Флинта: Наука, 1998. - 165 с.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Политиздат, 1977. - 304 с.
5. Нарзикулова Ф.Б. Профессиональный имидж – как социально-психологический и педагогический феномен, в контексте педагогической деятельности// материалы научно-практической конференции. – Самарканд, 2018. – 412 с.
6. От Монтеня до Арагона / пер с французкого – М.: РАДУГА, 1983 – 256 стр.
7. Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание. Человек и мир. - СПб.: Питер, 2003. - 512 с.
8. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - СПб: Питер, 2004. - 720 с.
9. Суслова Л. У каждого своя аура. //Учительская газета. - 2002. - 3 января. - С. 5-6.

UDK: 15:37

ORFOGRAFIYANI ADAPTIV O‘RGATISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

G‘. X. Yaxshiboyev[1], G. A. Ergasheva[2]

[1]Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti,

[2]Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi

Annotatsiya. Ta’limning hozirgi zamon rivojlanish bosqichida ta’lim moduli tushunchasi metodologik ma’no kasb etmoqda. Modullik tamoyili kabi muhim tamoyil bilan bir qatorda tizim ishlashining dinamikligi va mobilligini belgilaydi. Bunda tizimning o‘zi modullar to‘plami sifatida tasavvur qilinishi yoki umumiy modul sifatida qaralishi mumkin.

Kalit so‘zlar: orfografiya, kompyuterda o‘qitish, tizimlilik, moslashuvchanlik, modulli, vizuallashtirish, kognitiv vizuallashtirish, o‘quvchilar faoliyati, tamoyillar, grammatik-orfografik bilimlar, o‘quv ta’minoti, texnologik moslashuvchanlik, mazmunan moslashuvchanlik.

Психолого-педагогические основы адаптивного обучения в орфографии

Аннотация. На современном этапе обучения концепция образовательного модуля носит методологический характер. Модульный подход определяет динамику и мобильность системы, а также важный принцип, такой как развитие структурированного подхода. В то же время сама система рассматривается как модульный пакет или как общий модуль.

Ключевые слова: орфография, компьютерное обучение, систематика, гибкость, модульность, визуализация, когнитивная визуализация, успеваемость студентов, принципы, грамматические и орфографические знания, академическая поддержка, технологическая гибкость, гибкость контента.

Psychological and pedagogical foundations of adaptive learning in spelling

Abstract. At the present stage of education, the concept of an educational module is methodological. The modular approach defines the dynamics and mobility of the system, as well as an important principle, such as the development of a structured approach. At the same time, the system itself is considered as a modular package or as a general module.

Keywords: spelling, computer training, systematics, flexibility, modularity, visualization, cognitive visualization, student performance, principles, grammatical and orthographic knowledge, tuition, technological flexibility, content flexibility.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining orfografik savodxonligini oshirish uzluksiz ta’lim tizimining keyingi bosqichlarida ta’lim samaradorligiga erishishning muhim shartlaridan biri sifatida ona tilidan grammatik-orfografik bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikma va malakalarning egallanishini nazorat qilish, takrorlash va mashq qilishda o‘z ifodasini topadi. Shunga ko‘ra orfografiyani axborot texnologiyasi vositasida adaptiv o‘rgatishda quyidagi masalalar nazarda tutiladi:

-pedagogik texnologiyaga doir yetakchi g‘oyani tanlash;

-kompyuterda o‘qitish texnologiyalarini aniqlash;

-texnologiyaning maqsadli konsepsiyasini (adaptiv-shaxsiyatli o‘qitish) ishlab chiqish va o‘quv maqsadlarini iyerarxik tizimlashtirish, ta’lim mazmunini loyihalash;

-ta’lim mazmuni, metodlari va vositalarini integratsiyalash;

-ta’lim jarayonida texnologiyani amalga oshirish vositalarini yaratish.

Kompyuterda orfografiyani o‘qitish tizimini yaratishda o‘qitish nazariyasi yutuqlarini, didaktik birliklarni to‘g‘ri yo‘naltirish, bilimlarning tizimliligini shakllantirish yetakchi konsepsiyadir.

“Bilimlar konsepsiyasi sun’iy intellekt sohasi bo‘lib u bilimlar bayoni, umumlashtirish metodlari, ularning korrektligi va ziddiyatsizligi va nihoyat, bilimlarni saqlash va ishlab chiqish uchun amaliy tizimlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi” va axborot texnologiyasi yordamida orfografiyani tizimli-modulli o‘rgatish jarayonini tashkil etishga asos bo‘ladi [1;11].

Modulli o‘qitishning mohiyati quyidagicha: o‘quvchi o‘ziga taqdim etilgan va sa’y-harakatlar maqsadli dasturi, axborot banki va qo‘yilgan didaktik maqsadlarga erishish bo‘yicha metodik qo‘llanmani o‘z ichiga olgan individual o‘quv dasturi bilan mustaqil ishlashi mumkin. Bunda o‘qituvchining vazifasi axborot-nazoratdan maslahat-muvofiqlashtirishgacha bo‘lishi kuzatiladi.

Tizimli modulli o‘qitishga yo‘naltirilgan axborot texnologiyasining asosiy tavsifi moslashuvchanlik bo‘lib, u yuqori texnologik yondashuv negizini tashkil etadi.

Tizimli moslashuvchanlik – kompyuterli modul tuzilishining mobilligi modulli dastur va dasturlar to‘plamining bosqichliligi bilan xarakterlanadi.

Mazmunan moslashuvchanlik, eng avvalo, ta’lim mazmunini tabaqalashtirish va integratsiyalashda aks etadi.

Texnologik moslashuvchanlik kompyuterli muammoli-modulli o‘qitishning ma’lum yo‘nalishini ta’minlaydi va u ta’limning variativ metodlarini, nazorat va baholash tizimining moslashuvchanligini, o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatlarini individuallashtirishni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim jarayonini tizimli-modulli asosda tashkil qilish:

a) orfografiyadan o‘quv materialining chuqur o‘zlashtirilishiga doir modullarda guruhlash yo‘li bilan o‘qitish mazmunini integrasiyalash va tabaqalashtirishni dialektik birlikda amalga oshirish;

b) tizimli-modulli dasturning u yoki bu variantlarini tanlash va orfografik qoidalarni o‘zlashtirishda individual sur’atni ta’minlash;

d) dasturiy pedagogik vositalarni yaratishda ssenariylar sifatida didaktik vazifasi turlicha bo‘lgan modullardan foydalanish;

e) adyekvat ta’lim metodlari va shakllarini qo‘llash asosida o‘qitish vaqtini o‘quv materialining to‘la va chuqur bayon qilinishiga halal bermasdan qisqartirish imkonini beradi.

Kompyuterli tizimli-modulli adaptiv shaxsiyatli o‘qitish uning tizimli kvantlash, modullik, muammolilik, kognitiv vizuallashtirish kabi yetakchi g‘oyalarida o‘z aksini topadi.

Tizimli kvantlash tamoyili ta’limning ilmiyligi, tizimliligi, izchilligi, faolligi, o‘quv vaqtini tejash, umumlashtirish talablarini o‘z ichiga oladi.

Modullik tamoyilida ta’limning tabaqalashtirilishi, individuallashtirilishi, mustaqilliligi, bosqichliligi, variativligi, amaliy yo‘naltirilganligi nazarda tutiladi.

Muammolilik tamoyili motivatsiya, onglilik, puxtalik, orfografiya sohasidagi ziddiyatli va muvafiqlashmagan dalillarga duch kelinganda xulosalarning mantiqiyligini konglomeratidir.

Kognitiv vizuallashtirish tamoyili ko‘rgazmalilik, bilish faolligi, o‘qitishning estetik va emotsional yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi.

Mazkur tamoyillar yangi axborot texnologiyalari asosida o‘qitishning tegishli yondashuvlarini anglatadi.

Muammolilik tamoyili rivojlantiruvchi o‘qitish nazariyalari, bilish faoliyati motivatsiyalari asosida turadi.

Kognitiv vizuallashtirish tamoyili zaminida kognitiv-vizual yondashuv mujassamdir. Vizuallashtirish faqat illyustratsiyalash funksiyasini bajaribgina qolmasdan, balki yangi axborotni ramzli va obrazli taqdim qilish usullarining birikuvi vositasida “bilim olishning tabiiy-intellektual jarayoniga yordam beradi” [2;24].

Kompyuterda o‘qitish tizimining faollik tamoyili o‘quvchilar va o‘qituvchi mustaqilligini belgilaydi va o‘zlashtirish natijalarini nazorat qilish, baholash reyting tizimi yordamida qayd etiladi,

Yuqorida sanab o‘tilgan nazariy qoidalarda kompyuterli o‘rgatuvchi tizimlarni loyihalashga qo‘yiladigan talablar o‘z aksini topadi.

Birinchi guruh talablar loyihalanib o‘zlashtirishga tavsiya etiladigan materiallarni tanlash va ularning xarakteri bilan bog‘liqdir. Bu talablarning bajarilishi o‘qitish jarayonida konkret o‘quv predmetining

mantiqiy-psixologik asosi birligini ko‘rsatadi. Buning natijasida o‘quvchilar nazariy umumlashma bilimlar hamda orfografik qoidalarning grafikli va belgili modellashtirish usullarini o‘zlashtirishlari mumkin.

Bu guruh talablari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-konkret o‘rganish obyektining boshlang‘ich elementlari va ularning munosabatlari (grammatik-orfografik kategoriyalar)ni aniqlash;

-o‘zlashtirish obyektining mantiqli-predmetli kontekstini grammatik bilimlarning adekvat shartlari asosida aniqlash;

-displey ekranida orfografik tahlilda bog‘lanishlarning barcha turlari amalga oshirilishini ta’minlovchi belgili vositalarni aniqlash;

-obyektni modellashtirish orqali o‘quv va amaliy masalalar tizimini aniqlash.

Ikkinchi guruh talablar o‘quvchilarning o‘quv ta’minotiga oid bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-o‘quvchilar faoliyatini mantiqiy-psixologik tahlil qilish asosida rejalashtirish;

- o‘quv faoliyatida ko‘nikma va amaliy masalalar tizimini oldindan belgilangan ketma-ketlikda taqdim qilish orqali tashkil etish tamoyiliga rioya qilish;

- o‘z faoliyati tizimini dasturlashtirish;

- ish-harakatlar sur’atini, masalaning murakkablik darajasini, o‘zlashtirish obyekti qayta tiklanadigan, transformatsiyalanadigan va konstruksiyalanadigan model turini tanlash;

- ekranda obyektlarning diskret va uzluksiz transformasiyalanishi orasidagi tanlovni, obyekt bilan ish-harakatlarni avtomatik boshqarish rejimlarini tadqiq qilish va o‘quv faoliyatini kombinasiyalash;

- yo‘riqnomalarni o‘zlashtirish sa’y-harakatlarini rejalashtirish;

- sa’y-harakatlar mazmuni va natijasini ta’minlash;

-masalalar yechimi qayd etilishini ta’minlash.

Maxsus talablar kompyuterda o‘rgatish tizimini nazorat qilish bilan bog‘liqdir. Bunday tizimlar o‘quv topshiriqlarining bajarilish jarayoni to‘g‘risidagi axborotni to‘plash; mazkur axborotni monitoringda tashxisiy mezonlarga muvofiq ravishda taqdim etish; orfografiyani o‘rganish natijalarini bayonnomalar ko‘rinishida tayyorlash va korreksion tipdagi topshiriqlarni bajarishga xizmat qiladi.

Nazorat va baholash rejimi to‘liq avtomatlashtirilishidan joriy muddati uzaytirilgan holatlarigacha variasiyalanishi lozim.

Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinfda orfografiyani adaptiv o‘rgatishda quyidagi masalalar nazarda tutiladi:

a) kompyuterda o‘rgatish tizimining o‘quv faoliyatini muayyan maqsadga yo‘naltirilishi;

b) kompyuterda o‘rgatish tizimining tegishli ko‘nikma va bilimlar mazmunini o‘zlashtirish obyekti sifatida oldindan tahlil qilish asosida modellashtirilishi;

d) har bir dasturda ma’lum mashqlar ketma-ketligi aks ettirilgan orfografik qoidalar kompyuterning o‘rgatish tizimiga kiritilishi;

e) kompyuterda o‘rgatish tizimida o‘quv malakalarini ma’lum ketma-ketlikda nazorat qilinishi va baholanishi;

f) kompyuterda o‘rgatish tizimining o‘zida dinamik va statik modellarni birlashtirishi;

g) kompyuterda o‘rgatish tizimlio‘quv faoliyatining shakllanganlik darajasini tashxislash, shuningdek, bilimlar va ko‘nikmalar mazmunini o‘zlashtirish natijasini nazorat qilish hamda baholashda foydalanilishi;

h) kompyuterda o‘rgatish dasturlarida kichik yoshdagi maktab o‘quvchisining yosh xususiyatlarini hisobga olinishi;

i) kompyuterda o‘rgatish dasturlarida kichik yoshdagi maktab o‘quvchisining amaliy-nazariy tafakkuri shakllanishiga yordam berishi;

Kompyuterda o‘rgatish dasturlari kichik yoshdagi maktab o‘quvchilari ijodiy faoliyatining shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

O‘rgatuvchi dasturlar tizimini loyihalash jarayonida to‘rt daraja ajratiladi.

1**.** Konseptual daraja. Bu darajada orfografiyani kompyuterli o‘rgatish tizimlari yordamida o‘qitishning nazariy modeli berilgan, o‘qitish mazmuni va metodlarining psixologik mexanizmlari va tamoyillari buyruqlar ko‘rinishida tavsiflangan. Bu esa dastur tuzuvchilari faqat o‘zlarining empirik tajribasi va bo‘lajak tizim modelining psixologik asosi haqida intuitiv tasavvurlarini hisobga olishlari tufayli ishlab chiquvchilar xatolarga yo‘l qo‘ymasliklariga imkon beradi.

Kompyuterli o‘rgatuvchi tizimga kiradigan dasturlarda topshiriqlarning variantlari, orfografik masalalarni yechish bo‘yicha bosqichlar va operasiyalar, mo‘ljallanadigan barcha javoblar hisobga olingan.

2. Texnologik darajada o‘quv faoliyatini boshqarish usuli, kompyuterli o‘rgatuvchi tizim birliklaridan algoritm tuzish asosida foydalanishda o‘quvchilar ish-harakatlari usuli, ya’ni psixologik va pedagogik nazariyani o‘qitish amaliyoti bilan bog‘lovchi vositalar tavsiflangan.

3. Operatsional darajada o‘qitish jarayoniga didaktik masalalarni yechish sifatida qaralgan. O‘quv faoliyatining ayni qaysi funksiyalari kompyuterga yuklanishi, o‘qitishni individuallashtirish darajasi, qanday dialog turi amalga oshirilishi, qachon o‘quvchilarga yordam berish kerakligi ko‘rsatilgan.

4. Amalga oshirish darajasi. Pedagogik amalga oshirish ssenariy ko‘rinishida, ya’ni o‘quvchiga pedagogik, psixologik, metodik ko‘rsatmalar tizimi va, shuningdek, foydalanuvchiga yo‘riqnoma shaklida bo‘lishi mumkin. Dasturli amalga oshirish kompyuterlar tipi, ularning xotirasi hajmi, tezkorligi, grafik imkoniyatlari texnik vositalarning mavjudligini hisobga olib ro‘yobga chiqarilishi mumkin.

Kompyuterli o‘rgatuvchi tizimning konseptual darajasi. Kompyuter texnologiyalari o‘quv va tarbiya nazariyasi komponentlariga ta’sir qiladi. Bu pedagogik va metodik fanlar asosiy ilmiy nazariyalar va metodlar tizimi paradigmasining o‘zgarishiga olib keladi. Boshlang‘ich maktabda orfografiyani o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv jarayonining umumlashma konseptual modelini qanday qilib tuzishni aniqlash uchun an’anaviy va axborotli ta’lim komponentlarining qiyosiy tahlili o‘tkazilishi lozim.

Kompyuterli o‘rgatuvchi tizimni yaratish va foydalanish muammosi quyidagi masalalarga oid bir qator nazariy qoidalarga tayanadi: kompyuterli o‘rgatuvchi tizimni qo‘llashning pedagogik maqsadga muvofiqligi; o‘qitish modelining yaratilish xususiyatlari; kompyuterli o‘rgatuvchi tizimda foydalaniladigan DTlar ayrim tiplarining funksional vazifasi; kompyuterli o‘rgatuvchi tizim birliklarining metodik vazifasi bo‘yicha tipologiyasi; kompyuterli o‘rgatuvchi tizimga kiradigan va o‘quv-tarbiya jarayonida foydalaniladigan DTlarga qo‘yiladigan talablar.

An’anaviy ta’lim metodikasi fani paradigmasi komponentlari va uning paradigmasi ta’limni axborotlashtirish sharoitlaridagi komponentlarining qiyosiy tavsifi tubandagi jadvalda keltirilgan.

An’anaviy ta’lim metodikasi fani paradigmasi va ta’limning axborotlashuvi sharoitlarida metodika fani paradigmasi asosiy komponentlari tavsifnomasining qiyosiy tahlili kompyuterli o‘qitish tizimiga birlashtirilgan va orfografiyani o‘qitish sohasida foydalanishga yo‘naltirilgan yangi axborot texnologiyalari vositalarini ishlab chiqish va foydalanish katta istiqbolga egaligini ko‘rsatdi.

An’anaviy ta’lim metodikasi grammatik-orfografik bilimlari, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonini optimallashtiradigan, o‘quvchining aqliy rivojlanishi bilan bog‘liq ta’lim metodlarini ko‘zda tutadi.

Ta’limning axborotlashuvi sharoitidagi metodika o‘quvchining intellektual salohiyatini faqat imlo sohasida ta’limiy maqsadlarga erishishgagina emas, balki o‘quvchilarni axborotlashgan jamiyatda hayot kechirishga tayyorlash zarurati bilan aniqlanadigan didaktik ta’sirchanlikni amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

An’anaviy ta’lim metodikasi, asosan, o‘qitishning illyustrativ-tushuntirish metodlaridan foydalanadi va bunda o‘quvchilarning turli ta’limiy nazariyalar doirasida bajaradigan mustaqil ishi ham chegara-langanicha qoladi.

Muammoli ta’lim va o‘qitishni algoritmlashtirishga doir g‘oyalarni o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini faollashtirish va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi, deb hisoblash mumkin.

Mazkur g‘oyalarni amalga oshirish o‘zlashtiriladigan bilimlar, ko‘nikma va malakalar sifatining oshishiga, o‘quv materialini o‘zlashtirishga ketadigan vaqtning tejalishiga olib keladi. Bunda ta’limiy g‘oyalarning amalga oshirilishi foydalaniladigan o‘qitish vositalari va ularni qo‘llash metodikasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Ta’limning axborotlashuvi sharoitidagi metodika yangi axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish, ma’lum qonuniyatlarni o‘rganish jarayonida “mikrokashfiyotlar” qilishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatining xilma-xil turlari (axborot-o‘quv, o‘quv-o‘yin, elementar tadqiqiy faoliyat, axborotni, shu jumladan, audio-vizual axborotni ishlab chiqish turlari) ning oshirilishini taklif etadi. Bu esa an’anaviy ta’lim vositalariga qaraganda imkoniyatlari boy va xilma-xil bo‘lgan yangi avlod ta’limiy vositalardan foydalanilganda ro‘yobga chiqarilishi mumkin. Yangi avlod ta’limiy vositalardan foydalanish o‘quvchining intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ma’lum metodik tizim yoki ta’lim texnologiyasi doirasida amalga oshiriladi.

O‘quv vazifali dasturiy vositalar ma’lum bilimlar (mazkur holda orfografik bilimlar) sohasini aks ettiradi, orfografiyadan didaktik material bilan faoliyatning turli shakllarini amalga oshirish sharoitlarini ta’minlaydi.

Dasturiy pedagogik vositalar murakkab tizimning tarkibiy qismlari sifatida ma’lum xususiyatlarga ega.

Funksiyalar taqsimotining ikkita asosiy varianti bo‘lishi mumkin: birinchi variantda inson masalaning texnik yechimi ustidan faqat nazorat operatsiyasini bajaradi va qarorni tasdiqlaydi; ikkinchi variantda operatsiyalarning bir qismi inson va mashina tomonidan birgalikda bajariladi. O‘qituvchi didaktik mazmunni ishlab chiqadi va uni kompyuterga kiritadi, dasturiy tizim olingan axborotni ishlab chiqib, o‘qituvchi tomonidan o‘ylangan kompyuterli topshiriqqa o‘zgartiradi. Topshiriq natijasi o‘qituvchiga beriladi. Demak, kompyuter (o‘qitish vositasi) va o‘qituvchining o‘zaro ishlashi mehnatning qadam-baqadam tashkil etilishini talab qiladi.

Kompyuterli o‘rgatuvchi tizim doirasida o‘qituvchi o‘qitish jarayonining asosiy boshqaruvini o‘zida saqlab qolgani holda topshiriqlarning bajarilishiga doir mashaqqatli nazoratdan sekin-asta xalos bo‘la boradi.

Ochiq dasturiy vositalarni yaratishda ularning murakkab tizimlar ekanligi hisobga olinishi zarur. Har qanday murakkab tizim uchun qilingani kabi, yaratish va sozlash bosqichida undan foydalanish eksperimenti tizimning juda muhim elementlari parametrlarini baholash uchun qo‘llaniladi. Tizimni majmuaviy sinashlarda

imitasion modellar katta rol o‘ynaydi. Xususan, dasturiy pedagogik vositalar uchun imitasion model dars fragmenti (bo‘lagi)ni modellashtirish bo‘lib, quyidagi amaliy masalalarni hal etish imkonini beradi:

– tizimning ishini turli sharoitlarda, shu jumladan, buzuvchi ta’sirda (noto‘g‘ri va noadyekvat javoblarni maqsadga qaratilgan holda kiritishda) testlash;

–tizimning axborot taqdim qilinishiga tipik javob berish shakllarini aniqlash, interfeysning qo‘yilgan maqsadlarga adekvatligi;

– foydalanuvchilarning ta’lim metodlari, orfografik qoidalarning taqdim qilinish shakllarini qanday baholashlari haqidagi ma’lumotlarni to‘plash;

– o‘qituvchilardan dasturiy tizimning ta’lim metodikasiga, uning alohida variantlariga muvofiqlik bahosini olish.

Dasturiy pedagogik vositalar ssenariylari ma’lumotlar bazasida quyidagi kabi birliklar ajratiladi: orfografik masalalarni yechishga yo‘naltirilgan grammatik tushunchalar, orfografik amallar va qoidalarni qo‘llash shartlari, orfografik tahlil algoritmlari, misollar, orfografik masalalarning yechilishiga olib boruvchi muammoli savollar.

Kompyuter dasturlarining axborot blokida taqdim qilingan har bir birlik tizim biror geometrik shakl bilan belgilangan bo‘ladi. Strukturaviy birlik ichida uning nomi ko‘rsatiladi, masalan, «gap bo‘lagi», «qoida», «orfogramma» va h. k.

«Yordam» klavishini bosgan o‘quvchiga mashina orfografik masalani yechish yo‘llarini namoyish qiladi.

Orfografik masalani yechish uchun (ya’ni orfogrammani aniqlash uchun) ba’zan barcha darajalar, ba’zan esa ba’zi darajalar orqali o‘tish zarur bo‘ladi. Masalan, talaffuz qilinmaydigan undoshlarni tekshirish uchun so‘zning fonetik va morfologik tarkibini aniqlash yetarli, fe’llarning qo‘shimchalarida urg‘usiz unlilarni aniqlash uchun ularning fonetik tarkibini, so‘z tarkibini va gap bo‘lagini aniqlash zarur.

Agar foydalanuvchi bilimlar bazasiga qo‘yilgan sxemaga murojaat qilsa, strukturaviy birlik haqida to‘la axborot olishi mumkin. Masalan, orfogrammaning nomi, mazmuni (ya’ni tanish, tanlanma va yakuniy belgilari), qoida bo‘yicha ish-harakatlar algoritmi, tahlilning grafik sxemasi.

Boshlang‘ich maktabda o‘rganiladigan har bir orfogramma uchun ular belgilarining batafsil tavsifi yuqorida keltirilgan sxemalarga muvofiq ravishda tuzilgan. Ular zarurat bo‘lganida yordam klavishi [F]ni bosib, ekranga chiqariladi. O‘quvchi xohishiga qarab, yo qoida bo‘yicha ishlash algoritmini yoki umumlashgan blok-sxemani yoki dinamik jadvalni chaqirishi mumkin.

Ekranda darslikning barcha asosiy qoidalari paydo bo‘lishi mumkin. Bu esa, elektron modelni logik bog‘lamalar bilan birlikda o‘rgatuvchi tizimga aylantiradi. Strukturaviy birliklarning “shajarasi” yaratilib, u kompyuter dasturida amalga oshirilgan quyidagi metodik yo‘lni ko‘rsatadi: *nimani* tekshirish kerak, *qayerda* tekshirish kerak, *qanday* tekshirish kerak, *nima bilan* tekshirish kerak. Bu axborot qoidani tushuntirishda va takrorlashni tekshirishda o‘ta dolzarbdir.

O‘rganuvchidan ta’lim vositalariga tomon teskari aloqani yo‘lga qo‘yish uchun o‘rganuvchining formal modelini ishlab chiqish talab etiladi. Buning uchun ketma-ket yaqinlashishlar metodidan foydalaniladi. Bu metod axborot texnologiyalari yordamida ta’lim tizimi to‘g‘risidagi chegaralangan tasavvurlar bilan o‘rganuvchilar haqida borgan sari ko‘proq adekvat bilimlar olishga erishish imkonini beradi. Bilish faoliyatini o‘quvchidan keladigan teskari aloqadan foydalanish bilan boshqarishni amalga oshiradigan ta’lim vositalari tizimini olish uchun ko‘plab integrasiyalar talab qilinadi.

O‘rganuvchining adyekvat modellarini yaratish uchun kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining tipologik xususiyatlarini o‘rganishga harakat qilishda o‘quv imkoniyatlarini o‘rganish va rivojlantirishga oid ishlar amalga oshiriladi.

Real o‘quv imkoniyatlari – shaxslar tomonidan anglangan va bilish salohiyatini belgilovchi ichki va tashqi sharoitlar birligidir. Tadqiqotlar ularning quyidagi asosiy komponentlarini aniqlash imkonini berdi: Asosiy masalani aniqlash ko‘nikmasi; ishni oqilona tashkil etish ko‘nikmasi; o‘qitishga munosabat; nerv sistemasining xususiyatlari va h.k. Bu komponentlarni aniqlash usuli sifatida pedagogik konsilium taklif qilindi va ko‘p maktablarda qo‘llanilganda o‘zining yuqori samaradorligini ko‘rsatdi.

O‘rganuvchidan o‘qitish vositalariga tomon teskari aloqani yo‘lga qo‘yish uchun o‘rganuvchining formal modelini ishlab chiqish talab etiladi. Bu texnologiyalar o‘qitish tizimi to‘g‘risidagi chegaralangan tasavvurlar bilan o‘rganuvchilar haqida sekin-asta adekvat bilimlar olishga erishish va adaptiv dasturlar tuzish imkonini beradi. Bilish faoliyatini o‘quvchidan keladigan teskari aloqadan foydalanish bilan boshqarishni amalga oshiradigan o‘qitish vositalari tizimi ko‘plab integrasiyalarni talab qiladi.

O‘rganuvchilarning adekvat modellarini yaratish uchun kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining tipologik xususiyatlarini o‘rganish jarayonida ta’lim imkoniyatlarini o‘rganish va rivojlantirishga oid ishlar amalga oshiriladi.

Har bir o‘quvchi uchun ikki turdagi tavsifnoma yig‘ish zarur: obyektiv (psixologik testlar asosida) va subyektiv (o‘qituvchilar fikrlari asosida). Shu bilan o‘quvchi yigirmatacha parametr bo‘yicha tizimli tarzda tavsiflanadi.

Parametrlar ro‘yxati barcha sinflarda bir xil, biroq sinfdan sinfga o‘tishda testlar to‘plami o‘zgarib boradi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchining shaxslik xususiyatining o‘zgarish dinamikasini aniq ko‘rish, mavjud kamchiliklar bo‘yicha psixologik-pedagogik choralar tizimini ishlab chiqish imkonini beradi. Agar o‘tishlar natijalari kiritiladigan ma’lumotlar banki bor bo‘lsa, o‘qituvchi va psixolog har doim displey ekranida I sinfdan IV sinfgacha har bir o‘quvchining batafsil tavsifini ko‘ra oladi. Buning ustiga bu tizim pedagogni qiziqtirayotgan o‘quvchiga “o‘xshash” o‘quvchini topish va bu kabi vaziyatda boshqalar o‘zlarini qanday tutganliklarini aniqlash imkonini beradi, ya’ni mazkur tizim ekspert tizim sifatida amal qiladi.

Xulosa qilganda, o‘qitishda faoliyatli yondashuv yordamida eksperimental ma’lumotlarga tayanib, kompyuterlardan yaxlit o‘quv faoliyati tizimida foydalanish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Adabiyotlar

1. Поспелов Д.А. Инженерия знаний// Наука и жизнь. 1987. №6. С.8-15.
2. Зенкин А.А. Когнитивная компьютерная графика. М., 1991. -186 с.

UDK: 15+301.085.15

TALABA-YOSHLARDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK YOLG‘IZLIK HISSI NAMOYON BO‘LISHINING EMPIRIK TAHLILI

M. B. Yuldasheva
Farg‘ona davlat universiteti
makhliyo1975@gmail.com

Annotatsiya. Yolg‘izlikni his qilib yashash insonning ichki subyektiv kechinmasi sifatida bir qator ijobiylik hamda salbiylikni kashf qiladi. Xususan, mazkur muammoning ijtimoiy psixologiyada o‘rganilishi ko‘plab ziddiyatli qarashlarga sabab bo‘lgan. Aynan mana shunday masalalarning o‘ziga xos qirralari ushbu maqolada yoritib berilgan. Maqolada yolg‘izlik fenomeni va uning S.G.Korchagina tomonidan turlarga farqlanib ifodalanishi nazariy asoslangan. Shuningdek, empirik tadqiqot orqali talaba-yoshlarda yolg‘izlikni his qilish darajali ko‘rsatkichlarda ifodalanishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: shaxsiy yolg‘izlik, begonalashish, autokommunikatsiya, yakkalanish, diffuz yolg‘izlik, dissotsiallashgan yolg‘izlik.

Эмпирический анализ выявления социально-психологического чувства одиночества среди студенческой молодёжи

Аннотация. Одиночество как внутреннее субъективное состояние человека имеет свои позитивные и негативные критерии. Одиночество многообразно, каждый психолог понимает его по-своему и привносит в данное понятие свою точку зрения, жизненную ситуацию, прошлый опыт. Данная статья посвящена к раскрытию специфических аспектов чувства одиночества. Также проанализированы рассуждения С.Г.Корчагиной по изучению глубины переживания одиночества и сделаны выводы эмпирического исследования среди студенческой молодежи.

Ключевые слова: личностное одиночество, отчуждение, аутокоммуникация, уединение, диффузное одиночество, диссоциированное одиночество.

Empirical analysis eduction of socio-psychological feeling of loneliness among youth

Abstract. Loneliness, according to many experts, is not necessarily about being alone. Instead, if you feel alone and isolated, then that is how loneliness plays into your state of mind. This article is disclosed a hereinabove sides of the phenomenon of loneliness. Also it takes a review of the ideas of S.G.Korchagina on the problem pf loneliness and made some deductions empirically research among students.

Keywords: personal loneliness, isolation, autocommunication, solution, diffusive loneliness, dissociative loneliness.

Insonning shaxsiy taraqqiyoti nafaqat instinktiv xususiyatlar orqali, balki jamiyatning obyektiv ta’siri sababli ham amalga oshadi. Chunki insoniyatning mavjudligi jamiyatning mavjudligidir. Barcha jamiyat vakillari hech kimga o‘xshamagan va yagona mavjudotlardir. Hech kimning tanasida bir paytning o‘zida ikki yoki uchta “Men” shakllanmaydi. Har bir vujudda faqat bittagina “Men” mavjud. Mohiyatan yolg‘izmiz va yolg‘izligimizcha qolamiz.

Biroq yolg‘izlikni his qilgan sari odamlarga talpinamiz. Jamiyat qonunlari qancha beshafqat va qo‘rqinchli bo‘lsa, yolg‘izlik hissi ham shuncha qudratli bo‘ladi. Lekin jamiyatning taz’yiqini yengishda uning o‘zi bilan birga bo‘lish insonga xavfsizroqdek tuyuladi va mana shunday vaziyatda yolg‘izlik hissi inson uchun yordam beradigan kuchdek his qilinadi. Inson butun umri davomida yolg‘izlik va shaxslararo munosabatlar vakili bo‘lishni amalga oshirish hissiyoti o‘rtasidagi tanlovni amalga oshirish bilan yashaydi. Umumiy holda tavsif beradigan bo‘lsak, yolg‘izlik o‘zgalar bilan munosabatga kirisha olmaslikning shaxsan boshdan kechirilishidir. Ushbu kechinma an’anaviy tarzda jismoniy yakkalanish hamda odamlar ichida bo‘lib turib ham begonalashishni his qilish bilan ifodalanadi. Ikkala holatda ham yolg‘izlik ixtiyoriy, tanlangan, qabul qilingan yoxud majburiylik tarzida namoyon bo‘lishi mumkin. Va aynan ikkinchi holatda (begonalashishni his qilish) u psixologik muammolar va buzilishlarni yuzaga keltirib chiqarish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Insonning yolg‘izlik fenomeni bilan bog‘liq shaxsiy kechinmalari turli-tumandir: bir tomondan yolg‘izlikda o‘tkazilgan vaqt umidsizlik va ruhiy tushkunlikni ifodalasa, boshqa tomondan ijodkorlik va o‘zgalar bilan munosabatlarning qadr-qimmatini anglashga yordamlashadigan vosita deb ham qabul qilinadi. Shunday qilib, yolg‘izlik hissini adyekvat tarzda talqin qilish uchun uning yakkalanish bilan bog‘liq ijobiy hamda salbiy ko‘rinishlariga e’tibor berish lozim.

Yolg‘izlik bu obyektiv mavjud fenomen bo‘lib, u haqida fikr yuritish va o‘rganish o‘ziga xos qadimiy an’analarga ega, ayni paytda ham munozarali muammodir. Uning tabiati, rivojlanishi va namoyon bo‘lishi haqidagi nazariyalarda hozirga qadar qarama-qarshiliklar kuzatiladi. Bir qator shaxs nazariyasi vakillarining (K.G.Yung, E.Fromm, Dj.Byudjental, S.Maddi, F.Perlz) ta’kidlashicha, individning shaxs sifatidagi taraqqiyoti subyektda shaxsiy yolg‘izligini anglash va tushunish bilan bog‘liq. Yakka individ sifatida o‘z-o‘zini anglash inson umri davomida hayot yo‘lida o‘zgalar bilan munosabatlar uchun yo‘nalishlarni kashf qilish imkoniyatini beradi. Lekin bu anglash og‘riqli holat bo‘lib insonning o‘z-o‘zidan qochishi bilan ifodalanishi ham mumkin. K.Mustaskas birinchilardan bo‘lib yolg‘izlik individning insoniyligini saqlab qolish, rivojlantirish va chuqurlashtirishga yordam beruvchi inson hayoti va tajribasi shart-sharoitlaridan biri ekanligini isbotlashga uringan. Yolg‘izlikdan qochishga urinish esa insonning o‘z-o‘zidan begonalashishiga olib keladi, deb ta’kidlagan olim. Yolg‘izlik inson uchun chaqiriq va u insonni borliqdan yakkalantiradigan emas, balki uni to‘la-to‘kis, sezgir va insoniy hislarga ega qiladigan chaqiriqdir. Ushbu chaqiriqni to‘g‘ri anglamaslik xavotirlikni yuzaga keltiradigan og‘riqli yolg‘izlikka olib keladi.

Yolg‘izlik hissining inson taraqqiyoti bilan bog‘liqligi autokommunikatsiyada, ya’ni o‘z-o‘zi bilan muloqotda namoyon bo‘ladi. (Matsuta 2007) [3, 55-81-b]. Tanholikda yetarli darajada shaxsiy taraqqiyotga intilmagan, borliq bilan yakkama-yakka munosabatga kirisha olish qobiliyatiga ega bo‘lmagan, ijtimoiyligini o‘z ichida saqlaydigan va o‘z ichki olamida shaxsiy suhbatdoshni topa olmaydigan insongina ijtimoiy-kommunikativ munosabatlardan mahrum bo‘ladi.

Ma’lumki, yolg‘izlik hissi insonning psixologik holati sifatida tarixan shakllangan fenomen hisoblansada, XX asrga kelib ushbu fenomen ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilina boshladi. “Jismoniy tavsiflardan farqli ravishda yolg‘izlik sof psixologik tabiatga ega. U avvalambor shaxsiy xususiyatni namoyon qiladi” [1, 37-b].

XX asrda insonning jamiyatda egallagan mavqei hamda jamiyatdagi o‘rni haqidagi qarashlar yangicha fikrlar bo‘yicha talqin qilina boshladi, bevosita individ jamiyatda o‘zining egallagan mavqeini qanday tasavvur qilishi borasida qarashlar vujudga kela boshladi. “Yolg‘izlik fenomenini tushuntirishda psixologik qarashlar, bir qator mualliflarning fikricha, bir tomondan insonning o‘z-o‘zini anglashining rivojlanishi, boshqa tomondan ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘lanadi” [82, 107-108-b]. Yolg‘izlik muammosi chet el olimlari tomonidan batafsil o‘rganilgan. Mazkur muammo bo‘yicha olib borilgan barcha tadqiqotlar individning insonlar jamoasidan, oilasidan, tarixiy mavjudlikdan, tabiiy barkamol takomillashuvdan ayri holda vujudga kelishiga bag‘ishlangan. [4, 8-b]. Shu bilan birga ba’zi olimlarning ta’kidlashicha, jismoniy yakkalanganlik doimo ham yolg‘izlik hissi bilan tenglashtirilmaydi. Yolg‘izlik insonning jismoniy holatdagi yakkalanganligiga tenglashtirilishi mumkin emas... Yakkalanish holati obyektiv, tashqi shartlanganlikka yo‘naltirilgan holat hisoblanadi, lekin yolg‘izlik unga nisbatan farqli ravishda sof ichki subyektiv kechinmadir.

Ba’zi odamlar yakkalanmasdan ham, jamoa ichida, oila muhitida va do‘stlar davrasida bo‘lib turib ham azob beradigan yolg‘izlikni his qiladilar. “Jismoniy yakkalanishni aniqlash uchun ko‘z bilan ko‘rish kifoya, yolg‘izlik hissini anglash uchun esa buni boshdan kechirib bilmoq darkor”. Yu.P. Koshelevaning fikricha, chet elda yolg‘izlik fenomeniga oid amalga oshirilgan tadqiqotlar yolg‘iz insonlarning shaxsiy sifatlari va xarakter xususiyatlarini talqin qilish bilan bog‘lab tushuntiriladi, olimlar shuningdek, yolg‘izlikning belgisini ifodalaydigan modellari va yosh xususiyatlariga urg‘u beradilar. Chet el olimlari ko‘pincha yolg‘izlik hissining mezonlari, turli toifalari va darajalarini aniqlash uchun yolg‘izlik fenomeni bilan bir vaqtda ro‘y beradigan tarkibiy xususiyatlarni ajratib ko‘rsatishga urinadilar [5, 24-25-b].

Yolg‘izlik fenomeni S.G.Korchaginaning tadqiqotlarida identifikatsiya (aynanlashtirish, o‘xshatish, tenglashtirish) mexanizmlarining buzilishi natijasi sifatida qaraladi. Shunday qilib, yolg‘izlik identifikatsiya mexanizmlari o‘rtasidagi dinamik muvozanatning buzilishi bilan ta’minlangan kishining ruhiy holatidir. Bunda shaxs o‘zining jamiyat bilan aloqalarini adyekvat idrok qilishni xohlamaydi yoki imkoniyatning yo‘qligini subyektiv tarzda kechiradi. Odatda yolg‘izlikni his qilayotgan kishida o‘zining amaliy qarashlari, fikrlari va

qayta tiklovchi xayollari ta'siridan chiqib ketish imkoniyatlari cheklangandir. Bu esa o'z navbatida kelajakni to'g'ri idrok qilishi, yetishmayotgan va yo'qotilganlarning o'rnini tiklashiga xalaqit beradi, shaxsning ichki zaxiralarining tiklanishini pasaytiradi, "hissiy tashnalik" yoki doimiy qoniqmaslik hissini vujudga keltiradi. Yolg'izlikning namoyon bo'lish chuqurligini aniqlash davomida S.G.Korchagina [2, 54-b] mazkur tushuncha haqida insonlarning hayotiy tasavvurlaridan kelib chiqadigan uch turni farqlagan:

1. Begonalashtiradigan yolg'izlik. Bunda begonalashish insoniyat va hatto borliq ustidan hukmronlikni o'rnatadi. Ikkiyoqlamali begonalashuv suhbatdoshlarning bir-birlarini pisand qilmasliklari, muloqot qilishni xohlamasliklaridan kelib chiqadi. Begonalashish jarayoni insonning o'z-o'ziga bog'liq ravishda sodir bo'ladi. Agar u uzoq muddat davom etsa natijada hissiy uzoqlashish, yaqin insonlar bilan munosabatlarning uzilishi, o'z "Men"ining inkor etilishi bilan yakun topadi. Insonning ichki olamidan tashqarida yuzaga keladigan barcha hodisalar uni tashvishga solmaydi: qurshovidagi barcha insonlar bilan munosabatlarni yo'qotadi, yopiq shaxsga aylanadi, muloqot qilishni istamaydi, o'zgalar muammosi bilan qiziqmaydi, u uchun faqat o'zi mavjud bo'lib qoladi. O'ziga hech kimsani yaqinlashtirmaslik oqibatida inson ongsiz ravishda o'zi uchun begonalashuv obyektlarini kashf qilib boradi. Natijada yolg'iz inson masofa saqlagan holda begonalashuv obyektlariga nisbatan psixologik yaqinlikni inkor qiladi. Agar ushbu yolg'izlik turi insonda mavjud bo'lsa, shaxsiy "Men" hissi uning uchun tushunarsiz bo'lib qoladi, inson hatto o'z-o'zini inkor qila boshlaydi. Shu sababli soha mutaxassislari mazkur holatdagi inson o'z yaqinlaridan uzoqlashmasliklarini tavsiya qiladilar.

2. Diffuz (singib boradigan) yolg'izlik – o'zga insonlar yoxud guruhlardan ongsiz nusxa olishda ifodalanadi. Bu holat o'z-o'zidan qoniqmaslik hissidan kelib chiqib inson o'ziga nisbatan omadliroq va obro'liroq tuyulgan shaxslarning xatti-harakatlarini takrorlagan holda yashaydi. Bunday hayot tarzida insonning shaxsiy sifatlari, individualligi, originalligi yo'qolib boradi. Natijada inson o'z hayoti bilan emas, balki o'ziga nisbatan yaxshiroq deb hisoblagan inson hayoti bilan yashay boshlaydi. Ma'lumki, inson barkamolligi uch yo'nalishda amalga oshadi: ma'naviy, jismoniy va psixik. Aynan mana shu yo'nalishlar o'z-o'zini namoyon qilish va taraqqiy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Diffuz yolg'izlikda esa barkamollikdan voz kechish ro'y beradi. O'zgalarga taqlid qilgan holda va shaxsiy imkoniyatlardan voz kechib inson o'z "Men"ini yo'qotib boradi. Mazkur yo'qotish yakuniy bosqich hisoblanadi. Shaxsiy taraqqiyot tushunchasi diffuz yolg'izlangan inson uchun xos emas, chunki u o'z "Men"ini yo'qotib bo'ladi. Diffuz yolg'izlikning namoyon bo'lishi serqirra, shuning uchun inson o'zligini va hayotdan neni istayotganini anglashi darkor.

3. Dissotsiallashgan (tarkibiy qismlarga ajralgan) yolg'izlik – yuksak darajadagi taqlidchanlik va to'la begonalashish bir-biri bilan almashinib turadi. Yolg'izlikning ushbu turi his-kechinmalari yorqin ifodalanadigan va o'ylanmagan xatti-harakatlarni amalga oshirishga moyil bo'lgan insonlarda uchraydi. O'zgalarga taqlid qilishdan oldin bunday shaxs o'sha insonning soxta obrazini yaratadi. Shaxsan o'z ichki olamini "yaxshi" va "yomon"ga ajratadi, boshqalarda esa ularning go'zalligi jalb qilsa dahshatli tomonlari inkor etiladi. Inkor etilgan salbiy xususiyatlar o'zidagi o'zgalarni bunda ayblashiga olib keladi. Bunda shaxsiy takomillashuv mavjud emas [2, 37-b.].

Modomiki insoniyatning eng jiddiy muammolaridan biri yolg'izlik muammosi ekan u qandaydir sabablar ta'sirida boshqalar bilan munosabatlarni yo'lga qo'ya olmaslik, na do'stlik, na muhabbat, na dushmanlik munosabatlarini tashkillashtira olmaslikda kuzatiladi. Tadqiqotchilarning aniqlashicha, so'ralganlarning 1-2%ida yolg'izlik hissi bo'lmaganligi, 10-30%i qachonlardir bunday hisni kechirganliklari ma'lum bo'ldi. Inson o'z munosabatlarini to'laqonli emasligini anglaganda, muloqotga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilmasligini his qilganda yolg'izlik hissi paydo bo'ladi. Yolg'izlik kayfiyatning yomonligi va og'ir hissiy kechinmalar bilan o'tadigan psixik holatdir. O'zini chuqur darajada yolg'iz his qiladigan kishilar o'zlarini baxtsiz his qiladilar, ijtimoiy aloqalarga kirishish imkoniyatlarini cheklab qo'yadilar.

Yolg'izlik tushunchasi subyekt tomonidan vaziyatni ko'ngilsiz idrok qilishi, muloqotning yetishmasligi va ijobiy munosabatlarning kamligi bilan bog'liqdir. Biroq yolg'izlik individning har doim ham ijtimoiy jihatdan ajralib qolganligini ifodalamaydi. Ba'zan doimo insonlar orasida bo'la turib, ular bilan munosabat o'rnatib ham inson o'zini psixologik jihatdan ajralib qolgan, ya'ni yolg'iz his qilishi mumkin. Yolg'izlikni his qilish darajasi insonning qancha muddat davomida odamlar bilan munosabatga kirishmay yashaganligi bilan belgilanmaydi. Butun hayoti davomida yolg'iz yashagan kishilar odamlar bilan tez-tez muloqotda bo'ladiganlarga nisbatan o'zlarini kamroq yolg'iz his qilishlari ham mumkin. Boshqa kishilar bilan o'zaro ta'sirda kamroq bo'ladigan, hech qanday psixologik va xulq-atvor ko'rinishlarini namoyon etmaydigan kishilarni yolg'iz deb atash mumkin emas. Ba'zi kishilar o'zlarining real va tasavvuridagi o'zaro munosabatlari o'rtasidagi muvozanatni to'liq anglamasliklari mumkin.

Haqiqiy subyektiv yolg'izlik holati odatda ruhiy buzilishlarga xos belgilar va affektiv ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ba'zi yolg'iz kishilar muntazam ravishda o'zlaridagi tashvishlanish, ezilganlikdan shikoyat qilsalar, boshqalari esa qo'rquv va xavotirlikni hamda musibatni his qiladilar. Yolg'izlik holatini his qilishga real munosabatlar qanchalik ta'sir qilsa, ular qanday bo'lishi kerakligi haqidagi tasavvurlar ham shunchalik kuchli ta'sir etadi. Muloqotga nisbatan kuchli ehtiyojni his qilayotgan kishi bir yoki ikki kishi bilan emas, balki ko'plab

kishilar bilan munosabatda bo‘lishni xohlaydi. Yolg‘izlik ko‘pincha ba’zi belgilar bilan kechishi ham kuzatiladi. Odatda yolg‘iz kishilar o‘zlarini boshqalardan psixologik jihatdan ajralib qolgan, me’yoriy shaxslararo munosabatlarga qobiliyatsiz, sevgi, do‘stlik kabi intim munosabatlar o‘rnatishga yaroqsiz deb his qilishlari mumkin. Yolg‘iz shaxs tushkunlikka berilgan shaxs bo‘lib, u o‘zini muloqot ko‘nikmasi va malakasi yetishmaydigan insonman deb hisoblaydi. Yolg‘iz inson o‘zini jozibasiz, hech kim sevmaydigan va hurmat qilmaydigan kishi deb biladi. O‘ziga nisbatan bunday munosabat maxsus salbiy affektlar – nafrat, g‘am-anduh, baxtsizlik kabi hislarni vujudga keltiradi. Yolg‘iz inson ijtimoiy aloqalardan o‘zini olib qochadi, atrofdagilardan o‘zini ajratib qo‘yadi. Unda boshqalarga nisbatan impulsivlik, paranoyallik, ta’sirlanuvchanlik, qo‘rquv, xavotirlanish, frustratsiya hislari ustun bo‘ladi. Yolg‘iz kishilar boshqalarga nisbatan pessimist hisoblanadilar. Ular o‘zlariga achinish hissi bilan qaraydilar, atrofdagilardan yomonlik kutadilar, kelajakni ijobiy ranglarda tasavvur eta olmaydilar. Boshqalarning va o‘z hayotini mazmunsiz deb baholaydilar. Yolg‘iz kishi kam gapiradi, o‘zini tinch, osuda tutadi, boshqalar e’tiborini tortishni yoqtirmaydi, ko‘p hollarda g‘amgin, xorg‘in va uyqusiragan holda ko‘rinadi. Haqiqiy va tasavvurdagi munosabatlar o‘rtasida nomutanosiblik kuzatilganda o‘zini yolg‘iz his qiladigan odamlar bu vaziyatni turlicha idrok hiladilar. Ojizlik va xavotirlikni his qilish bu vaziyatga nisbatan javob ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Agar shaxs bu vaziyatda boshqalarni aybdor deb hisoblasa, u holda unda boshqalarga nisbatan dushmanlik hissi rivojlanib boradi. Agar o‘zini aybdor deb bilsa va o‘zini o‘zgartirish qiyin deb hisoblasa, u holda g‘amgin bo‘lib qoladi, asta-sekin mazkur his surunkali depressiyaga aylanib boradi.

Agar inson yolg‘izlik uni xushyorlikka chaqirayotganiga ishonch hosil qilsa, u holda yolg‘izlikka qarshi faol kurashishi, uni bartaraf etish uchun kuch sarf qilishi zarurligini anglab yetadi. Vaqti-vaqti bilan uni salbiy hissiy holatlar - zerikish, afsuslanish, o‘zining jozibador emasligini his qilish, ojizlik, vahimali qo‘rquv, ezilganlik, umidning yo‘qolishi, o‘ziga achinish, qo‘zg‘aluvchanlik, tashlab qo‘yilganlik hissi kabi kechinmalar qamrab oladi. Yolg‘iz kishilar muloqotchan va baxtli insonlarni unchalik xushlamaydilar. Bu ularning o‘ziga xos himoya reaksiyasi bo‘lib, bu holat boshqalar bilan samimiy munosabat o‘rnatishga xalaqit beradi.

Yolg‘izlikni ichki kechinma sifatida talqin qilar ekanmiz, uning namoyon bo‘lish darajasini aniqlash maqsadida empirik tadqiqot o‘tkazdik. Tadqiqotimiz obyekti sifatida Farg‘ona davlat universiteti Tabiiy fanlar fakultetining Biologiya o‘qitish metodikasi yo‘nalishi ikkinchi bosqich talabalari tanlandi. Ular ja’mi 160 nafarni tashkil qildi: 50 nafari o‘g‘il bolalar, 110 nafari qizlardan iborat edi. Tadqiqotimiz maqsadi talaba-yoshlarda yolg‘izlik hissi turlari bo‘yicha darajali ko‘rsatkich mavjudligini aniqlashdan iborat edi. Tadqiqotimiz reja asosida va bosqichma-bosqich amalga oshirildi: avvalambor respondentlar bilan suhbat olib borildi, so‘ngra S.G.Korchaginaning “Yolg‘izlikning ifodalanish turini aniqlash” so‘rovnomasi qo‘llanildi.

Birinchi bosqichda olib borilgan suhbat tahlili shundan dalolat beradiki, o‘g‘il bolalarda yolg‘izlik ijobiy idrok qilinadi (60%), qizlarda esa aksincha (70%). “Muloqotga bo‘lgan ehtiyojingiz sizni qoniqtiradimi?” degan savolga ikkala jins vakillari ham ijobiy javob berganlar. Ya’ni o‘g‘il bolalar – 100%, qizlar – 80%. Bu esa mazkur hissiy holatning ijobiy idrok qilinishi talaba-yoshlarning psixologik salomatligiga samarali ta’sir ko‘rsatishini isbotladi. “Ba’zan yolg‘iz qolishni yoqtirasizmi?” degan savolga 90% o‘g‘il bolalar va 100% qizlar “ha” deb javob berishgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, yolg‘izlik yoshlar tasavvurida salbiy kechinma sifatida idrok etilmaydi. Balki u insonning yangi g‘oyalarini, qirralarini, faolliklarini kashf etish uchun ham zaruriy omil bo‘lib xizmat qilar ekan.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida “Yolg‘izlikning ifodalanish turini aniqlash” so‘rovnomasi o‘tkazildi va uning tahliliy natijalari quyidagi jadvallarda o‘z ifodasini topdi.

1-jadval

TALABALARDA YOLG‘IZLIKNING IFODALANISH TURLARI
(jinsiy tafovut bo‘yicha % hisobida)

№	Respondentlar		Begonalashtiradigan yolg‘izlik	Diffuz yolg‘izlik	Dissotsiallashgan yolg‘izlik
	Soni	jinsi			
1	50 ta	erkak	35,5 %	43,2 %	21,3 %
2	110 ta	ayol	15,4 %	39,7 %	44,9 %
3	Ja’mi		25,4 %	41,4 %	33,2 %

2-jadval

TALABALARDA YOLG‘IZLIKNING IFODALANISH TURLARI
(umumiy ko‘rinishda % hisobida)

№	Respondentlar soni	Begonalashtiradigan yolg‘izlik	Diffuz yolg‘izlik	Dissotsiallashgan yolg‘izlik
1	160	25,4 %	41,4 %	33,2 %

Jadvallardan ko‘rinib turibdiki, 41,4 % talaba diffuz yolg‘izlikni boshdan kechiradi, 33,2 % i esa dissotsiallashgan yolg‘izlikka moyil va 25,4 % talabalarning hissiy kechinmasida begonalashtiradigan yolg‘izlik turi namoyon bo‘ladi. Shulardan jinsiy farq bo‘yicha o‘g‘il bolalar ruhiyatida diffuz yolg‘izlikning namoyon bo‘lishi ustuvor, bu 43,2 % ko‘rsatkichga ega bo‘lmoqda. Qizlarda esa bu ko‘rsatkich dissotsiallashgan turga mansub bo‘lib, u 44,9 % ni ko‘rsatib turibdi.

Tadqiqotimiz natijalarining tahlili quyidagi xulosalarga kelishga imkon berdi: birinchidan, yolg‘izlikning o‘g‘il bolalarda va qizlarda qiyosiy tahlil qilinishi jinsiy tafovutni yuqori darajada farqlamaydi. Asosiy farqni aniqlash uchun uzoq davom etadigan, ya’ni longityud metodini qo‘llash lozim. Ikkinchidan, yolg‘izlikni his qilish darajasi qizlarda nisbatan yuqori. Uchinchidan, talaba-yoshlarda xobbi (qiziqarli mashg‘ulot)ning mavjudligi yolg‘izlik hissining yuzaga kelish xavfini kamaytiradi, bardoshlilikni oshiradi va inson hayotini hissiy jihatdan boyitib unga mazmun bag‘ishlaydi.

O‘tkazilgan tadqiqot yolg‘izlikning murakkab va qarama-qarshiliklarni ifodalaydigan fenomen ekanligini asoslab berdi. Yolg‘izlik insonning ijtimoiylashuvini izdan chiqaradigan, inson motivatsion sohasidagi rivojlanishini sustlashtiradigan o‘z-o‘zini va o‘zgalarni adekvat idrok qilishni izdan chiqaradigan psixologik hodisa. Lekin shu bilan birga yolg‘izlik insonning yuksak ma’naviy taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan imkoniyat ham sanaladi. O‘z-o‘zidan va o‘z mavqeidan qoniqmaslik hislari bog‘lovchisi sifatida u insonning ichki refleksiyasini takomillashtirish, muhim hayotiy muammolarni tahlil qila olish, o‘z-o‘zini va hayotda egallagan o‘rnini topish uchun turtki bo‘lishi mumkin. Aynan mana shu zidlilik shaxsiy takomillashuv imkoniyatlarini ochishga yordam bergan holda insonning o‘z ustida va vaziyatni boshqarish borasida astoydil ishlashiga majbur qiladi. Ana shundagina yolg‘izlik o‘zining destruktiv vayronkor ko‘rinishlaridan sokinlik va xotirjamlikni ifodalaydigan shaxsiy taraqqiyotning pozitiv ko‘rsatkichi ko‘rinishiga o‘tadi.

Adabiyotlar

1. Вейс Р. Вопросы изучения одиночества // Лабиринты одиночества. – М.: Прогресс. 1989 г. – 412 стр.
2. Корчагина С.Г. Психология одиночества . – М: Московский психолого- социальный Институт 2008 г. – 228 стр.
3. Осин Е.Н., Леонтьев Д.А. Дифференциальный опросник переживания одиночества: структура и свойства/Осин Е.Н. Леонтьев Д.А. Психология. Журнал высшей школы экономики. 2013 Т.10 № 1 стр. 55-81
4. Перлман Д. Пепло Л.Теоретические подходы к одиночеству// Лабиринты одиночества. – М.; Прогресс. 1989. – 272 стр.
5. Хачатурян К.Д. Одиночество как психологическая проблема. – М: Ростов- на- Дону. 2011.- 157 стр.
6. Cruz N. Lonely but never alone. Bristol: Eton Summers Assosiation, 1988, 166 page.

UDK: 159.9

AYBDORLIK HISSINI BOSHDAN KECHIRISHDAGI YOSH VA GENDER FARQLAR

D. F. Jo‘raqulova, F. X. Kuchkarova
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxslardagi aybdorlik hissini boshdan kechirishda yosh xususiyatlari va gender farqlar bilan bog‘liqlik tomonlari ochib berilgan hamda yosh va gender farqlar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Maqola aybdorlik hissining inson faoliyatidagi o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan.

Kalit sozlar: ayb, aybdorlik hissi, uyat, vijdon, yosh, gender, xato, qo‘rquv, agressiya, bola, ota-ona, axloq, baholash, xulq-atvor.

Возрастные и гендерные различия переживания чувства вины

Аннотация. В статье раскрывается возрастные и гендерные различия переживаемые личностью чувства вины. Анализируется своеобразные стороны чувства вины в деятельности личности.

Ключевые слова: вина, чувства вины, стыд, совесть, возраст, гендер, ошибка, страх, агрессия, дитя, родитель, поведение, оценка, мораль.

Age and gender differences in feeling guilty

Abstract. This article focuses on age and gender differences in experiencing perceived guilt in individuals. And the sense of guilt in the article is devoted to the peculiarities of human activities.

Keywords: fault, guilt, shame, conscience, mistake, age, gender, horror, aggression, child, parent, morals, character.

Aybdorlik va uyat hissi inson ijtimoiy turmushining uzilmas bir qismidir. Aynan shuning uchun psixologlar ishida ushbu fenomenni tadqiq etish ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarga borib taqaladi. Aybdorlik va uyatni tadqiq etishning dolzarbligi shundaki, xorijiy va o‘zbek psixologiyasida yetarli darajada o‘rganilmaganligidir. Hozirgi vaqtgacha aybdorlik va uyat kechinmalari emotsiya va hislarning umumiy nazariyasi doirasida, (Ю.И.Сидоренко, 1971; Г.Х.Шингаров, 1971; П.М.Якобсон, 1998) ma’naviy-axloqiy tarbiya va rivojlanish nazariyasi doirasida yoki o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘ziga munosabat kontekstida o‘rganilgan (И.С.Кон, 1981; С.Р.Пантелеев, 1991; И.Н. Семенов, Ю.А.Репецкий, 1999;).

Turli psixologik konsepsiyalarda aybdorlik va uyat fenomeni o‘zaro munosabatlar sifatida qabul qilinsa ham, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda maxsus masala sifatida o‘rganib chiqilmagan, ayniqsa aybdorlik hisini boshdan kechirishdagi yosh va gender farqlar o‘zbek psixolog olimlari tomonidan deyarli o‘rganilmagan.

Aybdorlik hissi – bu uning yordamida vijdon tuyg‘usi yuzaga keladigan emotsiya bo‘lib hisoblanadi va bu o‘zidan norozilik, axloqiy talablarga nomutanosiblikni his qilish va o‘z shaxsiy “Men”i, unga ishonch bildirgan kishilar yoki Olloh oldidagi burchini bajara olmaslikda ifodalanadi. Yashirin ongda aybdorlik hissi insonning o‘z xatti-harakatlariga salbiy munosabat bildirish, vijdon azobi, afsuslanish, pushaymon bo‘lish sifatida nomoyon bo‘ladi.

Aybdorlik hissi – vijdonning hissiy-emotsional jihatdan kuchayishi deb aytishimiz mumkin. Bu his bizga vijdonimiz borligini eslatdi, ammo bu faqat biz uning maslahatlariga amal qilmaganda ko‘zga tashlanadi.

Aybdorlik hissini yuzaga keltiruvchi birinchi va eng asosiy omil bu oila bo‘lib hisoblanadi. Aybdorlik hissi, aybdorlik holati bolalarda asosan jazolash orqali yuzaga keltiriladi. Bolaning ayrim nojo‘ya xatti-harakatlari ota-ona tomonidan “yomon” deb topilsa u albatta turli yo‘llar bilan jazolanadi, bu jismoniy jazo, og‘riq, yolg‘izlik hissi yoki boshqalar bo‘lishi mumkin. Bu holatda bola mana shu berilgan jazoni yana qaytarilishi mumkinligi haqida o‘ylab ham o‘z xatti-harakatining “yomon” ekanligini tushunib yetadi. Agar “yomon” deb baholangan xatti-harakatlarga beriladigan jazo yetarli miqdorda takrorlangan bo‘lsa, keyinchalik bola yana shunday holatga tushganda hattoki yonida ota-onasi bo‘lmasa ham qo‘rquv va og‘riq hislari avtomatik ravishda o‘z-o‘zidan yuzaga keladi.

Bolalarda aybdorlik hissini boshdan kechirish bir qator o‘ziga xosliklarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu hisni tuyush uchun bolalarga kattalarga nisbatan ko‘proq vaqt talab qilinadi. Bundan tashqari yomon xatti-harakatni amalga oshirar ekan katta yoshdagi insonlar aybdorlik hissi bilan birgalikda vijdon azobini ham boshdan kechirishadi, lekin bolalarda esa bu harakat izchillik bilan uzoq vaqt davomida amalga oshadi.

Shu o‘rinda bir savol to‘g‘ilishi tabiiy, nima uchun katta yoshdagi insonlar haqiqatda javobgar bo‘lishmasa ham ko‘pincha o‘zlarida aybdorlik hissini tuyushadi? Chunki aybdorlikni his qilishga moyillik ularga tarbiya bergan kishilar tomonidan bolalik davridayoq shakllantirilgan bo‘ladi. Psixologiyada aybdorlik kompleksi degan tushuncha mavjud bo‘lib bu kompleks ota-onalarning bolani aybdor ekanligini ta’kidlab ularga ta’sir o‘tkazishlari orqali yuzaga keltiriladi. Aybdorlik kompleksi bolada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan davrda shakllanadi, bu bolada atrof-muhit va o‘zi haqidagi tasavvurlarning paydo bo‘lishi va tarbiyachilarning unga ko‘rsatadigan ta’siri bilan ifodalanadi.

Aybdorlik kompleksida inson hech qanday nojo‘ya xatti-harakatlarni amalga oshirmaydi, unda o‘z-o‘zini ayblash uchun hech qanday obyektiv asos ham bo‘lmaydi, biroq bu asoslarni uning o‘zi o‘ylab topadi. Aybdorlik haqidagi tasavvurlar bunday insonning butun ongini egallab olishi mumkin va shaxsga xos bo‘lgan komponentlardan biriga aylanadi. Inson haqiqatdan ham aybdor bo‘lganda yoki aybdor bo‘lmasada bu hisni boshdan kechirayotgandagi vaziyatlar o‘rtasidagi farqni bilish biz uchun juda ham muhim bo‘lib hisoblanadi. Birinchi vaziyatda ya’ni haqiqatda aybdor bo‘lganda u aybiga iqror bo‘lishi, afsuslanishi, o‘z gunohini yuvishi mumkin va bu unga ruhiy xotirjamlik olib keladi. Ikkinchi vaziyatda esa afsuslanish va gunohini yuvish faqat qisqa muddatgagina insonni tinch qo‘yishi mumkin, bir oz vaqt o‘tgandan keyin yana o‘z-o‘ziga azob berish boshlanadi.

Agar inson bo‘lib o‘tgan voqea-hodisada nimanidir yaxshi tomonga o‘zgartira olganligiga ishonsa, demak, bunday insonlar o‘ta vijdonli deb sanaladi. Aybdorlik kompleksidan azob chekayotgan inson esa qilinishi mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan ishlarni ham iloji boricha yaxshiroq bajarishga harakat qiladi, u nafaqat o‘zi uchun balki “o‘zgalar” uchun ham harakat qiladi va buning uchun o‘zining shaxsiy vaqtini hattoki sog‘ligini ham qurbon qiladi, lekin natijada maqtov emas, balki har doimgidek navbatdagi ayblovlarni qabul qilib oladi.

S.V.Gornayevaning tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha katta yoshdagi insonlarning yoshlarga qaraganda aybdorlik hissini boshdan kechirishga moyillik darajasi yuqoriroq bo‘lar ekan [2,367-384]. Bu quyidagi vaziyatlarda yaqqol nomoyon bo‘ladi:

- yaqin insonini aldash bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlarda(55% katta yoshdagilar va 20% yoshlarda ko‘zga tashlanadi);
- yaqin kishisiga bergan va’dasini bajara olmaganda (66% katta yoshda gilar va 18% yoshlarda kuzatiladi);
- yo‘l haqini to‘lashni unutib qo‘yib, bu haqda faqat avtobusdan tushgandan keyingina eslaganlarida (63% katta yoshdagilar va 14% yoshlarda);

- bundan tashqari hamkasbining taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan muhim hujjatni tasodifan buzib qo‘yib uni yashirishlariga uringan vaziyatda (60% yoshi kattalarda va 28% yoshlarda kuzatiladi).

Katta yoshdagi insonlarning yoshlarga nisbatan aybdorlik hissini boshdan kechirishga moyillik darajasi yuqoriroq ekanligini shu bilan tushuntirish mumkinki, katta yoshdagi inson shaxs sifatida ko‘proq darajada ijtimoiy yetilgan, amalga oshirgan xatti-harakatlari va ularning oqibatlari uchun javobgarlikni bo‘yniga olishga ko‘proq darajada moyilligi bilan yoshlardan farq qiladi.

I.A.Belik ma’lumotlariga ko‘ra, yetuklik yoshidagi (30-55 yoshlarda) insonlarda aybdorlik kechinmasi shaxsiy cheklanganlikni anglash, boy berilgan imkoniyatlar va yaqinlarini yo‘qotish bilan bog‘liq; yoshlarda (19-23 yoshda) – boshqa insonlarni xafa qilganlik yoki o‘zi hurmat qilgan odamlar ishonchini oqlamaganlikka bog‘lanadi [2,379-392].

Hayotda ayollar aybdorlik hissini aksariyat hollarda va jadallik bilan boshdan kechirishadi. Bir qator tadqiqotlarda (Merisca Bybee, 1994; Zahn-Waxler, Cole, Barrett, 1991) aniqlanishicha aybdorlik hissini boshdan kechirish bilan bog‘liq emotsional buzilishlar, jumladan, depressiya, anoreksiya va boshqalar erkaklarga nisbatan ayollarda ko‘proq kuzatilar ekan. Yuqoridagi fikrni rus tadqiqotchilaridan S.B.Gornayeva hamda T.N.Smotrovalar ham ma’qullashib, ayollar erkaklarga nisbatan aybdorlik hissini kechirishga ko‘proq darajada moyil deb ta'kidlashadi. Masalan, o‘ziga yaqin insonini xafa qilib qo‘yishganida ayollar erkaklarga nisbatan ko‘proq darajada aybdorlikni his qilishadi (35% ayollarda va 10% erkaklarda). Odatda ayollarni emotsional, sergap va yon beruvchan deb hisoblashsa, erkaklarda aql-idrokka asoslanib ish qilish va o‘z hissiyotlarini atrofdagilarga ko‘rsatmaslikka harakat qilish ustunlik qiladi deb hisoblashadi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, hattoki aybdorlikni his qilishga majbur qiladigan biror-bir hatti-harakatni amalga oshirishganlarida ham erkaklar bu hisni yashirishga yoki uni siqib chiqarib tashlashga moyil bo‘lishadi [2,367-384].

Ayollar ko‘pincha aybdorlikni og‘ir emotsional kechinmalar bilan, ruhiy azoblar bilan bog‘lashadi, ular o‘z-o‘zlarini ayblashga, o‘z xatti-harakatlarini oqlashga va afsuslanishga moyil bo‘lashadi. Xuddi shunday holatda erkaklarning ko‘pchiligi aybdorlik kechinmasini keltirib chiqargan vaziyatni o‘ylamaslikka va uni unutishga harakat qilar ekanlar.

Ayollar ko‘p holatlarda aybdorlikni o‘z yaqinlariga yetarlicha e’tibor qaratmaganlarida, ularga e’tiborsizlik qilganlarida, o‘z yaqinlarini xafa qilganlarida yoki ko‘nglini og‘ritib qo‘yganlarida, atrofdagilar yordam surab murojaat qilishganda ularga rad javobini berganlarida boshdan kechirishadi. Erkaklar esa shaxsiy cheklanganlikni anglaganlarida hamda jahli chiqqan vaqtda o‘zini tutolmay qolganlarida keyinchalik o‘zini aybdor his qilishadi.

Biz xuddi shu masala yuzasidan, ya’ni aybdorlik hissini boshdan kechirishdagi gender va yoshga oid farqlarni aniqlash bo‘yicha bir qator tadqiqot ishlarini amalga oshirdik. Tadqiqot obyekti sifatida SamDU psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti psixologiya yo‘nalishi 4-bosqish talabalari hamda jismoniy tarbiya yo‘nalishi maxsus sirtqi bo‘lim talabalri tanlab olindi. Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti 4-bosqich talabalaridan jami 72 nafar talaba, ulardan 34 nafari o‘g‘il bolalar, 38 nafari qiz bolalar, jismoniy tarbiya yo‘nalishi maxsus sirtqi bo‘lim talabalaridan 67 nafar talaba, ulardan 34 nafari erkaklar, 33 nafari ayollardan iborat edi. Biz ularga birinchi navbatda “Siz o‘z yaqin insoningizni xafa qilib qo‘yganda, o‘zingizni aybdor his qilasizmi?” degan savol bilan murojaat qildik, ular ushbu savolga “yo‘q”, “gohida”, “tez-tez”, “deyarli har doim”, “har doim” degan variantlardan birini tanlab javob qaytarishlari kerak edi va biz ulardan quyidagicha javoblar oldik, psixologiya yo‘nalishi 4-bosqich talabalaridan:



Jismoniy tarbiya yo‘nalishi maxsus sirtqi bo‘lim talabalarida o‘tkazgan tadqiqotimizda esa quyidagi natijalar olindi:



Yuqoridagi natijalardan ham ko‘rinib turibdiki, ayollar o‘z yaqin insonlarini xafa qilib qo‘yishganda ko‘p holatlarda o‘zlarini aybdor his qilishar ekan, shuning uchun ham ayollarning bergan javoblarida “har doim” va “deyarli har doim” variantlari ko‘proq foizni tashkil qildi. Erkaklarda esa aksincha “yo‘q” hamda “gohida” variantlari ko‘proq foizni tashkil qildi va bu ularning ayollarga nisbatan o‘zlarini kamroq aybdor his qilishlarini ko‘rsatadi.

Zigmund Freyd aybdorlik hissiga xavotirlanishning bir turi sifatida qaragan va uni “vijdon xavotiri” deb atagan. Xuddi shu nuqtayi nazarni boshqa bir psixoanalitik olim G. Mandler ham qo‘llab-quvvatlab, aybdorlik va xavotirlik bu bitta holatning turlicha nomlanishidir deb ta’kidlaydi. Olimning fikricha aybdorlik – bu haqiqiy yoki tasavvur qilingan xatolik yuzasidan xavotirlanishdir. Xavotirlanishning bunday turini boshdan kechirish insonlardagi o‘ziga xos himoya mexanizmini ishga tushiradi va buning yordamida shaxs o‘zining noto‘g‘ri xatti-harakatlari natijasida yuzaga kelgan zararni yo‘qotishga yoki silliqlashga harakat qiladi[1,347-359].

Bundan tashqari, ayrim mualliflarning ko‘rsatishicha aybdorlik hissini samarali tadqiq qilinishi uchun jismoniy jazolash metodlari emas, balki psixologik, ya’ni “mehr-muhabbatga” yo‘naltirilgan metodlar ko‘proq mos keladi. Aynan ota-onasining va yaqinlarining mehr-muhabbatini yo‘qotishdan qo‘rqish ko‘pincha afsuslanishga, vijdon azobiga, tashvishlanishga, aniqroq aytadigan bo‘lsak aybdorlikni his qilishga olib keladi.

Bu borada A.N. Leontevning olib brogan tadqiqotlari juda ham qiziqarli bo‘lib, uning mohiyati quyidagicha ifodalanadi. Bolaga o‘z joyidan turmasdan, undan bir oz masofaga uzoqlashtirilgan predmetni olish tavsiya qilinadi va bu vazifaning to‘g‘ri bajarilishi evaziga eksperimentator unga shokoladli konfet berishni va’da qiladi. Eksperimentator bolani bir oz muddatga ataylab yolg‘iz qoldiradi va bu vaqtda bolaga sezdirmasdan kuzatish ishlari olib boriladi. Ammo, ayrim bolalar eksperimentatorning yo‘qligidan foydalanib, belgilangan qoidani buzib o‘z o‘rnilaridan turgan holda vazifani bajarishadi va tadqiqot so‘nggida eksperimentator va’da qilgan shokoladli konfetni olishdan mahrum bo‘lishadi. Tadqiqot boshida bola judayam olishni hohlagan shokoladli konfetdan mahrum bo‘lish, bolada achchiq ko‘z yoshlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning bu ko‘z yoshlari, hatto shu kichik yoshdayoq belgilangan qoidalarni buzganligi uchun o‘zini aybdor his qilayotganligidan dalolat beradi.

Ayrim psixolog olimlarning fikriga ko‘ra, aybdorlik hissi – shaxsning xavotirlik darajasini kamayishiga yordam beradigan va jiddiy psixik buzilishlarni oldini oladigan mustaqil fenomen bo‘lib hisoblanadi. Bu nuqtayi nazardan aybdorlik hissi ijobiy rol o‘ynaydi.

Shaxsda aybdorlik hissi yuzaga keladigan vaziyatlar quyidagilardan iborat:

- qachonki inson qilishi lozim bo‘lgan ishni vaqtida bajara olmaganda;
- qachonki inson ilgari nimadir qilgan yoki qilmagan bo‘lsa-yu va bugun bundan afsuslanayotgan bo‘lsa;
- qachonki inson majburiyat yuzasidan biror-bir hatti-harakatni bajarayotgan bo‘lsayu, ammo o‘z hatti-harakatlaridan qalban afsuslanayotgan bo‘lsa;
- qachonki uning “majburiyat yuzasidan” biror-bir vazifani bajarishiga to‘g‘ri kelsa va shu sababli xavotirlik, stress va vijdon azobini boshdan kechirayotgan bo‘lsa.

Aybdorlik hissi boshdan kechirilayotganda insonni o‘tmish va kelajakka yo‘naltirilgan fikrlar qamrab oladi, masalan, “keyingi safar aqlliroq bo‘laman, barcha ishni to‘g‘ri bajaraman” yoki aybdorlik hissi bilan bog‘liq vaziyatni hal etishga qaratilgan fikrlar (“kechirim so‘rashim kerak”, “hammaning oldida aybimni tan olishim kerak”) va boshqalar. Bir qator sinaluvchilarda bu vaqtda taajjublanish paydo bo‘lganligi (“men qanday qilib bunga yo‘l qo‘ydim?”), ayrim hollarda esa esankirab qolish(“nima qilish kerak?”) holatlari ko‘zga tashlangan.

Aybdorlikni his qilish boshqa salbiy emotsiyalar bilan birgalikda kechishi mumkin, masalan, qayg‘u, xafagarchilik, xo‘rlanish, tahqirlanish, umidsizlik va boshqalar. Ruhiy azoblardan tashqari u o‘zi bilan butun tanadagi jismoniy taranglik, nafas olishning qiyinlashuvi va qanchalik ajablanarli bo‘lmasin qo‘rquv hamda o‘z-o‘zidan yashirinish istagining paydo bo‘lishini olib kelishi mumkin.

Ifodalanmagan xafagarchilik ko‘pincha xuddi aybdorlik hissidek idrok qilinadi yoki unga aylanadi va aybdorlik hissi ham xafagarchilikka aylanishi mumkin. A. Kempinski fikriga ko‘ra buning sababi shu bilan izohlanadiki ularda umumiy asos mavjud, ya’ni adolatlilikka, to‘g‘rilikka intilish. Farqi faqat shundaki, bir vaziyatda (aybdorlik hissida) hukm qabul qilinadi, ikkinchi vaziyatda (xafagarchilikda) unga qarshi kurashiladi.

Ye.B.Belinskiyning tadqiqotlariga ko‘ra insonlarda aybdorlikni his qilish qora va kulrang ranglar bilan assotsial qilinar ekan.

E.Bernning ta’kidlashicha, aybdorlikni his qilishga moyilligi bor inson atrofdagilarning kamchiligini izlash vositasi bilan o‘z “Men”ini mustahkamlashga harakat qilar ekan[4, 148-156].

Aybdorlikni his qilishga moyillikning haddan ortiq ifodalanishi depressiyaning yuzaga kelishiga asos bo‘lishi yoki bo‘lib o‘tgan voqealarga haddan ortiq javobgarlikning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ko‘pchilik oilalarda qiz bolalar o‘g‘il bolalarga nisbatan qattiqqo‘llik bilan tarbiyalanadi. O‘g‘il bolalarni ko‘pincha kechirishadi, ular biror-bir kichik ishni bajarishsa ham xursand bo‘lishadi. Lekin, qiz bolalar “deyarli to‘g‘ilgan vaqtidan” boshlab uydagi barcha ishlarni bajara olishi, bajarganda ham yaxshi bajarishi lozim, chunki u ertaga uy bekasi bo‘lishi, barcha uy-ro‘zg‘or ishlarini o‘zi bajarishi kerak deb hisoblashadi. Shuning uchun ham barcha ishlarda “a’lochi” bo‘lishga intilish sindromi ayollarda erkaklarga nisbatan kuchliroq bo‘ladi, buni ayollarning doimo o‘zlarini oqlashlarida, kechirim so‘rashlarida, o‘z xatti-harakatlarini tushuntirishga harakat qilishlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Aybdorlik hissini har kim har xil qabul qiladi. Mas’uliyatli va mehribon kishilar uchun aybdorlik hissi tarbiyalashning samarali qurolidir. Mas’uliyatsiz kishi esa aybdorlik hissini o‘zini xarob qilish tomonga ham burishi mumkin, uning uchun yuzaga kelgan vaziyatni qandaydir yo‘l bilan to‘g‘rilash o‘rniga o‘ziga azob berish bir muncha osonroq tuyuladi.

Aybdorlik hissi ta’siri ostida inson ko‘pincha hayotda xohlagan orzu-istaklariga erishish uchun harakat qilishdan qo‘rqadi. Chunki, aybdorlik hissi shaxsning o‘z-o‘ziga beradigan bahosini pasayishiga va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchining yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Agar hayotda nimanidir yo‘lga qo‘yish, tashkil qilish imkoniyati paydo bo‘lsa ham aybdorlik hissi uyg‘onib unga ”sen bunga loyiq emassan, bu sen uchun emas” deb aytishi mumkin.

Gohida kishilar yillar davomida ma’lum bir hayot tarzida qotib qolishadi. O‘zgarishlar ular uchun qiyin, bajarib bo‘lmaydigan ishdek tuyuladi, ular bundanda yaxshiroq turmush tarziga loyiq ekanliklariga o‘zlari ham ishonishmaydi. Atrofida bir xil insonlar, bir xil voqealar, mustahkam yaxlit davra, go‘yoki uning ichidan chiqib ketishning iloji yo‘qdek. Voqealarning bunday davom etishi kishilarda apatiya, depressiya, passivlik va va kelajakdan qo‘rqish tuyg‘ularining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bunday passiv umidsizlik holatidan chiqishning eng samarali yo‘li bu – faol hayot tarzidir. Muntazam zo‘r berish, xatti-harakatlar va insonning o‘zini yengib chiqishi har xil yomon hissiyotlarni bartaraf etadi. Birinchi galda inson o‘zini kechirishni o‘rganishi kerak, shundagina u eng yaxshi narsalarga ham loyiqligini his qila oladi [6, 16-17].

Agar inson ilgari yo‘l qo‘ygan qandaydir xatosi uchun aybdorlik hissini boshdan kechirayotgan bo‘lsa va hozirda buni to‘g‘rilashning iloji bo‘lmasa, demak bunda u uchun eng to‘g‘ri yo‘l ayni damda mavjud holatlarga nisbatan tushunish, iliqlik va uyg‘unlikni yuzaga keltirish zarur. Masalan, agar siz ilgari kimnidir nohaq xafa qilgan bo‘lsangiz ayni damda o‘zingizni qiynashingizni hojati yo‘q, faqatgina hozirgi hayotingizda sizning atrofingizdagi kishilarga nisbatan o‘zaro tushunish, do‘stona va iliq munosabatda bo‘lishning o‘zi kifoya qiladi. Kishining o‘z xatti-harakatlariga nisbatan bunday oqilona, faol qaror qabul qilishi va mas’uliyatni his qilishi tufayli aybdorlik hissi egoizm, ochko‘zlik va serjahllik hislaridan donolik, mehr-muhabbat va tushunish hislariga o‘tuvchi ko‘prik vazifasini bajaradi.

Shaxsda aybdorlik hissining yuzaga kelishidagi gender farqlarni o‘rganish maqsadida biz SamDU psixologiya yo‘nalishi 4-bosqich talabalarida tajriba-sinov ishlarini davom ettirib Ye.P.Ilin tomonidan moslashtirilgan “Kugler-Djonsning aybdorlik hissini o‘rganish so‘rovnomasi” yordamida tadqiqot o‘tkazdik. Tadqiqotda 4-bosqich talabalaridan jami 72 nafar sinaluvchi qatnashgan bo‘lib, shundan 38 nafari qiz bolalar, 34 nafari o‘g‘il bolalardan iborat bo‘ldi. Sinaluvchilarga oldindan tayyorlangan maxsus blankalarda 45 ta tasdiq ko‘rinishidagi savolnoma tarqatildi va ushbu tasdiqlarga ularning qo‘shilish yoki qo‘shilmasliklari 5 xil shkala yordamida baholab berishlari orqali aniqlandi. Olingan natijalarga qarab quyidagicha xulosaga kelindi:

Aybdorlik hissining yuzaga kelish shakli va darajasi	Aybdorlik hissi -axloqiy norma sifatida		Aybdorlik hissi – xususiyat sifatida		Aybdorlik hissi – holat siftida	
	O‘gil bolalar	Qiz bolalar	O‘g‘il bolalar	Qiz bolalar	O‘g‘il bolalar	Qiz bolalar
Qiyi daraja	18	16	7	6	3	2
O‘rta daraja	3	5	1	3	1	1
Yuqori daraja	1	3	-	2	-	-
Jami:	22	24	8	11	4	3

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra sinaluvchilarning 4 nafarida aybdorlik hissi axloqiy norma sifatida, (1 nafari o‘g‘il, 3 nafari qizlar), 2 nafarida esa xususiyat sifatida (2 nafar qizlar) yuqori darajada shakllangan, bundan tashqari 8 nafar sinaluvchida (3 nafar o‘gil bola, 5 nafar qiz bolalar) axloqiy norma sifatida,

4 nafarida (1 nafar o‘g‘il bola, 3 nafari qizlar) xususiyat sifatida, 2 nafarida (1nafar o‘g‘il, 1 nafar qiz) holat sifatida o‘rta darajada shakllangan bo‘lsa, qolgan 34 nafar sinaluvchida (18 nafar o‘g‘il bola, 16 nafar qiz bolalar) axloqiy norma sifatida, 13 nafarida (7 nafar o‘g‘il bola, 6 nafar qiz bolalar) xususiyat sifatida hamda 5 nafarida (3 nafar o‘g‘holat sifatida quyi darajada shakllanganligi ma’lum bo‘ldi.

Aybdorlik hissi barcha insonlarda bolalaik davridanoq turli yo‘llar bilan kattalar tomonidan ularda shakllantirilganligi uchun bu his deyarli barcha insonlarda turli darajada uchraydi. Aybdorlik hissining quyi va o‘rta darajasi shaxs hayot faoliyati uchun ko‘p muammolar keltirib chiqarmaydi, ammo u yuqori darajada shakllanganda xoh u axloqiy norma sifatida bo‘lsin, xoh xususiyat yoki holat sifatida bu shaxs hayotida ko‘pgina muammolarni keltirib chiqarishi, shaxsning tinch va osuda hayotiga putur yetkazishi mumkin.

Aybdorlik hissidan qanday qutulish mumkinligini tushunish uchun quyidagilarni bilish va esda tutish lozim:

1. Aybdorlik hissi – bu tabiat ne’mati emas, balki u jazolash vaqtida his qilinadigan qo‘rquv yordamida inson tanasiga singdiriladi, ya’ni insonning hayoti davomida boshqalar tomonidan shakllantiriladi.
2. Aybdorlik hissi qanday harakat yaxshi yoki yomonligi haqida ma’lumot bermaydi, balki tarbiyachilaringiz sizni nima uchun jazolashgan va bu hisni yuzaga keltirishgan bo‘lsa, aybdorlik hissi ham xuddi shuning uchun jazolaydi.
3. Aybdorlik hissidan inson to‘g‘ri xulosa chiqarmasa u xatolarni tahlil qilishga yordam bermaydi, balki xalaqit qiladi. Bu his yoqimsiz kechinma bo‘lib hisoblanadi, zero insonlar yoqimsiz fikrlardan qochishadi, xatolari to‘g‘risida ham kam o‘ylashadi, ularni tahlil qilishmaydi, xulosalar chiqarishmaydi. Bundan tashqari o‘zidagi shaxsiy aybdorlik hissi sababli inson boshqalarni ham aybdor deb sanaydi, “nima, bitta men shunaqa yomon va noto‘g‘ri ish qiladigan odammanmi? Ana boshqalar ham mendan yaxshi emas-ku?
4. Aybdorlik hissi sizni yanada insoniyroq qilmasligi ham mumkin, chunki aynan aybdorlik hissi tufayli ko‘pchilik insonlar yovuzlik, g‘azablanish, jahl kabi tuyg‘ularni boshdan kechirishadi va bu yomonliklarni barcha atrofdagilarga ham sochishadi.

Adabiyotlar

1. Изард К.Э. Психология эмоций / Перевод. СПб.: Питер, 2002. - 464с.
2. Ильин Е. П. Эмоции и чувства: Учеб. пособие. – СПб. и др.: Питер, 2001. -749с.
3. Корнилов М.Н. "Культура стыда" и "культура вины" в Японии и на Западе // Человек: образ и сущность. М., 1998. Вып. 9. - С. 94-123 'Ь
4. Матюшин Г.Г. Стыд и совесть как формы моральной самооценки. – М : Изд-во МГОПУ : НОУ, 1998. - 233 с
5. Сидоренко Ю.И. Место и роль нравственных чувств в системе морального сознания // Вестник Московского университета. 1971. № 5. С. 48-57.
6. Кон И.С. В поисках себя. – М.: Политиздат, 1984. – 335 с.
7. Шингаров Г.Х. Эмоции и чувства как формы отражения действительности. – М.: Наука, 1971. – 222 с.

UDK: 15

ISTE’MOLCHINI IDROK ETISHDA PSIXOLOGIK KOMPONENTLAR

M. I. Salaxutdinova
Samarqand davlat universiteti
salaxiddinovamusharraf@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada mahsulot brendini yaratish va boshqarishda shaxs psixologiyasini o‘rganish, insonni iste’molchi sifatida idrok etish metodlari yoritiladi. Iste’molchi psixologiyasini to‘g‘ri idrok etish algoritmi taklif etiladi.

Tayanch so‘zlar: Iste’molchi, brend, tovar, psixolgik holatlar, motivlar, idrok, shaxs, diqqat, hissiyotlar, ehtiyojlar, sezgilar.

Психологические компоненты в восприятии потребителя

Аннотация. В статье исследуется методы восприятия психологических состояний личности в создании и управлении брендом. Предлагается алгоритм адъекватного восприятия психологии потребителя.

Ключевые слова: потребитель, бренд, товар, психологические состояния, мотивы, восприятие, личность, внимание, эмоции, потребности, ощущения.

Psychological components in the perception of the consumer

Abstract. The article examines the methods of perception of psychological states of the individual in the creation and management of the brand. An algorithm for an adequate perception of the psychology of the consumer is proposed.

Keywords: consumer, brand, product, psychological states, motives, perception, personality, attention, emotions, needs, sensations.

Kirish. Odamlarni iste'molchi sifatida o'rganish dastlab AQSHda 1960-yillardan boshlandi. Bunga sabab marketologlarning bixeviorizm va sotsiologiya ilmini o'rganish orqali u yoki bu tovarning sotilishida yoki iste'molchi tomonidan xarid qilishga qaror qilinishidagi xulq-atvorning maxsus determinantlarini bilishga ehtiyojlarining hosil bo'lishi edi.

1896-yilda reklama muvaffaqiyatini baholash uchun qabul qilingan mashhur formula – AIDA (ingliz tilidan: attention, interest, desire, action – diqqat, qiziqish, istak, faollik) ham inson xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutgan. Bu formula iste'molchi psixologiyasini idrok etishda ham o'z ahamiyatiga ega. Uning asosiy maqsadi iste'molchida tovarga yoki biror xizmat turiga nisbatan diqqatni jalb etish, qiziqish va istak hosil qilib, unda shu tovarni sotib olish faolligini vujudga keltirishdir.

Bu formula natijaga erishishni emas, faqatgina natijaga erishish uchun psixologik holatlarni e'tiborda tutishni sanab o'tadi, xolos. Sababi, hali u vaqtda, ya'ni 1896-yillarda reklama, marketing, brending kabi tushunchalar bo'lmagan. Hozirgi kunda bu sohada katta o'zgarishlar yuz bergan bo'lib, iste'molchini jalb etish uchun psixologik, sotsiologik, dizaynerlik va iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqilgan.

Iste'molchi psixologiyasini o'rganishda quyidagi psixik jarayonlar asosiy hisoblanadi:

–idrok (diqqat va xotira);

–hissiyotlar va emotsiya;

– ehtiyojlar;

– motivlar;

– qadriyatlar.

Metodologik asos. Insonda bu jarayonlarni boshqarish imkoniga bo'lish maqsadida butun dunyoda korporatsiyalar tomonidan milliardlab mablag'lar sarflanadi.

Masalan, maqsadli auditoriya ipoteka orqali uy tanlash va sotib oluvchilardan iborat bo'lganida yuqorida sanab o'tilgan psixik jarayonlar va holatlar qanday ta'sir ko'rsatadi? Bu iste'molchilarning nafaqat moddiy, balki vaqt va boshqa narsalarga ham ehtiyojini hosil qiladi.

1) Idrok. Maqsadli auditoriyaning diqqatini ko'chmas mulk sotilishiga, bu ularning ehtiyojlari, motivlari va qadriyatlariga mosligiga diqqatni tortish.

2) Emotsiya va hissiyotlar. Bunda o'rta sinf vakillari (ipotekaga uy oluvchilar) nazarda tutilib, ularning iste'molchi sifatidagi faolligi emotsial emas, balki ratsional – o'ylab, tekshirib qilingan qarordir. Biroq, brendni idrok etishda emotsiyalar va hissiyotlar ko'pincha yetakchi o'rin tutadi. Demak, bu brend iste'molchilarda ishonchlilik, aldanmaslik, himoyalanganlik hissini hosil qilishi kerak.

3) Ehtiyojlar va motivatsiya. Bu xaridning asosiy motivi – alohida yashash joyiga ega bo'lish, shuningdek, uni kengaytirish, yashash sharoitlarini yaxshilashdan iborat. Umuman, uy xarid qilish bir nechta turdagi ehtiyojlar qondirilishiga sabab bo'ladi: birinchi navbatda himoyaga ehtiyoj; shuningdek, shaxsiy uy-joyga ega bo'lish bilvosita ehtiyojlarni qondiradi. Bular naslni davom ettirish, muhabbat va do'stlik, tan olinish va izzat-hurmatga ehtiyoj.

4) Qadriyatlar. Maqsadli auditoriyaning asosiy qadriyatlari:

- o'z-o'ziga hurmat;
- oilaviy qadriyatlari, farzandlar;
- moddiy farovonlik;
- jamiyatda o'z maqomiga erishish;
- o'z-o'zini namoyon etish (erkinlik, ijodkorlik);
- hayotdan bahra olish (bo'sh vaqtini halovat bilan o'tkazish, sayohat).

5) Tasavvur. Uyga ega bo'lishga nisbatan maqsadli auditoriyaning ideal uy haqidagi tasavvurlari biz tomondan o'rganilib chiqildi. Aniqlanishicha, mantiqan ular uchun mikroventilyasiyali steklopaket yoki, masalan, regulyasiyali issiqlik radiatori muhim emas. Inson uchun bu barcha yangi texnologik uskunalar uning yashash muhitini qanchalik yaxshilashi – uyi issiq, xavfsiz, zamonaviy va qulay bo'lishi muhim.

Muhimi shundaki, bu elementlarning har biri tayanch ahamiyatga ega. Masalan, tovar obraziga nisbatan iste'molchining "emotsional torlariga chertish" uchun zaruriy ehtiyojlar va motivlarni faollashtirish, maqsadli auditoriyaning (kimga atalgan mahsulot) asosiy qadriyatlariga tayanish orqali mahsulot taqdimoti va brend nomi yoki logotipi idrok jarayoniga ta'sir etadi. Ko'p hollarda brend tovar haqidagi axborot uning mazmunini buzib idrok etishga ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan, kuchli musiqa, mashhur, aktyorlar, chiroyli va yorqin obrazlar xotirada saqlab, qanday tovar reklama qilinayotganligi idrok etilmasligi ham mumkin.

Brend-menejmentning iste'molchi psixologiyasini idrok etish uchun qiladigan asosiy vazifasi brend mahsulotning maqsadli auditoriyasi haqida aniq va to'liq ma'lumotlarni aniqlashdir.

Brend-menejment esa bu – mahsulotni sotishga sabab bo'luvchi brendni yaratish va boshqarish jarayonidir. Bu jarayonda asosiy marketingni tashkil etuvchisi sifatida brend g'oyalari, bozor tahlili, strategiyani ishlab chiqish va reklama kompaniyalarini tashkil etish hisoblanadi.

Brend yoki brend – mahsulot yoki xizmat to'g'risida iste'molchi ongidagi tasavvur, fikr, assotsiatsiyalar, hissiyotlar, qadriyatlar xarakteristikasi majmui. Brend faqatgina bir guruh iste'molchilarga mo'ljallangan tovar bo'ladi. Tanlangan auditoriyaning jins, yosh, o'qimishlilik, ijtimoiy maqom, reklamaga qiziqishlari xususiyatlari aniqlangandan keyin ularning psixologik qonuniyatlarini tizimlashtirish va keyinchalik shu ma'lumotlar asosida ish olib borish mumkin bo'ladi.

Brendning maqsadli auditoriyasini aniqlash vazifasi iqtisodiyot, sotsiologiya va psixologiya kesimida hal etiladigan masalaga kiradi. Biroq, bu vazifani hal etish metodologiyasi haqida gapiradigan bo'lsak, u sotsiologik metodlardan iborat ekanligini ko'ramiz. Bular – kuzatish, og'zaki va yozma fikrlarning kontent tahlili, anketa so'rovnomalari, keyslar va boshqalardan iborat.

Hatto, maqsadli auditoriya xususiyatlarini to'liq aniqlab, bu auditoriyaning psixologik qonuniyatlarini o'rgangan holda ham, brend-menejer brend elementlarining vizual va verbal tavsifini yaratganda xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Anketa yoki fokus-guruh bilan ishlash ko'pincha xato natija berishi mumkin. Masalan, vizual imidjlar bo'yicha test o'tkazilganida, baxtli oila tasviri (ona, ota va bola) fokus-guruhning bir ishtirokchisi tomonidan ma'qullanmagan. Uning fikri hammani hayratda qoldirgan: "Bu yerda uch kishidan iborat baxtli oila tasvirlangan. Bu to'liq oilaga ega bo'lmagan kishilarning manfaatlarini poymol qiladi. Nega men o'zimni baxtli emas deb his etishim kerak?"[4.127].

Tayyor mahsulotni bu kabi sinovdan o'tkazish natijasida taqdimot muvaffaqiyatsiz deb topilsa, brendni rivojlantirish uchun yangi tamoyil yaratishda bu metod qo'shimcha xarajatga olib keladi. Biroq, bu xarajatlar iste'molchida mahsulot haqida noto'g'ri tasavvur va hissiyot hosil bo'lishining hamda kompaniya nufuzi tushishi xavfining oldini oladi.

Shuning uchun, iste'molchilarning psixologik xususiyatlarini aniqlash va bu ma'lumotlarni brendlarni yaratish va boshqarishda qo'llashda quyidagi standart algoritm taklif etiladi:

1. Loyiha maqsadini aniqlash.
2. Sotsiologik metodlar yordamida loyihaning maqsadli auditoriyasini sotsiodemografik omillar terminlarida aniqlash – jins, yosh, ma'lumotlilik, kasb, mashg'ulot turi, oilaviy ahvoli, oila a'zolariga qarab daromadi va h.k.
3. O'ziga xos tomonlarini ochib berish (ma'lumotlarni to'ldirish maqsadida psixologik metodlarga murojaat qilish mumkin):
   - idrokni (diqqatni va xotirani);
   - emotsiyalar va hissiyotni;
   - ehtiyoj va motivatsiyani;
   - qadriyatlarni;
   - loyiha maqsadli auditoriyasiga xos tasavvurlarni.
4. O'xshash (identik) xarakteristikalarni qiyoslash. To'liq mos kelganda bosh brend va qisman o'xshashlik bo'lganida yangi brendlarni yaratish uchun.
5. 4 bosqichda aniqlangan tavsiflarga tayanib, loyihaning aniq vazifalariga urg'u bergan holda – mohiyat, qadriyatlar va shaxs xususiyatlaridan kelib chiqib, brend o'xshashligi (identikligi) ko'riladi.
6. Loyihaning noyob vazifalari va brend o'xshashligiga asoslanib, brendni qisman o'zgartirish ta'riflanadi.
7. Anketalashtirish, fokus-guruhlar va h.k.lar yordamida olingan natijalar tekshiriladi.

Bu metodika iste'molchi psixologiyasini idrok qilish jarayonida xatolar ko'lami va sonini qisqartiradi. Zamonaviy brend-menejmentda qo'llanilayotgan algoritmlardan farqli tarzda, buning farqi – psixologik tarkibining sotsiodemografik ma'lumotlar bilan boyitilganidir.

Bunday algoritmni qo'llash, shubhasiz, har qanday brendni yaratishda yoki rebrendingni rejalashtirishda foydali bo'ladi. Ba'zan, brendingda a'lo natijaga erishish intuitiv yo'l bilan ham amalga oshadi. Biroq, yuqoridagi metodika iste'molchi psixologiyasini to'g'ri idrok etishda va brendni boshqarishda aniq va ishonchli natijalarga xizmat qiladi.

Iste'molchi psixologiyasiga ta'sir o'tkazishning keyingi usuli – bu axborotni vizual, tovushli va boshqa ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatadigan maxsus "I-stop" uslubi, bu kontent bilan ma'lumotlarni olish uchun maxsus harakatlar bilan shug'ullanish.

O'z-o'zini anglash – shaxsning ichki tuzilishi, faol xotiraning bir qismi sifatida o'zini kundalik hayotda boshqarishni o'z ichiga oladi. Asosiy sabab – obrazning uyg'unligi uchun ideal, real, vaziyatli, umumlashtirilgan "I" ga nisbatan o'z nuqtayi nazarini kengaytirish. Bundan tashqari, amerikalik tadqiqotchi M.K. Malxotraning fikriga ko'ra, faol hayot kechirish, obyektning o'zini tushunish jarayonida tovarlar uyg'unlikni saqlash va

noqulaylikni bartaraf etish uchun yaratilgan obrazga muayyan hissa qo‘shadi, inson o‘zining "ideal"ini yaratadi. O‘z-o‘zini anglashning bir qator tushunchalari mavjud:

- odamning dunyoqarashi, o‘ziga bo‘lgan hurmati va o‘ziga xos qiyofasi bilan aniqlangan "men" tushunchasi;
- mukammal taqdimot (bu motiv ko‘pincha reklamada foydalaniladi);
- iste’molchi o‘zini qanday ko‘rishni istayotganini tushuntirib beradigan taqdimot.

Xulosa. O‘z-o‘zini idrok qilish odatda boshqalar bizni qanday idrok qilganiga qarama-qarshi bo‘ladi. Masalan, oq soch rahbarlik, hukmronlik belgisi sifatida idrok etilishi, aksincha, o‘z qarindoshlarini idrok qilishda donolik va vakolatni anglatishi mumkin. Mahsulotlar faqat iste’molchi tomonidan narxlanishiga oid ma’lumotlarni taqdim etmaydi, balki uning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Tovar imidji – bu individual va o‘ziga xos xususiyatlar haqidagi tushunchalar, iste’molchilarning xohishlari, o‘ziga xos xususiyatlari va ulardan foydalanishni belgilaydi.

Iste’molchilarning xulq-atvorini o‘rganish uchun biz rossiyalik psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi so‘rov metodikasini taklif qilamiz. (1-ilova).

Xulosa shuki, iste’molchini to‘g‘ri idrok etish, uning xulq-atvorini baholash, dasturlash va nazorat qilish marketingning eng muhim funksiyasidir. Iste’molchilarga mahsulot taklif qilish bo‘yicha yangi imkoniyatlar ochish, iste’molchi talablarini shakllantirish imkoniyati, ular uchun imtiyozlar yaratilishi samarali marketingning asosiy muammosidir.

1-ilova.

Iste’molchi psixologiyasini o‘rganish testi:

1. Iste’molchi xulq-atvorining ichki omillari:
   a) motivatsiya; hissiyotlar, hayot tarzi;
   b) bilim va munosabat;
   c) shaxsiy xususiyatlar, namunaviy guruhlar;
   d) hislar, o‘rganish, xotira;
   e) millatning madaniyati, submadaniyat.
2. Tovarlarni xaridorning ishlab chiqarish maqsadidagi xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar:
   a) atrof-muhit; d) pedagogik;
   b) individual; e) tashkiliy;
   c) demografik; e) shaxslararo.
3. Foizlarni ko‘rsatadigan va daromad va ma’lum bir mahsulot yoki xizmatga ega bo‘lgan xaridorlar to‘plami – bozor:
   a) iqtisodiy jihatdan qulay; c) maqsad;
   b) malakali; g) o‘zlashtirildi.
4. Ma’lum bir mahsulot yoki xizmat bilan bog‘liq ravishda daromad olish, foydalanish huquqi va foydalanish huquqiga ega bo‘lgan xaridorlar to‘plami – bozor:
   a) iqtisodiy jihatdan qulay; c) maqsad;
   b) malakali; g) o‘zlashtirildi.
5. Kompaniyaning o‘z harakatlarini boshqarishga qaror qilgan malakali bozorning bir qismi – bozor:
   a) maqsad; c) iqtisodiy jihatdan qulay;
   b) malakali; g) o‘zlashtirildi.
6. Ma’lum bir mahsulotni yoki xizmatni sotib olgan xaridorlar to‘plami – bozor:
   a) maqsad; c) iqtisodiy jihatdan qulay;
   b) malakali; g) o‘zlashtirildi.
7. Motivatsiya, fikr va qarashlar iste’molchilarning xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi omillar guruhiga kiradi:
   a) psixologik; v) ijtimoiy;
   b) madaniy; g) iqtisodiy.
8. Savdogar uchun iste’molchilarning xulq-atvori haqida qanday bilimlar zarur:
   a) bozor segmentatsiyasi;
   b) marketing xizmatining tarkibini ishlab chiqish;
   c) bozor imkoniyatlarini tahlil qilish;
   d) korporativ madaniyatni shakllantirish;
   e) raqobatchilarning fayllarini tuzish.
9. Iste’molni sotib olish xatti-ta’siriga ta’sir qiluvchi madaniy omillar quyidagilardir:
   a) ijtimoiy sinf; d) submadaniyat;
   b) namunaviy guruh; d) qarashlar va fikrlar.
   c) shtorm;
10. Submadaniyat – bu odamlar guruhi:
   a) taxminan bir xil manfaatlarga ega;
   b) muayyan qadriyatlarga rioya qilish;

v) muayyan turmush tarzi bilan tavsiflanadi;
g) musiqa, kiyim-kechak, rasm va hokazolarning muayyan an'analarini qo'llab-quvvatlash.

11. Bir xil ijtimoiy mavqei, xulq-atvori va qiymat tizimiga ega bo'lgan barqaror va tartibli jamiyat guruhi:
a) submadaniyat; d) kerakli jamoa;
b) ijtimoiy sinf; e) xodimlar.
c) fokus guruhi;

12. Mijozlarning xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar quyidagilardir:
a) oila; g) bir guruh;
b) sotib olishning roli; e) shtrom;
v) oilaviy hayot aylanish bosqichi; e) iqtisodiy ahvol.

13. Mijozlarning xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi shaxsiy omillar quyidagilardir:
a) iqtisodiy vaziyat; d) submadaniyat;
b) o'zini o'zi hurmat qilish; e) turmush tarzi;
c) status; e) madaniyat.

14. Atrof-muhit omillariga doimiy va takrorlanuvchi insoniy javoblarni aniqlaydigan noyob psixologik xususiyatlar to'plami:
a) turmush tarzi; g) o'z-o'zini anglash;
b) shaxsning turi; e) uslub.
v) rol.

15. Shaxsning psixologik omillari:
a) madaniy; v) shaxsiy;
b) ijtimoiy; g) psixologik.

16. Iste'molchi keng tarqatiladigan va arzon bo'lgan mahsulotlarga imtiyoz beradi tamoyili nimaga asoslangan:
a) mahsulotni takomillashtirish;
b) marketing bo'yicha tahlil;
c) ijtimoiy va axloqiy marketing;
d) tijorat harakatlarining kuchayishi;
e) ishlab chiqarishni takomillashtirish.

17. Iste'molchining tovarlarga ustunlik berishini bildirishiga asoslanib, sifati, xususiyatlari doimiy ravishda takomillashtirilishi konsepsiyasiga asosan:
a) mahsulotni takomillashtirish;
b) marketing bo'yicha marketing;
c) ijtimoiy va axloqiy marketing;
d) tijorat harakatlarining kuchayishi;
e) marketing.

18. Iste'molchilar kompaniya tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni faol ravishda xarid qilmasligiga asoslanadigan, tovarni bozorga kengaytirish va keng miqyosda sotish bo'yicha maxsus choralar ko'rish tamoyili:
a) mahsulotni takomillashtirish;
b) marketing bo'yicha marketing;
c) ijtimoiy va axloqiy marketing;
d) tijorat harakatlarining kuchayishi;
e) marketing.

19. Iste'molchilar shu kabi mahsulotni iste'mol qilishga ko'proq mos kelishi, ammo ma'lum bo'lgan mahsulotlardan farqli o'laroq mahsulotlarni sotib olishdan ko'ra boshqa turdagi tovarlarga o'tishga moyilligini aniqlash nazariyasi:
a) Freydning motivatsiyasi; d) o'rganish;
b) o'z-o'zini anglash; e) Maslouning motivatsiyasi.
c) tanlangan e'tibor;

20. Televizor sotib olayotganda xaridor quyidagilarni boshdan kechiradi:
a) tovar tanlash va brendni tanlash bo'yicha referent guruhning kuchli ta'siri;
b) tovarni tanlash bo'yicha referent guruhning zaif ta'siri va tovar belgisini tanlashga kuchli ta'sir;
c) tovarni tanlash bo'yicha referent guruhning kuchli ta'siri va tovar belgisini tanlashga guruhning zaif ta'siri;
d) tovar tanlash va brend tanlashga mos yozuvlar guruhining zaif ta'siri;
e) Malumot guruhi tovar va savdo belgilarini tanlashga ta'sir qilmaydi.

21. Iste'molchi xarid qilish bo'yicha qarorlarni qabul qilish jarayonining barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi:
a) har doim;
b) faqat xizmatlarni sotib olishda;

v) unga yangi mahsulotni sotib olishda;
d) unga yangi mahsulotni sotib olishda;
e) mahsulotni yangi joyga sotib olishda;
e) boshqa brendning o‘xshash mahsulotini sotib olishda.

22. Buyurtma qilish istagi omili:
a) boshqa odamlar munosabati;
b) o‘quv jarayoni;
v) kutilmagan holatlar;
g) o‘z-o‘zini anglash.

23. Kompaniyani mahsulotning texnik xususiyatlari va xarid jarayonini belgilaydigan bosqichi:
a) xarajatlar tahlili;
b) ehtiyojning tavsifi;
c) mahsulotning xususiyatlarini baholash;
d) ehtiyojning xabardorligi;
e) takliflar bo‘yicha so‘rov.

24. Xaridor va sotuvchi o‘rtasida xaridlarni yetkazib shartlari o‘zgarishi bilan kechuvchi savdo turi:
a) normal qayta; v) yangi;
b) o‘zgartirilgan qayta; g) kompleks.

25. Biror mahsulot yoki xizmatni sotib olishni taklif etadigan birinchi shaxs ...
a) tashabbuskor; d) foydalanuvchi;
b) nufuzli shaxs; e) maslahatchi.
c) xaridor.

Ijobiy javoblar 50 foizdan oshishi o‘tish ko‘rsatkichi bo‘ladi.

Xulosa shuki, iste’molchini to‘g‘ri idrok etish, uning xulq-atvorini baholash, dasturlash va nazorat qilish marketingning eng muhim funksiyasidir. Iste’molchilarga mahsulot taklif qilish bo‘yicha yangi imkoniyatlar ochish, iste’molchi talablarini shakllantirish imkoniyati, ular uchun imtiyozlar yaratilishi samarali marketingning asosiy muammosidir.

Adabiyotlar

1. Р. Блэквелл, П. Миниард, Дж. Энгель. Поведение потребителей. М., 2007. С. 944.
2. Дубровин И.А. Поведение потребителей. Учебное пособие. Москва, Издательско-Торговая Корпорация «Дашков и К», 2012. С. 312.
3. Набочный сборник // Теория и технология. Кривова А.В. Психология Потребителей: Яркость Самости и Марка IX. Санкт-Петербургский государственный университет бизнеса и экономики (СПб ГУСЭ). С.27.
4. Кривова А.В. Психология Потребителей: Яркость Самости и Марка IX. // Теория и технология. Санкт-Петербургский государственный университет сервиса и экономики (СПбГУСЭ), 2006. 270-с.

UDK: 370.153.2

TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

M. Zakirova, N. Djuxonova
Farg‘ona davlat universiteti
noxida88@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik mexanizmlari va unga ta’sir qilish omillari yoritilgan

Kalit so‘zlar: ruhiy inqiroz, millat genefondi, “oilaviy submadaniyatni tashkillashtirish”, “xujayin”, “jinsiy munosabatlardagi sheriklik”.

Этнопсихологические особенности подготовки студенток к семейной жизни

Аннотация. В данной статье раскрываются этнопсихологические механизмы готовности студенток к семейной жизни и факторы, влияющие на нее.

Ключевые слова: душевный кризис, генофонд нации, «организация семейной субкультуры», «хозяин», «половой партнёр».

Etnopsychological peculiarities of preparing student girls for family

Abstract. In this paper, ethnic psychological mechanism of preparing student girls for family and influencing factors are given.

Keywords: spiritual crisis, genetic fond of nationality, organizing family subculture, husband, cooperation in sexual relationship.

Xalqimiz hayotimizni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yangilash dasturini bajarishda yoshlarning imkoniyatariga umid bilan qaramoqda. Negaki, "... biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odam boshqalarga foydasi tegadi, birovdan aldanib qolmaydi. Shu bilan birga, boshqalarga ortiqcha yuk ham bo'lmaydi. U har bir narsani aql va mantiq, adolat tarozisiga solib ko'radi. O'z fikri – o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi". Mamlakatimizda intellektual salohiyatni rivojlantirishning manbalari, xususan, oila – iste'dodli yoshlarni voyaga yetkazish va tarbiyalashning muhim o'chog'i sanaladi. Chunki, yosh avlod o'z hayoti yo'lida oilani kamolot beshigi, deb hisoblanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulika, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Talaba deganda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va mutaxassislikka oid rollarni muayyan qoida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh tushuniladi. Talabalik davri o'spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib, 17−22 (25) yoshni o'z ichiga oladi va o'zining qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan xarakterlanadi. Shu boisdan o'spirinlik davri shaxsning ijtimoiy hamda kasbiy mavqeini anglashidan boshlanadi. Mazkur pallada o'spirin o'ziga xos ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshidan kechiradi, jumladan, kattalarning har xil ko'rinishdagi (unga yoqish yoki yoqmasligidan qat'iy nazar) rollarini tez sur'atlar bilan bajarib ko'rishga intiladi, turmush tarzining yangi jihatlariga ko'nika boshlaydi. Katta odamlarning turmush tarziga o'tish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog'liq ichki qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida aytilgan ichki va tashqi vositalar, omillar ta'siri oqibatida uning ruhiy dunyosida umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, ya'ni istiqbolga ishonchsizlik, ikkilanish, hadiksirash kabi salbiy his-tuyg'ular namoyon bo'ladi. Bizningcha, oliy maktabda tarbiya (ijtimoiy tarbiya) ishlarini rejalashtirishda, ta'lim jarayonida talabaga o'ziga xos munosabatda bo'lish mazkur davrning muhim shartlaridan biridir. B.G.Ananev rahbarligida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlaridan ma'lum bo'lishicha, talabalar kamol topishining jinsiy va neyrodinamik xususiyatlari ularning aqliy imkoniyatlarini to'la ishga solish va sermahsul o'quv faoliyatini tashkil qilish uchun muhim imkoniyat, shart-sharoit yaratadi. Yu.A.Samarinning ta'kidlashicha, yoshlarning kamol topishida har xil ijtimoiy-psixologik xususiyatli o'ziga xos qarama-qarshiliklar, ichki ziddiyatlar mavjud bo'ladi. Ularning moddiy jihatdan ota-onaga, oliy o'quv yurti ma'muriyatiga bog'liqligi iqtisodiy ziddiyatni keltirib chiqaradi. Bu hol talabalarning xohishlari bilan mavjud imkoniyatning nomutanosibligi tufayli yuzaga keladi. Odatda talabalar II va III kurslarda oliy o'quv yurti va mutaxassislikni to'g'ri tanlagani haqida yana jiddiy o'ylaydilar. Mazkur yosh davrida o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari, ijodiy tafakkur, muayyan hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilimlarni tartibga solish asosida his-tuyg'ular, qarashlar, axloqiy qadriyatlar, o'zligini anglash va barqaror e'tiqod shakllanadi.

Mamlakatimizda ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalashning muvafaqqiyat bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligining asosiy sharti uning konsepsiyasini mukammal ishlab chiqilganligi xalqaro hamjamiyat tomonidan millat genefondini sog'lomlashtirishning o'zbek moduli yaratildi deb e'tirof etilishi I.Neya tomonidan ishlab chiqilgan "Oilada rollarning taqsimdanishi metodikasi" sinaluvchi (talaba)ni oila-nikohga nisbatan ustanovkasining amaliyot xususiyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi. Metodika 21ta savoldan iborat. Metodikani Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti "Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi" yo'nalishi 2 va 3-kurs talabalarida 2018-yil oktyabr – noyabr oylarida o'tkazdik. Metodikada bolalar tarbiyasi, oiladagi emotsional muhit, oilani moddiy jihatdan ta'minlanganligi, sayr-tomoshalarni tashkillashtirish, "xujayin", "uy bekasi" rollari, jinsiy munosabatlardagi sheriklik, oilaviy submadaniyatni tashkillashtirish kabi guruhlarga bo'lib o'rganiladi. Belgilangan guruhlar bo'yicha eksperimentda qatnashgan talabalardan 60 tasi 2-kursni, 60 tasi 3-kursni tashkil qildi. "Oilada rollarning tasimlanishi metodikasi" ilmiy tahlilni osonlashtirish maqsadida, oilada rollarning taqsimlanishi savollarini quyidagi yetti guruhga bo'lib o'rgandik. 2018-yil oktyabr holati natijalari:

1."Bolalar tarbiyasi" guruhiga 2-kurs talabalaridan 32 nafari, 3-kurs talabalaridan 40 nafari:

2. "Oiladagi emotsional muhit" guruhiga. 2-kurs talabalaridan 40 nafari, 3-kurs talabalaridan 42 nafari:

3."Oilani moddiy jihatdan ta'minlanganligi" 2-kurs talabalaridan 32 nafari, 3-kurs talabalaridan 30 nafari:

4."Sayr-tomoshalarni tashkillashtirish" 2-kurs talabalaridan 18 nafari, 3- kurs talabalaridan 28 nafari:

5."Xujayin", "uy bekasi" rollari" 2-kurs talabalaridan 12 nafari, 3-kurs talabalaridan 20 nafari:

6.“Jinsiy munosabatlardagi sheriklik” 2-kurs talabalaridan 12 nafari, 3- kurs talabalaridan 20 nafari:

7.“Oilaviy submadaniyatni tashkillashtirish” 2-kurs talabalaridan 12 nafari, 3-kurs talabalaridan 22 nafari:

Kursi	“Bolalar tarbiyasi”	“Oiladagi emotsional muhit	“Oilani moddiy jihatdan ta’minlanganligi”	“Sayr-tomoshalarn tashkillashtirish”	“Xujayin ”, “uy bekasi” rollari	“Jinsiy munosabatlar dagi sheriklik”	“Oilaviy submadaniyatni tashkillashtirish”
2-kurs	32	40	32	18	12	12	12
3-kurs	40	42	30	28	20	20	22

2-kurs



3-kurs



2018 -yil noyabr holati natijalari:

1. “Bolalar tarbiyasi” guruhiga 2-kurs talabalaridan 36 nafari, 3-kurs talabalaridan 42 nafari:
2. “Oiladagi emotsional muhit” guruhiga. 2-kurs talabalaridan 42 nafari, 3-kurs talabalaridan 45 nafari:
3. “Oilani moddiy jihatdan ta’minlanganligi” 2-kurs talabalaridan 34 nafari, 3-kurs talabalaridan 35 nafari:
4. “Sayr-tomoshalarni tashkillashtirish” 2-kurs talabalaridan 20 nafari, 3- kurs talabalaridan 30 nafari:
5. “Xujayin”, “uy bekasi” rollari” 2-kurs talabalaridan 16 nafari, 3-kurs talabalaridan 24 nafari:
6. “Jinsiy munosabatlardagi sheriklik” 2-kurs talabalaridan 16 nafari, 3-kurs talabalaridan 24 nafari:
7. “Oilaviy submadaniyatni tashkillashtirish” 2-kurs talabalaridan 16 nafari, 3-kurs talabalaridan 26 nafari:

Kursi	“Bolalar tarbiyasi”	“Oiladagi emotsional muhit”	“Oilani moddiy Jihatdan ta’minlanganligi”	“Sayr-tomoshalarni tashkillashtirish”	“Xujayin”, “uybekasi rollari”	“Jinsiy munosabatlardagi sheriklik”	“Oilaviy submadaniyatni tashkilashtiish”
2-kurs	36	42	34	20	16	16	16
3-kurs	42	45	35	30	24	24	26

2-kurs



3-kurs



Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bolalar tarbiyasi, oiladagi emotsional muhit, oilani moddiy jihatdan ta'minlanganligi, sayr-tomoshalarni tashkillashtirish, "xujayin", "uy bekasi" rollari, jinsiy munosabatlardagi sheriklik, oilaviy submadaniyatni tashkillashtirish kabi nozik va e'tiborli jihatlarga mas'uliyat bilan yondoshish kerakki, bular kelajagimiz uchun foydadan xoli emas.

Demak shuni xulosa qilish mumkinki, talaba yoshlarimiz oilada rollar taqsimotida bolalar tarbiyasiga, oiladagi emotsional muhitga e'tiborni yuqori qaratishi, oilani moddiy jihatdan ta'minlashga, sayr-tomoshalarni tashkillashtirish, "xujayin", "uy bekasi" rollariga o'rtacha nazar bilan qarashi, jinsiy munosabatlardagi sheriklik munosabatlariga, oilaviy submadaniyatni tashkillashtirish masalalariga yetarli bilimga ega emasliklari aniqlandi. Talabalar bilan "Oilaviy munosabatlar", "Oilaviy madaniyat", "Oilada bola tarbiyasi","Oilada ma'daniy hordiq" kabi mavzularda davra suhbatlar, tarbiyaviy tadbirlar, munozaralar o'tkazish lozimligi aniqlandi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: O'zbekiston, 1997. - 64 b.
2. Karimov I. A.Yuksak a'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. - 173b.
3. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: "Universitet", 2007, 339 betlar.
4. Inamova M.O. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Diss., ...ped,fan,doktori, -T., 1998 -316 b.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. *Maqolada quyidagi bandlar*: UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC REPORTS**

Mas'ul kotib	**X.Sh.Tashpulatov**
Musahhih	**O. Ro'ziboyev**
Texnik muharrir	**S. D. Aronbayev**

Muharrirlar:

E. U. Arziqulov	- f.-m.f.n., dotsent
O. R. Raxmatullayev	- geogr.f.n., dotsent
N. U. Arabov	- i.f.d., professor
B. S. G'oyibov	- t.f.n., dotsent
I.Sulaymonov	- f.f.n., dotsent
A.I.Inatov	

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev	- k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov	- f.-m.f.n.
R.Toshquvatova	- fals.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 24.02.2020 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 02/24. Adadi 500 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.